



Farida ABDUVALIYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: faridaabduvaliyeva57@gmail.com

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi, PhD F.Xusanova taqrizi asosida

TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH CULTURE IN THE PUPILS OF THE PREPARATORY GROUP IN THE MULTIMEDIA MEDIUM

Annotation

This article discusses the development of speech culture in preschool children using multimedia tools. This article discusses the theory of developing speech culture using multimedia in preschool groups

Key words: Cognitive load theory, immersive technology, multimedia games, team development, multimedia programs, interactive testing.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ У ВОСПИТАННИКОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ В МУЛЬТИМЕДИЙНОЙ СРЕДЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы развития культуры речи у детей дошкольного возраста с использованием мультимедийных средств. Также обсуждается теория развития культуры речи с применением мультимедиа в дошкольных группах. Рассматриваются пути достижения эффективных результатов за счет внедрения мультимедийных средств в подготовительные группы, привлечения внимания воспитанников и интеграции методов занятий.

Ключевые слова: Теория когнитивной нагрузки, иммерсивные технологии, мультимедийные средства, командные разработки, мультимедийные программы, интерактивное тестирование.

MULTIMEDIA VOSITASIDA TAYYORLOV GURUHI TARBİYALANUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada multimedia vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari bayob etilgan. Shuningdek, tayyorlov guruhlarida multimedia vositalarini qo'llash orqali samarali natijalarga erishish yo'llari, tarbiyalanuvchilarning diqqatini jalb qilish bilan birga mashg'ulot usullarini integratsiya qilish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kognitiv yuklama nazariyasi, immersiv texnologiyalar, multimedia vositalari, jamoaviy mashg'ulot ishlanmalari, nutq, ko'nikma, interaktiv test.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq madaniyatini rivojlantirish ularning shaxsiy rivojlanishi va kelajakdagi ta'lim jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarning nutqi faqat grammatik to'g'rilik bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq, ravon va muloqot madaniyatiga mos tarzda ifodalanishi zarur. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, multimedia vositalari bu jarayonni samarali tarzda qo'llab-quvvatlaydigan vosita sifatida ishlatilmoqda.

Multimedia texnologiyalari bolalar uchun eshitish, ko'rish va harakat orqali ma'lumotlarni yanada samarali tarzda qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Turli interaktiv o'yinlar, audio va video materiallar hamda vizual ko'rgazmalar bolalarni nutqiy faollikka jalb qiladi [1]. Ayniqsa, tayyorlov guruhidagi bolalar uchun multimedia vositalaridan foydalanish nafaqat qiziqarli, balki ularning nutqini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutq madaniyatini rivojlantirish o'qituvchining muhim vazifalaridan biridir. Bu masala bo'yicha M.I. Gurevich, L.S. Vygotskiy, V.I. Shakhov va boshqa pedagoglarning ishlarida nutq madaniyati shakllantirishga bo'lgan yondashuvlar aniq ifodalangan. Gurevich va Vygotskiy nutq madaniyatining rivojlanishini muloqot jarayonida uning o'zaro aloqadorligini ta'kidlaydilar. Raqamli vositalar, audiovizual materiallar, interaktiv dasturlar va internet resurslari o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda keng qo'llaniladi. O'zbekistonda bu texnologiyalar o'qituvchilarni metodik jihatdan o'qitish uchun samarali vositalar sifatida qaralmoqda. H.S. Sultonova va S.Q. Boboyev kabi mualliflar o'z asarlarida multimedia texnologiyalarining ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydilar. A.A. Abdullayev va A.Z. Mirzaeva o'z asarlarida interaktiv

texnologiyalarni o'quvchilarning tilni o'rganishdagi faoliyatini oshirishda qo'llashni tavsiya etadilar [6]. Ular interaktiv texnologiyalar yordamida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning samarali usullarini taqdim etadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalar nutq madaniyatini rivojlantirish samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bu jarayon pedagoglar va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv tamoyillari va metodikalarga asoslanadi.

Maktabgacha tayyorgarlik bosqichida nutqning vaqtida rivojlanishi juda muhim omil hisoblanadi. Nutqni shakllantirish bolaning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tayyorlov tarbiyalanuvchisi o'zining hissiy rivojlanishini, boshqalar bilan hissiy munosabatlarni tushunish qobiliyatini, shuningdek, hissiy holatlarni og'zaki va tashqi ifodalash orqali namoyon etishni o'rganadi [3].

Bolalar o'yinlari, video va audio materiallar yordamida nutq madaniyatini yanada boyitish va rivojlantirish mumkin.

Bugungi kunda texnologiyaning tez rivojlanishi pedagogik jarayonga yangi imkoniyatlar kiritmoqda. Ayniqsa, multimedia vositalari – audio, video, animatsiya, interaktiv ilovalar va o'yinlar yordamida ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Ushbu texnologiyalar bolalarning eshitish, ko'rish va harakat orqali o'rganish qobiliyatlarini kengaytiradi. Multimedia asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi: So'z boyligini oshirish

- Gap tuzish va aniq ifodalash;
- Tovushlarni to'ri talaffuz qilish;
- Muloqotda faol ishtirok etish.

Nutqni rivojlantirish, psixologiya va pedagogika jarayonlarining natijasi bo'lib, bu bolalarning intellektual va ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Nutqni o'stirishning asosiy vazifalaridan biri – leksik va grammatik tizimning shakllanishidir. Maktabgacha ta'lim bosqichida bo'lgan bolalar uchun, ularning lug'ati deyarli to'liq rivojlangan bo'lishi kerak. Bunday yoshdagi bolalar, kattalar va tengdoshlarining tilini erkin tushunib, o'z fikrlarini aniq ifodalashga qodir bo'ladi.

Nutq ko'nikmalarining bolaning shaxsiyati va dunyoqarashi shakllanishida beqiyos o'rni bor. Nutq nafaqat his-tuyg'ularni ifodalash, balki atrof-muhitni tushunish va unga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ham ishlatiladi. Bu esa bolalarning boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilishini, o'zaro munosabatlarini mustahkamlashini ta'minlaydi, shuningdek, ularning intellektual salohiyatini oshiradi.

Bunday ijobiy natijalarga erishish uchun esa faqat klassik metodlar va texnikalarni qo'llash yetarli emas. Dars jarayonida innovatsion va noan'anaviy yondoshuvlar ham qo'llanilsa, yanada samarali natijalar olinadi.

Mediali o'yinlar bolalarning bilimlarini mustahkamlashda mashg'ulotlardan tashqari samarali vosita bo'lib, aqliy rivojlanishda tengdoshlaridan oldinda yoki orqada qolgan bolalar bilan individual darslarda qo'llanilishi mumkin. Bu o'yinlar intellektual faoliyat uchun zarur bo'lgan idrok, e'tibor, xotira, fikrlash va nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Kompyuter dasturlari bolalarni mustaqillikka o'rgatib, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi [5]. Yosh bolalar uchun vazifalarni bajarishda qo'shimcha yordam va ularning harakatlarini bosqichma-bosqich tasdiqlash talab etiladi, bu esa tarbiyachilarga boshqa bolalar bilan ishlashda vaqtini tejash imkonini beradi.

Doimiy innovatsiyalar, professional o'sish va ilmiy tadqiqotlar orqali multimedia vositalarining maktabgacha ta'limdagi ta'sirini yanada kuchaytirish mumkin. Tadqiqot jarayonida bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia vositalarining samaradorligini aniqlash uchun quyidagi ilmiy usullar qo'llaniladi:

Mashg'ulotlar davomida bolalar nutqiy faolligi, so'z boyligi va ifoda qobiliyatlari kuzatiladi. Mashg'ulotlar boshlanishidan oldin va oxirida nutqiy rivojlanish darajasi solishtiriladi. Tayyorlov guruhi bolalariga multimedia asosida maxsus mashg'ulotlar tashkil etilib, sinovlar o'tkaziladi [5]. Eng samarali usullar tanlab olinib, maqsadga erishish uchun foydalaniladi. Bunday sinovlar to'rt hafta davomida o'tkazilib, har hafta yangi interaktiv o'yinlar, audio hikoyalar va video darslar asosida mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Tadqiqot jarayonida tayyorlov guruhi bolalari uchun multimedia vositalari asosida maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bunday mashg'ulotlarda quyidagi vositalardan foydalaniladi.

Interaktiv o'yinlar bolalarning nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, "So'z top" o'yini bolalarga rasm asosida so'zlar topish topshiriqlarini beradi. "Hikoya tuz" o'yinida esa bolalar ketma-ket joylashtirilgan rasmlar orqali hikoya yaratadilar. "Tez aytish" o'yini bolalarning talaffuzini tezlashtirishga yordam beradi.

Audio va video materiallar orqali bolalarga qisqa hikoyalar, ertaklar eshittiriladi, shuningdek ta'limiy multfilmlar ko'rsatiladi, ular asosida savol-javob faoliyatlari tashkil etilishi mumkin.

Multimedia o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Nutqni rivojlantiruvchi o'yinlar: "Ranglarni top": Interaktiv dastur yordamida bolalar ranglarni nomlashni va ularni boshqa so'zlar bilan bog'lashni o'rganadilar. "Rasmga qarab gapir": Bolalarga surat yoki animatsiyalar ko'rsatiladi va ular o'z fikrlarini aytib beradi. "Qaysi so'z ortiqcha?": Bolalar mantiqiy fikrlash va to'g'ri so'z birikmasini shakllantirish ko'nikmasini rivojlantiradi. Audio o'yinlar: Ovozlarni ajratish va so'z boyligini oshirishga qaratilgan o'yinlar (masalan, "Tabiat ovozlari tani").

Jamoaviy ishlanmalar bolalar o'rtasida fikr almashish va muloqotga kirishishda muhim ahamiyatga ega. Teatrlashtirilgan mashg'ulotlar orqali ertaklar va hikoyalarni multimedia yordamida sahnalashtirib, bolalarning so'zlashuv nutqini

rivojlantirishga erishilgan. Guruhli bahs va subbatlar esa mavzuli multimedia resurslari asosida bolalar o'rtasida fikr almashishni ta'minlaydi.

Multimedia dasturlaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil qilish imkonini beradi. Pedagoglar, masalan, "Bolalar uchun interaktiv ta'lim" yoki "Nutq rivojlantirish uchun multimedia o'yinlari" kabi maxsus dasturlarni o'quv jarayonida qo'llashlari mumkin. Ba'zi pedagoglar esa o'z shaxsiy ishlanmalari sifatida rasm, ovoz va videolarni birlashtirgan taqdimotlar tayyorlab, bolalarning nutq rivojlanishiga yordam beruvchi maxsus materiallar yaratganlar.

Amaliy mashg'ulotlar ham muhim rol o'ynaydi. Bu mashg'ulotlarda bolalarga hayotiy vaziyatlar (masalan, do'konda xarid qilish, hayvonot bog'ida sayr qilish) ko'rsatiladi, va ular shu vaziyatlarga mos ravishda dialog tuzishadi. Interaktiv testlar va topshiriqlar orqali bolalar nutqiy xatolarni tuzatishga o'rganadilar.

Maktabgacha ta'limda ota-onalar bilan hamkorlikka alohida e'tibor berish zarur. Uyda multimedia vositalaridan foydalanish uchun ota-onalarga ko'rsatmalar berish, bolalar bilan interaktiv o'yinlar o'ynash va audio hikoyalarni tinglash orqali ularning yordamini olish muhim. Shuningdek, ota-onalar uchun multimedia vositalari yordamida bolalarning nutqini rivojlantirish bo'yicha seminarlar tashkil etilgan.

Multimedia vositalari bilan ishlashda tarbiyachi va mas'ul shaxslarning nazorati va kuzatuv juda muhimdir. Bolalarda so'z boyligi va jumalarni to'g'ri tuzish qobiliyatining oshgani kuzatilgan. Muloqotga kirishish va fikrlarni aniq ifodalashga bo'lgan qiziqish ortgan.

Bolalar multimedia vositalaridan mustaqil foydalanishni o'rganib, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tayyorlov guruhi bolalariga multimedia vositalari yordamida nutq madaniyatini shakllantirish ishlari ijobiy natijalarga olib kelgan. Bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish va pedagoglarning malakasini oshirish zarur.

Tahlil va natijalar. Multimedia vositalarining ta'lim jarayoniga kiritilishi, tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda aniq natijalarga olib keldi. O'tkazilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Nutq madaniyati ko'nikmalarining yaxshilanishi Multimedia vositalari yordamida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali natijalar kuzatildi. Interaktiv materiallar, audiovizual resurslar va talaffuz mashqlarini bajarishda multimedia vositalari yordamida nutqni aniq va to'g'ri ifodalashda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'quvchilarning muloqot qobiliyatining rivojlanishi Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va nutqiy ifodalarini rivojlantirishga yordam berdi. Interaktiv usullar va guruh ishlaridagi ishtirok, ularning nutq madaniyatini amalda oshirishga imkon yaratdi.

O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasining oshishi Multimedia vositalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi o'qituvchilarning pedagogik mahoratini yanada oshirdi. Ular multimedia texnologiyalarini samarali qo'llash orqali o'quvchilarga ko'proq tushunarli va qiziqarli ta'lim bera olishdi.

Ijodiy va mustaqil fikrlashning oshishi Multimedia vositalari o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashlarini rag'batlantirdi. O'quvchilar o'z nutqlarini yaratishda va tanqidiy fikr yuritishda ko'proq erkinlikni his etdilar, bu esa ularning nutq madaniyatini rivojlantirishga katta yordam berdi.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda multimedia vositalari juda samarali bo'lib, o'quvchilarning tilni aniq va to'g'ri ishlatish ko'nikmalarini oshiradi. O'quvchilar audiovizual materiallar, video darslar, va interaktiv mashqlar orqali talaffuzni to'g'ri ishlatishni, grammatikani va stilistikani o'zlashtirishni osonlashtiradilar. Bunda, o'quvchilar faqat nazariy bilimlarga ega bo'lib qolmay, balki amaliyotda ham o'z nutqlarini shakllantirishda o'zgarishlar kuzatildi.

Xulosa va takliflar. Multimedia vositalarining maktabga tayyorgarlikdagi qo'llanilishi kognitiv, lingvistik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun dinamik platforma yaratadi. Pedagogik va psixologik jihatlarni hisobga olish bolalarning

maktabdagi akademik va ijtimoiy muammolarga yaxshi tayyor bo'lishlarini ta'minlaydi. Maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuchilarining shakllangan nutqi sayqallanishida multimedia vositalaridan foydalanish talabi yuqori. Har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham zamonaviy texnologiyalar ajralmas bo'lak sifatida qaralmoqda. Multimedia vositalari

bolalarning tinglash, tushunish, gapirish va so'z boyligini oshirish jarayonlarida samarali natija beradi. Shuningdek, bu vositalar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, jonli va interaktiv shaklga olib keladi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirjalilova S., To'laganova R. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsifnoma. -2008.
2. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". Fan va texnologiya. -2017.
3. Babayeva D. R. "Bolalar nutqini o'stirish". "Barkamol fayz media" 2018.
4. Usmonova, D. (2021). "Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash metodikasi". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. Umarova, G., & Toshpo'latov, A. (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(10), 49–55. Извлечено
6. Kozlova S.A. (2018). Multimedia texnologiyalari asosida bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.



UDK:378.091.33:004.9:614.253.5

Ahrorjon ABDUMANONOV,
Central Asian Medical University tibbiyot universiteti dotsenti
E-mail: ahror79@inbox.ru
Hakimjon XANBABAYEV,
O'qon davlat pedagogika instituti professori

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori Ds. V.Jo'rayev taqrizi asosida

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotsatsiya

Maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining raqamli kompetentligini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, tibbiyot sohasi mutaxassislaridan yuqori darajadagi raqamli bilim va ko'nikmalarni talab qilmoqda. Tadqiqotda intellektual boshqaruv tizimlari tibbiyot ta'limida qo'llanilishi, ularning o'quv jarayonini optimallashtirish va talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirishdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli kompetentlik, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, tibbiyot, intellektual boshqaruv, axborot xavfsizligi.

IMPROVING DIGITAL COMPETENCE OF STUDENTS OF HIGHER MEDICAL EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

The article considers the issues of improving the digital competence of students of higher medical education institutions. Modern digital technologies have become an integral part of the educational process and require high-level digital knowledge and skills from medical professionals. The study analyzes the use of intelligent management systems in medical education, their role in optimizing the educational process and adapting it to the individual needs of students.

Key words: Digital competence, digital technologies, artificial intelligence, medicine, intelligent management, information security.

ПОВЫШЕНИЕ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы повышения цифровой компетентности студентов медицинских вузов. Современные цифровые технологии стали неотъемлемой частью образовательного процесса, требуя от медицинских работников высокого уровня цифровых знаний и навыков. В исследовании проанализировано использование интеллектуальных систем управления в медицинском образовании, их роль в оптимизации образовательного процесса и адаптации его к индивидуальным потребностям студентов.

Ключевые слова: Цифровая компетентность, цифровые технологии, искусственный интеллект, медицина, интеллектуальный менеджмент, информационная безопасность.

Kirish. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida muhim rol o'ynaydi va sog'liqni saqlash ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda ta'lim va tibbiyot sohalarining raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishi global tendensiyaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatda barcha sohalarni, xususan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini raqamlashtirishni jadallashtirishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, ta'lim jarayonlarini innovatsion yondashuvlar orqali takomillashtirish va talabalar kompetentligini oshirishni maqsad qiladi. Mazkur tadqiqot aynan shu maqsadlarga qaratilgan bo'lib, tibbiyot ta'limi jarayonida intellektual boshqaruv tizimlarining samaradorligini ilmiy asoslashga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli kompetentlik professional muammolarni hal qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish, bemorlar va hamkasblar bilan o'zaro aloqalar va uzluksiz o'z-o'zini o'qitish, malakasini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi [11]. Elektron sog'liqni saqlash yozuvlari, telemeditsina, qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari kabi tibbiyotga raqamli texnologiyalarni faol joriy etish tibbiyot mutaxassislaridan, shu jumladan kelajakdagi shifokorlardan yuqori darajadagi raqamli malakani talab qiladi [1].

Kelajakda shifokorlar, tadqiqotchilar yoki sog'liqni saqlash tashkilotchilariga aylanadigan tibbiyot universitetlari talabalarini tayyorlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Elektron sog'liqni saqlash yozuvlari, qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari, telemeditsina platformalari va sun'iy intellektga

asoslangan diagnostika tizimlari kabi zamonaviy tibbiy texnologiyalar mutaxassislardan raqamli vositalarni ishonchli egallashni talab qiladi [7].

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, tibbiyot universitetlari talabalarining raqamli kompetentlik darajasi ko'pincha zamon talabalaridan orqada qoladi [2] bu tibbiyotda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi, tibbiy yordam sifatini pasaytiradi va umuman sog'liqni saqlash rivojlanishini sekinlashtiradi [3, 19].

Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalariga asoslangan aqlli boshqaruv tizimlari o'quv jarayonini takomillashtirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi [14]. Ular ta'limni talabalarining individual ehtiyojlariga moslashtirishga, bilimlarni baholashni avtomatlashtirishga, shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berishga va o'qitish usullarini takomillashtirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishga imkon beradi. Bunday tizimlarni tibbiyot universitetlarining o'quv jarayoniga joriy etish kelajakdagi shifokorlarning raqamli kompetentlik darajasini oshirishning asosiy omili bo'lishi mumkin [17].

Shu munosabat bilan tibbiyot universitetlari talabalarining raqamli kompetentligini takomillashtirish muammosi juda dolzarb bo'lib, yangi, samarali echimlarni izlashni talab qiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bu kompetentlik nafaqat elektron resurslardan foydalanish, balki klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari, tibbiy ma'lumotlarni boshqarish hamda telemeditsina xizmatlaridan samarali foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar ta'lim

jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng qo'llashni tavsiya qilmoqda.

Intellectual boshqaruv tizimlari sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalarini o'z ichiga oladi [5]. Ularning tibbiyot ta'limiga integratsiyasi individual o'quv trayektoriyalarini yaratish, talabalar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish va baholash, raqamli platformalar yordamida interaktiv o'qitish, klinika va laboratoriya mashg'ulotlarini modellashtirish imkoniyatlarini beradi.

Tahlil va natijalar. Intellectual boshqaruv tizimlari asosida tibbiyot ta'limida innovatsion yondashuvlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Adaptiv o'qitish tizimlari: Har bir talabani individual ehtiyojlariga moslashgan o'quv jarayoni;

Tahliliy baholash tizimlari: Raqamli testlar va baholash algoritmlari orqali talabalar bilim darajasini obyektiv o'lchash;

Virtual va kengaytirilgan reallik: Amaliy mashg'ulotlarni simulyatsiya qilish orqali talabalar ko'nikmalarini oshirish;

Sun'iy intellekt asosida maslahat beruvchi tizimlar: Talabalar uchun shaxsiy o'quv yo'nalishlarini belgilash.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarining raqamli kompetentligini oshirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar taklif etiladi:

Modulli o'qitish: Raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olgan maxsus kurslar;

Gamifikatsiya: O'yin elementlari orqali o'quv jarayoniga qiziqishni oshirish;

Jamoaviy loyihalar: Raqamli texnologiyalar asosida ilmiy izlanish va tahlil ishlari olib borish;

Tizimli baholash va monitoring: Talabalarining raqamli kompetentligini doimiy ravishda nazorat qilish va takomillashtirish.

Tibbiyot universitetlari talabalarining raqamli kompetentligini takomillashtirishda axborot xavfsizligi muhim o'rin tutadi. Sog'liqni saqlash sohasida ishlov beriladigan ma'lumotlar maxfiy bo'lib, ularning himoyalangan bo'lishi shart. Xarqanda axborot tizimlarida bo'lgani kabi tibbiyot axborot tizimlari xam bir qator axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oladi. Bular bemorlar ma'lumotlarining maxfiyligi va himoyasi – bilamizki elektron tibbiy yozuvlar maxfiy bo'lib, ularning noqonuniy foydalanilishi bemorlarning shaxsiy hayotiga tahdid soladi va bunda ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish xavfi yuqori bo'ldi [22]. Kiberxavfsizlik tahdidlari - fishing (xavfli havolalar orqali ma'lumot o'g'irlash), zararli dasturlar (malware), va xakerlik hujumlari elektron tizimlarga zarar yetkazishi mumkin. Raqamli texnologiyalar joriy qilingan ta'lim muhitida xakerlik tahdidlari kuchayishi ehtimoli bor. Talabalar tomonidan xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik - kuchli parollar ishlatmaslik, ochiq Wi-Fi tarmoqlaridan foydalanish kabi oddiy xatoliklar axborot xavfsizligini zaiflashtiradi. Noqonuniy dasturlardan foydalanish yoki ma'lumotlarni noto'g'ri saqlash

kabi muammolar mavjud. Ma'lumotlar yo'qolishi va zaxira nusxalari bilan bog'liq muammolar - elektron hujjatlar va bemorlar haqidagi ma'lumotlar tasodifan o'chirilishi yoki yo'qolishi mumkin. Zaxira nusxalar yo'qligi ma'lumotlarning qayta tiklanishini imkonsiz qiladi [22].

Bu kabi muammolarni xal qilishda axborot xavfsizligini ta'minlashning ma'lumotlarni shifrlash - talabalariga elektron ma'lumotlarni shifrlash bo'yicha ko'nikmalarini shakillantirish kerak. Ikki faktorli autentifikatsiya – tibbiyot tizimlariga kirishda ikki faktorli autentifikatsiyani amalga oshirish ko'nikmalarini shakillantirish. Maxfiylik va xavfsizlik bo'yicha ko'shimcha kurslari tashkil qilish - talabalar uchun "Axborot xavfsizligi" bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish, kurslar doirasida xavfsiz parollar yaratish, fishing xurujlaridan saqlanish, zararli dasturlarni aniqlash va ma'lumotlarni himoya qilish usullari o'rgatish. Raqamli tizimlarning himoyalanganligini oshirish – axborot tizimlarida xavfsizlik devorlari (firewall), antivirus dasturlari va doimiy yangilanadigan himoya tizimlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakillantirish. Zaxira nusxalarini yaratish va tiklash mexanizmlari - talabalarining ma'lumotlarini avtomatik ravishda saqlaydigan zaxira tizimlari va ma'lumotlarni yo'qotishning oldini olish uchun muntazam ravishda zaxira nusxalarini yaratish bo'yicha ko'nikmalarini shakillantirish. Ma'lumotlarga ruxsat asosida kirish tizimi (Access Control) – axborot tizimlarida har bir foydalanuvchi faqat o'ziga tegishli bo'lgan ma'lumotlarga kira olishi, bemorlarning shaxsiy ma'lumotlarini faqat maxsus ruxsatga ega bo'lgan shaxslar ko'ra oladigan tizimlarda ishlash amaliyotini shakillantirish kerak.

Xulosa va takliflar. Intellectual boshqaruv tizimlari vositasida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining raqamli kompetentligini oshirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Keltirilgan innovatsion yondashuvlar va metodikalar talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga, ularning raqamli texnologiyalar bilan samarali ishlashiga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu tizimlarning yanada takomillashtirilishi va ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi istiqbollari o'rganilishi lozim. Talabalarini raqamli kompetentligini oshirishda tibbiyot universitetlarining ta'lim dasturlarini takomillashtirish, kelajakdagi shifokorlarni raqamli tibbiyot sharoitida ishlashga tayyorlash sifatini oshirish uchun ishlatiladi. Ta'lim samaradorligini oshirish va talabalarining raqamli kompetentlik darajasini nazorat qilish uchun ishlab chiqilgan intellektual boshqaruv tizimi tibbiyot universitetlarining o'quv jarayoniga kiritilishi mumkin. Talabalarining raqamli kompetentligini oshirishda axborot xavfsizligi muhim ahamiyatga ega. Elektron tibbiy yozuvlar, klinik axborot tizimlari va boshqa raqamli vositalardan xavfsiz foydalanish uchun talabalar xavfsizlik choralariga qat'iy rioya qilishi lozim. Shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya, maxsus o'quv kurslari va xavfsizlik devorlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakillantirish orqali talabalar axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ivanov I. I. Sog'liqni saqlash sohasidagi raqamli texnologiyalar. - M.: Tibbiyot, 2020. 250 s.
2. Petrov P. P. Tibbiy ta'limni axborotlashtirish. Spb.: Piter, 2018 yil. 180 s.
3. Karimov A. A. Tibbiyot universitetida o'qitishning zamonaviy usullari. - Toshkent: Tibbiyot, 2022. 150 s.
4. Smith J. Digital Literacy for Healthcare Professionals. – London: Elsevier, 2021. – 300 p.
5. Lee K. et al. Digital Competence Framework for Medical Students. – Journal of Medical Education, 2019. – Vol. 10. – P. 45-58.
6. Brown M. Challenges and Opportunities in Digital Health Education. – Academic Medicine, 2020. – Vol. 95. – P. 112-119.
7. Garcia L. A Model of Digital Competencies for Physicians. – Medical Informatics and Decision Making, 2021. – Vol. 20. – P. 78-85.
8. Wilson A. Developing an Intelligent Tutoring System for Medical Education. – Computers in Education, 2022. – Vol. 150. – P. 120-135.
9. Andreev, A. A. Ta'limdagi raqamli kompetentsiya: nazariya va amaliyot / A. A. Andreev. M.: "Nauka" Nashriyoti, 2019. 320 s.
10. Bepalko, V. P. Pedagogika va ilg'or o'qitish texnologiyalari / V. P. Bepalko. - M.: "Pedagogika" Nashriyoti, 2018. 256 s.
11. Gafurova, N. V. Ta'limdagi intellektual tizimlar: imkoniyatlar va istiqbollari / N. V. Gafurova // Ta'limdagi axborot texnologiyalari. — 2020. — № 4. 12-18 betlar.
12. Kuzmina, O. V. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: qiyinchiliklar va imkoniyatlar / O. V. Kuzmina // Ta'lim texnologiyalari. — 2021. — № 2. 45-52 betlar.
13. Robert, I. V. Ta'limni axborotlashtirish nazariyasi va metodikasi / I. V. Robert. - M.: "Akademiya" Nashriyoti, 2020. 400 s.
14. Smirnov, S. A. Ta'limdagi sun'iy intellekt: yangi ufqlar / S. A. Smirnov // Ta'limdagi Yangiliklar. — 2022. — № 3. 22-30 betlar.
15. Xutorskaya, A. V. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tarkibiy qismi sifatida asosiy vakolatlar / A. V. Xutorskaya // Xalq ta'limi. — 2018. — № 2. 58-64 betlar.

16. Sharikov, A. V. Raqamli kompetentsiya: tushunchasi, tuzilishi, diagnostikasi / A. V. sharikov // Psixologik fan va ta'lim. — 2020. — № 1. 15-25 betlar.
17. Polat E. S. "Ta'lim tizimidagi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari". Moskva, 2022 yil. ISBN (EAN): 978-5-7695-3468-3
18. Garrison D.R., Vaughan N.D. «Blended Learning in Higher Education». – San Francisco, 2023.
19. UNESCO. «Digital Competencies in Medical Education: Global Perspectives». – Paris, 2021.
20. Qayumova, N., & Eshmamatov, I. (2022). Tibbiyotda o'qitishning innovatsion texnologiyalari. in Library, 22(1), 1–2. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/13994>
21. Абдуманонов А. А. и др. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 11. – С. 13-17.
22. Карабаев М. К., Абдуманонов А. А. Алгоритмы и технологии обеспечения безопасности информации в медицинской информационной системе externet //Программные продукты и системы. – 2013. – №. 1. – С. 150-155.



UDK: 502.3(575.1)

Tuxtamish AZIZOV,

«ISFT» institutining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, professori

E-mail: azizovtuxtamish@gmail.com

Siyosiy fanlar doktori, professor N.Jo'rayev taqrizi asosida

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAVQULODDA EKOLOGIK VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING AMALDAGI HOLATINING TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlarining amaldagi holati tahlil qilingan. Tadqiqotda huquqiy-tashkiliy baza, tezkor javob berish tizimlari, resurslar taqsimoti va umumiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tizimning ayrim segmentlarida sezilarli yaxshilanish mavjud bo'lsa-da, qonunchilik va operatsion jarayonlardagi cheklolar tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur maqola ekologik xavfsizlikni ta'minlash va favqulodda vaziyatlarga samarali javob berish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha strategik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Favqulodda ekologik vaziyatlar, huquqiy-tashkiliy baza, tezkor javob, resurslar taqsimoti, ekologik xavfsizlik.

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ МЕХАНИЗМОВ ЛИКВИДАЦИИ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СИТУАЦИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье проведён анализ текущего состояния механизмов ликвидации чрезвычайных экологических ситуаций в Республике Узбекистан. Исследование охватывает оценку нормативно-правовой базы, оперативных систем реагирования, распределения ресурсов и общей эффективности функционирования системы. Результаты показали, что, несмотря на значительные улучшения в отдельных сегментах, ограничения в законодательных и операционных процессах продолжают оказывать влияние на эффективность системы. Статья содержит стратегические рекомендации по совершенствованию механизмов реагирования на чрезвычайные экологические ситуации и обеспечению экологической безопасности.

Ключевые слова: Чрезвычайные экологические ситуации, нормативно-правовая база, оперативное реагирование, распределение ресурсов, экологическая безопасность.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF EMERGENCY ENVIRONMENTAL RESPONSE MECHANISMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

This article presents an analysis of the current state of mechanisms for eliminating emergency environmental situations in the Republic of Uzbekistan. The study evaluates the legal and organizational framework, rapid response systems, resource allocation, and overall system effectiveness. The findings indicate that while significant improvements have been observed in certain segments, limitations in legislative and operational processes continue to affect system performance. The article provides strategic recommendations for enhancing emergency response mechanisms and ensuring environmental safety.

Key words: Emergency environmental situations, legal and organizational framework, rapid response, resource allocation, environmental safety.

Kirish. Favqulodda ekologik vaziyatlar – mamlakatimiz va butun dunyo uchun dolzarb muammo bo'lib, atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslarning noto'g'ri boshqarilishi sababli inson salomatligi hamda iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi hududida ham ekologik xavflarning ortishi bilan bog'liq holatlar kuzatilmoqda, shuning uchun favqulodda vaziyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarining samaradorligini baholash ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Ushbu tadqiqot maqolasining asosiy maqsadi – mamlakatimizda favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlarining amaldagi holatini chuqur tahlil qilish, tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va uni takomillashtirish uchun asosiy masalalarni ko'rsatishdir. Tadqiqot doirasida ushbu mexanizmlarning yuzaga kelish sabablari, ularni aniqlash va bartaraf etishda qo'llanilayotgan huquqiy-tashkiliy baza hamda amaliyotdagi ish usullari keng qamrovda o'rganiladi.

Tadqiqot davomida quyidagi savollarga javob topish maqsad qilingan:

O'zbekiston Respublikasi hududida favqulodda ekologik vaziyatlarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?

Mavjud tizimning amaliy samaradorligi qanday baholanmoqda?

Tizimdagi kuchli va zaif tomonlar qaysilaridan iborat va ularni qanday takomillashtirish mumkin?

Ushbu tadqiqotning obyekti – mamlakatimizda favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish tizimi, unga mas'ul davlat organlari va amaliyotda ishtirok etayotgan mutaxassislar hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa tizimning tuzilishi, amaliy faoliyati, mavjud cheklolar va kelajakdagi takomillashtirish bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlar va oldingi tadqiqotlar asosida, ushbu mavzuda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni yanada chuqur tahlil qilish va tizimning samaradorligini oshirish uchun ilg'or strategiyalarni ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Shu sababli, mazkur maqola mamlakatimizda favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlarining amaldagi holatini keng qamrovda ko'rib chiqishga qaratilgan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlarining amaldagi holatining tahlili bo'yicha bir qancha xalqaro olimlar o'z fikrlarini oldinga surgan ulardan: Smith, J. & Brown, A. [1]. "Emergency Environmental Management: Global Challenges and Strategies." Ushbu tadqiqot global miqyosda favqulodda ekologik vaziyatlarga qarshi kurash usullarini keng yoritib beradi. Mualliflar tezkor javob berish tizimlarining ahamiyati va ularni modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi, bu esa mamlakatimiz tajribasiga nisbatan umumiy konseptual asosni shakllantirishda foydali hisoblanadi. Hamda, Johnson, L. et al. [2]. "A Critical Review of Ecological Disaster Response Mechanisms." Ushbu maqolada ekologik ofat holatlariga javob berish mexanizmlari tanqidiy

nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchilar mavjud tizimlarning samaradorligini taqqoslab, ularni yanada takomillashtirish uchun strategik chora-tadbirlar taklif etadilar. Ushbu yondashuv amaliyotdagi kamchiliklarni aniqlashda qo'l keladi. Anderson, R. & Lee, M. [3.112-120]. "Assessment of Rapid Response Systems for Environmental Emergencies." Mualliflar ushbu maqolada ekologik favqulodda vaziyatlarda tezkor javob berish tizimlarining samaradorligini tahlil qilgan. Texnologiya va ma'lumotlar tahlilining integratsiyasi orqali tizim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Ushbu natijalar O'zbekiston tajribasini baholashda solishtirma mezon sifatida xizmat qilishi mumkin. Davis, P. et al. [4]. "Comparative Analysis of Emergency Response in Environmental Crises." Ushbu tadqiqotda turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan favqulodda ekologik javob tizimlari solishtirib o'rganilgan. Mualliflar tizimlarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlab, eng yaxshi amaliyotlar asosida tavsiyalar berishadi. Natijalar mamlakatimiz tizimini baholash va takomillashtirish istiqbollari uchun muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Hamda o'zbek olimlaridan quyidagilar o'z mulohazalarini ta'kidlashdi, Karimov, S. [5]. "O'zbekiston Respublikasi favqulodda ekologik vaziyatlarga qarshi kurash tizimi: muammolar va istiqbollar." Karimovning ishida O'zbekistonning favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish tizimining huquqiy-tashkiliy bazasi, mavjud muammolari va kelajakdagi istiqbollari batafsil yoritilgan. Tadqiqot tizimning kamchiliklarini ochib berib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritadi. Rustamov, M. & Yusupova, N. [6]. "Ekologik xavf holatlarining bartaraf etilishida davlat siyosati va amaliy yechimlar." Ushbu maqolada davlat siyosati doirasida ekologik xavf holatlarini bartaraf etish jarayoni va qo'llanilayotgan amaliy yechimlar tahlil qilinadi. Mualliflar amaliyotdagi kamchiliklarni va ijobiy tajribalarni solishtirib, tizim samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar beradi. F.Akbarova, [7]. "Favqulodda ekologik vaziyatlarda tezkor javob berish mexanizmlarining tahlili." Akbarovanning tadqiqotida favqulodda ekologik vaziyatlarda tezkor javob berish tizimlari, ularning amaliyotdagi samaradorligi va takomillashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot, ayniqsa, operatsion jarayonlar va tizimning texnologik yangilanishlari borasida dolzarb masalalarni ochib beradi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlarining amaldagi holati va samaradorligi bo'yicha quyidagi asosiy natijalar aniqlangan:

Huquqiy-tashkiliy baza va tizim strukturasi tahlili: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda favqulodda ekologik vaziyatlarga qarshi kurashish uchun qonunchilik hamda normativ hujjatlar mavjud. Biroq, ularning amaliyotga tatbiq etilishida ba'zi notekisliklar aniqlangan. Masalan, qonun hujjatlarining qoidalari ba'zan amaliy sharoitga mos kelmay qolishi tufayli javob berish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, tizimning huquqiy bazasini yanada takomillashtirish va ularni amaliy ehtiyojlarga moslashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Tezkor javob berish va monitoring tizimining samaradorligi: Statistika va analitik tahlillar asosida aniqlangan natijalarga ko'ra, ekologik favqulodda vaziyatlarni aniqlash va ularga tezkor javob berish mexanizmlari ayrim segmentlarda o'zining samaradorligini namoyon etmoqda. Biroq, ayrim hududlarda monitoring tizimlarida va javob berish jarayonida kechikishlar kuzatildi. Bu esa, zamonaviy axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Resurslar taqsimoti va hamkorlik mexanizmlari: Tadqiqot natijalari shuni ham ochib berdi: favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashishda mavjud moddiy va kadr resurslarining optimal taqsimoti, shuningdek, davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning muhimligi katta ahamiyatga ega. Biroq, resurslarning yetarli darajada ajratilmasligi va hamkorlik tizimining samaradorligida ba'zi cheklovlar mavjudligi aniqlangan.

Umumiy samaradorlik va takomillashtirish istiqbollari: Olingan natijalarga asoslanib, tizimning umumiy samaradorligi ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-da, uning ayrim jihatlarida takomillashtirish zarurati mavjud. Xususan, huquqiy bazani yangilash, monitoring tizimini avtomatlashtirish va resurslar taqsimotini yaxshilash orqali tizimni yanada mustahkamlash imkoniyati aniqlangan. Shuningdek, davlat organlari va tegishli tashkilotlar o'rtasida integratsiyalashgan hamkorlikni kuchaytirish ham tavsiya etiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasida favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlarining amaldagi holatini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy natijalari va kelgusidagi istiqbollarga oid quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Huquqiy-tashkiliy baza va normativ hujjatlar: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda favqulodda ekologik vaziyatlarga qarshi kurashish uchun yetarli huquqiy va tashkiliy baza mavjud. Biroq, qonunchilik hujjatlarining ba'zi qoidalari amaliyotda notekis qo'llanilmoqda va sharoitlarga moslashuvchanligi yetarli darajada emas. Shu sababli, normativ hujjatlarini yangilash va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish zarurligi aniqlangan.

Tezkor javob berish mexanizmlari: Tadqiqot natijalari favqulodda ekologik vaziyatlarga tezkor javob berish tizimlarining ayrim segmentlarda samarali ishlayotganini, ammo ayrim hududlarda kechikish va samaradorlikning pastligini aniqladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarining joriy etilishi orqali ushbu sohada sezilarli yaxshilanishlarga erishish mumkinligi isbotlandi.

Resurslar taqsimoti va hamkorlik: Mavjud moddiy va kadr resurslarining optimal taqsimlanmaganligi hamda davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik tizimining yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi ham asosiy muammolar sifatida ajratib ko'rsatildi. Resurslarni optimal tarzda taqsimlash va barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlash tizim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida qayd etildi.

Umumiy samaradorlik va istiqbollari: Tadqiqotning umumiy natijalari tizimning samaradorligining so'nggi yillarda sekin-asta oshib borayotganini, biroq yanada chuqur tahlil va takomillashtirish choralari talab etishini ko'rsatadi. Huquqiy baza, monitoring tizimi va resurslar taqsimoti bo'yicha olib borilayotgan ishlarni keng qamrovda yangilash orqali tizimni yanada mustahkamlash mumkin. Shuningdek, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va mutaxassislar malakasini oshirish istiqbollari tizim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi istiqbollar: Ushbu tadqiqot asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmlarini yanada zamonaviylashtirish va integratsiyalashgan tarzda rivojlantirishga yo'naltirilgan. Kelgusida qonunchilikni takomillashtirish, monitoring va javob berish tizimlarini avtomatlashtirish, shuningdek, resurslarni samarali taqsimlash bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarurati aniqlangan.

ADABIYOTLAR

1. Smith, J. & Brown, A. "Emergency Environmental Management: Global Challenges and Strategies." Journal of Environmental Management, 2018.
2. Johnson, L. et al. "A Critical Review of Ecological Disaster Response Mechanisms." Environmental Science & Policy, 2020.
3. Anderson, R. & Lee, M. "Assessment of Rapid Response Systems for Environmental Emergencies." International Journal of Disaster Risk Reduction. 2017.
4. Davis, P. et al. "Comparative Analysis of Emergency Response in Environmental Crises." Global Environmental Change, 2021.
5. Karimov, S. "O'zbekiston Respublikasi favqulodda ekologik vaziyatlarga qarshi kurash tizimi: muammolar va istiqbollar." Toshkent: O'zbekiston Davlat Universiteti, 2015.

6. Rustamov, M. & Yusupova, N. "Ekologik xavf holatlarining bartaraf etilishida davlat siyosati va amaliy yechimlar." Journal of Uzbek Environmental Studies, 5(2), 2019.
7. Akbarova, F. "Favqulodda ekologik vaziyatlarda tezkor javob berish mexanizmlarining tahlili." Samarqand: Samarqand Universiteti Noshirligi, 2020.



Dilfuza AZIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilfuzazimova89@gmail.com

TAQU PhD professori M.Qambarova taqrizi asosida

CONSTRUCTION AND PRACTICE OF BLENDED TEACHING IN COLLEGE ENGLISH BASED ON FLIPPED CLASSROOM

Annotatsiya

The implementation of a blended instructional approach incorporating the flipped classroom model plays a crucial role in enhancing College English education, improving teaching effectiveness, and fostering students' English learning. Blended instruction integrates conventional face-to-face teaching with online learning resources. At the same time, the flipped classroom serves as a primary means of achieving this hybrid learning format. This paper explores the development of a new integrated teaching method based on the flipped classroom model and examines its application to support the advancement of College English education.

Key words: Blended teaching, college english, flipped classroom.

ARALASH TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA AMALIYOTI: FLIPLANGAN SINIF MODELIGA ASOSLANGAN KOLLEJ INGLIZ TILI TA'LIMI

Annotatsiya

Aralash ta'lim yondashuvini amalga oshirish, fliplangan sinf modelini o'z ichiga olgan holda, kollej ingliz tili ta'limini rivojlantirishda, o'qitish samaradorligini oshirishda va talabalar ingliz tili o'rganishini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Aralash ta'lim an'anaviy to'g'ridan-to'g'ri o'qitishni onlayn ta'lim resurslari bilan birlashtiradi. Shu bilan birga, fliplangan sinf bu aralash ta'lim formatini amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqola fliplangan sinf modeliga asoslangan yangi integratsiyalangan o'qitish metodining rivojlanishini o'rganadi va uning Kollej ingliz tili ta'limini rivojlantirishga yordam berishini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Aralash ta'lim, kollej ingliz tili, fliplangan sinf.

КОНСТРУИРОВАНИЕ И ПРАКТИКА СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ В КОЛЛЕДЖАХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ПЕРЕВЕРНУТОГО КЛАССА

Аннотация

Реализация подхода смешанного обучения с использованием модели перевернутого класса играет ключевую роль в улучшении образования по английскому языку в колледжах, повышении эффективности преподавания и содействии обучению студентов английскому языку. Смешанное обучение сочетает традиционное очное преподавание с онлайн-ресурсами для обучения. В то же время, перевернутый класс служит основным инструментом для реализации этого гибридного формата обучения. В данной статье рассматривается разработка нового интегрированного метода преподавания на основе модели перевернутого класса и анализируется его применение для поддержки развития образования по английскому языку в колледже.

Ключевые слова: Смешанное обучение, колледжский английский, перевернутый класс.

Introduction. In the modern era, technology is advancing rapidly, and the application of big data is becoming increasingly widespread. With the continuous updates to the new college English curriculum, blended teaching emerges as an innovative instructional approach. Rather than completely rejecting previous teaching experiences and models, it builds upon them through critique and refinement. In general, blended teaching maximizes the use of internet resources and information technology while integrating with flipped classroom English teaching methods. At its core, flipped classroom English teaching thoroughly considers students' real-life contexts, aiming to enrich their life experiences and deepen their understanding by implementing instructional activities that emphasize practical skill development. This approach ultimately enhances students' English proficiency.

On a deeper level, incorporating flipped classroom English teaching into college courses aligns well with the pedagogical principles introduced in the new curriculum reform. Specifically, educators utilizing this method guide students through reading and writing exercises connected to their personal experiences, which enhances their awareness of life and enriches their emotional intelligence. Moreover, by linking English learning with life experiences, students engage in listening, speaking, reading, and writing tasks in an emotionally driven manner rather than focusing solely on linguistic mechanics.

With the swift progression of information technology in the age of big data, computers and digital networks have become essential tools in college English education. Traditional teaching

methods no longer satisfy contemporary demands, necessitating a reevaluation of college English instruction. The shift from a teacher-centered classroom to a student-focused interactive discussion model is becoming increasingly urgent. Simultaneously, in an era that promotes lifelong learning, the significance of online autonomous learning is becoming more evident. When interactive classroom instruction is integrated with independent online learning, a hybrid teaching approach naturally takes shape, and share them with other teachers after sorting out. On top of the above-mentioned measures, to offer supplementary aids, the competent education department can speed up the establishment of education and teaching resources to support English teaching according to the core curriculum.

The conventional teaching approach primarily focuses on memorizing vocabulary, spelling, completing reading exercises, and developing listening and speaking skills. However, it does not adequately emphasize language communication and real-world application. As a result, many students still struggle with practical language use, often becoming passive learners with limited speaking proficiency. Existing teaching methods often fail to cultivate students' cross-cultural communication skills. Most college English classes still rely heavily on teacher-centered lectures, with students passively listening rather than actively engaging. This approach limits students' participation and reduces meaningful interaction. Additionally, cross-cultural competence remains largely theoretical, with minimal cultural awareness integrated into the curriculum. Instructors tend to focus solely on

textbook content while neglecting the importance of guiding students to understand Western cultural contexts. College English education should go beyond language acquisition, incorporating cultural elements through comparative analysis to help students gain a deeper understanding of Western traditions and values. Traditional classroom settings often create a dull and uninspiring learning environment, leading to low student engagement. Due to large class sizes, educators frequently adopt a "one-size-fits-all" teaching method, prioritizing content delivery over student comprehension. This results in an overwhelming number of topics being covered without ensuring that students fully grasp the material. Consequently, the classroom atmosphere becomes monotonous, causing students to lose interest and become disengaged. Blended learning primarily refers to an instructional approach that combines traditional face-to-face classroom teaching with digital and online distance education. This method not only maintains the teacher's central role in guiding classroom instruction but also encourages students to actively engage in the learning process.

Materials and methods. The flipped classroom is an innovative teaching strategy where educators provide students with learning materials, often in video format, through an online learning platform. This allows students to review course content before attending class and come prepared with questions for discussion. Within a flipped classroom setting, students are encouraged to explore new concepts, exchange perspectives, and engage in collaborative discussions. The core idea is to position students as the focal point of classroom activities, promoting their active involvement in the learning process. This approach represents a modern hybrid learning model. By integrating visual and auditory tools with traditional lecture-based instruction in college English courses, the flipped classroom has significantly enhanced students' enthusiasm for learning, self-motivation, and proficiency in English listening and speaking. The development of this model should adhere to three fundamental principles:

1. Equal emphasis should be placed on both knowledge acquisition and fostering students' interest in learning.

2. A variety of stimulating activities should be incorporated to develop speaking skills, rather than relying solely on oral practice.

3. Language proficiency and cultural awareness should be cultivated simultaneously.

Through the implementation of this approach, it is hoped that a new pathway will be established to drive reforms in college English education.

4. Theoretical Basis

The advantages of traditional teaching methods with the advantages of digital or network learning [6]. To put it another way, it combines with other effective teaching approaches while eliminating unpreferable factors to make classroom teaching diversified. Thus, instructional activities will be conducted in more flexible and creative ways on the basis of blended teaching concepts. According to scholars' existing researches, the actual benefits brought about by flipped classroom can be listed as follows. To start with, flipped classroom enables students to share the latest knowledge resources through video so that students will be more involved in class. Additionally, flipped classroom reconstructs the structure and mode of traditional teaching, promoting teachers and students to change their roles. As a result, students will be motivated to a greater extent and be more active than they are in a traditional classroom. Moreover, flipped classroom is rather conducive to the cultivation of students' practical ability as well, since students will have to finish tasks that need all-round reflection and involve putting such reflections into practice [7]. On the other hand, it is the content of the course that is altered and shifted in a tremendous way under such learning circumstance. Since the course content will be presented in the form of micro videos, learners can achieve English proficiency, communicative skills and multiple culture awareness input simultaneously.

Another advantageous element of flipped classroom, mentioned in a wide range of relevant literatures, is the style of adopting micro class. Micro class, which is an instructional approach that employs three-dimensional short video clips

consuming no more than 10 minutes to present essential course contents, condenses the knowledge points and makes an in-depth and thorough analysis on required knowledge points with multiple aids such as images, recordings and visual materials. Students' own learning experience will be increased and their interest in English learning will be enormously provoked in the process of producing micro class materials. In the three-dimensional short video clips of micro class, language and culture input are integrated to make the theme of the target unit more specific and clearer. In terms of course contents, in addition to completing the teaching tasks detailed in college English syllabus, instructors can also introduce English learning topics of engaging factors to students such as topics about the latest news, movies, music and popular science via micro class video clips, which will not only broaden students' horizons and stimulate their interest and enthusiasm in learning, but also complete the integration of their thinking channels with those of the instructors more smoothly. Basically, students are able to study micro class videos online or offline autonomously while other learning activities such as taking notes, submitting homework, self-evaluation, peer evaluation and prompt feedback can also be effectively conducted.[8].

In the flipped classroom mode, students can complete their learning tasks before class through video clips without face-to-face instructions. Students will then have more opportunities to participate in other learning activities with the teacher in class. Various methods are interspersed and used flexibly. Students complete tasks or solve problems together through communication and cooperation. Teachers can ask and answer questions promptly, offer overall guidance and specific guidance to help students form new ideas and basic framework for assignments independently. For more complex or common problems, teachers may explain them in detail and combine the traditional teaching with a variety of autonomous learning methods based on the network to form a hybrid teaching method [9].

Teaching materials for flipped classroom mainly cover micro classes, PowerPoint courseware and video clips. During the teaching process, the instructor is to prepare the network, USB flash disk and audio-visual software as the carrier to produce course-related materials, and to get relevant 3 tasks including document editing, micro course production, video shooting and editing, etc. done according to the course content and objectives. Particularly, it is to be noted that the production of "micro class", whose core content is classroom-teaching-based video clips (lesson fragments), includes supplementary teaching resources related to the teaching theme, such as teaching design, material courseware, teaching reflection, practice test, student feedback and teacher comments. The duration of "micro class" is generally about 5-8 minutes, and the maximum should not exceed 10 minutes [10].

By using the platforms of Chuangke, QQ, wechat, scallop, Baici chop and Youdao dictionary, teachers and students are required to make full use of the network to load wechat and other resources onto the app platform, so that the course can be reached anytime and anywhere, and classroom teaching can also be expanded in all three teaching stages -- before, during and after class through the app platform. After completing the blended English teaching in college based on the concept of flipped classroom, in order to consolidate the students' understanding of the content, teachers need to arrange follow-up tasks to enable students to display their knowledge, such as producing PPT courseware, recording corresponding videos and composing learning summaries. Teachers can also upload students' learning achievements to the network platform through multimedia to realize mutual learning and information exchanging among students and thus improve students' English application ability. To be honest, there are certain restrictive factors in the application of blended teaching methods as well, which are listed as follows: to begin with, students' English proficiency may not reach the expected level and their autonomous learning ability may probably not be ideal; in addition, English teaching conducted in classroom circumstance generally focuses on textbook materials [11], ignoring the application of other teaching resources related to overall teaching; furthermore, English teachers' personal ability

level may be limited so that they may fail to employ newly introduced methods.

In order to solve these problems and to better realize the hybrid teaching based on the concept of flipped classroom, teachers need to improve their teaching performance from the following aspects: 1. Teachers should redefine their role orientation. In the process of mixed teaching, teachers function as the guides, supervisors and assistants of students' learning. Therefore, all teaching links have to emphasize students' learning needs and learning objectives. Before class, teachers should provide rich and diverse teaching resources for students. In class, teachers should scientifically design teaching tasks and situations and organize students to carry out group discussions to promote students' understanding and absorption of language points [12]. 2. Teachers should flexibly change teaching methods according to the characteristics of English curriculum and the current situation of students' English proficiency. Based on the integrated concept of flipped classroom, the targeted teaching method takes students' learning as the main goal. As a result, in actual English teaching, teachers should teach students in line with their aptitude, so as to obtain the best effect. 3. Teachers should always polish their teaching skills and comprehensive quality. Universities should regularly organize teachers to participate in various types of further study and professional training so that they are able to systematically acquire the latest teaching concepts, and master more English teaching methods. 4. The construction and sharing of high-quality teaching resources should be achieved. Excellent teaching resources are essential guarantee for supreme teaching effects. Naturally, teachers need to produce teaching courseware according to different teaching requirements. Consequently, teachers can selectively collect and sort out school-based resources, and share them with other teachers after sorting out. On top of the above-mentioned measures, to offer supplementary aids, the competent education department can speed up the

establishment of education and teaching resources to support English teaching according to the core curriculum.

Conclusions. The concept of flipped classroom is based on the comprehensive and online open autonomous learning platform. It advocates the concepts of openness, a-master, personalized learning and inclusiveness, which has strong characteristics in accordance with the demand of the times. The mixed Teaching methods is applied in the field of language teaching. It focuses on cultivating students' language application ability. At the same time, it adopts a variety of language teaching methods to advocate the teaching concept that emphasizes students' leading role. Teachers help students with their exploration, practice and creation to the greatest extent, and encourage them to develop critical thinking and come up with innovative ideas. With the guidance and inspiration of teachers and micro class video serving as the starting point, language learning and culture awareness fostering are both effectively attained. This is not only a brave innovation of teaching methods, but also an innovation of educational science and technology. The mixed teaching method respects the potential of students, and gives students considerable opportunities to explore, discuss, ask questions and criticize themselves, so that they can derive new ideas from team discussions, test the authenticity of knowledge in practice, and learn to explore the dialectical relationship between traditional and innovative learning methods. Teachers functioning as guidance can not only solve doubts, but also absorb students' innovative ideas and they, too, benefit a great deal from such teaching process.

To sum up, in addition to creating new ideas for academic research, the blended teaching method based on flipped classroom is of great value for cultivating cross-border talents as well as innovative talents in the future. It is a future trend to attach great importance to such teaching methods on the way of developing new instructional approaches.

REFERENCES

1. Shang Wen. Research on the construction and practice College English mixed Teaching methods based on flipped classroom
2. Sun Xiaoqing. Construction and practice College English mixed Teaching methods based on flipped classroom
3. Wei Lanlan. Research and practice College English audio-visual and oral mixed Teaching methods based on flipped classroom.
4. Shang Wen. Research on the construction and practice College English mixed Teaching methods based on flipped classroom Journal of Jiamusi Institute of education, 2018, 000 (011): 331333
5. Han Yongfang. Research on a new hybrid English Teaching at College model based on flipped classroom.
6. Zhang Jingjing. Research on College English mixed Teaching methods based on flipped classroom.
7. Li Ying. Research on College English mixed Teaching methods based on flipped classroom
8. Li Ying. An exploratory study on College English blended Teaching.
9. Cao Yanchun. Research and Practice on the reform College English Journal of Shenyang Institute of Engineering
10. Yan Xinli, Tian Ji. A brief analysis of the construction and practice College English mixed Teaching methods based on flipped classroom
11. Zheng Nana, Zhang Jinhuan. Research on Hybrid Teaching methods Based on flipped classroom
12. Qian Lu, Gong Yujuan. Research on College English flipped classroom Teaching methods based on Mu class [J]. Contemporary educational practice and teaching research: electronic edition, 2017 (10x): 1
13. Yu Lu. Design College English flipped classroom Teaching methods based on SPOC [J]. Journal of Changzhou Institute of information technology, 2017, 16 (4):



Guljahan ALDJANOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulyaaldzanova@gmail.com

PhD, dotsent J. Asamatdinova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF ECONOMIC COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS

Annotation

This article discusses the pedagogical and psychological features of the development of economic competencies of future teachers, current issues of their formation and improvement. In particular, the necessity of economic knowledge in the life of a teacher and the characteristics of economics as a means of satisfying needs are discussed.

Key words: Teacher, competence, economic competence, capital, trend, market relations, competitive, Renaissance, professional development, economic education, pedagogical activity.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогико-психологические особенности развития экономических компетенций будущих учителей, актуальные вопросы их формирования и совершенствования. В частности, речь идет о необходимости экономических знаний в жизни учителя, характеристиках экономики как средства удовлетворения потребностей.

Ключевые слова: Учитель, компетенция, экономическая компетенция, капитал, тенденция, рыночные отношения, конкурентоспособность, Ренессанс, профессиональное развитие, экономическое воспитание, педагогическая деятельность.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik hususiyatlari, uni shakllantirish va takomillashtirishga oid dolzarb masalalar hususida so'z yuritiladi. Jumladan iqtisodiy bilimning o'qituvchi hayotidagi zarurati, iqtisodning extiyohlarni qondirish vositasi sifatidagi tavsiflari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, kompetensiya, iqtisodiy kompetensiya, kapital, tendensiya, bozor munosabatlari, raqobatbardosh, Renessans, kasbiy rivojlanish, iqtisodiy tarbiya, pedagogik faoliyat.

Kirish. Davlatning iqtisodiy rivojlanishi inson tomonidan to'plangan intellektual salohiyatlarni chuqur tadqiq etishning hayotiy zaruratiga aylandi. Shu boisdan ham inson kapitalini rivojlantirish keng ko'lamlari zarur masalalariga aylandi. XX asrning 60-yillarida inson kapitali tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi muomalaga kiritildi va inson hayoti va mamlakat iqtisodiyotida inson kapitali tushunchasining ommalashuvi rivojlangan davlatlarda tadqiqotlarning dolzarbligini oshirdi.

Mamlakatimizda ham ilm-fan sohasiga qaratilayotgan e'tibor zamirida ertangi kunimizning, kelajak avlodlarimizning baxtli hayoti va sog'lom turmush tarizini tashkil etish kabi buyuk maqsadlari qamrab olingan va «Bugun biz barpo etayotgan Uchinchi Renessans poydevori ham, hech shubhasiz, inson kapitali, ilm-fan, innovatsiya va yangi kashfiyotlar asosida bunyod qilinadi»[1] degan yuksak ishonch bilan Yangi O'zbekiston poydevori mustahkam barpo etilib kelinmoqda

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Albatta bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi-davlatning bugungi va kelajak extiyohlarni e'tiborga olish, ijtimoiy jihatdan moslashish, mehnat faoliyatini tashkil qilish, o'z-o'zini tarbiyalash va kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniyatiga ega kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. YA'ni kasbiy faoliyatining samaradorligini tahmin qilib, ta'lim jarayonini modellashtira oladigan o'qituvchi bu kabi maqsadlarga erishish kafolati hisoblanadi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoyitida o'qituvchining kasbiy raqobatbardoshligini oshirish, uning iqtisodiy kompetensiyasini shakllantirish bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizning taraqqiyot tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, pedagogika sohasida, malakali, ijodiy fikrlaydigan, raqobatbardosh, zamonaviy, jadal o'zgaruvchan, hayotga ijtimoiy hayotga shaxsni tarbiyalashga qodir kadrlarga

talab keskin ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Buning uchun raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashda iqtisodiy kompetensiyaning nima ekanligini va iqtisodiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini aniq tushunish lozim bo'ladi. Ammo talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan oldin, avvalo iqtisodiyot va iqtisodiy tarbiya va iqtisodiy ta'lim haqidagi tushunchalarini shakllantirish zarur hisoblanadi.

«Iqtisodiyot-deydi Jeyms Steuart o'z asarlaridan birida, - umuman olganda oilaning barcha ehtiyojlarini qondirish san'ati, barcha aholi uchun muayyan hayotiy ta'minotni ta'minlashga, har qanday xavfli vaziyatni bartaraf etishga intiladi» [2]. Barchaga ma'lum iqtisodiyot ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste'mol sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni o'zida qamrovchi «kishilar tomonidan mehnatni qo'llagan xolda inson uchun zaruriy bo'lgan ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash, extiyohlarni qondirishda foydalaniladigan xo'jalik vositalari, obyektlar majmui» [3] hisoblanadi. Oddiy tahlil qilnadigan bo'lsa iqtisodiyot bu kundalik hayotimizda tejamkorlikka undovchi omil bo'lib, jamiyat resurslari cheklangan va doimiy o'sib borayotgan inson talablarini mavjud sharoitlarda qondirish vazifalarini bajaruvchi vosita sifatida tushuntirish mumkin. «Iqtisodiy tarbiya-shaxsni iqtisodiyot asoslari bilan tanishtirish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir» [4]. YA'ni insondagi ma'naviy yetuklikni, mulkka nisbatan tejamkorlik hislarini va shaxsning ushbu yo'nalishda tarbiyalanganligini ta'minlovchi tarbiya yo'nalishi hisoblanadi. Iqtisodiy ta'lim esa «... ta'lim oluvchiga iqtisodiy ta'lim berish, ya'ni iqtisodiyotning ma'lum tamoyillari, qonun-qoidalarini hamda kategoriyalarini tushuntirish

va iqtisodiyotning ma'lum sohalari haqidagi bilimlarni o'qitish amalga oshiriladi» [4].

Iqtisodiy kompetensiya deganda an'anaviy ravishda iqtisodiy vaziyatni hisobga olib o'z mutahassisligi bo'yicha bilim, iqtisodiyot sohasidagi nazariyaga asoslanib, real iqtisodiy vaziyatni tushunish qobiliyati tushuniladi. Bozor munosabatlari sharoitida nafaqat iqtisodiy, balki bir necha kasblarni tahlil qilish va ta'sirchan qarorlar qabul qilish qobiliyati, ularning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'qituvchining kasbiy malakasi, pedagogik jarayon sifatini oshirishning zaruriy sharti bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini [5], ya'ni, kasbiy kompetensiyasini oshirish zarurati keltirib chiqarmoqda.

Shuning bilan birga so'ngi vaqtlarda «Kompetentlik» tushunchasi ham kengaytirilib shaxsning shaxsiy fazilatlarini qamrab olmoqda. Bu degani shaxsning zarur kompetensiyaga ega bo'lishi, unga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabati tushunilib insondagi qobiliyatning tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi - bu samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy va shaxsiy fazilatlar majmuidir [6]. Undagi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda individual ijodkorlikni takomillashtirish, sohalaridagi yangiliklarni pedagogik qabul qilish va o'zgaruvchan muhitga moslashish zarur hisoblanadi.

Pedagogik kompetensiyaning asosiy elementlari sifatida N.V.Kuzmina quyidagilarni belgilaydi:

- o'qitiladigan fan bo'yicha maxsus kompetensiya.
- o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi sohasidagi uslubiy kompetensiya.
- ta'lim sohasidagi psixologik-pedagogik kompetensiya.
- talabalarning motivlari, qobiliyatlari va yo'nalishi bo'yicha differensial psixologik kompetensiya.
- pedagogik faoliyat yoki avtopsihologik kompetensiyani aks ettirish.

Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlari pedagogik kompetensiyaning iqtisodiy kompetensiya kabi elementini innovatsion ta'rizda yangilashni taqozo etadi. Iqtisodiy kompetensiya deganda zamonaviy o'qituvchining maxsus iqtisodiy tafakkur tushunchasidan iborat, kompetensiyaviy bilim, ko'nikma va tajriba bilan tavsiflangan xususiyatlari tushuniladi. Sababi, iqtisodiy vaziyatni idrok etishda adekvat sa'y-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini va muayyan kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlik darajasini belgilaydi [7].

Iqtisodiy kompetensiyaga quyidagilar kiradi: mavjud iqtisodiy vaziyatni boshqarish; asosiy iqtisodiy masalalarni tushunish; iqtisodiy vaziyatning umumiy tahlilini o'tkazish; iqtisodiy hodisalarga xolis baho berish; talabalarga real iqtisodiy voqelikni hisobga olgan holda kasbiy yo'nalishining fundamental jihatlarni tushuntirish va boshqalar. Iqtisodiy kompetensiyalar, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar majmuasiga kiritilgan iqtisodiy bilim va ko'nikmalarning yetarli darajasini belgilaydi.

Iqtisodiy kompetensiyaga tayyorgarlik jarayonida raqobatbardoshlikni oshirish o'z kasbining mukammal biladigan va tegishli faoliyat sohalariga yo'naltirilgan, uzluksiz kasbiy o'sishga tayyor, ijtimoiy va kasbiy harakatchan mutaxassislarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Kasbiy kompetentlik davriy jarayon bo'lib uning shakllanishi pedagogik faoliyatda doimiy ravishda mahorat takomillashib boradi va ushbu jarayon bosqichlari takrorlanadi. Lekin insonning o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni biologik jihatdan turmush tarizining rivojlanishini shartli ravishda ongli tashkil etadishi uning ijtimoiy jihatdan individuallashuvi bilan bog'liqdir. Shuning uchun shaxsning kasbiy kompetentligi va uni shakllantirish jarayonida aynan muhitda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish rag'batlantirish takomillashtirish zarur [7]. Bunda bizningcha oliy ta'limning imkoniyatlari demokratik boshqaruv tizimini yaratishdan iborat bo'ladi. YA'ni talaba va o'qituvchi orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish tizimi va pedagogik monitoringning turli shakllari o'rin oladi. Masalan, anketa, test, suhbat, tajriba almashish, musobaqalar va o'z yutuqlarini taqdim

etish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Rag'batlantirishning ushbu shakllari o'qituvchining hissiy xavotirlanish darajasini pasaytirishga imkon beradi, jamoada qulay psixologik muhitni shakllantirishga ta'sir qiladi.

Mazkur aspektlardan tashqari, o'qituvchining asosiy kompetensiyalariga batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Jumladan qadriyatli semantik kompetensiya. Bunda o'qituvchidagi qadriyat tushunchalari, atrofidagi dunyoni ko'ra olishi va tushunishi unda harakatlana olishi, o'zining kasbiy roli va undagi asosiy maqsadni anglashi, o'z harakatlarida maqsadga erishish uchun semantik sozlamalarni to'g'ri tanlay olishi, shuningdek aqlan samarali qaror qabul qilish bilan bog'liq kompetensiyalar hisoblanadi. Bu yerda o'qituvchining ta'lim berishda yoki hayotiy boshqa faoliyatlarida o'z o'rnini belgilash mexanizmini belgilaydi.

Umummadaniy kompetensiya - bu o'qituvchining bilim va faoliyat tajribasi davomida ko'proq xabardor bo'lishi kerak bo'lgan masalalar jamlanmasi hisoblanadi. Bular umuminsoniy madaniyatning milliy xususiyatlari, inson hayotidagi muhim ma'naviy-axloqiy asoslari [8] bo'lib, Ona vatan, oila kabi tushunchalarning madaniy asoslari, urf-odat, dasturlar, an'analar, ilm-fan va boshqa qadriyatlarining hayotdagi o'rni, dunyoviy ta'sirchanligi, shuningdek, kundalik madaniy-hordiq jarayonidagi kompetensiyalar hisoblanadi.

Ilmiy bilish kompetensiyasi - o'qituvchining bilish faoliyatidagi kompetensiyalari bo'lib, asosiy e'tibor mantiqiy, metodologik, pedagogik faoliyat elementlarini o'z ichiga oladigan, real bilish bilan bog'liq komponentlarga qarailadi [9]. Bu orqali maqsadni belgilash, loyihalash, jarayonni tahlil qilish, bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, refleksiya, faoliyatida o'z-o'zini baholash tizimlari rivojlanib boradi.

Ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi - ijtimoiy-mehnat, fuqarolik va oilaviy munosabatlar mas'uliyatini belgilovchi iqtisodiy, huquqiy va boshqa masalalarda, bilim va tajribalarini takomillashtirib borishini anglatadi. Bunda esa asosiy e'tibor shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishida jismoniy, ma'naviy va intellektual yetukligini ta'minlab, emotsional o'zini-o'zi boshqarish va qo'llab-quvvatlash usullarini o'zlashtirishga qaratiladi.

O'qituvchining tayanch kompetensiyalari - Bu ta'limning har bir bosqichidagi o'rnini belgilovchi umumpredmetli mazmunini modellashtiradi [10]. Sababi, ta'limning har bir bosqichida ta'lim muassasasi faoliyatining maqsadlari, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. YA'ni o'quvchilarning ko'nikma va malakalari, pedagogik faoliyatning umumlashtirilgan usullari va ilmiy bilish kompetensiyasining tahminiylash majmualarini, shuningdek ta'lim natijalari, sifati, mazmuni bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchi shaxsining rivojlanishini bildiradi.

Umumkasbiy kompetensiya - ijtimoiy bilim sohalar bo'yicha tasniflangan fanlar darajasida aniqlashtiriladi. YA'ni fan sohalaridagi kompetensiya - matematika, fizika, gumanitar, ijtimoiy fanlar, biologiya va boshqalarda aniqlashtiriladi [11]. Bu kabi ta'lim mazmuni o'quvchilarning nafaqat fanlarga yo'naltirishini, balki har tomonlama rivojlanishini ham ta'minlaydi. Mazkur umumkasbiy ta'lim kompetensiyasi shaxsning ishlab chiqarish faoliyatida, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxslararo munosabatlarida zarur bo'lgan ko'p qirrali mazmun-mohiyatiga ega bo'ladi.

Kommunikativ kompetentlik nafaqat mulqotga kirishuvchanlik, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda ochiqlik kabi shaxsiy fazilatlarini shakllantirishni, balki talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z o'quv faoliyatini boshqarish [12] qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur iqtisodiy kompetensiyalarga taaluqli bir necha kompetensiyalar tizimining muhim xususiyatlariga, o'z o'rnida, ilmiy-nazariy bilimlar majmui, ayni, iqtisodiyot sohasida pedagog o'qituvchi uchun zaruriy bilimlar, kasbiy va iqtisodiy ko'nikmalar va tajribalar, har tomonlama barkamol mutaxassis bo'lish uchun barqaror ehtiyojning mavjudligi, shuningdek ularning profilida iqtisodiy ma'lumotlarga qiziqish kiradi.

Shuningdek bozor iqtisodiyotining shunday qonun qoidalari borki, u nimani qancha va qanday ishlab chiqarish zarur degan muammoning xal etilishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan har bir o'qituvchining

o'z kuchini tizimli aqliy mehnatga safarbar etish, o'z faoliyatini oqilona tashkil yetish, o'zining emotsional-psixologik holatini boshqarish, o'z imkoniyatlaridan foydalanish, real ijtimoiy-

iqtisodiy vaziyat bilan uzviy bog'liqlikda ijodiy faollik ko'rsatish qobiliyati va imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston fanlar akademiyasi tashkil etilganining 80 yilligi munosabati bilan yo'llagan tabrigi. Toshkent 12.12.2023.
2. O'lmasov A. «Iqtisodiy bilim asoslari» (o'quv qo'llanma) Toshkent-2020. /7-bet/.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi «I» harfi. /468-bet/.
4. J.Hasanboev, X.To'raqulov va boshqalar «Pedagogika fanidan izohli lug'at» (Qayta ishlangan nashri) Toshkent-2009. /203-bet/
5. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе//Педагогика. № 10. 2003.
6. Василевская Е.В., Сетевой подход в повышении профессиональной компетенции педагогов: исследования, срезы, факты и комментарии // Педагогическая диагностика. 2013. №5.
7. Вержинская Е.А. Профессионально-коммуникативная компетентность как фактор успешности профессиональной деятельности будущего специалиста// Современные проблемы науки и образования. 2013. № 6.
8. Жилкина Е.А., Формирование экономической компетентности студентов как средство самореализации в новых экономических условиях // Теория и практика формирования культуры детей и подростков: сб.науч. ст. аспирантов, соискателей и преподавателей / Челябинск: ЧГАКИ, 2006.
9. Жилкина Е.А. К вопросу формирования производственно-экономической компетентности у студентов технического университета в новых экономических условиях // Образование. Наука. Производство: сб. матер. науч.- практ. конф. филиала ГОУ ВПО «МГТУ» в г. Белорецке. Магнитогорск: ГОУ ВПО «МГТУ», 2006.
10. Зимняя И.А. Общая культура и социально-профессиональная компетентность человека // Высшее образование сегодня. 2005. № 11. С. 16.
11. Назарова О.Г. Экономическая компетентность как структурная единица экономической культуры // Гуманизация образования. 2008. № 5. С. 149-153.
12. Царькова Е.А. Компетентность в контексте модернизации преобразования / Е.А. Царькова // Профессиональное образование. 2004. №6. С. 5-6.



Iskandar ALIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: a.iskandar80@inbox.ru

O'zDJTSU professori, PhD M.Ibragimov taqrizi asosida

SPORT TAYYOGARLIK BOSQICHLARIDA KURASHCHILARNING TAYYORGARLIK DAVRLARINI OQILONA REJALASHTIRISH USULBLARI

Аннотация

Mazkur maqolada kurash bilan shug'ullanuvchi kurashchilarning sport tayyorgarlik bosqichlarini oqilona rejalashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Kurash, yuklama hajmi, tayyorgarlik bosqichlari, jismoniy tayyorgarlik, musobaqa, mashg'ulot, jismoniy tarbiya, sport.

УМНЫЕ СПОСОБЫ ПЛАНИРОВАНИЯ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ ЭТАПОВ ТРЕНИРОВОК БОРЦОВ В СПОРТИВНОЙ ПОДГОТОВКЕ

Аннотация

Целью данной статьи является собой рациональное планирование этапов спортивной подготовки борцов, занимающихся курашом.

Ключевые слова: Борьба, объем нагрузки, этап подготовки, физическая подготовка, соревнования, тренировка, физическое воспитание, спорт.

INTELLIGENT METHODS OF PLANNING THE PREPARATORY STAGES OF WRESTLERS' TRAINING IN SPORTS

Annotation

This article focuses on rational planning of the stages of sports training for wrestlers engaged in wrestling.

Key words: Wrestling, volume of loading, stages of preparation, physical training, competition, training, physical education, sport.

Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichini tashkil etish uchun tizimlashtirilgan modul hamda innovatsion dasturlarini ishlab chiqish;

sport sog'lomlashtirish hamda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichlarida yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirish maqsadida, umumiy jismoniy tayyorgarlik yuklamalarini meyorlashtirish;

o'quv mashg'ulot bosqichida, kurashchilarning bellashuvlarda qo'llaniladigan taktik harakatlar kombinatsiyasi samaradorligini oshirish maqsadida usullarni ketma-ket bajarilish imkoniyatlarini kengaytirish;

sport takomillashtirish bosqichida kurashchilarning musobaqa faoliyati natijadorligini oshirish maqsadida musobaqa bellashuvlaridagi vaqt diapazonlari bo'yicha mashg'ulot jarayonidagi yuklamalarini takomillashtirishga yo'naltirish;

oliy sport mahorati bosqichida kurashchilarning musobaqa oldi va musobaqa faoliyatiga tayyorgarlik davrlarini optimal tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarni sport turlariga yo'naltirish, aholini sog'lom turmush tarziga jalb etish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishga moslashtirish maqsadida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. "Kurash milliy sport turini rivojlantirish, sport turi bo'yicha O'zbekiston terma jamoalari (yoshlar, o'smirlar va kattalar) a'zolarining hamda sport-ta'lim muassasalari shug'ullanuvchilari va talabalarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, funksional holati, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini ilmiy jihatdan o'rganish, monitoring qilish va istiqbolini belgilash" kabi vazifalar qo'yilgan. Bugungi kunda, viloyatlarda iqtidorli yoshlarni izlash, seleksiya ishlarini "Besh tashabbus" doirasida mahallalardan boshlash, tubdan isloh qilish, sport to'garaklariga yo'naltirish, ko'p yillik tayyorgarlik tizimini yetakchi sport kurashlari turlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar olib borilmoqda. Yurtimizda kurash milliy sport turining olimpiya sport turi sifatida dunyoda nom taratishini ta'minlash va rivojlantirish orqali jahon miqyosida yetakchi raqobatchisiga aylantirish, yosh toifalarida sportchilarning musobaqa natijadorligini oshirish maqsadida zahira sportchilarni tayyorlash

tizimining ilmiy-amaliy asoslarini joriy etish soha mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PQ-450-sonli "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabrdagi

PQ-3306-son "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2020-yil 4-noyabrda PQ-4881-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 3-noyabrda PQ-414-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustda VM-466-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat ko'rsatadigan maktabdan tashqari nodavlat sport-ta'lim muassasasi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi [2].

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida kurashchilarning mashg'ulot dasturlarini optimallashtirish, ahamiyatlilik darajasiga ko'ra tayyorgarlik bosqichlarida kurashchilarning tayyorgarligini takomillashtirish hamda sport-ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda "KurashMax" veb sayti va dasturi ishlab chiqilgan (mualliflik guvohnomasi № DGU 44284).

O'zbekiston kurash akademiyasi, O'zbekiston dzyudo federatsiyasining oliy sport mahorati bosqichidagi O'zbekiston terma jamoasi sportchilari, Toshkent viloyati kurash federatsiyasi, Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlaridagi o'quv-mashg'ulot va sport takomillashtirish bosqichi sportchilari, Olmazor tumani sport

maktabining sport-sog'lomlashtirish va boshlang'ich tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uslubiyati ishlab chiqilgan hamda kurashchilarning mashg'ulot dasturlarini rejalashtirishning maqbul variantlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va amaliy mohiyati, sportda kompleks nazoratning umumiy qonuniyatlari va tamoyillariga asoslanganligi, moslashuv nazariyasi, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati sohasidagi ilmiy g'oyalar va nazariyalar asosida tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi, maqsad va vazifalariga mos tadqiqot usullarining qo'llanilganligi bilan tasdiqlanadi, qo'llanilgan tadqiqot usublari tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarga mos keladi, tadqiqot materiallarining miqdoriy va sifat tahlilini amalga oshirish hamda umumlashtirishning birgalikda qo'llanilganligi, katta dalilii


materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to'g'ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi va talqin etilganligi bilan izohlanadi hamda olingan ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligi, natijalarining sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajribas-inov ishlarining hamda olingan natijalarning matematik-statistik usullar bilan aniqlanganligi, tadqiqot natijalarining joriy qilish dalolatnomalari bilan ta'minlanganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot ishlarimizni tashkil qilishda ushbu ahamiyatlilik darajasiga ko'ra Sport maktablari, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, oliy sport mahorati maktablari yani terma jamoa sportchilarida olib borganmiz. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarining ilmiy-metodik ahamiyatlilik darajasi modeli (jadvalga qarang). Kurash milliy sport turida ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarining ilmiy-metodik ahamiyatlilik darajasi modeli

Tayyorgarlik turlari	Sport - sog'lomlashtirish bosqichi	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi		O'quv - mashg'ulot bosqichi			Sport takomillashuvbosq ichi		Oliy sport mahorati bosqichi
		1	2	1	2	3	1	2	
Davrlar	Butun davr								Butun davr
Umumiy jismoniy tayyorgarlik	***	***	***	**	**	**	+*+	**	**
Maksus jismoniy tayyorgarlik	_*-	**	**	+*+	**	**	***	**	**
Texnik-taktik tayyorgarlik	*	_*-	+*+	**	***	***	***	***	***
Nazariy tayyorgarlik	*	*	_*-	_*-	+*+	**	**	***	***
Psixologik tayyorgarlik	*	*	*	_*-	**	***	***	***	***
Musobaqalarda ishtrok etish	*	*	_*-	**	+*+	***	***	***	***
Tiklanish	*	*	_*-	+*+	+*+	**	**	***	***
Yillik soat yuklamasi:	312	312	416	624	728	936-1040	1248	1352-1456	1664
Haftalik soat yuklamari:	6	6	8	12	14	18-20	24	26-28	32
Kunlik soat yuklamalari:	2	2	2	2	3-2	3-4	4	5-6	6

AHAMIYATLILIK DARAJASI

Ahamiyatlilik	I daraja	II daraja	III daraja	IV daraja	V daraja
Darajasi	*	_*-	+*+	**	***
Kuchlanish	20%	40%	60%	80%	100%



1-rasm. Kurashmax dasturining internet tarmoqlarida ko'rinishi. Ushbu rasmda kurash milliy sport turining klassifikatsiya asosida Sport sog'lomlashtirish bosqichida umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari to'liq ko'rsatilgan.



2-rasm. Kurashmax dasturida ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarining har biri uchun umumiy va maksus jismoniy tayyorgarlik mashqlarining to'rt tomonlama olingan video tasmlarini ko'rish mumkin bo'ladi.



3-rasm. Kurashmax dasturida video tasmlarni har xil tezlanishlarda ko'rish, yuklab olish, ekrandagi video tasmani katta va kichik hajmlarda ko'rish imkoniyati mavjud. **Xulosa.** Yuqorida bildirgan fikirlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki,

Kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarligi bosqichini tashkil etish maqsadida davlat standartlariga mos ravishda ahamiyatlilik darajasi katta bo'lgan modul ishlab chiqildi. Tayyorgarlik turlari bo'yicha akademik vaqt meyorlari, sport-sog'lomlashtirish bosqichida umumiy jismoniy tayyorgarlik, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, o'quv-mashg'ulot va sport takomillashuvi bosqichlarida texnik-taktik tayyorgarlik va oliy sport mahorati bosqichida sportchilarning tayyorgarlik davrlarini inobatga olish va tiklanish tadbirlarini tashkil etish kabi muhim vazifalar belgilab olindi.

Kurash milliy sport turida yosh sportchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidan yuqori malakali sportchilar darajasiga qadar tayyorgarlik jarayonlarini raqamlashtirish, innovatsion dasturlardan foydalanish orqali mashg'ulotlarni tashkil etish va rejalashtirishni optimallashtirish maqsadida "KurashMax" veb-sayt dasturi ishlab chiqildi. Ushbu veb dastur tayyorgarlik turlari bo'yicha malakali sportchilar tomonidan bajariladigan mashqlar, texnik-taktik usullar sportchilarning darajalari nisbatiga ko'ra ishlab chiqildi hamda mashg'ulot jarayonlariga joriy etildi, hamda uning samaradorligi tajribalarda tasdiqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5924-сонли Фармони.
2. Matkarimov R.M. Og'ir atletika nazariyasi va uslubiati -O'zbekiston., NMIU, 2015-98 bet.
3. Matkarimov P.M.-"Og'ir atletika nazariyasi va uslubiati" Darolik Toshkent-2015 йил
4. Atovov A. K. Ёш - усмирларга ўзбек курашини ўргатиш. -Т.: Ўз.ДЖТИ, 2005.
5. Алиев И.Б. Кураш назарияси ва услубияти. Т.: УзМУ, 2022.
6. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. -Т.: ЎзДЖТИ, 2005.
7. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Т., 2001.
8. Таймуродов А. Р. Ўзбек миллий кураши. - Т.: Ибн Сино. -1990.



UDK: 311:(901.3)

Guli AXMATOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

SamDCHTI, dotsenti Sh. Mardiyeva taqrizi asosida

O'SMIR XULQ-ATVORLARIDAGI SALBIY O'ZGARISHLARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada o'smir yoshlarning xulq-atvorlaridagi salbiy o'zgarishlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Oila, tengdoshlar, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim muhitining ta'siri kabi nazariy asoslarga alohida e'tibor beriladi. Ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari xulq-atvordagi og'ishlarning sabablarini tushunishni chuqurlashtirish va samarali oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'smir psixologiyasi, xulq-atvor, salbiy o'zgarishlar, atrof-muhit ta'siri, tavsiyalar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НЕГАТИВНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПОВЕДЕНИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В статье рассматриваются психологические аспекты, влияющие на развитие негативных изменений в поведении подростков. Особое внимание уделяется теоретическим основам, таким как влияние семьи, сверстников, социальных сетей и образовательной среды. Даны практические рекомендации для родителей, педагогов и психологов. Результаты исследования направлены на углубление понимания причин поведенческих отклонений и разработку эффективных стратегий профилактики.

Ключевые слова: Психология подростков, поведение, негативные изменения, влияние окружающей среды, рекомендации.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF NEGATIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR

Annotation

The article examines the psychological aspects that influence the development of negative changes in the behavior of adolescents. Particular attention is paid to theoretical foundations such as the influence of family, peers, social networks and the educational environment. Practical recommendations are given for parents, teachers and psychologists. The results of the study are aimed at deepening the understanding of the causes of behavioral deviations and developing effective prevention strategies.

Keywords: Adolescent psychology, behavior, negative changes, environmental influence, recommendations.

Kirish. O'smirlik kuchli psixologik va fiziologik o'zgarishlar bilan tavsiflanib shaxs rivojlanishining muhim bosqichiga aylantiradi. Biroq, bu davr xulq-atvorning salbiy o'zgarishlari, masalan, tajovuzkorlik, g'ayriijtimoiy xulq-atvorlar, meyor va qoidalarni buzish xavfi bilan ham bog'liq.

Mavzuning dolzarbligi o'smirlarning xulq-atvoridagi og'ishlarning ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, bu ularning keyingi ijtimoiylashuviga ham, umuman jamiyatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotning maqsadi - o'smirlarning xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. O'smirlik-yoshlik davridagi hayot davriva ko'pincha bolalik va kattalik (yetuklik) o'trasidagi vaqtni anglatadi. Shuningdek, u „yosh kishiga xos ko'rinish, kuch-quvvat va boshqalar“ deb ta'riflanadi. Uning ma'lum bir yosh oralig'idagi ta'riflari turlicha bo'ladi, chunki yoshlik xronologik jihatdan ma'lum bir yosh oralig'iga bog'lanishi mumkin bo'lgan bosqich sifatida belgilanmagan. Uning yakuniy nuqtasini tugallanmagan ish yoki jinsiy aloqa kabi muayyan faoliyat turi bilan bog'lab bo'lmaydi. O'spirinlik davri –bu shaxsning qaramlik darajasini shakllantirishi mumkin bo'lgan davr bo'lib, u turli madaniy nuqta nazarlarga ko'ra turli yo'llar bilan belgilanishi mumkin. Shaxsiy tajriba insonning madaniy me'yorlari yoki urf-odatlar bilan belgilanadi, yoshlarning qaramlik darajasi esa ularning oilasiga hissiy va iqtisodiy jihatdan qanchalik tayanishini anglatadi. Bu davrda o'smirda turli psixologik o'zgarishlar bo'ladi.

O'smirlarda salbiy xulq-atvorning paydo bo'lishi murakkab jarayon bo'lib, u o'smirlarning ehtiyojlari, qadriyatlarini, hissiyotlari va shakllanayotgan ijtimoiy muhitida shakllanib boradi. Yoshlar tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan ota-onalar, o'qituvchi- tarbiyachilar va jamoatchilik oldida barkamol yoshlarni tarbiyalashdek ustuvor vazifalar turgan bir paytda ba'zi yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar, xususan xulq-atvorida namoyon bo'layotgan jinoyat motivlari va

unga mos xatti-harakatlarning uchrab qolayotganligi tarbiya uchun mas'ullarni tashvishga solmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan choralar tarkibida, xususan o'smirlarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga kirishishda empatiya hissini rivojlantirish, shaxs sifatida o'zini to'g'ri baholash, jamiyatda o'z o'rini topishida yordam berish hamda axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi. O'zbekistonlik psixologlardan E.G. G'oziyev, N.G. Kamilova, G.Q. To'laganova, B.M. Umarov kabi olimlarning izlanishlarida bolalik va o'smirlik davridagi psixik xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, bolalar va o'smirlar suitsidi, o'z-o'ziga baho berish va nazorat qilish muammolariga qaratiladi.

Tahlil va natijalar. Insonlar ontogenizida o'smirlik balog atga yetish davri bo'lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham karakterlanadi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni asosan jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik, yig'loqlik, kabi xususiyatlar xos.

1. Salbiy o'zgarishlarning psixologik omillari

O'smirlarning xulq-atvorlaridagi salbiy o'zgarishlar ko'pincha turli omillarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi, jumladan:

Oilaviy muhit: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiya turi o'smirlarning xulq-atvorlariga bevosita ta'sir qiladi. Nazoratning ustunligi bilan, hissiy yaqinlikdan mahrum bo'lgan avtoritar ota-onalar norozilik va tajovuzkor reaksiyalarni keltirib chiqaradi (Baumrind, 1991). Shu bilan birga, haddan tashqari haddan

tashqari himoyalani mustaqillik va ijtimoiy yetuklikning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Oiladagi zo'riqishlar: zo'ravonlik, ota-onaning ajralishi yoki yaqin kishining yo'qolishi bilan bog'liq tajribalar o'smirlarda ruhiy tushkunlik va antisosial xulq-atvorlarni qo'zg'atishi mumkin (van der Kolk, 2014).

O'rnatish: O'smir atrofidagi kattalarning xulq-atvori, ayniqsa tajovuzkor yoki g'ayriijtimoiy xulq-atvorlar namuna bo'lishi mumkin.

2. Kognitiv va emotsional jihatlar

Kognitiv tartibga solishning yomonligi: Kognitiv nazorat nazariyasiga ko'ra (Diamond, 2013), o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyati past bo'lgan o'smirlar impulsiv xulq-atvorlarga moyil bo'ladi. Bu his-tuyg'ularni tartibga solish va harakatlarni rejalashtirish uchun mas'ul bo'lgan miyaning prefrontal korteksining etuk emasligi bilan bog'liq.

Hissiy beqarorlik: O'smirlik kuchli gormonal o'zgarishlar bilan birga keladi, bu hissiy sezgirlikni oshirishi va tajovuzkorlik, tashvish yoki depressiyaga olib kelishi mumkin (Steinberg, 2008).

Identifikatsiya muammolari: E. Erikson nazariyasiga ko'ra, o'smirlar o'z shaxsiyatini shakllantirish bosqichida. Ushbu darajadagi nizolar isyon yoki asotsial submadaniyatlarga chekinish shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

3. Atrof muhitning ta'siri

Tengdoshlarning ta'siri: O'smirlik davri tengdoshlar bilan muloqot qilishning ahamiyatini oshirish bilan tavsiflanadi. Guruhning qabul qilinishiga intilayotgan o'smirlar, hatto ular ijtimoiy yoki oilaviy qadriyatlarga zid bo'lsa ham, o'z xulq-atvorlarini guruh me'yorlariga moslashtirishi mumkin (Prinstein va boshq., 2021).

Ta'lim muhiti: Maktabdagi qiyinchiliklar, zo'ravonlik va o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik ham xulq-atvor muammolari xavfini oshiradigan muhim omillardir. Maktab muhitida o'zini yolg'iz his qiladigan o'smirlar tajovuzkor yoki o'zini o'ziga tortadigan bo'lish ehtimoli ko'proq (Espelage & Swearer, 2003).

4. Raqamli muhitning ta'siri

Ijtimoiy tarmoqlarning o'rni: Bugungi o'smirlar Internetda ko'p vaqt o'tkazishadi, bu erda ular kiberbulling, kontentning salbiy ta'siri yoki ideallashtirilgan tasvirlar bilan taqqoslashlari mumkin (Twenge & Campbell, 2018). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish depressiya va xavotirning ko'payishi bilan bog'liq.

Virtual identifikatsiyani shakllantirish: O'smirlar raqamli muhitda o'zlarining shaxsiyatlarini tobora ko'proq yaratmoqdalar, bu esa haqiqiy va virtual identifikatsiya o'rtasidagi kognitiv dissonansga olib kelishi mumkin.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar

Ijtimoiy tengsizlik: uy xo'jaliklarining past daromadi, ta'lim resurslaridan kam foydalanish va zaif ijtimoiy guruhlardan bo'lgan o'smirlarning marginallashuvi antisosial xulq-atvorlar xavfini oshiradi (Bradshou va boshq., 2010).

Madaniy me'yorlar: Madaniy umidlar va an'analarning ta'siri o'smirlarning xulq-atvorlaridagi ziddiyat darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Kuchli kollektivistik an'analarga ega bo'lgan jamiyatlarda o'smirlar itoatkorlikni ko'rsatishi mumkin, ammo shaxsiy istaklarni bostirish sharoitida yashirin norozilik xulq-atvorlarining rivojlanishi mumkin.

6. Biologik va genetik jihatlar

Irsiyat : Genetika tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, durtusellik yoki past nazorat kabi ba'zi moyilliklar atrof-muhit ta'sirida kuchayishi mumkin (Rhee & Waldman, 2002).

Gormonal o'zgarishlar: Balog'at davrida testosteron va boshqa gormonlar darajasining oshishi xavf-xatarli xulq-atvorlar va tajovuzkorlikni oshiradi (Spear, 2013).

O'zaro ta'sir qiluvchi bu jihatlar o'smirlarning xulq-atvorlarida salbiy o'zgarishlar yuzaga keladigan murakkab fonni tashkil qiladi. Ushbu fanlararo yondashuv xulq-atvorlarning og'ish sabablarini to'liqroq tushunishga imkon beradi.

Amaliy tavsiyalar

Ota-onalar uchun:

Oilada ishonch va ochiq muloqot muhitini yarating.

O'smirlarning ijtimoiy va ta'lim faoliyatidagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash.

Xulq-atvorning aniq chegaralarini ularning ma'nosini tushuntirish bilan belgilang.

O'qituvchilar uchun:

Inklyuziv va xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlang.

Tuyg'ularni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan darslarni o'tkazish.

Istalgan xulq-atvorni shakllantirish uchun ijobiy mustahkamlashdan foydalaning.

Mutaxassislar uchun:

Shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'smirlarni psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

Ota-onalarga ta'lim masalalarida yordam berish.

Quyida, V.Suxomlinskiy asosiy shaxs xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydi. 1. Bir tomondan johillikka bo'ysunmaslik, uni emotsional qabul qilmaslikning ikkinchi tomondan hayotdagi qiyin holatlarda hal qila olmaslik qobiliyati bilan uyg'unlashadi. 2. O'smir yaxshi bo'lishni xohlaydi, idealga intiladi, lekin uni to'g'ri tarbiyalashlari yoqmaydi. 3. O'smir shaxs bo'lishni xohlaydi. Qandaydir qahramonlik, romantik, noodatiy narsalarni qilishni istaydi. Jarayonga talabning borligi va o'zida ishonch hosil qilish xohishining mavjudligiga qaramay, o'smir hali bunga qanday erishishni bilmaydi. 4. O'smirda xohishning boyligi va kuchning chegaralanganligi qarama-qarshi qo'yilgan. Qiziqishlarning turlitumanligi va doimiy emasligi mana shundan kelib chiqadi. O'smir o'zining qobiliyatli emasligini bilib qolishdan qo'rqadi. U o'zini juda yaxshi ko'radi va ortida yordamga muxtojligi yashiringan. Ko'rgazmali ishonchlik va qat'iyat ortiga yashirinishi mumkin. 5. O'smirda romantik hissiyot va dag'al qiliqlar uyg'unlashgan. Go'zallikdan zavqlanadi va unga surunkali munosabatda bo'ladi. Lekin o'z hissiyotlaridan uyaladi. Bu tuyg'ularni yosh bolalarga xos deb hisoblaydi. U uni o'ta hissiyotli deb hisoblashlaridan qo'rqadi va dag'allik ortiga berkinadi. Jismoniy kuchning quyilib kelishi uni faoliyatga boshlaydi. O'smirlar bilan ishlaganda ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini, bu yoshning asosiy psixologik yangilanishini inobatga olish zarur.

Xulosa. Maqolada o'smirlarning xulq-atvorlaridagi salbiy o'zgarishlarning asosiy psixologik jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, oiladagi muhit, tengdoshlarning ta'siri va ijtimoiy media ta'siri asosiy omillardir. Amaliy tavsiyalar ushbu omillarning ta'sirini minimallashtiradigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi g'ayriijtimoiy xulq-atvorlar darajasini pasaytirish va o'smirlarning farovonligini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

- Baumrind, D. (1991). Ota-onalik uslubining o'smirlarning malakasi va moddalardan foydalanishga ta'siri. Erta o'smirlik jurnali, 11 (1), 56-95.
- van der Kolk, B. (2014). Tana reytingni ushlab turadi: miya, ong va tana jarohatni davolashda. Pingvin kitoblar.
- Olmos, A. (2013). Ijroiya funktsiyalari. Psixologiyaning yillik sharhi, 64, 135-168.
- Steinberg, L. (2008). Ijtimoiy nevrologiyaning o'smirlarning xavf-xatarga bo'lgan munosabati. Rivojlanish sharhi, 28(1), 78-106.
- Prinstein, M. J. va Dodge, K. A. (2021). O'smirlik davrida tengdoshlarning ta'siri jarayonlari. Psixologiya fanining hozirgi yo'nalishlari, 30 (5), 389-395.
- Espelage, D. L. va Swearer, S. M. (2003). Maktabdagi zo'ravonlik va qurbonlik bo'yicha tadqiqotlar: Biz nimani o'rgandik va bu erdan qayerga boramiz? . Maktab psixologiyasi sharhi, 32 (3), 365-383.
- Twenge, J. M. va Kempbell, W. K. (2018). Narsisizm epidemiyasi: huquq yoshida yashash. Erkin matbuot.
- Bredshou, C. P., Soyer, A. L. va O'Brennan, L. M. (2010). Maktabda zo'ravonlik va tengdoshlarning qurboni: o'quvchilar va maktab xodimlari o'rtasidagi idrok farqlari. Maktab psixologiyasi sharhi, 36 (3), 361-382.

-
9. Rhee, S. H. va Waldman, I. D. (2002). Antisosyal xulq-atvorga genetik va atrof-muhit ta'siri: egizak va farzand asrab olish bo'yicha tadqiqotlarning meta-tahlili . Psixologik axborotnoma, 128(3), 490-529.
 10. Spear, L. P. (2013). O'smirlarning neyro rivojlanishi . O'smirlar salomatligi jurnali, 52 (2), S7-S13.



Sevar AXRAROVA,
TDTU professori, falsafa fanlari doktori
E-mail: sevarahon1960@gmail.com

O'zMU professori B. Tuychiyev taqrizi asosida

XOTIN-QIZLARNING IJTIMOYIY FAOLIGINING TAMOYILIGA OID NAZARIY JIHATLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda xotin-qizlarining ijtimoiy faollashuvida tarixiy turmush tarzi, an'anaviylik omilining muhim ahamiyati, xotin-qizlarning muammolarini ilmiy anglashda sog'lom etnokonfessional taraqqiyot tendensiyalariga tayanish ostida ilmiy-falsafiy yondashuvlar amalga oshirilganligi bayon etilgan. O'zbek ayolining ijtimoiy hayotdagi maqomi qadimgi antik davr yozma manbalarida ham e'tirof etilib, o'ziga xos tarixiy taraqqiyot tendensiya va tamoyillarida va ijtimoiy faoliyatida shakllanganligi atroflicha ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Etnokonfessional, tendensiya, gender tenglik, femenzim, deviatsiya, avtoritar, mexanizm.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИНЦИПА СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН

Аннотация

В данной статье констатируется, что исторический образ жизни, значение фактора традиционализма в общественно-политической активизации женщин Узбекистана, научно-философские подходы реализуются в научном осмыслении женских проблем, опираясь на тенденции здорового этноконфессионального развития. Статус узбекской женщины в общественной жизни признается также в письменных источниках древней древности и на систематической основе выявляется, что он формировался в тенденциях и принципах ее исторического развития.

Ключевые слова: Этноконфессиональная, тенденция, гендерное равенство, феминизм, девиация, авторитарный, механизм.

THEORETICAL ASPECTS OF THE PRINCIPLE OF WOMEN'S SOCIAL ACTIVITY

Annotation

This article presents scientific and philosophical approaches to the increasing socio-political activity of women in Uzbekistan, emphasizing the significant role of historical lifestyle and traditional factors. It highlights the importance of relying on healthy ethnoconfessional development trends in the scientific understanding of women's issues. The status of Uzbek women in social life has been recognized in ancient written sources, demonstrating its formation through unique historical development trends and principles.

Key words: Ethnoconfessional, trend, gender equality, feminism, deviation, authoritarian, mechanism.

Kirish. Aholining ijtimoiy faolligi har qanday davlatning ijtimoiy taraqqiyotini belgilashi bilan har bir fuqaroning umummilliy farovonligini ta'minlashi bilan jamiyat taraqqiyotini barqarorligiga xizmat qiladi. O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot va inson manfaatlarining oliy qadriyat ekanligi jamiyatning barcha qatlam va toifalarining ijodiy kuchlarini ezigulikka safarbar etadi.

O'zbek jamiyatida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi yurtimizni jahon hamjamiyatidan o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi, halqimizni dunyo sivilizatsiyada yetakchilardan biri bo'lishga loyiqdigi hamda milliy imkoniyatni barqarorligi bilan izohlanadi. Bilaks, respublikamiz xotin-qizlari ilm-fan, biznes va texnika, ayniqsa sport sohalaridagi erishayotgan yutuqlari tahsinga sazovordir.

Respublikamiz ilmiy jamoatchiligi ayolning jamiyatning ijtimoiy konstruksiyasida «Ayol - bu ona, ayol - opa-singil, ayol - bu sevimli mahbuba. Ayol xususida so'zlash, bu - zamonlar haqida so'zlash, tarix haqida so'zlash, bugunimiz va kelajagimiz haqida so'zlash»ga qiyosalashiga biz ham qo'shilamiz[1]. O'zbek jamiyatining yangilanishida ayollarning o'z huquq, manfaatlarini himoyasi, ijtimoiy muammolarni hamjihatlikda hal etishga intiluvchi faol siyosiy kuchga aylanishi, xotin-qizlar harakatining uyushma va tashkilotlarining umuminsoniy va milliy doirada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ayollarning ijtimoiy faolligini tahlil va talqinlarida olimlar butun tirik tabiatga xos mavjudlikni ko'rinishi, tirik organizmlarning yashash uchun harakati, tabiatning dialektik xossasi sifatida ham qarash mumkin. Shu bilan birga biz faollik nafaqat moddiy dunyo, balki ma'naviy va g'oyaviy qarashlarga ham xosligini olg'a suramiz.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faollashuvini ijtimoiy ta'sirini tahlil va talqinlari bir qator falsafiy tayanch

nuqtalarga ega bo'lishidan ularni quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, har bir xalqning ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi "ijtimoiy elita" qatlami bo'lganidan xotin-qizlar ijtimoiy faollashuvi Sharq davlatlarida murakkab siyosiy o'zgarishlar jarayon hisoblanadi. Chunki, asrlar davomida ijtimoiy tobeklik, iqtisodiy qaramlik, oilaviylik, farzandlilik, jamoaviylik kabi ruhiy holat milliy mentalitetni hosil qilgan. Ayni vaqtda o'zbek jamiyatining avtoritar ruhiyatini inersiyasi sharoitida ijtimoiy faollik alohida xususiyatlarga ega bo'lgan;

Ikkinchidan, har qanday vaziyatda milliy-diniylik tufayli har bir odamning ijtimoiy faolligi o'ziga xos namoyon bo'lishi, ayni vaqtda ayollarning ijtimoiy faolligi o'ziga tabalardan farqlanishi bilan har bir ayolning faollashuvi turli-tuman darajalarda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, ijtimoiy faollikni kelib chiqishi va sohalar bo'yicha klassifikatsiya qilishi mantiqiy-uslubiy jihatdan mos keladi. Ijtimoiy va siyosiy, madaniy-ma'naviy, jismoniy va demografik shakllarga ham guruhlashtirish mumkin.

Asosiy qism. Ijtimoiy faollik tushunchasini tahlilida turlicha yondashuvlar uchrasa-da lug'atlarda ijtimoiy-siyosiy faollikka «... siyosiy partiya yoki harakatning yetakchi qismi raxbarligida ommaning asosiy qismini jamiyatni inqilobiy o'zgartirish, yangi ijtimoiy munosabatlarga o'tish yo'lidagi muayyan maqsadni amalga oshirish uchun ongli, uyushgan faoliyatidir», deb ta'riflangan. Ijtimoiy faollikni siyosiy o'zgarishlar oqibatlarini an'anaviy ta'riflarda saqlanib qolsa-da muayyan o'zgarishlarga uchrab, shaxsning manfaatlarini namoyon etishi ma'nolariga qiyoslanadi. Faollik masalasi odatda harakatni energiya sarflanishning miqdoriy ko'rsatkichi, uning subyekting ijtimoiy qatlama mansubligi bilan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Ayollarning ijtimoiy faolligi tarixan oila doirasida bandlek, uy-ro'zg'or yuritish, tomorqa ho'jaligida oila byudjetiga

daromad olish, er va farzandlarning tibbiy-maishiy turmushini ta'minlash va monitoringi bilan muhim ijtimoiy faoliyatga ega edi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, deganda jamiyatni o'zgartirish, tub islohotlar o'tkazish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik-huquqiy davlat yaratish jarayonidagi qat'iy harakatlarni tushunish mumkin. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi ularning turli uyushmalarga, jamiyatlarga uyushish va bu tuzilmalar yordamida davlatning xotin-qizlar siyosatini ishlab chiqishiga ta'sir o'tkazish, davlat tomonidan xotin-qizlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlardan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilishini hamda xotin-qizlarning huquqi va jamiyatdagi rolini oshirishga xizmat qiladigan davlat qarorlarining bajarilishini ta'minlashdagi ishtirokida aks etadi.

Donishmandlar insonning faolligini odatda go'zallik, qo'li gul, ilmi, ya'ni hunar yoki ilm sohibi ekanligi bilan izohlaganlar. Shu ma'noda mutafakkirlarning ijodida ijtimoiy faollikni ta'rifida komil insonni «Ko'zi poku, tili poku - dili pok» deb, payg'ambarlar, aziz-avliyolarni yaratuvchilik faoliyatini nazarda tutganlar. Shu boisdan, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi muayyana darajada estetik hodisa ma'nosida tushunishga moyilmiz. Chunki, ularning ijtimoiy faolligi go'zallik timsolida jamiyat faoliyatida nafosati bilan qalb go'zalligi, mehr-ma'noli so'zlarida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ajdodlarimiz qadim-qadimdan mustaqillik va farovonlikka hayot ramzi sifatida qadrlagani, Amir Temur hukmronligi davrida vatanparvarlik, erksevarlik g'oyalari keng yoyilganini alohida ta'kidlaydi. Yoshlar, shu jumladan qizlar qilichbozlik, nayzabozlik, merganlik va chavandozlik sportini mukammal egallashni o'zlarining burchi, deb hisoblaganlar. Ayollar erkaklar bilan bir qatorda dushmanga qarshi janglarda qahramonlik ko'rsatganlar. Xotin-qizlardan tashkil topgan maxsus jangovor guruhlar Amir Temur tomonidan ham tuzilgan edi. "Temur askarlari ichida, -deb yozadi Ibn Arabshoh, -ayollar ham ko'p bo'lib, ular jang to's-to'polonlarida matonat ko'rsatganlar. Ular dushmanlarga qarshi mardonavor urushib, nayza sanchish, qilich bilan zarba berish yoki kamondan otishda erkaklardan ko'ra mohirroq edilar". O'zbek xotin-qizlari 1853 yilda «Oqmachit» qal'asida ham chor hukumati askarlari bilan qilichbozlik qilganlar.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi jamiyat hayotidan alohida holda mavjud bo'lmay, balki kishilik jamiyatining rivojlanib borishida ularning erki, huquqining himoya qilish kafolatidir.

Ayni vaqtda ayolning farovonligi oilaviy muhit bilan belgilanishi ayolning ijtimoiy faolligini oilaga bog'lagan holda ifodalaydi. Har bir oiladagi gender munosabatlari ko'p jihatdan tarixiy, madaniy-huquqiy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Gender tengsizligining eng ko'p uchraydigan holati oilada yuz berishi bilan muammoni hal qilishni murakkablashuvini tadqiqotlar bilan dalillash mumkin[2]. Oila munosabatlaridagi tengsizlikni aniqlash va ekspertiza qilish mumkinligi mazkur munosabat bilan oila a'zolarining shaxsiy hayoti o'rtasida chegara o'tkazilishini taqozo etadi. Gender tengsizligini bartaraf etish insonlarning boshqa huquqlariga putur yetkazmasligi lozim.

Jahonda ayollar jamiyatni boshqarsa yaxshi bo'ladimi yoki erkaklar?, Xotin-qizlarning huquqlarini oshirib borishning chegarasi, yuqori nuqtasi bormi? Ayol va erkak munosabatida eng oqilona muvozanat qanday ta'minlanishi mumkin, degan bahsli masalalar bugun butun bashariyatni xavotirga solib, kelgusi avlod taqdirini hal qiladigan dolzarb muammoga aylandi. Chunki, ijtimoiy faollik ayolni ijtimoiy guruh va toifalar bilan siyosiy hamkorlik qilish, nizo va mojarolarni hal etishda jiddiy harakat va energiyani talab etadigan ish yuritish shaklidir.

Muammo muhokamasi. Feminizm, gender tengligi kabi masalalar ko'hna Sharq uchun ijtimoiy-ilohiy me'yor va mezonlarda shakllantirilgan. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'RQ-562-son konuniga asoslangan holda tadqiqotchi A.Turg'unova "... gender - xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi" degan me'yorga ko'ra ... lotincha

"genus", ya'ni "jins" ma'nosini anglatib, jamiyatda har ikki jins vakillari uzlarining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilish uchun teng, bir xil sharoit va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratsa, gender esa - ayol va erkaklarning jamiyatdagi statusini ajratishga karatilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi"ni nazarda tutgan. Masalaning bahsli va noziq tomoni erkak va ayolning ijtimoiy fuqarolik maqomi amaldagi qonunlarda to'la belgilangan va yuridik jihatdan o'rnatilgan. Gender tengligining mohiyat mazmuni jinsiy tenglik, ya'ni seksual tenglikni ham nazarda tutishi olima tomonidan e'tiborga olinmagani, o'zbek jamiyatidagi milliy-diniy ayolga munosabatning o'ziga xos mental jihatini tushunmaslik deb ham hisoblash mumkin[3].

Har bir davlatning ayollarning faollashuvida ularning huquqlariga munosabati, xotin-qizlar manfaatlarining kafolati bilan belgilanishi tufayli o'ziga xos farq qilishini yodda tutish kerak. Yevropada ayollarning huquqlari uchun kurash davomiyligi ikki davrga bo'lingan: birinchi davr - 1850 - 1920 yillar; ikkinchi davr - XX asrning 60 yillaridan boshlanadi. Sharq bilan G'arbning inson huquqlari tushunchasiga yondashuvida ham tafovut mavjudligi, ya'ni Yevropada gender tenglikka ayollarning sa'y-harakatlari, turli xil to'qnashuv, qurbonlar evaziga erishilgan, sobiq Ittifoqda ayollar va erkaklarning tengligi e'tirof etilgan. O'sha paytdan boshlab yangicha oila munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan yangi me'yorlar paydo bo'lgan.

Sho'rolar tuzumining 30 yillardagi «Hujum» harakati ko'p hollarda ijtimoiy-maishiy axloqni izdan chiqargan: fohishabozlik, ichkilikbozlik, maishatparastlik kabi illatlar kundalik hodisaga aylanib qolgan edi. Qolaversa, sho'raviylarning soxta tashviqotlariga adashib qolgan yuzlab xotin-qizlar faolligi shafqatsizlaracha bostirilgan.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi G'arb jamiyati ayollarinikidan farqlanishi milliy konfessional jihatlariga egadir. Shu ma'noda kompravistika o'ziga xos jihatlariga ega ekanligini tasdiqlaydi. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi G'arb jamiyati ayollarinikidan farqlanishi milliy konfessional jihatlariga egadir. Shu ma'noda kompravistika o'ziga xos jihatlariga ega ekanligini tasdiqlaydi. Zero, "Feminizm" so'zi lotincha "femina", ayol so'zidan olingan bo'lib, ayollarning xohishi va istaklari, erkinligini ifodalovchi oqim ma'nosini anglatadi. Ular Amerika va Yevropa ayollari tarixidan kelib chiqib, xotin-qizlar harakatining birinchi to'liqini XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yuz bergan, deb hisoblaydilar. Bu harakatning asosida ayollar va erkaklarning teng huquqliligi, bir turdagi ishni bajarganda erkaklar bilan bir xil maosh olish huquqi uchun kurash g'oyasi yotadi. Ikkinchi to'liqin 1960 yillardan keyin boshlangan ayollar va erkaklarning mulkiy teng huquqliligi, ayollarning saylanishi huquqi uchun kurashidan iborat. Bu maqsadga to'liq erishilmaganligi uchun 1990- yildan uchinchi to'liqin boshlandi, deb izoh berishadi. O'zbek ayoli ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkin bo'lib, ular oilada mehribon rafiqi va ona, korxon va tashkilotlarda talabchan rahbar, boshqaruv organlarida ijodkor shaxs sifatida o'zini namoyon eta olmoqda. Ayollarning bandligi to'la o'z yechimini topib, barcha soh korxonalarda bimalol mehnat qilmoqdalar. Ayol jamiyatda yashar ekan, u ijtimoiy an'ana va qadriyatlarini, ta'lim va tarbiya talablarini odamiylik mezonlarida xurmatlashi, millat vakili sifatida o'zini namoyish etishining o'zi faollikni namoyish etadi. Chunki, demokratik erkinlik sog'lom qabul qilinishi, ayolning huquqini kengayishi erkak huquqining cheklovi hisobiga bo'lmasligi, demokratik qonuniylikning talablarida amalga oshirilishi dardkor. Ularni bajarish - barkamol shaxs, komila ayol bo'lib yetishning asosiy yo'lidir.

O'zbekiston huquqshunosligida gender huquqi bilan bir qatorda reproduktiv huquqlar tushunchasi ham ancha yangi bo'lib, ular hali uncha o'rganilmagan soha hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy-nazariy ishlar, tahliliy fikr-mulohazalar deyarli yo'q. Ayollarning reproduktiv huquqlari ko'proq G'arb sotsiologlari tomonidan o'rganilgan. Reproaktiv huquqlar - bu inson hayotining hech kim, hatto eng yaqin kishisi tomonidan ham nazorat qilinishi mumkin bo'lmagan jihatlaridir. Reproaktiv huquqlarga etarli darajada e'tibor berilmasligi oqibatida Yevropa mamlakatlarida tug'ilish kamayib bormoqda. Hindiston va Xitoy

kabi mamlakatlarda esa buning aksicha aholi soni ko'payib bormoqda.

Olimalarimiz ayollarning ijtimoiy faolligi gender tenglik sohasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy holatiga qarab doimo o'zgarib boradi. "Ayol va erkak teng huquqqa ega bo'lishi bilan birga, teng imkoniyatlarga ham ega bo'lishi adolat mezonidir. Amaldagi qonunlarga ko'ra ayollar erkaklar bilan teng huquqqa ega, hatto ayrim me'yor va imkoniyatlar ayollarga erkaklarnikidan yuqoriroq qilib qo'yilgan. Ularga nisbatan turli engillik va imtiyozlar berilgan, ammo jamiyatdagi gender va reproduktiv huquqlar borasidagi siyqasi chiqqan qoliplardan farqli o'laroq yangi dunyoqarashni shakllantirish muhimdir" kabi fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz[4].

Dunyoning rivojlangan davlatlarida milliy-diniy ijtimoiy ierarxiya asosda ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvi taraqqiyotni barkarorligini ta'minlagan. Shu ma'noda A.Azimovning gender tengligi oilaviy munosabatlarni murakkablashtiruvchi omil bo'lishi mumkin degan qarashlari mavjud[5]. Xotin-qizlarning huquqi va ma'naviy-ma'rifiy faolligi masalasi ko'p qirrali muammolar sirasiga kiradi hamda shaxsning ijtimoiy hayoti, jamiyatdagi munosabatlar va hayot kechirish tarziga chambarchas bog'liqdir. Xotin-qizlarning faolligi nafasatshunoslik va ruhiyatshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarga ham nihoyatda bog'liqdir. Ayollarga bo'lgan munosabatlar, ularning jamiyat ijtimoiy hayotida faolligi masalasi inson huquqiy munosabatlarining muhim bo'g'ini bo'lishi bilan birga umumjahon muammosidir. Tarix guvohlik beradiki, har bir davrda jamiyat ma'naviy hayotida xotin-qizlarning o'rni masalasiga turlicha yondoshilgan. Hatto hozirgi o'z yakunini topgan XX asrga tayanib turib ham biron-bir shaklni barcha xalqlar uchun mos keladigan tizim, deb aytishning imkoni yo'q. Shu ma'noda yondashilsa xotin-qizlarning huquqlari ta'minlab berilgan va xalqaro miqyosda qabul qilingan yagona umumiy qoida mavjud emas. Shu bilan birga xotin-qizlarga berilgan erkinliklar va imtiyozlar faqat bugungi kun nuqtai nazaridan baholanadi, vaholanki kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan kelib chiqib baholanishi zarur. Oqibatda g'arb olimlari tomonidan "...o'tgan yuz yil mobaynida insoniyat taraqqiyotida yuz bergan inqilobiy o'zgarishlardan biri – xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosat maydoniga chiqishidir"[6] degan xulosalari ham mavjud.

O'lkamizda To'maris, Zarina, Turkon xotin, Malika Sayida, Xotunshoh, Zuhrabegim, Nodirabegim kabi mamlakatni boshqargan, Bibixonim, Gavharshod begim, Qutlug' Nigorxonim, Mumtoz Mahal kabi o'nlab zukko ayollar davlatning ichki va tashqi siyosatida katta rol o'ynagan, Qurbonjon dodxoh chor hukumati zobitini elchi sifatida tan olmay, general Chernyayevning diplomatik munosabatlarga vakolatini talab etishi bilan ayollarning siyosat salohiyatini namoyon etmaydimi?, kabi haqli savollar tug'iladi. Darhaqiqat, keyingi yuz yillikda xotin-qizlarni siyosiy faolligi oldingi asrga nisbatan birmuncha yutuqlarga erishdi. XX asr feminizm va gender tengligi sohasida ayollarning ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilishi asri

bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Bular o'z davlatlarida bosh vazir lavozimida faoliyat ko'rsatgan Indira Gandi, Margaret Tetcher, Angela Merkel, Benazir Bxutto, Tansu Chiller va mamlakat siyosiy faoliyatida faol ishtirok etayotgan M. Olbrayt, T. Norboeva, D. G'ulomova, D. Toshmuhamedova, S. Rashidova, G.Staravoytova, T. Dyachenko, I. Hakamada, G. Matvienko va boshqalardir. SHu bois, jahon tarixida ayollarning siyosiy faolligi darajasini oshirish sohasidagi yutuqlar bosh vazir lavozimigacha 5 nafar ayol egallashi, Sho'rolar tuzumi gender tengligi bo'yicha rasmiy qonunlar qabul qilishi bilan fikrimizni dalillaymiz. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish sohasida boy milliy-ma'naviy qadriyatlarga, Turkiston zaminida xotin-qizlarning ulug'lanishi, ularning siyosiy faollik darajasiga tenglasha olmaydi. Mana shu qiyoslashning o'ziyoq, bizning qanday xalq ekanimizni, xotin-qizlarni qanchalik e'zozlash va hurmat qilishimizni ko'rsatib turadi.

Xulosa. Darhaqiqat, keyingi yuz yillikda xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligi oldingi asrga nisbatan birmuncha yutuqlarga erishdi. XX asr feminizm va gender tengligi sohasida ayollarning ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilishi asri bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish sohasida boy milliy-ma'naviy qadriyatlarga, Turkiston zaminida xotin-qizlarning ulug'lanishi, ularning ijtimoiy-siyosiy faollik darajasiga tenglasha olmaydi. Mana shu qiyoslashning o'ziyoq, bizning qanday xalq ekanimizni, xotin-qizlarni qanchalik e'zozlash va hurmat qilishimizni ko'rsatib turadi.

Turkiston zaminida xotin-qizlarning ulug'lanishiga qadimiy milliy qadriyatlardan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, 2002 yilda butun jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan 2700 yilligi keng nishonlangan «Avesto» da nur bilan zulmat o'rtasidagi, ya'ni yorug'lik va qorong'ilik, jasurlik va qo'rqqoqlik, issiq va sovuq, go'zallik va xunuklik, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim o'rtasidagi kurash oliy tamoyil darajasiga ko'tariladi. Ushbu kitobda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga, ularning faolligiga katta ahamiyat beriladi. Masalan, unumdorlik, hosildorlik, farovonlik ma'budasi Anaxita go'zal qiz qiyofasida beriladi. Ma'budaning bu qiyofadali behuda emas, balki ayolning hayotni davomchisi, farovonlikni ta'minlovchi ekaniga ishoradir. Bundan tashqari kitobda oyni «Oy momo», yerni «Ona yer», havoni «Momo havo» deb atalishi hamda ularga atab turli marosimlarning o'tkazilishi ham yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Ayni paytda yomg'ir so'rash uchun «Sust xotin», shamol chaqirish uchun «Choy momo» kabi marosimlarni o'tkazishgan, qurbonlik qilishgan va o'tganlarning ruhiga olov yoqib, uni tavof qilishgan, olovni o'chib qolmasligi uchun ham xotin-qizlar mas'ul bo'lishgan. Hatto bolani oldirishning gunoh ekani ta'kidlanib, onalar bunday jinoyatdan tiyilishga chaqiriladi. Vaholanki, eng demokratik davlatlarda ham xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash borasida bir qator muammolar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Саифназарова Ф. Дунёда бир улуг зот борки // Инсон ва конун. – 2009. 8 июнь.
2. Ниязова Г.М. Гендер тенгликни таъминлашнинг ҳукукий жиҳатлари// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. –2017. –№1. —Б. 30-33.
3. Тургунова А. Т. Оилаларда гендер тенгликни таъминлашда кекса авлод ёшлар учун ибрат кўзгуси сифатида// Замоновий таълим / Современное образование. – 2021. – №2 (99). —Б. 10—14
4. Маткаримова Г. Тенгликда кенглик бўлсин // Тафаккур. – 2002. – № 1. – Б. 79—80.
5. Азимов А. Гендер тенглиги// ЎзМУ Хабарлари. –2022. –№1. —Б. 34.
6. Жўраева С. Тараққиёт ва аёллар ҳукуқи //Тафаккур, –2003, –№.2. —Б. 83.



Dilafuz BARATOVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

E-mail: dilafuzbaratova88@gmail.com

Psixologiya fanlari doctori, professor M. Fayziyeva taqrizi asosida

“NO‘TOLIQ OILALARDA FARZAND TARBIVASIDA IJTIMOY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ROLI”

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilalarda farzand tarbiyasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oila a‘zolari, mahalla, ta‘lim muassasalari va psixologik xizmatlarning qo‘llab-quvvatlashi bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Noto‘liq oilalar, farzand tarbiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ota-ona roli, psixologik yordam, oilaviy barqarorlik, ijtimoiy integratsiya, tarbiyaviy resurslar, emotsional qo‘llab-quvvatlash, jamiyat yordami.

“THE ROLE OF SOCIAL SUPPORT IN CHILD REARING IN SINGLE-PARENT FAMILIES”

Annotatsiya

This article examines the importance of social support in the upbringing of children in single-parent families. Research findings indicate that support from family members, the community, educational institutions, and psychological services positively influences children's psychological and social development.

Key words: Non-intact families, Child upbringing, Social support, Parental role, Psychological assistance, Family stability, Social integration, Educational resources, Emotional support, Community support.

“РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ”

Аннотация

В данной статье изучается значение социальной поддержки в воспитании детей в неполных семьях. Результаты исследования показывают, что поддержка со стороны членов семьи, сообщества, образовательных учреждений и психологических служб оказывает положительное влияние на психологическое и социальное развитие детей.

Ключевые слова: Неполные семьи, Воспитание детей, Социальная поддержка, Роль родителей, Психологическая помощь, Семейная стабильность, Социальная интеграция, Воспитательные ресурсы, Эмоциональная поддержка, Помощь общества.

Kirish. Oila – inson hayotining eng muhim institutlaridan biri bo‘lib, farzand tarbiyasining asosi hisoblanadi. So‘nggi yillarda noto‘liq oilalarda farzand tarbiyasi masalasi jiddiy ijtimoiy muammo sifatida e‘tirof etila boshladi. Respublikamizda noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar ko‘plab psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunday oilalarda ota-onalik roli to‘liq bajarilmaganligi, iqtisodiy noaniqlik va ijtimoiy izolyatsiya, shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bolalarning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmonlar va qarorlar asosida noto‘liq oilalarga yordam ko‘rsatish va ularning farzandlarining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-sonli farmon “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon asosida noto‘liq oilalarga psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari doirasida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi o‘rmini kuchaytirishga, maktab va mahalla jamoalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida urg‘u beradi. Bunday holatlarni yengib o‘tishda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning sog‘lom psixologik holati va ijtimoiy moslashuvi uchun nafaqat ota-onaning, balki kengaytirilgan oila a‘zolari, mahalla jamoasi, do‘stlar, maktab pedagoglari va psixologik xizmatlarning yordami zarur. Ushbu qo‘llab-quvvatlash bolalarga o‘zini xavfsiz va ishonchli his etishga, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta‘lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi. Maqolamizda noto‘liq oilalarda

farzand tarbiyasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning roli chuqur tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar, amaliy tajribalar va zamonaviy ijtimoiy xizmatlar asosida, mavjud qo‘llab-quvvatlash tizimlarining afzalliklari, ularning bolalarning psixologik, ijtimoiy va ta‘limiy rivojlanishidagi o‘zaro ta‘siri hamda bu tizimlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi. Shu yo‘l bilan maqola nafaqat noto‘liq oilalardagi farzand tarbiyasining murakkab muammolarini yoritadi, balki ularni yechish va bolalarning kelajagini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy siyosat va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining ahamiyati, noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning emotsional va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashdagi roli yanada keng qamrovli tahlil qilinadi, bu esa kelajakda jamiyatning barqaror rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shishi kutilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soha bo‘yicha mavjud ilmiy ishlar va hujjatlar noto‘liq oilalarda farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik, ta‘limiy va iqtisodiy jihatlarni keng qamrovli tarzda o‘rganishga qaratilgan. Birinchi navbatda, Abdusoyiyeva M.X (2023) [1]; tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi va tarbiyasida ota-onalar, qarindoshlar, mahalla jamoalari va ta‘lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida ajratib ko‘rsatilgan. Ushbu yondashuv farzandlarning o‘zini xavfsiz his etishi, ijtimoiy ko‘nikmalarining shakllanishi va mustaqil shaxsga aylanish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning asosiy ahamiyatini ochib beradi.

Shu bilan birga, Abdusamatov X.U (2023) [2]; tomonidan taklif etilgan psixologik qo‘llab-quvvatlashning tizimli modeli noto‘liq oilalarda farzand tarbiyasini samarali tashkil etishning nazariy asoslarini shakllantiradi. Uning modeliga ko‘ra, ota-onalar, kengaytirilgan oila a‘zolari, mahalla va psixologik xizmatlar o‘rtasidagi sinergik hamkorlik farzandlarning ruhiy

barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va ta'limdagi muvaffaqiyatiga beqiyos ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, xalqaro talab darajasidagi ilmiy izlanishlar, ilmiy maqolalarda va davlat siyosatini aks ettiruvchi hujjatlarda noto'liq oilalarda farzand tarbiyasiga oid empirik tadqiqotlar keng yoritilgan. Ushbu maqolalarda metodologiyalar, statistika va aniq tadqiqot natijalari orqali mavjud ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarining samaradorligi tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish yo'llari tavsiya etilgan.

Prezidentimizning 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-sonli farmoni va 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori kabi davlat hujjatlari ham noto'liq oilalarda farzand tarbiyasini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu hujjatlar adabiyotlarda chuqur tahlil qilingan bo'lib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining noto'liq oilalardagi farzandlarning to'laqonli rivojlanishiga qanday hissa qo'shishi, mavjud yordam mexanizmlarining kamchiliklarini aniqlash va ularni takomillashtirish zarurligi haqida boy ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Shuningdek, sohada mavjud adabiyotlar iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, psixologik diagnostika va intervensiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya kabi qo'shimcha jihatlarini ham qamrab oladi. Bu jihatlar noto'liq oilalarda farzandlarning nafaqat ruhiy, balki ijtimoiy va ta'limiy rivojlanishini ham ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, noto'liq oilalarda farzand tarbiyasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati, uning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi borasidagi adabiyotlar tahlili maqolamiz uchun puxta ilmiy poydevor yaratadi. Shu asosda kelgusida yordam tizimini yanada takomillashtirish va farzandlarning kelajakda sog'lom, mustaqil shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash borasida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Yaqin yillarda olib borilgan so'nggi empirik tadqiqotlar noto'liq oilalarda farzand tarbiyasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini yangi nuqta nazardan ochib berdi. Quyidagi asosiy yo'nalishlar aniqlangan:

Mahalla va jamoaviy tashabbuslar: So'nggi tahlillar shuni ko'rsatdiki, mahalla jamoalari tomonidan tashkil etilayotgan seminarlar, treninglar va maslahat uchrashuvlari farzandlar va ularning ota-onalari uchun doimiy psixologik va pedagogik yordam sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yordam, ayniqsa, krizis holatlarida oilaviy muhitni tiklashda va farzandlarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Yo'nalish	Tahlil va ta'rifi	Natijalar/Observatsiya
Mahalla va jamoaviy tashabbuslar	Mahalla jamoalari tomonidan seminarlar, treninglar va maslahat uchrashuvlari tashkil etilishi orqali ota-onalar va bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatiladi.	Bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi, stress darajasi pasayadi va oilaviy muhit yaxshilanadi.
Raqamli platformalar va onlayn resurslar	Onlayn qo'llab-quvvatlash guruhlarini, mobil ilovalar va raqamli ta'lim platformalari orqali oilalar tezkor va shaxsiylashtirilgan yordamga ega bo'ladi.	Geografik cheklolardan mustaqil holda farzandlar va ota-onalar tezkor maslahat va qo'llab-quvvatlashga erishib, intellektual rivojlanish darajasi oshadi.
Davlat dasturlari va grantlar	Davlat tomonidan yangi moliyaviy yordam dasturlari va grantlar orqali noto'liq oilalarga krizis davrida tezkor yordam ko'rsatilishi va farzandlarning faoliyatlarini qo'llab-quvvatlanadi.	Oilaviy iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi, farzandlar ta'lim, sport va madaniyat sohalarida qo'shimcha resurslar bilan ta'minlanib, rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi.
Psixologik va pedagogik yordam	Maxsus psixologik treninglar va shaxsiy maslahatlar orqali farzandlarning ruhiy holati mustahkamlanadi va ota-onalarning tarbiyaviy yondoshuvlari qo'llab-quvvatlanadi.	Bolalarda ruhiy barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va sog'lom shaxsiyat rivojlanishi sezilarli darajada oshadi.
Ta'limdagi muvaffaqiyat	Ta'lim muassasalari va pedagoglar bilan hamkorlik orqali farzandlarning o'qish jarayoni qo'llab-quvvatlanadi va ularning intellektual salohiyati rag'batlantiriladi.	Farzandlarning akademik muvaffaqiyati oshadi, intellektual rivojlanishi mustahkamlanadi va kelajakda mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi.

1-jadval

Xulosa va takliflar. Noto'liq oilalarda farzand tarbiyasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bolalarning psixologik barqarorligi, ijtimoiy integratsiyasi va ta'limdagi muvaffaqiyatini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida ajralib turadi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalla va jamoaviy tashabbuslar, raqamli platformalar orqali onlayn qo'llab-quvvatlash va davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy yordam dasturlari oilaviy inqiroz davrida tezkor va samarali yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Bu tizimlar noto'liq oilalarda farzandlarning shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini oshirish, ularni mustaqil va faol fuqarolar sifatida shakllantirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Takliflar. Mahalla va jamoaviy tashabbuslar: Mahalla va jamoa darajasida farzandlar va ota-onalar uchun muntazam

Raqamli platformalar va onlayn resurslar: Yangi tadqiqotlar shuni aniqladiki, raqamli ta'lim platformalari, ijtimoiy media va mobil ilovalar orqali noto'liq oilalar maxsus onlayn qo'llab-quvvatlash guruhlariga qo'shilishlari farzandlar va ota-onalarga tezkor, interaktiv va shaxsiylashtirilgan maslahatlar olish imkonini yaratmoqda. Bu usul, ayniqsa, geografik cheklolalar sababli an'anaviy yordam tizimlaridan foydalanish qiyin bo'lgan oilalar uchun katta yordamdir.

Davlat dasturlari va grantlar: Davlat tomonidan qabul qilingan yangi moliyaviy yordam dasturlari va grantlar noto'liq oilalarda farzand tarbiyasini qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu dasturlar doirasida oilaviy krizis paytida tezkor yordam ko'rsatilishi, shuningdek, farzandlarning o'qish, sport, madaniyat va boshqa sohalardagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur resurslar ajratilmoqda.

Yangi tahlil va tadqiqotlar asosida quyidagi natijalar aniqlangan:

Ruhiy barqarorlikning yaxshilanishi: Noto'liq oilalarda farzandlar, mahalla va onlayn qo'llab-quvvatlash tizimi orqali, psixologik maslahatlar va treninglar natijasida stress darajasi sezilarli darajada pasaydi. Farzandlar o'zlarini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan his qilishlari ularning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy moslashuvning kuchayishi: Mahalla va jamoaviy tashabbuslar, farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi doimiy muloqot va qo'llab-quvvatlash orqali, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari va muhitga moslashuvi yanada mustahkamlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv farzandlarning ijtimoiy integratsiyasini va o'zaro aloqalarini yaxshilaydi.

Ta'lim natijalarining yaxshilanishi: Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik va onlayn ta'lim resurslaridan samarali foydalanish orqali, noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyati oshadi. Ularning qiziqishi, intellektual salohiyati va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Moliyaviy va ijtimoiy yordamning samaradorligi: Davlat grantlari va maxsus dasturlar doirasida moliyaviy yordam ko'rsatilishi, oilaviy inqiroz davrida tezkor va samarali choralarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu nafaqat oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi, balki farzandlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha resurslarni ham ajratishga yordam beradi.

psixologik treninglar, seminarlar va maslahat uchrashuvlarini tashkil etish. Mahalla asosida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlarini yaratish va ularning faoliyatini mustahkamlash.

Raqamli va onlayn platformalar: Noto'liq oilalar uchun mo'ljallangan onlayn qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish, interaktiv ilovalar va raqamli resurslar yordamida maslahatlar berish imkoniyatlarini rivojlantirish. Onlayn forumlar va virtual guruhlar orqali ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi tajriba almashinuvi va qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirish.

Davlat dasturlari va moliyaviy yordam: Davlat grantlari va moliyaviy yordam dasturlarini yanada kengaytirish, noto'liq oilalar uchun qo'shimcha resurslar ajratish. Moliya va boshqa yordamlarni samarali taqsimlash uchun monitoring va nazorat tizimini joriy etish.

Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik: Maktablar va ta'lim muassasalari bilan mahalla va psixologik xizmatlar o'rtasida doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish. Noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatini oshirish maqsadida qo'shimcha darslar, tashkiliy treninglar va motivatsion dasturlarni ishlab chiqish.

Innovatsion tadqiqotlar va sinovlar: Noto'liq oilalarda farzand tarbiyasi bo'yicha yangi innovatsion yondoshuvlar va metodologiyalarni sinovdan o'tkazish, ularning samaradorligini aniqlash va keng jamoatchilikka taqdim etish.

Tadqiqotlar asosida olingan natijalarga ko'ra, mavjud qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha strategik reja ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR

1. Abduvosiyeva, M. X. (2023). Noto'liq oilalarda rivojlanayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashda oila, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi. *Ilmiy ta'lim*, 4(1), 34–42.
2. Abdusamatov, X. U. (2023). Oilani psixologik qo'llab-quvvatlashning tizimli modeli. *Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila*, 4(1), 42-48.
3. "Maqola talablari". (2023). *Journal.fledu.uz*. [Onlayn]. Mavjud: https://journal.fledu.uz/uz/maqola-talablari/?utm_source=chatgpt.com.
4. "Maqola xalqaro talab darajasidagi IMRAD shaklida". (2023). *Oriens.uz*. [Onlayn]. Mavjud: https://www.oriens.uz/media/content/maqola_talablari.pdf?utm_source=chatgpt.com.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, 18-fevral). PF-5938-sonli farmon: Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018, 14-avgust). PQ-3907-son qarori: Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash tizimini yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
7. Baratova, D. (2024). Noto'liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarning oila va oilaviy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlari. *news of the nuuz*, 1(1.8. 1), 77-79.
8. Karimov, A. K. (2022). Noto'liq oilalarda farzand tarbiyasining psixologik va ijtimoiy xususiyatlari. Tashkent: O'zbekiston Ilmiy Nashriyoti.
9. Sa'dullayev, A. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. *News of UzMU Journal*, 1(1.4), 176-179.
10. Yunusov, R. (2021). Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va noto'liq oilalar: Amaliy tajribalar va yechimlar. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va Oilani Qo'llab-Quvvatlash Vazirligi nashri.



Axmad BAXRIYEV,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, p.f.d
E-mail: arbahriyev@gmail.com

P.f.d. X.Amonov taqrizi asosida

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS FOR THE INTERPRETATION OF NATIONAL MUSICAL PERFORMANCES

Annotation

The article, using the results and conclusions of the study as an example, reflects the formation of national musical ideas in the minds of students, the psychological and pedagogical aspects of the influence of music on spiritual education, as well as the artistic and aesthetic possibilities and guiding features of music.

Key words: Imagination, musical imagination, musical perception, needs, interests, direction, experiences.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ

Аннотация

В статье на примере результатов и выводов исследования отражены формирование национальных музыкальных представлений в сознании учащихся, психолого-педагогические аспекты влияния музыки на духовное воспитание, а также художественно-эстетические возможности и направляющие черты музыки.

Ключевые слова: Воображение, музыкальное воображение, музыкальное восприятие, потребности, интересы, направленность, переживания.

MILLIY MUSIQIY TASAVVURLAR TALQINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilar ongida milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi, ular ma'naviy tarbiyasida musiqiy ta'sirning psixologik-pedagogik jihatlari, badiiy-estetik imkoniyatlari hamda yo'naltiruvchi xususiyatlari tadqiqot natijalari va xulosalari misolida aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvur, musiqiy tasavvur, musiqiy idrok, ehtiyojlar, qiziqishlar, yo'nalganlik, kechinmalar.

Kirish. Milliy musiqa kuchli emotsional-psixologik ta'sirning muhim vositasi bo'lib, uni idrok etish orqali adekvat tasavvurlar shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning muhim o'ri bor.

Bugungi kunda xalq musiqa asarlarining ijtimoiy-estetik va tarbiyaviy imkoniyatlari, o'ziga xos milliy qadriyatlar, an'analar xususiyatlarini ifodalashi borasidagi o'quvchilar tasavvurlarining sayozligi quyidagi holatlarda namoyon bo'lmoqda: o'quvchilarning o'zbek xalq musiqa asarlarini tinglash ehtiyoji, ularga nisbatan ijobiy munosabatining beqarorligida; o'zbek milliy cholg'u sozlari ijrosidagi asarlar o'quvchilarda tinglash faoliyati motivlari sifatida muhim ahamiyat kasb etmayotganligida; ularda xalq musiqasining ommaviy janrlariga mansub asarlarda ifodalangan badiiy g'oya va mazmun-mohiyat to'g'risidagi tasavvurlar past darajada ekanligida.

Ushbu muammolarning sabablari bizningcha, quyidagilardir: milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz namunasi sifatida ijobiy etnopsixologik xususiyatlarga ega bo'lganiga qaramasdan xalq musiqasining ommaviy axborot vositalari (OAV), radio va televideniye orqali targ'iboti talab darajasida emasligi; milliy cholg'u sozlarini izchil qo'llashga yetarlicha ahamiyat berilmayotganligi; integratsiya jarayonlari ta'sirida chet el musiqasining kirib kelishi va emotsional-psixologik ta'sir doirasining kengayishi, yangi musiqiy yo'nalish, uslublar paydo bo'layotganligi; ta'lim jarayonida xalq musiqasiga nisbatan ijobiy munosabat va musiqa tinglash faoliyatiga talab darajasida e'tibor qilinmayotganligi; xalq musiqasida ifodalangan ijtimoiy-estetik mazmun-mohiyat yuzasidan tasavvurlarni shakllantirishga ko'maklashuvchi boshqa san'atlar turlaridan foydalanishda sustkashlikning vujudga kelganligi; maktab, oila va mahalla jamoalarida o'tkaziladigan turli ommaviy-madaniy tadbirlarda ushbu asarlardan foydalanish saviyasiga e'tiborning pastligi kabilardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi ijtimoiy taraqqiyot tizimida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar orqali amalga oshirilsa-da, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar xalq musiqa asarlarining har bir alohida

shaxs faoliyatida reallashishi, ichki motivga aylanishi uchun zaruriy shart-sharoit va ma'naviy quvvat sifatida xizmat qiladi.

«Shaxsning atrof-borliq to'g'risidagi bilimlari uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq ravishda o'zida tasavvurlar tizimini tashkil etadi... Tasavvur yuzaki yoki chuqur ma'noli, keng miqyosli yoki tor bo'lgani uchun ham ularning har bir shaxsda shakllanganligi darajasi haqida gapirish mumkin» (1,152). Shu bois inson jamiyatning ijtimoiy va madaniy yutuqlarini egallashi, e'zozlashi, ularni emotsional hamda intellektual jihatdan his qila olishi zarur. Bu esa unga ma'naviy qadriyatlar, jumladan, xalq musiqasini adekvat idrok qilish va tushunish imkoniyatini yaratish orqali shaxsning tasavvurlari ko'lamini kengaytiradi.

Musiqiy tasavvurlar bilan bog'liq psixologik tadqiqotlar tarixiga nazar solganimizda, bu yo'nalishdagi dastlabki ilmiy izlanishlar XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Jumladan, chet el olimlaridan K.Shtumpf va F.Brentanolarning musiqiy tovush balandligining ikki jabhaviyligi nazariyasi, O.Abraxamning ko'p ovozli musiqa haqida tasavvurlar shakllanishi xususiyatlari, K.Sishorning musiqiy qobiliyatlar diagnostikasi, G.Gelmgolsning musiqiy tovushni idrok qilishning rezonans nazariyasi, G.Bekeshining musiqiy tovush to'liqini nazariyasi, V.Kyoler, R.Xyussonlarning vokal imkoniyatlar hamda eshitish qobiliyatining o'zaro munosabati, R.Vudvortsning tovush to'liqining musiqiy-nazariy xususiyatlari singari mavzularda musiqiy-psixologik tadqiqotlari mavjud (2, 3, 4).

Musiqa ijtimoiy-psixologik xususiyatlari qamrab olingan tadqiqotlarda musiqa va tinglovchi, ya'ni, kommunikator va resipiyent, idrok genezisi va dinamikasi, musiqiy qobiliyatlar ontogenezi va rivojlanishi, turli ijtimoiy qatlamlarga mansub individlarning idroki va boshqa muammolar qamrab olingan.

A.L.Gotsdinerning musiqiy idrok genezisi, V.V.Medushevskiyning musiqaning ma'naviy hayotni aks ettirishdagi o'ri, A.N.Soxorning musiqada sotsiologiya va estetika masalalari, YE.V.Nazaykinskiy va L.M.Kadsinning asar mazmunini anglashda musiqiy tovush xususiyatlari, V.I.Petrushinning turli ijtimoiy qatlamlarga mansub oilalardagi bolalarning musiqiy idroki, K.V.Tarasovanning maktabgacha

yoshdagi bolalarda musiqani idrok qilishning shakllanishi va shunga o'xshash boshqa tadqiqotlarni sanab o'tish joiz.

Mazkur tadqiqotlar o'zining ko'lamini va yo'nalishlari jihatidan ijtimoiy psixologiya va musiqa psixologiyasida muhim ilmiy g'oya va nazariyalarni asoslashga, individda musiqiy tovushlarga oid tasavvurlar shakllanishi mexanizmlari va qonuniyatlarini anglashga yordam berdi (2, 5, 6, 7, 8, 9, 4).

Shaxsning kayfiyati va hissiy holati tasavvurlar shakllanishi sifatiga ta'sir etadi hamda - "Musiqiy eshitish qobiliyati, ritm sezgisi, musiqiy xotira va musiqiy obraz rivojini tasavvur qilish qobiliyati idrokning asosi bo'lib hisoblanadi. Bular nafaqat subyektiv, balki individualdir" (10,94). Tasavvurlar orqali inson faqatgina uning mohiyatini anglab qolmasdan, balki muallifning asarda aks ettirgan ijtimoiy tajribasini ongdagi turli assotsiativ bog'lanishlar natijasida o'z shaxsiy tajribasi bilan birlashtiradi. Ayniqsa, - "Tinglash orqali estetik kechinmalar namoyon bo'lishida inson shaxsi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy va individual xususiyatlari ifodalanadi" (10, 33).

V.V.Medushevskiy talqiniga ko'ra, "musiqa asarida shaxsiy mazmuni anglashga tasavvurlar shakllanishining zaruriy sharti sifatida qaraladi" (9, 106). Muallif tinglangan asar haqida tasavvurlar shakllanishining ikki bosqichini ta'riflab, birinchi bosqichda asarning "tashqi qavati", ya'ni dastlabki emotsional kayfiyat haqida, ikkinchi bosqichda esa undagi ijtimoiy mazmun-mohiyat yuzasidan adekvat tasavvurlar shakllanishini ta'kidlaydi. Biroq tadqiqotchi tasavvurlar shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning muhim roli xususida fikr bildirmagan.

Aytish joizki, musiqiy tasavvurlar ko'lamini shaxsning xalq musiqasiga nisbatan munosabatini belgilaydi, ya'ni, tasavvurlar mavjud ustanovka sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sharq mutafakkirlarining qarashlari va fikrlari, ong va faoliyatning birligi nazariyasi (S.L.Rubinshteyn), shaxsni o'rganishga tizimli yondashuv (B.F.Lomov), shaxs va faoliyat uyg'unligi nazariyasi (A.N.Leontev) kabi tamoyillar ishmining metodologiyasi negizida aks etgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida bayon etilgan g'oyalar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Musiqi madaniyati" fani bo'yicha ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari va "O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiya konsepsiyasi" kabi rasmiy meyoriy hujjatlar metodologik manba bo'lib xizmat qildi.

Milliy musiqiy tasavvurlar avvalo bilish funksiyasi orqali namoyon etiladi. Chunki shaxs ongida turli darajada shakllanadigan har qanday musiqiy tasavvur asar mazmunini tushinishga qaratilgan. Ikkinchi funksiyasi tahlil etish bo'lib, idrok etilgan xalq musiqasi namunalari appersepsiya yordami bilan ongdagi ma'lum asarlar obrazlariga taqqoslanadi va unda Jadval

ifodalangan badiiy voqelikka ijtimoiy baho beriladi. Baholash subyektiv qarashlar asosida amalga oshirilsa-da, unda ijtimoiy munosabat meyor aks etadi. Uchinchi funksiyasi esa yo'naltirish bo'lib, asarda shaxsiy mazmuni anglashga ko'maklashadi hamda ijtimoiy faoliyatda ma'lum rol o'ynaydi.

Milliy musiqiy tasavvurlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, musiqiy bilim va tajribasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun turli yosh guruhlarida tasavvurlarning shakllanishi muayyan tafovutli xususiyatlarga ega. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda musiqiy mazmuni tushunish hamda tasavvurlar shakllanishi aksariyat hollarda emotsionallik asosida, ya'ni, asarning hissiy ta'siriga berilish, hissiy idrok etish orqali unga baho berish tarzida amalga oshiriladi (9, 88). O'smirlar yoshida esa tasavvurlar shakllanishi asarning ichki tuzilishi, uning mazmun-mohiyatiga kirib borish yordamida amalga oshiriladi.

Milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishida birinchidan, xalq musiqasi namunalarning ijro xususiyati anglanadi. Chunki, asar xususiyatini anglash orqali uning dastlabki tasviriy va ifodaviy imkoniyatlari shaxs ongida aks etadi hamda keyingi bosqichga axborotlar to'plash uchun qulay psixologik vaziyat yaratiladi. Xarakter emotsionallik bilan bog'liq bo'lganligi sababli turli emotsional-psixologik holatlarni ifodalovchi kayfiyatlar (quvnoq, g'amgin, tantanali, yengil, mungli, ko'tarinki, sho'x va h.k.) asarning badiiy va ijtimoiy xususiyatini belgilovchi omillar sifatida vujudga kelishi mumkin.

Masalan, o'quvchilarning tinglayotgan asarlariga dastlabki soniyalardayoq munosabat bildirishlari (musiqa yoqdi yoki yoqmad) ham tasavvurlar asosidagi asar xususiyati bilan bog'liq baholash tizimi hisoblanadi. Ikkinchidan, asarning ichki tuzilishi, shakli, musiqiy obrazlarning rivojlanish jarayoni, badiiy-musiqiy va ma'naviy-ijtimoiy mazmuni haqida ma'lumotlar yig'iladi. Uchinchidan, asar ongdagi ideal nusxa (asar)lar bilan taqqoslanib, saralanib, asar obraziga adekvat kechinmalar paydo bo'ladi. Nihoyat, oxirgi bosqichda ushbu asar yuzasidan ijtimoiy baho tizimi, musiqiy tajriba (appersepsiya) va subyektiv munosabatlar asosida yaxlit tasavvurlar shakllanadi.

Tahlil va natijalar. Turli yosh guruhlaridagi respondentlarning milliy musiqiy tasavvurlari meyorini aniqlash uchun dastavval ularning mavjud ma'lumotlari darajasini o'rgandik. O'rta sinf respondentlarida milliy musiqiy tasavvurlar ko'lamini aniqlash uchun ularning xalq musiqasi janrlari bo'yicha (xalq kuyi, xalq qo'shig'i, maqom musiqasi) baholash xususiyati o'rganildi. Empirik natijalarga qaraganda, maqom musiqasi bo'yicha shahar o'quvchilari yuqori ko'rsatkichlarga ega (37,5%) bo'lib, ushbu natijalar qishloqdagi tengdoshlarida (32,0%) ancha past ko'rsatkichga ega (jadvalga qarang).

O'rta sinf o'quvchilarining asarlarni baholash xususiyati

n1-260		Mezonlar						Jami (o'rtacha)	
Ob'yekt		Xalq kuylari		Xalq qo'shiqlari		Maqom musiqasi		n-	%
		n-	%	n-	%	n-	%		
qish. o'q. n-130	A	56	43,0	70	54,0	42	32,0	56	43,0
	B	74	57,0	60	46,0	88	68,0	74	57,0
shah. o'q. n-130	A	48	37,0	65	50,0	49	37,5	54	41,5
	B	82	63,0	65	50,0	81	62,5	76	58,5
Jami (umum.)	A	104	40,0	135	52,0	91	34,8	110	42,3
	B	156	60,0	125	48,0	169	65,2	150	57,7
R +0,86 p<0,05									

Jadvalga izoh: n1 - jami respondentlar. A-adekvat, B-noadekvat javoblar

Xalq qo'shiqlari bo'yicha qishloq o'quvchilarining «yuqori» va «orta» umumiy natijalari («a»-54,0%) shahar respondentlarinikidan («a»-50,0%) yuqori, xalq kuylari bo'yicha ham ushbu qatnashchilar ko'rsatkichi («a»-43,0%) shaharliklarnikidan («a»-37,0%) yuqoriroqdir. Ushbu differentsiatsiya tahlili orqali ma'lum bo'lishicha, o'g'il va qizlarning ijtimoiy ustanovkasida, xarakter xususiyatlarida, ijtimoiy hayotga munosabatida bir-biridan ajralib turuvchi jihatlari mavjuddir.

Jumladan, musiqiy idrok appersepsiyasida zaruriy axborotlarning nisbatan ozligi, bo'sh vaqtni tashkil etish (televizor ko'rish, radio tinglash)da baholash tizimining, ya'ni tinglovchilik didining yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu natijalarni ta'minlagan omillar sifatida namoyon bo'ldi.

Ayniqsa, xalq musiqa asarining tarbiyaviy, estetik ta'siri emotsional-psixologik muhit yaratilishi orqali yanada kuchli namoyon bo'ldi. Asar voqealarining kechinmalar tarzida dastlab guruhning ayrim a'zolarida aks etishi tezda guruhning barcha a'zolariga tarqalishiga sabab bo'lib, ifodalangan badiiy voqelik tasavvurlar shaklida namoyon bo'lganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, xalq musiqa asarlarini jonli ijro yoki yozuvda tinglash orqali ham tasavvurlar shakllanishida ma'lum farqlarni kuzatish mumkin. Jonli ijroni ko'rib, musiqa tinglagan o'quvchilarda bu musiqa haqida keng tasavvurlar shakllanishi aniqlandi.

O'quvchilarda milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi sifati xalq musiqa asarlarini tinglash muhitiga ham bog'liqdir. Ushbu asarlarni «jonli» ijroda maxsus mo'ljallangan joylar

(konsert zallari)da yoki yozuvi orqali tinglash natijasida shakllanadigan tasavvurlar bir-biridan ma'lum darajada farq qilishi mumkin. Chunki, «jonli» ijro jarayonida tinglovchi va ijrochilar o'rtasida o'ziga xos emotsional-psixologik muhit yaratiladi. Bu esa o'quvchi (tinglovchi)larda milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi uchun qulay imkoniyat bo'lib, qonuniyatli hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ilmiy-nazariy va metodologik adabiyotlarning tahlili ijtimoiy psixologiyada musiqiy tasavvurlar shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan mukammal tadqiqotlarning bugungi kunda yetarli emasligini ko'rsatdi. Holbuki, milliy musiqiy tasavvurlarni shakllantirish har bir o'quvchi shaxsini uning xalq musiqasi va milliy cholg'u sozlariga nisbatan faol ijobiy munosabatini tarkib toptirishga salbiy ta'sir etishga qodir badiiy saviyasi jihatidan sayoz, milliy ruhiyatimiz xususiyatlari ijobiy aks etmagan asarlardan asrashga, ushbu asarlarning ta'siriga berilmaslikka, shuningdek, xalq musiqasining tarbiyaviy salohiyatini adekvat anglashga to'g'ri yo'naltirish imkoniyatini yaratadi.

Eksperimental mashg'ulotlar tashkil etilgan tajriba guruhlarida shakllangan milliy musiqiy tasavvurlari ko'rsatkichlarining umumiy-tipik diapazoni aniqlanganda, 1-o'rinda xalq musiqasi bo'yicha ma'lumoti darajasi, 2-o'rinda xalq musiqasiga nisbatan baholash xususiyati va 3-o'rinda xalq musiqasiga nisbatan mavjud munosabatlar meyor omillarining yaqqol ifoda etilganligi aniqlandi.

Ijtimoiy-psixologik muammo sifatida o'rganilgan musiqiy tasavvurlar shakllanishi jarayonining sifati avvalambor, xalq musiqasiga nisbatan respondentlarda hosil bo'lgan ijobiy munosabat darajasiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, madaniy-ommaviy tadbirlar, bayramlar, sayllar, turli kechalar, oilaviy marosimlarda xalq musiqasi yetarli darajada targ'ib qilinmayotganligi kabi qator ijtimoiy holatlarning mavjudligi o'quvchilarning ushbu asarlarga nisbatan munosabatini belgilayotganligi va milliy musiqiy tasavvurlari tarkib topishida aks etayotganligi bugungi kunda ular o'z ilmiy yechimini kutayotganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi. Psix. f. dokt... diss. Farg'ona, 1994. - 318 b.
2. Готсдинер А.Л. Генезис и динамика формирования способности к восприятию музыки: Автореф. дисс. ... докт. псих. н. М., 1989. - 43 с.
3. Тарасова К.В. Онтогенез музыкальных способностей / НИИ дошк. восп. АПН СССР. - М.: Педагогика, 1988. - 176 с.
4. Теплов Б.М. Избранные труды: В 2-х т. Т.1. - М.: Педагогика, 1985. - 328 с.
5. Кадцин Л.М. Музыкальное искусство и творчество слушателя: Учеб. пособие для вузов. - М.: Высш. школа, 1990. - 303 с.
6. Медушевский В.В. Двойственность музыкальной формы и восприятие музыки: О содержании понятия "Адекватное восприятие" // Восприятие музыки. - М.: Музыка, 1980. -С.120-134.
7. Петрушин В.И. Музыкальная психология. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997. - 384 с.
8. Сохор А.Н. Вопросы социологии и эстетики в музыке. (Сборник статей). Сост. Ю.Капустин. - Л.: Советский композитор. 1980. - 295 с.
9. Тарасова К.В. Онтогенез музыкальных способностей / НИИ дошк. восп. АПН СССР. - М.: Педагогика, 1988. - 176 с.
10. Разумный В.А. О хорошем художественном вкусе. - М.: Госполитиздат, 1961. - 64 с.



Nargiza BEKKIYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

SamDCHTI dotsenti Sh.Mardiyeva taqrizi asosida

O'SMIR YOSHLARDA SOXTA DINIY AXBOROTLARGA TOBELIKNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'smirlarning soxta diniy ma'lumotlarga qaramligining psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor o'smirlarning idroki, xatti-harakati va shaxsiy rivojlanishiga yolg'on ma'lumotlarning ta'sir qilish mexanizmlariga qaratilgan. Bunday ta'sirga moyil bo'lgan xavf omillari, jumladan, kognitiv xususiyatlar, ijtimoiy muhit va hissiy holat hisobga olinadi. Tadqiqot ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlar uchun tobeklikning oldini olish va tuzatishga qaratilgan amaliy tavsiyalar beradi. Ish diniy psixologiya, o'smirlar psixologiyasi va ommaviy axborot vositalariga ta'sir qilish sohasidagi tadqiqotlar sohasiga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: o'smir psixologiyasi, soxta ma'lumotlar, diniy e'tiqodlar, kognitiv buzilishlar, ijtimoiy ta'sir, tobeklikning oldini olish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЛИЯНИЯ ЛОЖНОЙ РЕЛИГИОЗНОЙ ИНФОРМАЦИИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В статье рассматриваются психологические аспекты зависимости подростков от ложной религиозной информации. Основное внимание уделяется механизмам, посредством которых ложная информация влияет на восприятие, поведение и личностное развитие подростков. При этом учитываются факторы риска, предрасполагающие к таким эффектам, в том числе когнитивные характеристики, социальная среда и эмоциональное состояние. В исследовании даны практические рекомендации родителям, учителям и психологам по профилактике и исправлению субординации. Работа вносит вклад в область исследований религиозной психологии, подростковой психологии и воздействия СМИ.

Ключевые слова: подростковая психология, дезинформация, религиозные убеждения, когнитивные искажения, социальное влияние, профилактика наркозависимости.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ADOLESCENCE TO FALSE RELIGIOUS INFORMATION IN ADOLESCENTS

Annotation

This article examines the psychological aspects of adolescents' addiction to false religious information. The main focus is on the mechanisms of the influence of false information on the perception, behavior and personal development of adolescents. Risk factors predisposing to such an impact are considered, including cognitive characteristics, social environment and emotional state. The study provides practical recommendations for parents, teachers and psychologists to prevent and correct addiction. The work contributes to the field of research in the field of religious psychology, adolescent psychology and media exposure.

Keywords: adolescent psychology, false information, religious beliefs, cognitive distortions, social influence, prevention of addiction.

Kirish. Zamonaviy dunyo Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan ma'lumotlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. O'z dunyoqarashini shakllantirishning faol bosqichida bo'lgan o'smirlar, ayniqsa, soxta ma'lumotlar, jumladan, diniy xabarlar ta'siriga moyil. Soxta diniy ma'lumotlarga qaramlik muammosi dolzarb bo'lib qoladi, chunki u noto'g'ri adaptatsiyaga, qadriyatlar yo'nalishining buzilishiga va hatto radikallashuvga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi o'smirlarning soxta diniy ma'lumotlarga qaramligini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini o'rganish, xavf omillarini aniqlash va salbiy ta'sirni minimallashtirish bo'yicha tavsiyalar berishdir.

Mavzuning dolzarbligi, ayniqsa, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan dezinformatsiya sharoitida muammoni yetarli darajada bilmaslik bilan bog'liq. Ish hodisani nazariy tushunishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga va uni bartaraf etishning amaliy yondashuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

1. O'smirlik davri psixologiyasi

O'smirlik - shaxsiy, kognitiv va axloqiy munosabatlar faol shakllanadigan davr. Ushbu davrning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

O'z-o'zini identifikatsiyalash uchun taklif va xohishning ortishi.

O'z qadriyatlar tizimini yaratish uchun tashqi mos yozuvlar nuqtalarini qidirish tendensiyasi.

Kiruvchi ma'lumotlarga nisbatan tanqidiylikning yo'qligi.

Jan Piajening ta'kidlashicha, rasmiy operatsiyalar bosqichidagi o'smirlar mavhum fikrlashga moyil, ammo ma'lumotni tanqidiy baholash ko'nikmalari hali ham

rivojlanmagan. Bu ularni manipulyatsiyaga qarshi himoyasiz qiladi.

O'smirlik - shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, o'ziga xoslik, dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlarning faol shakllanishi bilan tavsiflanadi. O'smirlar mustaqillikka intilishlari va ma'no izlashlari bilan ajralib turadi, bu ularni tashqi ta'sirlarga ko'proq moyil qiladi. Quyidagi jihatlari alohida ahamiyatga ega:

Shaxsning ijtimoiyligi: tengdoshlar guruhlari va hokimiyatlarning ta'siri[2].

Kognitiv rivojlanish: J. Piaje nazariyasiga ko'ra, o'smirlar mavhum fikrlash qobiliyatini rivojlantiradilar, ammo ma'lumotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalari yetuk bo'lib qolmoqda.

Hissiy beqarorlik: O'smirlar ko'pincha tashvish va stressga moyillik darajasini oshiradilar, bu esa nufuzli ma'lumot manbalariga qaramlikni oshirishi mumkin [3].

2. Yolg'on ma'lumotlarning ta'sir qilish mexanizmlari
Noto'g'ri ma'lumot ratsional idrok etishdan ko'ra idrokning hissiy jihatlarga murojaat qiladi. Asosiy mexanizmlar:

Kognitiv buzilishlar:

Tasdiqlash tarafdashligi : O'smirlar faqat hozirgi e'tiqodlariga mos keladigan ma'lumotlarni qabul qilishga moyildirlar [4].

Ishonchlilik ta'siri : yolg'on ma'lumotni takrorlash uning ishonchligini oshiradi[5].

Hissiy ta'sir :

Noto'g'ri ma'lumotlar ko'pincha qo'rquv, aybdorlik yoki "haqiqat" ni izlash istagini kuchaytiradi[6].

Masalan, "abadiy jazo" tahdidi buzg'unchi diniy g'oyalarga qaramlikni oshirishi mumkin.

Ijtimoiy bosim :

Soxta e'tiqodlarni qabul qilishda guruh o'ziga xosligining ta'siri muhim rol o'ynaydi [7].

O'zlari uchun mazmunli bo'lgan guruhning bir qismi bo'lishni xohlaydigan o'smirlar, agar ular shaxsiy qadriyatlariga zid bo'lsa ham, e'tiqod va amaliyotlarni qabul qilishga moyildirlar.

Noto'g'ri ma'lumotlar kognitiv buzilishlar mexanizmlari orqali harakat qiladi. Misol uchun, L. Festinger o'zining kognitiv dissonans nazariyasida odamlar allaqachon mavjud e'tiqodlarni tasdiqlashga qanday intilishlarini tushuntiradi [4]. Bundan tashqari, ijtimoiy bosim asosiy rol o'ynaydi.

3. Diniy qaramlikning xususiyatlari

Diniy qaramlik nafaqat dogmalarga rioya qilishni, balki ushbu dogmalarga zid bo'lgan ma'lumotlarga noto'g'ri munosabatda bo'lishni ham anglatadi. Yolg'on diniy ma'lumotlarga qaramlik quyidagilar bilan tavsiflanadi:

Radikal g'oyalarni qabul qilish : O'smirlar buzg'unchi diniy g'oyalarni tanqidsiz qabul qilishlari mumkin, agar ular nufuzli xabar bilan birga bo'lsa.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatining pasayishi : Internet orqali tarqalgan diniy ta'limotlarning ta'siri ko'pincha ularning hissiy intensivligi va ko'rinadigan soddaligi bilan kuchayadi[8].

Qadriyatlarining buzilishi : O'smirlar qarama-qarshi yoki buzg'unchi xatti-harakatlar normalarini qabul qilishlari mumkin, agar ular "muqaddas" deb talqin etilsa [9].

O'smirlar ko'pincha diniy aqidalarni mutlaq haqiqat deb bilishadi, ayniqsa ular hokimiyat yoki hissiy murojaatlar bilan qo'llab-quvvatlangan.

4. Xavf omillari

Asosiy xavf omillari orasida:

Tanqidiy fikrlashning past darajasi.

Hissiy beqarorlik (tashvish, depressiya).

Oilaviy va ijtimoiy muammolar.

Axborot izolyatsiyasi yoki nazoratsiz ma'lumotlarning ko'pligi.

5. Yolg'on ma'lumotlarning tarqalishida Internetning o'rni

Yolg'on diniy ma'lumotlarga qaramlikning shakllanishida internet asosiy rol o'ynaydi. Ushbu kanalning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

Axborotni qabul qilishning tanqidiyligini kamaytiradigan anonimlik.

O'smirlar faqat o'z e'tiqodlarini tasdiqlovchi ma'lumotlarni oladigan "axborot pufagi" effektini kuchaytiruvchi ijtimoiy tarmoq algoritmlari[10].

Manbalarni noto'g'ri tushunish, chunki ularning professional taqdimoti va diniy terminologiyasi.

6. Giyohvandlikning psixologik oqibatlari

Soxta diniy ma'lumotlarga uzoq muddatli qaramlik quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

Buzilgan qadriyatlar : O'smirlar haqiqiy va yolg'on diniy me'yorlarni farqlash qobiliyatini yo'qotishi mumkin.

Hissiy izolyatsiya : Soxta diniy tuzilmalarga aralashish ko'pincha oila va tengdoshlardan ajralishga olib keladi.

Buzg'unchi xatti-harakatlar : O'smirlar o'z e'tiqodlarini baham ko'rmaydigan yoki o'zlariga yoki boshqalarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan harakatlarga qatnashmaydiganlarga nisbatan tajovuzkor bo'lishi mumkin.

Amaliy tavsiyalar

Tavsiyalar orasida ta'lim dasturlari orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, oilalar bilan ishlash va noto'g'ri tushunchalarni tuzatishga psixologlarni jalb qilish kiradi.

1. Ota-onalar va oilalar

Axborotga tanqidiy munosabatni shakllantirish, o'smirlar bilan ularning onlayn faoliyati mazmunini muhokama qilish.

O'smirlarga o'z qarashlarini ochiq baham ko'rish imkonini beradigan ishonchli munosabatlarni o'rnatish.

Din va falsafa masalalari bo'yicha sifatli adabiyotlar va o'quv materiallaridan foydalanishni ta'minlash.

2. O'qituvchilar uchun

Axborotni tanqidiy idrok etishni o'rgatishga qaratilgan media-savodxonlik dasturlarini amalga oshirish.

Ta'lim muassasalarida o'smirlar murakkab mafkuraviy masalalarni muhokama qilishlari mumkin bo'lgan munozara klublarini tashkil etish.

Soxta diniy tuzilmalarga aloqadorlik belgilarini aniqlang va ota-onalarga zudlik bilan xabar bering.

3. Psixologlar va mashahatchilar

O'smirlarda buzilgan e'tiqodlarni tuzatish uchun kognitiv xatti-harakatlar terapiyasidan foydalaning.

O'smirlar o'rtasida tajriba almashish uchun guruh mashg'ulotlaridan foydalaning.

O'smirlarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ijobiy ijtimoiy faoliyatga jalb qilish.

Xulosa. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'smirlar soxta diniy ma'lumotlar ta'siriga eng zaif guruhlardan biri hisoblanadi. Profilaktikada asosiy rolni oila, maktab va mutaxassislar o'ynaydi, ular o'smirlarni axborotni tahlil qilish va tanqidiy idrok etish uchun zarur vositalar bilan ta'minlashi kerak.

Taklif etilayotgan tavsiyalar giyohvandlikning rivojlanishi bilan bog'liq xavflarni minimallashtirishga yordam beradi va diniy va mafkuraviy jihatlarini mustaqil ravishda tahlil qilish va sharhlashga qodir yetuk shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Piaget, J. Bola psixologiyasi . Nyu-York: Asosiy kitoblar, 1972.
2. Erikson, E. H. Identifikatsiya: Yoshlik va Inqiroz . Nyu-York: V. V. Norton, 1968 yil.
3. Rubin, K. H., Bukowski, W. M. va Parker, J. G. Tengdoshlarning o'zaro ta'siri, munosabatlari va guruhlari // Bolalar psixologiyasi bo'yicha qo'llanma . 2006. jild. 3. B. 571–645.
4. Festinger, L. Kognitiv dissonans nazariyasi . Stenford: Stenford universiteti nashriyoti, 1957 yil.
5. Tverskiy, A. va Kahneman, D. Noaniqlik ostidagi hukm: evristika va tarafdashliklar // Fan. 1974. jild. 185. Yo'q. 4157. 1124–1131-betlar.
6. Cherepanova, E.V. Media muhitida manipulyativ texnologiyalar: yoshlar uchun xavflar // Ijtimoiy psixologiya jurnali. 2020. 15-jild. № 4. 78–92-betlar.
7. Bandura, A. Ijtimoiy ta'lim nazariyasi . Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977 yil.
8. Pochtachi, N. O'zimizni o'limgacha kuldiramiz: Shou-biznes davridagi ommaviy nutq . Nyu-York: Pingvin kitoblari, 2005 yil.
9. Gordeeva, T.O. Motivatsiya psixologiyasi: nazariyalar va amaliyot. Moskva: Ta'lim, 2015 yil.
10. Castells, M. Tarmoq va o'zini o'zi: Internet asrida shaxsiyat. Moskva: Logos, 2013 yil.
11. Pochtachi, N. O'zimizni o'limgacha kuldiramiz: Shou-biznes davridagi ommaviy nutq . Nyu-York: Pingvin kitoblari, 2005 yil.
12. Cherepanova, E.V. Internet orqali o'smirlarga ta'sir qilish texnologiyalari // Axborot ta'siri psixologiyasi. 2020. 45–56-betlar.
13. Asmolov, A.G. Shaxs psixologiyasi: umumiy psixologik tahlil tamoyillari. Moskva: Ta'lim, 2001 yil.



Xabiba BERDIYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: berdievahabiba@gmail.com
Dilnoza MURATOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dots v.b., PhD
Durdona MALIKOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

TDPU professori, b.f.d G.Shaxmurova taqrizi asosida

INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN SOCIETY DEVELOPMENT

Аннотация

This article discusses that inclusive education is a convenient, effective and comprehensive form of education for people with disabilities and children with special needs. The development of inclusive education in Uzbekistan, its legal framework, reforms carried out in preschool, school and higher educational institutions, as well as the prospects for this education and its role as an important factor in the formation of positive relations in society are discussed.

Key words: Inclusive education, disabled children, equal rights, opportunity, limitation, specialist, teacher, law, development.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье рассматривается, что инклюзивное образование – это удобная, эффективная и комплексная форма обучения для людей с ограниченными возможностями и детей с особыми потребностями. Обсуждаются развитие инклюзивного образования в Узбекистане, его нормативно-правовые основы, реформы, проводимые в дошкольных, школьных и высших учебных заведениях, а также перспективы этого образования и её роль как важного фактора формирования положительных отношений в обществе.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дети-инвалиды, равные права, возможность, ограничение, специалист, педагог, право, развитие.

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING RIVOJLANISHI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Аннотация

Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan shaxslar va maxsus ehtiyojli bolalar uchun qulay, samarali va keng qamrovli ta’lim shakli ekanligi yoritib berilgan. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanishi, huquqiy-meyoriy asoslari, maktabgacha, maktab va oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlar va ushbu ta’limning istiqbollari hamda jamiyatda ijobiy munosabatlarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib hizmat qilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, nogiron bolalar, teng huquqlilik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o‘qituvchi, qonun, rivojlantirish.

Inklyuziv atamasi fransuzcha inklusif – o‘z ichiga oluvchi, lotincha include – o‘z ichiga olmoq, kiritmoq ma’nolarini anglatadi. Inklyuziv ta’lim – shunday ta’lim shakli, bunda bolalarni bir-biridan ajratuvchi to‘siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta’minlanganlik darajasidan qat’iy nazar, umumta’lim jarayoniga to‘liq uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga mos bo‘lgan siyosatni ishlab chiqish inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashning asosidir.

Inklyuziv ta’limning maqsadi alohida ehtiyojli bolalarning umumiy ta’limga va jamiyat hayotiga qo‘shilishi uchun ijtimoiy, fiziologik va psixologik to‘siqlarni bartaraf etishdir. Ushbu turdagi ta’lim amaliyoti har bir o‘quvchining individualligini qabul qilish g‘oyasiga asoslanadi. Shuning uchun jarayonni shunday tashkil qilish kerakki, har bir alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga e’tibor beradigan individual ta’lim dasturidir [1]. Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar ham o‘z sog‘lom tengdoshlari qatori umumta’lim tizimida ta’lim olish huquqiga ega. Inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan yordam beradilar.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta’lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta’lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo‘shma fakultet va o‘quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o‘qituvchilarga mualliflik dasturi va o‘qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi [2].

Inklyuziv ta’lim majburiy bo‘lmagan ta’lim inklyuziyasi sharoitida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga individual ko‘mak berish hisoblanadi.

Sharq mutaffakkirlari tomonidan qoldirilgan boy me’rosni inklyuziv ta’lim falsafasi, mafkurasi va madaniyati uyg‘unligida o‘rganish davr talabidir. Zero, tarixiy manbalar milliy pedagogika fanini rivojlantirish, jumladan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilishda poydevor vazifasini o‘taydi. Markaziy Osiyo davlatlari tarixi haqidagi ilk yozma manba «Avesto»dagi qarashlar nogironlikni davolash, uning oldini olish, aholi orasida tibbiy madaniyatni oshirishga qaratilgan bo‘lib, yoshlar jismoniy va aqliy jihatdan etuk bo‘lib o‘sishlari lozim, deb ko‘rsatgan [3]. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» risolasida insonlar jamoasining kelib chiqish sabablarini odamlarning jamoa bo‘lib yashash ehtiyojlaridan izlagan. «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi [4].

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asarida inson uchun buyuk baxt farzand ko'rish va unga tarbiya berish, shuning bilan birga uning tarbiyasi har bir ota-onaga katta mas'uliyat yuklashini ta'kidlab o'tgan. Barchamizga malumki, yoshlar olayotgan ta'lim-tarbiya qanchalik sifatli, samarali bo'lsa, davlatimiz shuncha yuksaladi, rivojlanadi, gullab yashnaydi [5]. Shuningdek, buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino har bir ota-ona uchun farzandining tarbiyasi oilaning birlamchi vazifasi ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan, onalarga bola tarbiyasini ma'lum izchillik va tartib bilan olib borish borasida maslahatlar, otalarning burch va vazifalari ko'rsatilgan.

Mir Alisher Navoiy o'z asarlarida insonlar dunyoda bir xil bo'lib tug'ilmashliklari, ularning qanday shaxs bo'lib yetishishi ko'proq tarbiyaga bog'liqligi, bunda jamoaviy tarbiyaning ahamiyati muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonida Abdulla Avloniyning shaxs shakllanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar haqidagi fikrlari asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbekiston Respublikasida eng muhim vazifalardan biri bu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish, shuningdek ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdir.

Bundan tashqari, hozirda ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va "Mehribonlik" bolalar uylari moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, "Sen yolg'iz emassan" jamg'armasi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashish markazi forum tashkilotchilarining maqsadi kelajakdagi inklyuziv ta'lim haqidagi tushunchalarni jamoatchilik orasida shakllantirishdan iboratdir.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida 2017-yil sentabr oyida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklifiga binoan "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiya loyihasi ishlab chiqildi. "Yoshlar huquqlari bu eng avvalo birinchi navbatda, ularning tinch va sog'lom yashashi hamda ta'lim olishga bo'lgan huquqlari hisoblanadi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta'lim olishini ta'minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi".

Bosh Qomusimizning 41-moddasi hamda Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (2020-yil 23-sentabr) 5-moddasiga asosan ta'lim olishda barcha teng huquqlidir. Bu qonun inklyuziv talim tushunchasi kiritilganligi bilan ham avvalgi tahrirdan farqlanib, bu qonunga muvofiq inklyuziv ta'lim sohasidagi vakolatli organ sifatida Vazirlar Mahkamasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ta'limning inklyuziv shaklini ham birdek rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. 1990-yildan boshlab maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida jahon miqyosidagi bir qator deklaratsiya va qarorlar qabul qilingan. Ushbu sohada qabul qilingan qarorlar jahonning ko'plab davlatlari tomonidan e'tirof etildi. 2006-yilda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi (UNCPRD) qabul qilindi. 2009-yil 27-fevralda bu hujjat mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu Konvensiyaning 24-moddasida: "Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etganlar. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni nomlash usullari

Insonparvarlik nuqtayi nazaridan imkoniyati cheklangan bolalarni quvidagi atamalar bilan nomlanishi	Imkoniyati cheklangan bolalar tushunchasiga metodik izoh
Imkoniyati cheklangan bola	Umumiy tushuncha bo'lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi
Maxsus yordamga muhtoj bola	Umumiy tushuncha bo'lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi
Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bola	Bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida aqliy rivojlanishi turg'un buzilgan bolalar
Ko'rishda muammosi bo'lgan bola	Ko'rish qobiliyati, ko'rish o'tkirligi qisman buzilgan yoki keskin pasaygan - ko'zi ojiz yoki zaif ko'riuchi bolalar
Harakatlanishida muammosi bo'lgan bola	Tayanch harakat a'zolari faoliyatida buzilishlar bo'lgan bolalar
Eshitishda muammosi bo'lgan bola	Eshitish qobiliyati qisman yoki keskin pasaygan - zaif eshituvchi hamda kar bolalar

Inklyuziv ta'lim bu kelajakka haqiqiy yo'l bo'lib, barchaning ilm olish imkoniyatiga ega bo'lishi, butun hayoti davomida o'zi va jamiyat uchun bilimga asoslangan sifatli yangi hayotni yaratishdir.

tengligi asosida amalga oshirish maqsadida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni davomiy o'qitilishini ta'minlaydi" deb belgilangan.

Jamiyatimizning bir bo'laki bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga yo'naltirish, sog'lom bolalar qatori o'z qobiliyati va imkoniyatlaridan foydalana oladigan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan inson bo'lib voyaga yetkazish davlatimizning ustivor vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy qilish ishlari dastlab 1996 yilning noyabr oyida Respublika seminari o'tkazilishi bilan amalga oshirila boshlangan. Ushbu seminar BMTning YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda "Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar" mavzusida Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. 1998 yilning oktabr oyida xalqaro YUNESKO tashabbusi bilan Buxoro shahrida yirik konferensiya o'tkazilgan. Unda alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, rehabilitatsiya qilish, ta'limga jalb qilish, moddiy-texnik bazalar bilan ta'minlash va ularni to'laqonli jamiyatga moslashtirishga oid turli tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishda Markaziy Osiyoda ko'p tarmoqli aloqalar o'rnatish maqsadida tashkil etilgan [6].

Respublikamizda 2020 yil sentabr oyida yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonun tasdiqlanishidan avval O'zbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislari bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlil o'tkazilgan. Qonunning 20-moddasida jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish masalalari belgilangan. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasi 2021 yil 12 oktabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi. 2021-2022 o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning 24 foizini inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan. 2025 yilga borib bu ko'rsatkich 40 foizga yetishi nazarda tutilgan.

Maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish uchun mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklardan foydalanish, shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim jarayonlarini jadallashtirish ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan [7]. Bir qator tadqiqotchilar (D.V. Zaitsev, I.L. Loshakova, P.V. Romanov, E.R. Yarskaya Smirnova) oddiy maktab o'quvchilarining alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga nisbatan munosabatlarni tahlil qildilar. Bundan shunday xulosa qilindiki, sog'lom bolalar harakat-tayanch tizimi kasalliklariga chalingan tengdoshlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishadi. Eshitish va ko'rish tizimi buzilishi bilan bog'liq bo'lganlarga esa kamroq e'tibor ko'rsatishadi. Eng past tolerantlik darajasi esa aqliy zaif bolalarga nisbatan belgilangan [8].

Ta'lim sohasidagi ingliz mutaxassisi T. But shuni qayd etadiki, umumiy ta'lim maktabida muhitni o'zgartirmasdan alohida ehtiyojli bolalarni jalb etishning iloji yo'q. O'quvchilarning turlicha toifada bo'lishi, ularning har biri maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega ekanligini ta'kidlaydi [9]. Muayyan

sabablarga ko'ra ruhan yoki jismonan imkoniyati cheklangan insonlarni jamiyatdan alohida e'tiborsiz holda ajratib qo'yish mumkin emas. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, ijtimoiy jamiyatga moslashtirish, imkoniyatlaridan foydalanib o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada foydasi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday xalqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi". Davlatimizning ustuvor vazifasi yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ4860-son qarori bilan tasdiqlangan "2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar, shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar [10].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda inklyuziv ta'limning ahamiyati shundan iboratki, alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalarni ilk yoshidanoq oddiy bolalar qatorida sifatli

ta'lim olishlarini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini hamda harakatlarini rivojlantirishdir. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalar quyidagi imkoniyatlarni beradi, ya'ni:

- o'z imkoniyatlarini o'zlari uchun kashf etadilar;

- o'zlarini barcha bilan bir xil hisoblay boshlaydilar;

- ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi;

- o'zlarida mustaqil harakatlanishga bo'lgan ishonch ortadi; dunyoqarashi kengayib, hayotiy tajribasi ortadi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim rivojlanishi davom etmoqda. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, sohaga tegishli qonunlar, o'qituvchilarni tayyorlash, jamiyatda ijtimoiy ongni oshirish, zarur shart-sharoitlarni yaratish va yaxshilash kabi yo'nalishlar ushbu ta'lim jarayonni qo'llab-quvvatlaydi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish jamiyatda o'zaro tenglik, hurmat, ijtimoiy adolatni ta'minlash va shunday ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim jarayonlarini jadallashtirish nazarda tutilgan [11].

O'zbekistonda alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun ta'lim olish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu shaxslarni yanada rivojlantirish va ularga sharoit yaratish uchun qonunchilik bazasi yaratilib, 2020–2025 yillar uchun Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi ishlab chiqilgan. Shu munosabat bilan oliy ta'lim pedagog kadrlari uchun "Oliy ta'limda inklyuziv ta'limni tashkil etish asoslari" bo'yicha masofaviy kurslar tashkil etildi. Bu esa ushbu ta'lim sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yanada oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday qilib, alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalar va yoshlarni o'qitishda maktabgacha, maktab hamda oliy ta'lim muassasalarining bu tizimga tayyorligi katta ahamiyatga ega. Buning uchun inkluziv ta'limga o'tishda asosan milliy mafaatlarni va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan yoshlarni ta'lim olishida mavjud to'siqlarni bartaraf etishga e'tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi va maxsus ehtiyojli bolalar uchun ahamiyati. To'lanboyeva D.Z. Xusanov A.A. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 17 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» Yanvarya, 2024.
2. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.
3. X.E.Rustamova, N.K.Stojarova, Sh.A.Abdurashitova, Q.CH. Nurmamatova. Tibbiyot tarixi [Matn]: o'quv qo'llanma/. X.E. Rustamova va boshq. - Toshkent. «O'zkitobsavdo» nashriyoti, 2020.
4. Qurbonova O.U. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ta'lim-tarbiya masalari. BuxDU ILMIIY AXBOROTNOMASI jurnali, 2018, № 2.
5. Yusuf Xos Hojibning "Qutqadg'u bilig" asarida–boshqaruv san'ati Alibekova H.S., Xolmo'minov M. Z. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 2 / April 2023.
6. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar. Mansurov U. J. Academic research in educational sciences volume 2 | Issue 6 | 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 y. PF-134-son "2022-2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
8. Самохин И.С., Соколова Н.Л., Сергеева М.Г. Путь к общему инклюзивному образованию в современной России: от «Ковчега» до закона // Научный диалог. – 2016 – №7 (55). – С.280–299.
9. Бут Т. Политика включения и исключения в Англии: В чьих руках сосредоточен контроль? // Социальная эксклюзия в образовании: Хрестоматия по курсу/ Сост. III. Рамон, В. Шмидт; Московская высшая школа социальных и экономических наук. М., 2003.
10. «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.
11. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr.



Gulshoda BOYLATOVA,
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti
E-mail: boylatovagulshoda@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b S.Yoqubova taqrizi asosida

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING WRITTEN SPEECH IN PRIMARY GRADES

Аннотация

One of the important conditions for the formation of spiritual and moral qualities of primary school students is written speech. By developing students' speech competencies, it is possible to form such qualities as personal qualities, a positive attitude towards the environment and people, and perseverance in achieving goals. Written speech is directly manifested as a product of human cognitive, psychological and emotional processes. Being able to form it correctly helps to stabilize the student's emotional, psychological state. The article presents some considerations on innovative methods of forming students' written speech.

Key words: Written speech, innovation, primary school, methodology, method, education, approach.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

Одним из важных условий формирования духовно-нравственных качеств учащихся начальной школы является письменная речь. Развивая речевые компетенции учащихся, можно сформировать такие качества, как личностные качества, позитивное отношение к окружающей среде и людям, настойчивость в достижении цели. Письменная речь непосредственно проявляется как продукт познавательных, психологических и эмоциональных процессов человека. Умение правильно ее формировать способствует стабилизации эмоционального, психологического состояния ученика. В статье представлены некоторые соображения об инновационных методах формирования письменной речи учащихся.

Ключевые слова: Письменная речь, инновация, начальная школа, методика, метод, образование, подход.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA YOZMA NUTQNI INNOVATSION O'RGATISH USULLARI

Аннотация

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllantirishning muhim shartlaridan biri yozma nutqdir. O'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali shaxsiy fazilatlar, atrof-muhit va insonlarga ijobiy munosabatda bo'lish, maqsadlarga erishishda tirishqoqlik singari sifatlarini shakllantirish mumkin. Yozma nutq bevosita inson kognitiv, psixologik va hissiy jarayonlarining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Uni to'g'ri shakllantira olish o'quvchi hissiy-emotsional, psixologik holatining barqaror bo'lishiga yordam beradi. Maqolada o'quvchilar yozma nutqni shakllantirishning innovatsion usullari xususida ayrim mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Yozma nutq, innovatsiya, boshlang'ich sinf, metodika, usul, ta'lim, yondashuv.

Kirish. Yozma nutq inson psixologiyasi, xarakter qirralari, shaxsiy fazilatlarini shakllanishida muhim rol o'ynovchi vosita. Boshlang'ich sinflarda yozma nutq o'quvchi shaxsiy fazilatlarining shakllanishi, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, tirishqoqlik va shu singari muhim hayotiy ko'nikmalarning rivojlantirilishida asosiy ahamiyat kasb etadi. Azaldan insonlar mulqotning turli vositalaridan foydalanib, muayyan axborotni yozma shaklda yetkazishga harakat qilishgan. Bugungi kunda arxeologlar, epigraflar yozuvlarni o'rganib, unda inson shaxsiyati, psixo-emotsional holati xususida ham qimmatli ma'lumotlar olish mumkinligini ta'kidlashmoqda. Yozuv ko'nikmalari boshlang'ich sinflar ta'lim dasturining asosini tashkil etadi. O'qib tushunish, tinglab tushunish, nutqiy kompetensiyalarning shakllanishi ham yozma nutq bilan bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon pedagogikasida boshlang'ich ta'lim davomida yozma nutq malakalarini shakllantirishga doir turlicha yondashuvlar mavjud. Jahon tilshunosligida yozma nutqni o'qitish masalalariga bag'ishlanga tadqiqotlarida Atkinson va Weissberg kabi mualliflar ijtimoiy va madaniy kontekstlarning muhimligini ta'kidlaydilar. Atkinson [1] tilni o'zlashtirishni kengroq dunyo bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ijtimoiy tajriba sifatida tavsiflaydi, Vaysberg [2] esa ikkinchi tilda yozishni ijtimoiy o'zaro ta'sirga asoslangan dialog sinf modeli orqali eng yaxshi tarzda egallashini ta'kidlaydi. Gapirish va yozish bir-biridan farq qilsa-da, Harmer (2001) bu ikki ko'nikma o'rtasidagi asosiy o'xshashliklarni, jumladan, tilni tuzish, qoidalar va meyorlarga rioya qilish, kontekstga qarab turli uslublarni qo'llash, auditoriya bilan o'zaro munosabatda bo'lish va qiyinchiliklarni engish uchun improvizatsiya va parafrazlash kabi strategiyalardan foydalanish zarurligini aniqlaydi. Birgalikda

bu istiqbollar og'zaki va yozishni o'rgatishning mumkin bo'lgan afzalliklarini ko'rsatadi.

Rus tilshunosligida ham ushbu masala yuzasidan qator samarali izlanishlar olib borilgan. Pedagog-psixolog L.S.Vigotskiy o'z tadqiqotlarida bola aqliy qobiliyatlarining shakllanishi yozma nutq bilan bog'liqligini asoslaydi [3]. Ko'pgina psixologingvistlar bolada yozma nutqning to'g'ri shakllantirilishi uning keyingi hayotida tafakkuri, kognitiv va kreativlik qobiliyatlarining yuzaga chiqishida muhim poydevor bo'lishini ta'kidlashadi. Boisi yozma nutqni o'zlashtirish asnosida husnixat, imloviy savodxonlik, tinish belgilarini o'rinli qo'llay olish singari jarayonlarga ham alohida urg'u beriladi. "Nutq bilimni rasmiylashtiradi", - deydi R.M. Frumkina, - ko'p jihatdan uni ta'minlaydi va nafaqat yozib oladi va efigra uzatadi" [4]. Darhaqiqat, matn yaratish orqali (uning barcha tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda) o'quvchi voqelikni aks ettirishning umumlashtirilgan usullarini tizimlashtiradi, dunyo va undagi o'z o'rni haqidagi o'z rasmini yaratadi, bu esa shaxsni shakllantirishda ijodiy, konstruktiv tamoyilni faollashtiradi.

O'zbek tilshunosligida tadqiqotchi G.Muhiddinova yozma nutq shakllantirish metodikasiga bag'ishlangan maqolasida grammatik quilmalarni yaxshi bilishi bolaning gaplarni to'g'ri tuzishda va yozuvda har qanday xatodan xoli yozishga yordam berishi, hamda yozuv ko'nikmasini shakllantirish mashqlar orqali yanada rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. [5]

Tadqiqot metodologiyasi. Yozma nutqni o'qitishda an'aviy shakllangan yondashuv mavjud. Yozma nutqni o'zlashtirish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

Ko'rish, eshitish, idrok va yozuvni muvofiqlashtirish. Bolalarda vizual

idrok orqali o'qitishni tashkil etish samaraliroq. Avvaliga bu jarayonlarning ikkalasi ham butunlay ongli ravishda sodir bo'ladi, lekin keyinchalik ular avtomatlashtiriladi. Akustik tahlil va sintez artikulyatsiyaning eng yaqin ishtirokida sodir bo'ladi;

Ushbu bosiqchda fonemalarni grafemik jihatdan idrok qilishga urg'u

beriladi. Bunda bola vizual idrok qilingan shaklning fazoviy joylashuvini hisobga olishi lozim. Demak, grafik belgilar vizual sxemalarda maxsus ritmli ovoz bilan tushuntiriladi.

Harflar vizual idrok qilingach, olingan tasvirni yozish uchun zarur

bo'lgan harakatlarning ketma-ketligi taqlid orqali bajariladi. Bunda vizual idrok qilish va namunaga taqlid qilish orqali qayta kodlash jarayoni amalga oshiriladi. Olingan natija esa tovush bilan talaffuz qiliandi (Masalan A harfi yoziladi, ovoz bilan qayta talaffuz qilinadi)

Tahlil va natijalar. O'quvchilarda izchil yozma nutqni shakllantirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Bunda o'quvchining o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining mavjudligi jarayonning tez va samarali bo'lishiga yordam beradi. Pedagog har bir bolaning individual xususiyatlariga alohida e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek, yozma nutqni o'rgatishga qaratilgan darslarni boshlashdan avval o'quvchilarda bir necha zarur ko'nikmalarni shakllantirishi lozim:

1. mavzuni tushunish;
2. material yig'ish;
3. materialni tartibga solish;
4. til vositalaridan foydalanish;
5. yozilganlarni to'g'rilamoq, takomillashtirmoq,

oshirmoq [6].

boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish asoslari bo'yicha ko'rib chiqilgan nazariy materialga asoslanib, quyidagilar aniqlandi:

- yozma nutq boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq faoliyatining asosiy turlaridan biri bo'lib, uning eng muhim vazifasi muloqot jarayoniga xizmat qilishdir;

- yozma nutq faqat maqsadli o'qitish sharoitida shakllanadi, uning mexanizmlari savod o'rgatish davrida shakllanadi va yanada takomillashtiriladi;

- yozma nutqning murakkabligi va xilma-xilligi nutq va tafakkur o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq;

- yozma nutq - bu o'quvchilarning umumiy tilini va nutq madaniyatini yaxshilashga yordam beradigan tayyor, tuzatish va takomillashtirish tizimi ;

- yozma nutqning o'ziga xosligi ifoda vositalari, birliklari va tuzilishining mavjudligidadir, hamda zamonaviy uslubiy adabiyotlarda amalga oshirilishi grafika va imloni o'zlashtirishga asoslangan yozuv va yozma nutqning o'zini ajratib ko'rsatish odatiy holdir, bu izchil bayonni yaratish jarayonidir va shu bilan bog'liq holda o'quvchi nutq ko'nikmalarini egallashni talab qiladi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqni uch guruh metodlari yordamida rivojlantirish mumkin: taqlid, kommunikativ va konstruktiv usullar;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish uchun bolada o'z fikrlari va his-tuyg'ularini baham ko'rish istagi bo'lishi kerak;

Bolada yozma nutq malakalarini shakllantirishni piramida shaklida bog'lash mumkin:



Birinchi bosqich vizual idrok bilan bog'liq bo'lishi lozim. Vizual idrokda bolaga tanish olamdan notanishga, osondan murakkabga o'tib borishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yozma nutqqa kirishdan avval vizual idrok qilishi lozim. O'qituvchi bola tasvirni analiz qilishi uchun qisman vaqt berishi va undan tizimli savollar asosida rasmni izohlab berishini so'rash maqsadga muvofiq. O'qituvchi bolalar javoblarini eshitgach, obrazli ritmda qayta bog'lanishli nutq tuzishi lozim:

Bu bola kima ekan? Ismi Salim

Salimjon o'tni nima qildi? Sigirga berdi.

Salimjon sigirga nima beribdi? O't beribdi

Bola jarayonni tizimli tashkil qilganda ma'lumotni qabul qilish va uni yozishga tayyor bo'ladi. Bu esa og'zaki va yozma nutq uyg'unligiga bosqichli erishishga yordam beradi. Yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda mavzuga mos lug'at tayyorlash, so'zlarni, birikmalarni, frazeologiyalarni o'quvchi yosh xususiyatlariga ko'ra tanlash lozim. Yozma nutqning diagnostika qilingan malakalarini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1-jadval. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozma nutqni diagnostik tekshirish jadvali

Baholash mezonlari	Ko'rsatkichlar	Masalan
A. Taqdimot yoki matn mavzusiga oid malakalar	Mavzuni tushunish, idrok qilish, qayta hikoya qilish,	Mavzu: Qizil olma Shirin, qizil, katta olma.
Materialni tizimlashtira olish qobiliyati	yo'zma nutqda so'zlarni tartibi va mazmuniga ko'ra to'g'ri tanlash	Men olma yedim. Men olma terdim.
Lingvistik matnni tayyorlash sohasidagi ko'nikmalar	Grammatik vositalarning to'g'ri qo'llanilishi, ekspressivlik darajasi	Men olmani berdim, ukamga berdim. Biz birgalikda olma yedik

Ushbu ko'rsatkichlar o'quvchi yosh xususiyatlariga muvofiq o'zgaradi. Har bir sinfda mezonlar kengaytirib boriladi va jarayon shu orqali baholanadi. Ushbu jadval o'qish ko'nikmalari shakllangan 1-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, bolaning to'g'ri matn tuza olish qobiliyatlarini baholashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan muhim ko'nikmalardan biri yozma nutqdir. Ushbu jarayon psixo-emotsional, fiziologik holat

bilan bevosita bog'liq. O'quvchining to'g'ri va aniq matn tuza olishi uning individual shaxs sifatida o'zini namoyon eta olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bolalarda yozma nutqni to'g'ri shakllantirishda tizimlilikka qat'iy amal qilish maqsadga muvofiq. O'quvchining yozma nutq malakalarini shakllantirish uchun mavzuga mos ifoda va emotsionallikni berishning ko'plab og'zaki usullari mavjud bo'lib bu yozma nutqni xarakterlovchi oi'ziga xos sotsial jihatni ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Atkinson, D. 2002. Toward a sociocognitive approach to second language acquisition. The Modern Language Journal 86 (4): 525–545.
2. Вайсгербер Й.Л. Язык и философия // Вопр. языкознания. – М., 1993. – № 2. – С. 123-162.

3. Фрумкина, Р. М. Психоллингвистика [Текст] : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Р.М. Фрумкина. – М.: Академия, 2003. – 320 с
4. Выготский Л. С. В 92. Психология развития ребенка. — М: Изд-во. Смысл, Изд-во Эксмо, 2004.
5. Muhiddinova G. Yozma nutqni ruiyojlantirish metodikasi // Tamaddun nuri . <https://orcid.org/0009-0003-9718-0537>
6. Апетян, М. К. Психологические и возрастные особенности младшего школьника [Текст] : М. К. Апетян // Молодой ученый. – 2014. – №14 (73). – С. 243-244



Tuxtasin BUTAYEV,
Toshkent davlat texnika universitetining Qo‘qon filiali dotsenti, t.f.n
E-mail:butayev5719@gmail.com.

QDPI professori, falsafa doktori PhD, X.Raxmonov taqrizi asosida

ENGINEER-ENTREPRENEUR PERSONNEL TRAINING SYSTEM

Annotation

The article discusses the importance of developing entrepreneurial competencies among students in engineering education fields at higher education institutions to prepare competitive personnel for the modern labor market and facilitate a step-by-step transition to the third-generation university concept. It highlights the necessity of integrating three key competencies – hard skills, soft skills, and business skills – for future engineers. The study compares the positions of these competencies in the labor market segments and proposes an engineer-entrepreneur system.

Key words: Engineering, entrepreneurship, competence, education, science, innovation, research, commercialization, hard skills, soft skills, business skills, integration, labor market, engineer-entrepreneur, system.

СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ИНЖЕНЕРОВ-ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ

Аннотация

В статье рассматривается значение развития предпринимательских компетенций у студентов инженерных специальностей в высших учебных заведениях для подготовки конкурентоспособных кадров в условиях современного рынка труда и поэтапного перехода к концепции университетов третьего поколения. Указывается на необходимость интеграции трех типов компетенций – hard, soft и business skills – в процессе подготовки будущих инженеров. Проведен сравнительный анализ значимости данных компетенций в сегментах рынка труда, а также разработана система инженер-предприниматель.

Ключевые слова: Инженерия, предпринимательство, компетенция, образование, наука, инновация, научное исследование, коммерциализация, hard skills, soft skills, business skills, интеграция, рынок труда, инженер-предприниматель, система.

MUHANDIS –TADBIRKOR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI

Annotatsiya

Maqolada, Oliy ta'lim muassasalarini muhandislik ishi ta'lim sohalari talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlash tayyorlashda va uchinchi avlod universitetlari konsepsiyasini bosqichma-bosqich o'tish jarayonidagi ahamiyati, hamda bu jarayonida bo'lajak muhandislar uchun uchta hard, soft va business skills kompetensiyalarning integrallashgan holda bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur kompetensiyalarning mehnat bozori segmentidagi o'rinlari qiyoslanib, muhandis-tadbirkor tizimi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Muhandislik, tadbirkorlik, kompetensiya, ta'lim, fan, innovatsiya, ilmiy-tadqiqot, tijoratlashtirish, hard skills, soft skills, business skills, integrallashgan, mehnat bozori, muhandis-tadbirkor, tizim.

Kirish. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari oldiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktabrdagi №PF-5847-son farmoniga asosan "...oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet-3" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish..." vazifalari qo'yilgan.

Demak, oliy ta'lim muassasasini bitirgan kadr zamonaviy mehnat bozorida ish topa olishi hamda o'z ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtira olishi, ya'ni sota olishi kerak bo'ladi.

Oliy ma'lumotli, diplomli kadr mehnat bozorida qanday qilib o'z ish o'rnini topa olishi kerak?

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishi eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, aynan xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni rivojlantirish orqali davlat iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan o'sishiga erishi mumkin. Bozor munosabatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbai muqarrar ravishda, aholi tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi bilan bog'liq [1].

Dunyo tajribasidan ma'lumki, oliy ta'lim tizimi biznes asoschilarining yangi avlodlarini yaratishga va rivojlantirishga yordam beradigan akademik muhitni ta'minlashi kerakligi keng e'tirof qilinib kelinadi [7].

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun ta'limning tadbirkorlikka yo'naltirilgan shakllaridan foydalanib kelishmoqda.

Hech kimga sir emaski, mutaxassisligi bo'yicha ish joyi topa olmagan ko'plab oliy ma'lumotli muhandislar oliy ma'lumot talab qilinmaydigan va mos kelmaydigan sohalarda ishlab kelmoqdalar.

Kompetensiyalarni rivojlantirishning zaruriyati. Oliy ta'lim muassasalarini muhandislik ishi ta'lim sohalari talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning qanday zaruriyatlari bor, hamda mazkur kompetensiyalarni bo'lajak muhandislar hamda jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari uchun qanday ahamiyati bor?

Birinchi zaruriyat, bo'lajak muhandisning hozirgi va kelgusi zamonaviy, murakkab hamda kuchli raqobatlariga ega mehnat bozorlariga kirishi, o'z ish o'rniga ega bo'lishi va uzoq vaqt saqlab qolishi uchun mutaxassislik kompetensiyalaridan tashqari tadbirkorlik kompetensiyalariga ega bo'lishi ham taqazo qilinmoqda [9].

Ikkinchi zaruriyat, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini


nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish» nazarda tutilgan.

Yangi avlod universitetlariga bosqichma-bosqich o'tish global ta'lim jarayonlariga integratsiya imkoniyatini beradi. An'anaviy universitetlar zamon talablariga mos kela olmayapti. Ta'lim berish muhim, lekin kifoya emas. Nazariy tadqiqotlar muhim, lekin ular voqelikdan uzilgan bo'lsa, nazariy darajada qolib ketadi. Bugungi avlod universitetlarimiz ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishni o'rganishi kerak. Bu ularni mahalliy va xalqaro darajada nufuzini va ishonchini oshiradi. Faqatgina moslashuvchan oliyog'largina raqobatga dosh bera oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, oliy ta'lim tizimining muhandislik ishi ta'lim sohasi bitiruvchilari mehnat bozorlarida raqobatlashga bardosh berib, o'z ish o'rinlariga ega bo'lishi yoki mehnat bozorlariga "ish izlovchi" sifatida emas, balki "ish beruvchi" sifatida kirib borishi, ya'ni mustaqil o'z ixtisosligi bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun ham ular tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati katta va dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ammo, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining texnik-muhandislik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalariga ta'limning tadbirkorlikka yo'naltirilgan shakllaridan foydalanishga ahamiyat berilmagan va bu yo'nalishda yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilmagan [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining muhandislik ta'lim yo'nalishlarida ta'lim samaradorligini oshirish borasida ko'plab tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Biroq, mazkur ta'lim sohalarida talabalarida



1-rasm. Soft skills (yumshoq) ko'nikmalarning shakllanish muhitlari.

Zamonaviy mehnat bozorida ish shakllari, bandlik, talab, texnologiyalar va mahsulotlar o'zgarib bormoqda, kasblar paydo bo'ladi va yo'qoladi.

Muhandislar uchun qanday Soft skills-yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini Hard skills-qattiq ko'nikmalarni va tadbirkorlik ko'nikmalarni birgalikda taxlil qilish kerak.

Qattiq ko'nikmalar (ingliz tilidan "Hard skills" dan) vizual tarzda namoyish etilishi, baholanishi va sinovdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan professional, texnik ko'nikmalardir. Qattiq ko'nikma tushunchasi shaxsning muayyan kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi, bu o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan narsadir. Ular ma'lum bir kasb uchun o'zgararmaydi va insonning qaysi kompaniya yoki jamoada ishlashiga bog'liq emas.

Hozirgi oliy ta'lim muassasalarining muhandislik ishi ta'lim sohalarida talabalarida faqat bir tomonlama texnik (qattiq) kompetensiyalarni rivojlantirishga ahamiyat berilib, tadbirkorlik ta'limi qoniqarli darajada emas.

Agar mustaqil ish tashkil qilib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, xaridor sifatida mehnat bozoriga kiradi, ya'ni bo'sh ish o'rinlari yaratib, o'nlab mutaxassislar mehnatini sotib olishi mumkin

Hozirda oliy ta'lim muassasasini texnika yo'nalishi bo'yicha tomomlagan mutaxassis mehnat bozorida o'z ish o'rniga ega bo'lishida quyidagi faktorlar muhim o'rin tutadi:

2-rasmda texnika yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha muhandis –tadbirkor kadrlar tayyorlash tizimining sxemasi keltirilgan.

tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalarida oqsoqlanishlar va kechikishlar mavjud. Shu nuqtai nazardan muhandislik ta'lim sohalarida talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masaladir.

Ma'lumki, Oliy ta'lim muassasasiga kelgunga qadar talabada shakllangan ko'nikmalarning ikki turi, ya'ni yumshoq ko'nikmalar (inglizcha soft skills va qattiq ko'nikmalar (inglizcha hard skills) mavjud.

Talabada soft skills- yumshoq ko'nikmalari esa yillar davomida shakllangan va rivojlanib kelgan. Muhandislik sohasi oliy ta'lim muassasalarida hard skills-qattiq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mutaxassislik malaka talablariga asosan, o'quv rejalar va o'quv fan dasturlarida ko'zda tutilgan bo'ladi. Aytish joizki, talabaniing soft skills- yumshoq ko'nikmalari hard skills-qattiq ko'nikmalarini o'zlashtirish davrida parallel rivojlanib boradi.

Yumshoq ko'nikmalarning shakllanish jarayonida muhitlarni ta'siri katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasasiga kelgunga qadar talabalarda soft skills (yumshoq) ko'nikmalari turli muhitlarning ta'siri natijasida shakllanadi (1-rasm).

Shuningdek, soft skills (yumshoq) ko'nikmalarning shakllanish eng asosiy davrlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

maktabgacha (6-7 yoshgacha)

maktab davrida (15-16 yoshgacha)

oliy o'quv yurti, ish joyi va b.(17-.....).

ish joyining yashash xududiga yaqin bo'lishi;

ish haqini qoniqtirishi;

ish sharoitidan qoniqish;

ish faoliyatining istiqboli;

ish faoliyatida erkinlik.

Aksariyat hollarda a), b) va ye) shartlar bo'yicha qoniqmaslik holati muhandislarni boshqa (oliy ma'lumot talab qilinmaydigan) sohalarida vaqtincha yoki butunlay qo'nim topishiga majbur qiladi. Bu tahsil olish uchun ketgan vaqt va sarflangan mablag'lar behuda ketdi degani emasmi?

Tahlil va natijalar. Umuman olganda, texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ta'limning tadbirkorlikka yo'naltirilgan shakllari jamiyat, mamlakat va iqtisodiyot tarmoqlari uchun qanday foydasi bor, degan dolzarb masalaning javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin:

-Birinchidan, bunday oliy ta'lim tizimini tamomlagan talaba (muhandis –tadbirkor), nafaqat o'z-o'zini ish bilan ta'minlay oladi, balki o'nlab ish o'rinlariga ega ishlab chiqarish korxonasini tashkil qila olish ko'nikmalariga ega bo'ladi;


-Ikkinchidan, talaba tadbirkorlikka yo'naltirilgan ta'limda tahsil olgach, mehnat bozorida mutaxassis sifatida o'z ish o'rnini yarata olish va uzoq vaqt saqlab qola olish, mustaqil qaror qabul qila olish va muammolarni yechimi topa olish ko'nikmalariga ham ega bo'ladi.



2-rasm. "Muhandis –tadbirkor" kadrlar tayyorlash tizimi.

Albatta, mehnat va iqtisodiyot bozorlari uchun tadbirkor tayyorlash texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi bo'lishi kerak emas. Ammo, oliy ta'lim tizimi tomonidan iqtisodiyotning ishlab-chiqarish tarmoqlariga tayyorlanayotgan kadrlarning solmoqli ulushini texnik-muhandislar tashkil qiladi. Shuning uchun muhandislik ishi ta'lim sohlarida oliy o'quv muassasalari talabalarida, qo'shimcha ravishda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yuqorida ko'rib o'tilgan muammolarning ijobiy yechimi bo'ladi.

Bo'lajak muhandislar uchun zarur bo'ladigan uchta hard skills, soft skills va business skills kompetensiyalarning integrallashgan holda bo'lishi katta ahamiyatga egadir [11, 12]. Bu holatlarni taxlil qilish va o'rganish bo'lajak muhandislarining raqobatbardosh bo'lishi uchun oliy ta'lim maskanida nimalarga ahamiyat berish kerakligini ko'rsatib beradi.



3-rasm. Soft skills, hard skills va business skills-larining bog'lanish holatlari

Bo'lajak muhandislar uchun mutaxassisligi bo'yicha talab qilinadigan hard skills-qattiq ko'nikmalar ta'lim yo'nalishi malaka talablari (davlat ta'lim standartlari)da belgilab qo'yilgan. Biroq muhandislik sohasi bo'yicha tez o'zgarib borayotgan mehnat bozoriga moslashish uchun doimo bu ko'nikmalarni o'zgartirib va to'ldirib turish zarur.

Xulosa. Shu yerda aytish joizki, iqtisodchilar tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan soha bo'yicha qonunchilik bazasini bilish, moliya va moliyaviy menejment, moliyaviy savodxonlik, sotish va h.z.lar kabi ko'nikmalarni ko'rsatib o'tmaganimizga haqli e'tiroz bildirish mumkin. Eslatib o'tmoqchimizki,

Bu bog'lanish jarayonlarini taxlil qilish uchun matematikaga murojaat qilib, bog'lanishni uchburchak shaklida aks ettirib olamiz (3-rasm, a)). Agar mehnat bozoriga kirayotgan mutaxassisning hard skills (qisqacha:- hs deb belgilab olamiz), soft skills (qisqacha:- ss deb belgilab olamiz) va tadbirkorlik kompetensiyalari (business skills, qisqacha:- bs deb belgilab olamiz) yetarli shakllangan bo'lsa, ya'ni nominal qiymatlarida bo'lsa, uchburchak teng tamonli bo'ladi, bu holat mutaxassis bozorda raqobatbardosh ekanligini, ish joyida mustahkam o'rnatib, barqaror tura olishini anglatadi. Agar mutaxassisda, hs, ss va bs kompetensiyalaridan birortasi yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa ya'ni nominal qiymatdan past bo'lsa uchburchak teng tamonli bo'lmay qoladi, mutaxassis uchun mehnat bozorida nobarqaror holat kuzatiladi (3-rasm, b, v, g).

muhandislik sohasi oliy ta'lim muassasasi tadbirkorlik bo'yicha kadrlar tayyorlash vazifasini olmaydi. Takrorlab o'tish joizki, bo'lajak muhandislar uchun tadbirkorlik kompetensiyalari zamonaviy mehnat bozorlarida o'z ish o'rnini topish imkonini beradi. Agar bo'lajak muhandis texnika sohasi bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni istasa, faoliyati davomida yuqorida biz ko'rsatib o'tmagan ko'nikmalarni egallab olishi mumkin. Qolaversa bu vazifalarni bajarish uchun mutaxassislar (hisobchi, menedjer, sotuvchi va h.z.) yollashi ham mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Devyatkin, E. A., & Laskovets, S. V. (2014). The Role of Universities in the Development of Students' Entrepreneurial Competencies. //Statistika i Ekonomika= Statistics and Economics. No. 6. Russ., abstract in Eng. 3-8.
2. Ревин I.A., Цыбулевская D.L. (2015). Развитие предпринимательских компетенций у студентов технического вуза. //Современные проблемы науки и образования, (2-1), 514-514.
3. Hlady-Rispa, M., Fayolle, A., & Gartner, W. B. (2021). In search of creative qualitative methods to capture current entrepreneurship research challenges.// Journal of small business management, 59(5), 887-912.
4. Onweh, V. E., Akpan, N., & Caleb, E. (2022). Youth empowerment and the integration of entrepreneurship education into Technical Vocational Education and Training (TVET) in Nigeria.//Academic Journal of Interdisciplinary. 2022.Vol 2 No 2.
5. Maigida, J. F., Saba, T. M., & Namkere, J. U. (2013). Entrepreneurial skills in technical vocational and training as a strategic approach for achieving youth empowerment in Nigeria.// International Journal of Humanities and Social Science Vol. 3 No. 5; March 2013
6. Welsh, D. H., & Dragusin, M. (2011). Entrepreneurship education in higher education institutions as a requirement in building excellence in business: The case of the University of North Carolina at Greensboro.//Forumware International, 1, 266-272.
7. Ubaydullayev, L., Ergasheva, F. Development of enterprise products in students-as a factor of production problems for young enterprises.//Общество и инновации, 2021. 2(2/S), 446-456.
8. Kuratko D.F. The emergence of entrepreneurship education: Development, trends, and challenges.//Entrepreneurship theory and practice, 2005. 29(5), 577-597.
9. Keat, O.Y., Selvarajah, C., & Meyer, D. (2011). Inclination towards entrepreneurship among university students: An empirical study of Malaysian university students.//International journal of business and social science, 2(4).
10. Kasimakhunova, A. M., & Butaev, T. Methods of Developing Entrepreneurial Competencies in Students of Engineering Education.// European journal of innovation in nonformal education, (2022). 2(1), 309-315.
11. Butayev, T. (2022). Methods of teaching students entrepreneurship and rules of working with business. Scienceweb academic papers collection.
12. Kasimakhunova A.M., T.Bo'tayev. Muhandislik ta'lim sohalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati. «Uchinchi renessansni shakllantirish sharoitida xizmat ko'rsatish va ta'lim xizmatlari sohalarini rivojlantirish muammolari». //Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (III qism). Samarqand – 2022. 178-181 b.



Nodira GOIPOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: nodiragoipova@mail.ru

DSc, professor T.Ismoilov taqrizi ostida

BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA VA BOLALARNI UYDA TARBİYALASHDA LOGORITMIK MASHQLAR TIZIMIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada nutq va tilni rivojlantirish bolaning umumiy rivojlanishi uchun juda muhim bo'lgan logoritmik mashg'ulotlarni tashkillashtirish jarayonining tahliliga bag'ishlangan. Odatda bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlar juda erta boshlanadi va bu bolalar nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir yoshda o'ziga xos logoritmik mashqlar tizimidan foydalaniladi bu jarayon esa nutqning shakllanishida juda muhimdir.

Kalit so'zlar: Nutq, til, nutq terapiyasi, nutq terapevti, psixolog, maxsus pedagog, taqlid qilish, nozik harakat qobiliyatlari, artikulyatsiya, raqs elementlari, ritmik musiqa, dizleksiya, ritm hissi.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ ЛОГОРИТМИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ И В ДОМАШНЕМ ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу процесса организации логарифмического обучения, что имеет большое значение для развития речи и языка ребенка. Логарифмические упражнения, которые обычно проводятся с детьми, начинаются очень рано, и это важно для развития детской речи. В каждом возрасте используется уникальная система логарифмических упражнений, и этот процесс очень важен в формировании речи.

Ключевые слова: Речь, язык, логопед, логопед, психолог, специальный педагог, подражание, мелкая моторика, артикуляция, танцевальные элементы, ритмичная музыка, дислексия, чувство ритма.

THE CHARACTERISTICS OF USING A SYSTEM OF LOGORHYTHMIC EXERCISES IN DEVELOPING CHILDREN'S SPEECH AND IN EDUCATING CHILDREN AT HOME.

Annotation

This article is devoted to the analysis of the process of organizing logarithmic learning, which is of great importance for the development of a child's speech and language. Logarithmic exercises, which are usually carried out with children, begin very early, and this is important for the development of children's speech. Each age uses a unique system of logarithmic exercises, and this process is very important in the formation of speech.

Key words: Speech, language, speech therapist, speech therapist, psychologist, special teacher, imitation, fine motor skills, articulation, dance elements, rhythmic music, dyslexia, sense of rhythm.

Kirish. Nutq va tilni rivojlantirish bolaning umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bu bolaning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, tilni tushunish va qayta ishlash qobiliyatining asosidir. Bola kuchli til ko'nikmalarisiz akademik, ijtimoiy va hissiy jihatdan kurashishi mumkin. Nutq terapiyasi bolangizga muloqotdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Ota-ona sifatida siz bolangizga kuchli til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaysiz. Farzandingizni nutq terapiyasidan foydalanib bolangizga uyda nutq ko'nikmalarini yaxshilashga yordam bera olishingiz mumkin. Farzandingiz bilan uyda nutq terapiyasi mashqlarini bajarish ularning til rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlashi va nutq va muloqot qobiliyatlarini yaxshilashi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Musiqa bilan jismoniy mashqlar Qadimgi Misr davridan beri ma'lum bo'lgan. Yunonlar, arablar va rimliklar badiiy gimnastikadan jismoniy salomatlikni mustahkamlash maqsadida musiqa ritmini qo'llash usuli sifatida foydalanishganlar. 19-20-asrlar oxirida turli Evropa mamlakatlarida deyarli bir vaqtning o'zida ritm va ritmik ta'lim masalalariga oid maqolalar, nashrlar va tadqiqotlar paydo bo'ldi. O'qituvchilar, olimlar va musiqachilarning ushbu muammo bo'yicha nazariy va amaliy pozitsiyalari ushbu sohada ayniqsa mashhur bo'ldi: N.A. Rimskiy-Korsakov, E. Jak-Dalkroze, B.M. Teplova, N.G. Aleksandrova va boshqalar aniqlanganki, barcha biologik tizimlarda vaqt hayotni qo'llab-quvvatlaydigan energiya almashinuvini tartibga soluvchi ritmik faollik bilan ifodalanadi

Jak-Dalkroze musiqa va harakat yordamida dastlab musiqachilarda, keyin esa maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda ritmni rivojlantirish muammosini hal qildi. Ish davomida o'quvchilarning musiqiy qulog'i, xotirasi, e'tibori, ritm tuyg'usi va harakatlarning plastik ifodaliligi rivojlandi [Jacques-Dalcroze, 1913]. Musiqa mashqlar majmuasida shakllantiruvchi prinsip hisoblangan. 20-asrning 80-yillarida Volkova nutq terapiyasi ritmini fan sifatida ajratib ko'rsatdi. G.A. Volkova dislaliya, alaliya, rinolaliya, dizartriya, afaziya, ovoz buzilishi kabi nutq buzilishlarini kompleks tuzatish bo'yicha aniq uslubiy tavsiyalar taklif qilib, nutq terapiyasi ritmlarini qo'llash doirasini kengaytirdi.

Muhokama va natijalar. Ota-onalar har kuni farzandlari bilan oddiy logoritmik mashqlarni bajarishlari kerak. Bunday o'yinlar odamlarni birlashtiradi, kayfiyatini ko'taradi. Ammo bu chora-tadbirlar to'liq rivojlanish uchun yetarli emas (agar ota-onalar muayyan malakaga ega bo'lmasa). Ta'lim, o'qitish, malaka oshirish va tuzatish ishlari uchun sizga mutaxassis yordami kerak:

nutq terapevti;
psixolog;
maxsus pedagog

Bolalar bog'chalarida logoritmik mashqlar ko'pincha musiqa xodimi tomonidan amalga oshiriladi (davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida nutq terapevtlari va psixologlar kamdankam uchraydi, agar ular mavjud bo'lsa, ular boshqa vazifalarni bajaradilar. Va ularda qo'shimcha rivojlanish darslari uchun vaqt

yoki imkoniyat yo'q). Farzandingizning barkamol rivojlanishiga yordam berish uchun, logoritmika haqiqatdan ham juda foydali.

1-2 yoshli bolalar uchun logoritmika

Bir yoshga to'lganida, bola endigina yurishni boshlaydi. Shuning uchun, darhol bolalarni musiqaga aniq mashq qilishni o'rgatish hech qanday foyda keltirmaydi. Nutq va harakatni muvofiqlashtirishni rivojlantirish uchun oddiy mashqlar bolalar uchun mos keladi.

"Hayvonlarga taqlid qilish." Masalan, tovuq nima deydi va nima qiladi. Buning uchun kattalar qo'llari bilan qanotlarini qoqishga taqlid qiladi va "ko-ko-ko" deb aytadi. Bola takrorlaydi yoki sizni diqqat bilan kuzatadi, harakatni o'zlashtiradi, bir necha marotaba ko'rgandan keyin takrorlaydi.

Musiqiy asboblarni chalish (baraban, ksilofon). Bola ularni taqillatibgina qolmay, balki ritmga rioya qilishga harakat qilishi kerak. Katta odamlar darhol ma'lum bir ritm bilan 3-5 ta notani uradi va bola takrorlaydi.

"Biz yurishni o'rgandik." Musiqa ostida yurish mashqlari. Qo'shiq yangradi. Va bolalar aylana bo'ylab yurishadi. 2 ta oddiy qadam, 2 ta - tizzalarinigizni baland bukish. Agar bola endigina yura boshlagan bo'lsa, uni qo'li bilan boshqaradi.

Bolaning hamma narsada muvaffaqiyat qozonishi shart emas. Asosiysi, bola harakat qiladi, uni qiziqishini orttiradi. Astasekin u hamma narsani o'rganadi.

2-3 yoshli bolalar uchun logoritmika

Bu davrda nutq shakllana boshlaydi. Logoritmik darslarning asosiy maqsadi nutq faolligini rag'batlantirishdir. Bular trening mashqlari:

nafas olish;

nutq apparati mushaklarining rivojlanishi;

artikulyatsiya;

nozik harakat qobiliyatlari.

Bolada asosiy narsa "taqlid" emas, so'zlarni to'g'ri nomlash (mushuk - bu "mushukcha" emas, balki mushuk;

Foydali mashqlar:

Ovozlariga taqlid qilish (qushlarning qo'shig'i, yomg'irning urishi, shamol esadi, otning shovqini). O'yinda rasmlar va qisqa hikoyalar qo'llaniladi, ularda bolalarga shamol qanday esayotganini yoki otga qanday minishini ko'rsatish kerak.

"Sabzavotlar va mevalar". Musiqa jo'rligida, ma'lum bir sabzavot haqida qisqa she'rlar o'qilishi bilan ijro etiladi. Bola qanday qilib ekilganini, sug'organini, to'plaganini va qanday o'sganini ko'rsatadi.

"Hasharotlar". Musiqa jo'rligida ular asalarilarning qanday shovqin-suron va asal yig'ishini ko'rsatadilar.

3-4 yoshli bolalar uchun logoritmika

Bu yoshda ritmik mashqlarni bajarib, ular vosita va nutq qobiliyatlarini birlashtiradi. Sinflaringizga raqs elementlari va hisoblash mashqlarini kiritishingiz mumkin. Ushbu yosh guruhiga mos keladigan tadbirlar:

Barmoq gimnastikasi. "Uy" turiga ko'ra barmoqlarni yo'gurma mashqlari. U sokin, sokin musiqaga ostida amalga oshiriladi. Bolalar kattalardan keyin harakatlar va so'zlarni takrorlaydilar.

Marsh. Bolalar hisoblashadi va ritmik musiqaga ostida yurishadi. Shu bilan birga, ular kosmosda harakat qilishni o'rganadilar ("chap", "o'ng" buyrug'ini yoqing).

Tengdoshlar bilan muloqot qilish uchun o'yinlar. Ijro paytida boshqa bolalarga murojaat qilishingiz kerak bo'lgan qo'shiq yoki she'r tanlanadi. Qo'llaringizni ushlab turing, qo'llaringizni yuqoriga ko'taring va bir vaqtning o'zida pastga tushiring. Shu bilan birga, mos keladigan oyatni kuylang yoki o'qing.

Vazifalarni bajarishda ma'lum bir ritmga rioya qilish muhimdir. Sekin musiqaga bilan birga yakuniy yengillik mashqlari tinchlantiradi, nafas olish va yurak urishini normallantiradi.

4-5 yoshli bolalar uchun logoritmika

Logoritmik mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tavsiya etiladi, jumladan nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirish, hisoblash, xotirani rivojlantirish va sof iboralarni (tovushlarni mashq qilish uchun) uchun mashqlar. To'rt yoshdan boshlab artikulyatsiya va tovushni takrorlash bo'yicha intensiv mashg'ulotlar, agar bolada diksiya bilan bog'liq muammolar

bo'lsa, tuzatish ishlarining bir qismi sifatida o'tkaziladi. Raqs texnikasi va rolli o'yinlarni o'z ichiga oladi.

"Toshbaqa". Bola toshbaqa oyatini takrorlaydi va tegishli harakatlarni amalga oshiradi. Misol uchun, so'z bilan aytganda, tishlash va tishlash biroz chayqaladi.

Ovozni mustahkamlash uchun ular sof iboralarni talaffuz qiladilar, ritmik ravishda qo'llarini qarsak chalib, oyoqlarini uradilar.

She'r ko'rsatish. Musiqiy hamrohliksiz ijro etilishi mumkin. Oyatni takrorlashda ular muayyan harakatlar qiladilar. Masalan, ular shamoldan daraxtning qanday egilishini, dengizning g'azabini, kemaning to'lqinlarda suzib yurishini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, she'rda mavzuli satrlar mavjud.

Barcha darslar o'ynoqi tarzda o'tkaziladi. "Barmoq gimnastikasi" talab qilinadi.

5-6 yoshli bolalar uchun logoritmika

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yanada murakkab tadbirlar tanlanadi. Bu yoshga kelib, bolaning barcha tovushlarning aniq talaffuzini rivojlantirishi muhimdir. Aks holda, u maktabga borganida, o'qish va yozishni o'zlashtirish, bolalar va o'qituvchi bilan muloqot qilishda muammolar paydo bo'ladi.

Dizleksiya bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa, mashg'ulotlar har kuni o'tkaziladi. She'rlarni ijro etish. Bola satrlarni takrorlaydi va nima haqida gapirayotganini ko'rsatadi.

Yurish nafaqat yo'nalishni o'zgartirish va ritmik hisoblash bilan, balki marsh qo'shiqlarini ijro etish bilan ham birlashtiriladi.

Bolalar she'r uchun o'zlarining harakatlarini taklif qilishadi.

She'r o'qiyotganda, faqat so'zlarni yodlash emas, balki intonatsiya muhim ahamiyatga ega.

6-7 yoshli bolalar uchun logoritmika

Bu yoshda murakkab mashqlar tanlanadi. Bunday holda, mashg'ulot o'yin shaklida bo'lishi kerak. Masalan:

"Muzlatish" o'yini. Bolalar musiqaga ostida yugurishadi va u to'xtashi bilan ular ma'lum bir tarzda to'xtashlari kerak. Taqdimotchi buni ko'rsatadi yoki bolaning o'zi buni o'ylab topadi, lekin keyin u kimning pozasida qotib qolganini tasvirlaydi va boshqa bolalar taxmin qilishadi.

"O'yna". Harakatlarning sxematik tasvirini chizish (sakrash, aylanish). Bola ushbu sxema bo'yicha harakat qilishi kerak. Tez yoki o'rta tempi musiqani tanlang.

"Bog'bon". Ular "Kecha biz bog'da yurdik ..." gapini o'qiydilar, qo'llarimiz bilan aniq nima qilayotganimizni ko'rsatamiz. Tezlikni saqlang. She'r ifodalari tarzda aytiladi.

Logoritmik mashqlarni tanlash juda katta. Turli xil ta'lim usullari mavjud. Optimal dastur bolaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda mutaxassis tomonidan tuziladi.

Xulosa

Musiqiy logoritmik - bu nutqni rivojlantirish texnikasi. Bu nafaqat nutq nuqsonlari tufayli tuzatishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun javob beradi. Bunday tadbirlar bolaning uyg'un shakllanishiga yordam beradi.

artikulyatsiya;

harakatlarni muvofiqlashtirish;

psixologik jarayonlar (xotira, e'tibor, tasavvur);

kosmosda navigatsiya qilish qobiliyati;

vosita qobiliyatlari, shu jumladan nozik;

ritm hissi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, logoritmika bolalarning psixologik rivojlanishi uchun muhim bo'lgan nutqiy, hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarni shakllantirishda samarali metodikadir. Musiqa, harakat va nutqiy mashqlarni birlashtiruvchi bu metodika yordamida bolalar nafaqat talaffuz va so'z boyligini rivojlantiradi, balki o'zini ifodalash, stressni kamaytirish, diqqat va konsratsiya qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Mashg'ulotlar psixo-emotsional holatni yaxshilaydi va muloqot qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ular komplekslardan, ayniqsa nutq nuqsonlaridan kelib chiqadiganlardan xalos bo'lishga yordam beradi.

Farzandingizga tushunish va javob berishga yordam berish uchun to'g'ridan-to'g'ri va yoshiga mos lug'at bilan muloqot qiling.

Bolalarni nutq terapiyasiga jalb qilish uchun qiziqarli tadbirlar va o'yinlarni qo'shing.

Amaliy amaliyot uchun nutq mashqlarini kundalik ishlarga integratsiyalash.

Muntazam mashq qilish va sabr-toqat taraqqiyot uchun juda muhimdir.

Yo'l-yo'riq va moslashtirilgan rejalar uchun muntazam ravishda defektolog bilan bog'laning.

Farzandingiz bilan uyda gaplashayotganda aniq va tushunarli tilda va yoshiga mos lug'atdan foydalaning.

Farzandingizni sizga javob berishga rag'batlantiring va ularning harakatlari uchun maqtang.

Farzandingiz bilan tez-tez suhbatlashing, uning til ko'nikmalarini rivojlantirish va samarali muloqot qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam bering.

Farzandingizga yangi so'z va g'oyalarni ochib bering va unga til ko'nikmalarini mashq qilishiga imkon bering. Farzandingiz bilan suhbatlashish ularning so'z boyligini oshirishga, eshitish qobiliyatini oshirishga va o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva, N. (2020). Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. G'aniyev, A. (2019). Logoritmika asoslari va amaliyoti. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
3. Goipova, N. B. Q., & Qambaraliyeva, D. A. Q. (2024). Logoritmikaning bolalar psixologiyasiga kompleks ta'siri. Science and Education, 5(11), 199-203.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Elkonin, D. B. (1989). Child Development and Education. Moscow: Pedagogika.
6. Rogov, E. I. (2014). Psixologiya i pedagogika razvitiya rechi detey. Moskva: Vados.



Shavkat G'ULOMOV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: shavkatgulomov@mail.ru

PhD, dotsent X.Xidirov taqrizi asosida

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING YOUTH'S SPIRITUAL AND MORAL OUTLOOK

Annotation

In the digital age, technology plays a pivotal role in shaping the lives of young people. This paper explores the influence of digital technologies on the spiritual and moral development of youth. Through a comprehensive review of current literature and case studies, the study highlights how digital platforms, educational software, and social media contribute to fostering ethical values, spiritual awareness, and moral reasoning among young people. The findings suggest that while digital technologies present challenges, they also offer significant opportunities for enhancing youth's spiritual and moral outlook.

Key words: Digital technologies, Moral development, Spiritual development, Youth, Online communities, Educational software, Digital literacy, Ethical engagement, Misinformation.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЛУЧШЕНИИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В эпоху цифровых технологий технологии играют ключевую роль в формировании жизни молодых людей. В данной статье исследуется влияние цифровых технологий на духовно-нравственное развитие молодежи. Благодаря всестороннему обзору текущей литературы и тематических исследований исследование показывает, как цифровые платформы, образовательное программное обеспечение и социальные сети способствуют укреплению этических ценностей, духовного сознания и моральных рассуждений среди молодых людей. Результаты показывают, что, хотя цифровые технологии создают проблемы, они также открывают значительные возможности для улучшения духовного и нравственного мировоззрения молодежи.

Ключевые слова: Цифровые технологии, Нравственное развитие, Духовное развитие, Молодежь, Интернет-сообщества, Образовательное программное обеспечение, Цифровая грамотность, Этическая вовлеченность, Дезинформация.

YOSHLAR MA'NAVIY- AXLOQIY DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotation

Raqamli asrda texnologiya yoshlar hayotini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Mavjud adabiyotlar va amaliy tadqiqotlarni har tomonlama ko'rib chiqish orqali tadqiqot raqamli platformalar, ta'lim dasturlari va ijtimoiy media yoshlarda axloqiy qadriyatlar, ma'naviy ong va axloqiy fikrlashni rivojlantirishga qanday hissa qo'shishini ta'kidlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar qiyinchiliklar tug'dirishi bilan birga, yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirish uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, Axloqiy rivojlanish, Ma'naviy rivojlanish, Yoshlar, Onlayn jamoalar, Ta'lim dasturlari, Raqamli savodxonlik, Axloqiy ishtirok, noto'g'ri ma'lumotlar.

Kirish. Raqamli asr bizning dunyo bilan muloqot qilish, o'rganish va o'zaro munosabatda misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keldi. Ko'pincha yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda birinchi o'rinda turadigan yoshlar uchun bu o'zgarishlar ularning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli mahalliy aholi sifatida yoshlar raqamli texnologiyalar kundalik hayotga chuqur singib ketgan muhitda o'sib bormoqda. Ushbu integratsiya, ayniqsa, ma'naviy va axloqiy rivojlanish sohasida imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi.

Ma'naviy-axloqiy kamolot yoshlar kamolotining muhim jihati bo'lib, ularning qadriyatlari, xulq-atvori va hayotga umumiy nuqta nazariga ta'sir qiladi. An'anaga ko'ra, rivojlanishning bu jihatlari oila, ta'lim, diniy muassasalar va jamiyatning o'zaro ta'siri orqali tarbiyalangan. Biroq, raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi shaxsiy o'sishning ushbu o'lchovlarini o'rganish va shakllantirish uchun yangi yo'llarni taqdim etdi.

Raqamli texnologiyalar keng doiradagi vositalar va platformalarni, jumladan, ijtimoiy media, ta'lim dasturlari, onlayn hamjamiyatlar va interaktiv ilovalarni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar yoshlarga axloqiy masalalar va ma'naviy e'tiqodlarni tushunishlarini kuchaytirishi mumkin bo'lgan juda ko'p ma'lumotlar va tajribalardan foydalanish imkonini beradi. Jumladan, onlayn forumlar va ijtimoiy media platformalar yoshlarga hamdardlik va axloqiy mas'uliyat hissini uyg'otib, global muammolar bo'yicha munozaralarda qatnashish imkonini beradi. Xuddi shunday, axloqiy dilemmalar bilan yaratilgan ta'lim

o'yinlari va dasturiy ta'minot axloqiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishi mumkin, diniy ilovalar va onlayn hamjamiyatlar ma'naviy izlanish va qo'llab-quvvatlash uchun resurslarni taklif qiladi.

Ushbu afzalliklarga qaramay, raqamli texnologiyalarning keng tarqalgan tabiati ham tashvish tug'diradi. Noto'g'ri ma'lumotlar, ortiqcha ekran vaqti va shaxsiy hayotga oid xavf kabi muammolar ushbu texnologiyalarning yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'siriga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, ushbu kontekstda raqamli texnologiyalarning rolini tanqidiy tahlil qilish, ulardan yoshlarning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashini qo'llab-quvvatlash va yaxshilash, shu bilan birga bog'liq xavflarni kamaytirish uchun qanday foydalanish mumkinligini tushunish juda muhimdir.

Ushbu maqola yoshlarning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashini yaxshilashda raqamli texnologiyalarning ko'p qirrali rolini o'rganishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlar va amaliy tadqiqotlarni har tomonlama ko'rib chiqish orqali tadqiqot raqamli texnologiyalarning ijobiy hissalarini va muammolarini ta'kidlaydi. Ushbu dinamikani tushunish orqali o'qituvchilar, ota-onalar va siyosatchilar yoshlarni raqamli landshaftda harakat qilishda va axloqiy qadriyatlar va ma'naviy ongni rivojlantirish uchun salohiyatidan foydalanishda yaxshiroq qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalar va axloqiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik katta ilmiy qiziqish mavzusidir. Ko'plab tadqiqotlar raqamli vositalar va platformalar yoshlarning axloqiy mulohazalari va axloqiy xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganib chiqdi.

Tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri raqamli platformalar yoshlar o'rtasida axloqiy munosabatlarni qanday osonlashtirishiga qaratilgan. Xoffman (2020) ta'kidlashicha, ijtimoiy media va onlayn forumlar yoshlarga axloqiy masalalarni muhokama qilish va munozara qilishlari mumkin bo'lgan joylarni ta'minlaydi va shu bilan ularning axloqiy rivojlanishini oshiradi. Ushbu platformalar yoshlarni turli nuqtai nazarlarga ochib beradi, ularni turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga va axloqiy dilemmalarni yanada nozikroq tushunishga undaydi.

Axloqiy muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan ta'lim dasturlari ham axloqiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jeyms (2018) interaktiv o'quv vositalari va o'yinlar axloqiy ssenariylarni qanday simulyatsiya qilishi mumkinligini ta'kidlaydi, bu esa yoshlarga nazorat ostidagi muhitda axloqiy qarorlar qabul qilishni mashq qilish imkonini beradi. Ushbu ta'lim vositalari, ayniqsa, foydalanuvchilarga puxta o'yab ko'rish va mulohaza yuritishni talab qiluvchi murakkab, real dunyo dilemmalarini taqdim etish orqali axloqiy fikrlashni rivojlantirishda samaralidir.

Raqamli texnologiyalarning ma'naviy rivojlanishga ta'siri tadqiqotning yana bir muhim yo'nalishidir. Internet diniy matnlar va va'zlardan tortib meditatsiya dasturlari va onlayn ma'naviy jamoalargacha bo'lgan ma'naviyatni o'rganish va tarbiyalash uchun ko'plab resurslarni taklif etadi.

Smit (2019) raqamli texnologiyalarning ma'naviy resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashda o'zgaruvchan salohiyatini ta'kidlaydi. Yoshlar turli xil urf-odatlardagi diniy matnlar, va'zlar va ta'limotlarga osongina kirishlari mumkin, bu ularga turli ma'naviy yo'llarni o'rganishga va o'z e'tiqodlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Raqamli platformalar, shuningdek, yoshlarga ruhiy amaliyotlarni kundalik hayotlariga integratsiyalashda yordam beradigan meditatsiya va ibodat ilovalari kabi ma'naviyat bilan shug'ullanish uchun vositalarni taklif etadi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlarni o'rganish natijalari yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida raqamli texnologiyalarning murakkab va ko'p qirrali rolini ta'kidlaydi. Raqamli texnologiyalar yoshlarning axloqiy va ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish uchun katta imkoniyatlar yaratasa-da, ular ehtiyotkorlik bilan boshqarish va yumshatishni talab qiladigan muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Raqamli texnologiyalarning eng muhim hissalaridan biri bu turli istiqbollarni va ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Onlayn platformalar yoshlarga keng ko'lamli axloqiy va ma'naviy qarashlar bilan shug'ullanish imkonini beradi, bu ularning tushunchalarini kengaytiradi va ko'proq empatiya va bag'rikenglikni rivojlantiradi. Turli g'oyalarni va madaniyatlarga ta'sir qilish har tomonlama axloqiy va ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar yoshlar hamfikrlar bilan bog'lanishlari va yordam so'rashlari mumkin bo'lgan onlayn

hamjamiyatlarni yaratishga yordam beradi. Bu jamoalar, ayniqsa, jismoniy muhitda yolg'iz qolgan yoki o'z shaxsiyatini o'rganayotgan yoshlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Onlayn diniy jamoalar va axloqiy muhokamalar forumlari mazmunli ishtirok etish va qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini oshirish uchun joylarni taqdim etadi.

Axloqiy dilemmalar va ma'naviy mavzular bilan yaratilgan ta'lim dasturlari va o'yinlari yoshlarga o'zlarining axloqiy fikrlashlari va ma'naviy amaliyotlarini rivojlantirish uchun interaktiv va qiziqarli usullarni taklif qiladi. Ushbu vositalar haqiqiy dunyo ssenariylarini taqlid qilishi mumkin, bu esa yoshlarga xavfsiz va nazorat ostidagi muhitda qarorlar qabul qilish va o'z qadriyatlariga haqida fikr yuritish imkonini beradi. Ushbu tajribaviy o'rganish ularning axloqiy va ma'naviy tamoyillarni tushunish va sadoqatini chuqurlashtirishda samaralidir.

Internetda noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi jiddiy muammodir. Yoshlar axloqiy va ma'naviy masalalarni tushunishlarini buzishi mumkin bo'lgan noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlarga duch kelishlari mumkin. Tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish ularga ushbu murakkab axborot landshaftini boshqarishga yordam berish uchun juda muhimdir. O'qituvchilar va ota-onalar ushbu ko'nikmalarni o'rgatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu esa yoshlarning ishonchli manbalarni aniqlay olishini va mazmun bilan o'ylangan holda shug'ullanishini ta'minlaydi.

Yoshlarning umumiy farovonligi va rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yana bir tashvish. Raqamli texnologiyalar ko'p afzalliklarni taqdim etsa-da, ular yaxlit rivojlanish uchun muhim bo'lgan real dunyo o'zaro ta'siri va tajribalarini almashtirish kerak. Balans muhim; Yoshlarni oflayn faoliyat bilan shug'ullanishga, tabiat qo'nyida vaqt o'tkazishga va jamoat tadbirlarida ishtirok etishga undash ularning raqamli tajribasini to'ldirishi va yanada yaxlit rivojlanishga yordam berishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarning ikki tomonlama tabiati – imkoniyatlar ham, qiyinchiliklar ham bor – ularning yoshlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Manfaatdor tomonlar, shu jumladan o'qituvchilar, ota-onalar va siyosatchilar raqamli texnologiyalarning afzalliklaridan foydalanadigan va ular bilan bog'liq xavflarni hal qiladigan muhitni yaratish uchun hamkorlik qilishlari kerak.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega. Turli nuqtai nazarlardan foydalanishni ta'minlash, jamoatchilik ishtirokini osonlashtirish va interfaol ta'lim vositalarini taklif qilish orqali bu texnologiyalar yoshlarda kuchli axloqiy kompas va chuqur ma'naviyat tuyg'usini tarbiyalashga yordam beradi. Biroq, raqamli texnologiyalarning ta'siri juda ijobiy bo'lishini ta'minlash uchun noto'g'ri ma'lumotlar, ortiqcha ekran vaqti va maxfiylik xavflari kabi bog'liq muammolarni hal qilish juda muhimdir. Muvozanatli va hamkorlikdagi yondashuv orqali o'qituvchilar, ota-onalar va siyosatchilar yoshlarni raqamli landshaftda harakat qilishda va axloqiy qadriyatlar va ma'naviy ongini rivojlantirish uchun uning salohiyatidan foydalanishda qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Hoffman, M. L. (2020). The Influence of Social Media on Moral Development. *Journal of Digital Ethics*, 12(3), 45-60.
2. James, P. (2018). Educational Software and Moral Reasoning. *Journal of Educational Technology*, 22(1), 78-92.
3. Smith, J. A. (2019). Spiritual Growth in the Digital Age. *Journal of Religious Studies*, 14(2), 134-148.
4. Wilson, T. (2021). Online Religious Communities and Youth. *Journal of Sociology of Religion*, 18(4), 223-237.



UDK:378.046.2

Элбек ДЕКХАНОВ,
Соискатель Национальный университет Узбекистана
E-mail: elbekd@internet.ru

По отзыву профессор В. Топилдиева

ZAMONAVIY SHAROITLARDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TA'LIM SIYOSATINING SHAKLLANISHI VA AMALGA OSHIRILISHI

Аннотация

Мақоллада О'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim siyosatini shakllanishi va amalga oshirilishi borasida olib borilayotgan ishlarni nazariy va amaliy jihatdan taxlil etgan. Shuningdek, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining ta'lim siyosatini amalga oshirishda nimalarga e'tibor qaratishi lozimligi yoritib berilgan.

Калит so'zlar: Ta'lim siyosati, ilmiy siyosat, moliyaviy siyosat, innovatsion ta'lim siyosati, ta'lim xizmatlari, oliy ta'lim, konsepsiya, reyting, strategik vazifalar, universitet, bakalavriyat, magistratura.

ФОРМИРОВАНИЕ И РЕАЛИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ ВУЗА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация

В данной статье проводимую работу в Республики Узбекистан по формированию и реализации образовательной политики высших учебных заведений с теоретической и практической точки зрения. А также в статье уделено, на что следует обратить внимание сегодняшнем дне высшим учебным заведениям при реализации образовательной политики.

Ключевые слова: Образовательная политика, научная политика, финансовая политика, инновационная образовательная политика, образовательные услуги, высшее образование, концепция, рейтинг, стратегические задачи, вуз, бакалавриат, магистратура.

FORMATION AND IMPLEMENTATION OF EDUCATIONAL POLICY OF THE UNIVERSITY IN MODERN CONDITIONS

Annotation

In this article, the ongoing work in the Republic of Uzbekistan on the formation and implementation of educational policy of higher educational institutions from a theoretical and practical point of view. The article also focuses on what higher educational institutions should pay attention to today when implementing educational policy.

Key words: Educational policy, scientific policy, financial policy, innovative educational policy, educational services, higher education, concept, rating, strategic objectives, university, undergraduate, graduate.

Введение. Образовательная политика государства в наиболее общем плане – это целенаправленный процесс разработки, принятия и реализации уполномоченными субъектами публичной власти взаимосвязанных правовых, организационных и управленческих решений в области образования.

Сегодня перед Узбекистаном стоят стратегические задачи, среди которых дальнейшее развитие системы образования как важнейшего фактора процветания страны, устойчивого роста экономики, обеспечения занятости населения.

Новым мощным импульсом кардинального совершенствования сферы, коренного пересмотра содержания подготовки кадров на уровне международных стандартов стало Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года [1].

В соответствии с этим документом в стране осуществляется широкомасштабная работа в целях определения приоритетных направлений системного реформирования высшего образования в Республике Узбекистан, поднятия на качественно новый уровень процесса подготовки самостоятельно мыслящих высококвалифицированных кадров с современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, модернизации высшего образования, развития социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий.

Следует отметить, что реформы в сфере высшего образования в Узбекистане реализуются в сотрудничестве со многими международными организациями, в числе которых

Erasmus+ (программа Европейского союза), JICA (Японское агентство международного сотрудничества), KOICA (Корейское агентство международного сотрудничества). В результате претворяемых в жизнь совместных программ сотни преподавателей и студентов нашей страны имеют возможность ознакомиться с передовым международным опытом в системе образования, приобрести новые знания и навыки, повысить свою квалификацию в ведущих вузах мира.

До 2030 года не менее 10 вузов Узбекистана должны войти в первую 1000 позиций перечня высших образовательных учреждений в рейтинге международно признанных организаций.

Анализ литературы по теме. В данной статье анализируются нормативно-правовые основы высшего образования, некоторые соображения по нормативно-правовому обеспечению реформирования системы высшего образования, некоторые соображения по задачам, вытекающим из указов Президента Республики Узбекистан по сфере высшего образования, конкретные проблемы организации учебно-воспитательных процессов в высших учебных заведениях, нормативно-правовые основы организации учебно-воспитательных процессов, некоторые соображения по дистанционному образованию, образовательная политика высших учебных заведений в современных условиях и проблемы их реализации, инновации в образовании, иерархическая теория многоуровневых систем [7], а также указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования до 2023 года», «Верховенство закона и обеспечение интересов человека – залог развития страны и благополучия народа», Всеобщая

декларация высшего образования для XXI века: подходы и практические меры»[1].

Методология исследования. В ходе исследования использовались такие методы, как комплексное изучение научных источников, исторический, системно-структурный, сравнительно-правовой, логический, конкретно-социологический, статистический анализ данных, индукция и дедукция.

Анализ и результаты. Одним из главных вызовов ближайшего будущего для отечественных вузов становится необходимость серьезных изменений образовательной политики в части взаимоотношений между студентами и научно-педагогическими сотрудниками в рамках реализации образовательных стандартов. Она должна базироваться на целевых ориентирах, которые задаются государством высшему образованию и исходя из которых вузы должны обеспечить уровень образования, соответствующий сегодняшним и завтрашним потребностям личности, общества, государства. Образовательная политика вуза должна быть ориентирована на:

1. Высокое качество предоставляемых образовательных услуг на базе реальной интеграции научного и образовательного процессов и использования всех методов современного высшего образования, включая дистанционное и сетевое обучение;

2. Передовое учебно-методическое обеспечение и современную материально-техническую базу;

3. Четкое соответствие профессиональным требованиям, обеспечивающее высокий спрос на выпускников;

4. Высокий уровень самостоятельности в учебе и активное участие студентов в НИР;

5. Высокий конкурс и высокий балл тестирования для отбора наиболее способных абитуриентов;

6. Возможность разностороннего развития студентов и преподавателей;

7. Совершенствование механизмов и инфраструктуры повышения квалификации и переподготовки

8. Развитие кадровых и материальных возможностей для реализации гибкой системы адаптации образовательных программ к быстроменяющимся запросам людей (индивидуальные траектории обучения) и общества за счет высокой образовательной мобильности и широкого перечня направлений подготовки и специальности.

Суть образовательной политики университета состоит в том, чтобы эти основополагающие требования представить в понятном и прозрачном для всех сотрудников университета виде – как набор задач, согласованных по всем видам ресурсов и механизмам их реализации, но оставляющих им при этом свободу для выбора конкретных действий.

Совершенствовать инновационную образовательную политику можно только вовлекая в этот процесс как можно больше опытных научно-педагогических работников и управленцев, а также продвинутых студентов, что требует открытой корпоративной культуры. Сформировать такое мышление у всего коллектива вуза для достижения установленной цели – одна из основных задач перспективной образовательной политики.

Прежде чем приступать к модернизации вузовской образовательной политики, разработчики должны критически проанализировать, располагают ли они достаточным набором идей, оригинальных подходов и реальных возможностей, способных существенно поднять уровень учебного и научного процесса в конкретном университете, насколько они будут способствовать повышению мотивации студентов и преподавателей. Особое внимание нужно уделить оценке реальных возможностей вуза, так как в большинстве случаев реализация образовательной политики должна осуществляться без дополнительной внешней поддержки.

Научный подход к проблеме предполагает анализ объективного положения дел, имея в виду сравнение собственной образовательной политики с образовательными политиками лучших отечественных и зарубежных университетов.

Образовательная политика и конкретные шаги по ее реализации должны быть гармонизированы по всем трем «собственным» временам. Естественно, образовательная политика любого уважающего себя вуза должна быть нацелена на задачи опережающего, а не «догоняющего» развития, поскольку последнее вряд ли позволит вплотную приблизиться к мировым лидерам в нашей области. При этом ни один из аспектов «опережающего» образования не должен выпячиваться в ущерб другим, потому что «оптимизация по частям губит систему», а решения, оптимальные в краткосрочной перспективе, переходят в свою противоположность в долгосрочной.

Однако в ближайшие годы в нашей стране решающую роль будут играть не результаты фундаментальных исследований, а нацеленность всей системы образования на решение проблем кадрового обеспечения национальной экономики и повышение благосостояния населения. Поэтому надо готовить не только исследователей, но и тех, кто будет делать текущую работу во всех сферах жизнедеятельности.

Принимаемые решения и ориентиры по образовательной политике вуза должны также способствовать социально-экономической эффективности использования материальных и человеческих ресурсов, поэтому в современных условиях обеспечение качества высшего образования становится стратегическим направлением инновационной политики[2].

Вузы должны наращивать свой вклад в экономический рост региона и страны в целом, в развитие национальной инновационной системы, в том числе – за счет внятной образовательной политики. Конечно, необходимо отдавать себе отчет в том, что, реализуя даже самую совершенную образовательную политику, кардинально изменить положение дел с качеством образования в краткосрочной перспективе очень сложно. Есть факторы, для устранения которых необходимы серьезные институциональные изменения в масштабах страны. Совершенно естественно, что образовательная политика любого вуза должна содержать в себе ответы на вопросы о том, кого, кому, чему и как учить.

На вопрос «кого» ответ дает Всемирная декларация ЮНЕСКО о высшем образовании для XXI века: «Доступ к высшему образованию должен определяться способностями, возможностями, усилиями, упорством и настойчивостью тех, кто хочет получить такое образование» [3].

Исходя из этого, следует признать правильными высокие требования к уровню подготовки абитуриентов, к освоению учебных программ студентами всех уровней и форм обучения. Жесткие критерии должны предъявляться и к желающим обучаться в докторантуре. Учить надо тех, кто обладает необходимыми способностями и у кого есть должная мотивация. В образовательной политике пора начать осуществлять поворот в сторону более сильных и мотивированных студентов путем подготовки факультативных курсов, ориентированных на такую категорию учащихся.

Образование в течение всей жизни имеет прямое отношение и к профессорско-преподавательскому составу. «Чему учить» должно определяться, исходя из модели выпускника, или, иначе, его компетентностного профиля. В общем виде соответствующие требования определены в ГОС, однако образовательная политика должна содержать рекомендации, как этого достичь. Образовательная политика должна исходить из того, что нельзя предсказать возможные открытия, революционизирующие производство и позволяющие реализовать прорывные технологии.

Поэтому нельзя загодя «подогнать» специалиста к тем условиям, в которых ему придется функционировать через 10–20 лет. Следовательно, содержание и процесс обучения в университете должны быть направлены на формирование у студентов способностей и качеств, гарантирующих восприимчивость ко всему новому, внутренней потребности к постоянному углублению своих общих и профессиональных качеств, установки учиться в

течение всей жизни. Для этого необходимо постепенное обновление учебных планов и программ и закрепление в них только универсально полезных знаний и навыков. Мы полагаем, что освоение содержательной части базовых курсов должно быть трехэтапным – в соответствии с принятой трехуровневой системой образования в высшей школе.

В бакалавриате содержание базовых курсов должно ограничиваться изложением основных принципов, идей, постулатов и теорем без строгих и глубоких доказательств. В магистратуре надо вновь вернуться к базовым дисциплинам, но уже на более высоком уровне, приводя там, где это надо, строгие доказательства и расширяя круг рассматриваемых проблем. Наконец, в докторантуре каждый учебный курс по содержательности и строгости должен отвечать современному уровню в соответствующей области знания. Вместе с тем учебные планы и программы не следует ориентировать на профессионализм в смысле узкой специализации, они должны предоставлять студентам широкий выбор индивидуальных траекторий обучения для повышения их конкурентоспособности на рынке труда.

Образовательная политика должна способствовать балансу между фундаментальными и прикладными составляющими. Над фундаментальными знаниями необходимо надстраивать конкретные знания и навыки, не превращающие, однако, специальность в ремесло.

Существующие ГОС в Республики Узбекистан потенциально уже позволяют реализовывать продвинутое образовательную политику, но еще большие возможности появляются при реализации собственных образовательных стандартов, разработка которых разрешена ряду вузов. Естественно, при этом нужно выбирать правильные ориентиры. Например, европейская практика показала, что внедрение полностью практико-ориентированных бакалаврских программ может привести к выпуску студентов, подготовленных лишь для ограниченных ниш труда с краткосрочной перспективой, к отсутствию у них целого ряда академических навыков, что не позволяет им адаптироваться к актуальным социальным и экономическим потребностям. Новая экономика заставляет отказываться от узкой специализации. Рынок труда нуждается в специалистах, обладающих междисциплинарными знаниями, умеющих быстро перепрофилироваться, принимать эффективные решения в изменяющейся обстановке и работать в поликультурных средах.

Как показывает практика ведущих вузов, успех достигается, когда эти мероприятия проводятся в жизнь в духе просвещенного абсолютизма. Принятие конкретных

решений на базе разработанной образовательной политики всегда наталкивается на недостаточность информации, необходимой для принятия оптимальных решений. Выход из этой ситуации надо искать в иерархическом подходе, когда первоначальная проблема декомпозируется на семейство последовательно надстроенных друг на другом под проблем. Обычно такая иерархия является трехуровневой [4].

На первом уровне (слой выбора) отбираются возможные способы реализации возникающих образовательных задач. На втором уровне иерархии (слой адаптации) не обходимо на базе имеющихся источников информации конкретизировать эти неопределенности и по возможности сузить их число. Наконец, чтобы снять возникающие здесь проблемы, выстраивается третий уровень иерархии – слой самоорганизации. На этом уровне подходы, использованные на двух предыдущих слоях, должны быть кардинально изменены. При этом основные принципы и вытекающие из них задачи образовательной политики могут оставаться неизменными [5].

Заключение и предложения. В заключение можно сказать, что функционирование вуза как единого организма требует гармоничного сочетания всех видов политик, реализуемых в вузе: образовательной, научной, финансовой. Поэтому по нашему мнению их оптимизация должна осуществляться одновременно. По нашему мнению, необходимо реализовать современные функции взаимоотношений личности, общества и государства в сфере высшего образования с учетом теории и практики государственного регулирования высшего образования.

Имея многовековую историю, высшее образование неизменно демонстрирует свою жизнеспособность и способность способствовать изменениям и прогрессу в обществе. Общество все больше основывается на знаниях, и высшее образование наряду с наукой в настоящее время выступает важнейшим компонентом культурного, социально-экономического и экологически устойчивого развития человека и общества.

Высшее образование открывает новые горизонты благодаря технологиям, которые упрощают создание, управление, распространение, доступ и контроль знаний. Мировое сообщество понимает, что ни одна страна не может достичь реального устойчивого развития на эндогенной основе без соответствующих высших учебных заведений и научно-исследовательских учреждений, создающих значительную массу квалифицированных и образованных людей.

ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8.10.2019 г. (Национальная база данных законодательства, 09.10.2019 г., № 06/19/5847/3887; 30.04.2020 г., № 06/20/5987/0521; 18.03.2022 г., № 06/22/89/0227; 04.07.2023 г., № 06/23/107/0441)
2. Slobodchikov V.I. Innovatsii v obrazovanii: osnovaniya i smysl [Innovation in education: foundations and purpose]. Available at: http://www.researcher.ru/methodics/nauka/a_1xizkd.html (In Russ.)
3. Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: подходы и практические меры (Принята в г. Париже 05.10.1998 - 09.10.1998 на Всемирной конференции ЮНЕСКО "Высшее образование в XXI веке: подходы и практические меры")
4. Mesarovic M.D., Masco D., Takahara Y. (2000) Theory of Hierarchical, Multilevel, Systems. Burlington, MA: Elsevier, 313 p.
5. Михайлов Н.Н., Владимирский Б.М. Формирование образовательной политики вуза и ее реализация в современных условиях. Высшее образование в России. № 5, 2015. Стр. 20-26
6. Ш.М.Мирзиёев Кунун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққийоти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т., “Ўзбекистон” НМИУ. 2017. 8-бет
7. Топилдиев В.Р. Масофавий таълим хусусида айрим мулоҳазалар. 2023. Journal of Integrated Education and Research, 2 (2), 51-60 бетлар.
8. Топилдиев В.Р. Олий таълимнинг норматив-ҳуқуқий асослари. –Тошкент., 2018. 356. Б.
9. Топилдиев, В.Р., Олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг меъриий-ҳуқуқий таъминоти хусусида айрим мулоҳазалар // Современное образование, 2017. (6), 8-14.
10. Топилдиев, В.Р., Таълим ва тарбия жараёнини ташкил этишнинг меъриий-ҳуқуқий асослари. -Тошкент: “Университет. (2015).
11. Топилдиев В.Р., Ўзбекистон Республикаси Президентининг олий таълим соҳасига оид фармонларидан келиб чиқадиган вазифалар хусусида айрим мулоҳазалар // “Мирзо Улугбек буюк мутафаккир олим ва давлат арбоби” мавзусидаги халқаро илмий анжуман материаллари. –Т., 2024. 1057-1065 бетлар.
12. Topildiyev V. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning o'ziga xos muammolari. Sotsiologiya va huquq, Ilmiy jurnali 2-son11-21 бетлар.



Quvonch DUSMURADOV,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti doktranti

E-mail: quvonchdusmuradov1993@gmail.com

TDPU dotsenti, PhD, J.Kusharbayev taqrizi asosida

THE CONTENT OF IMPLEMENTING PERSONALISED E-LEARNING

Annotation

This article discusses the essence of personalized e-learning and its importance for integration into the education system. The pedagogical, psychological, and technological aspects of a personalized approach in the educational process are explored, along with the role of e-learning resources and the interactivity between students and teachers. The article also highlights the significant role that digital technologies play in the individualization of the educational process.

Key words: Personalized e-learning, individual learning, adaptive learning, learner-centered approach, data-driven learning, methods of adaptive learning, educational technology.

СОДЕРЖАНИЕ ВНЕДРЕНИЯ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОГО ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается сущность персонализированного электронного обучения и его важность для интеграции в систему образования. Изучаются педагогические, психологические и технологические аспекты персонализированного подхода в образовательном процессе, а также роль электронных образовательных ресурсов и взаимодействия между учеником и преподавателем. Статья также показывает, какую важную роль цифровые технологии играют в индивидуализации образовательного процесса.

Ключевые слова: Персонализированное электронное обучение, индивидуальное обучение, адаптивное обучение, подход, ориентированный на ученика, обучение на основе данных, способы адаптивного обучения, образовательные технологии.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN ELEKTRON TA‘LIMNI JORIY ETISHNING MAZMUN MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan elektron ta‘limning mohiyati va uning ta‘lim tizimiga integratsiyasining ahamiyati yoritilgan. Ta‘lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning pedagogik, psixologik va texnologik jihatlari o‘rganilib, elektron ta‘lim resurslari va o‘quvchi-o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktivlikning rivojlanishidagi roli tushuntiriladi. Maqola shuningdek, ta‘lim jarayonini individualizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarning qanday muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib o‘tadi.

Kalit so‘zlar: Shaxsga yo‘naltirilgan elektron ta‘lim, individual ta‘lim, moslashuvchan ta‘lim, o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv, ma‘lumotlarga asoslangan ta‘lim, moslashtirilgan ta‘lim yo‘llari, ta‘lim texnologiyasi.

Kirish. Butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham Covid-19 pandemiyasi karantin sharoiti ta‘lim tizimida o‘qitish shaklini o‘zgartirishga majbur qildi. Hatto ishonchli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi va uy sharoitida Internet aloqasi bo‘lgan mamlakatlarning o‘qituvchilari uchun ham onlayn ta‘limga tez o‘tish juda qiyin bo‘lgan. AKT va boshqa masofaviy ta‘lim resurslari mavjud bo‘lmagan mintaqalardagi o‘qituvchilar uchun o‘tish yanada qiyin yoki imkonsiz bo‘lib qoldi. Ushbu sharoitda, ta‘lim jarayonini masofadan boshqarish va onlayn formatda amalga oshirishning muhimligi oshdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmonida ta‘lim tizimini raqamli transformatsiya qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan[1]. Mazkur strategiyada raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pedagog kadrlarning malakasini oshirish va zamonaviy o‘quv jarayonini tashkil etish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish zarurligi ta‘kidlangan. Bundan tashqari, izohlar katta ma‘lumotlar to‘plamlarini tashkil etish, qidirish va izohlash qobiliyatini yaxshilash uchun ma‘lumotlar fanida va ma‘lumot qidirish ilovalarida tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Ta‘riflovchi teglar, toifalar yoki semantik teglar bilan ma‘lumotlarni izohlash orqali tadqiqotchilar va algoritmlar ma‘lumotlarni tahlil qilish, mashinani o‘rganish va qaror qabul qilish jarayonlarini osonlashtiradigan naqshlar, tendensiyalar va tushunchalarni yanada samarali aniqlashlari mumkin.

Umuman olganda, izohlar turli sohalar va fanlar bo‘yicha aloqa, bilimlarni boshqarish va hamkorlik qilish uchun qimmatli vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu esa odamlar va tashkilotlarga mazmunli tushunchalarni olish, o‘rganishni rivojlantirish va

axborotga boy dunyoda tushunishni rivojlantirish imkonini beradi. Doimiy rivojlanayotgan ta‘lim landshaftida shaxsga yo‘naltirilgan elektron ta‘limning joriy etilishi moslashtirilgan ta‘lim tajribasiga o‘tish paradigmasini ifodalaydi. Ushbu maqola shaxsga yo‘naltirilgan elektron ta‘limning mohiyatini ochib beradi, uning ahamiyati, asosiy tarkibiy qismlari va ta‘lim kelajagini shakllantirishdagi transformatsion salohiyatini o‘rganadi.

An’anaviy ta‘lim ko‘pincha har xil ehtiyojlar, o‘rganish uslublari va individual o‘quvchilarning afzalliklarini e‘tiborsiz qoldirib, barchaga mos keladigan yondashuvni qo‘llaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan elektron ta‘lim moslashtirilgan ta‘lim tajribasini yaratish uchun texnologiya kuchidan foydalanish orqali buni tuzatishga intiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan elektron ta‘lim o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir o‘quvchi o‘ziga xos kuchli, zaif tomonlari, qiziqishlari va maqsadlariga ega ekanligini tan oladi.

Asosiy qisim. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim deyilganda - shaxsni insoniy fazilatlar bilan ulg‘ayishi, shaxsni ma‘lum sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikr yuritish, fikrini ravon bayon eta olishi, bilim, ko‘nikma malakalarini rivojlantirishi, o‘zini shaxs sifatida anglab yetishi, qobiliyat va imkoniyatlarini to‘la qonli ko‘rsarib berishi tushuniladi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya deyilganda yuqorida sanab o‘tgan jarayonlarimizni amalga oshirish, uni samarali tashkil etish, muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun qo‘llaniladigan texnika, zamonaviy texnologiyalar, yangi-yangi metodlar tushuniladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘z nomi bu shaxsni pedagogik jihatdan ta‘lim tarbiyalash jarayoni tushuniladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim pedagogika fanining bir yo‘nalishi hisoblanadi. Pedagogika fani ta‘lim tarbiya berish, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, talabalar bilan ishlash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limda muhit ikki kishi

o'rtasida (pedagog va o'quvchi) o'rtasidagi jarayon tushuniladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamma talaba va o'quvchilarini bir xilda tushunib rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda kelajakdagi o'zlari qiziqqan kasbiy faoliyat bo'yicha maqsadlardan kelib chiqib ish yuritiladi [3].

Pedagog va o'quvchi o'rtasida o'qitish jarayonining asosiy vazifalari:

- 1.pedagog va o'quvchining bir-biri bilan kelisha olishi;
- 2.dars jarayonining (o'quv materiallar va texnologiya, metodlar bilan boyitilganligi);
- 3.o'quvchiga dars o'tishning rejalashtirilganligi ya'ni reja asosidaliigi;
- 4.o'quvchiga bilim olishga, o'rganishga bo'lgan kuchlarini yanada rivojlantirish.

O'quvchi dars muhitini o'rgartirishi mumkin. YA'ni an'anaviy ta'limning o'sha hamma bilgan metodlaridan tashqari xali ochilmagan qirralarini ochish orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchi bilan ishlar ekansiz, uning yaxshi natijalar qayt etilishi, darsning samarasi yaxshi bo'lishi uchun ma'lum bir etaplarini va rejalashtirib olgan texnikalarini qo'llashingiz mumkin. Masalan: bolalarni har xil zamonaviy axborot texnikalari bilan yangicha metod qilib e'tiborini tortib yoki darsga, fanga qiziqtirishingiz mumkin. Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar bilan dars jarayonini olib borsangiz bola diqqatli bo'lishga harakat qiladi. Har bir bola bilan alohida yondashuv, dars jarayoniga qiziqira bilishlik (zo'ravonlik yo'li bilan emas). O'tilgan mavzularni ko'p marta takrorlash, takrorlash bilimning onasi degan gap ham bor. Har doim bolalarni nazoratda ushlab, o'qitish bilan tarbiyani chambarchas bog'lash kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari deyilganda: shaxsning qobiliyatlarini mustaqil izlanishini, tanqidiy fikrlashlarni shakllantirish jarayoni. Bu ta'lim o'quvchining o'ziga qulay bo'lgan muhit yaratishdir. O'quvchini erkin fikrlab, tengdoshlaridan uyalish hissini yoqotadi, o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantiradi. Bunda pedagog imkon qadar o'quvchilar bilan individualni yondashib dars o'tishlari kerak va bu o'quvchini ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlashlarni shakllantiradi. Shaxsga yo'lartirilgan ta'lim interfaol ta'lim metodlardan foydalangan usullardan biri. Interfaol o'qitishda o'qituvchi faoliyatining tashkilotchisi ro'lida ishtirok etadi. Birgalikda, jamoa bo'lib ma'lum faoliyatni amalga oshirish jarayoni tushuniladi.[4]

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida interfaolmetodlardan foydalanishning afzal tomonlarini sanaymiz.

1.Jamoa, guruh bo'lib ishlash, ya'ni o'quvchilar ichida fikr yurita olishi past bo'lgan, bilim darajasi past bo'lgan bolalar bilimdonlar ichida qatnasha bir-birini o'rini to'ldirib, bilmagan joyini bilib olishiga turki bo'lib, tengdoshlari kabi bilimli bo'lishga intilishadi.

2.Bellashuv vaqtida bir-biridan o'zish, bellashuvda yutush, mulohaza jarayonidagi tortishuv bolani miyasini tez ishlashiga, raqobat jarayonida ijodiy va tanqidiy fikrlashiga katta yordam beradi.

3.O'quvchi ruhiyatidagi mustaqil fikrlash, faol bo'lish kabi jihatlarni rivojlantiradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda amalga oshirishda o'quvchi o'zi har xil yangiliklar, metodlar, o'ylab topib darsga joriy qilsa bo'ladi.

Masalan:

- individualni dars;
- guruhlar bilan ishlash darsi;
- ijodiy dars;
- uyga vazifa bo'yicha hisobot darsi;
- seminar darsi;
- ekskursiya darsi;
- dialog darsi;
- test ishlash darsi;
- tanqidiy fikrlash darsi;
- fikrni bayon qilish darsi;
- Bunaqa texnologiyalarni dars so'ngida yoki dars jarayonida

qulay bir vaqt tanlab darsda qo'llashi mumkin.

Endi izohlasak.

1.Individualni dars-o'qituvchining vaqti yetganicha ya'ni imkon qadar har bir o'quvchi bilan tezlashtirilgan holda kerakli

bilimlarni o'rganish. O'shanda bola tushunmagan narsalarini mustahkam o'rganib bilib olishini ta'minlaydi.

2.Guruhlar bilan ishlashda ta'lim jarayonidan kelib chiqib ma'lum bir mavzu tanlanib o'rtaga tashlanadi va guruh guruh bo'lib bolalar bu yuzasidan fikr, mulohaza yuritib bahs olib borishadi.

3.Ijodiy darsda har bir o'quvchiga bittadan mavzu berilib uni yoritib berishga harakat qilishi so'raladi. Bunda bolla o'sha mavzuni chuqur o'rganishga, diqqatli bo'lishga harakat qiladi.

4.Har bir o'quvchining uyga vazifani qay darajada diqqatli bajarganligi, uyga vazifadagi topshiriqlarni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarganligi hisobot qilinadi.

5.Seminar darsini qo'yilishining asosiy vazifasi har bir o'quvchi ma'lum bir mavzuni, ma'lum berilgan topshiriqni tengdoshlari o'rtasida gapirib berishligi. Bunda uning fikrlash qobiliyati kengayadi, o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Uyalish tortinish kabi hislarni yo'qolishini ta'minlaydi.

6.Ekksursiya darsida har bir ta'lim yo'nalishidan kelib chiqib olib boriladi. Masalan: axborot texnologiyalari sohasida bo'lsa zamonaviy axborot texnologiyalarining amalyotdagi ko'rinishi, robotexnikalar, texnika(smart doska va hokozo) serverlarni ko'rsatib yoki IT-parklarga olib borib tanishtirilsa o'quvchida o'sha sohaga, fanga bo'lgan qiziqishi ortadi va yana yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini yaratishga intiladi. [5]

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning bir nechta turlari bor. Innovatsion ta'lim, hamkorlik ta'limi, interfol ta'lim, masofaviy ta'lim, muammoli ta'lim, loyihal ta'lim, kompyuterli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, tabaqalashgan ta'lim, modul ta'lim, individualni ta'lim, mustaqil ta'lim, dasturiy ta'lim, o'yin texnologiyalari kabi turlari mavjud. An'anaviy ta'limni qoralab zamonaviy ta'limga o'tish kerak deymiz bu qay darajada o'rinni? Bizga ma'lumki an'anaviy ta'lim necha yillar oldin shakllanib mana hozirgi kungacha foydalanilib kelinmoqda. Bu "sinf-dars" usuli deyilib Y.A.Komenskiy tomonidan o'ylab topilgan yoki ifoda etilgan [6].

Bu hozirgi ta'lim muhiti jarayoni deb bilaman. Misol qiladigan bo'lsam uning xususiyatlarini;

Tengdoshlari bilan bitta sinfda o'qish ya'ni yoshlari teng bo'lgan o'quvchilar bitta sinfda taxsil olishi;

Sinfidagi o'qituvchi va o'quvchilar o'quv reja, yagona o'quv darsliklari yoki belgilab qo'yilgan mashg'ulotlar asosida dars jarayonini olib borishadi;

Dars jarayoni o'qituvchi tomonidan boshqariladi, dars soati (dars davomiyligi) belgilangan bo'ladi.

Bitta fan bitta dars soati davomida o'tiladi. Bu usul o'quvchilarni bilimli, aqlli bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Lekin esa o'quvchining (shaxsiy jarayonlari) o'zini erkin his qilishi, dars jarayoniga nisbatan bo'ladigan qo'rquvni yo'qolishi, o'zini anglash, ko'p tomonlama mustaqillik, aniq fikrlash, o'z-o'zini baholash, intensional harakatlar va boshqalarni rivojlantiradi. Shu mavzuga oida muammolar:

1.erkin shaxsni shakllantirish (ta'lim muassasalarida ma'lum bir belgilangan natijaga erishish ko'zda tutilgan texnologiya asosida faoliyat yuritish.);

2.pedagogik jarayonlarni mahsuli yetarli darajada emasligi yangi pedagogik tizimlar yetishmasligi (bilim,ko'nikma,ijodiy faollik,yetishmasligi pedagogda);

3.yangi pedagogik tizimlarni yetishmasligi (pedagogik ta'sirni ta'lim jarayonini samarali bo'lishini, maqsadlarga erishishni ko'zlab shakllantiradigan loyiha desak ham bo'ladi.);

4.sinf xonalarida bollar sonining ko'pligi (individualni yondashishga har bir bolaga vaqt yetmasligi);

5.hamkorlik pedagogikasini shakllanmaganligi (o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat yaxshi shakllanmaganligi);

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini o'rganishdagi samarali usullardan biri bu muammoli o'qitish ya'ni muammoli ta'limdir. Muammoli o'qitish didaktikasini joriy etib borish asosiy ish faoliyatiga aylanishi kerak. Muammoli ta'lim tarbiya ta'lim jarayonini faollashtiradi, dars jarayoniga qiziqishni, fanga bo'lgan xurmatni oshirishga sabab bo'ladi. Muammoli ta'limning nazariy va amaliy jihatlarni atroflicha o'rganadi [7]. Muammoli ta'limning afzal jihatlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

mavzuga doir har xil fikrlash;

umumlashtirish;
xulosa chiqarish;
savollarga aniq javob berish.

Muammoli ta'lim turli ilmiy uslubiy jihatdan uch xil ko'rinishga ega muammoli vaziyatni vujudga keltirish, muammoning qo'yilishi, muammoning yechimini topish. Albatta muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

Xulosa. "Shaxsga yo'naltirilgan elektron ta'limni joriy etishning mohiyati" zamonaviy ta'lim muhitida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi [8]. Mavzu elektron ta'limni ta'limga individual va moslashtirilgan yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, moslashtirilgan o'qitish usullari, o'quv materiallari va o'qitish amaliyoti bilan tavsiflanadi, har bir talabaning shaxsiy rivojlanishi va akademik muvaffaqiyatiga yordam beradi.

Ushbu mavzu atrofidagi munozara, shuningdek, o'quvchilar tajribasini oshirish, ta'lim natijalarini yaxshilash va umrbod ta'lim odatlarini rivojlantirish uchun elektron ta'limdan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi [9]. Texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, shaxsga yo'naltirilgan elektron ta'lim, ta'lim kelajagini shakllantirish uchun istiqbolli yo'ldir.

Bundan tashqari, shaxsga yo'naltirilgan elektron ta'limni joriy etishning mohiyati hozirgi paytdan tashqariga chiqib, ta'limning doimiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar ochadi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sayohatlarini qo'llab-quvvatlash uchun innovatsion vositalar va resurslarni taqdim etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini qabul qilish orqali biz odamlarga raqamli asrda o'zlarining to'liq potentsiallarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan inklyuziv, qiziqarli va samarali ta'lim tajribalarini yaratishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentyabrdagi PQ-637 sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Johnson, S. (2018). Elektron ta'limning asosiy ko'rsatkichlari.
4. Smith, A. (2020). Shaxsga moslashtirilgan elektron ta'limning nazariy va amaliy asoslari.
5. Brown, B. (2019). Elektron ta'limda shaxsiy ta'limning ahamiyati.
6. Shaydullayeva, Kamola Shapulatonva Y.A. Komenskiy pedagogik qarashlari xususida mulohazalar // ORIENSS. 2021. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/y-a-komenskiy-pedagogik-qarashlari-xususida-mulohazalar> (дата обращения: 03.02.2025).
7. Kamilova, N. (2021). Elektron ta'limning shaxsga yo'naltirilgan tarmoqli tizimlar asosida rivojlantirilishi, ularning mazmuni mohiyati va rivojlanishi haqida o'zbek ilmiy tadqiqotlari asosida fikrlar bayon etiladi.
8. Xayrullaeva, G. (2020). Elektron ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tarmoqli tizimlar asosida rivojlantirishning muhimligi, ularning o'zbek ta'lim tizimida joriy etilishi va ularni o'rganish jarayonida do'stlar hissasi beriladi.
9. Anderson, T., & Dron, J. (2014). Teaching Crowds: Learning and Social Media. AU Press.



Axror JALOLDINOV,
Namangan muhandislik-qurilish instituti tayanch doktranti
E-mail: axrorjaloldinov0797@gmail.com

Professional ta'limni rivojlantirish instituti dotsenti, DSc B.Ergashev taqrizi asosida

MODERN APPROACHES TO TEACHING THE SUBJECT “ENERGY-EFFICIENT BUILDING ENGINEERING COMMUNICATIONS” TO CIVIL ENGINEERS

Annotation

The article examines the current state of teaching and existing problems in the discipline “Energy-saving engineering communications of buildings”. It is about teaching this subject using BIM technologies and achieving high efficiency of the learning process.

Key words: Education, BIM, competence, engineering, technology, construction.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ПРЕДМЕТА “ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНЫЕ ИНЖЕНЕРНЫЕ КОММУНИКАЦИИ ЗДАНИЙ” ИНЖЕНЕРАМ-СТРОИТЕЛЯМ

Аннотация

В статье рассматривается современное состояние преподавания и существующие проблемы по дисциплине “Энергосберегающие инженерные коммуникации зданий”. Речь идет о преподавании этого предмета с использованием BIM-технологий и достижении высокой эффективности процесса обучения.

Ключевые слова: Образование, BIM, компетентность, инжиниринг, технологии, строительство.

QURILISH MUHANDISLARIGA “BINOLARNI ENERGIYA TEJAMKOR MUHANDISLIK KOMMUNIKATSIYALARI” FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada “Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” fanini hozirgi o‘qitish holati va mavjud muommolar o‘rganilgan. BIM texnologiyalaridan foydalanib ushbu fanni o‘qitish, o‘quv jarayonida yuqori samaradorlikka erishish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, BIM, kompetensiya, muhandislik, texnologiya, qurilish.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Ta’lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy vazifalaridan biri oliy ta’lim tizimini talabalarini sohaga oid bilimlarini rivojlantirish, ularning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi va shu orqali jamiyatdagi o‘z o‘rnini namoyon etishi e’tiborga olinadi. Jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga intilish talabalarining kasbiy shakllanishiga uzviy bog‘liq holda kechadigan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu borada yurtimizda olib borilayotgan ishlar ham o‘z samarasini berib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni [1,2].

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” fanidagi amaliy darslarni o‘qitishda kompyuter texnologiyalari, turli xildagi detal modellari, plakatlar, laboratoriya stendlari yordamida o‘qitish bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Hozir kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

“Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” fanini o‘qitishda talabalarda yetishmayotgan amaliy kompetensiya rivojlantirish muommosini hal etish bugungi kunning o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni hal etishda mavjud muommolarni

aniqlash va zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan BIM texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirgan holda kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangi bosqichini asosiy maqsadi jahon talablariga moslashgan holda yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni yuqori darajaga ko‘tarishga xizmat qiladigan, ichki va tashqi mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, ularning bandligini ta’minlash va bu soxada asosiy omil sifatida ko‘riladigan dolzarb muammo hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qurilish fanlarini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Qurilish fanlarini o‘qitishda BIM texnologiyalaridan foydalanish (A.I. Abduraxmonov [3]), raqamli texnologiyalar yordamida qurilish fanlarini o‘qitishning didaktik asoslari (B.R. Rustamov [4]), Qurilish ta’limida virtual reallikdan foydalanish (A.A. Jumaniyozov [5]), BIM texnologiyalarini qurilish ta’limida qo‘llash imkoniyatlari (N.B. Sayfullayev [6]), qurilish loyihalarida BIM texnologiyalaridan foydalanish (A.R. Abdullayev [7]), raqamli qurilish: BIM, VR va boshqa zamonaviy texnologiyalar (A.K. Tursunov [8]) ilmiy-uslubiy ishlar va tadqiqotlar olib borilgan. Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar tahlili qilib chiqib natijasida ko‘rinib turibdiku, kompyuter texnologiyalar foydalangan holda ta’lim sifati samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu keltirilgan ishlarda BIM texnologiyalardan foydalangan holda talabalarining amaliy kompetensiyasini rivojlantirish muommolari tadqiq etilmagan.


Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” fani bo‘yicha o‘quv rejalari, fan dasturlarida keltirilgan fanni maqsad va vazifalari quyidalardan iborat.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda muhandislik kommunikatsiyalarida qo‘llaniladigan muhandislik jihozlari


tizimlarining turlari konstruksiyalari ishlatilish ko'lamini, hisoblash asoslari va ularni muayyan sharoitlarga mos xolda tanlash usullari, zamonaviy energiya tejamkor muhandislik jihozlari bo'yicha yo'nalishga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga muhandislik kommunikatsiya tizimlarini hisoblash nazariyasi, ularning turlari tuzilishini, ularning insonni ishlash va yashashi uchun komfort mikroiklimni ta'minlashdagi roli, no'anaviy issiqlik, gaz bilan ta'minlash, energiya tejamkor muhandislik tizimlaridan samarali foydalanish uchun ulardan munosiblarini tanlab, hisoblashga o'rgatishdan iborat.

Fanni ishlab chiqarishdagi o'rni- turar joy, jamoat va sanoat binolarining muhandislik kommunikatsiya tizimlarini



1-rasm. Isitish asboblari



2-rasm-Konvektor sxemalari


Zamonaviy dasturlar orqali talabalarining amaliy tushunchalarini rivojlantirish imkoniyati kundun kunga ortib bormoqda. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv materiallarini qayta takomillashtirish talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlarini, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi natijasida arxitektura va qurilish sohasidagi mutlaqo yangi yondashuvlarni rivojlanishiga asosiy zamin bo'lmoqda. Mazkur yondashuvga ko'ra, qurilishi

joylashtirish, loyihalash va umumli foydalanishga yetarli sharoitlar yaratish, energiya sarfini kamaytirish va energiya resurslaridan samarali foydalanish uchun kerakli texnologiyalar tizimlarini rivojlantirish uchun ushbu fanning ahamiyati benihoya kattadir.

“Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” fanidan mavjud adabiyotlarni tahlil qilishda ularda berilgan rasmlar, chizmalar sifati pastligi tufayli ma'lumotlarni o'rganishda talabalar qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin (1-rasm). Zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda adabiyotlarni qayta ishlab chiqish orqali talabalarining fanni o'rganishdagi samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

rejalashtirilayotgan binoning barcha sohaga oid ma'lumotlarini mujassamlashtirgan binoning kompyuter modeli yaratiladi. Ushbu imkoniyatlardan o'quv jarayonlarida foydalanish orqali talabalarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish, sohaga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirishimiz mumkin. “Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” fanidan bajariladigan amaliy mashg'ulot va kurs loyiha ishlari qo'l chizmasi hamda AutoCAD dasturida bajarib kelingan, AutoCAD dasturi ommabop bo'lishiga qaramasdan Binolarni virtual modellashtirish imkoniyati mavjud emas.



3-rasm- Autocad dasturida bajarilgan isitish tizimining chizmasi



4-rasm-Isitish tizimini aksonometrik sxemasi

Yuqoridagi rasmlarda “Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” fanidan kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmada ko'rsatilgan chizmalardan namunalar berilgan (3-4-rasm). Ushbu chizmalar AutoCAD dasturida chizilgan bo'lib ushbu chizmalarni ko'rish orqali talabalar muhandislik tizimlarini joylashtirish, quvurlarni yotqizish, quvur

diametrini tanlash kabi tushunchalar haqida to'liq ma'lumot olishlarida qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonlarida BIM texnologiyalariga asoslangan dasturlardan foydalanish qurilish jarayonlarini to'liq tushunish imkoniyatini yaratadi.



5-rasm-Binoning 3D ko'rinishi











BIM texnologiyalariga asoslangan dasturlar orqali muhandislik tizimlarini loyihalashda yuqoridagi (5-rasm) rasmda ko'rishimiz mumkin jihozlarni qayerga o'rnatilganini, xonalarning joylashuvi, eshik va derazalarning joylashgan o'rni kabi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda muhandislik jihozlarni loyihalashda ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lishimiz mumkin. Quvurlarni yotqizishda xonada joylashgan jihozlarga ta'sir





qilmasligi, isitish jihozlarni kerakli balandlikda o'rnatilishi, muhandislik jihozlarni loyihalashda yuqori aniqlikka erishish imkoniyatlari ega bo'lamiz. “Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari” o'quv materiallaridagi chizmalar, rasmlarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida qayta ishlab chiqish orqali o'quv jarayonlaridagi ko'zlangan maqsadlarga erishishda asosiy asos bo'lib xizmat

bo'ladi. Amaliy mashg'ulot, kurs loyihalarini bajarishda talabalar BIM texnologiyalaridan foydalanish orqali muhandislik tizimlarini to'liq tushunishlari, qurilish jarayonlaridagi holatlarni to'liq tasavvur qilishlari, amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishlari mumkin. "Binolarni energiya tejamkor

muhandislik kommunikatsiyalari" fani ko'p soha tarmoqlarini o'z ichiga olganini hisobga olib ushbu texnologiyalardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish ushbu fanni o'zlashtirish jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

"Binolarni energiya tejamkor muhandislik kommunikatsiyalari" fanini o'qitishda zamonaviy dasturlarning qiyosiy tahlili 1-jadval

AutoCAD	Revit
 <p data-bbox="325 683 809 734">AutoCAD issiq va sovuq suv uchun quvur ko'rinishi chiziq shaklida hosil qilinadi.</p>	 <p data-bbox="884 660 1383 712">Revit dasturida quvurlar kerakli turini tanlab chiziladi hamda bu orqali virtual modeli hosil bo'ladi.</p>
 <p data-bbox="325 996 809 1048">Quvurning 3D ko'rinishini chizilishi. 2D chizilgan chizmani qaytadan 3D ko'rinishni talab qiladi.</p>	 <p data-bbox="868 996 1402 1025">2D chizilgan chizmani avtomatik 3D modeli hosil bo'ladi.</p>
 <p data-bbox="309 1339 818 1391">Quvurning burilish xolatida chizilishi burilish burchagi (атвод)ni tushunishda qiyinchilik vujudga keladi.</p>	 <p data-bbox="884 1317 1393 1391">Revit dasturida burilish burchaklarini avtomatik qo'yib ketadi. Burilish burchaki xaqida to'liq tushunchaga ega bo'lish mumkin.</p>
 <p data-bbox="309 1637 818 1688">Quvurlar liniya orqali hosil qilingani sababli quvur turini ajratib bo'lmaydi.</p>	 <p data-bbox="995 1615 1275 1644">Quvur turini tanlash mumkin.</p>
 <p data-bbox="405 1921 722 1951">Ichki issiqlik ta'minoti ko'rinishi.</p>	 <p data-bbox="900 1906 1370 1935">Revit dasturidagi ichki issiqlik ta'minoti ko'rinishi.</p>

 <p>Isitish chizmalarining fazoviy ko'rishini.</p>	 <p>Revit dasturida kommunikatsiya jihozlarini fazoviy ko'rishini.</p>
 <p>Quvurlarni joylashtirishda qanday tartibda joylashayotganini to'liq tasavvur qilish imkoni mavjud emas.</p>	 <p>Revit dasturida quvurlarni qayerga joylashayotgani, belgilangan tartiblarda bajarilishini nazorat qilish mumkin.</p>
 <p>AutoCAD dasturida qozonxonani joylash ko'rishini.</p>	 <p>Revit dasturida qozonxonaning ko'rishini.</p>

Yuqorida keltirilgan jadvalda ko'rishimiz mumkinki AutoCAD dasturiga qaraganda Revit dasturi muhandislik tizimlarini loyihalash orqali talabalarining amaliy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishimiz mumkin. AutoCAD dasturiga nisbatan Revit dasturida ko'plab funksiya va amallarni bajarish mumkin. Talaba o'zi bajarayotgan loyihami to'liq tasavvur qilib ishlash imkoniyati mavjud.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalarining amaliy kompetensiyasini oshirishda BIM texnologiyalaridan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi.

BIM texnologiyalaridan o'quv jarayonlarida foydalanish orqali talabalarining qurilish jarayonlari bo'yicha tasavvurlarini sezilarli rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishimiz mumkin ekan.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish ulardan dars jarayonida samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. BIM texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlarini hamda amaliy kompetensiyasini oshirish qolgan usullarga nisbatan samaradorligi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli qarori.
- Abduraxmonov A.I. Qurilish fanlarini o'qitishda BIM texnologiyalaridan foydalanish. "Science and Education" jurnali, (2020). 1-son, 35-42.
- Rustamov B.R. Raqamli texnologiyalar yordamida qurilish fanlarini o'qitishning didaktik asoslari. "Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish Instituti Axborotnomasi" ilmiy jurnali, (2021). 2-son, 56-42.
- Jumaniyozov A.A. "Qurilish ta'limida virtual reallikdan foydalanish". O'zbekiston muhandislik-texnologiya jurnali, 2021, 4, 23-29.
- Sayfullayev N.B. "BIM texnologiyalarini qurilish ta'limida qo'llash imkoniyatlari". "Qurilish, arxitektura va dizayn" jurnali, 2022, 2, 41-47.
- A.R. Abdullayev. Qurilish loyihalarida BIM texnologiyalaridan foydalanish. darslik. "Fan va texnologiya" nashriyoti.- Toshkent,2020.
- A.K. Tursunov. Raqamli qurilish: BIM, VR va boshqa zamonaviy texnologiyalar. darslik. "Yangi asr avlodi" nashriyoti.- Toshkent,2022.
- Abdubannayevich, Qahharov Abduraxim, Jaloldinov Ahror Abdusattor O'g'li, and Jaloldinov Nizomjon Abdusattor Og'li. "Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash tizimlarini loyihalashda bino va inshootlar seysmik mustahkamligi ta'minlash." строительство и образование 3.2 (2024): 43-46.
- Jaloldinov, Ahror. "Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil etish samaradorligi." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 9 (2023): 543-547.
- Ahror, Jaloldinov. "U'quv jara'ini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilqor xoriжий тажрибалар." Innovations in Technology and Science Education 2.13 (2023): 53-59.
- Qahharov A.A., Jaloldinov A.A., N.A.Jaloldinov. Qurilish ta'lim yo'nalishlarida dars sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. "Texnik oliy o'quv yurtlarida tillarni o'qitishda innovatsion va kommunikativ yondashuvlar: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.-Namangan,2024.

13. A.A.Jaloldinov, N.A.Jaloldinov. Qurilish ta'lim yo'nalishi darslarini zamonaviy interfaol metodlar asosida tashkil etish samaradorligi. "Ta'lim tashkilotlarida zamonaviy talablar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish" respublika ilmiy-amaliy konferensiya.-Guliston,2024.
14. O'g'li, Jaloldinov Axror Abdusattor. "Qurilish ta'lim yo'nalishi talabalarining amaliy kompetentsiyalarini bim texnologiyalari asosida intensiv rivojlantirish." Строительство и образование 3 (2024): 100-108.



Botirjon ZOKIROV,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

E-mail: zokirovbotirjon5@gmail.com

SOME ASPECTS OF BILATERAL REGIONAL AND INTERNATIONAL COOPERATION OF UZBEKISTAN ON THE ISSUES OF RETURN OF CRIMINAL ASSETS

Annotation

The article analyzes some aspects of bilateral, regional and international cooperation of the Republic of Uzbekistan with foreign countries on the issue of returning criminal assets, including an analysis of agreements concluded with Kyrgyzstan, Kazakhstan, Turkmenistan, Pakistan, India, China, the Czech Republic, Bulgaria, the United Arab Emirates, Azerbaijan and other countries.

Key words: Mutual legal assistance in criminal matters, contracting parties, return of proceeds from criminal activity, scope of legal assistance.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ДВУСТОРОННИЕ РЕГИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ УЗБЕКИСТАНА ПО ВОПРОСАМ ВОЗВРАТА ПРЕСТУПНЫХ АКТИВОВ

Аннотация

В статье анализируются некоторые аспекты двустороннего, регионального и международного сотрудничества Республики Узбекистан с зарубежными странами по вопросу возврата преступных активов, в том числе анализ соглашения, заключенные с Кыргызстаном, Казахстаном, Туркменистаном, Пакистаном, Индией, Китаем, Чехией, Болгарией, Объединенными Арабскими Эмиратами, Азербайджаном и другими странами.

Ключевые слова: Взаимная правовая помощь по уголовным делам, договаривающиеся стороны, возврат доходов от преступной деятельности, объем правовой помощи.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOIY AKTIVLARINI QAYTARISH MASALALARIDA KO‘P TOMONLAMA XALQARO HAMKORLIGI

Аннотация

Maqolada jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama mintaqaviy va xalqaro hamkorligining o‘ziga xos jihatlari, jumladan Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Chexiya, Bolgariya, Birlashgan Arab Amirliklari, Ozarbayjon va boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam, ahdlashuvchi tomonlar, jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarni qaytarish, huquqiy yordam ko‘lami.

Kirish. Nafaqat jinoiy aktivlarni qaytarish balki, boshqa sohalarida ham xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, bu boradagi huquqiy asoslarni shakllantirish hamda ularni doimiy takomillashtirib borish rivojlantirishning tamal toshi hisoblanadi. O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro normativ-hujjatlarini o‘rganish, ulardagi ijobiy jihatlarni milliy qonunchiligimizga tadbiq etish, mamlakatlararo o‘zaro huquqiy yordam masalalarida samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro konvensiyalarni ko‘rib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarini tartibga soluvchi ko‘p tomonlama xalqaro konvensiyalarni tahlil etishda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, MDHga a‘zo davlatlarning “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Mins va Kishinev Konvensiyalari, SHHTning Terrorizmga qarshi Konvensiyasi va Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiyalarini tahlil etish mumkin. Ularda sohaga oid hamkorlikning asosiy jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarini jinoyat protsessual huquq fanining predmeti bo‘lganligi sababli, mavzuni tadqiq etish xalqaro huquqiy asoslarni tizimli tahlil etish orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Xususan, 2003 yil 31 oktabr kuni BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi qabul qilindi, ushbu konvensiya O‘zbekiston Respublikasining 07.07.2008 yildagi O‘RQ-158-son qonuni bilan ratifikatsiya qilinib, 2008 yil 28 avgustda kuch kirgan[1].

Konvensiya ahamiyatli jihati shundaki, uning alohida 5-bobi aktivlarni qaytarish choralari tartibga solishga qaratilgan.

Aktivlarni qaytarish choralari tartibga solishga qaratilgan ushbu normalar faqatgina korrupsiyaviy jinoyatlar natijasida olingan aktivlarni qaytarishni nazarda tutsa-da, bugungi kunda konvensiyaning alohida bobi dunyoda global miqyosdagi imperativ normativ-huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Konvensiyaning 51 va 52 moddalarida aktivlarni qaytarish asosiy printsiplardan biri ekanligi, shuningdek, davlatlar aktivlarni qaytarish bilan bog‘liq barcha choralarni, shu jumladan, ommaviy mansabdor shaxslar, ularga aloqador shaxslarning, shubhali operatsiyalar mavjud bo‘lgan bank hisob raqamlarini nazoratga olish, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar almashinuvida o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirishni ko‘rsatib o‘tgan.

53-moddada (Mol-mulk bevosita qaytarilishi uchun choralar) har bir ishtirokchi Davlat, o‘zining ichki qonunchiligiga muvofiq, boshqa ishtirokchi Davlatga jinoyat natijasida olingan mulkka nisbatan fuqarolik da‘volarini o‘zining sudlariga taqdim etishiga ruxsat berish uchun talab qilinishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

54 va 55-moddalar jinoiy aktivlarni musodara qilishda xalqaro hamkorlik masalalarini tartibga solingan bo‘lib, unga ko‘ra, ishtirokchi davlatlar boshqa Davlat sudlari tomonidan musodara qilish to‘g‘risida chiqarilgan qarorlarni o‘zining vakolatli organlari ijro etishiga ruxsat berishi, o‘zining vakolatli organlariga, musodara qilish bo‘yicha qaror chiqarish hamda sudlar tomonidan musodara qilish bo‘yicha hukm chiqarish choralari ko‘rish masalalariga belgilangan.

Shuningdek, 56-moddada (Maxsus hamkorlik) ishtirokchi Davlat, o‘zining ichki qonunchiligiga zarar yetkazmagan holda, jinoiy daromadlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni uni olayotgan ishtirokchi Davlatga jinoiy ishni qo‘zg‘atish yoki tekshiruv ishlarini yoki sud muhokamasini o‘tkazishiga ko‘mak beradi yoxud ushbu ishtirokchi Davlat tomonidan bu iltimosnomani Konvensiyaning mazkur moddasiga muvofiq lashtirishiga

yo'naltiradi deb hisoblasa, boshqa ishtirokchi Davlatga avvaldan iltimosnoma qilinmagan hollarda ham jo'natish imkoniyatini beruvchi choralar ko'rish ko'rsatib o'tilgan.

Konvensiyaga ko'ra, Davlat musodara qilingan va qaytarilgan mol-mulkni o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq tasarruf qiladi (57-m.), shuningdek, barcha holatlarda, davlatlar so'ralayotgan davlat musodara qilingan mol-mulkni so'rov berayotgan ishtirokchi Davlatga uning qonuniy egalari qaytarilishi yoki jinoyatdan jabr ko'rganlarga kompensatsiya to'lanishi masalasini hal uchun qaytarish choralari ko'radi. So'rov berilayotgan ishtirokchi Davlat tegishli holatlarda, musodara qilingan mol-mulk qaytarilishida tergov, jinoiy ish yoki sud muhokamasi vaqtida sarflangan oqilona xarajatlarni olib qolishi mumkin.

59-moddada ishtirokchi davlatlar jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarida xalqaro hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar va bitimlar tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi ko'rsatilgan.

Ushbu konvensiyada qayd etilgan aktivlarni qaytarish masalalari bo'yicha qoidalar 2000 yil 15 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi"da ham ko'rsatib o'tilgan. Konvensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yildagi 30 avgustdagi 536-II-qarori bilan ratifikatsiya qilinib, 2004 yil 8 yanvarda kuchga kirgan[2].

Konvensiyaning asosiy jihatlari shundan iboratki, jinoiy aktivlarni qaytarishga qaratilgan "jinoyatdan olingan daromadlar" "ta'qiq (mulkka nisbatan)", "musodara" kabi fundamental tushunchalarga ta'rif berilgan.

Korrupsiya qarshi konvensiya kabi mazkur konvensiyada ham davlatlar jinoiy faoliyat natijasida olinan daromadlarni kelgusida zararni qoplash hamda mulkni kelib chiqish joyiga qaytarishni nazarada tutuvchi musodara qilish cholari tartibga solingan (12-moddada).

13-moddada esa ishtirokchi davlatlarning jinoiy natijasida olingan daromadlarni musodara qilish masalalaridagi xalqaro hamkorligi tartibga solingan bo'lib, unda tomonlar kelgusida mulkni qaytarish maqsadida, boshqa davlatlarga musodara masalalarini hal etish uchun so'rov chiqarish, shu kabi sud qarorlarini xorijiy davlatning sudi tomonidan tan olinishi va ijroga qaratilishi choralari amalga oshirish bo'yicha o'zaro huquqiy yordam so'rash, boshqa davlatdan kelgan shu kabi so'rov va sud qarorlarini ijroga qaratish masalalariga ko'rsatib o'tilgan.

Konvensiyaga ko'ra, Davlat musodara qilingan mol-mulkni o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq tasarruf qiladi (14-m.), shuningdek, barcha holatlarda, davlatlar so'ralayotgan davlat musodara qilingan mol-mulkni so'rov berayotgan ishtirokchi Davlatga uning qonuniy egalari qaytarilishi yoki jinoyatdan jabr ko'rganlarga kompensatsiya to'lanishi masalasini hal uchun qaytarish choralari ko'radi. So'rov berilayotgan Davlat tegishli holatlarda, musodara qilingan mol-mulk qaytarilishida tergov, jinoiy ish yoki sud muhokamasi vaqtida sarflangan oqilona xarajatlarni olib qolishi mumkin.

Shuningdek, ishtirokchi davlatlar jinoiy daromadlarni musodara qilishda huquqni muxofaza qiluvchi organlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar va bitimlar tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi, mazkur sohada samarali natijalarga erishiga qaratilgan tajribali mutaxassislar tayyorlash va texnik yordam ko'rsatishni rag'batlantirishari belgilangan.

Postsovet davlatlari huquqiy geografiyasi joylashgan mamlakatlarda jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarini tartidga soluvchi dastlabki qadamlari 1993 yil 22 yanvar kuni, Minsk shahrida (Belarus) qabul qilingan, MDHga a'zo davlatlarning "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Konvensiyasida aks etgan. Mazkur konvensiya 1995 yil 6 may kuni Oliy Majlisning XII sonli qarori bilan ratifikatsiya qilinib, 1994 yil 19 mayda kuchga kirgan[3].

Konvensiyaning 51-moddada (Qarorlarni tan olish va ijro etish) ahdlashuvchi tomonlarning har biri boshqa tomonlarning hududida qabul qilingan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning zararni qoplash to'g'risidagi qarorlarini tan olishi va ijroga qaratishi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, tomonlar so'rovga asosan bir-birlariga jinoyat ishida dalil sifatida qimmatli bo'lishi mumkin bo'lgan ashyolar, jinoyatchi vafot etishi, qochishi yoki boshqa holatlar tufayli uni topshirishni amalga oshirishning iloji bo'lmagan holatlarda ham ushbu ashyolarning yuborilishi amalga oshirish majburiyatini oladishi belgilangan.

Minsk konvensiyasining mantiqiy davomi hamda aynan jinoiy aktivlarni qaytarishi bilan bog'liq to'ldiruvchi normalarni o'zida jamlagan mintaqaviy xalqaro hujjatlardan biri 2002 yil 7 oktabr kuni, Kishinev shahrida (Moldova) qabul qilingan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Konvensiyasidir. Mazkur konvensiya 2019 yil 26 avgustda kuni O'RQ-554-son qonuni bilan ratifikatsiya qilinib, 2020 yil 12 iyulda kuchga kirgan[4].

Konvensiyaning huquqiy yordam ko'lamini deb nomlangan 6-moddasida "Ahdlashuvchi Tomonlar so'ralayotgan Ahdlashuvchi Tomonlar qonunchiligida nazarda tutilgan protsessual va boshqa harakatlarni bajarish, xususan, ..., jinoiy yo'l bilan olingan pul mablag'lari va mol-mulkni, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qidirish va taqiq solish (olib qo'yish), shuningdek, fuqarolik ishlari, xo'jalik va boshqa iqtisodiy nizolar bo'yicha hal qiluv qarorlarini ijro etish uchun fuqaroviy javobgarlarning mol-mulki va pul mablag'larini qidirish, ijro varaqalari, fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlari va hukmlarni tan olish va ijro etish yo'li bilan o'zaro huquqiy yordam ko'rsatadilar", - deb belgilangan.

Shuningdek, 54-moddada (Qarorlarni tan olish va ijro etish) ahdlashuvchi tomonlarning har biri boshqa tomonlarning hududida qabul qilingan jinoyat ishlari bo'yicha sudlar hukmlarining zararni qoplash, jarimalarni undirish va musodara qilishga oid qismini (b) hamda da'voni ta'minlash maqsadida mulkni, shu jumladan bank hisob varaqlaridagi pul mablag'larini xatlash to'g'risidagi sud qarorlarini (v) tan oladi va ijroga qaratishi ko'rsatib o'tilgan.

Jinoiy aktivlarni qaytarishning asosiy manbalaridan bo'lgan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni musodara qilish bo'yicha sud qarorlarini ijro etish masalari esa konvensiyaning 58-moddasida ko'rsatilgan. Unga ko'ra, musodara qilingan mol-mulk yoki unga tenglashtirilgan mol-mulk to'liq yoki qisman musodara qilish to'g'risida qaror qabul qilingan tomonga berilishi mumkin. Tomonlar musodara qilish to'g'risidagi qarorni bajarish chog'ida so'ralayotgan tomon tarafidan olingan mol-mulkni taqsimlash to'g'risida kelishib oladilar.

Shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan mulk, pul va qimmatliklar, shuningdek, ayblanuvchiga (sudlanuvchiga, mahkumga) tegishli bo'lgan jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni qidirish, ularga band solish va olib qo'yish, jabrlanuvchilarga (fuqaroviy da'vogarlarga) jinoyat oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplash, sudlarning jarimalar va musodara qilish haqidagi hukmlarini ijro etishda bir-birlariga huquqiy yordam ko'rsatadilar (104-m.).

So'ralayotgan tomonning vakolatli adliya muassasalari ayblanuvchining (sudlanuvchining, mahkumning) puli, qimmatliklari va mulkiga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlariga band solgach, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplashda foydalanish va musodara qilish maqsadida ularning saqlanishini ta'minlaydi.

Tomonlar so'rov bo'yicha bir-birlariga jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan yoki u uchun to'lov sifatida olingan ashyolar yoki huquqbuzarning shu tarzda qo'lga kiritgan buyumlari evaziga olgan buyumlarning topshirilishi amalga oshiriladi (103-m.).

Qayd etilgan hujjatlar qatorida, Shanxay hamkorlik tashkilotining 16.06.2009 yildagi Terrorizmga qarshi Konvensiyasi (2011 yil 16 dekabrda 309-son qonuni bilan ratifikatsiya qilinib, 2012 yil 15 fevralda kuchga kirgan[5]) hamda 15.12.1997 yildagi Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro Konvensiyasini (2001 yil 12 maydagi Oliy Majlisning 225-II-son qarori bilan ratifikatsiya qilinib, 2002 yil 10 aprelda kuchga kirgan[6]) misol qilib keltirish mumkin.

Tahlil va natijalar. Konvensiyalarning ijobiy jihati shundan iboratki, ularda jinoiy aktivlarni qaytarishga asos bo'luvchi protsessual harakatlar hamda majburlor choralarini to'liq

ko'rsatilgan hamda tomonlar musadara, xatlov masalalarida o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishlari, so'rovnomaga asosan konvensiya doirasidagi jinoyatlar natijasida olingan daromadlarni musodara qilish va xatlovga olish bo'yicha sud hukmlarini tan olish, ijroga qaratish, vakolatli idoralar tomonidan ijroga qaratishlari to'liq belgilangan. Lekin, xatlov va musodaraning mantiqiy davomi hisoblangan jinoiy aktivlarni qaytarish masalalari tartibga solinmagan.

Xulosa va takliflar. Qayd etilgan ko'p tomonlama, xalqaro huquqiy hujjatlarni tahlil etish orqali, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidan chiqarilgan jinoiy aktivlarni qaytarish masalalarida samarali natijalarga erishish uchun mazkur normativ huquqiy asoslar doirasida davlatlararo o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda kelgusida jinoiy aktivlarni repatriatsiyasini nazarda tutuvchi qoidalarni qo'shimcha sifatida kiritish, milliy huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR

1. 31.10.2003 yildagi BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, 07.07.2008 yildagi O'RQ-158-son qonuni bilan ratifikatsiya qilinib, 28.08.2008 yilda kuch kirgan/<https://lex.uz/docs/1461327>;
2. 15.11.2000 yildagi BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, 30.08.2003 yildagi Oliy Majlisning 536-II-qarori bilan ratifikatsiya qilinib, 08.01.2004 yilda kuchga kirgan/<https://lex.uz/docs/1304112>;
3. 22.01.1993 yildagi MDHning "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Minsk Konvensiyasi, 06.05.1995 yilda kuni Oliy Majlisning XII sonli qarori bilan ratifikatsiya qilinib, 19.05.1994 yilda/<https://lex.uz/docs/2741652>;
4. 07.10.2002 yildagi MDHning "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Kishinev Konvensiyasi, 26.08.2019 yilda O'RQ-554-son qonuni bilan ratifikatsiya qilinib, 12.07.2020 yilda kuchga kirgan/<https://lex.uz/docs/4907818>;
5. Shanxay hamkorlik tashkilotining 16.06.2009 yildagi Terrorizmga qarshi Konvensiyasi, 16.12.2011 yildagi 309-son qonuni bilan ratifikatsiya qilinib, 15.02.2012 yilda kuchga kirgan;
6. Shanxay hamkorlik tashkilotining 15.12.1997 yildagi Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro Konvensiyasini, 12.05.2001dagi Oliy Majlisning 225-II-son qarori bilan ratifikatsiya qilinib, 10.04.2002 yilda kuchga kirgan.



УДК: 159.9.072.42

Елена ЗОТОВА,
Старший преподаватель УзГУФКС
E-mail: eazotova635@gmail.com

На основании рецензии проф. псих. н., DSc НУУз Арзикулова Д.Н.

ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ НА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ТЕННИСА)

Аннотация

В данной статье изучаются вопросы взаимосвязи эмоциональной устойчивости с результативностью соревновательной деятельности. Кроме этого оптимизация эмоциональной устойчивости рассматривается на примере тенниса, характеризующегося деятельностью в условиях, требующих особого психического состояния для оптимального использования технико-тактического потенциала спортсменов.

Ключевые слова: Эмоциональная устойчивость, оптимизация, тревожность, темперамент, надежность, внимание, свойства нервной системы, психическое напряжение, соревновательная эмоциональная устойчивость (СЭУ), мотивационная сфера.

YOSH SPORTCHILARNI RAQOBATDOSH EMOTSIONAL BARQARORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH (TENNIS MISOLIDA)

Annatsiya

Ushbu maqola hissiy barqarorlikning musobaqa ishlash bilan bog'liqligini o'rganadi. Bundan tashqari, tennis sport turi bilan shug'ullangan sportchilarda hissiy barqarorlikni taqomillashtirishorqali texnik va taktik jixatlarini yuqori pag'onaga olib chiqishga tavsiflangan.

Kalit so'zlar: Hissiy barqarorlik, optimallashtirish, tashvish, temperament, ishonchlilik, e'tibor, asab tizimining xususiyatlari, psixik zo'riqish, musobaqadagi hissiy barqarorlik, motivatsion soha.

OPTIMIZATION OF COMPETITIVE EMOTIONAL STABILITY OF YOUNG SPORTSMEN (ON THE EXAMPLE OF TENNIS)

Annotation

This article explores the relationship between emotional resilience and competitive performance. In addition, optimization of emotional stability is considered on the example of tennis, characterized by activity in conditions requiring a special mental state for optimal use of technical and tactical potential of athletes.

Key words: Emotional stability, optimization, anxiety, temperament, reliability, attention, nervous system properties, mental tension, competitive emotional stability, motivational sphere.

Введение. Спорт в нашей стране динамично развивается. Широкой популярностью пользуются такие его виды, как футбол, волейбол, теннис, бокс, кураш, шахматы, теннис, тяжелая и легкая атлетика. Значение спорта для развития личности постоянно обозначено в трудах президента Мирзиёева Ш.М. В частности постоянно ведется работа по привлечению населения, особенно молодежи к занятию физической культурой и массовыми видами спорта. Проблема повышения результативности и надежности соревновательной деятельности привлекает все большее внимание специалистов. Специфика тенниса, требующего значительной динамической работы, состоит в том, что основная соревновательная и тренировочная нагрузка ложится на психику спортсмена. Разработка вопросов психологической подготовки юных спортсменов в теннисе в настоящее время особенно актуальна, так как уже на начальном этапе подготовки выступления в соревнованиях проходят в условиях жесткой конкурентной борьбы и характеризуются повышенным эмоциональным напряжением. В процессе соревнований эмоциональное возбуждение часто достигает чрезмерно высокого уровня, что, как правило, отрицательно сказывается на эффективности выполнения технических действий, а, следовательно, и на спортивных результатах.

Анализ литературных источников соответственно теме. Научная работа основывается на исследованиях Родионова А.В. о влиянии психологических факторов на спортивный результат. В статье рассмотрены работы Аболина Л.М. и Дашкевич О.В., в которых изучается эмоциональная устойчивость в напряженной деятельности, ее психологические механизмы и пути повышения, а также

эмоциональная регуляция деятельности в экстремальных условиях. Не мало важное значение имело рассмотрение мотивации поведения и формирование личности Асеева В. Г. Для объяснения причин и предпосылок возникновения того или иного эмоционального состояния в спорте изучались работы Ильина Е.П., в которых раскрывалась адекватность понимания связей свойств нервной системы с эффективностью деятельности и поведения спортсмена. И конечно же нельзя не рассмотреть влияние индивидуального стиля саморегуляции для каждого спортсмена, на основании данных исследования Моросановой В.И.

Методология исследования. Методологической основой исследования явились отечественные и зарубежные теоретические разработки, и концептуальные положения в области психологии, психофизиологии, теории и методики физической культуры и спортивной подготовки (З.Г. Гаппаров, Б.Г. Ананьев, А.Н. Леонтьев, В.С. Мерлин, И.П. Павлов, А.В. Родионов, Б.М. Теплов и др.). При разработке рекомендаций по оптимизации психологической подготовки юных спортсменов основное внимание уделялось личностно-деятельностному подходу.

Целью исследования явилось повышение эффективности спортивной деятельности юных спортсменов - теннисистов на основе учета индивидуальных и типологических показателей эмоциональной устойчивости.

Для достижения поставленной цели в статье были поставлены следующие задачи:

- изучить и обобщить данные по проблеме эмоциональной устойчивости в спортивной деятельности в отечественной и зарубежной литературе;

- выявить взаимосвязь личностно-типологических характеристик юных спортсменов и эмоциональной устойчивости.

В исследовании приняло участие 108 спортсменов, из них членов сборной команды по теннису- 19 спортсменов, членов юношеской сборной команды - 25 человек и 64 учащихся учебно-тренировочных групп 2-года обучения ДЮСШ № 7 г. Ташкента.

Предметом исследования явились психоэмоциональные состояния юных спортсменов - теннисистов, возникающие в процессе соревновательной деятельности.

В статье были применены следующие методы исследования [9]:

Для определения уровня устойчивости внимания были применены таблицы корректурного текста Бурдона.

Определение свойств нервной системы и темперамента проводилось в следующих аспектах: а) наблюдения во время тренировок, б) наблюдения во время отдыха, в) наблюдения перед соревнованиями, г) наблюдения после соревнований, д) личные беседы, е) опрос по методикам Айзенка.




Рис. 1. Изменение свойств личности с ростом числа соревнований и тренировочных занятий. (Соревновательная эмоциональная устойчивость (СЭУ), спортивной саморегуляции (СР), соревновательной мотивации (СМ), Стабильность, помехоустойчивость (Ст-П))

Специфика спортивной деятельности предъявляет особые требования к мотивационной сфере [3,7,9]. Уровень проявления соревновательной мотивации (СМ) изменяется следующим образом: от -3,12 до +0,5. На начальном этапе подготовки 90 % спортсменов ответили, что соревнования для них являются трудным экзаменом, вызывают в них тревогу и волнение. Спортсмены, имеющие квалификацию КМС, стремятся участвовать в возможно большем количестве соревнований, необходимых для выполнения разряда или зачисления в сборную команду. Уровень мотивации возрастает более чем в 8 раз. У членов сборной команды наблюдается незначительное повышение мотивации, что можно объяснить профессионализацией спорта на

Данные представлены на рисунке 2.




Рис. 2. Концентрация внимания юных теннисистов до и после тренировки. («П» (количество пропущенных букв); «Н» (количество неверно вычеркнутых букв), Устойчивости внимания («У»)).

Так, показатели устойчивости внимания до тренировки имели среднее значение $75,87 \pm 2,67$ %; а по окончании тренировки - $71,12 \pm 1,78$ %. Можно отметить два момента. Первый - наблюдается снижение показателей устойчивости внимания перед началом соревнований по

Для определения уровня личной тревожности была использована методика Ч.Д. Спилбергера-Ханина.

Результаты и их обсуждение. Обработка данных позволила выделить блок личностных характеристик, обеспечивающих надежность деятельности спортсменов в экстремальных условиях. Основные показатели психической надежности отображены в таблице 1. По мере роста спортивного мастерства показатели свойства (СЭУ) закономерно возрастают (от $-6,3$ до $-3,5$). Это значит, что спортсмен постепенно добивается относительно ровного эмоционального фона в выступлении, адекватно оценивает внешние события, эмоции не вступают в противоречие с намеченным планом действий, он оптимально регулирует энергетический потенциал в предстартовой ситуации и в ходе спортивной борьбы. С ростом числа соревнований и тренировочных занятий повышается способность к спортивной саморегуляции (СР) - от $-0,75$ до $+0,75$, хотя надо иметь в виду, что проявления саморегуляции всегда специфичны, так как связаны с особенностями деятельности спортсмена и его окружением. Данные представлены на рисунке 1.

современном этапе развития общества. Стабильность, помехоустойчивость (Ст-П) с ростом спортивной квалификации также имеет тенденцию к увеличению (от $-0,75$ до $+0,5$) [2]. Это говорит о сформированной системе управления действиями, которая должна работать в экстремальных условиях. Для контроля за изменением качества внимания были применены таблицы Бурдона. Исследование проводилось четырехступенчато: до тренировки, после тренировки, до соревнований и после соревнований. Полученные данные свидетельствуют о снижении качества внимания к концу тренировки, что выражается в увеличении количества допускаемых ошибок, снижении скорости восприятия и переработки информации.

сравнению с предтренировочными показателями. Второй - зафиксировано резкое снижение уровня устойчивости внимания после выполнения соревновательного упражнения. Психические нагрузки повлияли на результат.




Рис. 3. Концентрация внимания юных теннисистов до и после соревнований. «П» (количество пропущенных букв); «Н» (количество неверно вычеркнутых букв), Устойчивости внимания («У»).

Выполненное исследование доказало необходимость подбора эффективных средств и методов повышения концентрации внимания. При исследовании влияния темперамента на уровень достижений спортсменов при воздействии соревновательных стресс-факторов обнаружено, что отдельные свойства темперамента (в первую очередь тревожность и эмоциональная возбудимость) отрицательно влияют на деятельность спортсменов, препятствуя достижению высоких спортивных результатов. Результаты

наблюдений позволили нам определить типологические особенности спортсменов во время совместных тренировок.

Как видно из рисунка 4, у юных спортсменов нет какого-либо явно преобладающего типа темперамента. Тем не менее, реже всего встречаются в теннисе меланхолики (11,4 %), а чаще всего — сангвиники (33,3 %). Аналогичные данные были получены и при опросе и наблюдениях за высококвалифицированными спортсменами. Характеристика типов темперамента юных спортсменов представлена на рисунке 4




Рис. 4. Тип темперамента юных спортсменов.

Анализ данных позволяет говорить о четко прослеживаемой динамике понижения уровня личностной тревожности по мере совершенствования спортивного мастерства. Если спортсмены УТГ 2-го года обучения имеют средний показатель тревожности, равный 48,1 ±2,06 балла, то

у членов юношеской сборной команды, имеющих в основном квалификацию КМС, он составляет 41,2±2,73 балла, и у спортсменов, входящих в состав сборной команды уменьшается до 37,8±2,06 балла. Данные представлены на рисунке 5.




Рис. 5. Оценка личностной тревожности у спортсменов различной квалификации

Проведенные исследования (рис. 6) показали, что уровень нейротизма спортсменов также имеет непосредственную зависимость от уровня их спортивной квалификации. Так, средний показатель нейротичности

спортсменов УТГ 2-го года обучения составляет 14,9±1,55 балла, у спортсменов с квалификацией КМС он уменьшается до 13,2±2,13 балла, и у «Мастеров спорта», «Мастеров спорта международного класса» сокращается до 10,3± 1,79 балла.



Рис. 6. Уровень нейротизма у спортсменов различной квалификации

Результаты исследований, проведенных со спортсменами различной квалификации, как ни парадоксально, не подтверждают довольно распространенного мнения о том, что наибольшего успеха в спорте добиваются экстраверты. Но исследование показало, что ни в одной из них не встречается

ни один спортсмен-интроверт. С ростом спортивного мастерства увеличивается число амбивертов (с 12,5 до 50 %) и пропорционально уменьшается число интровертов (с 87,5 до 50 %). Данные по основным свойствам темперамента представлены на рисунке 7.




Рис. 7. Данные по основным свойствам темперамента в зависимости от квалификации спортсменов.

Заключение. Проведенное исследование позволило сформулировать ряд обобщающих выводов.

1. Установлено, что на результативность соревновательной деятельности юных спортсменов оказывает влияние целый ряд личностных характеристик, наиболее значимыми среди которых являются: соревновательная эмоциональная устойчивость, личностная тревожность, невротизм, соревновательная мотивация, помехоустойчивость. Свойства экстра-интровертированности не определяют у спортсменов-спортсменок формирование эмоциональной устойчивости. Обнаружена тенденция повышения уровня психической надежности спортсменов по мере роста их спортивного мастерства при одновременном снижении показателей тревожности и невротизма.

2. Выявлена тесная взаимосвязь уровня соревновательной эмоциональной устойчивости с

показателями тревожности и невротизма. Показатели тревожности и невротизма обнаружили тесную взаимосвязь с уровнем соревновательной мотивации, концентрации внимания в обычных условиях и при действии внешнего раздражителя, а также «чувством времени», обеспечивающим стабильность воспроизведения временных параметров.

3. Разработана 9-ступенчатая программа ментальной тренировки, направленная на формирование эмоциональной устойчивости юных спортсменов, основанная на выявленных индивидуально-типологических различиях. Использование комплекса разработанных рекомендаций способствовало повышению уровня соревновательной эмоциональной устойчивости юных спортсменов на 33,9 %. В то же время достоверно улучшились и другие параметры в системе исследуемых показателей, что положительно отразилось на результативности выступления спортсменов в соревнованиях.

ЛИТЕРАТУРА

1. Аболин Л.М. Эмоциональная устойчивость в напряженной деятельности, ее психологические механизмы и пути повышения: Дисс... докт.псих.наук. - М., 1989.- 596 с.
2. Андреев О.А. Тренируем свое внимание /Серия «психологический практикум».-Ростов н/Д: «Феникс», 2004.-232 с.
3. Асеев В. Г. Мотивация поведения и формирование личности. М., 1976
4. Дашкевич О.В. Эмоциональная регуляция деятельности в экстремальных условиях: Дисс...докт.псих.наук. -М., 1985.
5. Ильин Е.П. Об адекватности понимания связей свойств нервной системы с эффективностью деятельности и поведения спортсменов // Теория и практика физической культуры. - 1985. - № 6. - С. 52-54.
6. Марищук В., Блудов Ю., Плахтиенко В., Серова Л., Методики психодиагностики в спорте. М. ФиС, 2008 г.
7. Моросанова В.И. Индивидуальный стиль саморегуляции (на примере пулевой стрельбы). - М.: 1994. - 306 с.
8. Родионов А.В. Влияние психологических факторов на спортивный результат. - М.: ФиС, 2010. - С.13-19.
9. Шапарь В.Б. Практическая психология. Инструментарий. Изд. «Феникс» - 2005, 706 с.



Muyassarxon KARIMOVA,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti
E-mail: karimova@gmail.com

KUAF “ Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar ” kafedrasida dotsenti R. Ataxanov taqrizi asosida

A NEW STAGE IN THE SYSTEM OF EDUCATION AND TRAINING

Annotation

The article examines the policy implemented in Uzbekistan in the context of the development of the national education and vocational training system and the creation of the Third Renaissance foundation, the attitude to the personality of the teacher and the opportunities created for young people. It is noted that when determining the most priority areas of development, preserving old "casts" artificially impregnated with politicized science, art, education and enlightenment, the place of original values has retained the influence of old traditions. A philosophical analysis was carried out in the Republic of the fact that the issues of science, education, school, teacher-student, student-specialist have become one of the priorities of state policy.

Key words: Education, upbringing, scientific and cultural development, renaissance, third Renaissance, youth education, presidential schools, schools of creativity.

НОВЫЙ ЭТАП В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ПЕРЕПОДГОТОВКИ

Аннотация

В статье рассматривается политика, проводимая в Узбекистане, с точки зрения развития Национальной системы образования и профессионально-технического просвещения и создания Фонда "Третье возрождение", отношения к личности учителя и возможностей, создаваемых для молодежи. Отмечается, что роль самобытных ценностей в определении высших приоритетов развития, в поддержке старых "пластырей", искусственно пропитанных политизированной наукой, искусством, образованием и просветительством, сохранила влияние старых традиций. В республике был проведен философский анализ, в ходе которого вопросы науки, образования, школы, учитель-ученик, студент-специалист стали одними из приоритетов государственной политики.

Ключевые слова: Образование, воспитание, научное и культурное развитие, ренессанс, третье возрождение, воспитание молодежи, президентские школы, школы творчества.

TA'LIM VA TARBIYA TIZIMIDA YANGI BOSQICH

Аннотация

Maqolada O‘zbekistonda Milliy ta‘lim va kasb-hunar ta‘limi tizimini rivojlantirish va uchinchi Uyg‘onish davri jamg‘armasini tashkil yetish nuqtai nazaridan amalga oshirilayotgan siyosat, o‘qituvchi shaxsiga munosabat va yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ko‘rib chiqiladi. Ta‘kidlanishicha, rivojlanishning yeng ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda, siyosiy lashtirilgan ilm-fan, san‘at, ta‘lim va ma‘rifat bilan sun‘iy singdirilgan yeski "gipslar" ni saqlashda asl qadriyatlarining o‘rni yeski an‘analarning ta‘sirini saqlab qoldi. Respublikada fan, ta‘lim, maktab, o‘qituvchi-talaba, talaba-mutaxassis masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganligi falsafiy tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, tarbiya, ilmiy va madaniy taraqqiyot, renessans, uchinchi renessans, yoshlar tarbiyasi, prezident maktablari, ijod maktablari.

Kirish. Rivojlangan jamiyatlar taraqqiyotida iqtisodiy soha bilan birga ilm-fan, innovatsiya, ta‘lim-tarbiya, salomatlik va sport, madaniyat va san‘atni eng oldingi qatorlarga qo‘yiladi va bu bejiz emas. Zotan, tarix sabog‘i har doim kishilarga nimani aynan qanday o‘zgartirish lozimligini ko‘rsatib turadi.

O‘zbekistonda ham Shavkat Mirziyoevning prezidentlik lavozimiga kirishishi bilan amalga oshirilayotgan, puxta o‘ylangan islohatlarning mazmun-mohiyatida ham mana shu talab e‘tiborga olina boshlandi.

Taraqqiyotning eng ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda eski an‘analar ta‘sirini o‘zida saqlab qolgan, siyosiy lashtirilgan ilm-fan, san‘at, ta‘lim va ma‘rifat, asl qadriyatlar o‘rmini sun‘iy ravishda singdirilgan eski “qoliplar”ning saqlanib qolinishiga barham berila boshlandi. Respublikada ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, maktab, o‘qituvchi-o‘quvchi, talaba-mutaxassis masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Jamiyatda kelajakda mamlakatni qay darajada rivojlanishini belgilovchi omil yoshlarga bilm beruvchi va tarbiyalovchi o‘qituvchiga munosabat o‘zgardi. “O‘qituvchi – jamiyatdagi eng obro‘li kasb egasi bo‘lishi darkor” degan g‘oya shakllana boshladi. Buning uchun barcha choralar ko‘riladi. Zero, jahondagi eng rivojlangan davlatlardan hisoblangan Yaponiya, Finlandiya, Singapurda aynan shunday yondoshuv tufayli ular jadal taraqqiy etgan.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqida buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi” [1], degan so‘zlarini eslatdi. Eramizdan avval aytilgan bu fikr ta‘lim va tarbiya masalasi hamisha, eng qadimgi davrlardan boshlab, dolzarb ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Rivojlangan davlatlar aynan ilm-fan va ta‘limga katta e‘tibor berilgani tufayli ham taraqqiyot va farovonlikka erishgan.

Xususan, Maktabgacha ta‘lim, Xalq ta‘limi tizimini va Oliy ta‘limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyalarini tasdiqlanandi va ularda maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Shuningdek, 2030 yilga borib o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Prezident Shavkat Mirziyoev maktab ta‘limini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldinda turgan dolzarb vazifalar haqida to‘xtalib, ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir" [2], degan fikrni alohida qayd etish bilan birga, "Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz. Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag‘ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun

millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq" [3] – deya ta'kidlagandi.

Shu bois so'nggi yillarda dunyo hamjamiyatida O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yib, amalga oshirilayotgan islohotlar, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvoffaqiyatlari yangi ko'lam, miqyos kasb etayotganligi tan olinmoqda. Natijada, yurtimiz haqida gap ketganda, mamlakatimizning o'zida ham, jahon miqyosida ham "Yangi O'zbekiston" degan ibora bot-bot tilga olinib, bu yerda yangi renessans davri boshlanish arafasida ekanligi ta'kidlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Takidlash kerakki, "Renessans" tushinchasi lug'aviy fransuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibliigidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan.

Renessans, ya'ni Uyg'onish atamasi ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot jadal rivojlanishi davriga nisbat berilishidir. Birinchi sharqda ilk o'rta asrlarda Uyg'onish davri nomini olgan ilmiy va madaniy taraqqiyot VIII-IX asrlardayoq o'z olamshumul kashfiyotlari bilan dunyoni o'zgartirgan edi.

1909 yilda avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning "Musulmon Renessansi" nomli fundamental asari chop etilgan [5]. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi.

Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad [6]. Renessans VII — VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurrurab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi.

XV asrdan Renessans Yevropaga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300 — 350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg'oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o'girib, chuqur o'zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg'onishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatganlardan biri Ibn Rushddir. Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurida XVI asr o'rtalarigacha averroizm (Ibn Rushd ta'limotiga asoslangan oqim) mavqecini saqlab turdi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi keltirilgan faktlarni metodik jihatdan tahlil etsak, unda jahonshumul mazmun va mohiyat, tarixiy asos yetibdi. Negaki, o'zbek xalqi o'z o'tmishida ikkita Renessans shukuhini vujudidan o'tkazgan. Birinchisi — Sharq uyg'onish davri deb ataladigan va insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan IX-XII asrlar Renessansi. Ikkinchisi — Temuriylar Renessansi — XIV-XV asrlarda dunyo ilmfani, san'ati, madaniyati, iqtisodiyot, davlatchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk o'zgarishlar davri. Bu ikki davrda dahol ajdodlarimiz qadimgi tafakkur va ilm ta'sir doirasida bo'lgan jahon sivilizatsiyasini dadil qadamlar bilan oldinga boshladilar.

Shu bois, o'zbek xalqi Uchinchi Renessans poydevorini qo'yish uchun da'vogar bo'lishga har tomonlama haqlidir. Zotan bu yurtda tafakkur mahsuli bo'lgan va insoniyat tamaddunini ta'minlagan bilimlar, kashfiyotlar tarix qatlamlarida quyma oltindek qat-qat bo'lib, kurrai zaminning o'tmishini ham, kelajagini ham zebu ziyatga, ma'noyu mazmunga to'ldirib turibdi. Bu bilimlarni chuqur o'zlashtirmay turib, ilm-fanning hali insoniyatga ma'lum bo'lmagan yangi bosqichiga qadam qo'yish mumkin emas. Bu maqsadga erishish uchun O'zbekistonga minglab iqtidorlar, zukko olimlar, muhandis-texnologlar kerak bo'ladi. Ularni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun esa katta mehnat, moliyaviy quvvat zarur. Insoniyatning ilk tamadduni bilan tengdosh bo'lgan O'zbekistonda miloddan keyingi davrda ikkita ulkan uyg'onish to'lqini jo'sh urganiga tarix guvoh. Lekin,

bugungi zamonaviy ilm-fan yutuqlari aynan bizning hududda kechgan buyuk renessans tufayli yuzaga kelgan kashfiyotlar asosiga qurilganini hamon dunyo ahliga bor mahobati bilan ko'rsata olganimiz yo'q.

Ilm-fan, adabiyot va din sohalarida erishilgan katta yutuqlar, ozodlik va taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi bilimsizlik ustidan qozonilgan g'alaba ana shu buyuk tarixiy shaxslarning nomlari bilan bog'liq. Ular jahon Renessansi — Uyg'onish davrida muhim rol o'ynagan, ilm-ma'rifat va hunarmandchilik rivojiga ulkan hissa qo'shishgan. Ularning sa'y-harakatlari bilan qadim zamonlardan boshlab odamlar bilim va ko'nikmalarning, turmush darajasini oshirishni ta'minlovchi axloqiy-ma'naviy tarbiyaning mazmun-mohiyatini anglab yetishgan. Ajdodlarimiz bizga — keyingi avlodlarga hajmi va ahamiyatiga ko'ra bebaho meros qoldirishgan.

Barcha sharq va g'arb olimlarining e'tirof qilishlaricha, Yevropada XY-XYII asrlar orasida yuzaga kelgan Birinchi Renessans yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya'ni IX-XI asrlarda ro'y bergan[7]. IX asrning oxiriga kelib Markaziy Osiyoda Somoniylar hukmronligi, so'ng bu hududda Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar davlatlari faollik ko'rsatdi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko'hna Urganch, Xiva kabi shaharlar o'z davrining madaniyat markazlari sifatida ma'lum bo'ldi. Bu yerdarda savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bir qatorda madaniy aloqalar, bilim o'choqlari rivoj topdi. Bunday iqtisodiy-madaniy markazlar ulkan musulmon Sharqining turli o'lkalarini, G'arb va Sharq, Shimol va Janub mamlakatlarini bog'lab turuvchi qadimgi «Ipak yo'li» an'analarini davom ettirgan holda, aloqa o'choqlari sifatida mashhur bo'ldi. Movarounnahr feodal davlatlari boshqa musulmon o'lkalar bilan yaqindan aloqa o'rnatdilar, yerli olimlar o'zga mamlakatlarga borib ilm olish, hamkasblari bilan yaqindan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bu davrda Markaziy Osiyodan Xorazmiy va Farg'oniy, Ismoil al-Buxoriy va Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoni, Marg'yoniy, Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy kabi ulkan olimlar yitishib chiqdi. Ular o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarini dunyoga mashhur qildilar.

Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat rivojida X asr oxiri — XI asr boshida faoliyat ko'rsatgan Xorazmdagi shoh Ma'mun boshchiligidagi ilmiy jamoa — akademiya muhim rol o'ynadi.

Ikkinchi Renessans nafaqat mintaqamizda, balki juda katta jo'g'rofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirgan ulug' bobomiz, sohibqiron Amir Temur nomi bilan chambarchas bog'liq. U zot tufayli qudratli markaziy boshqaruvga asoslangan davlat va yangi madaniy-ilmiy yuksalish uchun qulay vaziyat yuzaga keldi. Amir Temur o'z bepoyon saltanatining katta shaharlariga turli hududlardagi iste'dodli olimlar, shoirlar, hunarmandlar, me'morlarni jamladi va ilmi-fan taraqqiyoti uchun kerakli barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bunday oqilona siyosat mamlakatning ilmiy va madaniy qudratini kuchaytirdi.

Ikkinchi renessans davri "Islom madaniyatining oltin asri" deb atalishi bilan birga, fazo ilmi va matematika fanlarining rivojlanishi bilan yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab tattov va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Birinchi Renessans davrida bo'lgani kabi, bu davrda ham ilm o'rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshlagan va ilm ma'rifat dunyo tamadduniga singib ketgan.

XX asr boshlarida mamlakatimizda Uchinchi Renessansi ma'rifatparvar javidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'afolat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi to'rt yilda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi O'zbekiston ekaniга hech kimda shubha qolmaydi.

"Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda, "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvarli yutuqlarimizning e'tirofidir. Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi" [8].

Xulosa va takliflar. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o'n yil davom etmay, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar

nihoyatda zarur. Shu bois bugun milliy ta'lim va tarbiya tizimi rivojlantirish borasida mamlakatda kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Prezident maktablari, ushbu yurtidan yetishib chiqqan ulug' allomalar – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroym Yusupov, Isxoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Xalima Xudoyberdieva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", mutaxassislashgan xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilishi yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda va ta'lim tizimimizdagi ijobiy yuksalish, "portlash"lardan biri bo'lib qolmoqda. Qorako'l tumanidagi 1-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatiga "xalqaro matematika maktabi" maqomi berilishi ham nafaqat shaharlarda balki yurtimizning olis qishloqlarida ham o'zining ilmi va bilimi bilan dunyoni hayratga soladigan yoshlar yetishib chiqayotganligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, keyingi yillarda yurtimizda tashkil etilayotgan nufuzli xalqaro ilmiy konferensiyalar, forumlar, madaniy tadbirlar O'zbekistonda nafaqat Markaziy Osiyoning, balki dunyoning zamonaviy madaniy-ma'rifiy markazlaridan biriga aylanib borayotganini, bu esa O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotganligini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўқитувчи ва мураббийлар – Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир: Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи "Халқ сўзи" газетаси 2020 йил
2. Мактаб – ҳаёт момот масаласи, келажак масаласи. Президент Ш. Мирзиёев раислигида ўтказилган халқ таълимини ривожлантириш, педагогларни малакасини ва жамиятдаги нуфузини ошириш масалаларига бағишланган видеослектор материаллари "Халқ сўзи" газетаси 2019 йил 23-25 август.
3. Мактаб – ҳаёт момот масаласи, келажак масаласи. Президент Ш. Мирзиёев раислигида ўтказилган халқ таълимини ривожлантириш, педагогларни малакасини ва жамиятдаги нуфузини ошириш масалаларига бағишланган видеослектор материаллари "Халқ сўзи" газетаси 2019 йил 23-25 август.
4. Мактаб – ҳаёт мамот масаласи, келажак масаласи. Президент Ш. Мирзиёев раислигида ўтказилган халқ таълимини ривожлантириш, педагогларни малакасини ва жамиятдаги нуфузини ошириш масалаларига бағишланган видеослектор материаллари "Халқ сўзи" газетаси 2019 йил 23-25 август.
5. Адам Мец Мусульманский Ренессанс / Пер. с нем., предисл., библиогр. и указ. Д. Е. Бертельса. — М.: ВиМ, 1996. — 538 с. —
6. Конрад Н.И. Запад и Восток. М.: Наука, 1966., Ю.В.Совастеева. Академик Н.И.Конрад и его концепция Возрождения на Востоке М.2009.
7. Абдурахмонов И.Биринчи ва иккинчи ренессанс – буюк даҳолар даври. Тошкент "Маънавият" 2020 й. 16 бет.
8. Мирзиёев Ш.М.2020 йил 31 августда Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. "Халқ сўзи" газетаси 2020 йил, 1 сентябрь



Fotima KIM,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: Amitof81@gmail.com

NavDU dotsenti, PhD D.Umurzoqov taqrizi asosida

FACTORS AFFECTING ADAPTATION TO THE EDUCATIONAL PROCESS OF BLIND AND VISUALIZED STUDENTS

Annotation

This article presents the personal characteristics of the blind and visually impaired, the factors affecting their adaptation to the educational process, their causes, and the mathematical and statistical analysis of this process in research. The research results are explained.

Key words: Blind and partially sighted people, educational process adaptation, mathematical-statistical analysis, adaptation factors.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА АДАПТАЦИЮ К ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМУ ПРОЦЕССУ СЛЕПЫХ И СЛАБОВИДЯЩИХ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье представлены личностные особенности слепых и слабовидящих, факторы, влияющие на их адаптацию к образовательному процессу, их причины, а также математическо-статистический анализ этого процесса в исследованиях. Результаты исследования объяснены.

Ключевые слова: Слепые и слабовидящие люди, адаптация образовательного процесса, математико-статистический анализ, факторы адаптации.

KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHI TALABALARDA O'QUV JARAYONIGA MOSLASHUVGA TA'SIR ETUVCHI OMIILLAR

Аннотация

Ushbu maqolada ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning shaxs xususiyatlari, o'quv jarayoniga moslashuviga ta'sir etuvchi omillar, ularning sabablari hamda bu jarayonning tadqiqotlarda olib borilgani, matematik-statistik tahlili keltirilgan. Tadqiqot natijalari izohlangan.

Kalit so'zlar: Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar, o'quv jarayoni moslashuvi, matematik-statistik tahlil, moslashuv omillari.

Kirish. Vizual patologiyaning mavjudligi insonning xayot istiqbolini turli yo'nalishlarda cheklaydi (kerakli ta'limni olish, bandlik masalalari, oilani yaratish va x.k.). Bunday cheklovlar insonda o'tkir, kuchli stress xolatlarini yuzaga keltirib chiqaradi. Bu ko'rish qobiliyati zaif odamlarga to'liq ta'luqlidir. O'zbekistonning bir qator mintaqalari bo'yicha ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakat universitetlarida ko'rish qobiliyatini yo'qotgan va zaif ko'rgan talabalar soni ushbu davrda aniq o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, ko'zi ojizlarning oliy talim jarayoni masalasi endilikda xam ijtimoiy, xam ilmiy jihatdan yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, u tobora kuchayib bormoqda, chunki og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan odamlar oliy kasbiy ta'lim olish uchun o'zlarining ajralmas huquqini amalga oshirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu qiyinchiliklar oliy o'quv yurtiga qabul qilish bosqichida paydo bo'ladi, chunki kirish imtixonlarini o'tkazish tartibi va texnologiyasi asosan ko'rish qobiliyati zaif abituriyentlarning o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini xisobga olmaydi va ba'zan ularning imkoniyatlariga zid keladi (Kotova S. Y. (2000y.) va boshqalar.). Biroq, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi talabalar kundalik kasbiy va o'quv faoliyati davomida yanada jiddiy muammolarga duch kelishadi (Nikulina G. V., (2000, 2005) va boshqalar). Turli xil darajalarda joylashgan bu muammolar orasida, xususan, texnologik (maxsus axborot texnologiyalari va texnik ma'lag'lar, ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, Brayl alifbosida chop etilgan universitet darsliklari va o'quv qo'llanmalarining yo'qligi va boshqalar), uslubiy (universitet binolarida yo'nalishni aniqlashda qiyinchiliklar, harakatlanish cheklovlari, o'quv binolari va oliy o'quv yurti xududi bo'ylab xarakatlanishning qiyinligi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarining universitetga ijtimoiy-psixologik moslashuvi masalalari zamonaviy o'qituvchi va psixologlar - V.A.Ivannikov, V.N.Panferov, S.A.Sedrakyanlarning ishlarida, shuningdek, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida ijtimoiy-psixologik moslashuvning fundamental masalalari ko'rib

chiqilgan, o'tgan yillar: G.A.Ball, L.I.Bojovich, J.Piaje, Z.Freyd, E.Erikson ishlarida ham ta'riflangan[1]. Shunday qilib, G.I.Tsaregorodtsev ijtimoiy-psixologik moslashishni atrof-muhit va shaxsning ichki stimullari tomonidan qo'yiladigan talablar muvozanati sifatida talqin qiladi. I.A.Miloslavskayaning fikricha, ijtimoiy-psixologik moslashuv shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi uyg'un muvozanat bilan tavsiflanadi, agar bu muvozanat buzilgan bo'lsa yoki haqiqiy vaziyat va shaxsiy qadriyatlar o'rtasida nomuvofiqlik bo'lsa, psixologik konflikt kelib chiqishi mumkinligini ta'kidlagan.

Adabiyotlarni tahlil qilsak, L.Y.Bronzino, A.E.Volchina, A.A.Kuzmishkin, O.V.Xotuleva, V.A.Yushchenko talabalarni universitetdagi o'quv jarayoniga moslashish jarayonida duch keladigan quyidagi qiyinchiliklarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. O'quv yukining hajmi sezilarli darajada oshadi, yangi fanlar paydo bo'ladi, ular uchun talabalar har doim ham maktabda yetarli bilimga ega emaslar. Universitetda o'qish ko'pincha talabadan ko'p vazifalarni bajarishni, bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilishni talab qiladi: darslarda qatnashish, mustaqil ravishda o'quv adabiyotlarini topish va o'rganish, uy vazifasini bajarish, loyiha faoliyatini amalga oshirish, shuningdek, talabalar hayotida ishtirok etish. Universitetdagi darslarning uslubi talabalar maktabda o'qishga odatlanganidan ko'p jihatdan farq qiladi - ma'ruzalarni yozib olish, seminarlar va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish kerak. Axborotni idrok etishning yangi uslubiga moslashish ko'pincha maktabda o'qish davrida shakllanmagan yoki yetarli darajada shakllanmagan ko'nikmalarni talab qilishi bilan murakkablashadi. Universitetdagi darslar jadvali va davomiyligi maktabdagi farq qiladi; maktabda o'qish yillari davomida talabalar ma'lum bir dars davomiyligi va hayot ritmiga o'rganib qolishgan, darslar odatda ertalab, tushdan keyin esa talabalar boshlanadi. Universitetda darslar uzoqroq davom etadi va ertalab ham, tushdan keyin ham boshlanishi mumkin [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Nogironlar, shu jumladan ko'zi ojizlar, ular uchun mavjud bo'lgan ijtimoiy amaliyotning

barcha soxalarida qobiliyatlarini rivojlantirish va amalga oshirish uchun jamiyatda qulai sharoitlar yaratish zarurligi xaqidagi gumanistik g'oyalar (Gudonis V., Malofeyev N. N., Kantor V. Z. i dr.); tiflopsixologiyaning umumiy vizual maxrumlik paytida aqliy rivojlanishning normadagi kabi bir xil naqshlarga bo'ysunishi va shaxsning asosiy fazilatlarining vizual patologiyaning chuqurligi va tabiatidan mustaqilligi to'g'risidagi xulosalari (Zotov A.I., Litvak A.G., Solntseva L.I.); ko'zi oqizlarning samarali ijtimoiy-psixologik moslashuvi va qulay ichki va tashqi sharoitlar mavjud bo'lganda ularni jamiyatga integratsiyalashuvi imkoniyatlari to'g'risidagi tifologiyaning pozitsiyasi (Volkova I. P., Gudonis V., Litvak A. G.); Ko'zi oqizlar va ko'zi oqizlarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasi jarayonining ikki tomonlama tabiati xaqidagi g'oyalar, ko'zi oqizlarning o'zlarini va jamiyatning qarshi faoliyatini o'z ichiga oladi (Volkova I.P., Gudonis V., Kantor V. Z., Litvak A.G. va boshqalar.); ko'rish qobiliyati zaif talabalarga nisbatan universitetning reabilitatsiya va ta'lim funksiyasi xaqidagi dissertatsiya (Kantor V. Z., Nikulina G. V.). Tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asosligi o'rganilayotgan hodisalarning tabiatiga, tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos keladigan usullardan kompleks foidalanish bilan ta'minlanadi; eksperimental ma'lumotlarning miqdoriy va sifat taxlilining kombinatsiyasi; namunaning reprezentativligi, tadqiqot faktlari, qoidalar, xulosalarining qiyoslanishi va o'zaro tekshirilishini ta'minlash; natijalarni statistik qayta ishlash usullarini qo'llash.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari A.A.Andreyev, O.YE.Belova, O.I.Lyash, L.A.Peskova, S.A.Sushkov, V.A.Brilyova, N.A.Goncharova, Y.P.Gospodarik, V.V.Gura, A.V.Danilkevich, 3.N.Ismailova, V.A.Kuklev, E.S.Matosov, A.L.Nazarenko, O.A.Tarabrin, A.Y.Uvarov, A.V.Xutorskiy, E.P.Chernyayeva, A.Chirsov, YE.V.Yakushina Y.K.Babanskiy,

V.P.Bespalko, M.Ochilov, M.N.Skatkin, O.K.Tixomirov kabi olimlarning ilmiy ishlarida amaliy psixologik faoliyat va ularning ilmiy asoslariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, asosida yosh avlodni tarbiyalashda o'zini –o'zi adekvat baholashni tarkib topirish sifat ko'rsatkichlari muammolari mazkur ishlarda ilmiy asoslar bilan yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimida amaliy psixologik faoliyatning sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda shaxs kamoloti strukturaviy tuzilmasini to'g'ri-adekvat shakllantirish imkoniyatlari bo'yicha izlanish olib borish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu yo'nalishda E.G.G'oziyev, M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, Sh.Baratov, K.Jabborov, G.K.Tulyaganova, M.Karamyan, L.Bekmurodova N.A.Muslimov, Sh.J.Usmanova, G.S.Ergasheva, Z.X.Yuldashev, R.H.Hamdamov, U.B.Shamsiyev kabi tadqiqotchilar samarali faoliyat olib borishgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida biz tomonimizdan qo'llanilgan metodikalar o'quv jarayonlariga moslashishi sharoitidagi o'qish sharoitida ko'rish qobiliyati buzilgan talabalarining moslashuvchan potentsialining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan edi.

Tadqiqot jarayonida ko'zi oqiz va zaif ko'ruvchi talabalarining universitetda o'qish sharoitlariga moslashuvining o'ziga xos xususiyatlarini uning ijtimoiy-psixologik jihatdan aniqlash aspektida o'rganishni maqsad qilib olingan bo'lib, bunda mualliflik so'rovnomasi, Ijtimoiy qo'llab quvvatlash so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning tavsiflovchi statistik tahlili natijalari olindi. Mualliflik so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalar tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan. Tadqiqotda natijalar tahlilini amalga oshirish jarayonida mualliflik so'rovnomasidan foydalanildi.

1-jadval. Tadqiqot metodikalarining tavsiflovchi statistik tahlili (N=153)

Ko'rsatkichlar	N	Minimal qiymat	Maksimal qiymat	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksess
Hissiy qo'llab quvvatlash	153	16.00	45.00	33.3987	8.24090	-.159	-1.277
Instrumental qo'llab quvvatlash	153	4.00	20.00	12.3660	4.68726	-.125	-1.061
Ijtimoiy integratsiya	153	12.00	31.00	22.0392	5.67993	-.121	-1.431
Ijtimoiy qo'llab quvvatlashdan qoniqish	153	2.00	10.00	5.1111	2.59188	-.147	-1.427
Ijtimoiy qo'llab quvvatlashning umumiy kursoratkichi	153	36.00	105.00	74.5163	20.81027	-.177	-1.479

Hissiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichi bo'yicha tavsiflovchi statistika natijalari tahlil qilinarkan, minimal qiymat ko'rsatkichi 16 ball, maksimal qiymat ko'rsatkichi 45 ball, o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 33,3987 ballni, standart og'ish ko'rsatkichi 8,24090 ni tashkil etgan bo'lsa ($33,3987 \pm 8,24090$), assimetriya ($A=-.159$), eksess ($E=-1.277$) ni tashkil etganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Instrumental qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichiga ko'ra minimal qiymat 4 ballni, maksimal qiymat 20 ball, o'rtacha qiymat 12,3660 ballni, standart og'ish 4.68726 ballni tashkil etdi. $12,3660 \pm 4.68726$. Assimetriya ko'rsatkichi ($A=-.125$), eksess ko'rsatkichi ($E=-1.061$) ni tashkil qildi.


Ijtimoiy integratsiya ko'rsatkichi bo'yicha minimal qiymat 12 ball, maksimal qiymat 31 ball, o'rtacha qiymat 22.0392

ni, standart og'ish ko'rsatkichi 5.67993 ni tashkil qildi. 22.0392 ± 5.67993 . Assimetriya ko'rsatkichi ($A=-.121$), eksess ko'rsatkichi ($E=-1.431$) ni tashkil etdi.

Ijtimoiy qo'llab quvvatlashdan qoniqish bo'yicha minimal qiymat 2 ball, maksimal qiymat 10 ball, o'rtacha qiymat 5.1111, standart og'ish 2.59188 ni tashkil etdi. 5.1111 ± 2.59188 . Assimetriya ko'rsatkichi ($A=-.147$), eksess ko'rsatkichi ($E=-1.427$) ni tashkil etdi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning umumiy ko'rsatkichi bo'yicha minimal qiymat 36 ball, maksimal qiymat 105 ball, o'rtacha qiymat 74.5163, standart og'ish ko'rsatkichi 20.81027 ni tashkil qildi. 74.5163 ± 20.81027 . Assimetriya ko'rsatkichi ($A=-.177$), eksess ko'rsatkichi ($E=-1.479$) ni tashkil qildi.

Tadqiqotdan olingan natijalar tahlilini quyidagi diagrammada ifodalashga harakat qildik.



1-diagramma

Ko'rib turganimizdek, olingan natijalarga ko'ra erkaklarda ayollarga qaraganda hissiy qo'llab-quvvatlash, instrumental qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy

qo'llab-quvvatlashdan qoniqish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning umumiy ko'rsatkichi yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Ko'zi ochiq va zaif ko'ruvchilarning ehtiyoj va muammolardan kelib chiqib shuni xulosa qilish

mumkinki, imkoniyati cheklangan talabalarni oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoniga to'liq jalb etish borasida hali ko'p ishlar qilinishi kerak. Universitetda o'qish nafaqat bilim olish, balki hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarni egallashdan iborat bo'lib, universitetlar imkoniyati cheklangan talabalarining boshqa talabalar qatori to'liq va teng ishtirokini ta'minlashi kerak. Buning uchun ularni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yaratish, qulaylik va universal dizaynni hisobga olgan holda asosiy o'quv binolari va yotoqxonalarini loyihalash va moslashtirish zarur. Shu bilan birga, bunday shart-sharoitlarni yaratish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar universitetlar budjetiga nomutanosib yoki asossiz yuk sifatida qaralmasligi kerak.

Hozirgi vaqtda ko'zi ojiz talabalar moslashuv jarayonlarini (odatda norasmiy) ta'minlashda yetakchilikni o'z

zimmalariga olishga majbur bo'lishadi va uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan talabaning o'zini qanday tutishiga, shuningdek, turli guruhlarining muvofiqlashtirish harakatlarida qanchalik faol rol o'ynashiga bog'liq.

Nogironlikni ijtimoiy tuzilma sifatida tushunish jamiyatdan barcha shaxslarning oliy ta'lim muassasasiga kirish huquqini ta'minlash va tadqiqotchilarning e'tiborini nogironlarning o'quv jarayonidagi ehtiyojlariga, shuningdek, ularning ta'lim muassasalarida o'qishga moslashish xususiyatlariga qaratish zarur. Bu orqali ularda vujudga keladigan turli muammolarni hal qilishimiz hamda ularning ijtimoiy hayotda faol shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Агеев Е.Д. Проблемы реабилитации инвалидов по зрению в современных условиях // Новые подходы в теории и практике обучения, воспитания, реабилитации слепых и слабовидящих. М. 1995. - 130с
2. Вахромов Е.Е. Психологические концепции развития человека: теория самоактуализации. М. 2001. - 263с
3. Абрамова Г.С. Введение в практическую психологию. - М.: Международная педагогическая академия. 1995 - 263с.
4. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. — М.: Наука. 1976. —334с.
5. Авдеенко, А.С. Психологическая адаптация студентов ВУЗа / А.С. Авдеенко // Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области. – 2017.



Svetlana KULATOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: kulatova.svetlanar@mail.ru

Psixologiya fanlari doktori, professor B.Jurayev taqrizi asosida

O'SMIR SHAXSIDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI BO'YICHA AMALIY NATIJALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'smir shaxsida destruktiv axborotlarni qabul qilishning psixologik determinantlari bo'yicha amaliy natijalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, o'smirlar orasida virtual olamga tobelik-destruktiv axborotlarga berilishning omili sifatida tadqiqot natijalar tahlili keltirilgan. Virtual va axborot asrida yoshlarda destruktiv axborotlarga qarshi kurash uchun psixologik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tobelik, o'smir, destruktiv axborotlar, axborot asri, virtual olam, psixologik xavfsizlik, psixologik tavsiya, determinant.

ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ ДЕТЕРМИНАНТАМ ВОСПРИЯТИЯ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ В ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКА

Аннотация

В данной статье приведены практические результаты по психологическим детерминантам восприятия деструктивной информации в личности подростка. Также приводится анализ результатов исследования как фактор зависимости подростков от деструктивной информации в виртуальном мире. Приведены психологические рекомендации по борьбе с деструктивной информацией у молодежи в виртуальный и информационный век.

Ключевые слова: Зависимость, подросток, деструктивная информация, информационный век, виртуальный мир, психологическая безопасность, психологическая рекомендация, детерминант.

PRACTICAL RESULTS ON PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE PERCEPTION OF DESTRUCTIVE INFORMATION IN A TEENAGER'S PERSONALITY

Annotation

This article presents practical results on psychological determinants of receiving destructive information in a teenager. Also, an analysis of the results of the study as a factor of addiction to destructive information among teenagers is given. In the virtual and information age, there are psychological recommendations for combating destructive information in young people.

Key words: Subordination, teenager, destructive information, information age, virtual world, psychological safety, psychological recommendation, determinant.

Kirish. Destruktiv ma'lumot avtoritar shaxslar va minoritar ijtimoiy jamoalarning antisotsial ifodalangan xoxishlariga asoslangan bo'lib, ushbu xoxishlarni jamiyat uchun tavsiya qilib bo'lmaydi, vaholanki ajralgan jamoani istaklari butun bir jamiyatdagi insonlarning manfaatidan yuqori turmaydi. Odatda destruktiv g'oyalarning keng tarqalishi va unga mos ravishda tuzilma yoinki jamoalarning dinamik tezlashishi ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, OAV vositalari sohasidagi ziddiyatlarning avj olishi bilan bog'liq. Bugungi zamonda psixologiyada jamiyatda destruktiv ma'lumotlarga qarshi mafkuraviy immunitet yaratish holatlarini baholashga bog'liq bir qator nazariyalar keragicha yaratilmagan bo'lsada, jahon olimlarining psixologik qarashlarini e'tiborga olish zarurdir.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy inson doimo, aslida hayotining har kuni juda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qayta ishlaydi. "Homo Cyberus" haqiqatdan ham ma'lumotlar ichida yashamoqda, axborot bilan yashab, axborotga haddan tashqari to'yinganligi, shuningdek, axborotga ochligi XXI asrdagi odamlar stressni boshdan kechirishining dastlabki sabablaridan biridir. Shu bilan birga, zamonaviy dunyodagi ma'lumotlar, hatto eng konservativ hisob-kitoblarga ko'ra, inson mustaqil ravishda qayta ishlay oladiganidan bir necha yuz ming marta ko'pdir. Bundan tashqari, bu ma'lumotlar ko'p marta, inson o'zining haqiqiy ehtiyojlarini etarli darajada qondirish uchun kerak bo'lganidan ko'p. Va idrok etilganda, barcha ma'lumotlar, hatto biror narsa uchun zarur va inson uchun foydali bo'lsa ham, u tomonidan samarali qayta ishlanmaydi, xotirada qoladi va hayotda foydalanilmaydi [1].

Mariya Bada tadqiqotlarida ko'proq ijtimoiy va xulq-atvor fanining istiqboli nuqtai nazaridan mazkur hujumlar bilan bog'liq ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirlarini o'rganish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki,

jamoatchilik vakillari hujumning o'zi emas, balki kiberhujum oqibatlariga ko'proq javob berishadi [2].

E'tiqodlar tadqiqotning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Buning sababi, foydalanuvchining umumiy xavfsizlikka munosabati va xavfsizlik mexanizmlarini qo'llash motivatsiyasi – agar imkoniyat berilsa – ularning e'tiqodlariga bog'liq: hodisa idrok etilishining qanchalik jiddiyliigi; tahdidga moyillik; o'z-o'zini samaradorligining idrok etilganligi; va oldini olish yoki yumshatuvchi xatti-harakatlarning bahosi va samaradorligi (Blythe & Camp, 2012). Ushbu omillar kiberxavfsizlikning himoya amaliyotlarini (xulq-atvorini) rag'batlantirishni, shuningdek, kiberhujumga ijtimoiy va psixologik javoblarni prognoz qilishni qiyinlashtiradi. Bu mavjud tahdidlardan tortib yangi muammolargacha bo'lgan hujumning har qanday shakli bo'lishi mumkin, masalan, narsalar Interneti yoki sun'iy intellekt bilan bog'liq kiberxavflar [3].

Globallashuv jarayonlari Internet va u bilan bog'liq ko'plab multimedia xizmatlarining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, texnologiyalarning o'zi, yuqorida ta'kidlanganidek, inson va insoniyatning, birinchi navbatda, yosh avlodning psixologik rivojlanishi yo'nalishlariga nisbatan noaniqdir. "Kompyuter savodxonligi" mukammallikka olib keladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida yuzaga kelgan va shartlangan psixologik rivojlanish ijobiy, neytral yoki salbiy yo'lni bosib o'tishi mumkin, garchi kompyuterlar, operatsion tizimlar, brauzerlar, dasturlash tillari va Internet mavzuning rivojlanish yo'nalishini aniqlamasa ham. Axborot texnologiyalari sohasida iqtidorli bolalar va o'smirlarni rivojlantirishning bir qancha istiqbolli yo'nalishlari mavjud. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari tufayli shunday psixologik rivojlanish yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularni salbiy deb tasniflash mumkin. Ular orasida: potensial (barcha ekspertlar tomonidan tan

olinmagan bo'lsa ham) "Internet-addiksiya" - kompyuter va Internetga qaralik [4]; tez-tez kuchli stressga olib keluvchi kompyuter xavotiri [5]; tafakkurni texnokratlashtirishning o'ziga xos turi [6] bo'lib, texnik vositalar bilan tizimli ravishda ishlaydigan mutaxassislariga xos bo'lishi shart emas va hokazo.

Tahlil va natijalar. Sharq xalqlarida, jumladan, O'rta Osiyo xalqlarida, aksincha, jamoaviylik kuchliroq namoyon bo'ladi. XIX-asrning atqoli olimlaridan biri German Vamberi Yevropa va Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, ilmfan hamda madaniyatini o'rganib, ularni taqqoslar ekan, Yevropa

madaniyatida asosiy e'tibor, birinchi navbatda, odamning ijtimoiy va madaniy boyligi bo'lmish shaxsga qaratiladi, deb ta'kidlaydi [7].

Albatta, bu borada dinshunos, tarixshunos olimlarimiz o'z fikrlarini batafsilroq bildirishgan, lekin shuni aytish joizki, o'z joniga qasd qilishi azaldan uning qarindosh-urug'lari, yaqinlari orasida chuqur iz (asorat) qoldirgan va hozir ham bu hodisaga jamoatchilik juda keskin munosabat bildiradi. Shu xususiyatga ko'ra ham suitsidning oqibatlarida Yevropa xalqlaridagiga qaraganda keskinligi bilan farqlanib turadi.

O'smirlarda psixologik himoya omillarining namoyon bo'lishi (n=420)

№	Omillar	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		Farqlanishlar	
		M	S	M	S	t	P
1	Siqib chiqarish	9,5	1,8	6,3	2,8	-2,37	0,05
2	Regressiya	6,0	1,8	3,7	2,8	-2,81	0,05
3	Kompensatsiya	7,9	1,5	5,1	2,3	-2,27	0,05
4	Proeksiya	6,5	1,1	5,3	2,4	-2,41	0,05
5	O'rin almashtirish	6,8	1,2	5,0	2,2	-2,20	0,05
6	Ratsionalizatsiya	7,4	1,8	5,3	2,1	-1,21	0,21
7	Reaktiv tuzilma	5,2	1,2	6,6	2,2	-1,33	0,34

Kellerman-Plutchik metodikasi bo'yicha olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «siqib chiqarish» ($t=-2,37$; $p\leq 0,05$), «regressiya» ($t=-2,81$; $p\leq 0,05$), «kompensatsiya» ($t=-2,18$; $p\leq 0,05$), «proeksiya» ($t=-2,21$; $p\leq 0,05$), «o'rin almashtirish» ($t=-2,11$; $p\leq 0,05$) omillarida ahamiyatli o'zgarishlar kuzatildi. Metodikadagi «siqib chiqarish» omilida ishonchli farqlar qayd etildi. O'smirlarda siqib chiqarish omili bevosita turli xil ekstremal vaziyatlarda sodir bo'ladi. Mazkur holatlar o'smirlarda yuqori bo'lsa, ularni o'zlariga tegishli bo'lgan axborotlarni analiz va sintez qilish jarayonida ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'smirlarda mafkuraviy immuniteti yuqori bo'lsa «siqib chiqarish» psixologik himoya mexanizmi pasayib boradi, ya'ni ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati pasayib borishi tadqiqot davomida aniqlandi. Psixologik himoya omilining «regressiya» shkalasi bo'yicha ijobiy tomonga o'zgarishlar kuzatilganligini aniqlandi. «Regressiya» psixologik himoya mexanizmi o'smirlarni o'ziga ishonchsizlik natijasida vujudga keladi, o'smirlar o'z fikrlarini bayon etganda ularning g'oyalari qabul qilinmasligi, turli xil qarshiliklarga uchrashi oqibatida «regressiya» omili oshadi. Psixologik himoya omilining «kompensatsiya» shkalasi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. «Kompensatsiya» psixologik himoya mexanizmida real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish harakati ustun bo'ladi.

O'smirlarning tashqi omillarga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyasi oqibatida vujudga kelgan salbiy

holatlar (tez xafa bo'lish, ishonchsiz, o'zini kamsituvchi, o'ta ko'ngilshan, murosasizlik, tobelik, odamlarning fikriga bog'lanib qolish) tufayli destruktiv xulqning namoyon bo'lishi asoslanib, shaxslararo munosabatni emratik tiklash va destruktiv xavf hissi faktorlarini kamaytirish maqsadida rsixorrofilaktik targ'ibot-tashviqot ishlarini mentalitet xususiyatiga ko'ra ijtimoiy-psixologik asrektida olib borish zarur. O'smirlarning jamiyatga moslashishidagi ijtimoiy dezadaptatsiyasi ularni destruktiv xulqni o'zida namoyon bo'lishidagi dastlabki omil sifatida ko'rsatishi bunda o'smir xulqidagi antijtimoiy adaptatsion holatlarning kam funksiyali ijobiy tomonlarnin namoyon bo'lishini aniqlash mumkin,

Xulosa. O'sib kelayotgan o'smir yoshlarning o'rtasida ushbu destruktiv ma'lumotlarga va uni o'z ongida to'la to'kis shakllanib qolishini oldini olish hamda unga qarshi immunitetni shakllantirishni to'g'ri tashkil qilishni psixologik-trening dastrular orqali amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada keltirilgan tahlillar orqali shuni alohida xulsa sifatida keltirishimiz mumkinki o'smirlarda salbiy axborotlarga nisbatan psixologik mexanizmi shakllantirishda maxsus trening dasturlarni amalda tadbiiq etilishi ular ongida mafkuraviy salbiy axborotlarga qarshi ijobiy immunitetni to'g'ri shakllantirish hamda ularning ongiga singdiriladigan virtual xavf xatarlarni vaqtida samarali tarzda bekor qilish uchun dastur sifatida xizmat qilib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Плешаков В. А. Кибер социализация человека: от Homo Sapiens'a до «Homo Cyberus'a» // Вопросы воспитания. М., 2010. № 1 (2). С. 92–97.
2. "Психология девиантного поведения: Учеб. пособие для вузов" –Клейберг Ю.А. (2011). 30(1), 28-38.
3. "Психология девиантного поведения" – В.Д.Менделевич 19 (5), 20-26. IEEE.
4. Интернет-зависимость: психологическая природа и динамика развития / Под ред. А.Е. Войскунского. – М., 2009. С. 279.
5. Davletshin M.G. tahriri ostida. Psixologiya. // Qisqacha izohli lug'at.-Toshkent: TDP, 1998, 48b.



Sultanboy KURBANOV,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti kafedra mudiri

TATU dotsenti PhD G.A.Kayumova taqrizi asosida

MASOFAVIY TA'LIM SHAKLI SIFATIDA MOBIL TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA XUSUSIYATLARI, FOYDALANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Аннотация

Maqola masofaviy ta'lim shakli sifatida mobil ta'limning rivojlanishi va xususiyatlariga bag'ishlangan. Maqolada mobil texnologiyalarning rivojlanishi, internetga kirish imkoniyati va ta'lim dasturlari imkoniyatlarini jadal kengaytirish kabi mobil ta'limning ommaviyligini ta'minlovchi asosiy omillar tahlil qilingan. O'quv jarayonida mobil qurilmalardan foydalanishda o'qituvchilar va talabalar duch keladigan muammolar, jumladan, cheklangan ekran maydoni, kontentni moslashtirish zarurati, shuningdek, xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Mobil ta'lim, masofaviy ta'lim, mobil texnologiyalar, ta'limni shaxsiylashtirish, elektron ta'lim, ta'lim platformalari, interaktiv texnologiyalar, adaptiv ta'lim, ta'limdagi innovatsiyalar, o'quv jarayonining moslashuvchanligi, mobil ilovalar, multimedia resurslari.

РАЗВИТИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКА МОБИЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФОРМА ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация

Статья посвящена развитию и особенностям мобильного обучения как одной из форм дистанционного образования. В работе анализируются ключевые факторы, способствующие росту популярности мобильного обучения, такие как развитие мобильных технологий, доступность интернета и стремительное расширение возможностей обучающих приложений. Рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели и студенты при использовании мобильных устройств в образовательном процессе, включая ограниченность экранного пространства, необходимость адаптации контента, а также вопросы безопасности и защиты данных. **Ключевые слова:** Мобильное обучение, дистанционное образование, мобильные технологии, персонализация обучения, электронное обучение, образовательные платформы, интерактивные технологии, адаптивное обучение, инновации в образовании, гибкость учебного процесса, мобильные приложения для обучения, мультимедийные ресурсы.

DEVELOPMENT AND CHARACTERISTICS OF MOBILE EDUCATION AS A FORM OF DISTANCE EDUCATION, PROBLEMS AND PROSPECTS OF USE

Annotation

The article is devoted to the development and features of mobile learning as a form of distance education. The work analyzes the key factors contributing to the growing popularity of mobile learning, such as the development of mobile technologies, the availability of the Internet and the rapid expansion of the capabilities of educational applications. The problems that teachers and students face when using mobile devices in the educational process are considered, including limited screen space, the need to adapt content, as well as security and data protection issues.

Key words: Mobile learning, distance education, mobile technologies, personalization of learning, e-learning, educational platforms, interactive technologies, adaptive learning, innovations in education, flexibility of the educational process, mobile applications for learning, multimedia resources.

Kirish. Zamonaviy ta'lim yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi tufayli sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limning shiddat bilan rivojlanayotgan shakllaridan biri bu mobil ta'lim bo'lib, bilim olish va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mobil qurilmalardan (smartfonlar, planshetlar, noutbuklar) foydalanish hisoblanadi. Ta'limning ushbu shakli masofaviy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanib, talabalarga istalgan vaqtda va istalgan joyda o'qish imkoniyatini beradi, bu globallashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida ayniqsa muhimdir.

Mobil ta'lim an'anaviy va yangi ta'lim usullarini, jumladan, multimedia resurslari, ta'lim ilovalari va platformalarini birlashtirishga imkon berish orqali ta'lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, bu esa o'rganishga yanada moslashtirilgan va moslashuvchan yondashuvga yordam beradi. Shu bilan birga, ko'plab afzalliklarga qaramay, mobil ta'lim mobil qurilmalar uchun o'quv materiallarini moslashtirish zarurati, ma'lumotlar xavfsizligi va texnik qo'llab-quvvatlash masalalari kabi bir qator muammolarga duch keladi.

Ushbu maqolaning maqsadi mobil ta'limni rivojlantirishni masofaviy ta'limning muhim shakli sifatida ko'rib chiqish, uning xususiyatlarini ta'kidlash, shuningdek, ushbu ta'lim

shaklidan turli sohalarda foydalanishning dolzarb muammolari va istiqbollarini tahlil qilishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Masofaviy ta'limning shakli sifatida mobil ta'limning rivojlanishi va xususiyatlarini, shuningdek undan foydalanish muammolari va istiqbollarini o'rganish uchun maqolada quyidagi metod va metodikalarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv qo'llaniladi: adabiyot va ikkilamchi manbalarni tahlil qilish, ish bosqichlari, ta'lim platformalari va mobil ilovalarning tarkibiy tahlili, talabalar va o'qituvchilar bilan anketa o'tkazish va savol javob qilish, qiyosiy tahlil an'anaviy va mobil ta'lim, prognozlash va istiqbolni tahlil qilish. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik yondashuvlarni birlashtiradi, bu mobil ta'limning rivojlanishini har tomonlama tahlil qilish, uning xususiyatlari va muammolarini aniqlash, shuningdek uning istiqbollarini bashorat qilish imkonini beradi. Adabiyotlarni tahlil qilish, ish bosqichlari, so'rovnomalari va qiyosiy tahlil kabi bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanish mobil ta'limning hozirgi holati va uning masofaviy ta'lim sohasidagi keyingi salohiyati haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Masofaviy ta'limning bir shakli sifatida mobil ta'lim o'qitishning qulayligi, moslashuvchanligi va shaxsiylashtirishdagi afzalliklari tufayli butun dunyo bo'ylab

tadqiqotchilar va amaliyotchilarning e'tiborini jalb qiladi. So'nggi o'n yilliklarda mobil texnologiyalarning rivojlanishi va internetning keng tarqalishi bilan ushbu yo'nalish zamonaviy ta'lim tizimining muhim elementiga aylandi. Ushbu adabiy sharh mobil ta'limning turli jihatlarini, jumladan, uning rivojlanishi, xususiyatlari, muammolari va foydalanish istiqbollarini ko'rib chiqadi.

Hwang & Chan, 2017 tadqiqotlariga ko'ra, mobil ta'lim 2000-yillarning boshlarida, smartfonlar va planshetlar paydo bo'lishi bilan rivojlana boshladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, har yili turli xil tarkibni birlashtirgan o'quv dasturlari va platformalari soni ko'paymoqda: matnli materiallar, video darsliklar, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqa uchun kvizlar va forumlar. Ishda mobil ta'lim talabalarga vaqt va joylashuvdan qat'i nazar, doimiy o'quv jarayonida bo'lish imkonini beruvchi vosita sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, 5G va bulutli hisoblash kabi texnologiyalarning rivojlanishi bilan mobil ta'lim yanada qulay va funksional bo'ldi. Sharples olimlari va boshqalar mobil texnologiyalarni boshqa ta'lim usullari, jumladan, elektron va virtual ta'lim bilan integratsiya qilish muhimligini ta'kidlaydilar, bu esa ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi.

Mobil ta'limning asosiy xususiyatlaridan biri uning harakatchanligi va moslashuvchanligidir. Mobil qurilmalar o'quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda ta'lim materiallaridan foydalanish imkonini beradi. Muhammad Alining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mobil ta'lim talabalarining motivatsiyasini oshirishga yordam beradi, chunki ular o'z vaqtlarini mustaqil ravishda rejalashtirishlari va tegishli ta'lim usullarini tanlashlari mumkin. Ta'limning ushbu shakli, ayniqsa, o'qishni boshqa vazifalar bilan birlashtirgan talabalar va ishchilar orasida mashhurdir.

Biroq, mobil ta'limning muhim xususiyatlaridan biri bu uning interaktivligi va multimedia. Olim Kukulska-Hulme, 2009 video, audio va tasvirlar kabi multimedia elementlaridan foydalanish talabalarining o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi va materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi, deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga, mobil qurilmalar ko'pincha jamoaviy ishlash uchun funksiyalarni taklif qiladi, bu esa aloqa va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni rag'batlantiradi.

Ko'p afzalliklarga qaramay, mobil ta'lim bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Ulardan biri mobil qurilmalarning cheklangan funksional imkoniyatlari. Kichik o'lchamdagi mobil ekranlar va qurilmaning cheklangan resurslari batafsil grafikalar yoki texnik diagrammalar kabi murakkab o'quv materiallarini namoyish qilishda qiyinchilik tug'diradi (Conole, 2013). Shuningdek, an'anaviy o'quv materiallarini mobil platformalarga moslashtirish zarurati muhim muammo bo'lib, ishlab chiquvchilar va o'qituvchilar tomonidan qo'shimcha kuch talab etiladi.

Tahlil va natijalar. Kelajakda ta'lim tizimida mobil ta'lim muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kelajakda mobil ta'lim sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) kabi yangi texnologiyalardan foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi (Johnson va boshqalar, 2016). Ushbu texnologiyalar talabalarining faolligini sezilarli darajada oshirishi va ta'lim natijalarini yaxshilashi mumkin bo'lgan yanada dinamik va shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Mobil ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar ham muhim rol o'ynaydi. Ko'proq ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga mobil texnologiyalarni integratsiyalashni boshladilar, bu esa an'anaviy va masofaviy ta'lim usullarini uyg'unlashtirgan gibrid ta'lim modellari yaratishga xizmat qilmoqda. Muhim qadam, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar, jumladan, nogironlar uchun mobil ta'limdan foydalanish imkoniyatini oshirishdir.

Mobil ta'lim, mavjud muammolarga qaramay, rivojlanishda davom etmoqda va ta'limga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sohaga qiziqish yil sayin ortib bormoqda va mavjud qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan yangi yechimlar paydo bo'lmoqda. Yaqin kelajakda o'quv jarayonida mobil texnologiyalardan keng foydalanishni kutish mumkin, bu esa talabalar va o'qituvchilar uchun yangi ufqlarni ochadi.

Mobil ta'lim masofaviy ta'lim shakli sifatida mobil texnologiyalarning tez tarqalishi va Internet tarmog'iga kirishning doimiy yaxshilanishi tufayli faol rivojlanmoqda. An'anaviy ta'lim shakllaridan farqli o'laroq, mobil ta'lim talabalarga nafaqat o'z vaqtida va o'z joyida o'qish, balki ta'lim dasturlari, videoma'ruzalar, onlayn kurslar va testlar kabi turli interaktiv va multimedia resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Bu materialni chuqurroq va samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, har bir talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

Mobil ta'limning muhim afzalliklaridan biri bu sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) kabi boshqa texnologiyalar bilan integratsiya qilish qobiliyatidir, bu talabalarining o'rganishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi va yaxshi o'rganishga yordam beradi. Masalan, sun'iy intellektidan foydalanish o'quvchining bilim darajasi va afzalliklariga qarab tarkibni moslashtirish orqali o'quv tajribasini shaxsiylashtirishga yordam beradi.

Biroq, barcha afzalliklarga qaramay, mobil ta'lim bir qator muhim muammolarga duch kelmoqda. Ulardan biri mobil qurilmalar ekranining cheklangan maydoni bo'lib, bu muayyan turdagi kontentni, masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarga ega bo'lgan grafik yoki matnlarni idrok etishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, barcha o'quv materiallarini mobil platformalar uchun samarali tarzda moslashtirib bo'lmaydi, bu kontentni ishlab chiqish va yangilash uchun qo'shimcha vaqt va resurslarni talab qiladi.

Yana bir muhim jihat - ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi masalasi. O'rganish uchun mobil qurilmalardan foydalanish shaxsiy ma'lumotlar va o'rganish natijalarini uzatishni talab qiladi, bu esa ma'lumotlarning sizib chiqishi yoki noto'g'ri foydalanish xavfiga olib kelishi mumkin.

Mobil ta'limning istiqbollari istiqbolli ko'rinadi. Kelajakda mobil ta'limni masofaviy ta'limning boshqa shakllari, masalan, onlayn kurslar, vebinarlar va hamkorlikda o'rganish uchun raqamli platformalar bilan yanada integratsiyalashuvini kutish mumkin. 5G texnologiyalarining rivojlanishi va mobil qurilmalar sifatining yaxshilanishi bilan mobil kontentning mavjudligi va sifati ortadi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida adaptiv texnologiyalarni takomillashtirish, mobil platformalar uchun mos o'quv materiallarini yaratish va ma'lumotlar xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash bo'yicha ishlarni davom ettirish muhim ahamiyatga ega. Mobil ta'lim o'quv jarayonini o'zgartirish uchun ulkan salohiyatga ega, ammo uni samarali amalga oshirish uchun bir qator texnik, pedagogik va axloqiy muammolarni hal qilish kerak.

Mobil ta'lim (m-learning) masofaviy ta'lim shakli sifatida uni an'anaviy ta'lim shakllari va masofaviy ta'limning boshqa turlaridan ajratib turadigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar mobil o'rganishni turli toifadagi talabalar uchun ayniqsa qulay va samarali qiladi.

Mobil ta'limning asosiy xususiyatlaridan biri istalgan joyda va istalgan vaqtda o'qish imkoniyatidir. Mobil qurilmalardan (smartfonlar, planshetlar, noutbuklar) foydalanish talabalarga sinfnig jismoniy maydoni bilan cheklanmasdan ta'lim resurslari va materiallaridan foydalanish imkonini beradi. Bu yo'lda, uyda, darslar orasidagi tanaffuslarda va hatto sayohat paytida ham o'qish imkonini beradi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, o'qishni ish yoki oilaviy mas'uliyat bilan birlashtirgan odamlar uchun juda muhimdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, mobil ta'lim o'quv jarayonining moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilishini ta'minlaydi. Bu o'quvchilarga o'rganish tezligi va ketma-ketligini tanlash, shuningdek, o'rganishni o'z ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirish imkonini beradi. O'rganish tajribasi ko'pincha standartlashtirilgan an'anaviy o'rganishdan farqli o'laroq, mobil platformalar talabaning bilim darajasi va afzalliklariga moslashtirilgan shaxsiy tavsiyalarni taklif qilishi mumkin. Bu materialni o'rganish samadorligini oshirishi mumkin.

Mobil o'quv platformalari ko'pincha zudlik bilan fikr-mulohazalarni taqdim etadi, bu esa materialni mustaqil o'rganadigan talabalar uchun muhimdir. Misol uchun, test va topshiriqlarni bajargandan so'ng, talabalar darhol natijalarni olishadi, bu esa xatolarni tezda tuzatish va natijalarni yaxshilash

imkonini beradi. Bu ham talabalarning motivatsiyasi va mustaqilligini oshirishga yordam beradi.

Mobil platformalar ko'pincha o'rganish mazmunini qisqa, oson singadigan bo'ladigan qismlarda taklif qiladi. Ushbu "mikrodarslar" talabalarga materialni kichik bo'laklarga bo'lib o'rganish imkonini beradi, bu esa yaxshi saqlanishiga va yuqori darajadagi konsentratsiyaga olib keladi. Bu, ayniqsa, qisqa vaqt ichida o'qishi mumkin bo'lgan band odamlar uchun foydalidir.

Mobil ta'lim kengaytirilgan reallik (AR), virtual reallik (VR), sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar va natijalar tahlili kabi yangi texnologiyalardan faol foydalanadi. Ushbu texnologiyalar ko'proq interaktiv, shaxsiylashtirilgan va immersiv ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi. Masalan, kengaytirilgan reallik yordamida talabalar virtual laboratoriya ishlarini olib borishi yoki tarixiy obidalarini o'rganishi, sun'iy intellekt esa o'quv materiallarini talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, mobil ta'lim nafaqat qulayroq, balki yanada inklyuziv bo'lib, nogironlar uchun o'rganish imkonini beradi va ta'lim muassasalarining jismoniy imkoniyatlari bilan bog'liq to'siqlarni yengib chiqadi.

Mobil ta'lim masofaviy ta'lim shakli sifatida faol rivojlanishda davom etmoqda va uning salohiyati faqat texnologiya rivojlanishi bilan ortadi. Bu o'quv jarayonini yanada qulay, moslashuvchan va samarali qiladi, talabalarga qulay vaqtda

va istalgan joyda o'qish imkoniyatini beradi. Mavjud muammo va qiyinchiliklarga qaramay, mobil ta'lim katta istiqbolga ega va kelajak ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar. Mobil ta'lim masofaviy ta'lim shakli sifatida zamonaviy ta'lim tizimining muhim va istiqbolli tarkibiy qismi hisoblanadi. Mobil texnologiyalarning rivojlanishi, smartfon va planshetlarning keng qo'llanilishi o'quv jarayonini tashkil etish, istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mobil ta'lim nafaqat o'quv jarayonining moslashuvchanligini oshirish vositasi, balki har bir talabaning ehtiyojlariga materiallarni moslashtirish imkonini beruvchi ta'limni shaxsiylashtirishning kuchli vositasiga aylanmoqda.

Biroq, ko'plab afzalliklarga qaramay, mobil ta'lim bir qator muammolarga duch keladi, jumladan, murakkab o'quv materiallarini idrok etish uchun mobil qurilmalarning cheklangan imkoniyatlari, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari hamda raqamli tengsizlik. Ushbu qiyinchiliklar ta'lim sifatini yaxshilash va ta'lim resurslaridan teng foydalanishni ta'minlash uchun samarali yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Shunday qilib, mobil ta'lim ta'limni o'zgartirish uchun ulkan salohiyatga ega va uning rivojlanishi talabalar va umuman zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yanada qulay, interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim yechimlarini yaratishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ally, M. (2009). *Mobile learning: Transforming the delivery of education and training*. Athabasca University Press.
2. Conole, G. (2013). *Designing for learning in an open world*. Springer.
3. Hwang, G.-J., & Chen, C.-M. (2017). *Mobile learning: A new approach for lifelong learning*. Springer.
4. Johnson, L., Adams Becker, S., & Cummins, M. (2016). *The NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition*. The New Media Consortium.
5. Kukulska-Hulme, A. (2009). *Mobile learning: A handbook for educators and trainers*. Routledge.
6. Ng, W. (2012). Can we teach digital natives digital literacy?. *Computers & Education*, 59(3), 1065-1078.
7. Traxler, J. (2007). Defining, discussing, and evaluating mobile learning: The moving finger writes and having writ.... *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 8(2), 1-11.
8. Van't Hooft, M., & Swan, K. (2007). Ubiquitous computing: Integrating mobile technologies into learning environments. *Journal of Educational Technology & Society*, 10(4), 46-57.
9. Beknazarova, S.S., Abdullayev, S.X., Abdullayeva, O.S., Abdullayev, Z.S. Methods of increasing the contrast of images in video information systems/ *Proceedings of SPIE - The International Society for Optical Engineering 2024*, 13065, 130650L
10. Safibullaevna, A. An integrated approach to the effectiveness of training masters of technical higher educational institutions/ *International Journal of Mechanical Engineering*, 2022, 7(1), p. 1170–1173.



Barno KUSHAKOVA,

Urganch Ranch texnologiyalar universiteti magistranti

E-mail: barnoqoshaqova4@gmail.com

UrDU dotsenti, X.K.Bekchanov taqrizi asosida

LEGAL BASIS OF ISSUES RELATED TO PREVENTION OF VIOLENCE AGAINST CHILDREN IN UZBEKISTAN

Annotation

In this article provides an extensive analysis of the legal framework aimed at preventing violence against children in Uzbekistan. The current national legislation, international legal acts, as well as state programs and the process of their implementation are highlighted. The authors justified the need to identify the causes of child abuse, develop measures to prevent them, and improve legal mechanisms. The article contains scientific and practical proposals to improve legal literacy and strengthen preventive programs.

Key words: Children's rights, violence prevention, Uzbek legislation, international legal acts, education system, cyberbullying, prevention programs, Legal mechanisms, family education, social environment.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ВОПРОСОВ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ДЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье проведен обширный анализ правовых основ, направленных на предупреждение насилия в отношении детей в Узбекистане. Освещается действующее национальное законодательство, международно-правовые акты, а также государственные программы и процесс их реализации. Авторы обосновали необходимость выявления причин жестокого обращения с детьми, разработки мер по их предупреждению, совершенствования правовых механизмов. В статье содержатся научно-практические предложения по повышению правовой грамотности и укреплению профилактических программ.

Ключевые слова: Права детей, предотвращение насилия, законодательство Узбекистана, международные правовые акты, система образования, киберзапугивание, профилактические программы, Правовые механизмы, семейное воспитание, социальная среда.

O'ZBEKISTONDA BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLIISHGA DOIR MASALALARNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan huquqiy asoslar keng tahlil qilingan. Mavjud milliy qonunchilik, xalqaro huquqiy hujjatlar, shuningdek, davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi jarayoni yoritilgan. Mualliflar bolalarga nisbatan shavqatsiz munosabatlarning sabablarini aniqlash, ularni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslab bergan. Maqola huquqiy savodxonlikni oshirish va profilaktika dasturlarini kuchaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Bolalar huquqlari, zo'ravonlikni oldini olish, O'zbekiston qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar, ta'lim tizimi, kiberzo'ravonlik, profilaktika dasturlari, huquqiy mexanizmlar, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit.

Kirish. Globalizatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson huquqlari, xususan, bolalarning huquqlari va xavfsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Bugungi kunda bolalarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat jismoniy, balki psixologik, iqtisodiy va kiberzo'ravonlik kabi zamonaviy shakllarda ham namoyon bo'lib, jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, bolalarning huquqlarini himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.

O'zbekistonda bolalarning xavfsizligini ta'minlashga doir huquqiy baza yaratilgan bo'lsa-da, uning samaradorligini oshirish, xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biridir. Milliy qonunchilik, jumladan, "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ hujjatlar orqali bolalarga nisbatan shavqatsizlikning oldini olish bo'yicha aniq huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, davlat xalqaro huquqiy majburiyatlarini bajarish va global tajribalarni milliy amaliyotga integratsiya qilish orqali ushbu sohada rivojlanishni davom ettirmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi bolalarga nisbatan zo'ravonlikning individual va jamiyat miqyosidagi salbiy oqibatlarini, ushbu muammoning milliy va xalqaro darajadagi yechimlarini o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda mavjud qonunchilikni tahlil qilish, amaliy chora-tadbirlarni takomillashtirish va bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqola bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan milliy va xalqaro huquqiy asoslarni tahlil qilish orqali ushbu muammoning ijtimoiy va huquqiy yechimlariga qaratilgan kompleks yondashuvni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalari. Bolalarning hayoti, sog'lig'i va shaxsiy daxlsizligiga bo'lgan asosiy huquqlaridan tashqari, bolalarning eng muhim huquqlari qatoriga quyidagilar kiradi: bolaning o'z manfaatlariga ta'sir qiladigan har qanday masala bo'yicha o'z fikrini bildirish, shuningdek har qanday sud va ma'muriy protsesslarda tinglash huquqi; zo'ravonlikning barcha turlaridan, shu jumladan jismoniy, psixologik, jinsiy zo'ravonlik; har bir bolaning o'z huquqlarini himoya qilish uchun murojaat qilish huquqi, shu jumladan ota-onalar tomonidan suiiste'mol qilingan taqdirda, vasiylik va homiylik organlariga, sudlarga va boshqa davlat organlariga; bolalarning qonun bilan aloqa qilish huquqlari, shu jumladan advokat va ota-onalarning barcha protsessual harakatlarda majburiy ishtiroki.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish masalalari ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu mavzuda ilgari surilgan nazariy va amaliy yondashuvlar mazkur tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil qiladi. Jumladan, BMTning Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (1989-yil) va ILOning bolalar mehnatini ekspluatatsiya qilishni taqiqlovchi konvensiyalari bolalarning fundamental huquqlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu hujjatlar bolalarga nisbatan shavqatsizlikning oldini olish bo'yicha global standartlarni belgilaydi va O'zbekiston qonunchiligiga muvofiqlashtirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston milliy qonunchiligida bolalarga nisbatan shavqatsiz munosabatlarning oldini olish bo'yicha bir qator muhim huquqiy hujjatlar mavjud. "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi qonun (2008-yil) va "Oila kodeksi" mazkur muammolarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar bolalarga nisbatan shavqatsizlikka oid harakatlar uchun javobgarlikni belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda internet texnologiyalarining rivojlanishi bilan kiberzo'rvonlik masalasi global darajada dolzarb muammoga aylangan. Livingstone va Haddon (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yoshlar o'rtasida kiberzo'rvonlikning tez sur'atlar bilan ko'payotganini tasdiqlaydi. Ushbu masala O'zbekiston uchun ham muhim bo'lib, bu borada maxsus qonunchilik va profilaktika choralarini joriy etish ehtiyoji ortib bormoqda.

Ushbu tadqiqotda bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishga doir huquqiy asoslarni tahlil qilish va amaliy takliflarni ishlab chiqish uchun bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar o'rganilib, bolalarning huquqlarini himoya qilishga oid normativ baza tahlil qilindi. Ushbu usul yordamida milliy va xalqaro huquqiy normalarning uzviyligi va muvofiqligi baholandi.

Bolalarga nisbatan shavqatsizlik holatlari, jumladan, oilaviy zo'rvonlik va kiberzo'rvonlikning statistik ma'lumotlari o'rganilib, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri tahlil qilindi.

Xorijiy davlatlarning bolalar huquqlarini himoya qilishga oid qonunchiligi va amaliy tajribasi o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi.

O'zbekistonning huquqshunos, pedagog va psixologlari bilan suhbatlar orqali bolalarga nisbatan shavqatsizlikning oldini olishda duch kelinayotgan muammolar va amaliy tavsiyalar olingan.

Ushbu yondashuvlarning uyg'unligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va amaliy natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur metodologiya yordamida bolalarga nisbatan shavqatsizlikni oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan tahlil amalga oshirildi.

1998-yilgi oila kodeksida har qanday masala bo'yicha o'z fikrini bildirish huquqi, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar etkazishni taqiqlash va boshqalar bo'yicha shunga o'xshash qoidalar mavjud va ko'p jihatdan "bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunni to'ldiradi. Oila kodeksi, shuningdek, bolaga uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilgan taqdirda, shu jumladan ota — onalar o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ota-ona huquqlarini suiiste'mol qilgan taqdirda, ularni himoya qilish uchun vasiylik va homiylik organiga mustaqil ravishda murojaat qilish huquqini beradi. o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin-sudga.

Ushbu tadqiqotning natijalari O'zbekistonda bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olish borasidagi huquqiy asoslarning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy masalalar va ularning yechimlari quyidagilardir:

1. O'zbekiston qonunchiligidagi muammolar

Milliy qonunchilikda bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishga qaratilgan muhim huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ularning samarali ijro etilishida ba'zi qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, huquqiy hujjatlarning o'zaro muvofiqligi va takrorlanishi masalalari ko'zga tashlanadi. Masalan, "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi qonun va Oila kodeksi orasida ba'zi tafovutlar mavjud, bu esa bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, jinoyat kodeksidagi bolalarga nisbatan zo'rvonlikka oid meyorlarning amalga qo'llanilishi cheklangan, bu esa bolalar huquqlarini himoya qilishning samaradorligini pasaytiradi.

2. Kiberzo'rvonlik va zamonaviy tahdidlar

Tadqiqot natijalari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va kiberzo'rvonlikning kengayishi masalasiga e'tibor qaratdi. Internetning keng tarqalishi bilan birga, yoshlar o'rtasida kiberzo'rvonlik holatlarining tez

sur'atlar bilan ortib borayotgani aniqlandi. Bu holat, ayniqsa, ota-onalar va ta'lim muassasalarining bolalar xavfsizligini ta'minlashdagi rolini yanada muhimlashtiradi. O'zbekiston qonunchiligida kiberzo'rvonlikka qarshi choralar mavjud bo'lsa-da, bu sohada normativ hujjatlar ko'proq takomillashtirishni talab qiladi. Yangi texnologiyalarni hisobga olgan holda, ta'lim va axborot texnologiyalari sohasida zamonaviy yondashuvlar va huquqiy meyorlar joriy etilishi zarur.

3. Oila va ta'lim tizimidagi rol

Oila va ta'lim tizimi bolalar xavfsizligini ta'minlashda markaziy ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi. Ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik, bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishda eng samarali vosita sifatida ko'riladi. Tadqiqotda O'zbekistonda ota-onalarga psixologik yordam ko'rsatish, bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olish bo'yicha o'quv dasturlarini rivojlantirish zarurati ta'kidlandi. O'quv muassasalarida zo'rvonlikni oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar va o'qituvchilar uchun treninglar tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

4. Profilaktika va huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish

Bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishda huquqiy mexanizmlarini kuchaytirish zarurati dolzarb masala sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari, shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilishda profilaktika choralarini joriy etishning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surdi. Jamiyatda huquqiy ongini oshirish, bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha davlat, nodavlat tashkilotlari va xalqaro institutlar o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. Shuningdek, bolalar xavfsizligini ta'minlash uchun ichki monitoring tizimlarini joriy etish, zo'rvonlik holatlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish tizimiga e'tibor qaratish lozim.

5. Xalqaro tajriba va ularning integratsiyasi

Tadqiqotda, shuningdek, xorijiy davlatlarning bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha tajribasi o'rganildi. Masalan, Yevropa Ittifoqi va Shimoliy Amerika davlatlarida bolalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha joriy etilgan samarali chora-tadbirlar, jumladan, internet xavfsizligi va kiberzo'rvonlikka qarshi qonunlar, ma'lumotlar bazalarini yaratish va pedagogik yondashuvlar O'zbekistonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan model sifatida ko'riladi. Shuningdek, xalqaro standartlarga mos ravishda bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy meyorlar joriy etilishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga, shu jumladan bolalarga huquq va erkinliklarni kafolatlaydi. Konstitutsiyaning ba'zi qoidalari to'g'ridan-to'g'ri bolalarga tegishli, masalan, voyaga etmaganlarning davlat tomonidan himoya qilish huquqi, qonun oldida tenglik huquqi, ta'lim olish huquqi va bepul o'rta ta'lim va boshqalar.

Konstitutsiyaning 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilinishi Konstitutsiyaning 15-moddasi tufayli O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari endi O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining ajralmas qismi bo'lishiga yordam berdi. Shunday qilib, sudlar bolalar bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda Konvensiya va uning fakultativ protokollariga murojaat qilishlari mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishga qaratilgan huquqiy asoslarni tahlil qilish va bu borada amaliy takliflar ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar va ularning yechimlari O'zbekistonning bolalar huquqlarini himoya qilish borasidagi mavjud qonunchilikni takomillashtirish zarurati ko'rsatdi.

Birinchidan, milliy qonunchilikda bolalar huquqlarini himoya qilishga oid meyorlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ularning samarali amalga oshirilishi ba'zan qiyinchiliklarga duch keladi. Huquqiy tizimning ba'zi jihatlari takomillashtirishni talab etadi, ayniqsa, kiberzo'rvonlikka qarshi qonunchilik va profilaktika chora-tadbirlarining samaradorligi masalasida.

Ikkinchidan, bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishda oila va ta'lim tizimi markaziy rol o'ynaydi. Ota-onalar, pedagoglar va ijtimoiy xodimlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, huquqiy va psixologik yordam dasturlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, xalqaro tajriba va yangi

texnologiyalarni hisobga olgan holda, kiberzo'rvonlikka qarshi kurashda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish lozim.

Ushbu tadqiqotning natijalari, shuningdek, bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olishga qaratilgan xalqaro meyorlar va amaliyotlarni O'zbekiston sharoitida qo'llashni davom ettirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu o'z navbatida, bolalar xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va shavqatsiz

munosabatlarning oldini olishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Umuman olganda, bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash va zo'rvonlikning oldini olish uchun huquqiy mexanizmlarni yanada mustahkamlash va amaliyotga joriy etish zarur. Tadqiqotda ilgari surilgan takliflar O'zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini yanada samarali va zamonaviy shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-2023y
2. Shaxlo Zurapova. (2024). Bolalarga nisbatan zo'rvonlikni oldini olish masalalari . tadqiqotlar.uz, 50(3), 52-54. <https://scientific-jl.org/tad/article/view/2990>
3. Po'latovna J. S. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik oqibatlarini //tadqiqotlar. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 2. – S. 64-67.
4. Ergashevna M. D. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik oqibatlarini //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – T. 4. – №. 1. – S. 327-332.
5. Abduvohidovich T. S. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini oldini olishning dolzarb masalalari //pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 12. – S. 273-276.



UDK:370.1

Nodira KUSHIYEVA,
Head of department Uzbekistan State World Language University DSc
Kuvonchbek ROZIBOYEV,
Ergash ugli, trainee teacher Uzbekistan State World Language University
E-mail: kuvonchbekroziboyev91@gmail.com

Under the review of associate professor, DSc of UzSWLU I. Kaxarova

THE ROLE OF COGNITIVE APPROACH IN IMPROVING STUDENTS' PHRASEOLOGICAL COMPETENCE

Annotation

This article explores how cognitive approaches can enhance phraseological competence by leveraging mental processes such as perception, memory, and problem-solving. It reviews various teaching methods, including contextual learning, explicit instruction, interactive activities, repetition and spaced practice, visual aids and multimedia, collocation exercises, contextualized grammar instruction, and error correction and feedback. Each method is evaluated for its effectiveness in learning, engagement, retention, and applicability. The findings suggest that a combination of these cognitive strategies can provide a more comprehensive and effective approach to teaching phraseology. By integrating these methods, educators can better support students in mastering phraseological units and improving their overall language proficiency.

Key words: Cognitive approach, phraseological competence, language learning, cognitive theories, educational strategies.

РОЛЬ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА В ПОВЫШЕНИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В этой статье исследуется, как когнитивные подходы могут повысить фразеологическую компетентность за счет использования таких ментальных процессов, как восприятие, память и решение проблем. В нем рассматриваются различные методы обучения, включая контекстуальное обучение, четкие инструкции, интерактивные занятия, повторение и разнесенную практику, наглядные пособия и мультимедиа, упражнения по выбору фраз, контекстуализированное обучение грамматике, исправление ошибок и обратную связь. Каждый метод оценивается с точки зрения его эффективности в обучении, вовлечении, удержании и применимости. Результаты показывают, что сочетание этих когнитивных стратегий может обеспечить более комплексный и эффективный подход к изучению фразеологии. Комбинируя эти методы, преподаватели могут лучше помочь учащимся освоить фразеологические единицы и повысить их общий уровень владения языком.

Ключевые слова: Когнитивный подход, фразеологическая компетентность, изучение языка, когнитивные теории, образовательные стратегии.

TALABALARNING FRAZEOLOGIK KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA KOGNITIV YONDASHUVNING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqola kognitiv yondashuvlar idrok, xotira va muammolarni hal qilish kabi aqliy jarayonlardan foydalanish orqali frazeologik kompetensiyani qanday oshirishi mumkinligini o'rganadi. U turli xil o'qitish usullarini, shu jumladan kontekstli o'qitish, aniq ko'rsatmalar, interaktiv mashg'ulotlar, takrorlash va turli xil amaliyotlar, ko'rgazmali qurollar va multimedia, iboralarni tanlash mashqlari, kontekstli grammatikani o'rganish, xatolarni tuzatish va fikr-mulohazalarni ko'rib chiqadi. Har bir usul o'rganish, jalb qilish, ushlab turish va qo'llash samaradorligi nuqtai nazaridan baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu kognitiv strategiyalarning kombinatsiyasi frazeologiyani o'rganishda yanada keng qamrovli va samarali yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu usullarni birlashtirib, o'qituvchilar o'quvchilarga frazeologik birliklarni o'rganishda va ularning umumiy til bilish darajasini oshirishda yaxshiroq yordam berishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Kognitiv yondashuv, frazeologik kompetensiya, tilni o'rganish, kognitiv nazariyalar, ta'lim strategiyalari.

Introduction. There are many misconceptions about psychology and psychologists in modern society. Psychology is not the science of mind reading, and psychologists are not endowed with mystical abilities that enable them to assess a person's character effortlessly, just by glancing at him briefly. The learning process, in turn, is also a practical process, not a theoretical one. Learning is an art and a science. This process can be controlled using cognitive methods to achieve more effective learning outcomes. The issue of introducing and actively using the fundamentals of cognitive learning in educational processes remains relevant in the context of modern technological development. Any educational process involves teachers preparing a curriculum, work programs, and other similar developments. In the developed information and educational resources, the correct combination of all the components of the cognitive learning method is of great importance.

Phraseological competence plays a crucial role in achieving fluency and effective communication in any language. It involves the ability to understand and use fixed expressions, idioms, and collocations—units of language that often carry

meanings beyond their individual components. Mastery of these phraseological units is essential for both comprehension and production in everyday language use, making it a key aspect of language acquisition.

Traditional methods of teaching phraseology frequently rely on rote memorization and repetitive practice. However, these approaches often fail to address the cognitive complexities involved in learning and using phraseological units. Such methods may not sufficiently engage learners or support their deeper understanding of how these expressions function within the language.

Literature review. Recent advancements in cognitive science provide valuable insights into the mental processes underlying language learning. Cognitive theories emphasize the role of mental representations, schema activation, and cognitive load in the acquisition of linguistic knowledge. These theories suggest that integrating cognitive approaches into language teaching could enhance the effectiveness of phraseological instruction by aligning teaching methods with the ways in which learners process and internalize language [1]. This article aims to

explore how cognitive approaches can be employed to improve students' phraseological competence. Specifically, the goals of this study are:

analyze cognitive theories such as schema theory, cognitive load theory, and connectionism to understand their implications for teaching phraseological units.

evaluate how cognitive approaches, such as explicit instruction on mental representations and context-rich examples, impact students' understanding and application of phraseological units.

develop practical recommendations for educators on how to integrate cognitive strategies into language teaching to enhance phraseological competence.

investigate potential difficulties in applying cognitive approaches and propose solutions to address these challenges.

By addressing these goals, this study aims to contribute to the development of more effective and innovative pedagogical strategies that leverage cognitive insights to improve phraseological competence in language learners.

The main factors for the cognitive learning process are:

Understanding: Students should understand the purpose for which they gain knowledge and acquire new skills that can dramatically affect their future.

Memory: In cognitive learning, the abilities of human memory are used to its maximum potential. It is important to memorize new material in depth, not superficially.

Application: Conducting a thorough analysis of the acquired knowledge leads to the active development of non-standard thinking, which makes it possible to find the right solution to the problem at minimal cost.[3]

Cognitive approaches to language learning delve into the mental processes involved in acquiring and using language. These approaches provide valuable insights into how learners perceive, process, and store linguistic information, including phraseological units. Several key theories in cognitive science contribute to our understanding of these processes [2].

The basic concept of cognitive learning is based on in-depth study of the material, on full awareness and implementation of acquired skills in accordance with existing life experience. Cognitive learning theory explains how external and internal factors can influence individual thinking processes. It is the absence of cognitive factors in learning that leads to delays and possible difficulties in the perception of new material. The listed components and strategies of cognitive learning are a significant advantage for educational institutions in the competitive struggle in the educational services market, as well as in the strategic management of human resources with subsequent access to world rankings in the field of education. So, it can be noted that under the condition of competent implementation of the educational process with an emphasis on the competent use of cognitive learning methods, the quality and development of pedagogy as a whole depend, entailing effective modernization and reconstruction of the educational system.

Analysis and results. Schema Theory was first introduced by British psychologist Frederic Bartlett in the 1930s. Bartlett's work on schema theory posited that knowledge is organized into mental frameworks or schemas that help individuals interpret and understand new information [3]. In language learning, schemas play a crucial role in understanding and using fixed expressions and idioms. For instance, when learners encounter idiomatic phrases, they activate existing schemas related to similar expressions, which helps them integrate new information more effectively. Recent developments by researchers such as John Anderson and David Rumelhart have expanded on Bartlett's initial ideas, emphasizing how schemas are constructed and how they influence language comprehension and memory.

Cognitive Load Theory, developed by John Sweller in the 1980s, focuses on the cognitive demands placed on learners

during instruction. Sweller's theory highlights the need to manage cognitive load to optimize learning. According to this theory, instructional materials should be designed to minimize extraneous cognitive load (unrelated to the learning task), while supporting intrinsic load (the complexity of the material) and germane load (the effort required to construct knowledge). In the context of teaching phraseological units, this means presenting these units in a way that reduces cognitive overload. For example, breaking down complex phrases into simpler components and using varied contexts can help learners process and retain phraseological units more efficiently [4].

Connectionism is a theory that emerged from the work of Donald Hebb in the 1940s and was later developed by researchers such as David Rumelhart and James McClelland in the 1980s. Connectionism views cognitive processes as the result of interconnected networks of simple units or nodes. In language learning, connectionism suggests that acquiring phraseological units involves forming and strengthening connections between words and meanings through repeated exposure and practice. This theory supports the idea that learners build and refine these connections over time, which enhances their ability to recognize and use phraseological units accurately. Connectionist models emphasize the role of experience and feedback in reinforcing these neural connections [5].

"Effective instruction in phraseological competence must address these challenges by incorporating cognitive strategies that facilitate comprehension and retention. Techniques such as providing explicit instruction on the mental representations of phraseological units, using context-rich examples, and engaging learners in interactive exercises can help improve their understanding and application of these units" [6]. Research by Paul Nation and Batia Laufer has demonstrated that instruction focusing on phraseology can significantly enhance learners' vocabulary acquisition and usage.[6]

"A phrase or sentence of this type is usually said to be idiomatic. And many idioms originated as quotations from well-known writers such as Shakespeare. For example, "at one fell swoop" comes from Macbeth and "cold comfort" from King John. Sometimes such idioms today have a meaning that has been altered from the original quotation" [2] Teaching methods, part of the five important components of language instruction (students, a teacher, materials, teaching materials, and evaluation), is a general term to refer to "anything which is used by teachers or learners to facilitate the learning of a language".

Teaching methods are of great importance for their guidance in any instructional circumstance [3]

Conclusion. Contextual learning and interactive activities stand out for their ability to engage students actively and provide practical application, leading to improved retention and understanding. Repetition and spaced practice further reinforce this learning, ensuring long-term retention of phraseological units. Meanwhile, visual aids and multimedia offer additional support by engaging multiple senses, though they depend on available resources. Explicit instruction and collocation exercises provide structured learning and practical applications but may require supplementary methods to maintain engagement. Contextualized grammar instruction and error correction offer targeted refinement of phrase usage, though they may be less engaging if not integrated effectively with other methods.

Incorporating a blend of these cognitive approaches allows for a more holistic and adaptive teaching strategy, catering to diverse learner needs and contexts. As language education continues to evolve, leveraging cognitive insights will be key in developing innovative pedagogical strategies that enhance phraseological competence and overall language proficiency. By embracing these methods, educators can better equip students with the skills needed to navigate the complexities of language use, ultimately contributing to their success in both academic and real-world communication.

REFERENCES

1. Alhaysony, M.H. Strategies and difficulties of understanding English idioms: A case study of Saudi University EFL students. *International Journal of English Linguistics*. №1, 2017.
2. Bakker, E., & Trienekens, N. Effective Strategies for Teaching Collocations: Insights from Cognitive Science. *Journal of Language Teaching and Research*, 12(3), 245-259. 2021

3. Chen, X., & Liu, L. Contextualized Learning and Its Impact on Phraseological Competence in ESL Learners. *Language Learning & Technology*, 26(1), 32-48. 2022
4. García, P., & López, M. Integrating Multimedia in Phraseology Instruction: A Cognitive Perspective. *Modern Language Journal*, 104(2), 180-195. 2020
5. Chen Y.C. & Lai H.L. Teaching English idioms as metaphors through cognitive oriented methods: A case in an EFL writing class. *English Language Teaching*, №2, 2013.
6. Cooper T. Teaching idioms. *Foreign Language Annals*, 1998.
7. <https://www.fluentu.com/blog/educator-english/teach-english-idioms/>, p. 13.
8. Lundblom E.G. & Woods J. Working in the Classroom: Improving Idiom Comprehension through Classwide Peer Tutoring, *Communication Disorders Quarterly*, 2012.
9. Nguyen, A., & Thomas, J. Error Correction and Feedback Strategies in Phraseology Instruction: Cognitive and Practical Insights. *Applied Linguistics*, 43(2), 202-219. 2022
10. Smith, R., & Zhao, X. Explicit Instruction vs. Contextualized Learning: Comparative Effects on Phraseological Acquisition. *Language Teaching Research*, 27(3), 215-230. 2023



UDK: 112.022.04.62

Asqar QURBONOV,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: asqarqurbonov079@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, DSc B.Omonov taqrizi asosida

BOZOR MUNOSABATLARI VA BADIY ADABIYOT: O'ZARO TA'SIR VA ALOQADORLIK

Аннотация

Mazkur maqolada bozor munosabatlarining badiiy adabiyotga ta'siri va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari tahlil qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida adabiyotning roli, uning tijoratlashuvi, kitob bozori va ijodkorlarning faoliyati muhokama qilinadi. Shuningdek, adabiyotning jamiyatga ta'siri, uning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o'rni ham yoritiladi. Maqolada bozor munosabatlarini sharoitida adabiy ijodning ommalashuvi, adabiyotning marketing va reklama vositalari orqali targ'ib qilinishi, kitobxonlik madaniyatining o'zgarishi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, bozor, iqtisodiyot, qadriyatlar, vaziyat detektiv, triller, fantastika, janr, kitobxon, yilning eng yaxshi kitobi, ommaviy badiiy adabiyot, zamonaviy badiiy adabiyot, daromad.

РЫНОЧНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЛИТЕРАТУРА: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ И ВЗАИМОСВЯЗЬ

Аннотация

В данной статье анализируется влияние рыночных отношений на художественную литературу и их взаимосвязь. Рассматривается роль литературы в условиях рыночной экономики, коммерциализация творчества, книжный рынок и деятельность писателей. Кроме того, освещается влияние литературы на общество, ее роль в формировании социальных и моральных ценностей. В статье обсуждаются популяризация литературного творчества в условиях рыночных отношений, продвижение литературы с помощью маркетинга и рекламы, а также изменения в культуре чтения.

Ключевые слова: Художественная литература, рынок, экономика, ценности, ситуационный детектив, триллер, научная фантастика, жанр, читатель, Книга года, научно-популярная литература, современная фантастика, доход.

MARKET RELATIONS AND FICTION: INTERACTION AND ENGAGEMENT

Annotation

This article analyzes the impact of market relations on fiction and their interconnection. It examines the role of literature in a market economy, the commercialization of creativity, the book market, and the activities of writers. Additionally, the influence of literature on society and its role in shaping social and moral values are explored. The article discusses the popularization of literary creativity in market conditions, the promotion of literature through marketing and advertising, and changes in reading culture.

Key words: Fiction, market, economy, values, situation detective, thriller, fiction, genre, reader, Best Book of the year, popular fiction, modern fiction, income.

Kirish. Bozor munosabatlari zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, u inson faoliyatining turli sohalariga, jumladan, adabiyotga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot jamiyatning madaniy va ma'naviy hayotining muhim bo'g'ini sifatida inson tafakkurini shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlash va ijtimoiy masalalarni yoritishda muhim o'rin tutadi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida adabiyot nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki iqtisodiy omillar ta'sirida ham rivojlanadi.

Bugungi kunda adabiyot tijoratlashirishi jamiyat bilan chambarchas bog'lanib, kitob bozori, noshirlik faoliyati va reklama texnologiyalarining rivojlanishi bilan yangicha shakl va yo'nalishlarga ega bo'lmoqda. Mualliflarning ijodiy jarayoni bozor talablariga moslashishi zarurati ularning ijodiy erkinligiga qanday ta'sir qiladi? Adabiyot tijoratlashirishi jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ushbu maqolada bozor munosabatlarining badiiy adabiyotga ta'siri, ularning o'zaro aloqadorligi va natijalari tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqot adabiyotning iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini har tomonlama ko'rib chiqish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini o'rganish, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida adabiyotning jamiyatdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining asosiy qadriyatlaridan biri daromad bilan bog'liq. Ushbu sharoitda daromad badiiy adabiyotning muvaffaqiyatlilik darajasini ko'rsatuvchi mezonga aylanmoqda. Yilning eng yaxshi kitobini aniqlashga qaratilgan turli tanlov natijalari buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Masalan, Rossiyadagi "LitRes" tahririyati adabiyotshunos ekspertlar fikriga tayangan holda 2022 yilning eng yaxshi kitobini aniqladi. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, belorusiyalik yozuvchi Olga Primachenkonging "O'zimga mehr bilan" nomli romani yil kitobi

deb e'lon qilindi. Yil kitobini tanlashda asos vazifasini esa uning keltirgan daromadi o'tadi[1].

Bir qarashda bunday vaziyat badiiy adabiyot olamining aholi ehtiyojlariga moslashib borayotganini ko'rsatgandek tuyuladi. Lekin bu moslashuv, birinchidan, kishilarni ma'naviy yuksalishga undaydigan asarlarning yaratilishi jarayoniga hamisha ham ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani yo'q. Ikkinchidan esa, bunday vaziyat detektiv, triller, fantastika kabi xaridorbop janrlarning rivojlanishiga, boshqa ko'plab ahamiyatli janrlarning e'tibordan chetda qolishiga olib kelayapti. Uchinchidan, yuzaga kelgan holat yozuvchilar va shoirlar ruhiyatiga, ularning ijodiy faoliyati xarakteriga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ularning shaxs e'tiqodi va ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan asarlar yaratishga ishtiyiqi susaymoqda. Buning o'rniga aksariyat hollarda tezda sotilishi mumkin bo'lgan va daromad keltiradigan qissa, roman, drama yozishga intilish oshmoqda. Lekin, ijobiy va salbiy oqibatlaridan qat'iy nazar, bozor iqtisodiyoti tamoyillari bilan uyg'unlikda o'zgarish - zamonaviy badiiy adabiyot rivojining asosiy tendensiyalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ommaviy badiiy adabiyot rivojlanmoqda. Yigirmanchi asrning birinchi yarmi mobaynida yuz bergan jarayonlar yangi ijtimoiy voqelikni vujudga keltirdiki, bu voqelik faylasuflar tomonidan "ommaviy jamiyat" deb nomlandi. Ommaviy jamiyat ijtimoiy munosabatlarining uzlukliligi, kishilar turmushining o'ta individuallashtirish, barqaror axloqiy qadriyatlardan mosuvoligi bilan tavsiflanadi. U shaxsni standartlashtirib, unifikatsiyalashtirib yubordi, uni faol iste'molchiga aylantirdi[2]. Bunday jamiyat sharoitida voyaga yetgan inson nafaqat moddiy ne'matlarni, balki ma'naviy madaniyat mahsullarini ham iste'mol obyekti sifatida

qabul qila boshladi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish maqsadida yaratilgan badiiy asarlar ommaviy badiiy adabiyot tizimida jam' bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mutaxassislar xulosalari va sotsiometrik tahlilga tayangan holda badiiy adabiyotning shaxs dunyoqarashini yangi bilimlar bilan boyitish borasidagi ijtimoiy pozitsiyalarini yo'qotayotgani, mantiq tashuvchisi va targ'ibotchisi maqomidan mahrum bo'layotgani, shaxs qadriyatlarini tizimini qaror toptirishdagi roli zaiflashayotgani, shaxs estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati tushayotgani, kelajakka doir obrazlarni yaratishdagi ishtiroki susayayotgani, tarbiyaviy qudrati kamayayotgani uning ma'naviy yuksalish omili sifatidagi potensialiga putur yetkazayotgani isbotlangan.

Tahlil va natijalar. Mutaxassislar ommaviy adabiyotning asosiy xususiyati uning tijoriy xarakterga egaligi bilan bog'liqligini qayd qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, bunday adabiyot aslida badiiy adabiyot emas, tijoriy mahsulotga aylanib qoladi. Ommaviy adabiyot mahsullari odatda yorqin va darhol ko'zga tashlanadigan suratlar, ranglarda bezaklanadi[3]. "Kitobxon diqqati rang-barang suratlar, murakkab fitnal, tushunarli bayon yordamida jalb etiladi, u aynan ana shu asl adabiyot ekanligiga qat'iy ishona boshlaydi" [4].

Bugungi ommaviy adabiyot kishilarning o'rtamiyona ehtiyojlarini qondiradigan, uning ko'nglini xush qiladigan ko'plab epik, lirik, dramatik asarlardan tarkib topadi. Jumladan, ommaviy epik adabiyot quyidagilarni o'z ichiga olmoqda:

jangari asarlar – bunday asarlar voqealarning intensivligi, chuqur mazmundan mosuvligi, bosh qahramon va uning dushmani o'rtasidagi ziddiyatlarning bo'rtirilganligi, to's-to'polon, mushtlashuv va fitnalarga boyligi bilan ajralib turadi;

detektiv asarlar - bunday asarlar bitta voqeaga diqqatning jamlanganligi va voqelikning sodda tasviri bilan xarakterlanadi;

"muhabbat asarlari" – bunday asarlar bosh qahramonlarning ehtiros bilan tasvirlangani, ular o'rtasidagi romantik munosabatlarining yoritilishi bilan tavsiflanadi;

fantastik asarlar – bunday asarlar aslida mavjud bo'lmagan reallik, soxta ilmiy yutuqlar, tabiiy hodisalar, o'simliklar va hayvonlarning tasvirlanishi bilan e'tiborni tortadi;

mistik asarlar – bunday asarlar insonni dahshatga soladigan voqealar bayoni bilan ajralib turadi[5].

Ommaviy adabiyotga xos bo'lgan lirik asarlar esa ko'pchilikning e'tiboriga tushgan kundalik voqealarni qofiyalangan misralarda bayon etilishi, timsollarning bachkanaligi bilan tavsiflanadi. Kishilarning diqqatini muayyan muddat tortib turgan bunday she'rlarning aslida biror bir badiiy qiymati mavjud emas, ular tasvirlangan voqea o'tmishga yuz tutgani zahoti o'z dolzarbligini yo'qotadi. Lekin, afsuski, ana shunday asarlarning ko'payishi bugungi badiiy adabiyot rivojining tendensiyalaridan biriga aylanmoqda.

To'rtinchidan, badiiy adabiyot raqamlashib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi badiiy asarlarni yaratish texnologiyalarini takomil toptirganini aytib o'tdik. Ayni paytda badiiy asarlarning elektron versiyalarini yaratish, ularni raqamlashtirish, yagona elektron kutubxonaga jamlash ishlari ham tendensiyaviy tus olmoqda. "Xalqaro miqyosda elektron

kutubxona tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoda "Google" tomonidan yaratilgan "The Google Books" eng yirik elektron kutubxona sanaladi. Bir milliard o'ttiz milliondan ortiq kitob raqamlashtirilgan bo'lib, ular 480 tilga tarjima qilingan. Bu raqamlar dunyo bo'yicha yozilgan kitoblarning 20 foizi raqamlashtirilganidan va ularning barchasi elektron kutubxonaga joylashtirilganidan dalolat beradi" [6]. Axborot olamidagi jadal o'zgarishlar yaqin kelajakda bu foizni yanada oshirishiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Shuning bilan bir qatorda badiiy adabiyotning raqamlashuvi jarayonlari mamlakatimizda ham intensivlashmoqda. "Mamlakatimizda ham elektron kutubxona ishi va elektron kitob aylanish tizimiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda, deb yozadi mavzuni maxsus tadqiq qilgan tadqiqotchilardan biri. O'zbekiston Milliy kutubxonasining 2022 yil I yarim yillik hisobotiga ko'ra, umumiy fondi jami 7652438 ta bo'lib, shundan bosma nashrlar 6900365 tani, elektron resurlar soni esa 752073 tani tashkil etayotganligi ma'lum bo'lmoqda" [7].

Badiiy adabiyot raqamlashuvi, uning oqibatida elektron kutubxonalar tizimining shakllanishi qator qulayliklarni vujudga keltiradi. Xususan, birinchidan, ushbu tendensiya zaruriy manbalarni oson topish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan qidiruv tizimi adabiyotni tezda yuklab olishda qo'l keladi. Uchinchidan, uning sharofati bilan o'ta noyob asarlar bilan tanishish imkoni oshadi. To'rtinchidan, elektron shaklda saqlanadigan manbalar buzilmaydi va yo'qolmaydi. Beshinchidan, kitobxon zaruriy manbani yo'qotib jamo'rganida, uni qayta yuklab olish mumkin bo'ladi. Oltinchidan, elektron hujjatdan foydalanish, uning kerakli parchalarini izlab topish oson kechadi[8].

Bu qulayliklar tufayli elektron kutubxonalardan foydalanuvchilar soni yil sayin oshib bormoqda. Masalan, Google Analytics ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda birgina Ziyouz portaliga 6 million 384 ming 653 kishi tashrif buyurgan. Ularning 4 million 787 ming 412 nafari www.ziyouz.com saytida joylashtirilgan manbalardan, 1 million 597 ming 241 nafari esa www.ziyouz.uz saytida jamlangan asarlardan foydalangan. Hisob-kitoblarga qaraganda, yil davomida portal xizmatlaridan kuniga 17 ming 492 tadan kishi foydalanib turgan[9]. Xuddi shunday ma'lumotlarni boshqa elektron kutubxonalar amaliyotidan ham topsa bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, yalpi raqamlashuv bugungi adabiyot olamining o'ziga xos jarayonlaridan biriga aylanmoqda.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, XX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar, ijodkorlar ijtimoiy maqomi va kishilarning badiiy adabiyotga munosabatidagi o'zgarishlar, zamonaviy badiiy adabiyotga yangi xususiyatlar baxsh etdi, uning rivojida yangi tendensiyalarni vujudga keltirdi. Xususan, bugungi badiiy adabiyot olami turli janrlarning modifikatsiyalashayotgani, turli janrlarga xos xususiyatlarni o'zida uyg'unlashtirgan, real kishilar va jarayonlarning mualliflik talqinlarini mujassamlashtirgan, fragmentar syujetga ega asarlarning ko'payayotgani bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bugungi kunda badiiy asarlar yaratish texnologiyasi takomillashuvi, badiiy adabiyotga bozor iqtisodiyoti ta'sirining intensivlashuvi, ommaviy badiiy adabiyot rivoji, badiiy adabiyotning raqamlashuvi tendensiyaviy tus olmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Лучшие книги 2022 года: итоги от литературных обозревателей и редакции ЛитРес. // www. litres. ru.
2. Воеводина Л. Н. Массовое общество в контексте социокультурной динамики. // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств, 2013, - №5. – С. 23-27.
3. Цветкова Б. Л. Массовая литература как культурный феномен. // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского. Серия: Социальные науки, 2016, -№2. – С. 128-135.
4. Цветкова Б. Л. Массовая литература как культурный феномен. // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского. Серия: Социальные науки, 2016, -№2. – С. 129.
5. Жанры современной литературы. // school-of-inspiration. ru.
6. Олимжонов Х. А. Ўзбекистонда электрон-рақамли кутубхоналарнинг яратилиш тарихидан. // Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана, 2022, -№1. – Б. 131.
7. Олимжонов Х. А. Ўзбекистонда электрон-рақамли кутубхоналарнинг яратилиш тарихидан. // Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана, 2022, -№1. – Б. 131.
8. Кудрявцева Е. Ю. Электронная библиотека. // Горный информационно-аналитический бюллетень, 2013, - №6. – С. 363.
9. 2022 йилда ziyouz portalida энг кўп ўқилган мақолалар, хикоялар, муаллифлар. // https://ziyouz.uz/eng-sara-asarlar/2022-yil-hisoboti/



UDK:681.42.37:371.3

Muqaddas MADAYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: muqaddasmadayeva@gmail.com

TerDPI Matematika va informatika kafedrası mudiri, PhD S.Sattorov taqrizi asosida

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA TRIZ ALGORITMI MASALALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIIY METODIK ASOSLARI

Annotsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida matematika o'qitish jarayonida TRIZ algoritmi masalalaridan foydalanishning ilmiy metodik asoslari, TRIZ algoritmi tarixi, dars jarayonida qo'llanilishi, maqsadi va vazifalari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: TRIZ, tadqiqot metodlari, TRIZ ning maqsadi, TRIZ tamoyillari, TRIZ metodologiyasi.

SCIENTIFIC METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF USING TRIZ ALGORITHM PROBLEMS IN THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICS IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation

This article provides detailed information about the scientific methodological foundations of using TRIZ algorithm problems in the teaching of mathematics in secondary schools, the history of the TRIZ algorithm, its application in the classroom, its goals and objectives.

Key words: TRIZ, research methods, purpose of TRIZ, TRIZ principles, TRIZ methodology.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АЛГОРИТМИЧЕСКИХ ЗАДАЧ ТРИЗ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация

В статье дана подробная информация о научно-методических основах использования алгоритмических задач ТРИЗ в преподавании математики в средней школе, истории возникновения алгоритма ТРИЗ, его применении на уроках, его целях и задачах.

Ключевые слова: ТРИЗ, методы исследования, цель ТРИЗ, принципы ТРИЗ, методология ТРИЗ.

Kirish. Matematika fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va bulardan keng foydalanish hozirgi kunning ahamiyatli tomonlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, TRIZ (Teoriya resheniya izobretatelckix zadach – Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) algoritmi matematika ta'limida samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishga, murakkab muammolarni innovatsion yondashuvlar bilan hal qilishga va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish qaratilgan algiritm hisoblanadi.

TRIZ nazariyasi dastlab muhandislik va texnik muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan edi, hozirgi kunda uning tamoyillari ta'lim sohasiga ham muvaffaqiyatli tadbir qilinib o'z samarasini bermoqda. Umumta'lim maktablarida ayniqsa, matematika darslarida TRIZ algoritmidan foydalanish o'quvchilarga muammolarni nostandart usullar bilan hal qilishni o'rgatadi va ularning analitik tafakkurini kengaytiradi.

TRIZ algoritmining asosiy maqsadi – muammolarni umumiy qonuniyatlar asosida tahlil qilish va ularni hal qilishning optimal yo'llarini topishdan iborat.

Matematika ta'limida TRIZ algoritmidan foydalanishning bir nechta muhim jihatlari mavjud va bularni sanab o'tamiz.

1. O'quvchilarda muammolarni chuqur tahlil qilishga o'rgatish – TRIZ algoritmi usullari orqali o'quvchilar masalalarning ichki tuzilishini o'rganadilar, muhim parametrlarni ajratib oladilar va ularning o'zaro bog'liqligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

2. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish – TRIZ usullari o'quvchilarga nostandart va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa, ularning matematik masalalarni yechish jarayonida yangi strategiyalar ishlab chiqib, tafakkurining keng rivojlanishiga yordam beradi.

3. O'quvchilarda mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish – TRIZ metodologiyasiga asoslangan topshiriqlar

orqali o'quvchilar muammolarni tizimli tahlil qilish va ular bo'yicha asoslantirilgan xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

4. Muammolarning muqobil yechimlarni izlash – Odatda an'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar bitta to'g'ri yechim topishga yo'naltiriladi, TRIZ algoritmidagi esa turli xil yechimlar mavjudligini ko'rsatib, ularning ichidan o'zi uchun eng qulayini tanlab olishga yordam beradi.

Umuman olganda, TRIZ algoritmi matematika o'qitish jarayonini faqatgina qoidalarga asoslangan hisob-kitoblardan iborat bo'lmagan ijodiy va qiziqarli faoliyatga aylantiradi. Shu orqali o'quvchilar nafaqat matematikani yaxshiroq o'zlashtiradilar, balki kundalik hayotdagi muammolarga ham tizimli va ijodiy yondasha oladigan shaxs sifatida shakllanadilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umumta'lim maktablarida matematika o'qitish jarayonida TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) algoritmini qo'llash o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlarda mavzuga oid yangi g'oyalar ham juda ko'plam olimlarimiz tomonidan o'rganilib kelinmoqdalar. TRIZ algoritmini qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar orasida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

Genrix Altshuller: TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) asoschisi bo'lib, uning ishlari ushbu metodologiyaning shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Svetlana V. Litvin: TRIZ metodologiyasini ta'lim jarayonida integratsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Michael A. Orloff: TRIZni o'qitish va uning ta'limdagi qo'llanilishi haqida asarlar yozgan. Vladimir Petrov: TRIZ pedagogikasi va uning ta'lim tizimidagi qo'llanilishi bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Ushbu olimlarning ishlari TRIZ algoritmini ta'lim jarayoniga, xususan, matematika o'qitishiga qo'llashda muhim ahamiyatga ega. TRIZ pedagogikasi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. TRIZ algoritmini matematika darslarida qo'llash orqali o'quvchilar muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni o'rganadilar. Bu esa

ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, TRIZ metodikasini boshqa fanlar, masalan, biologiya, fizika, kimyo, san'at va texnologiya darslarida ham qo'llash mumkin.

TRIZ algoritmini o'qitishda o'qituvchilar o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va sinf sharoitidan kelib chiqib, o'quv jarayonini moslashtirishlari lozim. Bu o'quvchilarga mos keladigan ta'lim tajribasini taqdim etishga yordam beradi.

Umuman olganda, TRIZ algoritmini matematika darslarida qo'llash o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish va muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi umumta'lim maktablarida matematika o'qitish jarayonida TRIZ (Ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi) algoritmini o'qitishning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi metodlardan foydalanadi:

Tadqiqotning predmeti va maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – TRIZ algoritmini matematika darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga ta'sirini o'rganish. Tadqiqot predmeti esa matematika darslarida TRIZ algoritmidan foydalanish usullaridir.

Tadqiqot metodlari. Nazariy tahlil – TRIZ algoritmi bo'yicha mavjud ilmiy va pedagogik adabiyotlarni o'rganish, xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish.

Eksperimental tadqiqot – matematikaga oid muammolarni hal qilishda TRIZ algoritmi asosida dars jarayonlarini tashkil etish va natijalarni baholash.

So'rov va intervyu usuli – o'qituvchilar va o'quvchilar orasida TRIZ metodikasining samaradorligi bo'yicha so'rovlar o'tkazish.

Statistik tahlil – tadqiqot natijalarini raqamli qayta ishlash, TRIZ metodini qo'llagan va qo'llamagan sinflarni solishtirish.

Tadqiqot natijalari va kutilyotgan xulosalar

Tadqiqot TRIZ algoritmini qo'llash natijasida o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalari va kreativ tafakkuri rivojlanishini ko'rsatadi. Shuningdek, metodika o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ushbu metodologiya orqali TRIZ algoritmining matematika darslarida qo'llanishi ilmiy asosda o'rganiladi va amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. TRIZ (Ixtirochilik bilan bog'liq muammolarni hal qilish nazariyasi) - bu ixtirochilar tomonidan o'z faoliyati davomida ishlab chiqilgan muammolarni hal qilish va tizimlarni takomillashtirish metodologiyasi. Texnologiya sovet muhandisi va olimi Genrix Altshuller tomonidan yaratilgan bo'lib, u turli xil texnikalarga ixtirochilik muammolarini hal qilish algoritmlarini (ARIZ) qo'shdi.

TRIZ ning maqsadi - vaqtni behuda sarf qilmasdan tezda optimal echimni topishdir

sinov va xato. Bunga erishish uchun muammoni shakllantirish samarasiz echimlarni istisno qilishi kerak. Ko'pincha TRIZ tasodifiy elementlarni yo'q qilish orqali ixtiro jarayonini tezlashtirish va optimallashtirish uchun ishlatiladi.

Har qanday ixtiro obyektini bo'linishi mumkin bo'lgan tizimdir quyi tizimlar va supertizimning bir qismidir. TRIZ har qanday tizimning rivojlanishi doimo boshi berk ko'chaga etib borishini ta'kidlaydi. Tug'on bu qarama-qarshilik bo'lib, avvaliga yengib bo'lmaydigan tuyuladi. TRIZdagi ijodiy jarayon - bu turli xil tizimlarni boshqarish vositalaridan foydalangan holda qarama-qarshiliklarni hal qilish. Bu muammoni hal qilish uchun resurslarni topish imkonini beradi.

TRIZ tamoyillari

Muammoni hal qilish uchun qarama-qarshiliklarni aniqlash va bartaraf etish kerak. Bunday holda siz uchta mumkin bo'lgan natijaga erishishingiz mumkin:

- hamma narsa avvalgidek qolishi kerak
- keraksiz sifat yo'qolishi kerak
- yangi, foydali sifat paydo bo'lishi kerak

Ideal yechim (ideal yakuniy variant, IFS) minimal xarajat evaziga maksimal natija beradigan yechimdir. Kuchli yechimlar tizimning ichki resurslaridan foydalanadi. ICR ga erishishning uchta usuli mavjud:

G. Altshuller tomonidan taklif qilingan ixtirochilik masalalarini hal qilishning klassik algoritmi (ARIZ) TRIZning umumiy g'oyalari (80 soatlik kurs) bilan tanish bo'lgan muhandislar uchun mo'ljallangan va murakkabligi va hech bo'lmaganda fizikaning asosiy qonunlarini bilish zarurati tufayli boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun mos emas. Ammo o'rta maktab o'quvchilari uchun bu juda qulay. Maktab o'quvchilari juda kattalar ixtirolarini yaratgan va mualliflik guvohnomalarini olgan holatlar mavjud.

Quyida TRIZ algoritmining asosiy bosqichlarini o'z ichiga olgan ijodiy muammolarni hal qilishning soddalashtirilgan algoritmi keltirilgan.

Algoritm muammolarini hal qilish uchun sabr-toqat talab etiladi.

1. Vazifani tushunib, uni hal qilishga tayyorlaning. Muammoni o'z so'zlaringiz bilan takrorlang. Chizma qiling (tasavvuringizdan foydalaning). Vazifa turini aniqlang.

2. Muammoni an'anaviy usullar yordamida hal qilishga harakat qiling.

3. Agar vazifa ijodiy va murakkab bo'lsa va uni an'anaviy usullar bilan hal qilishning iloji bo'lmasa, unda quyidagi bosqichlardan foydalaning:

Qarshilishni shakllantirish, zararli funksiyani ko'rsatish, Ideal yakuniy yechimni (IFS) shakllantirish va savolga javob bering: "IFSga erishishimizga nima xalaqit beradi?"

Vazifada qaysi asosiy qismlar ishtirok etishini aniqlang (topshiriqning MODELini tuzing),

4. Olingan yechimlarning aniqligi va mazmundorligini aniqlang va berilgan mezonlar bo'yicha ushbu aniq shartlar uchun eng yaxshi echimni tanlang.

5. Yechimning jarayon tahlilini o'tkazing.

6. O'zingiz hal qilgan muammoning sabablari tahlilini o'tkazing.

7. Kelajakda yuzaga keladigan shunga o'xshash vazifalarning imkonini aniqlang. Noma'lum narsalarni to'liq bilimga almashtiring.

TRIZ tafakkurini rivojlantirishning samarali shakli berilgan algoritmdan foydalangan holda bolalar bilan muntazam ravishda muammolarni hal qilishdir.

Xulosa va takliflar. Umumta'lim maktablarida matematika o'qitish jarayonida TRIZ algoritmini qo'llash o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy yondashuvini shakllantirish va muammolarni yechish bo'yicha innovatsion usullardan foydalanish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, TRIZ algoritmi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytirib, ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

TRIZ metodologiyasi o'quvchilarga matematik masalalarni tahlil qilish, yechim variantlarini yaratish va eng maqbul strategiyalarni tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu usul nafaqat matematika, balki boshqa fanlarni o'qitishda ham qo'llanilishi mumkin.

Takliflar. Matematika darslariga TRIZ elementlarini joriy etish

–O'qituvchilar uchun TRIZ metodikasidan foydalanish bo'yicha maxsus qo'llanmalar ishlab chiqish va o'quv dasturlariga kiritish.

O'qituvchilar malakasini oshirish

–Matematika o'qituvchilari uchun TRIZ algoritmini o'qitish bo'yicha maxsus seminar va treninglarni tashkil qilish.

TRIZ asosidagi darslik va o'quv resurslarini yaratish

–Maktab darsliklariga TRIZ algoritimga asoslangan masalalar, topshiriqlar va o'quv materiallarini kiritish.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish

–TRIZ algoritmini qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv mashg'ulotlar tashkil qilish.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish

–TRIZ algoritmini maktab ta'limida qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish va tajribalarni umumlashtirish.

Yuqoridagi tavsiyalar asosida TRIZ metodikasining maktab matematikasiga integratsiyasi yanada samarali bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Altshuller G.S. ARIZ - znachit pobeda. V knige: Pravila igrы bez pravil. Petrozavodsk. Kareliya. 1989.
2. Altshuller G.S. Najti ideyu: Vvedenie v TRIZ – teoriyu resheniya izobretatelskix zadach. Moskva: ALGORITM, 2003.
3. Kucher G.R. TRIZ i razvitie tvorcheskogo myshleniya shkol'nikov. Moskva: Akademiya, 2010.
4. Litvin S.S. TRIZ pedagogika: osnovы i perspektivy. Sankt-Peterburg: Piter, 2015.
5. Petrov V.E. Matematika i TRIZ: metodologicheskie podxody k resheniyu zadach. Moskva: Nauka, 2007.
6. Zlotin B.L., Zusman A.V. Poisk novyx idey: ot ozareniya k texnologii. Minsk: Belarus, 1991.
7. Gafurov N.S. Matematik masalalarni yechishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Shchedrovitsky G.P. Problemy metodologii pedagogiki i obucheniya. Moskva: Pedagogika, 1982.



УДК: 42:371.3

Муниса МИРГИЯЗОВА,

Докторант Ташкентского государственного педагогического университета

E-mail: munisa.murgiyazova@mail.ru,

На основе рецензии профессора ТГЮУ к.ф.н. С.Акобировой

SPECIFICS OF TEACHING ORAL COMMUNICATION TO LAW STUDENTS

Annotation

Teaching speaking skills to law students is an essential component of legal education, empowering them to clearly communicate complex legal ideas, advocate convincingly, and engage in professional dialogues. This article examines the challenges and methods associated with teaching speaking to law students. Through a review of existing literature, educational strategies, and practical case studies, the article underscores the importance of developing oral communication skills in the legal field. By focusing on innovative teaching techniques and their influence on students' speaking proficiency, this article seeks to offer valuable insights for educators aiming to improve the speaking abilities of aspiring legal professionals.

Key words: Teaching, speaking, law students, legal education, communication skills, oral proficiency, pedagogical approaches.

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЕ УСТНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ЮРИДИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация

Обучение студентов-юристов навыкам устной речи является важной частью юридического образования, позволяя им эффективно общаться используя сложные юридические концепции, убежденно отстаивать свою позицию и участвовать в профессиональных взаимодействиях. В статье рассматриваются проблемы и стратегии обучения устной речи студентов-юристов. Опираясь на существующую литературу, педагогические подходы и реальные примеры, статья подчеркивает важность развития устных коммуникативных навыков в юридическом контексте. Акцентируя внимание на инновационных методах преподавания и их влиянии на уровень устной речи студентов, статья нацелена на предоставление полезных рекомендаций преподавателям, стремящимся улучшить навыки общения будущих юристов.

Ключевые слова: Обучение, устная речь, студенты-юристы, юридическое образование, коммуникативные навыки, устная компетентность, педагогические подходы.

YURIDIK YO‘NALISH TALABALARIGA OG‘ZAKI NUTQNI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Yuridik yo‘nalishda ta‘lim oluvchi talabalariga og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish ta‘limning muhim qismi bo‘lib, ularga murakkab huquqiy tushunchalardan foydalangan holda samarali muloqot qilish, o‘z fikrlarini ifoda qilish, kasbiy munosabatlarda ishtirok etish imkonini beradi. Maqolada huquqshunos talabalarga og‘zaki nutqni o‘rgatishda uchraydigan muammolar va strategiyalar muhokama qilinadi. Mavjud adabiyotlar, pedagogik yondashuvlar va hayotiy misollarga tayangan holda, maqolada huquqiy kontekstda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligi ta‘kidlangan. Maqolada o‘qitishning innovatsion usullari va ularning o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirishga ta‘siriga e‘tibor qaratishtirish orqali bo‘lajak huquqshunoslarning muloqot ko‘nikmalarini oshirishga intilayotgan o‘qituvchilarga foydali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘qitish, og‘zaki muloqot, huquqshunoslik talabalariga, huquqiy ta‘lim, muloqot qobiliyatlari, og‘zaki kompetensiya, pedagogik yondashuvlar.

Введение. Юридическое образование студентов должно включать обучение навыкам устной речи, поскольку эффективная коммуникация является важной составляющей их будущей профессиональной деятельности. Юридические специалисты должны уметь уверенно и ясно излагать сложные правовые концепции, участвовать в дискуссиях и переговорах, а также убедительно излагать свои аргументы. Однако традиционное юридическое образование часто делает упор на письменные навыки, при этом недостаточно внимания уделяется устной речи. В данной статье рассматривается значимость обучения устной речи для студентов-юристов и предлагаются методы, которые преподаватели могут использовать для улучшения устных коммуникативных навыков студентов в правовом контексте.

Анализ литературы. Интеграция эффективного обучения устной речи в юридическое образование позволяет обеспечить будущих юристов ключевыми навыками, необходимыми для успешной работы в суде, переговорных процессах и других профессиональных областях. Еремеева Г.Р., Баранов А.Р. рассмотрели особенностей преподавания английского языка будущим юристам в своей статье и указали что значительные трудности возникают у студентов при переводе юридических терминов, поскольку терминология британского, американского и российского права значительно отличается, и объясняется это, как

лингвистическими причинами, так и разницей между политическими системами [1].

Лебедева М.О. подчеркнула важность индивидуального подхода к студентам, и связи теории с практикой, взаимосвязи теории и обучения, мотивации изучения, профессиональную направленность и другие [2].

Артемяева О.А. в своих трудах указала что главной проблемой обучения иностранному языку по профессиональным направлениям в высшем учебном заведении является то, что студенты за короткий срок должны овладеть основами нескольких правовых систем [3].

Методология. В данной статье рассматривается методология обучения устным навыкам студентов-юристов. Цель исследования заключалась в выявлении эффективных стратегий улучшения устных навыков в контексте юридического образования.

Исследование проводилось с использованием смешанного подхода, включающего как количественные, так и качественные методы сбора данных.

Собранные данные анализировались с помощью количественного статистического анализа (например, описательной статистики) и методов качественного анализа контента (таких как тематический анализ). Это позволило провести всестороннее исследование моделей и тем,

связанных с эффективными стратегиями обучения устной речи студентов-юристов.

Результаты. Исследование по обучению навыкам устной речи студентов-юристов проводилось с использованием смешанного подхода, включающего как качественные, так и количественные методы сбора данных. Полученные результаты предоставляют ценные сведения об эффективности различных педагогических стратегий и влиянии обучения устной речи в контексте юридического образования.

Количественная оценка: Количественная оценка включала проведение предварительного и итогового тестирования для измерения уровня устной речи студентов-юристов до и после прохождения курса по развитию навыков устной речи. Тест включал устные презентации, упражнения в формате моделируемого судебного разбирательства и импровизированные задания на говорение. В исследовании приняли участие 150 студентов-юристов.

а. Результаты предварительного тестирования: Начальная оценка показала, что в среднем студенты-юристы продемонстрировали умеренные навыки устной речи, со средним баллом 55% на этапе предварительного тестирования.

б. Результаты итогового тестирования: После завершения курса по развитию навыков устной речи уровень устной речи студентов значительно улучшился, со средним баллом 78% на этапе итогового тестирования. Это увеличение показателей демонстрирует положительное влияние целенаправленного обучения и практики на развитие устных навыков студентов.

в. Статистический анализ: Для сравнения средних баллов предварительного и итогового тестирования был проведен парный t-тест. Результаты выявили статистически значимые различия, что подтверждает эффективность курса по развитию навыков устной речи для улучшения устной компетенции студентов-юристов.

Качественная обратная связь: Помимо количественной оценки, была собрана качественная обратная связь через опросы и фокус-групповые обсуждения с участием студентов-юристов. Качественные данные были направлены на выявление восприятия студентами курса по развитию навыков устной речи и стратегий, которые они считали наиболее полезными.

а. Вовлеченность студентов: Качественная обратная связь указала на высокий уровень вовлеченности студентов в материал курса. Многие студенты выразили энтузиазм по поводу практико-ориентированных учебных возможностей, таких как участие в моделируемых судебных процессах и устных дебатах.

б. Повышение уверенности: Несколько студентов сообщили о заметном увеличении уровня уверенности при представлении юридических аргументов или участии в дискуссиях. Практическая направленность курса позволила им оттачивать свои навыки устной речи в поддерживающей среде, что способствовало развитию большей уверенности в их устных коммуникативных способностях.

в. Признательность за обратную связь: Предоставление конструктивной обратной связи и индивидуального коучинга получило положительные отклики от студентов. Они оценили детализированную обратную связь, предоставленную преподавателями, которая способствовала целенаправленным улучшениям в их устной речи.

Влияние на юридическое образование: Результаты исследования также проливают свет на более широкий эффект преподавания разговорных навыков в контексте юридического образования. Преподаватели, участвующие в исследовании, отметили, что студенты, прошедшие курс по разговорным навыкам, продемонстрировали улучшенные способности в общении не только в формальных ситуациях, таких как соревнования по м Moot court, но и в повседневных взаимодействиях с клиентами и коллегами.

Долгосрочные эффекты: Последующие опросы, проведенные через шесть месяцев после завершения курса,

показали, что улучшение разговорной грамотности среди студентов юридических факультетов сохранялось со временем. Многие участники сообщили, что внедрили приобретенные стратегии общения в свою юридическую практику и продолжали выражать признательность за навыки, полученные в ходе курса.

Результаты данного исследования демонстрируют эффективность преподавания разговорных навыков студентам юридических факультетов через целенаправленное обучение и практические упражнения. Значительное улучшение разговорной грамотности, как показали количественные оценки, в сочетании с положительными качественными отзывами подчеркивает важность включения разговорной грамотности в качестве основного аспекта юридического образования. Выводы исследования подчеркивают важность предоставления студентам юридических факультетов возможности развивать свои разговорные способности, оснащая их необходимыми коммуникативными навыками для достижения успеха в их будущей профессии как компетентных и убедительных юристов.

Обсуждение. Эффективная коммуникация является краеугольным камнем юридической профессии, и умение говорить является решающим для успеха в правовой сфере. Студенты-юристы должны научиться аргументировать убедительно, участвовать в дебатах и представлять сложные юридические концепции с ясностью и уверенностью. Способность эффективно общаться не только усиливает способность юриста представлять интересы своих клиентов, но и способствует установлению прочных профессиональных отношений и укрепляет доверие среди коллег и партнеров. Обучение студентов-юристов разговорным навыкам — это многогранный процесс, требующий вдумчивого подхода и инновационных методик. В этой статье рассматривается значимость разговорной грамотности в юридическом образовании, исследуются проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели при обучении устной коммуникации, и предлагаются стратегии для развития эффективных разговорных навыков у будущих юристов.

Значение разговорной грамотности в юридическом образовании. Умение говорить играет ключевую роль в успехе студентов-юристов на пути к их профессиональной карьере. В профессии, где основой практики являются убеждение и аргументация, юристы должны уметь уверенно и eloquent презентовать свои дела. Будь то выступление перед судьей и присяжными в зале суда, переговоры по урегулированию споров с противоположной стороной или консультации с клиентами, способность убедительно общаться необходима для эффективного представления интересов клиентов. Кроме того, от студентов-юристов ожидается участие в различных речевых активностях на протяжении их обучения, таких как участие в конкурсах Moot Court, устные презентации и участие в классных дебатах. Эти мероприятия не только помогают студентам совершенствовать их разговорные навыки, но и укрепляют их уверенность и выдержку в реальных юридических ситуациях.

Проблемы при обучении разговорным навыкам студентов-юристов. Обучение студентов-юристов разговорным навыкам связано с рядом уникальных проблем. Среди наиболее распространенных препятствий:

Тревога перед публичными выступлениями: Многие студенты-юристы, как и представители других профессий, испытывают страх публичных выступлений. Боязнь выступать перед аудиторией может помешать им эффективно передавать свои идеи. Важно помочь студентам преодолеть этот страх, создав поддерживающую учебную атмосферу.

Юридический жаргон и сложность языка: Юридический язык может быть сложным и трудным для студентов, особенно при обсуждении сложных юридических вопросов. Очень важно, чтобы студенты понимали юридическую терминологию и могли объяснять сложные концепции доступным языком для широкой аудитории.

Адаптация к различным аудиториям: Юристы должны общаться с разными аудиториями, от клиентов и

судей до коллег-адвокатов и широкой общественности. Необходимо обучать студентов тому, как адаптировать стиль общения и язык под различные аудитории.

Интеграция критического мышления: Эффективная юридическая коммуникация требует не только ясного изложения, но и хорошо обоснованных аргументов. Важным аспектом обучения разговорным навыкам является развитие критического мышления и способности студентов формулировать убедительные доводы.

Стратегии развития эффективных разговорных навыков

Чтобы преодолеть вышеупомянутые проблемы и развить эффективные разговорные навыки у студентов-юристов, преподаватели могут использовать различные стратегии:

Опытное обучение: Включение в учебный процесс опыта, например, имитации судебных процессов и интервью с клиентами, дает студентам практический опыт юридической коммуникации. Эти упражнения позволяют студентам применять полученные знания в смоделированных реальных условиях.

Мастер-классы по публичным выступлениям: Организация мастер-классов, посвященных публичным выступлениям и навыкам презентации, поможет студентам развить уверенность и снизить тревогу перед публичными выступлениями. Мастер-классы могут предложить полезные советы по преодолению нервозности, использованию языка тела и эффективному взаимодействию с аудиторией.

Наставничество и обратная связь: Предоставление индивидуальной обратной связи и наставничество во время тренировок по разговорным навыкам имеет огромное значение. Конструктивная критика и наставления опытных юристов помогают студентам выявлять слабые стороны и совершенствовать свои разговорные навыки.

Ролевые игры: Участие в ролевых играх помогает студентам практиковать различные юридические ситуации и адаптировать стиль общения под разные аудитории. Это помогает развивать универсальность их разговорных навыков.

Мультимодальное обучение: Использование мультимедийных инструментов, например, видеозаписей презентаций студентов, позволяет студентам самостоятельно оценить свои выступления. Такой визуальный отклик помогает выявить сильные стороны и области для улучшения.

Интеграция юридического письма и устной речи: Связь между обучением юридическому письму и устной речи помогает студентам лучше понять юридические концепции и эффективно переносить письменные аргументы в устную форму.

Использование технологий: Применение технологий, таких как видеоконференции и виртуальные судебные залы, помогает студентам адаптироваться к современным методам общения и готовит их к условиям современного юридического мира.

Обучение студентов-юристов разговорным навыкам является важной частью их общего профессионального роста.

Заключение. В заключение, обучение студентов-юристов навыкам устной речи является неотъемлемой частью их образования, которая улучшает как их общую компетентность как будущих адвокатов, так и их устные коммуникативные навыки. Это дает им необходимые инструменты для успеха в судебных процессах, переговорах и взаимодействиях с клиентами, позволяя им развиваться в востребованных юридических профессионалов, способных оставить неизгладимое впечатление в отрасли.

ЛИТЕРАТУРА

1. Артемьева О.А. Методология организации профессиональной подготовки специалиста на основе межкультурной коммуникации / О.А. Артемьева, М.Н. Макеева, Р.П. Мильруд. Тамбов: ТГТУ. 2005. 159 с.
2. Еремеева Г.Р., Баранов А.Р., Мефодьева М.А. Профессионально ориентированное обучение английскому языку студентов неязыковых специальностей // Казанский педагогический журнал. 2016. №2. 340 с.
3. Лебедева М.О. Особенности преподавания английского языка профессиональной направленности студентам юридического факультета // Материалы конференции Современные методы преподавания английского языка профессиональной направленности в высшей школе. К. НТУУ «КПИ». 2013. С. 204–213.
4. Rakhmanina, L. and Kusumaningrum, D., 2017. The effectiveness of video blogging in teaching speaking viewed from students' learning motivation. Proceedings of ISELT FBS Universitas Negeri Padang, 5, pp.27-34;
5. Curran, V., 1993. Developing and teaching a foreign-language course for law students. Journal of Legal Education, 43(4), pp.598-605;
6. Owens, A.L.I.S.O.N. and Wex, I., 2010. What are the challenges involved and the strategies employed in teaching Australian law to non-law students from non-English speaking backgrounds and cultures. Journal of the Australian Law Teachers Association, 10(1), pp.89-98;
7. Palmer, E., 2011. Well spoken: Teaching speaking to all students. Stenhouse publishers;
8. Irkinovna, M.G., 2021. Difficulties in Teaching Speaking Comprehension to Law Students in English Classes. Academicia Globe, 2(12), pp.1-6;
9. Iftakhar, S., 2012. Teaching speaking through public speaking course. Stamford Journal of English, 7, pp.183-203.



Ulug'bek MUSURMANOV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: uamirkulovich@gmail.com
Abdujabbar TASHMATOV,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi
E-mail: toshmatovabdujabbor7@gmail.com

PhD M.Niyozov taqrizi asosida

RAQAMLI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Аннотация

Ushbu maqolada raqamli iste'mol, raqamli kompetensiya, raqamli xavfsizlik, mediasavodxonlikning bir necha ko'rinishlari, yurtimizda mediasavodxonlik borasida olib borilayotgan islohotlar to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Internet, mobil internet, raqamli jihozlar, internet-OAV, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, davlat xizmatlari, parol, mediasavodxonlik, raqamli kompetensiya.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются цифровое потребление, цифровая компетенция, цифровая безопасность, несколько аспектов медиаграмотности, а также проводимые в нашей стране реформы в области медиаграмотности.

Ключевые слова: Интернет, мобильный интернет, цифровое оборудование, интернет-СМИ, новости, социальные сети, государственные услуги, пароль, медиаграмотность, цифровая компетенция.

METHODS OF DEVELOPING DIGITAL LITERACY

Annotation

This article describes digital consumption, digital competence, digital security, several aspects of media literacy, and the reforms being carried out in our country regarding media literacy.

Key words: Internet, mobile internet, digital equipment, internet media, news, social networks, public services, password, media literacy, digital competence.

Raqamli iste'mol internet xizmatlaridan ish jarayonida va kundalik turmushda foydalanish bo'lib, o'z ichiga internet, mobil internet, raqamli jihozlar, internet OAV, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, «davlat xizmatlari» va shu kabilarni oladi. Boshqacha qilib aytganda, bu biz har kuni muntazam ishlatadigan raqamli qurilmalar orqali oladigan va iste'mol qiladigan raqamli ma'lumotlarimiz hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat ish jarayonlarini osonlashtiradi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy xizmatlar va shaxsiy rivojlanish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun har bir inson zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Raqamli savodxonlik faqatgina kompyuter va internetdan foydalanish bilan cheklanib qolmay, balki ma'lumotlarni tahlil qilish, soxta axborotni aniqlash, kiberxavfsizlik choralarini ko'rish va zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanish kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Raqamli kompetensiya – raqamli texnologiyalardan effektiv foydalanish bilimi va ko'nikmasi. O'z ichiga ma'lumot izlash, raqamli vositalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoq imkoniyatlarini bilish, moliyaviy o'tkazmalar, onlayn savdo qila olish va shu kabi ko'nikmalar jamlanmasini oladi.

Raqamli xavfsizlik bu tarmoqdagi xavfsizlik asoslaridir. O'z ichiga shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, mustahkam parol, tanlangan, o'rganib chiqilgan kontentlarni jamlay olish va shu kabilarni oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28 apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, «Besh tashabbus» loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikaning barcha

hududlarida raqamli bilimlarga o'qitish markazlarini ochish ko'zda tutilgan.

Mediasavodxon kishida quyidagi sifatlar mujassam bo'lishi lozim:

- 1) mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish;
- 2) mediamatnlarning manbalarini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijorat va yoki madaniy manfaatlarini hamda kontekstini aniqlash;
- 3) media tomonidan tarqatilyotgan mediamatnlar va qadriyatlarini sharhlash;
- 4) mediamatnlarni yaratish, ularni tarqatish hamda ularga qiziqish bildirgan auditoriyaga ega bo'lish maqsadida tegishli medialarni tanlash;
- 5) qabul qilish va ishlab chiqarish maqsadida mediaga erkin ravishda kirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Bugungi kunga kelib soha mutaxassislari tomonidan media savodxonlikning 3 darajasi ishlab chiqilgan:

Minimal (eng quyi) daraja – (axborot almashinuvida, ijtimoiy tarmoqdan foydalanishda chegaralangan darajada ishtirok etadi);

Optimal (o'rta) daraja – (axborot almashinuvida ishtirok etadi);

Maksimal (yuqori) daraja – (axborot almashinuvida aktiv ishtirok etadi hamda unga o'z ta'sirini ko'rsata oladi).

Bugungi kundagi axborotlar almashinuvi kishilar turmush tarzining barcha sohalariga uzviy ta'sir ko'rsatadi. Kundan kunga o'sib va tezlashib borayotgan axborotlar oqimi kishidan nafaqat uni to'g'ri qabul qilish, balki uni fikrlab, tahlil qilib boshqalarga to'g'ri yetkazish salohiyatini ham talab qiladi. Insonlarda ushbu salohiyatga aynan mediata'limni rivojlantirish va uning asosida mediasavodxonlikni oshirish orqali erishish mumkin. Demak, mediasavodxonlik bugungi globallashuv davrida shaxsning ma'naviy-ma'rifiy olami, tarbiyasi va madaniyati kabi rivojlantirish lozim bo'lgan muhim qirralaridan biri bo'lib ulgurdi.

UNESCO tomonidan aholi o'rtasida mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Xususan, soha mutaxassislari o'z tadqiqotlarida raqamli savodxonlikning asosiy bir nechta talablarini keltirib o'tgan: Jumladan:

1. Ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishning eng muhim yo'llaridan biri ta'lim tizimi orqali o'quvchilar va talabalarga texnologik bilimlarni o'rgatishdir.

Ta'lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan choralar: Boshlang'ich ta'lim bosqichida raqamli vositalar bilan tanishuv darslarini kiritish;

Maktab va universitetlarda raqamli texnologiyalar bo'yicha maxsus kurslarni yo'lga qo'yish;

Dasturlash asoslari, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili kabi zamonaviy yo'nalishlarni ta'lim dasturlariga qo'shish;

O'quvchilarga internet xavfsizligi va media savodxonlik bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkazish;

Interaktiv darslar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish.

2. Onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish

Bugungi kunda internetda raqamli savodxonlikni oshirishga yordam beradigan ko'plab bepul va pullik ta'lim platformalari mavjud. Ushbu platformalar yordamida istalgan inson quyidagi bilimlarni egallashi mumkin:

Kompyuter va internetdan foydalanish asoslari;

Dasturlash tillari va sun'iy intellekt;

Kiberxavfsizlik bo'yicha amaliy ko'nikmalar;

Ma'lumotlar tahlili va raqamli marketing asoslari.

Mashhur onlayn ta'lim platformalariga Coursera, Udemy, Khan Academy, CodeAcademy, edX va boshqa resurslar misol bo'la oladi. Shuningdek, o'zbek tilida ham mahalliy ta'lim platformalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

3. Amaliy mashg'ulotlar va treninglar tashkil qilish

Raqamli savodxonlikni oshirish uchun nazariy bilimlardan tashqari amaliy mashg'ulotlar va seminarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy mashg'ulotlarning afzalliklari:

Ish joylarida xodimlarga raqamli vositalardan samarali foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazish;

Mahalliy jamoalar uchun bepul seminar va mahorat darslarini tashkil qilish;

Texnologik startaplari va innovatsion markazlarda maxsus ta'lim dasturlarini joriy etish;

Raqamli vositalardan kundalik hayotda va ish jarayonlarida samarali foydalanish ko'nikmalarini oshirish.

Aholi orasida raqamli madaniyatni shakllantirish uchun mahalliy jamoalar va nodavlat tashkilotlar ham hamkorlikda ishlashi zarur.

4. Axborot xavfsizligi va media savodxonlikni oshirish

Bugungi kunda internet orqali turli xil zararli dasturlar, kiberjinoyatlar va feyk yangiliklar tarqalmoqda. Shuning uchun axborot xavfsizligi va media savodxonlikni oshirish muhim hisoblanadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash yo'llari:

Internetda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun kuchli parollar va ikki bosqichli autentifikatsiyadan foydalanish;

Soxta yangiliklar va dezinformatsiyani aniqlash bo'yicha maxsus kurslarni o'rganish;

Antivirus dasturlaridan foydalanish va internetda xavfsiz harakat qilish qoidalarini o'zlashtirish;

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan axborotlarning ishonchligini tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bundan tashqari, bolalar va yoshlar uchun internet xavfsizligi bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish zarur.

5. Katta yoshdagilar uchun raqamli savodxonlik dasturlarini ishlab chiqish

Raqamli savodxonlikni oshirish nafaqat yoshlar uchun, balki katta yoshdagi insonlar uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Ular uchun maxsus kurs va dasturlar tashkil qilish muhimdir.

Katta yoshdagilar uchun foydali kurslar:

Mobil ilovalardan foydalanish va internet orqali muloqot qilish;

Elektron tijorat va bank xizmatlaridan xavfsiz foydalanish;

Elektron hukumat xizmatlaridan foydalanishni o'rgatish;

Internetda xarid qilish va raqamli to'lov tizimlari bilan ishlash bo'yicha mashg'ulotlar.

Maxsus o'quv kurslarini tashkil etish orqali katta yoshdagilarni zamonaviy texnologiyalarga moslashishga yordam berish mumkin.

6. Raqamli vositalarni jamiyatga keng joriy etish

Raqamli savodxonlikni oshirish uchun texnologiyalarga qulay va keng kirish imkoniyatini yaratish lozim. Buning uchun:

Aholi uchun bepul internet zonalarini tashkil qilish;

Davlat xizmatlarining elektron ko'rinishdagi platformalarini rivojlantirish;

Mahalliy korxonalar va biznes subyektlari uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha treninglar o'tkazish.

Bu jarayonlar jamiyatdagi barcha qatlamlar uchun raqamli texnologiyalarning ochiqligi va samaradorligini oshiradi.

Ammo shuni unutmaslik lozimki insonning mediasavodi eng avvalo uning tarbiyasi, ma'naviyati, psixologik holati va shu kabi jihatlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotlarda raqamli savodxonlik – shaxsning komil sifatleri (bilim, aql, motivatsiya, mas'uliyatlilik, tarbiya)ga asoslangan holda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni hayotning turli jabhalarida o'ziga ishonch bilan, tez va xavfsiz qo'llay olish ko'nikmasi sifatida qaraladi. YA'ni, bu nafaqat axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlay olish darajasi balki axborotlarni to'g'ri tahlil etish, ularni ajratish, munosabat bildirish va boshqalarga to'g'ri yetkaza olish ko'nikmasi hamdir», deb ta'riflanadi. Boshqacha qilib aytganda raqamli savodxonlik – zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar to'plamidir. Dinamik onlayn rejimlarni yaratish, saqlash, yirik va murakkab bo'lgan onlayn ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Raqamli savodxonlik ma'lumotlarni mazmuni va ularning ta'sirini tushunish, ularni saralash, ularda keltirilgan hissiy va asoslangan axborotlarni ajrata olish, ma'lumotlar haqida tanqidiy mulohaza yuritish, jarayonlarni farqlash xususiyatlariga ega.

Bugungi kunda internetni cheklash va taqiqlash, ekranlarda uzatilayotgan turli syujetlardan chegaralash imkoni yo'q. Internet barcha foylanuvchilarga hayotini oddiy lashtirish hamda ijtimoiy faoliyatini osonlashtirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib internet orqali turli xaridlarni amalga oshirish, virtual dunyoda sayohat qilish, istalgan manba bilan tanishish, ta'lim olish, xizmat ko'rsatish va shu kabi faoliyatlarini amalga oshirish mumkin. Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida, ayniqsa yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan keraklisini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Shu sabab, raqamli savodsizlik bilan kurashish oqilona mediasiyosatning tarkibiy qismi bo'lishi zarur. Aynan shu sababli ko'plab xorijiy davlatlarda mediata'lim yoshlarni to'laqonli jamiyat a'zosi sifatida tarbiyalashda muhim vositaga aylangan. Mediata'lim yoshlarimizda bugungi hayotimizda o'ta muhim bo'lgan «g'oyaviy immunitet» va o'z shaxsiy hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga yordam beradi.

Media savodxonlik bo'yicha asosiy ta'lim uy sharoitida ushbu amaliyotlar bilan shug'ullanishning ajoyib usuli hisoblanadi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi muhokamalar, media yangiliklar bo'yicha fikr almashish, pozitsiyalarni bildirish juda muhimdir.

Bolalarga o'z zavqlari, tanlovlari va afzalliklari haqida fikr yuritish amaliyotini shakllantirishga yordam berish g'oyasi, bu uyda media savodxonligini joriy etishning juda oddiy usulidir.

Aslida yosh bolalarga targ'ibot ta'limini kiritishning eng yaxshi usuli bu uydagi mediasavodxonlikdir. Reklamalarni o'rganish boshlang'ich sinflardagi bolalarning rivojlanishiga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni to'play boshlaydi. Siz yosh bolalarni dezinformatsiya va zararli targ'ibot bilan

tanishtirmoqchi emassiz, lekin siz ularga reklama bizni qanday ishtirishini tushunishlariga yordam berishingiz mumkinu?!

Greta Tunberg, ehtimol, barcha davrlarning eng mashhur o'smir targ'ibotchisidir. Uning biz kattalarni ekologik halokatimiz uchun javobgarlikka tortishga urinishlari, aql-idrok, dalil va faktlardan, hissiy jozibalar kuchi va fe'latvoridan foydalangani uchun u juda samarali targ'ibotchi hisoblanadi.

O'ylaymanki, hozirda o'zgarishlarni amalga oshirish, jamiyatda duch kelayotgan muammolarning bir qismini tuzatishga intilayotgan ko'plab yoshlar, albatta o'sha katta ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ijobiy targ'ibotning ahamiyatini yaxshi tushunishadi.

Targ'ibot demokratik jarayonning muhim qismidir. Targ'ibot – bu fuqarolarning dunyoni o'zgartirish uchun aloqa va axborot kuchidan qanday foydalanishidir. Ko'pchilik hozirda dunyo hamjamiyatida yolg'on xabarlar tahdidi va fitnalar kuchayib borayotganidan tashvishga tushmoqda. Targ'ibot ta'limi esa buni yaxshiroq tushunib, yechim izlashga yordam berishning bir usuli hisoblanadi. Har bir inson targ'ibot bo'yicha ma'lumotga

ega bo'lishdan foyda ko'rishi mumkindek tuyuladi, chunki bu, ehtimol, ommaviy axborot vositalari rivojlanishda davom etar ekan, yanada murakkablashadi.

Bu asosan xabarlarni qanday talqin qilish haqida metakognitiv bo'lish va ma'nosini aks ettirishda ehtiyotkor va strateg bo'lish amaliyotidir. Pedagogika izlanishga yo'naltirilgan, fikrlash va ma'no yaratishga asoslangan, shuning uchun ularni fanlar sinfiga kiritish unchalik qiyin emas. Agar siz atrof-muhitni o'rganayotgan bo'lsangiz, atrof-muhit targ'ibotini o'rganishingiz kerak. Agar siz adabiyotni o'rganayotgan bo'lsangiz, tilga targ'ibot sifatida qarashingiz kerak. Agar siz san'atni o'rganayotgan bo'lsangiz targ'ibot sifatida san'atni o'rganishingiz kerak.

Targ'ibot hamma joyda o'quv dasturlariga mos keladi, o'qituvchilarga tanish bo'lgan pedagogikadir. Agar biz targ'ibotga bo'lgan munosabatimizni o'zgartirsak, media savodxonligi bo'yicha malaka oshirishga katta ta'sir ko'rsatishimiz mumkinligini anglab yetamiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi»gi PQ-4796-sonli qarori.
2. Abazalieva M.M , Botasheva A.K. Blogging as a Modern Form of Political Communication // Sovremennaya nauka i innovatsii. 2021. № 3 (35) S. 201207.
3. Aghayan N. Issues of national Security in the Structure of political Communication // Vestnik Rossiysko-Armyanskogo (Slavyanskogo) universiteta: gumanitarnye i obshchestvennye nauki. 2021. № 1 (137). S. 5872
4. Shermanova, F. (2024). Talabalar mediasavodxonligini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari asosida takomillashtirish. News of the NUUZ, 1(1.9), 232-234.
5. Shermanova, F. (2024). Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt. Modern Science and Research, 3(1), 1-6.
6. Djumaboyevna, S. F. (2024). Media and information literacy in the educational process as the basis of the need for information. Eurasian Journal of Academic Research, 4(7S), 622-625.
7. Djumaboyevna, S. F. (2024). Media and information literacy in the educational process as the basis of the need for information. Eurasian Journal of Academic Research, 4(7S), 622-625.



Asror MUHAMEDOV,
Alfraganus universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
E-mail: asrormukhamedov24@gmail.com

Professor, f.f.d. G.Masharipova tahriri ostida

THE CONCEPT OF A SPIRITUALLY PERFECT MAN IN THE PHILOSOPHY OF YUSUF KHOS HAJIB

Annotation

The article scientifically substantiates the concept of a spiritually perfect person in the philosophy of Yusuf Khos Hajib. Uzbekistan is entering a new stage of social and spiritual development, called the Third Renaissance. The history of mankind shows that the processes of spiritual awakening in the life of any nation lead to the awareness of national identity and raise the economic and cultural development of the country to a new level. Such a unique phenomenon is called "Renaissance" - awakening, rebirth, rise, and gives rise to the need to study, in particular, the works of such a great philosopher as Yusuf Khos Hajib.

Key words: Spiritually mature personality, knowledge, traditions, lifestyle, family moral education, laws and rules.

КОНЦЕПЦИЯ ДУХОВНО СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ФИЛОСОФИИ ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА

Аннотация

В статье научно обосновано понятие духовно совершенного человека в философии Юсуфа Хоса Хаджиба. Узбекистан вступает в новый этап общественного и духовного развития, именуемый Третьим Возрождением. История человечества показывает, что процессы духовного пробуждения в жизни любого народа приводят к осознанию национальной идентичности и поднимают экономическое и культурное развитие страны на новый уровень. Такое уникальное явление называется «Возрождением» — пробуждением, возрождением, подъемом, и порождает потребность в изучении, в частности, трудов такого великого философа, как Юсуф Хос Хаджиб.

Ключевые слова: Духовно зрелая личность, знания, традиции, образ жизни, семейное нравственное воспитание, законы и правила.

YUSUF XOS HOJIB FALSAFASIDA MA'NAVYI BARKAMOL INSON KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Maqolada Yusuf Xos Hojib falsafasida ma'naviy barkamol inson konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berildi. O'zbekiston Uchinchi Renessans deb atalayotgan ijtimoiy ma'naviy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday noyob hodisa "Renessans" – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalib, ayniqsa Yusuf Xos Hojib kabi buyuk faylasufning asarlarini o'rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy barkamol inson, bilim, analar, yashash tarzi, oilaviy axloqiy tarbiya, qonun-qoidalar.

Kirish. Dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlardagi ilmiy markazlarda Yusuf Xos Hojib asarlari chuqur o'rganilmoqda. Chunki Sharq Uyg'onishining dastlabki bosqichida ijod qilgan allomaning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi o'z davri uchun ham, hozirgi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan qarashlardan tarkib topgan. Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy taraqqiyotda oid qarashlari va uning falsafiy asoslanishi, uning farzand tarbiyasiga doir qarashlarida aks etgan g'oyalarni har tomonlama o'rganish va taqqoslash orqali umuminsoniy g'oyalar mushtarakligini tushunib yetishga bo'lgan intilish yaqqol sezilib turadi. Ushbu allomaning "Qutudg'u bilig" asari orqali tadqiqotlar global xarakterga ega bo'lib, hozirda ilm-fan rivojlangan boshqa davlatlarda ham ko'proq o'rganilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini o'rganish bo'yicha dunyoning turli nuqtalarida qator ilmiy izlanishlar e'lon qilingan. "Qutadg'u bilig"ning bilimdonlaridan biri, yirik turkolog olim Rashit Rahmati Aratning "Kutadgu Bilig, I Metin, Turk Dil Kurumu Yayinlari" asari turkshunos olimlar o'rtasida ancha mashhurdir. Shuningdek, N.Kulekchi [1], E.Ushenmez [2], K.Yavuz [3] kabi olimlar asarning matnshunosligi, lisoniy va badiiy jihatlari xususida bahs yuritganlar.

Qayum Karimov aytganidek: "...Fitratning ismini va asrini tilga olish tufayli o'sha vaqtda u so'roq qilinib ancha qiynoqlarga uchragani hammaga ma'lumdir" [4]. Tilshunos olimlardan Q.Omonov, A.Rustamov, G.Abdurahmonov, S.Mutalibov, B.To'xliyev kabilar asar haqidagi qator ilmiy izlanishlarini chop ettirganlar [5].

"O'rta Osiyo allomalari va mutafakkirlarining axloqiy barkamollik to'g'risidagi ta'limoti xalq falsafiy merosida muhim irfoniy va ilmiy mazmunga ega" [6].

Mutafakkir Abduxoliq G'ijduvoni axloqiy takomilga erishish yo'lida "Kam ye, kam gapir, kam uxla" degan qoidaga rioya qilishga, dilning farog'atga yetishishi uchun uch qoidaga itoat etishga chaqiradi: "Islom asosi uch narsadadur, birinchisi – har toat va ibodatkim aylarsiz, uning ilmidan voqif bo'ling! Ikkinchisi – har ilmni o'rganib, siz unga amal qiling! Uchinchisi – har amalniki etgaysiz, ixlos bilan etgaysiz!" [7]. Buyuk alloma o'zining har bir so'zi va nasihatlarida insonni, jumladan, yoshlarni ilm olishga, axloqiy poklikka, to'g'rilik va adolatga chaqiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda dialektika, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetika, gipoteza usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. "Qutadg'u bilig"da komil inson tarbiyasi asarning asosiy maqsadlaridan biridir. Olim o'z asari orqali ideal insonni o'z zamonidagi jamiyatning meyorlari doirasida, shu bilan birga oddiy insoniy ehtiyojlardan, xohish-istaklardan kechmasdan yashovchi shaxs sifatida tasavvur qilgan. Yusuf Xos Hojib e'tibor qaratgan asosiy axloqiy masalalardan biri tarbiyadir. Bunda asosiy o'rinda oila va farzand tarbiyasi turadi. Ushbu masalaga Sharqda nafaqat Yusuf Xos Hojib, balki, boshqa olimlar ham e'tibor qaratib kelganlar. Mutafakkir o'z xalqning an'alarini, yashash tarzini, oilaviy axloqiy tarbiya qonun-qoidalarini yaxshi o'rgangan holda, ularni falsafiy jihatdan talqin qilgan. Olimning asarda keltirishicha, har bir inson o'z jamiyatiga loyiq bo'lib o'sib-unmog'i lozim. Asarda o'quvchilarni jalb etgan jihatlardan yana biri shuki, unda turli topishmoq va jumboqlarni yechish yo'nalishlaridan ham ustalik bilan foydalanilgan va bu o'z

natijasini ko'rsatgan, o'quvchilarning asarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirgan. Bugungi kunda bu muammoli ta'lim deb nomlanadi. "Qutadg'u bilig" asaridagi Kuntug'mish Elig va Oyto'ldi bahsiga e'tibor beraylik. Bu munozarada Yusuf Xos Hojib ushbu Elig Oyto'ldiga joy ko'rsatganda, Oyto'ldi joyga o'tirmagani, "podshoh yonida menga joy bo'lmaydi" - deya so'zlagani, Oyto'ldi koptok ustiga o'tirib olgani, "mol-davlat shu koptok kabidir, bir tekis turmaydi" - deb aytgani, Elig unga qaraganida ko'zlarini yumib olgani - bu davlat ko'r inson misolidadir. Bu bilan muallif kimda-kim unga bog'lansa, qattiq o'rganib qolishini tushuntiradi. Yuzlarini berkitib olgani esa, mol-dunyoga, davlatga ishonma, u jafo keltiradi, deganidir. Asarni o'rganib, uning mag'zini chaqar ekanmiz, Yusuf Xos Hojibning ta'lim-tarbiyaga, komil inson shaxsiga naqadar e'tibor berganligining guvohi bo'lamiz. Shuning uchun ham ushbu asar insonni har tomonlama komillik sari yetaklovchi asarlarning sarasidir, desak adashmagan bo'lamiz.

Odam hamisha olamni anglashga harakat qilib kelganligi tarixning barcha bosqichlaridan yaxshi ma'lum. Jumladan, olimlar borliqning mohiyatini, uning harakat qonuniyatlarini o'rganishga intilib kelgan. Dunyovarashning turli shakllari - mifologik, diniy va ilmiy dunyovarashlarning yuzaga kelishi qadamma-qadam bog'liqlikda, izchillikda kechmaganligi, balki har doim rivojlanish yo'lida ekanligini ko'ramiz. Hozir ham XXI asr bo'lishiga qaramasdan mifologik dunyovarashning ayrim elementlari saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, diniy dunyovarash ham spiralsimon rivojlangan holda, goh kuchli, goho esa nisbatan kuchsiz shaklda olamni anglashning usuli sifatida o'zini namoyon etmoqda. Dunyovarashning yuqori shakllaridan biri hisoblangan falsafiy dunyovarashdagi borliqni tushunishga bo'lgan ilmiy fikrlarda bir qancha yirik o'zgarishlar ro'y berib, ba'zi hollarda mifologik va diniy dunyovarash sohiblari zamonaviy ilmiy yutuqlardan o'zlarining irratsional xulosalarini dalillashda foydalanib kelmoqda. Bu jarayonlarning barchasi Yusuf Xos Hojib ijod qilgan davrdan ming yil keyin yuz berayotganini e'tiborga olsak, allomaning ma'rifatparvarlik va bilim fenomeni haqidagi qarashlari o'z davri uchun ham naqadar dolzarb va innovatsion xususiyatga ega bo'lganini tushunish mumkin.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari nomi ham asarning tub mazmunini ko'rsatib turibdi. Asar nomining turlicha tarjimalariga qaramasdan, ulardan kelib chiqadigan ma'no umumiy bo'lib, qutli bilim, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim degan ma'nolarni anglatadi. Bilim baxt-saodat, tinchlik va farovonlikning kaliti ekani asarda bot-bot takrorlanadi. Zero, bilimning jamiyat hayotidagi roliga nafaqat pragmatik nuqtayi nazardan, balki ekzistensialistik tomondan ham qarash lozim. Bilim kishilar uchun o'zining mavjudligini namoyon etishning asosiy shakli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

"Qutadg'u bilig" asarining markaziy qahramonlaridan biri Oyto'ldidir. Oyto'ldi o'ziga yarasha ramziy ma'noga ega adabiy qahramon. Uning turkiy ismidagi oy va to'ldi qismlari tagma'nosida bilim olgani sari o'zday to'lishib borayotgan, mukammallikka intilayotgan shaxs degan tushunchalar yotadi. "Oyto'ldi - demak u bilim egallash riyozatlari bilan hilol - yangi oy edim, o'zday to'ldim" [8]. Bilimning insonni mukammallashtiruvchi, barcha kamchiliklarini tuzatuvchi, hayotidagi qiyinchiliklar va mashaqqatlarga ma'no-mazmun bag'ishlovchi omil ekanini shoir Oyto'ldiga mujassamlashtirgan. Asar syujetida Oyto'ldi tilidan bilimning qadr-u qimmatini va aziz-u mukarramligi xususida, uning falsafiy mohiyati va ijtimoiy vazifalari xususida qator fikrlar berib boriladi.

"Asar qahramonlari jonli shaxslar - Elig - Kuntug'di - adolatli, insofli hukmdor, Oyto'ldi - donishmand, tadbirli, tajribali alloma, murakkab xarakterli shaxs, yurt, jamiyatga foydasi tegishini o'ylab poytaxtga keladi va musofirparvar Ko'salish yordamida Eligning Xos Hojibi Ersig bilan tanishib, u tufayli Kuntug'di saroyiga kirib boradi" [8]. Shu o'rinda bilimning pragmatik mohiyati haqida Yusuf Xos Hojibning o'ziga xos yondashuvi singdirib yuborilgan. Ma'lumki, tarixda bilimdon insonlar, ilm egalarning hukmdorlarga xizmat qilishi, ularga maslahatgo'y bo'lishi haqidagi qiziqarli qarashlar bor. Masalan, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining №1251 internet-OAV guvohnomasi asosida faoliyat ko'rsatadigan islamonline.uz nashrida Ashraf Ali Tahonaviyning "Haqiqiy ulamolalar kim?" deb

nomlangan maqolasidan parcha keltirsak: "Beshinchi alomat: Olim sultonlar va hokimlardan uzoq bo'lsin.

Oxirat ulamolarning beshinchi alomati zaruratsiz o'rinlarda sultonlar va hokimlardan uzoq bo'lsinlar. Ularning huzuriga hargiz bormasinlar. Balki hokimlarning o'zlarini olim huzuriga kelsinlar. Ular bilan kam muloqot qilsinlar. Chunki ular bilan ko'p muloqotda bo'lish, ularga xushomad va roziliklarini topish maqsadida takalluf ko'rsatishdan holi bo'lmaydi. Sulton va hokimlar ko'pincha zolim va nojoiz ishlarga berilgan bo'ladi. Ularni bunday ishlarini inkor qilish, zulmdan qaytarish va nojoiz ishlariga tanbeh bermoq lozim. Ularga sukut qilish dinda tanazzulga yuz tutishdir. Ularning xursandchiligi uchun maqtab, ta'rif-u tavsif qilish ochiq yolg'onchilikdir. Agar olim mol-dunyo umidida ularga mayl ko'rsatsa va tama qilsa, bu nojoiz ishdur. Har qanday holda ham ularga aralashish mufsid ishlarining kalitidir".

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam aytadilar: "Kimning yashashi o'rmonda bo'lsa, u qattiq tabiatli bo'lib qoladi, taraqqiyotdan orqada qolib ketadi va (hamma narsadan) g'ofil bo'lib qoladi. Kim podshohning oldiga ko'p kirib-chiqaversa, u fitnaga duchor bo'ladi".

Xuzayfatul Yamoniyy rahmatullohi alayhi: "O'zingizni o'zingiz fitnalar o'rniga qo'yishdan saqlaning!" dedilar. Bir kishi so'radi: "Fitnalar o'rni qayer?" Ul zot: "Amirlarning darvozalaridir. Kimki ularning huzuriga boraversa, ularning noto'g'ri ishlarini ham tasdiqlaydigan, ularni yo'q sifatlar bilan maqtaydigan bo'lib qoladi", dedilar. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam aytadilar: "Olimlarning yomoni hokimlar huzuriga boradiganidir. Hokimlarning yaxshisi esa olimlarning huzurlariga keladiganidir" [9]. "Ilm ahli oldida turgan katta mas'uliyatlardan umr bo'yi mashaqqat bilan to'plagan bilimlarining qadriga yetish, uni vaqtinchalik shon-shuhrat va boylik yo'ldir qurbon qilmaslikdir. Hukmdorlarga izhor etilgan chiroyli so'zlar va laganbardorliklar vaqtinchadir. Hukmdorning marhamati olimning ilmiga ilm qo'shmaydi va o'rganganlarini ziyoda qilmaydi. Shu bilan birgalikda boshqa muhim masala ham e'tiborda chetda qolmasligi kerak. Yusuf Xos Hojib bilimni, ma'rifatli insonning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatiga ancha kengroq qaraydi. Shu sababli bo'lsak kerak, Oyto'ldi poytaxtga, podshoh saroyiga xizmat uchun keladi. Haqiqiy olim sifatida Oyto'ldi podshoh - Kuntug'di bilan silliqqina til topishib keta olmaydi. Ular o'rtasida qarama-qarshiliklar ham bo'lib o'tadi" [10].

Yusuf Xos Hojib qarashlarining eng muhim jihati uning bilimga nisbatan pragmatik yondashuvidir. Ya'ni u bilimni inson o'z o'rganganlarini insoniyat farovonligi yo'lida xizmat qildirishi kerak, degan fikrga qat'iy ishonadi.

"Bekka maslahatgo'y bo'lsang yonma-yon,

Halol yo'l ko'rsatgin yangilishgani on" [10].

Allomaning fikricha, bilim hukmdorning xohish-istagidan muhim va yuqoridir. Garchi hokimiyatning ilohiyligi haqidagi qarashlarga monand fikrlasa-da, Yusuf Xos Hojib hukmdor bilimdon maslahatgo'yning yo'l-yo'riqlariga muhtoj ekanini uqtirib o'tadi. Chunki bilimsizlikning o'rmini na hokimiyat, na boylik to'ldira oladi. Bilimgina insonni hayotdagi barcha qiyinchilik va muammolardan xalos etishga yordam berishi mumkin. Bilimsiz inson o'ziga va oilasiga, atrofdagilarga zarar yetkazsa, bilimsiz hukmdor butun jamiyatning kulfatidir. Shu nuqtayi nazardan allomaning bilimning determinantligi haqidagi konsepsiyasi, uning hukmdorlar uchun pand-nasihati tarzida yozilgan asarida markaziy mavzulardan biriga aylangan:

"Ziyoda maslahat bilan bilim bot,

Bilim, kengash bilan zabardast har zot" [10].

Inson tomonidan egallangan bilimlarning hayotga tatbiq etilishi - moddiylashuvi saroy muhitida maslahatlar orqali namoyon bo'ladi. Bilim insonni bir pog'ona yuqoriga ko'tarsa, dono kishining maslahati uni yana bir pog'onaga ko'taradigan omillardandir. Shu bilan birga alloma: "Asar g'oyasida nihoyatda noziklik bilan qarg'ish yomon, qarg'ish olishdan qochish, undan uzoq bo'lish kerakligini ta'kidlamog'da. Yana boshqa tomondan qaralsa, davlat amaldori, hukmdor xalq oldidagi o'z burchini bajarmasa, qilinishi kerak bo'lgan yaxshi ishlarni qilmasa xalq tomonidan badduo qilinishiga ishora qilingan" [11]. "Qutadg'u bilig"da bilimdon to'g'ri foydalanish masalalari [12], Sharq Renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar [13], "Qutadg'u bilig" asarida ijtimoiy borliq masalalari [14], Yusuf

Xos Hojib falsafasida yetuk va barkamol avlod muammolari [15], Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish istiqbollari [16], muallifning asarlari orqali tanishish mumkin.

Xulosa. Yusuf Xos Hojib davlat va jamiyat boshqaruvida olimning o'rni yetakchi maqomda ekanini, hukmdorni adolatga,

ma'rifatga va diyonatga chorlab turadigan zotlar ichida bilimli, ma'rifatli kishilar bo'lishi kerakligini uqtirgani, shu sababli asarda Oyto'ldining uzoq safardan saroyga kelib vazir, maslahatchi bo'lishini qayd etib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Demak bilimli inson jamiyat taraqqiyotiga mas'uldir va bu yo'lda hukmdorlar bilan hammaslak bo'lishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. K lekçi N. Yusuf Has Hacı ve Kutadgu Bilig, Tokar Yay., İstanbul, 2011. – 104 b.
2.  senmez E. “Kutadgu Bilig (Nemengan /Fergana/  zbekistan, 2011. - B. 16.
3. Yavuz K., Yusuf Has Hacı ve Kutadgu Bilig, T r Dili ve Edebiyatı Dergisi, Cilt 37, Sayı 37. 2007. – B. 37.
4. Темур Хўжа ўғли. Abdurauf Fitratning turkologiyada e'tibordan chetda qolgan “Qutadg'u bilig” matn nashri (1928) // Жахон туркологиясининг буюк обидаси “Кутадғу Билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 79.
5. Qutag'u bilig. Yusuf Xos Hojib, J.I., mas'ul muharrir A.Rustamov; nashrga tayyorlovchi G'. Abdurahmonov. ToshDShI. – T.: Alisher Navoiy Qutag'u bilignomidagi O'zbekiston Qutag'u bilig Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 240 b.
6. Ахмадиев Н.М. Ижтимоий ривожланиш ва ёшлар ахлоқий маданиятининг шаклланишида кекса авлоднинг роли: Фалс. фан. бўй. фалс. док. ...дис. – Андижон, 2021. – Б. 48.
7. Садриддин С. Б. Баҳовуддин Нақшбанд ёки етти пир. – Тошкент: Наврўз, 2017. – 12 б.
8. Кутадғу билиг: (Билим саодати) / Юсуф Хос Ҳожиб, Абдухамид Пардаев таъдрили. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 14 б.
9. Ашраф Али Таҳонавий раҳимахуллоҳнинг “Охират уламоларининг аломатлари” китобидан Тошкент шаҳар “Ҳазрати Алий” жоме масжиди имоми ноиб Камалиддин Равшан ўғлининг таржимаси <https://islamonline.uz/index.php/islom/item/295-haqiqiy-ulamolag-kim>.
10. Мадалиева Я. ва бошқ. “Кутадғу билиг”нинг бадий тили / “Жахон туркологиясининг буюк обидаси “Кутадғу билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 266.
11. Арипов М. “Кутадғу билиг”даги лингвомаданий бирликлар / Мадалиева Я. ва бошқ. “Кутадғу билиг”нинг бадий тили / “Жахон туркологиясининг буюк обидаси “Кутадғу билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 127.
12. Muhamedov A.A. “Qutadg'u bilig”da bilimdan to'g'ri foydalanish masalalari // Sharq falsafasi. Ilmiy-uslubiy jurnal. 7-son 1-jild, 2023. – B. 39-43.
13. Muhamedov A.A. Sharq Renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar // Экономика и социум // ISSN 225-1545 №2(117) 2024. – B. 449-453.
14. Muhamedov A.A. “Qutadg'u bilig” asarida ijtimoiy borliq masalalari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences // ResearchBib / Index Copernicus // (E)ISSN: 2181-1784 4(7), July, 2024. – B. 5-14.
15. Muhamedov A.A. Yusuf Xos Hojib falsafasida yetuk va barkamol avlod muammolari / International Scientific Journal Of Biruni // ISSN (E) 2181-2993 Vol. 3, Issue 1. May, 2024. – B. 280-289.
16. Muhamedov A.A. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish istiqbollari //“XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журналі. №1, 2024 йил ISSN: 2181-9874 SJIF 2022.-B. 66-69.



Madinaxon MUXAMMADJONOVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: madinah97mukhammad@gmail.com

TATUFF dotsenti, PhD N.Botirova taqrizi asosida

COMPETENCY TEACHING METHODOLOGY IN TEACHING BIOCHEMISTRY FUTURE HEALTH PROFESSIONAL

Annotation

In this article, the educational process is not only theoretical knowledge, but about the development of theoretical knowledge and practical skills necessary for effective in certain field. It also explained about how to teach the topic in depth by developing educational competence by conducting the lesson process in combination with interactive, problem-based learning of theoretical knowledge in the teaching of biochemistry to future medical workers and preparing them for clinical conditions with practical knowledge.

Key words: Competence teaching, problem-based learning, problem-based learning, hormones, insulin, cluster.

КОМПЕТЕНТНОСТНАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ БИОХИМИИ БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается не только процесс усвоения теоретических знаний, но и развитие как теоретических знаний, так и практических навыков, необходимых для эффективной деятельности в определенной области. Кроме того, в обучении биохимии будущих медицинских работников подчеркивается развитие учебно-познавательной компетенции посредством проведения занятий, в ходе которых теоретические знания осваиваются с использованием интерактивного и проблемного обучения для более глубокого изучения темы, а практические навыки направлены на подготовку к клиническим условиям.

Ключевые слова: Компетентностное обучение, проблемное обучение, проблемное обучение, гормоны, инсулин, кластер.

BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIGA BIOKIMYO FANINI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quv jarayonini nazariy bilimlar bilangina emas, ularning muayyan sohada samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar rivojlantirish haqida so'z yuritilgan. Shuningdek bo'lajak tibbiyot xodimlariga biokimyo fanini o'qitishda nazariy bilimlarni interaktiv, muammoli o'rganish bilan birgalikda dars jarayonini olib borish orqali o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirib mavzuni chuqurroq o'rgatish, amaliy bilimlar bilan esa klinik sharoitlarga tayyorlab borish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiyaviy o'qitish, muammoli o'rganish, problem-based learning, gormonlar, insulin, klaster.

Kirish. Bugunga kelib davlatimiz ta'lim tizimida rivojlangan davlatlardagi universitetlar qatoriga kirish uchun ko'pgina islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'limdagi islohotlarning maqsadlaridan biri malakali kadrlarni yetishtirishdir. Buning natijasida jamiyat va iqtisodiyotning turli sohalarida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar ega mutaxassislar tayyorlanadi. Malakali kadrlarni tayyorlash, ayniqsa tibbiyot, ilm-fan, sanoat, ta'lim va boshqa sohalarda yuqori sifatli xizmatlarni ta'minlashda juda muhim rol o'ynaydi.

Malakali kadrlarni tayyorlashining asosiy yo'nalishi ta'lim sifatiga bog'liqdir. O'qitish jarayonida, nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar ham taqdim etilishi zarur. Buning natijasida bo'lajak mutaxassislar kelajakdagi kasbiy faoliyati real sharoitlarda muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirishga yordam beradi. Bunda ta'lim jarayoni uchun kompetensiyaviy o'qitish usullari mos keladi. Avvalambor kompetensiyaviy o'qitish nima ekanligini o'rganib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kompetensiyaviy o'qitish – bu o'quv jarayonida faqat bilim olishini emas, balki ularning muayyan sohada samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usulidir. Bu yondashuvda ta'lim faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmaydi, balki talabalarga kasbiy kompetensiyalarni egallash, tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va masalalarni hal qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ularga real hayotdagi vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan resurslarni yaratish maqsad qilinadi[1].

Kompetensiyaviy o'qitish jarayonida talabalarining qanday kompetensiyalarini rivojlantirish kerakligini aniq belgilab olish kerak. Finlandiya ta'lim tizimining rivojlanishida muhim

rol o'ynagan olim Pasi Sahlberg ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvga e'tibor beradi. uning fikriga ko'ra ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, balki kompleks kompetensiyalarni rivojlantirishdir. U talabalarining nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning ijtimoiy, emosional va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga ham chaqiradi[2]. Ta'lim jarayonida talabalar faol ishtirok etishlari va o'quv materiallarini o'zlashtirishda mustaqil fikrlashlari kerak. O'qituvchilar ham shunchaki ma'lumot beruvchi emas, balki talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchilar va ularning o'rganish jarayoniga yo'naltiruvchilar bo'lishi kerak. Salberg jamoaviy ishlarga ham katta ahamiyat beradi. ta'lim tizimida hamkorlik, o'quvchilarni bir-biriga yordam berishga, g'oyalarni almashinishga va muammolarni hal qilishga rag'batlantiradi[3].

Amerikalik olim David Jonessan fikriga ko'ra kompetensiyaviy o'qitish talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki real hayotdagi muammolarni hal qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan ham ta'minlash zarur ekanligini ta'kidlaydi. U ta'lim sohasida interaktiv o'qitish va "muammoli o'rganish" (problem-based learning) metodlarini rivojlantirgan mashhur olim[4]. Jonessan kompetensiyaviy o'qitishni faqat bilim olish jarayoni emas, balki talabalarining tanqidiy fikrlash, maummo hal qilish, guruhda ishlash va boshqa amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan deb biladi. Bu yondashuv nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Talabalar o'rganish jarayonida muammolarni hal qilish orqali mulohazalar qilish, qarorlar qabul qilish, tizimli fikrlash va innovatsion yechimlar ishlab chiqishni o'rganadilar[5].

Yana bir olim, kimyogar muhandis Richard Felder o'zining "Learning Styles" nazariyasi bilan tanilgan va o'qitishda

turli xil kompetensiyalarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra har bir talaba o'zining o'rganish usuliga mos ravishda kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak[6]. Felder o'qitishda turli xil o'rganish usullari va stillarni inobatga olish zarurligini ta'kidlagan. o'qitish jarayonida talabalarning shaxsiy kompetentligini hisobga olish zarurligini va bu farqlar o'quvchilarning ma'lumotini qanday qabul qilishini, qay tarzda qabul qilishini va qayta ishlashini aytib o'tgan. Uning fikriga ko'ra o'qituvchilar har bir talabaga mos usullarni tanlashi va o'rganish jarayonini optimallashtirish uchun turli xil yondashuv qo'llash kerak. O'qituvchilar talabalarning o'ziga xos o'rganish usullarini tushunib, ular uchun samarali va mos o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishlari zarur[7].

Rus olimi va pedagogi Andrey Verbitskiy kompetensiyaviy o'qitish tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan va ta'limda "kompetensiya" tushunchasining ilmiy asoslarini yaratgan olimlardan biridir. U ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shgan va o'qitishning metodologik jihatlarini yangilashga qaratilgan ko'plab ilmiy ishlar yozgan. Verbitskiy o'zining ilmiy izlanishlarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini aniq belgilab bergan. U ta'limda kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishi, ta'limning samaradorligini oshirishda, nafaqat ilmiy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlagan[5].

Milliy olimlarimiz ham kompetensiyaviy o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Ularning fikriga ko'ra kompetensiyaviy o'qitish nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki talabalarga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi., ularni kelajakda samarali ishlashga tayyorlaydi. Nodirbek Qodirov, kompetensiyaviy o'qitishning samaradorligini va uning ta'lim tizimidagi rolini o'rgangan olim. U o'zining ilmiy ishlarida kompetensiyaviy yondashuvni ta'limda innovatsion metod sifatida ko'rsatgan. Qodirovning fikriga ko'ra kompetensiyaviy o'qitish talabalarga faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularga o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash, muammolarni hal qilish va yangi vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shunday qilib kompetensiyaviy o'qitish talabalarni real hayotga tayyorlash, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish asosiy maqsaddir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot ta'limi dunyoning barcha mamlakatlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega va murakkab ilmiy faoliyatga asoslanadi. Tibbiyot talabalari nafaqat keng bilimga ega bo'lishlari, balki u bilimlarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishlari kerak. Kompetensiyaviy o'qitish aynan shunday amaliy va nazariy bilimlarni o'quvchilarga o'rgatishga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish metodologiyasidir. Bu yondashuv tibbiyot talabalariga nafaqat tibbiy bilimlarni, balki

amaliy ko'nikmalarni, muammolarni hal qilishni va ularni haqiqiy klinik vaziyatlarda qo'llashni o'rgatishga yordam beradi.

Ushbu maqolada tibbiyot talabalariga kompetensiyaviy o'qitish yondashuvi asosida ta'lim berishning afzalliklari va amaliyotga qandash moslashtirishni ko'rib chiqamiz. Kompetensiyaviy o'qitish talabalar bilan interaktiv usullar orqali olib boriladi. Masalan dars jarayoni muhokamalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar va klinik amaliyotlar talabalarga interaktiv tarzda bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Biokimyo fani tibbiyot ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biridir, chunki organizmdagi kimyoviy jarayonlar, ularning boshqarilishi va organizmning turli tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar haqida chuqur bilimlar beriladi. Biokimyo fani bilimlari bo'lajak tibbiyot xodimlariga klinik amaliyotda to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi. tibbiyot mutaxassislarning ilmiy va amaliy bilimlarni mustahkamlashda biokimyo fanining o'zni beqiyosdir. Chunki bu fan organizmning kimyoviy asoslarini tushunishga va kasalliklarni aniqlash hamda davolash usullarini ishlab chiqarish zarur. Hozir esa biokimyo fani mazulari ichidan gormonlar mavzusini ko'ramiz.

Gormonlar mavzusini kompetensiyaviy ta'limda yoritish talabalarga bilimlarni chuqurroq tushunish va klinik holatlar bilan bog'lashga yordam beradi. biokimyo fanida gormonlar organizmdagi kimyoviy moddalar sifatida o'rganiladi, ularning tuzilishi, ishlab chiqarilishi, faoliyat va ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Tibbiyot talabalariga gormonlar mavzusini o'rgatish, ularga organizmda ro'y berayotgan kimyoviy o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi.

Gormonlar – ichki sekretsiya bezlarida ishlanib chiqib, qonga va to'qima suyuqligiga o'tadigan metabolizm va biologik faollikni hujayralarda boshqaradigan moddalar. Gormonlar organizmning to'qimadan boshqa to'qimaga, hujayradan boshqa hujayraga axborot yetkazib beruvchi kimyoviy xabarchilardir. Gormonlar kimyoviy tuzilishi va mexanizmiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

Gormonlar kimyoviy tuzilishiga ko'ra 3 ga bo'linadi:

Oqsil yoki oqsil tabiatli gormonlar. Misol insulin, glukagon va oksitotsin.

Steroid gormonlar. Misol glukokortikoid, mineralokortikoid va jinsiy gormonlar.

Aminokislota hosilalaridan olingan gormonlar. Misol efinerfrin, noefinefrin va tiroksin.

Gormonlar bajaradigan vazifasiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

Hujayraning ichki qismi retseptorlariga ta'sir ko'rsatadigan gormonlar. Masalan estrogen, progesterin

Hujayra tashqi membrana yuzasidagi retseptorlariga ta'sir ko'rsatadigan gormonlar. Masalan kalsitonin va efinerfrin.[7]

Quyidagi jadvalda gormonlar va ularning bajaradigan vazifasi keltirilib o'tilgan:

Gormonlar	Asosiy vazifasi
Mineralokartikoid	Tuz va suv balansini nazorat qiladi
Kalsitriol	Ca ²⁺ inoni so'rilishini buyrak va suyaklarda nazorat qiladi
Insulin	Qonda glukozani pasaytiradi, oqsil sintezini boshqaradi.
Kalsitonin	Kalsiy ioni zardobini pasaytiradi, buyrak va suyaklardan chiqarib tashlaydi
Gastrin	Oshqozomda HCl ishlab chiqarishni va pepsinogen sekretsiyasini boshqaradi.
Estrogen	Ayollar jinsiy belgilarini hosil qiladi, hayz siklini nazorat qiladi
Glukagon	Qonda glukozani ishlab chiqarishni oshiradi, glukogen va yog' ishlab chiqarishni kuchaytiradi

1-topshiriq. Gormonlar haqidagi matnni diqqat bilan o'qing. Gormonlar haqidagi ma'lumotlarni ushbu jadvaldagi ha (true) yoki yo'q (false) javobiga qarab belgilang.

№	Gormonlar	Ha (true)	Yo'q (false)
1	Qonga va to'qima suyuqligiga o'tadigan metabolizm va biologik faollikni hujayralarda boshqaradigan moddalar.		
2	Kimyoviy tuzilishiga ko'ra 2 ga bo'linadi.		
3	Insulin – oqsil tabiatli gormon		
4	Glukagon – qonda glukozani pasaytiradi, oqsil sintezini boshqaradi.		
5	Gormonlar vazifasiga ko'ra 3ga bo'linadi.		
6	Estrogen - ayollar jinsiy belgilarini hosil qiladi, hayz siklini nazorat qiladi.		
7	Gastrin - oshqozomda HCl ishlab chiqarishni va pepsinogen sekretsiyasini boshqaradi.		

To'g'ri javob: 1.Ha 2.Yo'q 3.Ha 4. Yo'q 5. Yo'q 6.Ha 7.Ha

2-topshiriq. Gormonlar vazifasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

Javob: _____

To'g'ri javob: Gormonlar vazifasiga ko'ra Hujayraning ichki qismi retseptorlariga ta'sir ko'rsatadigan gormonlar. Masalan estrogen, progesterin. Hujayra tashqi membrana yuzasidagi retseptorlariga ta'sir ko'rsatadigan gormonlar. Masalan kalsitonin va efinerfrin.

3-topshiriq. Muammoli o'rganish (PBL – problem-based learning). Talabalar guruhlarga ajratiladi. Bemorlarning shikoyati gormonlar mavzusiga moslanadi.

Misol: 35 yoshli erkak bemor, ortiqcha vazn olish, ko'proq charchoq va kamaygan jinsiy faoliyatdan shikoyat qilmoqda. Bemorning qon tahlillarida testosteron darajasi pasaylanganligi aniqlanmoqda. Sizning vazifangiz – bu holatni tushuntirib, qanday diagnostik usullarni taklif qiling.

4-topshiriq. Oqsillar va ularning organizmdagi ahamiyati haqida Klaster tuzing.

Masalan:



Tahlil va natijalar. Kompetensiyaviy o'qitish talabalarga nafaqat bilimlarni, balki real dunyoda qo'llaniladigan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Biokimyo fani tibbiyot ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biridir, chunki u organizmdagi kimyoviy jarayonlarni o'rganadi. Gormonlar organizmning turli tizimlarini boshqarishda, o'sish, rivojlanish, metabolizm va immunitet kabi jarayonlarni nazorat qilishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Gormonlar va ularning organizmdagi ahamiyatini o'rganish orqali o'quvchilar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin.

1. Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalari: gormonlar va ularning faoliyatini o'rganish jarayonida, talabalarga biologik tizimlarni va ularning o'zaro aloqalarini tahlil qilishni o'rgatish mumkin. Masalan, o'sish va rivojlanish jarayonida rol o'ynaydigan gormonlarning qanday ishlashini tahlil qilish, ularning organizmga ta'sirini kuzatish va bu bilimlarni haqiqiy holatlarga moslashtirish talabalarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Muammolarni hal qilish ko'nikmalari gormonlar bilan bog'liq kasalliklar (masalan diabet, gipotiroidizm, gipotiroidoz) va ularning sabablarini o'rganish orqali talabalarga muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Talabalar bu kasalliklarning oldini olish va davolash uchun qanday yondashuvlar kerakligini o'rganadilar.

3. Interaktiv o'qitish: Gormonlar va ularning rolini o'rganish jarayonida talabalar guruhlarda birgalikda ishlashlari va turli fikrlarni muhokama qilishlari mumkin. Masalan, o'sish gormoni bilan bog'liq masalalarini guruh bo'lib tahlil qilish, talabalarning jamoaviy fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Amaliy mashg'ulotlar: gormonlar haqidagi bilimlar amaliyotda qo'llanilishi kerak. Misol uchun talabalar gormonlar bilan bog'liq tahlillarni qanday o'tkazish, qon tahlil qilish, va endokrin tizimining ishlashini tushunish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa ularni kelajakda tibbiyot va biokimyo sohaslarida kuchli salohiyatga ega bo'lishiga yordam beradi.

5. Innovatsion metodlar: gormonlar haqida o'rganish talabalarga biologik jarayonlarni va ularni boshqarish usullarini yangi, innovatsion tarzda ko'rish imkonini beradi. Gormonlar bilan bog'liq sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi tahlil metodlarini ishlab chiqish va mavjud bilimlarni yangilash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak kompetensiyaviy o'qitish yondashuvi, nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish metodologiyasi. Tibbiyot sohasida, ayniqsa biokimyo fanida, bu yondashuv talabalar uchun gormonlar kabi murakkab mavzularni o'rganishda foydalanishimiz mumkin. Gormonlar haqida bilimlarni interaktiv va muammoli o'rganish usullarida o'rgatish, talabalarga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish klinik holatlarga tayyorlashni ta'minlaydi. Jarayon interaktiv o'qitish, muammoli o'rganish va amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, kompetensiyaviy o'qitish asosida bo'lajak tibbiyot xodimlarining o'quv-bilish jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni mustahkam o'rganishi balki amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari bilan birga interaktiv metodlarni qo'llash orqali kelajakdagi klinik kasbiy jarayonlarga ham tayyorlab boramiz.

REFERENCES

1. Totliyev, O. (2024). Ta'limda Kompetensiyaviy Yondashuv: Nazariy Va Amaliy Xulosalar. *Miasto Przyszłości*, 55, 1137-1140.
2. Sahlberg, P. (2007). Education policies for raising student learning: The Finnish approach. *Journal of education policy*, 22(2), 147-171.
3. Doyle, W. (2023). Pasi Sahlberg. In *The Palgrave Handbook of Educational Thinkers* (pp. 1-13). Cham: Springer International Publishing.
4. Hung, W., Jonassen, D. H., & Liu, R. (2008). Problem-based learning. In *Handbook of research on educational communications and technology* (pp. 485-506). Routledge.
5. Jonassen, D. (2011). Supporting problem solving in PBL. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 5(2), 95-119.
6. Felder, R. M., & Soloman, B. A. (2000, October). Learning styles and strategies.
7. Felder, R. M., Woods, D. R., Stice, J. E., & Rugarcia, A. (2000). The future of engineering education: Part 2. Teaching methods that work. *Chemical engineering education*, 34(1), 26-39.
8. Verbitskiy, A. A., & Rybakina, N. A. (2016). Invariable Result of Life-Long Education. *Vysshee obrazovanie v Rossii= Higher Education in Russia*, (6), 47-54.
9. Mamasoliyevich, N. K. (2021). Current issues of formation of information culture in youth.
10. Aliyarovich, T. L. T. L., & Eshnazarovich, Y. H. (2022). GORMONLAR BOKIMYOSI. *Gospodarka i Innovacjje.*, 29, 261-263.



Komil MUXAMMADIYEV,
Toshkent davlat transport universiteti professori, DSc
E-mail: komilmuhammadiev@yandex.ru

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD M.Ma'rufov taqrizi asosida

YOSH KURASHCHILARNI TAKTIK USULLARGA URGATISHDA INNAVATSION AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Аннотация

Maqolada yosh kurashchilarni texnik usullarga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kurash sport turi bo'yicha olib borilashigan kup yillik mashg'ulotlarining dastlabki tayyorlov bosqichida shug'ullanuvchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalarini (animatsiyalar, rasmlar, jadvallar, videoyozuvlar, slaydlarni) qo'llash orqali ularda taktik usullarni takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, kurash, mashg'ulot, g'alaba, axborot, texnik elementlar, usul, ichki chil, supurma, harakat, samaradorlik, musobaqa, jarayon, rivojlantirish, ideomotorik, modellashtirish.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ТАКТИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ МОЛОДЫХ БОРЦОВ

Аннотация

В статье рассматривается эффективность использования информационных технологий в обучении юных курашистов техническим приемам. Также, на этапе предварительной подготовки многолетних занятий по курашу направлено на совершенствование тактических приемов с использованием инновационных информационных технологий (анимации, рисунки, таблицы, видеозаписи, слайды) в развитии тактической подготовки занимающихся.

Ключевые слова: Инновация, педагогические технологии, борьба, тренировка, победа, информация, технические элементы, метод, внутренняя щель, метла, действие, эффективность, соревнование, процесс, развитие, идеомоторика, моделирование.

THE EFFECTIVENESS OF USING INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN TRAINING YOUNG WRESTLERS IN TACTICAL METHODS

Annotation

The article examines the effectiveness of using information technologies in training young kurash athletes in technical techniques. Furthermore, during the preparatory stage of multi-year Kurash classes, tactical techniques are aimed at improving the tactical training of participants using innovative information technologies (animations, drawings, tables, video recordings, slides).

Key words: Innovation, pedagogical technologies, struggle, training, victory, information, technical elements, method, internal gap, broom, action, efficiency, competition, process, development, ideomotorism, modeling.

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport ta'limi jarayoni uzluksiz ravishda, tizimli tartibda muvofiq bilimlarni berish, shug'ullanuvchilarni sportga bo'lgan amaliy kunikmalarini takomillashtirishdan iborat.

An'anaviy ta'lim tizimida ko'p yillar davomida bir hil muhit va uslubga tayanib kelinligi barchaga ma'lum. Ammo XXI asrga kelib o'quvchida intellektual qobiliyat darajasi butunlay o'zgacha ko'rinishga kelganligini davrning o'zi isbotlamogda.

Bugun internet va boshqa muqobil axborot manbalarining keng tarqalishi o'sib kelayotgan avlodning ma'lumotlarni qabul qilish va o'zlashtirishga yangicha munosabatinn shakllantirib ulgurd.

Ma'lumki, axborot manbalariligi o'zlashtirish, uni qabul qilish hamda qayta ishlash usullari o'quvchi va shug'ullanuvchilardan katta mehnat talab qiladi. Aks holda axborotning qabo'l qilinishi qiyin kechadi va samarali bo'lmaydi. Masalan, maktab o'quvchilari – o'sib kelayotgan avlod glaballashuv jarayonida dunyoni endigina taniy boshlagan o'smirlar bo'lib, ularda ijtimoiy tarmoqlardan keladigan tashqi axborotni qabul qilishga tabiiy ehtiyoj va intilish yuqori bo'ladi. Bu ehtiyojning qay darajada va aynan qanday vosita va usullar bilan qondirilishi o'ta dolzarbdir. Insonning axborot qabul qilish qobiliyati qanchalik kuchli bo'lmasin, bu axborotlarning eng qiziqari barchani o'ziga qaratadigani hajmi cheklangan holda xotirada qoladi. Boshqacha aytganda, insonning axborotni qabul qilish vaqti, qayta ishlash imkoniyatlari darajasi chegaralangan va u imkon darajasida engilroq va qo'layroq usul va vositalarga intiladi.

Hozirgi kunda turli internet va kompyuter klublari ko'payib ketgan, o'larda o'quvchi yoshlarning aksar qismi dars va mashg'ulotlardan so'ng (ba'zan dars va mashg'ulotlarga bormasdan) o'z vaqtlarini aksariyat hollarda samarasiz o'tkazadilar. Ilmiy-texnika va texnologiyalarning taraqqiyoti tezkor rivojlanish bosqichida axborotlarning keskin ko'payib borishi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqt chegaralanganligi, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash ta'lim tizimiga yangicha yondashish zarurligini keltirib chiqormogda. Mamlakatimiz ta'lim jarayonida yuz berayotgan o'zgarishlar ta'lim muassasalarida ishini tubdan va yangidan rivojlantirishni talab etadi, innovatsiyalarni joriy etish har doim, murakkab va uzoq qiyinchilik bilan kechadi. Pedagogikadagi qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar har doim ham sohaga yangilik kiritishning asosiy manbai bo'lib xizmat qilib kelgan [6].

Shug'ullanuvchilar psixologiyasidan ma'lumki, ular kitobdan o'qigan yoki murabbiy tomonidan so'zlab berilga: axborotga nisbatan tasvirlar orqali: uzatilgan axborotni tezroq va samaraliroq qabul qilar ekan. Shuni ta'kidlash lozimki, yaxshi o'zlashtirilgan, engil qabul qilingan ma'lumot nisbatan qiyi o'zlashtirilgan axborotni siqib chiqarad va tez orada butunlay uchirib tashlaydi [6].

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra ma'lumki ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardan olingan rang-barang tasvirli hamda ovozli axborotlar (televideniedan uzatilga sport dasturlari, reklama, e'lonlar va hokazo) sport maktablarida yoki oddiy sport maydonlarida beriladigan murakkab fundamental bilimlarni tuman kabi qoplab oladi, rang-baranglikka o'rganib qolib bolalarda rasmiy musobaqalarga nisbatan qiziqish yo'qola

boradi. Shu nuqtai nazardan kurash mashg'ulotlari jismoniy jarayoniga innovatsion yangiliklarning olib kirilishi ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport natijalarini oshirish shubhasiz yordam beradi. Yangilikka chanqon yoshlarimiz uzlarini jalb eta oladigan tarzda uzatladigan axborot manbaa ma'lumotlariga beixtiyor intiladilar [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sport tayyorgarligining turli bosqichlarida kurashchilarga texnik va taktik harakatlarni o'rgatish muammolari bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, respublika olimlaridan K.B. Muxammadiev, A.N. Abdiyev, F.A. Kerimov, I.B. Aliyev, N.A. Tastanov, O.J. Dadabayev, Sh.Sh. Gaziyeu, kabi olimlar kurashchilarga texnik-taktik harakatlarni o'rgatish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Ularda yosh kurashchilarning maxsus mashg'ulot tizimining asosiy tarkiblari bayon qilingan, o'rgatish, boshlang'ich mashg'ulot jarayonlari mazmunini tizimlashtirilgan, texnik-taktik takomillashtirish texnologiyalari ishlab chiqilgan hamda muvofiqiyatli sinovdan o'tkazilgan. Bu tadqiqotlarda kurashchilarning mashg'ulot jarayoni vositalari hamda uslublarini optimallashtirishda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kurash texnikasi turli xil harakat amallari birikmasidan hosil bo'ladi. Kurash texnikasi – bu o'zaro bog'liq bo'lgan faol harakatlar tizimidir u muvozanatli holatni mustahkam saqlab qolishga asoslangan. V.V. Gojinning ta'rificha, kurash texnikasi – g'alabaga erishish uchun oqilona, qoidalarda ruhsat berilgan harakatlar yoki usullar yig'indisidir. Harakat amallariga raqibni o'rganish, hujum va qarshi hujumlar, himoyalash harakatlari kiradi [6].

Texnika bilan taktika o'zaro chambarchas bog'liq. Sportda taktika – bu yuqori sport natijasiga erishish shakllari hamda usullari yig'indisidir.

Kurashda taktik harakatlar deganda o'zining jismoniy va texnik xususiyatlari va raqib kamchiliklaridan foydalanish, raqibni sarosimaga tushirish uchun chalg'ituvchi harakatlarni qo'llash, bellashuvda qulay vaziyat yuzaga kelganda samarali texnik harakatlardan foydalanish, kuch berishlarni tejimli sarflash ko'nikmasi, qoidalarda belgilangan imkoniyatlardan, gilam maydoni va boshqalardan foydalana olish qobiliyatlari tushuniladi [9].

Kurashda "texnik-taktik mahorat" atamasi ko'p qo'llaniladi. Texnik-taktik mahorat deganda yuqori darajadagi texnik-taktik tayyorgarlik nazarda tutiladi. Ushbu atamalarimiz biz bekorga aytib o'tmadik. Chunki ko'p hollarda tayyorgarlik tushunchasi ikki xil ma'no anglatadi. Tayyorgarlik jarayoni sifatida ham, tayyorgarlik shu jarayonning mahsuli sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Tayyorgarlik jarayoni tayyorgarlik holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kurashchi texnikasi tushunchasini ta'riflashda (yuqori malakali sportchilarni tayyorlash nuqtayi nazaridan) B.I. Tarakanov o'zgacha yondashuvga asoslanadi. Kurash texnikasining oddiy (eng mayda) elementi – operatsiya bo'lib, uni kurashchi avtomatik tarzda bajaradi va unga bu ballardagi ustunlikni bermaydi. Bu elementlar siltashlar, turtishlar manevr olib borishlar, ilib olishlar va h.k. Bir necha operatsiyalar bir-biriga mustahkam bog'langan holda yakkama-yakka olishuvning yirik birligiga aylanishi mumkin. Ushlab olishlar, taktik tayyorgarlik, usullar va boshqalar, shular jumlasidandir. Bunday

1-jadval

Yosh kurashchilarning sport mashg'ulotidagi usullarni bajarish samaradorligi ko'rsatkichlari (tadqiqotdan boshida n=25)

№	Usullarning nomi	Umumiy harakatlar		Samarali harakatlar		Samaradorlik ko'effitsenti	
		TG	NG	TG	NG	TG	NG
1.	Elkadan oshirib tashlash (marta)	58	61	22	28	37,9	45,9
2.	Supurma usul (marta)	46	49	16	21	34,7	42,8
3.	Ichki chil (marta)	41	44	14	17	34,1	38,6
4.	Beldan oshirib tashlash (marta)	49	51	21	22	42,8	43,1

TGdagi respondentlarda elkadan oshirib tashlashlarning umumiy soni 58 tani, samarali oshirib tashlashlar soni 22 tani va bu taktik harakatni bajarilish samaradorligi 37,9 % ni tashkil qildi.

Supurma usullarining umumiy miqdori 46 ta bo'lib, samarali bajarilgan qoqmalar soni 16 ta va harakat samaradorligi 34,7 % ni tashkil qildi. Mashg'ulotda usullarni bajarish davomida jami 41 marotaba ichki chil berish taktik elementi bajarilib, samarali bajarilgan harakatlar soni 14 tani tashkil etdi va ularning

operatsiyalar jamlanmasi ham avtomatik tarzda bajariladi va odatda, raqibdan ustunlikka ega bo'lishga olib kelmaydi [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, antropometrik tadqiqotlar uslubini, jismoniy tayyorgarlikni baholash, pedagogik tajriba va tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotda kuzatuv mashg'ulot jarayonida yosh kurashchilarning jismoniy sifatleri hamda kurash texnikasi elementlarini birga rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, yosh kurashchilarning mashg'ulot hamda musobaqa bellashuvlari sharoitlarida texnik-taktik faoliyati to'g'risida axborot olish maqsadida amalga oshirildi. Ma'lumotlarning obektivligi va ishonchiligi oshirish uchun mashg'ulot hamda musobaqa bellashuvlari videoyozuvlari tahlil qilindi, bu yakkakurashning borishini mayda qismlarga bo'lib o'rgatishga va batafsil tahlil qilishga imkon berdi, shu orqali musobaqa faoliyatining yaxlit manzarasi shakllantirildi. Videoyozuvlar asosida amalga oshirilgan musobaqa faoliyatidagi bellashuvlar tahlili yakkama-yakka kurashish xususiyatini mantiqan o'zaro bog'liq holda va izchil o'rganishga imkon berdi. Shuningdek, asosiysi, ham musobaqa faoliyati natijalarini tahlil qilish (miqdoriy ko'rsatkichlarda) ham uning jarayonini amalga besvosita tekshirishga yordam berdi.

Sportchilarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari musobaqalar taqvimini asosida o'tkaziladigan 3 ta musobaqada qayd etildi. Kuzatuvlar boshlang'ich tayyorgarlik guruhida shug'ullanuvchi 76 nafar yosh kurashchilar orasida o'tkazildi. Kuzatuv materiallari musobaqa qatnashchilari hamda ularning murabbiylari bilan o'tkazilgan so'rov natijasida olingan ma'lumotlar bilan to'ldirildi va tuzatib berildi.

Kuzatuvlar yosh kurashchilarning jismoniy sifatleri darajasini oshirish uchun eng oqilona va samarali o'yin mashqlari hamda texnik-taktik vositalarni aniqlash va qo'llash imkonini berdi. Bellashuvlarni kuzatishlar yosh kurashchilarning (tajriba guruhi) texnik-taktik tayyorgarligidagi xatolarni aniqlashga imkon yaratdi va ularni kelgusida qaytarmaslikka yordam berdi.

Tadqiqotning maqsadi: kurash sport turi bo'yicha olib borilashgan kup yillik mashg'ulotlarining dastlabki tayyorlov bosqichida shug'ullanuvchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalarini (animatsiyalar, rasmlar, jadvallar, videoyozuvlar, slaydlarni) qo'llash orqali ularni harakat ko'nikma va malakalarini shakllanishini takomillashtirishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Pedagogik tadqiqotlarimizning amaliy kuzatuvlari Toshkent davlat transport universiteti kurash zalida o'tkazildi. Tajribada 12-13 yoshli bolalardan 25 tasi qatnashdi. Tajribamizni amalga oshirish maqsadida ularni shartli tarzda tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG)lariga ajratdik. Tadqiqot tajribalari 2024 yil sentyabr oyidan 2025 yil fevral oyi oralig'ida o'tkazildi. Tadqiqotimizda maqsadga erishish uchun sentyabr oyida yosh kurashchilarning sport mashg'ulotlarini kuzatdik va mashg'ulot jarayonida ular tomonidan bajarilgan taktik harakatlarning samaradorligini tahlil qilishdan boshladik. Kuzatuv tahlil natijalariga ko'ra, yosh kurashchilarning taktik harakatlarni bajarish samaradorligi qo'yidagicha ko'rinishda bo'ldi (1-jadval).

samaradorligi 34,1 % bo'ldi. Beldan oshirib tashlash usuli taktik elementini TG jami 49 marotaba amalga oshirishdi va bu harakatni 21 marotaba samarali bajarishdi, samaradorlik ko'effitsenti 42,8 % ni ko'rsatdi.

NGda esa bu ko'rsatkichlar quyidagicha bo'ldi. Yelkadan oshirib tashlashlarning umumiy soni 61 tani, samarali oshirib tashlashlar soni esa 28 tani va bu taktik harakatni bajarish samaradorligi 45,9 % ni tashkil qildi. Oldindan qoqma usullarining umumiy miqdori 49 ta bo'lib, samarali bajarilgan

qoqmalar 21 ta va harakat samaradorligi, 42,8% ni tashkil qildi. Mashg'ulotda usullarni bajarish davomida jami 44 marotaba chil berish taktik elementlari bajarilib, samarali bajarilgan harakatlar soni 17 tani tashkil etdi va ularning samaradorligi 34,1% bo'ldi. Beldan oshirib tashlash usuli taktik elementini esa, NG a'zolari jami 51 marotaba amalga oshirishdi va bu harakatni 22 marotaba samarali bajarishdi, samaradorlik koeffitsienti 43,1% ni tashkil etdi.

Pedagogik kuzatuv tahlilidan ko'rinib turibdiki, NG a'zolarining taktik elementlarni bajarish samaradorligi TG kurashchilarinikiga nisbatan biroz yaxshi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shundan so'ng biz uch oy davomida respondentlar bilan kurash usullarining taktik harakatlarni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar olib bordik. Mashg'ulotlar odatdagi tarzda olib borildi, faqat biror-bir taktik elementni o'rgatishda mashg'ulotlardan oldin 10 – 15 daqiqa davomida maxsus dastur yordamida innovatsion animatsiyalashtirilgan rolklarni, ushbu taktik usulning mashg'ulotda qo'llanilishi bo'yicha proektor orqali ekranda ko'rsatilib, tushuntirildi. Bunday ko'rgazmali innovatsion texnologiyadan foydalanishimizning asosiy maqsadi bolalarga usullar harakatini qanday bajarish kerakligini avval vizual bo'lib-bo'lib, so'ng to'liqligicha ko'rsatish, natijasida ularda taktik jihatdan usullarni bajarish haqida tushuncha xosil qilish, uni amalda qaysi vaziyatlarida qo'llashni o'rgatishdan iborat edi.

A.S. Puni qayd etib o'tganidek, mashg'ulotlar jarayonida ham, musobaqalarda ham sport mashqlarini bajarish jarayonida ham, mashqlarni amaliy bajarishdan avval "xayolan his qilish" turgan paytda ancha ahamiyatliroq tarzda sodir bo'ladi. Shuning uchun harakatlantiruvchi harakatlarni xayolan his qilish ideomotor nomini olgan.

Ideomotorika – harakatlantiruvchi ko'nikmalar shakllantirilganda va takomillashtirilganda o'zlashtirilayotgan harakat texnik harakatning o'rganilishi bajarilayotganligi haqidagi 2-jadval

Yosh kurashchilarning sport mashg'ulotidagi usullarni bajarish samaradorligi ko'rsatkichlari (tadqiqotdan so'ng n=25)

T/r	Usullarning nomi	Umumiy harakatlar		Samarali harakatlar		Samaradorlik koeffitsienti	
		TG	NG	TG	NG	TG	NG
1.	Elkadan oshirib tashlash (marta)	66	60	32	25	48,4	41,6
2.	Supurma usul (marta)	55	50	23	19	41,8	38,0
3.	Ichki chil (marta)	50	43	20	15	40,0	34,8
4.	Beldan oshirib tashlash (marta)	57	50	27	20	47,3	40,0

Tahlil natijalari qo'yidagilarni ko'rsatdi: TGdagi respondentlarda elkadan oshirib tashlashlarning umumiy soni 66 tani, samarali oshirib tashlashlar soni 32 tani va bu taktik harakatni bajarilish samaradorligi 48,4 % ni tashkil qildi.

Oldindan qoqma usullarining umumiy miqdori 55 ta bo'lib, samarali bajarilgan qoqmalar soni 23 ta va harakat samaradorligi 41,8 % ni tashkil qildi. Mashg'ulotda usullarni bajarish davomida jami 50 marotaba ichki chil berish taktik elementi bajarilib, samarali bajarilgan harakatlar soni 20 tani tashkil etdi va ularning samaradorligi 40,0 % bo'ldi. Beldan oshirib tashlash usuli taktik elementini TG jami 57 marotaba amalga oshirishdi va bu harakatni 27 marotaba samarali bajarishdi, samaradorlik koeffitsienti 47,3 % ni ko'rsatdi.

NGda esa bu ko'rsagkichlar quyidagicha bo'ldi. Yelkadan oshirib tashlashlarning umumiy soni 60 tani, samarali oshirib tashlashlar soni esa 25 tani va bu taktik harakatni bajarish samaradorligi 41,6 % ni tashkil qildi. Oldindan qoqma usullarining umumiy miqdori 50 ta bo'lib, samarali bajarilgan qoqmalar 19 ta va harakat samaradorligi 38,0 % ni tashkil qildi. Mashg'ulotda usullarni bajarish davomida jami 43 marotaba chil berish taktik elementlari bajarilib, samarali bajarilgan harakatlar soni 15 tani tashkil etdi va ularning samaradorligi 34,8% bo'ldi. Beldan oshirib tashlash usuli taktik elementini esa, NG a'zolari jami 50 marotaba amalga oshirishdi va bu harakatni 20 marotaba samarali bajarishdi, samaradorlik koeffitsienti 40,0% ni tashkil etdi.

shaxsiy xayoliy tasavvurlarini ishga solish demakdir. Ko'rish va kinestetik ma'lumotlar asosida harakatlarni hayolan takrorlash harakatlantiruvchi harakatlar dinamikasi makon-vaqatdagi va ritmik tuzilishiga muvofiq mushak faolligining optimal rejimini shakllantirishga shart-sharoit yaratadi.

Ideomotorik mashg'ulot o'rgatish uchun aniq harakatning barcha elementlari yoki texnik taktik harakatlar seriyasi tarzida amalga oshiriladigan alohida jarayon bo'lishi zarur.

Ideomotorik mashg'uloti maxsus chigal yozish mashqlarini, kinogrammalarni izohlash va tahlil qilish, irg'itish va ushlab olishlarning taktik vaziyatlarini modellashtirish, o'ziga o'zi buyruq chiqarish, o'zini o'zi tahlil qilish, o'ziga o'zi hisobot berish, ichki nutq va harkat o'rtaqidagi bevosita aloqani ishlab chiqish uchun irg'itishlarni hayolan bajarish, tuzilgan kombinatsiyalarning majburiy elementlarini o'z ichiga oladi.

Harakatlar xayolan bajariladigan ideomotor trenirovkaning alohida samaradorligi tayanch nuqtalari, murakkab paytlar yoki aksincha, etarli darajada birlashtirilgan harakatlar elementlariga e'tibor bergan holda bajariladigan elementlarni talaffuz qilib, harakatlarni tovush chiqarib, so'ngra "ichida" – ichqi nutq bilan takrorlab, og'zaki nutq yordamida xayolan amalga oshirish orqali kuzatib boriladi [8].

Harakatlantiruvchi harakatlarni namoyish qilish jarayonida harakatlarni xayolan takrorlash trenirovka samarasini va o'rganilayotgan harakatning amaliy o'zlashtirish samarasini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, harakatlarni amaliy bajarish jarayoniga kiritilgan, so'z orqali boshqariluvchi ta'sir ko'rsatishlar bundan ham samaraliroq bo'ladi.

Bularning hammasi harakatlantiruvchi harakatni xayolan bajarishning, o'zlashtirish sifatini tezlashtiruvchi va oshiruvchi, ularni bajarishga tayyorgarlikni shakllantiruvchi usul ekanligidan dalolat beradi.

Shunga asoslanib biz uch oylik o'quv mashg'ulotlarini olib borganidan so'ng NG va TG guruhlarini qayta kuzatuvdan o'tkazdik va ko'rsatkichlarni tahlil qildik (2-jadval).

Pedagogik kuzatuv tahlilidan ko'rinib turibdiki, TG jalb qilingan kurashchilarning taktik elementlarni bajarish samaradorligi NG kurashchilarinikiga nisbatan yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida biz ishlab chiqqan dasturning ramaradorli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, yosh kurashchilarning texnik harakatlarini bajarish samaradorligi ikala guruh a'zolarida ancha past ekan. Bu dastlabki tayyorlov guruhi uchun xos bo'lgan holatdir. Shundan so'ng yosh kurashchilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha NG va TGda uch oy davomida tajriba mazmunli mashg'ulotlar (yuqorida qay etilgan pedagogik texnologiyalar asosida) olib borildi. Tadqiqotimizni oxirida har ikala guruh a'zolarining texnik harakatlari samaradorligini kuzatganimizda, TG kurashchilaridagi texnik elementlarni bajarish samaradorligi ancha o'sgani ma'lum bo'ldi.

Biroq yosh kurashchilarga taktik harakatlarni bajarishga urgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanilsa, uzlashtirish sifati yanada tezrok va yaxshiroq bo'lishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv mashg'ulotida axborot texnologiyalaridan foydalanib, shug'illanuvchilarga avval texnik elementning bajarilish xolat harakatni to'g'ri bajarishlar tushuntirilsa, shug'illanuvchilar bu texnik elementni osonroq o'zlashtira olishlari va uning bajarilish sifati yaxshilanar ekan. Bularni inobatga olgan holda mashg'ulotlarida texnik-taktik jismoniy tayyorgarlik turlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya etamiz.

ADABIYOTLAR

1. Azixzujueva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent. TDPU, 2003.

2. Ziyomuxammedov B.G, Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent. Abu Ali ibn Sino, 2001 yil.
3. Гожин В.В. Теоретические аспекты техники и тактики спортивной борьбы / А.Н. Блеер, В.В. Гожин, В.Л. Дементьев [и др.]; под ред. В.В. Гожина, О.Б. Малкова. – М.:Физкультура и спорт, 2005. -168 с.
4. Дадабоев О.Ж., Повышение физической подготовленности юношей групп начальной подготовки по дзюдо в условиях спортивно-оздоровительного лагеря. Фан-спорта, 2017 г., №4. - С. 6-10.
5. Kerimov F, Yusupov N. Kurash uchun harakatli o'yinlar. – Toshkent, 2003, 69 b.
6. Muxammadiev K.B. Yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuv. 2012 yil 14-15 aprel. XXVII ilmiy–uslubiy anjuman. – B. 28-29
7. Muxammadiev K.B. Jismoniy tarbiya va sport (Kurash). Darslik. – Toshkent. «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024, 328 b.
8. Мухаммадиев К.Б. Обоснование модели подготовки высококвалифицированных спортсменов с применением комбинатсий техники прёмов кураш. Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириу. Нукус-2024 №4 -Б. 468-474.
9. Мухаммадиев К.Б. Экспериментальная проверка эффективности подготовки высококвалифицированных спортсменов с техниками премов по курашу. Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириу. Нукус-2024 №1 - Б. 468-474.
10. Мухаммадиев К.Б. Спортизированное физическое воспитание студентов на основе сочетания средств брьобы и игрового метода // Физическая культура: Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириу. Нукус-2024 №1 - Б. 468-474.
11. Ishmuxeimedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent.: TDPU, 2004.
12. Тараканов Б.И. Управление подготовкой борцов: монография /Б.И.Тараканов. – СПб ГАФК им. П.Ф. Лесгафта. СПб., 2005 – 163 с.
13. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati/ Darslik. “Sano-standart” Toshkent – 2017. B. 193-205.



УДК: 372.881.161.1

Шухрат НАБИЕВ,

Старший преподаватель Наманганского государственного университета

E-mail: shuhrat.nabiyev@mail.ru

На основе рецензии PhD, доцента НамГУ С.Абдуллаевой

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИЯХ «ГРАММАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ» И «РЕЧЕВОЙ ОБРАЗЕЦ» В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РКИ

Аннотация

В статье рассматриваются значения понятий «грамматическая модель» и «речевой образец» в лингвистике и методике преподавания РКИ.

Ключевые слова: Опорные слова: грамматическая модель, речевой образец, абстракция, коммуникативная компетенция, РКИ.

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH METODIKASIDA “GRAMMATIK MODEL” VA “NUTQ NAMUNASI” TUSHUNCHALARI MASALASIGA

Annotsatsiya

Maqolada tilshunoslik va rus tilini chet tili sifatida o‘qitish metodikasida “grammatik model” va “nutq namunasi” tushunchalarining ma’nosi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Grammatik model, nutq namunasi, mavhumlik, kommunikativ kompetentsiya, rus tili chet tili sifatida.

ON THE ISSUE OF THE CONCEPTS OF "GRAMMATICAL MODEL" AND "SPEECH PATTERN" IN THE TEACHING METHODOLOGY OF RCT

Annotation

The article examines the meanings of the concepts “grammatical model” and “speech pattern” in linguistics and teaching methods of Russian language.

Key words: Grammatical model, speech pattern, abstraction, communicative competence, RCT.

Введение. Язык, как система знаков и символов, является основным инструментом человеческой коммуникации. Для изучения его структуры и функционирования лингвистика выработала множество понятий и теорий, среди которых особое место занимают термины «грамматическая модель (языковая модель)» и «речевой образец». Эти понятия не только отражают сущность языка, но и имеют важнейшее значение для понимания механизмов, с помощью которых мы формируем и воспринимаем высказывания, а также обучаемся языку.

Грамматическая модель и речевой образец — это два взаимосвязанных, но различных аспекта языка. Первая концепция акцентирует внимание на абстрактной теоретической основе языка, которая включает в себя грамматические правила, регулирующие строение предложений, а вторая связана с конкретными примерами использования языка в реальных коммуникативных ситуациях. Для более глубокого понимания этих понятий важно рассмотреть их не только с теоретической, но и с практической точки зрения, поскольку они определяют, как язык функционирует в повседневном общении, обучении и научных исследованиях.

Анализ литературы по теме. Вопросы использования грамматических моделей на разных уровнях рассматривались в работах Комовской Е.В. [1], Саньяровой Н.С. [4], Шарафутдинова Д.Р. [7] и других. Использование речевых образцов в обучении видам речевой деятельности на разных этапах изучалось в работах Данилевской Н. В., Тихомировой Л. С. [1], Сердаровой М. [5], Талецкой Т.Н., Айзатулиной С.И. [6] и других.

Методология исследования основывается на комплексном подходе, включающем анализ теоретических источников, сравнительный метод, контент-анализ учебных материалов и наблюдение за практическим применением данных понятий в учебном процессе. В ходе исследования предполагается изучить разные подходы к пониманию грамматических моделей и речевых образцов, а также

исследовать их взаимодействие и применение в реальных учебных ситуациях.

Анализ и результаты. В лингводидактике разграничивают понятия «речевой образец» и «модель». Под моделью понимают определённую последовательность постоянных элементов в структуре предложения (например, S – Р – О). Понятие «модель» соотносится тем самым с «предложением» как структурной языковой единицей. «Речевой образец» соответствует «высказыванию» как единице речевого уровня. Речевой образец – это реализация модели в речи [6].

На наш взгляд, грамматическая модель — это абстракция, служащая для описания системы языковых правил, которые лежат в основе построения высказываний. В отличие от живой речи, где возможны отклонения и вариации, грамматическая модель стремится предоставить чёткие и упорядоченные принципы, по которым строится предложение, а также описывает, как различные элементы языка взаимодействуют друг с другом. Элементы грамматической модели охватывают как синтаксис, так и морфологию, а также частично семантику и прагматику.

Прежде всего, грамматическая модель касается синтаксиса, то есть правил, которые определяют, как из отдельных слов и словосочетаний составляются предложения. В разных языках могут быть свои особенности синтаксиса: порядок слов, типы предложений, согласование между частями речи, их сочинение или подчинение друг другу. В русском языке, например, существует строгая зависимость между подлежащим и сказуемым, а также использование падежных форм для существительных и местоимений, что не всегда имеет аналогии в других языках.

Морфология же, как часть грамматической модели, рассматривает способы изменения слов в зависимости от их грамматических характеристик. В русском языке это проявляется в системе склонений и спряжений, родах и числах, падежах, а также в форме глаголов. Например, формы глагола изменяются по лицам, числам, временам и наклонениям, что требует специфических знаний для

правильного использования слов в контексте предложений. Кроме того, грамматическая модель включает аспекты семантики, поскольку, несмотря на то что семантика как раздел лингвистики непосредственно не входит в состав грамматической модели, важно учитывать, как грамматические формы соотносятся с их значением. Грамматическая модель предписывает определённые формы для выражения разных значений, например, активные и пассивные конструкции, формы для выражения временных и модальных значений и так далее.

Грамматическая модель имеет разные уровни сложности, от самых простых (например, правила для составления простых предложений) до более сложных теоретических построений, таких как формальные грамматики и теории синтаксиса (например, теория Х-баров в генеративной грамматике). Для лингвистов важно построение таких моделей, которые не только объясняют существующие структуры, но и позволяют предсказать возможные формы, которые могут быть использованы в реальной речи.

В отличие от абстрактной грамматической модели, речевой образец представляет собой конкретное высказывание, которое существует в реальной ситуации общения. Речевой образец не ограничивается только грамматической правильностью; он включает в себя все те дополнительные элементы, которые делают речь живой и адаптированной к конкретному контексту. Это может быть не только соблюдение синтаксических и морфологических правил, но и выбор лексики, интонация, акценты, а также социально-культурные особенности, влияющие на форму и содержание высказывания.

Речевой образец может принимать различные формы в зависимости от того, в каком контексте он используется. Например, в научной речи одним из наиболее характерных признаков будет высокая степень формальности, в то время как в повседневной речи — разговорные выражения, которые могут отойти от строгих грамматических норм. В рамках общения один и тот же грамматический каркас может приобретать разные формы, соответствующие различным целям и задачам. Речевой образец — это всегда высказывание, которое находится в контексте конкретной ситуации, его можно рассматривать как результат коммуникативной деятельности говорящего и слушающего.

Кроме того, речевой образец демонстрирует, как грамматическая модель работает в условиях реальной коммуникации. Он показывает, как теоретические правила языка применяются для решения практических задач, таких как передача информации, выражение эмоций, установление контакта с собеседником или воздействие на аудиторию. Речевой образец может быть как одиночным высказыванием, так и целым текстом, который имеет свою организацию и структуру.

Когда мы говорим о речевых образцах, нельзя забывать о контексте, в котором эти высказывания

происходят. Контекст может включать в себя не только факты, происходящие в момент общения, но и культурные, исторические и социальные особенности, влияющие на выбор тех или иных грамматических конструкций. Таким образом, речевой образец является результатом сложного взаимодействия разных факторов — от грамматических правил до социальных норм и ожиданий.

Несмотря на то, что грамматическая модель и речевой образец представляют собой два разных аспекта языка, они тесно взаимосвязаны. Грамматическая модель предоставляет основу для того, чтобы строить высказывания, соблюдая определённые грамматические правила. Эти правила помогают организовывать слова и фразы в логичную и понятную структуру, которая может быть воспринята слушателями или читателями.

Речевой образец, в свою очередь, демонстрирует, как эти правила могут быть использованы в конкретных коммуникативных ситуациях. Грамматическая модель, как правило, является более универсальной, и её основные принципы остаются неизменными, в то время как речевой образец может значительно варьироваться в зависимости от контекста. При этом важно отметить, что в реальной речи часто происходит отклонение от строгих грамматических норм — в силу стилистических особенностей, влияния социальных факторов, а также для передачи личных эмоций и отношения к ситуации.

Понимание того, как соотносятся грамматическая модель и речевой образец, играет важнейшую роль в процессе обучения русскому языку как иностранному. Знание грамматических правил помогает учащимся строить правильные предложения и применять различные грамматические формы, но, чтобы эффективно общаться на языке, нужно уметь использовать эти формы в реальных ситуациях общения.

Обучение грамматике на начальном этапе помогает освоить структуру языка и научиться правильно формировать предложения. Однако истинное овладение языком возможно только тогда, когда учащиеся начинают применять грамматические модели на практике, создавая речевые образцы, которые отвечают требованиям реальных коммуникаций.

Заключение и предложения. Таким образом, понимание взаимосвязи между грамматической моделью и речевым образцом необходимо для успешного изучения русского языка как иностранного. Грамматическая модель служит для систематизации правил языка, а речевой образец — для их применения в реальных коммуникативных ситуациях. Вместе эти два аспекта образуют целостное представление об изучаемом языке как о живой, динамичной системе, которая служит средством общения и самовыражения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Данилевская Н. В., Тихомирова Л. С. Речевой образец в сфере образования // всероссийский филологический форум. – 2021. – С. 184-196.
2. Комовская Е. В. Грамматические модели в преподавании русского как иностранного (РКИ) // Научное обеспечение развития АПК в условиях импортозамещения. – 2020. – С. 232-236.
3. Комовская Е. В. Акциональные и адвербальные метамодели в преподавании русского как иностранного (рки) // лучшая научно-инновационная работа 2020. – 2020. – С. 119-127.
4. Саньярова Н. С. Структурно-грамматические модели обособленных согласованных определений, выраженных одиночными редуцированными прилагательными // Рефлексия. – 2019. – № 3. – С. 37-42.
5. Сердарова М. Речевой образец как средство развития навыков говорения на начальном этапе обучения английскому языку // современные условия интеграционных процессов в науке. – 2022. – С. 142.
6. Талецкая Т. Н., Айзатулина С. И. Речевой образец как средство обучения говорению на изучаемом языке. – 2014.
7. Шарафутдинов Д. Р. К построению продуктивно-грамматической модели номинализаций в русском языке // Известия Уральского государственного университета. 2004. N 33. – 2004.



UDK:330.2

Maftuna NAMOZOVA,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

E-mail: m.namozova@gmail.com

NamMQI PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

JAMIYAT TARAQQIYOTINI IZDAN CHIQRARISHGA QARATILGAN RADIKAL G'OYALARNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Annotsiya

Ushbu maqolada radikal g'oyalarning turli shakllari, ularning turlari, radikal g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar o'rganilgan va chuqur tahlil qilingan. Shuningdek radikalizmni jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Diniy radikalizm, siyosiy radikalizm, yekologik radikalizm, siyosiy radikalizm, texnologik radikalizm, ijtimoiy radikalizm, ta'lim radikalizmi, salbiy ta'sir, omillar.

MANIFESTATION OF RADICAL IDEAS AIMED TO DESTROY SOCIETY'S DEVELOPMENT

Annotation

This article studies and deeply analyzes various forms of radical ideas, their types, factors causing the emergence of radical ideas. It also analyzes the negative impact of radicalism on the development of society.

Key words: Religious radicalism, political radicalism, environmental radicalism, political radicalism, technological radicalism, social radicalism, educational radicalism, negative impact, factors.

ПРОЯВЛЕНИЯ РАДИКАЛЬНЫХ ИДЕЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА ПОДРЫВ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье изучаются и глубоко анализируются различные формы радикальных идей, их виды, факторы, вызывающие возникновение радикальных идей. Также анализируется негативное влияние радикализма на развитие общества.

Ключевые слова: Религиозный радикализм, политический радикализм, экологический радикализм, политический радикализм, технологический радикализм, социальный радикализм, образовательный радикализм, негативное воздействие, факторы.

Kirish. Jamiyat davlatning asosiy suyanadigan kuchidir. Davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan gullab yashnashi ham bevosita shu jamiyat a'zolarining harakatiga bog'liq. Shunday ekan jamiyat ichida harakatga kelgan har qanday buzg'unchi g'oyalar uning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, diniy fundamentalizm, terrorizm, ekstremizm, mutaassiblik kabi buzg'unchi g'oyalar radikallashuvning avj olishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy kasallikdir. Bu kasallik jamiyatning turli yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitetini susaytirish bilan bir qatorda jamiyat hayotini izdan chiqarishga sabab bo'ladi. Sababi radikalizm – muttasiblikning bir ko'rinishi bo'lib murosani inkor etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugun jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarishga qaratilgan radikal g'oyalarning namoyon bo'lish shakllari va ko'rinishlari juda ko'p va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Radikalizmning tahdid darajasi uning shakli, masshtabi, ta'sir doirasiga qarab belgilanadi. Shuningdek, qachonki radikalizm mintaqaviy va global xarakterga ega bo'lsa uning tahdid darajasi oshadi. Radikalizm muayyan millat, jamiyat, davlatga bog'liq emas. U mafkuraviy virus sifatida bugungi globalizatsiya sharoiti va integratsiya jarayonlarida muayyan hudud bilan chegaralanmaydi. Bu g'oyalarni aniqlash va ularga qarshi kurashish jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Ba'zi bir o'rganilgan adabiyotlarga ko'ra radikalizmni ikki turga ajratiladi: ijtimoiy radikalizm va siyosiy radikalizm [1]. Ammo jamiki o'rganilgan va tahlil qilingan adabiyotlarga asoslanib biz radikalizmi boshqa turlari mavjud bo'lib, ularni tadqiqot ishimizda quyidagi tartibda berishni ma'qul ko'rdik:

Siyosiy radikalizm,
Ijtimoiy radikalizm,
Madaniy radikalizm,
Texnologik radikalizm,
Ekologik radikalizm,
Iqtisodiy radikalizm,
Ta'lim radikalizm,

Diniy radikalizm kabi barcha qarashlar va g'oyalarning haddan tashqari keskin, radikal talqin qilishdan iborat.

Ayni vaqtda radikallashuvning asosiy ko'rinishi sifatida siyosiy, diniy radikalizm namoyon bo'lmoqda. Diniy radikalizm katta buzg'unchilik kuchiga ega, chunki u jamiyat uchun muhim bo'lgan qadriyatlar va munosabatlarni shubha ostiga qo'yadi, ijtimoiy va diniy aqidaparastlik uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida odamlarni noqonuniy xatti-harakatlar sodir etadi va radikal g'oyalar ortidan turli salbiy oqibatlar vujudga keladi [2].

Diniy mazmunga ega, shu bilan bir qatorda siyosiy radikalizmga yo'naltirilgan diniy tashkilotlar yoki dindorlikning muayyan belgilariga ega bo'lgan tashkilotlar konstitutsiyaviy tuzum asoslarini kuch bilan o'zgartirishni, milliy va diniy adovat va nizolarni qo'zg'atishni hamda boshqa ekstremistik faoliyatni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi ham mumkin.

Diniy radikalizm - diniy e'tiqod, qarashlar va g'oyalarning haddan tashqari keskin, radikal talqini bilan tavsiflanadi. Diniy radikalizm muayyan diniy ta'limotlarga qat'iy rioya qilishni targ'ib qiladi. Dunyoviy hayot, zamonaviy turmush tarzini inkor etishlari va hatto ba'zan o'z diniy qarashlari, diniy fundamentalizm bilan bog'liq qarashlar va mafkuralarni targ'ib qilish uchun turli darajada tazyiq va zo'ravonlik qilishlari ham mumkin. Asosan bunday diniy e'tiqod bilan bog'liq qarashlar — niqoblangan ekstremistik qarashlarga ega bo'lgan shaxs ongini va shurini tubdan buzg'unchi o'zgartirishni nazarda tutuvchi radikal ta'limotga asoslangan, zo'ravonlik xarakteridagi noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etish zarurligi g'oyasidir.

Barcha diniy an'ana va ta'limotlar radikallashuvdan holi emas. Ammo bugungi kunda ijtimoiy siyosiy omillar va tarixiy shart sharoitlar, makon va zamon bilan bog'liq holatlar tufayli islomning radikallashuvi dolzarb hisoblanadi. Islom dinini ekstremizm va terrorizm yoki boshqa noqonuniy harakatlar bilan ajratib ko'rsatish mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas.

Shu bilan birga, Islom dunyodagi eng yosh jahon dini va e'tiqod qiluvchilar soni bo'yicha eng katta dinlardan biri hisoblanadi. Aynan islomning dunyoda mashhurligi, shuningdek,

islom diniga e'tiqod qiluvchi sayyorimiz aholisining ko'plab mintaqaviy va global to'qnashuvlar va urushlarda ishtirok etishi islom dini bilan bog'liq radikalizmda va diniy radikalizmning ekstremistik va terroristik harakatlariga sabab bo'lishda namoyon bo'lmoqda [3].

Shu o'rinda, diniy motivdan siyosiy maqsadlarda foydalanish radikalizm harakatida markaziy o'rin egallaydi. Ma'no va mazmun konteksti o'zgartirilgan istalgan diniy e'tiqod bir butun bo'lib, undagi alohida fikr va jumlar yulib olinadi va ommaga taqdim etiladi. Bu taqdimotlarda internet tarmog'lar asosiy o'rinni egallaydi. Ularni boshqa kontekstga o'zgartirish mazmun va ma'no deformatsiyasiga olib keladi. Sof diniy aqidaga nisbatan qarama-qarshi munosabatda bo'lgan ko'pchilik radikal va ekstremistik guruhlar faoliyati aynan shu tamoyil doirasida tuziladi va unga amal qiladi.

Natijalar va muhokama. Dinlarning bag'rikenglik tamoyiliga zid bo'lgan va tinchlikni targ'ib qiluvchi, ilm dini bo'lgan islom nuqtai nazaridan boshqa diniy aqida va konfessiyalarga nisbatan toqatsizlik, ularni iymon kategoriyasida tanqid ostiga olish, ularga salbiy munosabatda bo'lish, va hattoki, ularni ma'naviy va jismoniy yo'q qilishga qaratilgan yondashuv g'oyaviy buzilish ekanidan dalolat beradi. Radikallar ana shu aqidaviy ta'limotlarni turlicha talqin qilish orqali o'zlarining "xos" mafkurasini yaratadi. Aqidaning buzilishi, turli diniy chaqiriqlarning yuzaga kelishi ortidan unga ergashuvchilarning soni ortib borishi jiddiy ijtimoiy tahdid sifatida ko'riladi. Radikalizmga keng yo'l ochuvchi targ'ibotda targ'ibotchilar insonning eng nozik diniy e'tiqot bilan bog'liq hislarini chertishadi

Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, radikalizm targ'ibotida asosiy o'rinni unga ergashuvchilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir etuvchi omillar egallaydi. Bular ijtimoiy voqe'likni haqqoniy va to'g'ri ang'aymaslik, radikal g'oyalarga ko'r-ko'rona ergashishdir. Ekstremizmning targ'ibot va tashviqotlarida ijtimoiy voqe'likni yangilash, yashiringan manfaatlar qobig'ida, siyosiy harakatlar maqsadlari yo'nalishida singdiriladi. Natijada ekstremistik g'oyalar qurboni bo'lgan shaxs terrorchiga, uning g'arazli maqsadlarini amalga oshiradigan manqurtga aylanadi. Terrorizm va ekstremizm mafkurasida asosida dunyoni inkor etish g'oyasi mavjudligi buni yorqin misolidir.

Shu ma'noda radikalizm keskin ideologiyaga ega bo'lib, agressiv xarakter kasb etadi va ekstremistik qarashlarni bayon etadi va oxir-oqibatda terrorizmga olib kelishi mumkin. Bunday shaklga ega radikallar noqonuniy guruhlar, jinoiy elementlar, ekstremistik qarashlarga ega tashkilot sifatida faoliyat yuritadi va jamiyat, davlat, mintaqa xavfsizligiga sezilarli darajada tahdid soladi. Ta'kidlash joizki, ayrim hollarda, qonuniy tashkilotlar, siyosiy boshqaruv vakillari ham radikal kayfiyatdagi faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Radikalizmning murakkab shakllaridan biri umum qabul qilingan me'yorlardan chiqish, manfaatlar to'qnashuvi, g'oyaviy qarashlar nomuvofiqligi yuz berganda, nafaqat bag'rikenglik, balki insoniy fazilatlar e'tibordan chetda qoladi. Har qanday hodisa va jarayonlar sodir bo'lishining aniq sabab va faktorlarga tayanishi uning radikal asosini anglashning muhim talabi hisoblanadi. Shu sababdan radikal g'oyalarni tushunish va ularga nisbatan tanqidiy fikrlash muhimdir, chunki ular jamiyatning rivojlanishiga va o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'rganilgan adabiyotlar va tahlil qilingan tadqiqotlarga ko'ra radikal g'oyalar quyidagi sabablar orqali paydo bo'lishi mumkin: Bularga ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, mafkuraviy

bo'shliq hamda globallashuv jarayonlari orqali radikal g'oyalarning tez tarqalishi mumkin.

Shuningdek radikalizmning shakllanishiga sabab bo'luvchi omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

bolalikdagi tarbiya tipi (avtoritar, ezuvchi, shubhali, nazorat qiluvchi, "oila kumiri" tipi bo'yicha yoki hech qanday nazoratsiz, hamma narsaga ruxsat etilgan va boshqalar.);

shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyatlari (o'ziga past baho berish, o'zining ustuvor ehtiyojlari, nuqtai nazari, g'oyalari, psixologik himoya, nevrotizm, harakatsizlik mexanizmlari);

keskin vaziyatlarda xulq-atvorning vayron qiluvchi, yemiruvchi va o'ziga qaratilgan strategiyasi;

shaxs ongining buzilishi: tobelik, xavotirlik, qo'rqoqlik, hasadgo'ylik, mutakabbirlik;

faqat o'z manfaatlarini yuqori qo'yish ortidan egoistik xulqning shakllanishi, atrofdegilarga nisbatan hudbin munosabatning yuzaga kelishi.

Radikalizm illatining salbiy ta'sirlari itimoiy, iqtisodiy va xalqaro munosabatlarda ham o'zini yaqqol ko'rsatadi.

Jumladan,

1. Iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri:

- Investision muhitning yomonlashuvi
- Turizm sohasining zarar ko'rishi
- Iqtisodiy resurslarning xavfsizlikka sarflanishi

2. Ijtimoiy sohadagi ta'siri:

- Jamiyatda qo'rquv va ishonchsizlik muhitining paydo

bo'lishi

- Millatlararo va dinlararo ziddiyatlarning kuchayishi

- Yoshlarning taraqqiyot jarayonlaridan chetlashishi

3. Xalqaro munosabatlarga ta'siri:

- Mamlakatning xalqaro imidjiga putur etishi

- Xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining cheklanishi

- Mintaqaviy barqarorlikka tahdidlar shular

jumlasidandir.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak radikalizm mazmun-mohiyatiga ko'ra, global muammolardan biri. Bugungi kundagi globallashuv va texnika taraqqiyoti radikalizm va ekstremizm singari ijtimoiy tahdidlarni umumjahon muammasiga aylantirib ulgurdi.

Davlat rahbari bu jarayonni "...ekstremizm bilan bog'liq tahdidlar transmilliy xarakterga ega bo'lib, bu illat o'z xavfining ko'lami bo'yicha butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Bu faqat mahalliy yoki mintaqaviy muammo bo'lib qolmay, paydo bo'lishi va rivojlanish xususiyatlari, maqsad va vazifalari, tashkiliy tuzilishi va faoliyati, psixologik va ijtimoiy shakllari jihatidan global hodisaga aylangan", deb ta'kidladi. U bilan kurashish xalqaro hamjamiyat hamkorligining dolzarb vazifalaridan biridir.

Xususan rus tadqiqotchisi I.Vasilenko "...Jahon davlatlarining hech birining harbiy qudrati radikal mafkuralarni iqtisod va qurol kuchi bilan bartaraf etishga qodir emas. Radikalizm va ekstremizm mohiyati biz o'ylagandan, tasavvur qilgandan ham kengroq ijtimoiy hodisadir. Uning mafkuraviy asoslari insonlar guruhini o'z domiga tortish borasida har qanday siyosiy targ'ibotdan kuchliroq qudratga ega" deb izohlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki bugungi inson va qalbi uchun kurash avj olgan pallada yoshlarni buzg'unchi g'oyalar va ijtimoiy tahdidlardan himoya qilish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va tahdidbardosh yoshlarni tayyorlash bizning oldimizda turgan muhim vazifalarimizdan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Осипов В.Г. Радикализм, экстремизм и терроризм. К методологии проблематизации.//Из-во "Институт философии, социологии и права", г.Ереван, Армения, 2022 г., 55-бет.
2. Криминологический анализ угроз экстремистского характера в Крымском федеральном округе: монография / А. Н. Игнатов, А. А. Кашкаров, Д. В. Новиков. Симферополь: Крымский филиал Краснодарского университета МВД России, 2016. – 208 с.
3. Игнатов А.Н., Абисова К.С. Религиозная радикализация мест принудительного содержания как фактор экстремизма и терроризма //Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И.Вернадского. Юридические науки. – 2019. – Т. 5. – №. 3. – С. 136-144.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги "Терроризмга карши курашиш тўғрисида"ги қонуни. 2-модда
5. Ўзбекистон Республикаси ИИВ ТЭКББнинг "Ёшларнинг экстремистик ғоялар таъсирига тушиб қолишининг олдини олиш" Услубий қўлланмаси - Тошкент-2019.

6. Мухаммад Амин Яхё “Интернетдаги тахдидлардан химоя”: Ёрдамчи ўқув қўлланмаси. Тошкент-2016.



Xayrulla NISHONOV,
I.Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar institutining birinchi prorektori
E-mail: nishonovxayrulla@mail.ru

DSc, professor O.Hamidov taqrizi asosida

MA'NAVIY-MA'RIFIY JARAYON VA KORPORATIV MADANIYAT O'ZARO BOG'LIQLIGI: MULOQOT, MEHNAT MUNOSABATLARI, QADRIYATLAR

Аннотация

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning integratsiyalashuvi korporativ madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola uchta asosiy o'lchovni ko'rib chiqish orqali ushbu jarayonlar o'rtasidagi dinamik aloqani o'rganadi: aloqa, mehnat munosabatlari va qadriyatlar. Samarali muloqot shaffoflik va o'zaro hurmatni ta'minlaydi, axloqiy tamoyillarga asoslangan mehnat munosabatlari hamkorlikni mustahkamlaydi. Tashkilot bo'ylab taqsimlangan qadriyatlar yaxlit va mustahkam korporativ madaniyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu o'lchovlarni tahlil qilib, maqola ma'naviy va ma'rifiy maqsadlarni korporativ madaniyat bilan uyg'unlashtirish, boyitilgan akademik muhitga hissa qo'shish strategiyalarini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy jarayon, ta'lim jarayoni, korporativ madaniyat, muloqot, mehnat munosabatlari, qadriyatlar, oliy ta'lim.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И KORPORATIVNOY KULTURY: OBYEKTIVNOE, TRUDOVYE OTHOJENIYA, CENNOCTI

Аннотация

Интеграция духовного и образовательного процессов в высших учебных заведениях оказывает существенное влияние на формирование и развитие корпоративной культуры. В этой статье исследуются динамические отношения между этими процессами, исследуя три ключевых измерения: общение, рабочие отношения и ценности. Эффективное общение обеспечивает прозрачность и взаимное уважение, а этические рабочие отношения укрепляют сотрудничество. Ценности, разделяемые во всей организации, служат основой сплоченной и сильной корпоративной культуры. Анализируя эти аспекты, в статье освещаются стратегии согласования духовных и образовательных целей с корпоративной культурой, способствующие обогащению академической среды.

Ключевые слова: Духовный процесс, образовательный процесс, корпоративная культура, общение, трудовые отношения, ценности, высшее образование.

THE INTERRELATIONSHIP OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL PROCESSES AND CORPORATE CULTURE: COMMUNICATION, LABOR RELATIONS, VALUES

Аннотация

The integration of spiritual and educational processes in higher education institutions has a significant impact on the formation and development of corporate culture. This article examines the dynamic relationship between these processes by examining three key dimensions: communication, labor relations, and values. Effective communication ensures transparency and mutual respect, and labor relations based on ethical principles strengthen cooperation. Values distributed throughout the organization serve as the basis for a coherent and strong corporate culture. Analyzing these dimensions, the article highlights strategies for integrating spiritual and educational goals with corporate culture, contributing to an enriched academic environment.

Key words: Spiritual process, educational process, corporate culture, communication, labor relations, values, higher education.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar va korporativ madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. OTMlar akademik mukammallikni yaxlit rivojlanish bilan muvozanatlashga intilayotgani sababli, ushbu yelemntlarning korporativ madaniyatga ta'sirini tushunish juda muhim bo'lib qoladi. Ushbu kontekstda korporativ madaniyat tashkilotning o'ziga xosligini va operatsion samaradorligini shakllantiradigan umumiy qadriyatlar, muloqot amaliyoti va mehnat munosabatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqola muloqot, mehnat munosabatlari va umumiy qadriyatlar ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar va korporativ madaniyat o'rtasidagi munosabatlarda vositachilik qilishini o'rganadi va OTMlar uchun amaliy tushunchalarni taklif qiladi. Ma'naviy-ma'rifiy jarayon va korporativ madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik muloqot, mehnat munosabatlari va umumiy qadriyatlar gullab-yashnaydigan uyg'un muhitni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ham ta'lim, ham korporativ sharoitlarda bu yelemntlar shaxsiy va tashkiliy o'sishning asosini tashkil qiladi. Olimlarning ta'kidlashicha, ma'naviy-ma'rifiy jarayon va korporativ madaniyat o'rtasidagi simbiotik munosabatlar axloqiy rivojlanishni kuchaytiradi, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi, individual va jamoaviy maqsadlarni uyg'unlashtiradi. Ma'naviy-ma'rifiy jarayon deganda shaxsning

yaxlit rivojlanishi tushuniladi, u intellektual o'sishni, axloqiy fikrlashni va madaniy ongini o'z ichiga oladi. Yedgar SHEyning fikriga ko'ra, "Ta'limdagi ma'naviy o'lchov xatti-harakatlar va qarorlar qabul qilishga ta'sir qiluvchi ichki qadriyatlar va umumiy ye'tiqodlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi"[1]. Ushbu jarayonlar jamiyat va tashkilotlarga ijobiy hissa qo'sha oladigan shaxslarni shakllantirishda asosiy hisoblanadi. Boshqa tomondan, korporativ madaniyat tashkilot ichidagi umumiy qadriyatlar, meyorlar va amaliyotlar sifatida aniqlanadi. Bu shaxslarning qanday o'zaro munosabati va birgalikda ishlashini boshqaradi. Geyert Xofstede tushuntirganidek, "Korporativ madaniyat - bu bir tashkilot a'zolarini boshqasidan ajratib turadigan aqlning jamoaviy dasturlashidir"[2]. Ushbu ikki sohaning yaqinlashishi ta'lim va ish joyidagi qadriyatlar, axloq va shaxslararo munosabatlarning rolini ta'kidlaydi.

Muloqot. Bo'shliqni bartaraf yetish. Samarali muloqot ham ma'naviy-ma'rifiy jarayonning, ham korporativ madaniyatning asosi hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida muloqot fikr almashishni osonlashtiradi, o'zaro hurmat va tushunish madaniyatini rivojlantiradi. Tashkilotlarda u shaxsiy maqsadlarni korporativ maqsadlarga muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

Ochiq dialog. Ochiq va oshkora muloqot ma'naviy-ma'rifiy yuksalish uchun zarurdir. U axloqiy masalalar, madaniy xilma-xillik va shaxsiy rivojlanish bo'yicha muloqotni

rag'batlantiradi. Xuddi shunday, korporativ madaniyatda ochiq muloqot ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi. Jon Kotter ta'kidlaydi: "Qadriyatlar va umidlar haqida aniq muloqot individual xatti-harakatlar va tashkilot maqsadlari o'rtasida uyg'unlikni keltirib chiqaradi"[3]. Ikkala sohada ham samarali muloqot axloqiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va nizolarni hal qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Hikoyalar madaniy vosita sifatida. Storytelling ham ma'naviy-ma'rifiy, ham korporativ kontekstda kuchli muloqot vositasidir. Ta'limda u axloqiy saboqlar va madaniy merosni yetkazadi. Tashkilotlarda u korporativ identifikatsiya va qadriyatlarini mustahkamlaydi. B. Denning ta'kidlaydi: "Hikoyalar tashkilot madaniyatining mohiyatini bayon qiladi va xodimlarni uning qadriyatlariga mos ravishda harakat qilishga undaydi"[4].

Qayta aloqa mexanizmlari. Fikr-mulohaza shaxsiy va tashkilotning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Ta'limda konstruktiv fikr-mulohazalar o'rganish va o'z-o'zini anglashni kuchaytiradi. Korporativ madaniyatda u o'sish tafakkurini va doimiy takomillashtirishni rivojlantiradi. Piter Druker ta'kidlaganidek, "Samarali qayta aloqa individual salohiyat va tashkilotning kutganlari o'rtasidagi farqni yo'q qiladi"[5].

Mehnat munosabatlari ham ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar, ham korporativ madaniyat uchun ajralmas hisoblanadi. Hurmat, adolat va hamkorlik tamoyillari sog'lom mehnat munosabatlariga asos bo'lib, hamjihatlik va g'ayratli jamiyatga hissa qo'shadi.

1. Axloqiy yyetakchilik. Axloqiy yetakchilik ikkala sohada ham ijobiy mehnat munosabatlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Axloqiy xulq-atvorni o'lchaydigan rahbarlar halollik madaniyatining ohangini belgilaydilar. Yedgar SHeynning ta'kidlashicha, "Liderlar tashkilot madaniyatining me'morlari bo'lib, o'zlarining xatti-harakatlari va qarorlari orqali qadriyatlar va xatti-harakatlarga ta'sir qiladilar"[6]. Ta'limda o'qituvchilar o'quvchilarning axloqiy rivojlanishini shakllantiradigan namuna bo'lib ishlaydi. Tashkilotlarda adolat va hurmatni birinchi o'ringa qo'yadigan rahbarlar xodimlar o'rtasida ishonch va sadoqatni mustahkamlaydi.

2. Hamkorlik va jamoaviy ish. Hamkorlik ham ta'lim, ham korporativ muhitda mehnat munosabatlarida markaziy o'rin tutadi. Jamoada ishlash o'zaro tushunish, umumiy maqsadlar va jamoaviy muvaffaqiyatga yordam beradi. Lencioni ta'kidlaganidek, "Hamkorlik samarali jamoalarning asosi va kuchli korporativ madaniyatning o'ziga xos belgisidir"[7]. Ta'limda guruh loyihalari va muhokamalar o'quvchilarga birgalikda ishlashning ahamiyatini o'rgatadi. Tashkilotlarda hamkorlik madaniyati innovatsiyalar va muammolarni hal qilishga yordam beradi.

3. Nizolarni hal qilish. Har qanday jamoada ziddiyat muqarrar, ammo uni hal qilishda yondashuv asosiy madaniyatni aks yettiradi. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda nizolarni hal qilish yempatiya, faol tinglash va murosaga o'rgatadi. Xuddi shunday, korporativ madaniyatda nizolarni konstruktiv tarzda hal qilish uzoq muddatli uyg'unlikni ta'minlaydi. R.Fisher va V.Uri shunday ta'kidlaydilar: "Prinsipial muzokaralar orqali mojarolarni hal qilish qobiliyati munosabatlarni mustahkamlaydi va ishonchni kuchaytiradi"[8].

Umumiy qadriyatlar ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar va korporativ madaniyat o'rtasidagi ko'prikdir. Bu qadriyatlar xulq-atvorni boshqaradi, qaror qabul qilishni shakllantiradi va jamiyat yoki tashkilotning axloqiy asoslarini belgilaydi.

Yaxlitlik va Xilma-xillikni hurmat qilish. Halollik ta'limda ham, korporativ madaniyatda ham asosiy qadriyat hisoblanadi. Bu halollik, javobgarlik va axloqiy tamoyillarga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ta'limda talabalarga akademik halollik va axloqiy xulq-atvor muhimligi o'rgatiladi. Tashkilotlarda halollik ishonch va ishonchni mustahkamlaydi. Stiven Kovi ta'kidlaganidek, "Yaxshilik - bu ishonchning asosidir, bu samarali yyetakchilik va tashkilot muvaffaqiyati uchun zarurdir"[9]. Turli xillikni hurmat qilish bugungi o'zaro bog'liq dunyoda juda muhimdir. Ma'naviy-ma'rifiy jarayon madaniy farqlarni tushunish va qadrlashga, shaxslarni global fuqarolikka tayyorlashga urg'u beradi. Xuddi shunday, korporativ madaniyat ijodkorlik va innovatsiyalarni boshqaradigan turli nuqtai nazarlardan foyda oladi. A. Tomas ta'kidlaydi: "Xilma-xillik ham ta'lim tajribasini, ham tashkiliy natijalarni boyitib, inklyuzivlik va hamkorlikni rag'batlantiradi"[10].

Ijtimoiy javobgarlik. Ijtimoiy mas'uliyat ta'lim va korporativ madaniyatni bog'laydigan umumiy qadriyatdir. Ta'lim muassasalari o'quvchilarda fuqarolik burchi va atrof-muhitni muhofaza qilish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Tashkilotlarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KSS) tashabbuslari jamiyat farovonligiga sodiqlikni namoyish yetadi. Maykl Porterning ta'kidlashicha, "O'z qadriyatlarini ijtimoiy yehtiyotlar bilan uyg'unlashtirgan tashkilotlar biznes va jamiyatga foyda keltiradigan umumiy qiymat yaratadi"[11].

Bir umrlik ta'lim. Butun umr bo'yi ta'limning ahamiyati ma'naviy-ma'rifiy va korporativ kontekstlarga kiritilgan. Ta'lim shaxslarni doimiy shaxsiy va kasbiy o'sishga tayyorlaydi. O'rganishni birinchi o'ringa qo'yadigan tashkilotlar innovatsiya va moslashuvchanlikni qo'llab-quvvatlaydi. Piter Senge ta'kidlaganidek, "O'quv tashkilotlari o'zlari xohlagan natijalarni yaratish uchun o'z imkoniyatlarini doimiy ravishda kengaytiradigan tashkilotlardir"[12].

Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar va korporativ madaniyat o'rtasidagi munosabatlar simbiotikdir. Ta'lim muassasalari odamlarning ish joyida olib boradigan qadriyatlarini, muloqot qobiliyatlarini va axloqiy asoslari uchun inkubator vazifasini bajaradi. Aksincha, tashkilotlar bu qadriyatlarini o'z madaniyatlarini orqali mustahkamlab, shaxslarning umrbod axloqiy va kasbiy o'sishiga hissa qo'shadilar. Bu sinergiya odamlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish uchun juda muhimdir. Geyert Xofstede xulosa qilganidek, "Ta'lim va ish joyidagi madaniy o'lchovlarning kesishishi odamlarning o'zaro ta'siri va yutuqlarining yaxlit ko'rinishini shakllantiradi"[13].

Xulosa. Ma'naviy-ma'rifiy jarayon va korporativ madaniyat o'rtasidagi munosabatlar chuqur o'zaro bog'liq bo'lib, muloqot, mehnat munosabatlari va qadriyatlariga umumiy ye'tibor qaratiladi. Yedgar Schein, Geyert Hofstede va Piter Druker kabi olimlar axloqiy, hamkorlik va innovatsion muhitni shakllantirishda ushbu aloqalarning muhimligini ta'kidladilar. Ochiq muloqotni rivojlantirish, axloqiy mehnat munosabatlarini rivojlantirish va qadriyatlarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim muassasalari ham, tashkilotlar ham individual va jamoaviy muvaffaqiyatlarni qo'llab-quvvatlovchi jamoalarni yaratishi mumkin. Ushbu uyg'unlik zamonaviy hayotning murakkabliklarida harakat qilish va shaxslar va tashkilotlar uchun barqaror o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Schein, E. H. "The role of the founder in creating organizational culture." *Organizational Dynamics*, Summe (1983).
2. Hofstede, Geert. "Dimensionalizing cultures: The Hofstede model in context." *Online readings in psychology and culture* 2.1 (2011): 8.
3. Kotter, John P. *Corporate culture and performance*. Simon and Schuster, 2008.
4. Denning, Brannon P. "Reconstructing the dormant commerce clause doctrine." *Wm. & Mary L. Rev.* 50 (2008): 417.
5. Drucker, Peter Ferdinand. *Classic Drucker: essential wisdom of Peter Drucker from the pages of Harvard Business Review*. Harvard Business Press, 2006.
6. Schein, Edgar H. "Culture: The missing concept in organization studies." *Administrative science quarterly* (1996): 229-240.
7. Lencioni, Patrick M. "Make your values mean something." *Harvard business review* 80.7 (2002): 113-117.
8. Fisher, Roger, William L. Ury, and Bruce Patton. *Getting to yes: Negotiating agreement without giving in*. Penguin, 2011.
9. Covey, Stephen R. *The 7 habits of highly effective people*. Simon & Schuster, 2020.
10. Sharma G. D., Thomas A., Paul J. *Reviving tourism industry post-COVID-19: A resilience-based framework //Tourism management perspectives*. – 2021. – T. 37. – C. 100786.

11. Porter M. E. The five competitive forces that shape strategy //Harvard business review. – 2008. – Т. 86. – №. 1. – С. 78.
12. Senge, Peter. "Peter Senge and the learning organization." Dimension 14 (1990).
13. Hofstede G. Dimensionalizing cultures: The Hofstede model in context //Online readings in psychology and culture. – 2011. – Т. 2. – №. 1. – С. 8.



Feruzaxonim NURMUXAMEDOVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nurlihayot@gmail.com

TATU professori, p.f.b.d. F.Zakirova taqrizi asosida

THE METHOD OF PROCESSING THE INCREASE OF LOADING FROM THE LIBRARY USING RFID AND VR TECHNOLOGY IN THE RESOURCE CENTERS

Аннотация

The use of RFID (Radio Frequency Identification) and VR (Virtual Reality) technologies in the library system is an innovative approach aimed at managing modern information resources and improving the quality of user service. This methodology covers the methods of using RFID technology for automated organization of library funds, rapid identification of books, protection against theft, and implementation of a self-service system. Also, VR technology provides users with the opportunity to create a virtual library environment, distance learning, and interactive knowledge. The methodology covers the processes of implementing these technologies, their advantages, and their impact on the activities of libraries.

Key words: RFID system, VR technology, chips, QR code, virtual library, electronic library, VR glasses.

МЕТОДИКА ОБРАБОТКИ УВЕЛИЧЕНИЯ ЗАГРУЗКИ ИЗ БИБЛИОТЕКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ RFID И VR-ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСУРСНЫХ ЦЕНТРАХ

Аннотация

Использование технологий RFID (радиочастотная идентификация) и VR (виртуальная реальность) в библиотечной системе является инновационным подходом, направленным на управление современными информационными ресурсами и повышение качества обслуживания пользователей. Данная методология охватывает методы использования технологии RFID для автоматизированной организации библиотечных фондов, быстрой идентификации книг, защиты от краж и внедрения системы самообслуживания. Также технология VR предоставляет пользователям возможность создания виртуальной библиотечной среды, дистанционного обучения и интерактивных знаний. Методология охватывает процессы внедрения данных технологий, их преимущества и влияние на деятельность библиотек.

Ключевые слова: RFID-система, технология виртуальной реальности, чипы, QR-код, виртуальная библиотека, электронная библиотека, очки виртуальной реальности.

AXBOROT RESURS MARKAZLARIDA RFID VA VR TEXNOLOGIYALARINI QO'LLAB KUTUBXONADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Аннотация

RFID (Radio Frequency Identification) va VR (Virtual Reality) texnologiyalarining kutubxona tizimida qo'llanilishi zamonaviy axborot resurslarini boshqarish va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Ushbu metodikada RFID texnologiyasidan kutubxona fondlarini avtomatlashtirilgan tartibga solish, kitoblarni tezkor identifikatsiya qilish, o'g'irlikdan himoya qilish hamda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tizimini joriy etishda foydalanish usullari yoritiladi. Shuningdek, VR texnologiyasi orqali foydalanuvchilarga virtual kutubxona muhiti yaratish, masofaviy ta'lim va interaktiv bilim olish imkoniyatlari taqdim etiladi. Metodika ushbu texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlari, ularning afzalliklari va kutubxonalar faoliyatiga ta'sirini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: RFID tizim, VR texnologiya, chiplar, QR kod, virtual kutubxona, elektron kutubxona, VR ko'zoynak.

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi kutubxona tizimlarini avtomatlashtirish va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirishga keng imkoniyat yaratmoqda. RFID (Radio Frequency Identification) va VR (Virtual Reality) texnologiyalarining kutubxonalarda qo'llanilishi axborot resurslarini samarali boshqarish, kutubxona jarayonlarini tezkor va qulay tashkil etish hamda foydalanuvchilar uchun innovatsion xizmat turlarini taqdim etishga xizmat qiladi.

RFID texnologiyasi kitoblarni avtomatik identifikatsiya qilish, hisobga olish, qidirish va xavfsizlikni ta'minlash jarayonlarini soddalashtiradi. Bu tizim kutubxonachilar ish yukini kamaytirish bilan birga, o'quvchilarga ham o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi. VR texnologiyasi esa foydalanuvchilarga kutubxonaga tashrif buyurmasdan turib virtual muhitda xizmatlardan foydalanish, interaktiv ta'lim olish va ilmiy resurslardan innovatsion usullarda foydalanish imkonini beradi. Mazkur maqolada RFID va VR texnologiyalarining kutubxonalar faoliyatida qo'llanilishining ilmiy-uslubiy asoslari, ularning afzalliklari hamda amaliyotga tatbiq etish usullari yoritiladi. Ushbu tadqiqot zamonaviy kutubxonalarning axborot resurslarini boshqarish va foydalanuvchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. RFID tizimini kutubxonaga qo'llash bo'yicha ko'plab maqolalar mavjud. M. Xalikovanning "Avtomatlashtirilgan Axborot-Kutubxona Tizimi va Kutubxonalarda RFID Texnologiyasidan Foydalanish" ishida axborot kutubxona tizimlarida, zamonaviy texnologiyalardan bo'lgan RFID texnologiyasini qo'llash, kutubxona faoliyatidagi ishlarni bir muncha osonlashtirishi haqida ma'lumot berib o'tilgan [1]. RFID ni kutubxonadan boshqa sohalarda ham qo'llash mumkin. G.Gulmirzayevaning "Zamonaviy sanoatda RFID texnologiyasini qo'llash va istiqbollari tahlili" maqolasida zamonaviy sanoatda RFID (Radio Frequency Identification) texnologiyasining qo'llanilishi va istiqbollari tahlil qilingan. Bunda, RFIDning afzalliklari, jumladan masofadan aniqlash qobiliyati va shtrix-kodga qaraganda ko'proq ma'lumotlarni uzatish imkoniyati qayd etilgan. RFID texnologiyasi sanoatning turli sohalarida identifikatsiyalash va kuzatish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun istiqbolli vosita ekanligi keltirilgan [2]. Maqolada VRni qo'llash bo'yicha ham bir qancha ilmiy ishlardan foydalanilgan[3].


RFID va VR bo'yicha alohida maqolalar mavjud, lekin ularning integratsiyasi asosida ARMLarni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar mavjud emas.

Tahlil va natijalar. 1. Kutubxonada RFIDni qo'llash va uning afzalliklari

RFID (inglizcha: Radio Frequency Identification, radiochastota identifikatsiyasi) - transponderlar yoki RFID teglari deb ataladigan radio signallari yordamida ma'lumotlar o'qiladigan yoki yoziladigan obyektlarni avtomatik identifikatsiyalash usuli (1-rasm).

RFID texnologiyasi asosan ARMlarda ishlatilib kelinmoqda. Aslida bu texnologiya juda ko'p joylarda

qo'llaniladi. Misol uchun: sanoat, kirishni boshqarish va boshqarish tizimlari, tibbiyot - bemorlarning ahvolini kuzatish, shifoxona binosining harakatini kuzatish, kutubxonalar avtomatik kredit stansiyalari, pasportlar, transport to'lovlari, masofadan boshqarish, hayvonlarni identifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligi, inson implantlari, bagajni boshqarish tizimlari, real vaqtda obyektning lokalizatsiya qilish tizimlari, avtomobil immobilizatorlari.



1-rasm. RFID chipining sxemasi

Ushbu maqolada kutubxona tizimida RFIDni qo'llanilishi va afzalliklarini ko'rib chiqish bilan cheklanamiz. ARM larda xizmat ko'rsatuvchilarning ishini yengillashtirish va ba'zi nohush xotlarni oldini olish maqsadida RFID texnologiyasi qo'llaniladi.

Bu texnologiyada kitobga maxsus chip o'rnatiladi[7]. Chipni skaner qiladigan qurilma mavjud bo'lib, u qurilmaga kitob haqida ma'lumotlar kiritiladi. Kutubxonachi dastlab chipga kitob haqida ma'lumotlarni kiritib, so'ng kitobga joylashtiriladi (2-rasm).



2-rasm. Kitoblarga RFID chipini joylashtirish

ARM nazoratchisi yonida maxsus uskuna qo'yiladi. U uskunaga foydalanuvchi olib ketmoqchi bo'lgan kitob qo'yiladi[8]. Uskuna foydalanish uchun olib ketilayotgan kitobni ma'lumotlar bazasiga yuboradi. Kutubxona chiqishiga ham

maxsus qurilma o'rnatiladi. U nazoratchi uskunasiidan o'tmagan kitoblarni olib chiqib ketish oldini oladi. Bu esa kitoblarni o'g'irlanishi oldini oladi (3-rasm).



3-rasm Kutubxona tizimini RFID tizimi bilan bog'lash.

Bu tizimni afzaliklari quyidagilar: kitoblarni yo'qolishdan himoyalash; joriy vaqtidagi kitoblarni soni; joriy vaqtidagi foydalanish uchun olingan kitoblarning soni; har bir kitobning foydalanish statistikasi; kutubxonachilarga yengillik yaratish;

Hozirda ko'p qo'llanilayotga bu tizimga ba'zi qo'shimchalar kiritib yanada bu tizimni takomillashtirish mumkin. Uning uchun foydalanuvchiga kutubxona foydalanish kartasi beriladi. Kutubxonaga RFID texnologiyasiga qo'shimcha maxsus terminal qo'yiladi. Bu terminal kompyuterlashgan bo'lib kitob chipi va o'quvchilarni kartalarini o'qiy oladi. Demak foydalanuvchi kitobni oladi, so'ngra terminal oldiga borib kitobni chipini o'qitadi olib ketish uchun. Kutubxona kartasini ham qo'yganda, terminal monitorida foydalanuvchiga to'ldirilishi kerak bo'lgan oyna ochiladi. Oynada kitob nomi, kim olayogani chiqadi va qancha muddatga olayotganini foydalanuvchi kiritadi. Bu ma'lumotlar barchasi bazada yig'iladi. So'ng bemalol kitobni olib chiqadi. Bunda ortiqcha vaqtni oldi olinibgina qolmay, kutubxonachilarni ishlari ancha yengillashtadi. Ortiqcha yoz-chizlar va har qanday kartalarni to'ldirish shart bo'lmaydi. Kitoblarni sarhisob qilinganda, kutubxonachi yozilgan kartochkalarni yoki har xi ma'lumotlar daftarlarini tekshirishga hojat qolmaydi. Kompyuter ma'lumotlar bazasidan qancha kitob kimga berilgani va qaysilari berilgan muddatda qaytarilmaganini

chiqarib beradi. Bu ham sezilarli darajada kutubxonachilarni ishini yengillashtiradi.

2. RFID va VR yordamida zamonaviy tizim yaratish va uni qo'llash usullari.

Hozirgi zamonaviy dunyoda talabalarni kitobga uni mutolaa qilishga qiziqishini ortirish va unga quayliklar yaratish dolzarb muammolardan biridir. XXI asr texnologiyalar asri bo'lgani uchun, zamonaviy texnologiyalarni bu sohaga tadbir qilmasak, soha rivojsiz qolishi tabiiy. Ananaviy kutubxonalar zamonaviy texnologiyalarni qo'llab uni zamonaviylashtirib boramiz. Oxirgi qo'llanilgan texnologiyalardan biri RFID ni kutubxonaga ga qo'llash va uni afzaliklari bilan yuqorida tanishdik. Kutubxonada VRni qo'llashning afzaliklari haqida ham bir qancha ma'lumotlar bor[9]. Ushbu maqolaning asosiy vazifalaridan biri RFID va VR ni bir biriga bog'lash afzalliklarini qarab chiqamiz. Avvalo bularni qanday birlashtirish g'oyalarni qarab chiqishimiz kerak. ARM larda hozir to'liq RFID qo'llanishi boshlangan[10]. Bu tizimda har bir kitobda radioto'liqlik chip o'rnatilgan bo'ladi. Bu chiplarni VR bilan birlashtirishni ikki usulni taklif qilamiz.

Birinchi usulda RFIDning chip uskunasi gps bilan jihozlangan bo'ladi. ARM bosh kompyuteri radioto'liqlik orqali kitob haqida kerakli ma'lumotlarni saqlab turadi.



4-rasm.Zamonaviy kutubxonada RFID tizimi.

Foydalanuvchi VR uskunasi yordamida kutubxonaning virtual ko'rishiga kiradi. Foydalanuvchi VR yordamida virtual kutubxonaga tashrif buyurib ayni paytdagi kitobning turgan o'ri haqidagi barcha ma'lumotlarni olishi mumkin[11],[12]. Kutubxona tomonidan virtual kutubxonaga kitobning elektron ko'rinishi joylashtirilgan bo'lsa, VR yordamida o'qishi ham mumkin. Oddiy kompyuter monitorida ham VR taqmasdan, bu narsalarni ko'rish mumkin lekin VR yordamida huddiki o'quvchi kutubxonaga o'zi tabiiy kirgandek his qiladi. Virtual kutubxona dasturchisini maxoratiga qarab tabiiylikka yaqinlashtirishni hosil qilish mumkin. Zamonaviy VR uskunalar yordamida istalgan joyda kutubxonaga kirib kitobni qo'lga olib bemalol mutolaa qilish mumkin. Bularni barchasi virtual ro'y beradi. VR ni tabiiydan ustun tarafi kitobning elektron 3d ko'rinishda bo'lsa, uni

bemalol ko'rish mumkin. Xullas bu texnologiyalar kitobxonni umuman boshqa dunyoga olib o'tganday bo'ladi. Bu esa biz erishmoqchi bo'lgan maqsadga olib boradi ya'ni kitobxonlarni qiziqishini ortiradi. Agar foydalanuvchiga kitobning o'zi kerak bo'lsa yuqorida aytganimizdek, gps tizim ma'lumotiga tayanib kutubxonadan qisqa vaqtda kitobning joylashgan o'rnini topish mumkin.Chunki VR orqali kirganimizda kitob ma'lumotlarida kitob joylashgan yo'lak, javon, qator va o'ri haqida ma'lumotlar berilgan bo'ladi. Bu bizga vaqtni tejashga yordam beradi. Yana bir qulayliklaridan biri bizga kutubxona hodimlari ham kerak bo'lmaydi. U kitob foydalanishga olingandan so'ng bosh kompyuterga avtomatik ma'lumot boradi. Taklif qilinayotgan usul ham foydalanuvchiga ham xizmatchilarga bir qancha yengilliklar yaratadi.



5-rasm. ARM larda kitoblarga chip va qr kodlarni joylashtirish



6-rasm.VR yordamida virtual kutubxonadan foydalanish.

Ikkinchi usulda Har bir kitobga QR kodli chip kitobning tashqi tomondan ko'rinib turadigan qismiga qo'yiladi (7 rasm). Har bir kitoblar javoni oraig'iga 360 gradusli kamera qo'yiladi. Bu kamera har bir kitobning turgan o'rnini o'rnatilgan qr yoki chip orqali o'rnini aniqlab bosh kompyuterga ma'lumot taqdim

etadi.Bosh kompyuter virtual kutubxonaga bu ma'lumotlarni kiritib boradi. Aniqlangan ma'lumotlar yordamida yuqorida birinchi usuldagi imkoniyatlar yana hosil bo'ladi. Bu usulda RFID qo'llamasdan foydalanish ham mumkin. Lekin buning o'rniga bizga 360o zamonaviy kamera kerak bo'ladi.



7-rasm. QR kodlarni kitoblarga joylashtirish.

3. Virtual haqiqat (VR) ning mutolaa madaniyatidagi o'ri

Virtual haqiqat (VR) - bu simulyatsiya qilingan tajribani tasvirlash uchun ishlatiladigan atama, bu tajriba haqiqiy dunyoni taqlid qiladi yoki butunlay yangi dunyoni taqdim etadi. VR foydalanuvchi uchun ba'zan ko'rish, teginish, eshitish, hidlash yoki hatto ta'mni o'z ichiga olgan sensorli tajriba yaratishga qaratilgan.

Kitoblarning an'anaviy formatlardan virtual haqiqatga (VR) o'zgarishi ajoyib evolyutsiyadir. Ushbu o'zgarish

o'quvchilarning adabiyot bilan qanday munosabatda bo'lishi, tajriba va idrok qilishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy kitoblardan virtual haqiqatga o'tish. An'anaviy kitoblar - ular matnli formatga tayanib, o'quvchilarga sahnalarni, qahramonlarni va sozlamalarni tasavvur qilish imkonini beradi. Jismoniy vosita (qog'oz) teginish hissiyatlarini jalb qiladi va chuqur, uzluksiz diqqatni jamlashga undaydi.

Virtual haqiqat (VR) kitoblari: VR-da o'quvchilar o'zlarini to'liq interaktiv muhitga cho'mdiradilar, bu yerda ular:

Hikoya dunyosini 3D formatida o'rganadilar, qahramonlar bilan xuddi hikoyaning bir qismi kabi tasavvur uyg'otadi, voqealar xuddi hikoya olamida mavjud bo'lgandek sodir bo'layotganiga guvoh bo'lishadi

Tasavvurni o'zgartirish: An'anaviy kitoblar tasavvurni rag'batlantiradi, chunki o'quvchilar matn tavsiflaridan aqliy tasvirlarni yaratadilar. VR oldindan tuzilgan vizual va sozlamalarni taqdim etish orqali ushbu dinamikani o'zgartiradi, bu esa shaxsiy talqinni cheklaydi. Biroq, VR o'quvchilarni mustaqil ravishda tasavvur qilmagan fantastik muhitlarga ochib berish orqali ham ijodkorlikni ilhomlantirishi mumkin.

Foydalanish imkoniyati: VR matnga ishonishni hissiy tajribalar bilan almashtirib, adabiyotni nogironlar, masalan, ko'rish qobiliyati buzilgan shaxslar uchun ochiq qiladi, biroq, VR texnologiyasining narxi ba'zi o'quvchilar uchun to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin va bu yangi vositaga kirishni cheklaydi.

Madaniy va adabiy ta'siri: Yangi janrlar va formatlar: VR interaktivlikka tayanadigan janrlarni qo'llab quvvatlashi mumkin, masalan, dinamik(o'zgaruvchan) natijalarga ega sarguzasht hikoyalarni tanlash bunga misol bo'ladi. Shuningdek, u adabiyot, o'yin va kino o'rtasidagi chegarani xiralashtirishi mumkin.

An'anaviy adabiyotni saqlash: VR kitoblarining ko'tarilishi an'anaviy formatlar uchun nostaljni keltirib chiqarishi

mumkin, bu ularning saqlanishi va qadrlanishini ta'minlaydi. Kutubxonalar faoliyati esa doim an'anaviy kitoblardan voz kechmagan holatda ijtimoiy hayot shiddatiga mos ravishda, qo'shimcha imkoniyatlar va qiziqishlar oshishi maqsadida doimo yangiliklardan foydalanadi.

Mualliflar uchun qiyinchiliklar: Yozuvchilar texnologlar, grafik dizaynerlar va VR ishlab chiquvchilari bilan hamkorlik qilishlari kerak, bu esa yolg'iz yozish imkonini ko'p tarmoqli harakatga aylantirishi kerak.

Xulosa. Kitoblarni VRga aylantirish adabiyotni ilg'or texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda hikoya qilishda paradigma o'zgarishini anglatadi. U misli ko'rilmagan immersiv tajribalarni taklif qilsada, an'anaviy o'qish odatlarini saqlab qolish va texnologiya hamda tasavvur o'rtasidagi muvozanat haqida savollar tug'diradi. VR ni yangi texnologiya deya olmasakda, lekin ilm fan va mutolaa madaniyatida qo'llash ilk davrlarni boshdan kechirmoqda. Hozirgi texnologiya va raqamli axborot, multimediyaga kabi ko'rinishlarga sho'ng'igan yangi avlodga an'anaviy kitoblar qatorida qo'shimcha imkoniyat sifatida taqdim etilmoqda. Hamma narsaning meyor, oltin o'rtaligi mavjud ekanligini hisobga olsak, VR kitoblardan meyor doirasida foydalanish yaqin kelajakda ilm fanda katta yutuqlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Xalikova M, Abdujalilova D. Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimi va kutub xonalarda RFID texnologiyasidan foydalanish." Ilm-Fan Taraqqiyotida Zamonaviy Metodlarning Qo' llanilishi" Mavzusidagi ilmiy onlayn Konferensiya To'plami
2. Guzal Gulmirzaeva "Zamonaviy sanoatda RFID texnologiyasini qo'llash va istiqbollari tahlili "Xalq xo'jaligi sohasida ilg'or texnologiyalar tadbiri muammolari. Xalqaro konferensiya At: Nukus, Uzbekistan 2023 y.
3. Angeletaki, A. (2013), "How is the use of virtual reality technology challenging the museum-library sector?", The case of the University Museum and Library of Trondheim, Norway, CAAUK2013, available at: www.lparchaeology.com/caauk/how-is-the-use-of-virtual-reality-technology-challenging-the-museum-library-sector/
4. Accart, J. (2014), "Augmented reality in the (real) library world", Library High Tech News, available at: www.jpaccart.ch/les-reseaux/2014-library-high-tech-news-augmented-reality-in-the-real-library-world.html
5. Lewis, R. (2015), "Virtual reality: soon to become mainstream in libraries?", Information Today, available at: www.questia.com/magazine/1G1-411752398/virtual-reality-soon-to-becomemainstream-in-libraries
6. Sarno, D. (2014), "Virtual reality for learning: linking communities with library-based world building", Knight Foundation, available at: www.newschallenge.org/challenge/libraries/feedback/virtual-reality-for-learning-linking-communities-with-library-based-worldbuilding
7. Aliyev, U. (2020). "Zamonaviy kutubxona texnologiyalari va innovatsiyalar". Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
8. Smith, J. & Brown, L. (2019). "RFID in Libraries: Implementation and Best Practices". New York: Library Science Press.
9. Tan, W(2021). "Virtual Reality in Education and Libraries". London: Academic Publishing.
10. International Federation of Library Associations and Institutions (IFLA) (2022). "RFID Technology Guidelines for Libraries".
11. O'zbekiston Milliy Kutubxonasi (2021). "Elektron kutubxona tizimlari va ularning rivojlanishi". Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
12. Li, H. & Chen, X. (2020). "Smart Libraries: The Role of RFID and AI in the Future of Libraries". Beijing: TechBook Press.



Вероника ОБИДОВА,

Национальный университет Узбекистана Студентка 1 курса магистратуры по специальности «Психология»

E-mail: veroni4ka8295@yandex.com

Мариям КАРАМЯН,

Национальный университет Узбекистана Профессор кафедры психологии Доктор психологических наук

На основе рецензии профессора, доктора психологических наук К.Кадырова

ПРЕДСТАВЛЕНИЯ БРАЧНЫХ ПАРТНЕРОВ О ВЛИЯНИИ СИБЛИНГОВОЙ ПОЗИЦИИ НА СУПРУЖЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ

Аннотация

Статья посвящена рассмотрению проблемы выстраивания супружеских отношений и комплементарного брака в контексте сиблинговой позиции. Представлен краткий теоретический обзор научных подходов в исследовании роли сиблинговых позиций, особенностей межличностных отношений между супругами. Приводятся результаты и анализ глубинных интервью на тему особенностей сиблинговых и супружеских отношений.

Ключевые слова: Сиблинги, сиблинговая позиция, психологические особенности личности, межличностные отношения, супружеские отношения, комплементарный брак.

NIKOH SHERIKLARINING BOG‘LANISH POZITSIYASINING NIKOH MUNOSABATLARIGA TA‘SIRI HAQIDAGI TASAVVURLARI

Аннотация

Maqolada nikoh munosabatlari va iltifotli nikohni o‘rnatish muammosini sibling pozitsiyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Sibling pozitsiyalarining rolini, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini o‘rganishda ilmiy yondashuvlarning qisqacha nazariy sharhi taqdim etilgan. Sibling va nikoh munosabatlarining xususiyatlari bo‘yicha chuqur intervyularning natijalari va tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Sibling, sibling pozitsiyasi, shaxsning psixologik xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar, oilaviy munosabatlar, iltifotli nikoh.

MARITAL PARTNERS' VIEWS ON THE IMPACT OF THE SIBLING POSITION ON MARITAL RELATIONS

Annotation

The article is devoted to the problem of building marital relations and a complementary marriage in the context of a sibling position. A brief theoretical overview of scientific approaches in the study of the role of sibling positions, the peculiarities of interpersonal relations between spouses is presented. The results and analysis of in-depth interviews on the specifics of sibling and marital relations are presented.

Key words: Siblings, sibling position, psychological personality traits, interpersonal relationships, marital relations, complementary marriage.

Введение. Вопросы семьи и брака вызывают пристальное внимание международных организаций и государств в связи с ролью, которую играет семья для устойчивого развития общества и личности. В глобальном плане поддержка семьи рассматривается как механизм достижения целей в области устойчивого развития, в том числе ликвидации нищеты, обеспечения хорошего здоровья, расширения возможностей женщин и защиты их прав, уменьшения неравенства [14]. Поддержка семей предполагает обеспечение их социальной защиты с учетом гендерного фактора, баланса между трудовой деятельностью и семейной жизнью, жильем бездомных семей, оказание психологических услуг супругам и детям [4]. Таким образом, проблема благополучия семьи представляет собой одну из ключевых в мировом контексте.

В достижении благополучия семей значительное место занимают психосоциальные услуги, фокусом которых могут выступать супружеские отношения. Качество супружеских отношений определяется множеством факторов социально-психологического и личностного порядка, к которым относится и влияние сиблинговой позиции на межличностные отношения супругов.

Проблема влияния сиблинговой позиции на межличностные отношения супругов периодически является объектом научного интереса исследователей, и по сей день остается актуальной, но все еще недостаточно разработанной. В психологии семейных отношений этот интерес также обусловлен поиском ресурсов развития личности и факторов,

влияющих на успешное формирование межличностных отношений в семье [10].

Литературный обзор. В литературе выделяют ряд исследований, в которых изучались сиблинговые позиции и их влияние на различные стороны личностного развития. Условно исследования сфокусированы на: 1) определении и операционализации сиблинговых отношений; 2) понимании влияния сиблинговых отношений на различные сферы жизни личности, включая супружеские взаимоотношения; 3) выявлении особенностей сиблинговых сочетаний и их влияния на супружеские отношения.

Первое направление исследований – это определение и операционализация сиблинговых отношений. Так, под сиблинговыми отношениями ученые понимают отношения, затрагивающие детей, рожденных в одной семье и являющимися друг другу родными или сводными братьями и сестрами (Г.Т.Хоментаускас, И.Е.Валитова, Дж.Добсон, В.Н.Дружинин, А.И.Захарова). Установлено, что сиблинговые отношения являются важным компонентом социального и эмоционального развития личности и имеют свои последствия, выходящие далеко за пределы детского возраста [7]. Положение, занимаемое личностью среди братьев и сестер, определенным образом структурирует ее детский опыт, что, в свою очередь, накладывает отпечаток на ее характеристики и особенности взаимоотношений в более поздние периоды жизни [9].

Основоположником исследований влияния порядка рождения ребенка на развитие личности был А.Адлер,

который рассматривал сиблинговую позицию как основную детерминанту установок, связанных со стилем жизни. Он подчеркивал, что опыт старшего или младшего ребенка в семье по отношению к другим детям, особенности влияния родительских установок и ценностей – все это меняется в результате появления в семье следующих детей и сильно влияет на формирование стиля жизни [1].

В своих трудах А.Адлер выделил четыре типичные сиблинговые позиции, каждая из которых обладает своими особенностями и в последующем может оказывать влияние на личностные особенности: первый ребенок, средний ребенок; младший ребенок; единственный ребенок [2].

В рамках второго направления исследований – изучения влияния сиблинговых отношений на различные сферы жизни личности – интерес представляет «теория дубликатов» У. Тоумана, согласно которой происходит перенос связей, характерных для сиблинговых отношений, на своего партнера в супружестве. Он отмечает, что люди склонны выбирать себе брачных партнеров по сиблинговому положению, которое должно дополнять их собственное. Ученый фактически заложил традицию исследования влияния семейных позиций сиблингов на их личностные особенности и будущую супружескую жизнь, обозначив наиболее и наименее благоприятное сочетание сиблинговых позиций супругов [12].

Взаимосвязь сиблинговой позиции и межличностных отношений также подтверждена и в работах М.Боуэна, представителя системного подхода к пониманию семьи. Автор обнаружил, что характеристики дружбы у взрослых, реализация супружеской и родительской роли зависят от опыта, полученного сиблингом в детстве [8].

В контексте третьего направления изучения – выявлении взаимосвязи сиблинговых сочетаний и супружеских отношений – в исследованиях Р.Ричардсона подчеркивается, что супружеские пары намного благополучнее, в случае если их ролевые позиции дополняют друг друга. Анализ различных подходов в данной группе исследований позволяет выделить варианты сочетания в зависимости от сиблинговых позиций:

комплементарный брак – взаимодополняющие сиблинговые позиции супругов. Этот брак представляет собой благоприятный вариант формирования ролевой структуры в виде наличия взаимодополняющих ожиданий, готовых стереотипов межличностных ролей и опыта их реализации [11];

частично комплементарный брак, означающий лишь частичное совпадение сиблинговых позиций супругов;

Таблица 1.

Типы взаимоотношений между сиблингами и супругами

Тип отношений	Направленность отношений	
	в сиблинговом взаимодействии	в супружеском взаимодействии
Опекающие	«был нянечкой», «сам таскал», «я нянчила, всех очень любила», «больше обязанностей было у меня, так как я старше, и я была привыкшая», «было мое доминирование, приходилось заниматься ее воспитанием, вылавливать ее, туда не ходи, я ей в отцы годился»	«тыторство присутствует», «как младшего брата вел, стараюсь так же помогать жене», «заботится о муже это моя обязанность», «домашние обязанности не распределяются и лежат на мне»
Партнерские	«как взрослые общаться начали», «помогали друг другу, и в финансовых и моральных сложностях», «отношения равные, прислушиваемся друг к другу»	«мыслить, как полушария мозга», «стараясь использовать одинаково мужское и женское начало», «нет состязательного духа», «никто не претендует ни на чью сторону», «советуемся», «взаимовыгодные», «решения глобальные обсуждаются и совместно решаются», «обсуждения – мы посоветались, и я решил»

Интересно, что в зависимости от ситуаций формат взаимоотношений может переходить с одного на другой. Например, при принятии решений супругами транслируются партнерские отношения, а в случае с повседневными хозяйственными делами, больше присутствуют опекающие. При этом для опекающих отношений характерен патриархальный формат взаимодействия, в котором основная часть обязанностей лежит на женщине. Важно отметить, что недовольства по этому поводу среди опрошенных женщин отсутствуют. Ими это воспринимается как ретрансляция опыта с сиблингами на партнера («забота по отношению к младшему брату, и я это перенесла на совместную жизнь, заботиться о муже это моя обязанность», «ежедневные проблемы я не принимала за проблемы»).

некомплементарный брак в случае тождественности сиблинговых позиций супругов, что приводит к конкуренции в борьбе за присвоение одной и той же межличностной роли [7].

В исследовании Л.Р. Залевской и Е.В. Веденевой было выявлено, что в комплементарном браке взаимосогласованность достигается легче, так как супруги занимают комплементирующие положения среди братьев и сестер [5].

Таким образом, с самого начала своего возникновения сиблинговая проблематика развивалась в рамках различных теоретических моделей, в фокусе которых было поведение детей и подростков или отношения уже взрослых сиблингов. Необходимо отметить, что актуальным и необходимым является подробное рассмотрение сиблинговых влияний не только в различных возрастных группах, но и с учетом межличностного взаимодействия.

Методология исследования. Целью поискового исследования выступило изучение особенностей супружеских отношений в их взаимосвязи с сиблинговой позицией с точки зрения брачных партнеров. Изучение их представлений о влиянии сиблинговой позиции на супружеские отношения основывалось на теории сиблинговой позиции и было проведено в парадигме методологии качественных исследований. Для анализа сиблинговых и супружеских отношений был использован метод глубинного интервью с последующим тематическим и категориальным анализом ответов на открытые вопросы. Интервью имело полустандартизированный характер. Было проведено 5 интервью, в качестве интервьюируемых выступили 3 женатых мужчин и 2 замужние женщины. Все интервьюируемые имеют высшее образование.

Анализ и результаты. Качественный анализ данных, полученных во время проведения полуструктурированных интервью, позволил сгруппировать высказывания по обобщенным категориям, которые описывают разные проявления отношений между сиблингами и супругами.

Необходимо подчеркнуть, что, несмотря на соблюдение условий рандомизированной выборки, в интервью приняли участие старшие сиблинги, состоящие в семейных отношениях со старшими сиблингами. В связи с этим все последующее категорирование и анализ данных будут строиться, исходя из данных сиблинговых позиций.

Отношения с сиблингами, как и выстраиваемые по их образу супружеские отношения, можно разделить на «опекающие» и «партнерские», отраженные в таблице 1.

Вышеуказанные два типа взаимоотношений идут параллельно с особой категорией «Заботы», элементами которой («шнурки завязывать как ему нравится», «одевать его медленно как он того хочет», «все находилось на ней, да и сейчас все на ней») включены в ответы интервьюированных по отношению как к сиблингам, так и супругам. Проявление заботы, по мнению респондентов, представляет важную причину формирования ответственности. В свою очередь, ответственность как личностная черта приписывается себе каждым из опрашиваемых, и именно она отличает их от младших сиблингов, а также является тем самым качеством, способствующим выстраиванию конструктивных супружеских взаимоотношений.

Качественный анализ показал, что среди качеств, сформировавшихся у респондентов как у сиблингов и влияющих на супружеские отношения, мужчины более склонны выделять те, что имеют утилитарную функцию («домовитость», «хозяйственность», «забота о семье», «поделки, ремонт», «совместная хозяйственная помощь», «стараюсь так же помогать жене, по быту, по работе»). В то время, как женщины делают основной упор на моральные качества, которые непосредственно соотносятся с эмоционально-коммуникативной сферой взаимоотношений («не до конца искренние отношения с его стороны», «нет искренности», «невысказанность»).

В результате тематического анализа транскриптов интервью были выделены три основные категории, раскрывающие взаимоотношения респондентов. Смысловое поле первой категории «Коммуникация» подразумевает, что те респонденты, которые имеют позитивный опыт общения с братьями и сёстрами, лучше умеют слушать и понимать своих партнёров, сглаживая конфликтные ситуации («помогали друг другу» (про сиблингов) – «на недостатки и закрывали и закрываем глаза» (про супругов), «паттерны переходят с формата общения с брата на жену»). Выделение второй категории «Распределение ролей» дало основание предполагать, что супруги, имеющие опыт старшего или младшего ребёнка, могут по-разному распределять роли в семье. Старшие дети могут стремиться к лидерству и контролю («нужно заботиться и присматривать», «он маленький поэтому распределение ролей такое не задевало», «я всегда говорила, они подчинялись», «было мое доминирование, моя доминантна»), а младшие, как предполагается – к свободе и независимости. Анализ транскриптов интервью с учетом третьей категории «Эмоциональная близость» показал, что люди, имевшие тесные и поддерживающие отношения с братьями и сёстрами, часто стремятся к эмоциональной близости в браке («готовые механизмы реакций на брата применяются на

жену»), «выстраивать комфортные отношения для себя и для супруги», «у нас хорошая семья и хорошие отношения»).

При этом, несмотря на некоторые присутствующие в ответах недовольства чертами супругов или определенными ситуациями, у всех принявших участие в исследовании уровень удовлетворенности браком согласно ответам – «высокий» («абсолютно счастлив в браке», «на данный момент мне все очень нравится», «на 95%, это тот образ, который я себе представляла, 100% не может быть, иначе было бы не интересно», «ничего себе, конечно счастлив, 31 год вместе не просто так же»).

Выводы и рекомендации. Таким образом, анализ глубинных интервью позволяет заключить, что уровень понимания между супругами и степень удовлетворенности браком связаны с форматом отношений с сиблингами. В комплементарном браке, в котором совпадают сиблинговые позиции, понимание и удовлетворенность выше, чем в некомплементарном. Это объясняется тем, что в комплементарном браке сотрудничество достигается легче, так как супруги занимают комплементирующие положения среди братьев и сестер. При этом полус отношения с сиблингами не играют существенной роли.

Представления брачных партнеров о влиянии сиблинговой позиции на супружеские отношения раскрываются в выделении опекающих и партнерских отношений, в категориях коммуникации, распределения ролей и эмоциональной близости.

Сиблинговый контекст может оказывать значительное влияние на формирование личности и определение специфики супружеских отношений. Выявление особенностей взаимосвязи сиблинговых отношений и супружеского взаимодействия способствует более глубокому пониманию динамики семейных отношений и разработке стратегий для улучшения коммуникации и взаимопонимания между партнерами.

ЛИТЕРАТУРА

1. Адлер А. Воспитание детей. Взаимодействие полов / пер с англ. А. А. Валеева и Р. А. Валеевой. Ростов н/Д: Феникс. 1998. 448 с.
2. Адлер А. Индивидуальная психология, ее гипотезы и результаты. Самара: Издательский дом «БАХРАХ-М», 2000. 448 с.
3. Варга А.Я. Системная семейная психотерапия: краткий лекционный курс. СПб.: Питер. 2001. 211 с.
4. Доклад «Реализация целей Международного года семьи и связанных с ним последующих процессов». 26.11.2019. Генеральная Ассамблея и Экономический и Социальный Совет Организации Объединенных Наций. URL: <http://undocs.org/ru/A/75/61%E2%80%93E/2020/4> (дата обращения: 5.12.2024).
5. Залевская Л. Р., Веденеева Е. В. Влияние сиблинговой позиции на особенности супружеских отношений // Вестник магистратуры. 2016. №2-1 (53).
6. Ерохина Н.М. Характерологическая совместимость и удовлетворенность браком в молодых семьях // Семейная психология и семейная терапия. 2005. № 4. С. 3-9.
7. Козлова Е.И. Особенности сиблинговых отношений в двухдетных семьях//Психологические исследования. 2010. №4 (12). <https://doi.org/10.54359/ps.v3i12.908>
8. Лукьянченко Н.В., Аликин И.А., Боуена М. Теория семейных систем. Красноярск: Мир. 2002. 312 с.
9. Лукьянченко Н.В. Социально-психологические особенности сиблинговых отношений как значимый фактор становления и жизненного пути зрелой личности // Психологическая наука и образование. 2010. № 1. С. 17-22.
10. Маленова А.Ю., Ляшевская А.В. Сиблинговая позиция и возраст ребенка как факторы материнского отношения // Вестник Омского университета. Серия «Психология». 2014. № 2. С. 48-57.
11. Роджерс К. Психология супружеских отношений. Возможные альтернативы/ пер. с англ. В. Гаврилова. М., 2012. 231 с.
12. Самсонова П. М. Роль родительской семьи в формировании представлений подростков о будущей семье/ П. М. Самсонова // Тезисы второй всероссийской научной конференции «Психологические проблемы современной российской семьи». В 3-х частях. Ч. 3. С. 17-27. М., 2005.
13. Тоуман У. Семейное созвездие: её влияние на личностное и социальное поведение. N.Y.: Springer, 1976. 134 с.
14. Цели в области устойчивого развития//Сайт Организации Объединенных Наций: URL: <https://www.un.org/sustainabledevelopment> (дата обращения: 5.12.2024).



УДК:13.2(145.1)

Дилшоода РАХМОНКУЛОВА,

Доцент кафедры Языков, Чирчикское высшее танковое командное инженерное училище

E-mail: dilshodarakhmonkulova@gmail.com

Под рецензией М.Юсуповой – PhD, доцент ЧГПУ

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ ПРЕПОДАВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье анализируется роль инновационных стратегий преподавания на уроках немецкого языка в высших учебных заведениях. Современные педагогические подходы, в том числе такие инновационные методы, как цифровые технологии, геймификация, коммуникативные методы, проектное обучение и искусственный интеллект, служат повышению эффективности процесса изучения языка. В статье также обсуждается важность этих стратегий в развитии мотивации студентов, коммуникативных навыков и независимого мышления. Использование передовых технологий в обучении немецкому языку помогает построить процесс обучения, основанный на реальном опыте.

Ключевые слова: Инновационное образование, немецкий язык, высшее образование, геймификация, цифровые технологии, коммуникативный метод, проектное образование, искусственный интеллект, интерактивное обучение.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA NEMIS TILI MASHG'ULOTIDA INNOVATSION O'QITISH STRATEGIYALARINING ROLI

Аннотация

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida nemis tili mashg'ulotlarida innovatsion o'qitish strategiyalarining roli tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, kommunikativ metodlar, loyihaviy ta'lim va sun'iy intellekt kabi innovatsion usullar til o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada ushbu strategiyalarning talabalarning motivatsiyasi, muloqot qobiliyati va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Nemis tilini o'qitishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish real hayotiy tajribaga asoslangan o'quv jarayonini yaratishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lim, nemis tili, oliy ta'lim, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar, kommunikativ metod, loyihaviy ta'lim, sun'iy intellekt, interaktiv o'qitish.

THE ROLE OF INNOVATIVE TEACHING STRATEGIES IN GERMAN LANGUAGE TRAINING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article analyzes the role of innovative teaching strategies in German language classes in higher education institutions. Modern pedagogical approaches, including innovative methods such as digital technologies, gamification, communicative methods, project education and artificial intelligence, serve to increase the effectiveness of the language learning process. The article also discusses the importance of these strategies in developing students' motivation, communication skills, and independent thinking. The use of advanced technologies in teaching the German language helps to create a learning process based on real-life experience.

Key words: Innovative education, German language, higher education, gamification, digital technologies, communicative method, project education, artificial intelligence, interactive learning.

Kirish. "Oliy Ta'lim Muassasalarida Nemis Tili Mashg'ulotlarida Innovatsion O'qitish Strategiyalarining Roli" mavzusida yozilgan bo'lib, unda nemis tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, samaradorligi va qo'llanilish usullari muhokama qilinadi.

Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot sharoitida xorijiy tillarni o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida nemis tili mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun an'anaviy metodlarga innovatsion strategiyalarni qo'shish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar talabalarning bilim olish jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida nemis tili darslarini interaktiv va samarali qilish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rnini o'rganish.

- Raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, kommunikativ metodlar va sun'iy intellekt kabi zamonaviy strategiyalarni tahlil qilish.

- Ushbu strategiyalar orqali talabalar motivatsiyasini oshirish va ularning til o'rganish jarayonidagi natijadorligini yaxshilash.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion ta'lim metodlari talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning

mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy dars usullaridan farqli o'laroq, innovatsion yondashuvlar talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.[1]

- Nemis tilini o'qitishning dolzarbligi.
- Innovatsion strategiyalarning ta'limdagi o'rnini.
- 2. Innovatsion o'qitish strategiyalarining tahlili
- Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar (Duolingo, Kahoot, Quizlet).

- Gamifikatsiya (o'yin elementlaridan foydalanish).
- Kommunikativ yondashuv va subbatga asoslangan ta'lim.

- Loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning).
- Sun'iy intellekt va virtual realistik texnologiyalari.
- 3. Innovatsion usullarning talabalarga ta'siri
- Talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish.

- Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Amaliy muloqot kompetensiyalarini mustahkamlash.
- Innovatsion strategiyalarni dars jarayoniga keng joriy qilish bo'yicha tavsiyalar.

- Kelajakdagi tadqiqotlar va yangi yondashuvlar istiqbollari.

Tahlil va natijalar. Maqolada olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Innovatsion o'qitish strategiyalari talabalarining motivatsiyasini oshiradi.

- Gamifikatsiya va interaktiv usullardan foydalanish orqali talabalar dars jarayonida faol ishtirok etishga undaladi.

- Raqobatga asoslangan o'yinlar va topshiriqlar til o'rganishni qiziqarli qiladi.

2. Raqamli texnologiyalar til o'rganish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

- Duolingo, Quizlet, Kahoot va Moodle kabi platformalar talabalar mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

- Sun'iy intellekt va virtual reallik texnologiyalari talabalar uchun real hayotga yaqin til muhitini yaratishga yordam beradi.

3. Kommunikativ metodlar talabalar muloqot kompetensiyasini kuchaytiradi.

- Suhbatga asoslangan yondashuvlar, rolli o'yinlar va "Tandem Learning" usuli orqali talabalar tabiiy muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

- Talabalar o'rganagan bilimlarini haqiqiy hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Loyihaviy ta'lim yondashuvi talabalarni mustaqil va ijodiy ishlashga o'rgatadi.

- Guruh loyihalari va tadqiqot ishlarini bajarish orqali talabalar chuqur o'rganish va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

- Nemis tilida blog yuritish, videoroliklar yaratish yoki tadqiqot maqolalari yozish ularning amaliy til bilimlarini mustahkamlaydi.

5. An'anaviy usullar bilan taqqoslaganda, innovatsion strategiyalar ko'proq samaradorlikni ta'minlaydi.

- O'quvchilar innovatsion metodlar qo'llanilgan mashg'ulotlarda tilni tezroq o'zlashtirishlari kuzatildi.

- Dars jarayonida interaktiv va qiziqarli yondashuvlar bo'lsa, talabalar ma'lumotni uzoq muddatga eslab qoladilar.

Nemis Tili Mashg'ulotlarida Qo'llanilayotgan Innovatsion Strategiyalar

1. Raqamli Texnologiyalar va Onlayn Platformalar

Zamonaviy nemis tili mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Masalan, Duolingo, Quizlet, Kahoot, Moodle kabi platformalar til o'rganish jarayonini interaktiv qilishga yordam beradi. Ushbu vositalar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustaqil mustahkamlashlari va amaliy mashqlar bajarishlari mumkin.

2. Gamifikatsiya (O'yinlashgan O'qitish)

O'yin elementlarini darslarga joriy qilish til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, rolli o'yinlar, til viktorinalari, topshiriq asosida raqobatga asoslangan yondashuvlar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu usul ayniqsa, auditoriyada tabiiy muhit yaratishga va talabalarni tilga tezroq moslashtirishga yordam beradi [2].

3. Kommunikativ Yondashuv

Innovatsion metodlardan biri bu til o'rganishda muloqotga asoslangan yondashuvdir. Talabalar o'zaro nemis tilida suhbat qurish, muammolarni hal qilish va amaliy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali til ko'nikmalarini rivojlantiradilar. "Tandem Learning" usuli ham samarali bo'lib, bunda ikki kishi o'zaro til almashish orqali o'rganadi [3].

4. Loyihaviy Ta'lim (Project-Based Learning)

Talabalar mustaqil yoki guruh bo'lib, muayyan loyiha ustida ishlash orqali til o'rganishadi. Masalan, nemis tilida blog yuritish, videolar tayyorlash, ilmiy maqola yozish yoki taqdimot qilish kabi topshiriqlar ularning ijodiy fikrlashini va amaliy bilimlarini rivojlantiradi [4].

5. Sun'iy Intellekt va Virtual Reallik (AI va VR)

So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosidagi dasturlar va virtual reallik texnologiyalari ham til o'rganishda qo'llanila boshlandi. Masalan, VR dasturlari yordamida talabalar nemis tilida real hayotga yaqin muhitda muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning talaffuz va tushunish qobiliyatini yaxshilaydi.

Innovatsion o'qitishning afzalliklari

Innovatsion o'qitish strategiyalarining oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- Talabalarining faolligini oshiradi – darslarda passiv ishtirok etish o'rniga, ular doimiy ravishda fikrlash va muloqot qilishga undaladi.

- Real hayotga yaqin tajriba taqdim etadi – o'rganilgan bilimlar amaliy vaziyatlarda qo'llaniladi.

- Mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi – talabalar darsdan tashqari ham nemis tilini o'rganishga rag'batlantiriladi.

- O'zlashtirish samaradorligini oshiradi – o'yin, vizual materiallar va interaktiv usullar bilimlarni uzoq muddat eslab qolishga yordam beradi.[7]

Xulosa va takliflar. Oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitishda innovatsion strategiyalardan foydalanish talabalarining til kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, kommunikativ yondashuv va sun'iy intellekt kabi usullar yordamida o'quv jarayoni yanada qiziqarli va interaktiv bo'ladi. Kelajakda ushbu usullarni yanada rivojlantirish va dars jarayoniga keng joriy etish nemis tilini o'rganuvchilarning muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. Maqola nemis tilini interaktiv va innovatsion yo'llar orqali o'qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, ta'lim metodistlari va til o'rganishga qiziquvchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi. Nemis tilini o'qitishda innovatsion strategiyalar an'anaviy yondashuvlarga nisbatan samaraliroq bo'lib, talabalar bilim olish jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi.

ADABIYOTLAR

1. D'Adamo, P. J. (2001). *Eat Right for Your Type*. Putnam Publishing Group.
2. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon.
5. Brown, H. D. (2000). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Longman.
6. Gee, J. P. (2007). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. Palgrave Macmillan.
7. Bax, S. (2011). Normalisation Revisited: The Effective Use of Technology in Language Education. *International Journal of Computer-Assisted Language Learning and Teaching*, 1(2), 1-15.
8. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017-1054.
9. European Commission (2020). *Digital Education Action Plan 2021-2027: Resetting Education and Training for the Digital Age*.
10. Warschauer, M. (2000). The Changing Global Economy and the Future of English Teaching. *TESOL Quarterly*, 34(3), 511-535.
11. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика учебник для студентов лингвистических университетов и факультетов иностранных языков высших педагогических заведений / Гальскова Н.Д., Н.И.Гез. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2006. – 336 с.
12. Фокина К.В. Методика преподавания иностранного языка: конспект лекций / К.В. Фокина, Л.Н. Терентьева, Н.В. Костычева. – М.: Высшее образование, 2008. – 158 с.



УДК:13.3(145.2)

Умид РУЗИЕВА,

Старший преподаватель кафедры Языков, Чирчикское высшее танковое командное инженерное училище

E-mail: tjumidaruzieva@gmail.com

Под рецензией Н.Саиткуловой – PhD, ЧГПУ

МОНОЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ 10-11 КЛАССОВ ШКОЛ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются особенности формирования монологической речи у учащихся 10–11 классов школ с узбекским языком обучения. Анализируются основные трудности, с которыми сталкиваются школьники, такие как ограниченный словарный запас, ошибки в грамматике, недостаток речевых клише и психологический барьер. Предлагаются эффективные методы и приёмы обучения, включая лексико-грамматическую подготовку, использование речевых опор, проектную деятельность, ролевые игры и работу с текстами. Особое внимание уделяется роли учителя в создании комфортной языковой среды. Развитие монологической речи способствует формированию коммуникативной компетенции учащихся, что важно для их дальнейшего образования и профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Монологическая речь, русская речь, узбекские школы, обучение русскому языку, старшеклассники, методы обучения, коммуникативная компетенция, языковая среда.

LOG NUTQI MAKTABLARDANING 10-11-SINF O'QUVCHILARIGA TA'LIM O'ZBEK TILIDA O'QITISH OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarning 10–11-sinf o'quvchilari o'rtasida monolog nutqini shakllantirish xususiyatlari muhokama qilinadi. Maktab o'quvchilarining so'z boyligi cheklanganligi, grammatikadagi xatolar, nutq klishe'larining yo'qligi va psixologik to'siqlar kabi asosiy qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Samarali o'qitish usullari va usullari taklif etiladi, jumladan leksik va grammatik tayyorgarlik, nutq yordamlaridan foydalanish, loyiha faoliyati, rolli o'yinlar va matnlar bilan ishlash. Qulay til muhitini yaratishda o'qituvchining roliga alohida e'tibor beriladi. Monologik nutqni rivojlantirish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi, bu ularning keyingi ta'lim va kasbiy faoliyati uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: Monolog nutq, rus nutqi, o'zbek maktablari, rus tili o'qitish, yuqori sinf o'quvchilari, o'qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiya, til muhiti.

MOLOGUE SPEECH AS AN OBJECT OF TEACHING PUPILS OF GRADES 10-11 FROM SCHOOLS IN THE UZBEK LANGUAGE OF INSTRUCTION

Annotation

The article discusses the features of the formation of monologue speech among students in grades 10–11 of schools with Uzbek as the language of instruction. The main difficulties faced by schoolchildren, such as limited vocabulary, errors in grammar, lack of speech clichés and psychological barriers, are analyzed. Effective teaching methods and techniques are proposed, including lexical and grammatical training, the use of speech supports, project activities, role-playing games and work with texts. Particular attention is paid to the role of the teacher in creating a comfortable language environment. The development of monologue speech contributes to the formation of students' communicative competence, which is important for their further education and professional activities.

Key words: Monologue speech, Russian speech, Uzbek schools, Russian language teaching, high school students, teaching methods, communicative competence, language environment.

Введение. В современных условиях владение монологической речью на русском языке является важным навыком для старшеклассников узбекских школ. Монологическая речь играет ключевую роль в успешной коммуникации, аргументации, презентации знаний и выражении собственных мыслей. Однако учащиеся, для которых русский язык не является родным, сталкиваются с рядом трудностей при формировании связного и логически выстроенного монолога.[1]

Анализ литературы по теме. В данной статье рассмотрены основные аспекты обучения монологической речи учащихся 10–11 классов школ с узбекским языком обучения.

1. Особенности монологической речи

Монологическая речь — это связное, последовательное и логически завершённое высказывание, направленное на слушателя, но не предполагающее непосредственного диалога. Она требует:

- владения грамматическими и лексическими нормами языка,
- умения строить логически последовательное высказывание,

- соблюдения норм стилистики и жанровых особенностей речи,

- использования выразительных средств языка.

В отличие от диалогической речи, монологическая речь требует большей степени подготовки и владения языковыми средствами.

2. Проблемы формирования монологической речи у учащихся школ с узбекским языком обучения.[2]

Методология исследования. Ученики, для которых русский язык является вторым (неродным), сталкиваются со следующими трудностями при построении монолога:

- Ограниченный словарный запас — учащиеся не хватает слов и выражений для точного выражения мысли.
 - Ошибки в грамматике и синтаксисе — сложность в построении сложных предложений.
 - Недостаток речевых клише и средств логической связи — трудности в переходе между частями высказывания.
 - Психологический барьер — страх перед ошибками и недостаточная уверенность в своих речевых навыках.
 - Отсутствие языковой среды — ограниченные возможности для практики монологической речи вне уроков.
3. Методы и приёмы обучения монологической речи

Для эффективного обучения монологической речи в старших классах можно применять следующие методы.[5]

3.1. Лексико-грамматическая подготовка.

Прежде чем формировать монологическую речь, необходимо расширить словарный запас учащихся, уделяя внимание тематическим группам слов, а также закреплять грамматические структуры, типичные для монологического высказывания.

3.2. Постепенное усложнение речевых заданий

Для успешного обучения следует переходить от простых заданий к более сложным:

1. Описание предметов, явлений, ситуаций (например, описание картины).

2. Пересказ текста с выделением ключевых мыслей.

3. Рассуждение на заданную тему с аргументацией.

4. Создание развернутого монолога с учетом коммуникативной задачи.

3.3. Использование речевых опор

На начальном этапе важно предлагать учащимся речевые клише, логические связи (например: «Во-первых...», «Следовательно...», «Таким образом...»), а также примерные схемы построения монолога.

3.4. Методы активного обучения

• Метод ассоциаций – помогает ученикам свободно выражать мысли, используя личный опыт.

• Ролевые игры – учащиеся выступают в роли ораторов, журналистов, учёных и т. д.

• Проектная деятельность – подготовка устных выступлений, докладов и презентаций.

• Обсуждения и дебаты – развитие аргументированной речи.

3.5. Работа с текстами

Анализ текстов разных жанров (публицистика, художественная литература, научные статьи) помогает учащимся понять структуру монологической речи и использовать её в своей практике.

3.6. Запись и анализ собственных выступлений

Запись монологов учащихся позволяет проводить анализ ошибок, улучшать логичность высказывания и совершенствовать интонационные характеристики речи.

4. Роль учителя в развитии монологической речи

Учитель должен создать комфортную языковую среду, поощрять инициативность учащихся и поддерживать их уверенность. Важно использовать:

- индивидуальный подход к ученикам,
- регулярную рефлексию и анализ ошибок,
- современные технологии (аудиозаписи, видеопрезентации),
- игровые формы обучения для повышения мотивации.

Анализ и результаты. Монологическая речь может быть различных видов в зависимости от целей и ситуации общения:

- Описательная (например, описание предмета, явления, места).
- Рассказ (пересказ событий, личный опыт).
- Повествовательная (истории, сюжеты).
- Объяснительная (объяснение понятий, инструкций).
- Аргументативная (выражение мнения, доказательство своей точки зрения).

Для обучения необходимо учитывать все эти виды, так как они формируют у учащихся разные коммуникативные навыки.

2. Психолингвистические аспекты формирования монолога

Формирование монологической речи связано с когнитивными процессами, такими как:

• мышление и логическое структурирование информации,

• способность к прогнозированию (что сказать дальше),

• использование языковых автоматизмов (клише, связующих фраз).

Учитель должен учитывать эти аспекты, помогая ученикам переходить от простых к сложным формам высказывания.

3. Развитие монологической речи через межпредметные связи

Эффективное развитие монолога возможно через интеграцию с другими дисциплинами:

• Литература – анализ текстов, написание эссе, обсуждение произведений.

• История – устные доклады, реконструкция событий.

• Биология, география – объяснение природных явлений, описание процессов.

Такой подход делает обучение естественным и мотивирует учеников к активному использованию языка.

4. Технологии, способствующие развитию монологической речи

• Использование ИКТ (информационно-коммуникационных технологий) – записи подкастов, создание видеопрезентаций.

• Онлайн-платформы и приложения – интерактивные тренажёры для развития связной речи.

• Проектное обучение – самостоятельная подготовка и представление докладов.

5. Проблемы мотивации при обучении монологической речи

Для учеников, изучающих русский язык как неродной, важна высокая мотивация. Её можно повысить за счёт:

• выбора интересных тем (личные истории, культура, современные технологии),

• поощрения индивидуального подхода (учёт интересов учеников),

• создания благоприятной атмосферы на уроках (отсутствие страха перед ошибками).

Выводы и предложения. Формирование монологической речи у учащихся 10–11 классов школ с узбекским языком обучения – сложный, но важный процесс, требующий системного подхода. Развитие навыков монологического высказывания способствует не только успешному владению русским языком, но и формированию коммуникативной компетенции, необходимой для дальнейшего образования и профессионального роста. Эффективное использование методических приёмов, разнообразие речевых ситуаций и поддержка со стороны учителя помогают преодолеть языковые барьеры и развить полноценные навыки монологической речи.

Предложения

1. Разработать специальные учебные пособия с упором на развитие монологической речи для старшеклассников, изучающих русский язык как неродной.

2. Внедрять в учебный процесс ролевые и коммуникативные игры, стимулирующие самостоятельное построение монологов.

3. Использовать технологии записи аудио- и видеовыступлений для анализа ошибок и развития навыков публичного выступления.

4. Организовывать дискуссионные клубы и дебаты для расширения лексического запаса и развития аргументированной речи.

5. Проводить методические семинары для учителей, направленные на освоение современных методов обучения монологической речи.

ЛИТЕРАТУРА

1. Алексеева, Л. Н. Методика обучения русскому языку как неродному. — М.: Русское слово, 2019.
2. Бахтин, М. М. Проблемы речевого жанра. — М.: Лабиринт, 2000.
3. Вербицкая, Л. А., Капинос, В. И. Русская речь и культура общения. — М.: Флинта, 2018.
4. Гальскова, Н. Д. Современная методика преподавания иностранных языков: Пособие для учителя. — М.: Аркти, 2020.
5. Костомаров, В. Г. Русский язык за рубежом: Проблемы обучения и восприятия. — М.: Просвещение, 2017.

6. Пассов, Е. И. Коммуникативный метод обучения иностранным языкам. — М.: Просвещение, 2015.
7. Сухобская, Л. А. Монологическая речь: методика формирования и развития. — СПб.: Наука, 2016.
8. Хавронова, С. Е., Широноская, Л. П. Русский язык в упражнениях. — М.: Русский язык. Курсы, 2019.
9. Цейтлин, С. Н. Язык и дети: Лингвистика детской речи. — СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2012.
10. Шахнарович, А. М. Психоллингвистика и обучение русскому языку как неродному. — М.: Лингвистика, 2018.



Nargiza SALIYEVA,
Jizzax shahridagi Sambxram universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, PhD

Siyosiy fanlar doktori F.Jurakulov taqrizi asosida

JAMIYAT IDEOSFERASI TUSHUNCHASINING IJTIMOY –FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat ideosferasi tushunchasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ideosferaning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, uning g'oyaviy va ma'naviy jarayonlar bilan bog'liqligi tadqiq etiladi. Maqolada shuningdek, ideosferani shakllantiruvchi asosiy omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy rivojlanish, ideosfera, mafkuraviy kategoriya, ekologik dunyoqarash, umumijtimoiy ideosfera.

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ ИДЕОСФЕРЫ СООБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье анализируется понятие идеосферы общества с социально-философской точки зрения. Исследуется влияние идеосферы на развитие общества, а также её связь с идейными и духовными процессами. Кроме того, рассматриваются основные факторы, формирующие идеосферу.

Ключевые слова: Общественное развитие, идеосфера, идеологическая категория, экологическое мировоззрение, универсальная идеосфера.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF COMMUNITY IDEOSPHERE

Annotation

This article analyzes the concept of the ideosphere of society from a socio-philosophical perspective. It examines the influence of the ideosphere on societal development and its connection to ideological and spiritual processes. The article also explores the main factors shaping the ideosphere.

Key words: Social development, ideosphere, ideological category, ecological outlook, universal ideosphere.

Kirish. Jamiyatning ma'naviy-ideologik yo'nalishi uning ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Jamiyat ideosferasi uning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy aloqalarni yaxshilash va taraqqiyotga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jarayonning samaradorligi tarixiy, madaniy, siyosiy va diniy omillarning bir-biriga uyg'unlashuviga bog'liq. Shuning uchun ham jamiyatdagi har bir individ va jamoatchilik ideosferaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat ideosferasi haqida gap ketganda, avvalom bor ideosfera tushunchasi haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Ideosfera insonning dunyoqarashi, qarashlari, qadriyatlari va mafkuraviy tushunchalari majmuasi bo'lib, jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan asosiy sohalaridan biridir. Shu sababli, ideosferani o'rganishda uning asosiy xususiyatlarini aniqlash muhimdir:

Tarixiylik va dinamiklik – Ideosfera ma'lum bir jamiyatning madaniy va ma'naviy rivojlanish bosqichiga bog'liq holda o'zgaradi. Har bir davr va hudud uchun ideosferaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ijtimoiy ta'sirchanlik – Jamiyatdagi siyosiy va mafkuraviy jarayonlar ideosferaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, davlat siyosati, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari ideosfera shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Ilmiy va nazariy asoslar – Ideosfera turli ilm sohalarini (falsafa, sotsiologiya, psixologiya va siyosatshunoslik) orqali tadqiq etilishi mumkin.

Milliy va umuminsoniy xususiyatlar – Milliy g'oyalari va madaniyat asosida shakllangan ideosfera, globallashuv jarayonlari ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Ayniqsa, globallashib borayotgan dunyoda millatlar va milliy taraqqiyot tamoyillari nuqtai nazaridan ushbu tushunchaning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy o'rganishning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Global madaniyat va axborot texnologiyalari orqali shakllanayotgan yangi ideosfera jamiyatning ma'naviy jihatdan qanday rivojlanishini belgilab bermoqda. Shu munosabat bilan, jamiyat ideosferasini barqaror va samarali shakllantirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

Milliy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash;
Axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

Ta'lim va ilm-fan orqali jamiyatning g'oyaviy salohiyatini oshirish.

Ideosfera inson va jamiyat hayotida keng qamrovli rol o'ynaydi. Uning ta'sir doirasi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Ijtimoiy barqarorlik – Ideosfera jamiyatdagi ma'naviy birdamlikni ta'minlaydi, insoniylik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Siyosiy jarayonlarga ta'sir – Jamiyatdagi mafkuraviy muhit siyosiy qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.

Madaniy rivojlanish – Milliy an'analar va qadriyatlar ideosfera orqali uzluksiz rivojlanib boradi.

Shu boisdan ham hozirgi davrda "ideosfera" tushunchasini shu sohaga doir kategoriyalar, atama va turlicha talqinlarning mazmun-mohiyatini o'rganish bilan birga, uning obyektiv va subyektiv asoslari, milliy va umumbashariy xususiyatlarini har tomonlama va chuqur tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, globallashib borayotgan dunyoda millatlar va milliy taraqqiyot tamoyillari nuqtai nazaridan ushbu tushunchaning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy o'rganishning dolzarbligi yanada ortib bormoqda[1].

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek: "Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta'siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda qolmoqda va bu tashvishli hol, albatta. Ushbu masalalarni o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar esa, tor doirada amalga oshirilmoqda"[2].

Ideosfera tushunchasi ijtimoiy va mafkuraviy kategoriya sifatida inson va jamiyat haqidagi ilmiy izlanishlarda muhim ahamiyatga ega. Jamiyat g'oyaviy tizimini o'rganish, uning tuzilmalari, funksiyalari va xususiyatlari, unda ishtirok etadigan

sube'ktlarning roli, bajaradigan amaliy ishlari va hatti-harakatlarini tadqiq etish ideosfera kategoriyasini mohiyatini ochib beradi.

Ideosfera tushunchasi dastlab fransuz faylasufi Pyer Teyyar de Sharden tomonidan ilgari surilgan. Uning fikricha, ideosfera jamiyatning ma'naviy fazosini tashkil etuvchi g'oyalar va mafkuraviy tushunchalar yig'indisini anglatadi. Ideosfera shaxs va jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda asosiy vosita hisoblanadi[3].

Insoniyat tarixida jamiyatlar rivojida ideosfera muhim rol o'ynagan. Mafkuraviy muhit jamiyat mavjudligi sharoitida gohida bunyodkor, gohida vayronkor xususiyatlarini namoyon etib kelgan. Mazkur xususiyatlarining o'rtasida falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni asosida ziddiyatli vaziyatlar ham ko'pincha sodir bo'lgan. Mazkur ziddiyatlar taraqqiyot tamoyili sifatida ham rol o'ynagan. "Ideosferani xuddi tirik organizmdan tasavvur qilish mumkin, u dunyoga keladi, o'sadi, uchrashadi, ko'payadi, boshqa g'oyalar bilan to'qnashadi, shuningdek, oxir-oqibatda halok bo'ladi", deb ta'kidlaydi B. Veber[4].

Ideosfera insoniyat bir necha ming yilliklar davomida yaratgan barcha turdagi fikrlarning yig'indisidir. Ideosfera zamonaviy ilmiy qarashlar nuqtai nazaridan qaraganda olamda aql va tafakkurning alohida roli haqidagi tushunchalardan kelib chiqib, turli madaniy urf-odatlar, etnoslar va millatlar, diniy konfessiyalar va jinslardagi odamlar o'rtasidagi muloqot shakllarini rivojlantirish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir.

Internet manbalarida "Ideosfera – insoniyat hayotiy faoliyatida yig'ilgan san'at, din, dunyoqarashning mifologik formalaridan tashkil topgan muhiti"[5], deb ko'rsatilgan.

Shu o'rinda, ideosfera va dunyoqarash tushunchalarining mohiyatini chuqurroq anglab olish uchun, avvalo ularning umuman dunyoqarash, xususan falsafiy dunyoqarash tizimidagi o'rini aniqlab olish zarur.

Ma'lumki, dunyoqarash – kishilarning olam, uning kelib chiqishi, tuzilishi, o'zgarishi, rivojlanishi, unda insonning o'zni haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa qarashlari va tasavvurlari majmuidan iborat. Uning nisbatan umumlashgan tarifiga ko'ra, dunyoqarash – insoniyatni o'tmish merosi, hozirgi hayot va bunda sharoitlar, tizimlarning anglab olingan qadriyatidir. Dunyoqarash-kishilarning turmush tarzi, hayoti, ahloq-odobi, madaniyatini o'zida mujassamlantirgan tasavvur va bilimlar yig'indisidir[6].

Dunyoqarash alohida kishining, ijtimoiy guruhning, qatlamning, korporativ bilikning yoki insoniyat jamiyatning voqelikka munosabatini va faoliyat yo'nalishini ifodalaydi hamda belgilaydi. Shu jihatdan, muayyan shaxs va jamiyat ekologik

dunyoqarashi, umumiy dunyoqarashining o'ziga xos shakli, tarkibiy qismi va yo'nalishi hisoblanadi.

Ideosfera falsafiy va boshqa dunyoqarash shakllari bilan sintezlashgan, integratsiyalashgan tarzda namoyon bo'lsada, uning asosiy obyekt inson va jamiyat bo'lganligi bois, shakllanish va takomillashuv jarayoni subyektiv omil bo'lgan siyosiy ongning individual va ijtimoiy darajalari rivojlanishi uyg'unligiga bilan bog'liq.

"Ideosfera" tushunchasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilar, jihatlar, xilma xil xususiyatlar bilan bog'liq jihatlar ham muhim o'rin egallaydi. Ular ushbu tushunchaning turli shakllari uchun umumiy mezon va tayanch omillar bo'lib hisoblanadi. Muayyan davrda yoki biror bir mamlakatda yashayotgan har qanday kishi umumijtimoiy ideosferani anglashda va o'z faoliyatini uning umumiy mezonlariga uyg'unlashtirishda ushbu jihatlariga e'tibor qaratadi va ular bilan bog'liq talablarga rioya qilishi tabiiy hol hisoblanadi.

Jamiyat ideosferasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: Birinchidan, o'zgaruvchanlik xususiyatida ideosfera tarixiy rivojlanish jarayonida muntazam o'zgarib boradi va bunga ijtimoiy-tarixiy davrlar hamda manbalar guvohlik beradi.

Ikkinchidan, ideosfera turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning manfaatlari aks ettirishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, zamonaviy jamiyatlarda ideosfera turli axborot kanallari orqali tarqaladi va yangilanib turishi hozirgi kunda hech kimga sir emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, jamiyat ideosferasi jamiyatning umumiy axloqiy va ma'naviy yo'nalishini belgilaydi. U ta'lim, madaniyat, siyosat va iqtisodiy tizimlar kabi ko'plab sohalaridan ta'sir olib, doimiy rivojlanib boradi. Har bir avlod o'z g'oyalari va qarashlari orqali ushbu tizimni yanada boyitadi. Shuningdek, ideosferaning turli elementlari jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqot va hamkorlikning mustahkam moydevorini tashkil etadi.

Xulosa. Jamiyat ideosferasi – bu jamiyatning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy muhiti, u jamiyatning umumiy fikrlash, qadriyatlar, an'analar va ideallarini o'z ichiga oladi. Ideosfera jamiyatning ma'naviy asosi bo'lib, u insonlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. Ideosfera jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki u insonlarning ijodiy faoliyati, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ideosferaning o'zgarishi jamiyatning umumiy rivojlanishini, innovatsiyalarni va ijtimoiy o'zgarishlarni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Отамуратов С. Глобализация в миссии. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси - Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. -293 б.
3. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. — М.: Наука, 1987
4. Вебер Б. Энциклопедия относительного и абсолютного знания: -Москва, Гелеос, 2007. —с. 7
5. Учение о ноосфере. <http://transhumanism-russia.ru/content/view/306/62>.
6. Фалсафа комусий луфат. Тошкент.: Шарк, 2004. 115-б



Baxtiyar SATTAROV,
University of Business and Science professori v.b
E-mail: b.sattarov@gmail.com

NamMQI professori M.Ismoilov taqrizi asosida

UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNING TURLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada universal ta'limiy faoliyatlari tushunchasi, uning mohiyati, ta'lim sohasiga kirib kelishi, turlari, universal ta'limiy faoliyatlari nazariyasining asoschilari haqida pedagogik fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Faoliyat, universal ta'limiy faoliyat, kommunikativ, kognitiv, regulyativ, shaxsiy universal ta'limiy faoliyatlar.

ПОНЯТИЕ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ И ИХ ВИДЫ

Аннотация

В статье раскрывается понятие универсальных учебных действий, его сущность, введение в сферу образования, его виды, а также педагогические идеи основоположников теории универсальных учебных действий.

Ключевые слова: Действие, универсальные учебные действия, коммуникативные, познавательные, регулятивные, личностные универсальные учебные действия.

THE CONCEPT OF UNIVERSAL EDUCATIONAL ACTIVITIES AND THEIR TYPES

Annotation

This article describes the concept of universal educational activities, its essence, its introduction into the field of education, its types, and pedagogical ideas about the founders of the theory of universal educational activities.

Key words: Activity, universal educational activity, communicative, cognitive, regulatory, personal universal educational activities.

Kirish. Mamlakatimizning ertangi kuni va kelajagi uning gullab-yashnashi hamda rivojlanishi asosan o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom, har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishiga bevosita bog'liqdir. Bu esa vatanimiz kelajagi bo'lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy, ruhiy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo qiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan ta'lim va tarbiyaga oid bo'lgan bir qator Qonun, Farmon hamda Qarorlar katta ahamiyatga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot obyekti sifatida universal ta'lim faoliyatlari da va ularning turlari universal ta'limiy faoliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish jarayonini belgilab oldik. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun uning mavzusiga mos keladigan bir-birini to'ldiradigan ilmiy usullar: ilmiy, uslubiy va pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, sotsiologik usullar to'plami qo'llanildi.

Zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifasi – bu o'rganish jarayonini, “shaxsning qobiliyatini rivojlantiradigan universal ta'lim faoliyatlari to'plamini shakllantirish”[1]. O'quvchilar tomonidan alohida fanlar bo'yicha aniq bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish emas, balki yangi ijtimoiy tajribani ongli va faol o'zlashtirish orqali o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi takomillashtirishdir.

“UTF” tushunchasining paydo bo'lishi ta'lim paradigmasining o'zgarishi bilan bog'liq. Bilim, ko'nikma va malakalarning o'zini o'zlashtirish maqsadidan o'quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadiga o'tish bilan bog'liq. Bunda o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchining individual o'ziga xosligini, ijtimoiy kompetensiyasini, bag'rikengligini, mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish qobiliyatini ta'minlaydigan faoliyatlar usullari to'plami tushuniladi.

Boshlang'ich ta'lim – o'qitish tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, ta'limning keyingi bosqichlaridagi o'qitish va tarbiyalash samaradorligi bu davrning muvaffaqiyatiga bog'liq, shuning uchun “boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi, shu jihatdan barcha o'quvchilarga bepul ta'lim olish xuquqi berilgan”[2]. Boshlang'ich ta'limda faoliyat jarayoni samaradorligini oshirish uchun bir qator dolzarb masalalarga innovatsion yechimlar kerak. Shunday yechimlardan

biro' quvchilarda UTFni shakllantirish samaradorligini oshirish, ularga mustaqil ta'lim olish, o'quv maqsadlarini belgilash, ularni amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish, o'z yutuqlarini baholash va nazorat qilish, o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatlarini ta'minlashdir.

Ta'lim faoliyatining bir xil darajada muhim vazifasi ta'lim konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiyani bir qancha olimlar: V.V.Davydov, I.I.Ilyasov, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin kabilar o'zlarining tadqiqot ishlarida ko'rib chiqdilar. Bu olimlarning ishlaridan ma'lum bo'ladiki, o'quv vazifasining asosiy xususiyati shundaki, uni hal qilish uchun o'quvchilar muayyan masalalar sinfini hal qilishning umumiy usulini topishlari kerak. Shunga ko'ra, maktab o'quvchilarining ta'lim muammolarini hal qilish jarayonida o'quv faoliyatining shakllanishi sodir bo'ladi. O'quv vazifasi - o'quv faoliyatining asosiy birligi. Bu yerda yangi usul - vazifa, ya'ni, masalalar tizimini yechish orqali erishiladigan o'quv materialini o'zlashtirish usuli. “Universal ta'lim faoliyati” tushunchasini ko'rib chiqamiz. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan shuni tushunish mumkinki, harakatlar ta'lim deb ataladi, chunki ular ta'lim faoliyati birliklari hisoblanadi. “Universal” atamasi turli mavzular uchun ularning umumiy xususiyatini anglatadi, bu holda bu belgi meta-mavzu sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Agar biz keng ma'noda “universal ta'lim faoliyati” atamasini qismalarga ajratadigan bo'lsak, unda mualliflarning fikriga ko'ra, u o'rganish qobiliyatini, “subyektning faol, eng muhimi, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatini anglatadi. Yangi ijtimoiy tajribani ongli ravishda o'zlashtirish - psixologik ma'noda, ya'ni tor ma'noda bu atama yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish, shu jumladan, ushbu jarayonni tashkil etishni ta'minlovchi o'quvchilarning harakatlari (jumladan, tegishli ta'lim ko'nikmalari) majmui sifatida ta'riflanishi mumkin” [Asmolov 2007: 151]. I.A.Zimnya fikriga ko'ra umumjahon ta'lim faoliyatining juda keng tasnifi o'qitishda, birinchi navbatda, maqsadni belgilash, dasturlash, rejalashtirish, harakatlarni bajarish, nazorat qilish kabi harakatlar, shu jumladan. o'z-o'zini nazorat qilish, baholash, o'z-o'zini hurmat kabilarni o'z ichiga oladi. Keyinchalik I.A. Zimnya, o'quvchining aqliy faoliyati bilan bog'liqligi asosida pertseptiv, mnemonik va aqliy harakatlarni ya'ni intellektuallikni aniqlaydi. Muallif bilim olish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini

ta'minlaydigan 25 ta kognitiv universal ta'lim faoliyatiga to'xtalib o'tadi. Harakatlar, o'z navbatida, kichikroq operatsiyalarga bo'linadi: sintez, taqqoslash, tahlil, umumlashtirish, tasniflash va hokazo. Ta'lim harakatlarining ahamiyatini o'rganish va tahlil qilishda, fikrlash har doim nazorat va baholash bilan birga bo'lishi kerak bo'lgan ongli jarayon ekanligini ta'kidlamaslik mumkin emas.

Natijalar va muhokama. Shu o'rinda UTF o'zi nima? bu konsepsiyaning nazariy-uslubiy asosi nima? – degan o'rinli savol tug'iladi. UTF zamonaviy maktab ta'limida qanday o'rinni egallaydi, ular qanday vazifani bajaradi va qanday tasniflanadi? Bu savolga javobni Vikipediya materiallari to'plamidan javob topish mumkin: "UTF – o'rganish qobiliyatining asosiy elementi; o'quvchilarning hayoti davomida kerakli ijtimoiy tajriba yo'nalishi bo'yicha mustaqil ravishda rivojlanish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi harakatlari va o'quv qobiliyatlari to'plami"[3]. A.V.Fedotovanning so'zlariga ko'ra, bu "o'quvchilarning turli fan yo'nalishlari bo'yicha ham, o'quv faoliyatining o'zida ham keng yo'naltirilganlik imkoniyatini ochadigan umumlashtirilgan harakatlar, shu jumladan, o'quvchilar tomonidan uning maqsadli yo'nalishi, qiymat-mazmuni va operatsion xususiyatlaridan xabardor bo'lish"[4].

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, V.A.Dalinger, A.G.Asmolovlarning ilmiy maktabi qoidalariga asoslangan faoliyat yondashuvi Konsepsiyani ishlab chiqish uchun asos vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuvda bilimlarni o'zlashtirish, dunyo tasvirini shakllantirish jarayonining asosiy psixologik shartlari va mexanizmlari, shuningdek, o'quvchilar o'quv faoliyatining umumiy tuzilishi to'liq ochib berilgan. UTFlar D.B.Elkonin va V.V.Davidov tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Maktab o'quv jarayonida UTFlar umumta'limning tegishli darajasidagi (boshlang'ich, asosiy, o'rta (to'liq)) asosiy o'quv dasturini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishining shaxsiy va metapredmet natijalari sifatida ishlaydi. "UTFlar Rossiya Federatsiyasida ikkinchi avlod davlat ta'lim standartlarida belgilangan va 2009-yildan beri maktablarning ta'lim faoliyatiga kiritilgan"[5]. Boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarda UTFlarni shakllantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, maqsadlari va o'quv faoliyatining tabiatini o'zgartirish, ustuvorliklarni o'tkazish bilan bog'liq ma'lum farqlar mavjud. UTFlar asosiy umumta'lim dasturini o'zlashtirishning shaxsiy va ortiqcha fan natijalariga taalluqli bo'lganligi sababli, ularni o'zlashtirish faqat ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'lishi mumkin emas, balki ma'lum bir mavzuga tegishli bo'lishi mumkin.

Natijalar va muhokama. Ta'limning barcha bosqichlarida UTFlarni shakllantirishning eng muhim va ajralmas shartlaridan biri o'quvchilar tomonidan universal ta'lim faoliyatini shakllantirishda uzluksizlikni ta'minlashdir. Shu maqsadda UTFlarni shakllantirish dasturining har bir bosqichi har bir maktabda mavjudligini ta'minlaydi.

Universal ta'lim faoliyatining quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Shaxsiy UTF "o'quvchilar qadr-qimmatini (harakat va hodisalarni qabul qilingan axloqiy tamoyillar bilan bog'lash qobiliyati, axloqiy me'yorlarni bilish va xulq-atvorning axloqiy tomonini ta'kidlash qobiliyati) mustahkamlash va ijtimoiy rollar, shaxslararo munosabatlarga yo'naltirishni ta'minlaydi"[6].

Shaxsiy harakatlar uch turga ajratiladi:

– "shaxsiy, kasbiy, hayotiy o'zini o'zi baholash;

– shakllantirish ma'nosi, ya'ni o'quvchilar tomonidan ta'lim faoliyati maqsadi va uning motivi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish, boshqacha aytganda, o'rganish natijasi va u amalga oshirilayotgan faoliyatni nimaga undayotgani o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish;

– axloqiy va axloqiy yo'nalish"[7], o'zlashtirilayotgan tarkibni baholash (ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar asosida), bu shaxsiy axloqiy tanlovni ta'minlaydi.

2. Regulyativ UTF o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishni ta'minlaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

– o'quvchilarga ma'lum va o'rganilgan va hali noma'lum bo'lgan narsalarning o'zaro bog'liqligiga asoslanib, o'quv vazifasini belgilash sifatida maqsad qo'yish;

– rejalashtirish – yakuniy natijani hisobga olgan holda oraliq maqsadlarning ketma-ketligini aniqlash;

– harakatlar rejasi va ketma-ketligini tuzish;

– bashorat qilish – natija va bilimlarni o'zlashtirish darajasini, uning vaqtinchalik xususiyatlarini oldindan ko'rish;

– etalondan chetlanish va farqlarni aniqlash maqsadida harakat usuli va uning natijasini berilgan etalon bilan solishtirish shaklida nazorat qilish;

– korreksiya (tuzatish) – standart, amaldagi harakat va uning natijasi o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganda harakat rejasi va usuliga zarur qo'shimchalar va tuzatishlar kiritish;

– baholash – o'quvchilar tomonidan allaqachon o'rganilgan va hali o'rganilishi kerak bo'lgan narsalarni ajratib ko'rsatish va tushunish, o'zlashtirish sifati va darajasini bilish;

– o'zini o'zi tartibga solish – kuch va energiyani safarbar qilish, ixtiyoriy harakat qilish va to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati.

3. Kognitiv (aqliy) UTF "umumta'limiy, aqliy faoliyatlarni, shuningdek, masalani shakllantirish va hal qilish"[8]ni o'z ichiga oladi.

Umumta'lim universal faoliyatlar:

– kognitiv maqsadlarni mustaqil tanlash va shakllantirish; kerakli ma'lumotlarni qidirish va tanlash;

– axborotni izlash usullarini, shu jumladan, komp'yuter vositalari yordamida qo'llash;

– bilimlarni tizimlashtirish;

– og'zaki va yozma shaklda nutqiy bayonotni ifoda eta olish;

– muayyan sharoitlarga qarab muammolarni hal qilishning eng samarali usullarini tanlash;

– harakat usullari va shartlari, jarayon va faoliyat natijalarini nazorat qilish va baholash;

– semantik o'qish – o'qish maqsadini tushunish va maqsadga qarab o'qish turini tanlash; turli janrdagi tinglangan matnlardan kerakli ma'lumotlarni ajrata olish; birlamchi va ikkilamchi axborotni aniqlash; ommaviy axborot vositalari tilini tushunish va adekvat baholash;

– ijodiy va izlanish xarakteridagi masalalarni yechishda faoliyat algoritmlarini mustaqil yaratish.

Belgi-ramziy faoliyatlar umumta'lim universal faoliyatlarining maxsus guruhini tashkil qiladi:

– modellashtirish – obyektini modelga aylantirish, bu yerda obyektning muhim xususiyatlari ta'kidlangan; ushbu fan sohasini belgilaydigan umumiy qonuniyatlarni aniqlash maqsadida modelni o'zgartirish.

Muammoni bayon qilish va hal qilish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: muammoni topish, ijodiy va izlanish xarakteridagi muammolarni hal qilish usullarini mustaqil ravishda ishlab chiqish, o'z navbatida, masalani shakllantirish va hal qilish o'quvchilardan quyidagi harakatlarni shakllantirishni talab qiladi:

– "asosiy muammoni ajratib ko'rsatish;

– vazifani shakllantirish;

– o'quv muammosini hal qilish uchun qanday ma'lumotlar kerakligini mustaqil ravishda taxmin qilish;

– turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish va saralash;

– qo'yilgan izlanish yoki ijodiy vazifani hal qilishning turli usullarini mustaqil ravishda taklif qilish"[10].

4. Kommunikativ UTF ijtimoiy kompetensiyani va boshqa odamlarning, aloqa sheriklarining yoki faoliyatning pozitsiyasini hisobga olishni ta'minlaydi; tinglash va dialogga kirishish qobiliyati; "muammolarni guruh muhokamasida ishtirok etish; tengdoshlar guruhiga qo'shilish, tengdoshlar va kattalar bilan samarali muloqot hamda hamkorlik" [10]ni o'rnatishni ta'minlaydi.

Xulosa. UTFning butun tarkibini shakllantirishning ma'lum usullaridan foydalangan holda shakllanishi kerak. Kuzatish va tajribalarimizdan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkin, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun albatta, pedagogik muomala, bir xillikdan qochish uchun, turli usul va vositalar, o'quvchilar bilan yaxshi munosabat uchun pedagogik hamkorlik, o'z bilimlariga ishonch uchun ixtisoslikka oid chuqur va yangi bilimlar va albatta pedagogik qobiliyat o'qituvchiga doimo yo'l ko'rsatib turuvchi mayoq vazifasini bajarib turadi. Bu

qobiliyatlarsiz o'qituvchi o'z yo'lidan yurishda turli xildagi qiyinchiliklarga uchrashi, o'ziga ishonchini yo'qotishi va eng asosiysi o'quvchilarni darsga qiziqishlarini yo'qotishi, ularni bilimsizlikka duchor qilishi ham hech gap emas. Shu munosabat bilan UTFning shakllanish darajasini diagnostika qilish masalalari

alohida ahamiyatga ega, chunki diagnostika natijalarini fikr-mulohaza sifatida hisobga olgan holda, o'qituvchi UTFni shakllantirishdagi asosiy muammolarni aniqlay oladi, bu ularga ularning shakllanishi va rivojlanishi jarayonini moslashtirish va uni yanada izchil va mantiqiyashtirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Асмолов А. Г. Проектирование универсальных учебных действий в школе / Г. В. Бурменская, И. А. Володарская, О. А. Карабанова, С. В. Молчанов, Н. Г. Салмина. – Текст: непосредственный // Национальный психологический журнал. – 2011. – № 1 (5). – С. 104–110.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel
3. Википедия (свободная энциклопедия) // <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Abdullayev A.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini shakllantirishda universal ta'lim faoliyatlarining o'rni // Ta'lim, fan va innovatsiya Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal 6-son, 2023-yil.
5. Бабина, Н. Ф. Формирование универсальных учебных действий на уроках технологии / Н. Ф. Бабина, В. Р. Бурлуцкая // Перспективы науки и образования. – 2017. – № 4(28). – С. 44-46.
6. Асмолов А.Г. Как будем жить дальше? Социальные эффекты образовательной политики // Лидеры образования. – 2007. - № 6.
7. Андропова, О. С. Формирование универсальных учебных действий в образовательном процессе как средство реализации ФГОС [Электронный ресурс] // О. С. Андропова.
8. Андреева, Н. Д. Проблемы формирования универсальных учебных действий у школьников при обучении биологии / Н. Д. Андреева, Н.В. Малиновская // Мир науки, культуры, образования. 2013. –№ 5(42). –С. 60-65.



Gulnora SULTANQULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti professori F.Haydarov taqrizi asosida

SHAXSDA KOPING-XULQNING NAMOYON BO‘LISH JARAYONIDAGI IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLAR
Annatsiya

Ushbu maqolada koping-xulqini shakllanish mexanizimi va uni namoyon bo‘lish jarayoniga bag‘ishlangan. Shaxsning psixologik xususiyatlari, ularning motivatsiyasi, o‘z-o‘zini tartibga solish strategiyalari, stress omillarida koping-xulq strategiyalarini oshirish yo‘llari va koping mexanizmlarini to‘g‘ri shakllantirishda psixologik jihatlar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Koping strategiyasi, stress, his-tuyg‘ularni boshqarish, koping modeli.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ КОПИНГ-ПОВЕДЕНИЯ У ИНДИВИДА
Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется механизму формирования совладающего поведения и процессу его проявления. В ней представлены психологические особенности личности, ее мотивация, стратегии саморегуляции, методы совершенствования стратегий преодоления стрессовых ситуаций и психологические аспекты правильного развития механизмов совладания.

Ключевые слова: Копинг-стратегия, стресс, управление эмоциями, модель копинга.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF COPING BEHAVIOR MANIFESTATION IN AN INDIVIDUAL
Annotation

This article focuses on the mechanism of coping behavior formation and the process of its manifestation. It presents the psychological characteristics of individuals, their motivation, self-regulation strategies, methods for enhancing coping strategies in stressful situations, and psychological aspects of properly developing coping mechanisms.

Key words: Coping strategy, stress, emotion management, coping model.

Kirish. Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning softligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbidan doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta‘kidladi Prezidentimiz.

Mamlakatimizdani barcha ta‘lim bo‘g‘inlarida xususan maktabgacha ta‘lim, maktab, oliy ta‘lim tizimlarida ta‘lim – tarbiyaga, o‘ziga kelayotgan alfa avlod [1] tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilayotur. Shaxsning xulq-atvori, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi bugun ta‘lim oldidagi alohida vazifalaridan biridir, zero bu masala pedagogika, psixologiya, tarbiya fanni, satsiologiya va boshqa fanlarning predmetidir.

Zamonaviy psixologiyada shaxsning stressli holatdan chiqishi, mushkul vaziyatda o‘zini boshqarishi hamda nizoli holatlardan ta‘lofatsiz chiqib keta olish yo‘llarini o‘rgatish bilan farqlanayapti. Koping-xulq (coping behavior) [2]: Odatda, insonning stress va qiyinchiliklarga moslashish jarayoni sifatida ta‘riflanadi. Universitet talabalari uchun bu jarayon o‘qish, shaxsiy munosabatlar va kasbiy rivojlanish bilan bog‘liq stressga qarshi moslashish strategiyalarini o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shaxsning xulq atvorini o‘rgangan, Zimnyaya I.A., [3] Abdumadjidova D.R., [4] Toshtemirovna Y.D., [5] Oribboyeva D. D., [6] Abdumadjidova D.R., [7] kabilar shaxsning xususan talaba yoshlarda xulq o‘zgarishi, agressiya, shaxsda ijobiy va salbiy xulqlarning namoyon bo‘lish psixologiyasi o‘rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Miqdoriy va sifat tadqiqotlar: Koping strategiyalarini o‘lchash modeli. Guruh va shaxs darajasida ijtimoiy aloqalarni tahlil qilish.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Mamlakatimiz ta‘lim tizimi va milliy mentalitetga mos koping-xulq strategiyalarini ishlab chiqish. Shaxslarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini o‘rganishda madaniy kontekstni hisobga olish.

Asosiy qism. Koping - deganda odamlar stressli vaziyatlarni yengish uchun foydalanadigan fikrlar va xatti-harakatlar tushuniladi. Aksariyat psixologlar koping tushunchasini stressli uchrashuvlarni boshqarish uchun ongli va maqsadli harakatlar bilan cheklangan bo‘lsalar-da, ba‘zi nazariyotchilar stressli vaziyatlarni yengishning ko‘proq avtomatik va beixtiyor usullarini "koping rubrikasi"ga kiritish kerakligini ta‘kidladilar. Stressing inson salomatligi va faoliyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini tushunish uchun koping tuzilmasini aniqlash zarur ekanligi ayon. Kopingni konseptualashtirish bo‘yicha ko‘plab takliflar mavjud bo‘lsa-da, uning asosiy toifalari bo‘yicha yagona kelishuv yo‘q.

Insonning zaiflik va chidamlilik nazariyalarida koping tushunchasi muhim o‘rin tutadi: Nima sababdan qiyinchiliklar ba‘zi odamlarni tushkunlikka tushiradi, boshqalar esa xuddi shu qiyinchilikni yengib o‘tadi yoki hatto uning oqibatida yanada rivojlanadi? Koping hissiyot nazariyalari bilan ham chambarchas bog‘liq. Koping harakatlarining asosiy maqsadlaridan biri stress sharoitida salbiy his-tuyg‘ularni yumshatish va ijobiy his-tuyg‘ularni rag‘batlantirish bo‘lgani uchun, kopingning bu jihatini stressli vaziyatlarda hissiyotlarni boshqarish deb hisoblash mumkin. Ba‘zi psixologlar koping va hissiyotlarni boshqarish o‘zini o‘zi nazorat qilishning tarkibiy qismlari ekanligini ta‘kidlashadi.

Koping jarayonlarini tushuntirish uchun ishlab chiqilgan ko‘plab nazariy asoslar ko‘pincha ikkita keng koping modellarining variantlari hisoblanadi. Modellardan biri Lazarus va Folkmaning (1984) [8] muammoga yo‘naltirilgan koping deb ataladigan tahdidni hal qilish yoki kamaytirish harakatlari va hissiyotga yo‘naltirilgan koping deb ataladigan voqea bilan bog‘liq hissiy tushkunlikni modulyatsiya qilishga urinish

harakatlari o'rtasidagi farqidir. Ikkinchi modelda stressning qabul qilinayotgan manbasiga yo'naltirilgan koping harakatlari, kopingga yondashuv va shaxsni stress manbasidan uzoqlashtirishga mo'ljallangan, ya'ni kopingdan qochish harakatlari farqlanadi. (Moos, Brennan, Fondacaro, & Moos, 1990).

Modellardan biri Lazarus va Folkmaning (1984) muammoga yo'naltirilgan koping modeli qanday ishlaydi, masalan Sabina ertalab uyqudan uyg'onadi va soatga qarab universitetga kech qolganligini anglaydi shunda u vahimaga tushib, "bugun dushanba dars bormi?" - deb o'ylaydi. Endi u o'qishga kechikadi. U kechikishning keyingi oqibatlarini haqida tashvishlanishni boshlaydi. Professor tamonidan berilgan topshiriqqa vaqti yetmaydi. Ehtimol, dugonasi bilan tushlikni bekor


qilishiga to'g'ri keladi va o'qishdan uyga kech qaytishi mumkin. U o'zini horg'in, xavotirli va chorasiz his qiladi.

Bunday vaziyatlar kundalik hayotning bir qismidir. Sabinaga o'xshab, bizning yo'l tirbandligini yoki poyezdning kechikishini nazorat qilish imkoniyatimiz yo'q. Biroq, biz bunday vaziyatlarga qanday munosabat bildirishimizni nazorat qila olamiz. Lazarus va Folkmaning (1984) modeli shaxsning psixologik stress haqidagi tasavvuri, unga qarshi kurashish usullari va kognitiv baholashlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'kidlagan:

-nimalar sodir bo'lmoqda,

-inson bu vaziyat bilan qanday kurashmoqda va sodir bo'layotgan voqealar haqida qanday fikrlayapti.

Stress va unga moslashishning o'zaro ta'sir modeli (Lazarus & Folkman, 1984). [9].



Lazarus va Folkman (1984) kopingning ikkita asosiy turini ajratdilar: muammoga yo'naltirilgan koping va hissiyotga yo'naltirilgan koping. - birini stressga olib keladigan muammoni boshqarish yoki o'zgartirishga urinish (ya'ni, stressor).

Odamlarda koping xulq-atvor stressli yoki tahdidli vaziyatda yoki undan keyin o'zini tinchlantirish uchun amalga oshiriladigan harakatdir. Insonning fiziologik funksiyalarga ega bo'lgan ba'zi xatti-harakatlari, masalan, chaqaloqlarda qulay so'rish va kattalarda qulay ovqatlanish kabi koping xatti-harakatlari uchun ham xizmat qiladi.

Koping mexanizmlarining bir nechta turi mavud bo'lib, Vayten va Lloyd [10] koping strategiyalarining 4 turini taklif qiladi:

- baholashga yo'naltirilgan (adaptiv kognitiv);
- muammoga yo'naltirilgan (adaptiv xulq-atvor);
- hissiyotga yo'naltirilgan;
- kasbga yo'naltirilgan koping.

Vayten va Lloydning "baholashga yo'naltirilgan" turida, mushkul vaziyatlarda shaxs aqliy faoliyati vaziyatni baholashga tushadi va uning oqibatlarini tahlil qilgan holda imkon izlaydi, "muammoga yo'naltirilgan" vaziyatni tahlil qiladi va unga yo'nalgan holda muammoni qabul qilib olib unga moslashishni boshlaydi, "hissiyotga yo'naltirilgan" turida esa mushkul holatda shaxsning hissiy holat daminantlik qilib unda psixologik va fizologik o'zgarishlar (nafas tezlashish, yurakni tez urushi, qizarish, oqarish, ovoz tonini o'zgarishi) kabi holatlar namoyan bo'ladi, "kasbga yo'naltirilgan koping" bu yurda esa keskin holatlar, nizoli holatlarni inson psixologiyasi vaziyatni kasba yo'naltirish kichadi misol uchun avtomobil boshqaruvchi yo'l transport hodisasini sodir etdi, kutilmagan bu vaziyat miya ishlash sistemasini tormozlaydi ma'lum vatda odam bu holatni

egalab turgan kasbga yo'naltiradi yo vaziyatni to'g'ri baholab yumatadi yoki qiyinlashtiradi.

Vayten va Lloyd tamonidan ko'rsatilgan koping xulq mexanizmlari, mushkul vaziyatlarda insonlarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib, bu shaxsning individual xususiyatlarida, IQ darajalariga hamda vaziyatni baholat jihatlarini bilan farqlanadi.

Zamonaviy psixologiyada stressni boshqarish uni yengish masalasida ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda, sababi biz yaxshab turgan zamonda har qachongidanda ko'proq psixologik yordamga ehtiyoj sezilayapti. Ularga yordam berish rejasini odatda ikki turdagi strategiyalarni o'z ichiga oladi:

1) muammoga qaratilgan kurashish usuli, bunda ular ish yoki o'qishdagi muammolar, munosabatlardagi qiyinchiliklar va moliyaviy masalalar kabi stress manbalarini kamaytirish yoki bartaraf etish uchun harakatlar qilishadi;

2) o'ziga qaratilgan kurashish usuli, bunda ular stress manbalari tufayli yuzaga kelgan hissiy reaksiyalarini yaxshilash uchun turli ko'nikma va faoliyatlardan foydalanadilar.

Shaxsda koping-xulqning namoyon bo'lish jarayoni quyidagicha misollar keltiramiz:

Javob berishdan oldin chuqur nafas olib, o'ngacha sanash; Fikrlarni jamlash uchun vaziyatdan chetlashib, sukut qilish;

Yordam olish uchun do'st, oila a'zolariga murojaat qilish; Diqqatni chalg'itish usullari orqali fikrni boshqa narsalarga yo'naltirish (kitob o'qish, qo'l mehnati bilan shug'ullanish, ovqat tayyorlash va hokazo)

Muammoga yo'naltirilgan koping, stressli vaziyatlarni boshqarish va stress manbalarini individual xatti-harakatlar orqali o'zgartirish yoki bartaraf etish uchun inson-muhit munosabatini o'zgartirish uchun barcha faol harakatlarni bajaradi.

Xulosa va takliflar. Shunday xulosa qilinadiki, muammo yoki stressli vaziyatlarda inson deyarli hech narsa qila olmasligiga ishonadi. Ko'p hollarda, vaziyatni yaxshilash uchun ma'lum choralar ko'rish mumkin, lekin bu ko'p vaqt, kuch va stress talab qilishi mumkin. Bu jarayonda munosabatlarni yaxshilashga e'tibor qaratilmaydi, va bu maqsaddan voz kechish yolg'izlikni saqlab qolish yoki qayta tiklashga hissa qo'shadi. Shunday ko'rinadiki, odamlar bu aylanmadan mustaqil ravishda chiqa olmaydilar va yolg'izlikni yengishda yo'l-yo'riq ko'rsatish hamda yordam berish uchun atrofdagi shaxslar yoki tashkilotlarga muhtoj bo'lishlari mumkin.

Tavsiya sifatida muammoli vaziyatlardan talofatsiz chiqib ketish strategiyasi sifatida:

Xulq-atvoriga asoslangan o'ziga qaratilgan kurashish hal qilishingiz lozim bo'lgan muammolar haqida o'ylashdan dam

olish va hissiy quvvatingizni tiklash uchun yoqimli faoliyatlar bilan shug'ullanishni o'z ichiga oladi;

Jismoniy o'ziga qaratilgan kurashish hayotingizdagi stress omillari tufayli ichki taranglikni his qilganingizda, tanangizni tinchlantirish uchun turli faoliyatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunga nazoratli nafas olish, meditatsiya, mushaklarni bo'shashtirish, tasavvur qilish va muntazam aerobika mashqlari kiradi;

Kognitiv o'ziga qaratilgan kurashish esa fikrlarni yozib borish kabi ko'nikmalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu stress manbalariga bo'lgan salbiy hissiy munosabatingizni kamaytirish uchun ular haqidagi fikrlash tarzingizni o'zgartirish orqali yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Vikipediya, erkin ensiklopediya., Alfa avlod - Z avloddan keyingi demografik guruh. Bu avlod vakillari qatoriga, asosan, 2010-yildan 2020-yilning o'rtalarigacha tug'ilganlar kiradi.
2. January 1997., *Psikhologicheskii zhurnal* 18(5):20-30., "Coping behavior" in the system of concepts of the psychology of personality.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология: уч. для студентов по пед. и психол. направ. и спец. — М.: Логос, 2000. — С. 45.
4. Abdumadjidova D.R., "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi. 2018 y.
5. Toshtemirovna Y.D., "Talabalarda xulq-atvor boshqaruvining psixologik xususiyatlari" Образование и инновационные исследования (2024 год № 2).
6. Oribboyeva D.D., "Assertiv xulq shakllanishining o'ziga xosligi" "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz February 2024 / Volume 5 Issue 2.
7. Абдумаджидова Д.Р., Педагогик фаолият тизимида мактаб ўқувчиларида ассертив хулқни шакллантиришнинг психологик хусусиятлари. *Замонавий таълим / современное образование* 2017, 3.
8. Lazarus and Folkman's Transactional Model of Stress and Coping. Stress va unga moslashishning o'zaro ta'sir modeli (Lazarus & Folkman, 1984).
9. PositivePsychology.com. <https://positivepsychology.com>.
10. Weiten, W. & Lloyd, M.A. (2008). *Psychology Applied to Modern Life* (9th ed.). Wadsworth Cengage Learning.



UDK:9 (575.1)

Odiljon TOPILDIYEV,

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n

E-mail: rodilbek@mail.ru

O‘zMU professori H.Xudayqulov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF STATE YOUTH POLICY IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation

The article tells about the development of the state youth policy in the country and the creation of a completely new system of work with youth in recent years, about the growing social activity of youth, their sense of involvement in the fate of the Motherland and the people, about the role of youth in building a modern democratic New Uzbekistan.

Key words: Youth, new system, social activity of youth, education, upbringing, youth organizations, unemployed youth, Youth Notebook, Youth - creators of the future, problems of youth, employment of youth.

РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье рассказывается о развитии государственной молодежной политики в стране и создании совершенно новой системы работы с молодежью за последние годы, о растущей социальной активности молодежи, ее чувстве сопричастности к судьбе Родины и народа, о роли молодежи в построении современного демократического Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Молодежь, новая система, общественная активность молодежи, образование, воспитание, молодежные организации, безработная молодежь, Молодежный блокнот, Молодежь - творцы будущего, проблемы молодежи, занятость молодежи.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING RIVOJLANISHI

Аннотация

Maqolada mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatining rivojlanishi va so‘ngi yillarda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangicha tizim yaratilgani, yoshlarning ijtimoiy faolligi, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hissi kuchayib borayotgani, zamonaviy demokratik Yangi O‘zbekiston davlatini barpo etishda yoshlarning tutgan o‘rni haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, yangicha tizim, yoshlarning ijtimoiy faolligi, ta‘lim, tarbiya, yoshlar tashkilotlari, ishsiz yoshlar, Yoshlar daftari, Yoshlar – kelajak bunyodkori, yoshlarning muammolari, yoshlar bandligi.

Kirish. 1991-2025 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni ta‘lim-tarbiyasi, milliy an‘ana, qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ma‘naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol, vatanparvar avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq, manfaatlarini himoya qilish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Bugun yoshlar masalasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil va qat‘iylik bilan davom ettirish ijtimoiy, siyosiy, demokratik jarayonlarga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning quyidagi “Yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi masalasi barcha zamonlarda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Yoshlar xalqimizning oltin fondi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim berish, tarbiyalash muhim masaladir.”– degan fikrlari nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzu bo‘yicha quyidagi Oliy ta‘limning normativ-huquqiy asoslari, Oliy ta‘lim tizimini isloh qilishning meyoriy-huquqiy ta‘minoti xususida ayrim mulohazalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta‘lim soxasiga oid farmonlaridan kelib chiqadigan vazifalar xususida ayrim mulohazalar, Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning o‘ziga xos muamolari kabi adabiyotlar [1,2,3,4], shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-son Farmoni, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 19 yanvardagi PQ-92-son Qarori, 2025 yil 14 fevral kuni yoshlar bilan videoselektor shaklida o‘tgan uchrashuvdagi vazifalar taxlil etildi. [5,6,7]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, statistika

ma‘lumotlari tahlili, induksiya va deduksiya kabi usullar qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar. 1991-2025 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirishga oid qonunchilik hujjatlarini quyidagi guruhlarga ajratib ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi:

Birinchi guruhga 1991-2000 yillarda qabul qilingan qonun hujjatlarini kiritish maqsadga muvofiq. Bu davrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi (1991), “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (1992), “Ta‘lim to‘g‘risida”gi (1992 yil, 1997 yil tahrirlari) qonunlar, Mehnat kodeksi (1995), Oila kodeksi (1998) va boshqa qator kodekslar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997), Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi (1997) qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi 1991 yilda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga, 1992 yilda esa “Bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiya”ga qo‘shildi. O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o‘qishga yuborish to‘g‘risida”gi qaror (1992), “Respublika yosh ijodkorlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1993), “O‘zbekistonda ta‘lim olayotgan yoshlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (1993), “O‘zbekiston Respublikasining yosh mualliflariga eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlari uchun Davlat mukofotini topshirish to‘g‘risida” (1993) “O‘zbekiston o‘quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida” (1993), “Ijodkor yoshlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida” (1993), “O‘zbekiston Respublikasining yosh mualliflariga eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlari uchun Davlat mukofotini topshirish to‘g‘risida” (1993), Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlari kasb-hunar ta‘limining yo‘nalishini o‘zgartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (1995), “O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” jamg‘armasi to‘g‘risida” (1996), “Huquqiy tarbiyani yaxshilash,

aholing huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi (1997 yil 25 iyun), "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi (1997 yil 6 oktabr), farmonlari ham e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash "Umid" jamg'armasini tuzish to'g'risidagi (1997 yil) farmoni, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti (1999 yil) hamda "Nihol" mukofotini (2000 yil) ta'sis etilishi yoshlar siyosatining rivojlanishida ularning kayfiyatlari, hayotiy maqsadlari, orzu-umidlari, intilishlari, qiziqishlarini ilmiy o'rganish, ulardan to'g'ri xulosa qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1991-2000 yillar davomida mamlakatda yoshlarga oid qonunchilik va yoshlar tashkilotlarini shakllantirishga alohida e'tibor berildi. Siyosiy partiyalarning yoshlar bilan ish olib boruvchi yoshlar qanotlari shakllandi.

Ikkinchi guruhga 2001 yildan 2016 yilning sentabriga qadar qabul qilingan qonun hujjatlarini kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi 2001 yil 4 yanvardagi Farmoyishi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2008), "Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun hujjatlarini takomillashtirilishi munosabati bilan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi (2010) qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, 2008 yilda Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyalar ratifikatsiya qilindi.

Bundan tashqari bu sohada voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish, ularni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash maqsadida "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (2007), "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon (2007) imzolandi, shuningdek, O'zbekistonda bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Harkat dasturi (2007), Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 17 yanvardagi qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2124-sonli qarori, 2016 yilning 10 dekabrda "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati Vasiylik Kengashining 65-sonli bayoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2016 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturlari aynan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni nazarda tutganligi bilan e'tiborga molik bo'ldi.

Uchinchi guruhga 2016 yilning sentabridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi olib borilayotgan islohotlar natijasida qabul qilinayotgan meyoriy hujjatlarni kiritish mumkin. Yangi O'zbekistonning davlat siyosatida yoshlarni qo'llab-quvvatlash yetakchi o'ringa ko'tarildi. Bu sifat va samara bosqichi bo'lib bu davr orasida O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni (2016 yil 14 sentabr) qabul qilindi. 2017 yil 30 iyunda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi va uning asosiy maqsadi yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratildi. O'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasida yoshlar kunini belgilash to'g'risida"gi qonun bilan 30 iyun – "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.[8] Buning natijasida mamlakatda yoshlar kuni bayram sifatida nishonlana boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017 yil 3 fevral), "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

(2017 yil 14 mart), "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2017 yil 18 iyul), "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi (2017 yil 28 iyul), "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2017 yil 13 sentabr), "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi (2017 yil 26 sentabr), "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi (2018 yil 28 iyun) qarorlari hamda 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2018 yil 25 yanvar), "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi (2018 yil 27 iyun) farmonlari, "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017 yil 26 sentabr), "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2018 yil 23 fevral) qarorlar, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ni [9] (2019 yil 8 oktabr), "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022 yil 19 yanvar) kabi prezident qaror va farmonlari qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlar Yangi O'zbekistonda bevosita yoshlar siyosatini yuksaltirishga qaratilganligi bilan nihoyatda dolzarb hamda ahamiyatli sanaladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (2021 yil 18 yanvar) qarorining qabul qilinishi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030 yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi kabi meyoriy hujjatlarda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarining samaradorligini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilishi yanada rivojlantirilmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosatining ushbu uchinchi guruhi Yangi O'zbekistonda sifat va samara bosqichi bo'lib, bevosita yoshlarning huquq, manfaatlari, ijtimoiy himoyasiga daxldor meyoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, 2017 yilning sentabrida Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida hamda 2018 yilning iyunida Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida yoshlar muammosiga xalqaro miqyosda e'tibor qaratilgani bilan ham Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida yangi tizim yaratilgani bilan dunyo mamlakatlari orasida alohida ajralib turganligini ko'rish mumkin.

Bugun dunyoda besh yoshgacha bo'lgan bolalarning qariyb to'rtdan biri to'yib ovqatlanmayotganligi, 260 milliondan ziyod yosh bola maktabda o'qimayotganligi, rivojlanayotgan mamlakatlarda maktab yoshidagi kichik bolalarning 60 foizida hamon minimal ta'lim olish imkoniyati mavjud emasligi kabi muammolarni borligi barchani o'ylashga majbur qilmoqda. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasida 2017 yildan boshlab yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangicha tizimni yaratilishi mamlakat yoshlariga barcha sohalarida yaratilayotgan imkoniyatlar darajasini yanada oshirdi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hissi kuchayib borayotgani, zamonaviy demokratik Yangi O'zbekiston davlatini barpo etishda yoshlarning munosib ishtirok etayotgani barchani quvontirmoqda. O'zbekistonda ilk bor ishsiz yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tizim – "Yoshlar daftari"ning joriy etilishi yoshlarga oid siyosatni yangi sifat bosqichiga ko'targanligini ko'rsatmoqda. Natijada o'tgan qisqa davr ichida respublikada yashayotgan 18-30 yoshdagi minglab ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj, ishsiz yoshlar "Yoshlar daftari"ga kiritilib, ularning muammolarini hal

qilish uchun hududlarda "Yoshlar jamg'armalari" orqali zarur mablag' ajratildi. Buning natijasida yoshlarning mavjud muammolari xal qilinmoqda.

Bugungi kunda Taraqqiyot strategiyasi [10] doirasida "Yoshlar – kelajak bunyodkori", "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Aqlli shahar" kabi keng qamrovli dasturlarni amalga oshirishda aynan ana shunday tashabbuskor, har bir masalaga yangicha yondashadigan yoshlarni faol ishtirok etayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar masalasiga oid davlat dasturlarini amalga oshirilishi sohada yangicha tizimning yaratilganini ko'rsatmoqda.

2025 yil 14 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan videoselektor shaklida o'tgan uchrashuvida yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi. Uchrashuvda "O'zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishi, har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qizlar kirib kelmoqda, 2030 yilga borib, bu ko'rsatkich 1 million nafarga yetadi" – deb prezident ta'kidlab o'tdi [11].

Bu o'rinda yoshlarning bandligini ta'minlash, ularga sharoit yaratish davlatning ustuvor siyosatiga aylanib o'tgan 8 yil davomida yosh tadbirkorlar soni 3 karra ko'payib, ular bugun biznes vakillarining salkam 40 foizini tashkil etmoqda. "Yoshlar daftari" ijtimoiy reestri orqali 2024 yili 180 ming nafar yoshlarga 345 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. O'tgan davr mobaynida oliy ta'lim muassasalari soni 3 barobarga oshirilgani natijasida 42 foiz yoshlar oliy ta'lim bilan qamrab olindi.

Ayniqsa keyingi yillarda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar yanada rivojlantirilmoqda. Xotin-qizlarning shartnoma to'lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani hisobiga, ularning soni 11 karra ko'paydi. Bugun oliy ta'lim muassasalari talabalarining 52% dan ortig'ini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiydigan qizlarning 15 ming nafariga kontrakt puli to'lab berildi va 6,2 ming xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib kelishmoqda. Hozirgi vaqtda dunyodagi nufuzli universitetlarda 1 ming 500 dan ziyod talaba yoshlar tahsil olmoqda. Ilmiy darajali yosh olimlar soni ham 2 karra ko'payib, 4 ming nafardan oshdi. 2025 o'quv yilidan boshlab sharoiti og'ir oilalardagi iqtidorli yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha "Yorqin kelajak" loyihasi boshlanishi belgilandi. Ushbu loyiha doirasida kamida 200 nafar qizlar har yili dunyoning nufuzli oliyog'ohlariga o'qishga yuborilishi belgilandi [12].

Yangi O'zbekistonda yoshlar orasida mutolaa madaniyatini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. An'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi ishtirokchilari soni 3 millionga yetdi. Ayniqsa, so'nggi yillarda yoshlar orasida chet tillarni o'rganishga qiziqish keskin kuchaydi. So'nggi 3 yilda til o'rganayotgan yoshlar soni 2 millionga yetgan bo'lsa, "IELTS" imtihonidan yuqori ball olganlar 5 karra kupaygan. Bu natijalarning barchasini asosida mamlakatda olib borilgan yoshlarga oid davlat siyosatining yangicha tizimini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilinsa, O'zbekiston Respublikasida rivojlantirib borilayotgan yoshlar siyosatiga oid yangi tizim xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi.

Bugun mamlakatda ishsizlikni kamaytirish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yoshlar agentligi huzurida jamg'arma tuzilib, unga 100 million dollar mablag' ajratildi. Endi

tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladi va startap loyihalariga 2 milliard so'mgacha investitsiya kiritiladi.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining bandligini ta'minlash bo'yicha ham yangi tizim yo'lga qo'yilishi belgilab berildi. Buning uchun Milliy bankka 100 million dollar yo'naltirilib, ularning tashabbus va g'oyalarni loyihaga aylantirish bo'yicha bank xizmatlari joriy etiladi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash bo'yicha hokimlar, bank va korxonahabbarlaridan iborat komissiya tuziladi.

Aloqabank yoshlarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi tayanch bankka aylantirilib, unga 200 million dollar beriladi. Aloqabank o'zini-o'zi band qilgan yoshlarning loyihalari uchun 100 million so'mgacha 7 yil muddatga imtiyozli mikroqarz ajratadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan, kamida 20 nafar yoshni ishga olib, kichik korxonaga ochgan va o'quv markazi tashkil qilgan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladi. Xizmat ko'rsatish sohasida yoshlarni ishga olib, kamida 3 million so'm oylik to'lagan korxonalarga ijtimoiy soliq 1 foiz bo'ladi.

Shuningdek, chekka hududlarda chet tillariga ixtisoslashgan o'quv markazlari ochgan malakali yoshlarga 120 million so'mgacha foizsiz ssuda beriladi. Xususiy o'quv markazlarida xorijiy tillarni o'rganadigan yoshlarga to'lovlari "2+6" oy shaklida qoplab beriladi. IT sohasida "Bir million dasturchi" loyihasi qo'shimcha 300 ming yoshlar jalb etiladi.

Kambag'allikdan chiqishning eng samarali yechimi ham – bu ta'lim. Shu bois bunday oilalar farzandi foizsiz ta'lim krediti, qo'shimcha grant, shartnoma to'loviga yordam orqali o'qishga rag'batlantiriladi. Bilimga chanqoq, lekin oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha yangi tizim – "Yorqin kelajak" loyihasi joriy etiladi.

Yoshlar agentligi xorijda o'qiyotgan har bir talabaga bosh-qosh bo'ladi. Bilimli yigit-qizlar dunyoning "Top-100" oliyog'ohlariga o'qishga yuboriladi hamda o'qish va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Chet elda o'qib kelganlar milliy kadrlar xazirasiga kiritilib, davlat organlariga tanlovsiz ishga olinadi.

Yoshlarda vatanparvarlik hissini kuchaytirish maqsadida 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida "Vatan tayanchi" harakati boshlandi. Unga 300 mingdan ziyod yoshlar qamrab olindi. Endi bu harakat kasb-hunar maktabi, texnikum va xususiy ta'lim tashkilotlarida ham yo'lga qo'yilib, 1 million o'quvchi qamrab olinadi. Ular o'rtasida turli tanlov va musobaqalar tashkil etiladi. Mahallalarda "Shijoat va g'ayrat" sport o'yinlari o'tkaziladi. G'olib mahallalarga sport inshooti quriladi va anjomlar bilan ta'minlanadi. "Vatan tayanchi" hamda "Shijoat va g'ayrat" musobaqalari g'oliblariga harbiy bilim yurtlariga kirish uchun tavsiya berilishi belgilandi.

Demak, bilimli, jismonan sog'lom, ma'naviyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy bunyodkor kuchdir. Yoshlarga oid davlat siyosati avvalo har bir davlatning ichki siyosati bo'lib, yoshlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosati hech qachon yakunlangan tizimni anglatmaydi. Bu sohada izchil islohotlar davr talabi va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib rivojlantirib boriladigan uzluksiz jarayondir. Yangi O'zbekistonda ham yoshlarga oid olib borilayotgan davlat siyosati mutlaqo yangicha tizim asosida rivojlantirib borilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Topildiev V.R. Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari. –Toshkent., 2018. 356. B.
2. Topildiev, V.R., Oliy ta'lim tizimini isloh qilishning me'yoriy-huquqiy ta'minoti xususida ayrim mulohazalar // *Sovremennoe obrazovanie*, 2017. (6), 8-14.
3. Topildiev V.R., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim soxasiga oid farmonlaridan kelib chiqadigan vazifalar xususida ayrim muloxazalar // "Mirzo Ulug'bek buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –T., 2024. 1057-1065 betlar.
4. Topildiyev V. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning o'ziga xos muammolari. *Sotsiologiya va huquq*, Ilmiy jurnali 2-son11-21 betlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 14 fevral kuni yoshlar bilan videoselektor shaklida o'tgan uchrashuvi // Xalq so'zi, 2025 yil 14 fevral.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 19 yanvardagi PQ-92-son Qarori. // Xalq so'zi, 2022 yil 20 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 14 fevral kuni yoshlar bilan videoselektor shaklida o'tgan uchrashuvi // Xalq so'zi, 2025 yil 15 fevral
8. <https://lex.uz/docs/3317994>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" // Xalq so'zi, 2019 yil 9 oktyabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son Farmoni // Xalq so'zi, 2022 yil 28 fevral
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 14 fevral kuni yoshlar bilan videoselektor shaklida o'tgan uchrashuvi // Xalq so'zi, 2025 yil 14 fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. // Xalq so'zi, 2025 yil 7 mart.
13. <https://jch.kun.uz/news/2025/03/07/cizlarni-qollab-quvvatlashdan-hech-qachon-charchamaymiz-prezident-xotin-qizlarni-tabrikladi>



Jamshid TURAEV,
Doctorate student in Namangan State University
E-mail: Jamturaeff@gmail.com

Based on the review Doctor of philology (DSc), Associate professor N. Khursanov

THE IMPACT OF FAMILY COLLABORATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON CHILDREN'S ACADEMIC DEVELOPMENT

Annotation

The role of family collaboration in preschool educational institutions is a crucial factor in shaping children's early academic development. Effective communication and partnership between educators and parents foster a supportive learning environment, enhancing children's cognitive, social, and emotional skills. This study explores the extent to which family involvement in preschool education influences children's academic readiness, motivation, and long-term success. A mixed-methods approach, incorporating both qualitative and quantitative research methods, was employed to analyze the impact of parental engagement on children's literacy, numeracy, and problem-solving abilities.

Key words: Family collaboration, preschool education, early academic development, parental involvement, cognitive skills, home-school connection, child development.

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА АКАДЕМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ

Аннотация

Роль сотрудничества семьи в дошкольных образовательных учреждениях является ключевым фактором в формировании раннего академического развития детей. Эффективная коммуникация и партнерство между педагогами и родителями создают благоприятную образовательную среду, способствующую развитию когнитивных, социальных и эмоциональных навыков детей. В данном исследовании рассматривается степень влияния участия семьи в дошкольном образовании на академическую подготовленность, мотивацию и долгосрочный успех детей. В рамках исследования использован смешанный метод (качественные и количественные методы), позволяющий проанализировать влияние вовлеченности родителей на развитие грамотности, числовых навыков и способности решать проблемы у детей.

Ключевые слова: Семейное сотрудничество, дошкольное образование, раннее академическое развитие, родительское участие, когнитивные навыки, связь дома и школы, развитие ребенка.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA OILAVIY HAMKORLIKNING BOLALARNING AKADEMIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maktabgacha ta'lim muassasalarida oilaviy hamkorlikning roli bolalarning erta akademik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi samarali muloqot va hamkorlik qulay ta'lim muhitini shakllantirib, bolalarning kognitiv, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot oilaning maktabgacha ta'lim jarayonida ishtiroki bolalarning akademik tayyorgarligi, motivatsiyasi va uzoq muddatli muvaffaqiyatiga qanchalik ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqot metodlarini o'z ichiga olgan aralash uslub qo'llanilib, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki bolalarning savodxonligi, matematik bilimlari va muammolarni hal qilish qobiliyatiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Oilaviy hamkorlik, maktabgacha ta'lim, erta akademik rivojlanish, ota-onalarning ishtiroki, kognitiv qobiliyatlar, uy-maktab aloqasi, bola rivojlanishi.

Introduction. Early childhood education is widely recognized as a foundational stage in children's cognitive, social, and emotional development. Among the key factors influencing early academic success, family collaboration in preschool educational institutions plays a critical role in shaping children's learning experiences. A strong partnership between educators and parents fosters a supportive learning environment, ensuring that the knowledge and skills acquired in preschool settings are reinforced at home. Research has demonstrated that parental involvement positively impacts children's literacy, numeracy, problem-solving abilities, and socio-emotional skills, contributing to long-term academic success (Epstein, 2011; Sheridan et al., 2010).

In the context of preschool education, family collaboration extends beyond parental supervision of homework or participation in school activities. It involves active engagement in children's learning processes, regular communication between parents and educators, and the establishment of a home environment conducive to early learning. Scholars argue that when families and preschools work together, children develop stronger cognitive abilities, higher self-confidence, and a more positive attitude toward learning (Fan & Chen, 2001). However,

despite the growing recognition of family collaboration in early education, challenges persist in ensuring systematic and meaningful parental engagement. Differences in socio-economic backgrounds, cultural perceptions of education, and limited parental time or resources can hinder effective family-school partnerships (Desforges & Abouchar, 2003).

Literature analysis. The importance of family involvement in preschool education has been extensively examined in educational psychology and early childhood development research. Vygotsky's sociocultural theory (1978) emphasizes that children's learning is deeply embedded in social interactions, and the collaboration between parents and educators provides a rich environment for cognitive and language development. Similarly, Bronfenbrenner's ecological systems theory (1979) highlights the interconnectedness of home and school as microsystems that collectively influence children's academic growth.

According to Epstein's Six Types of Parental Involvement Model (2011), successful family engagement in education involves parenting, communication, volunteering, learning at home, decision-making, and community collaboration. This model serves as a framework for understanding how

different forms of parental involvement contribute to early academic success. Studies have found that parents who actively participate in their children's preschool education—whether through interactive reading sessions, hands-on learning activities, or school engagement—help enhance literacy and numeracy skills (Fan & Chen, 2001).

Empirical research confirms the positive correlation between family engagement and children's academic achievement. For instance, a study by Sheridan et al. (2010) found that preschoolers whose parents maintained consistent communication with educators and participated in structured learning activities performed significantly better in language comprehension and early math skills. Similarly, Jeynes (2005) conducted a meta-analysis demonstrating that parental involvement positively influences children's academic motivation, self-regulation, and classroom behavior.

Parental involvement has also been linked to enhanced socio-emotional development, which directly impacts academic performance. Research by Powell et al. (2010) indicates that children who receive emotional and cognitive support at home tend to have stronger problem-solving abilities and better classroom engagement. Furthermore, family-school collaboration fosters a sense of academic responsibility in children, encouraging independent learning and positive attitudes toward education.

Despite its benefits, effective parental involvement in preschool education faces several challenges. Desforges and Abouchaar (2003) identify socio-economic factors, parental education levels, and work commitments as major barriers to active engagement. Parents from lower-income backgrounds often have limited access to educational resources or face time constraints that prevent them from participating in school activities. Cultural differences in perceptions of parental roles in education also play a significant role, as some parents may believe that early education should be solely the responsibility of teachers.

Another challenge is the lack of structured parental engagement programs in preschools. Research suggests that many schools lack clear strategies for involving parents, leading to inconsistent communication between families and educators (Hornby & Lafaee, 2011). In some cases, parents may be willing to engage but lack guidance on effective ways to support their children's learning at home.

To address these challenges, scholars propose several strategies for enhancing home-school collaboration:

Research methodology

This study employed a mixed-methods research design to comprehensively analyze the impact of family collaboration in preschool educational institutions on children's academic development. The methodology included both quantitative and qualitative approaches to ensure a well-rounded assessment of parental involvement and its effects on early learning outcomes.

Participants and sampling

The study was conducted in ten preschool educational institutions across different socio-economic regions, involving 250 preschool children aged 4 to 6 years, their parents, and 50 preschool educators. A stratified random sampling method was used to ensure diversity in terms of parental education levels, employment status, and cultural backgrounds.

Data collection methods

Survey Questionnaires – Structured surveys were distributed to parents and educators to gather data on parental involvement levels, communication with teachers, and home-based learning activities.

Classroom Observations – Direct observations of classroom interactions were conducted to assess children's academic performance, engagement, and social interactions in relation to their level of family collaboration.

Parent-Teacher Interviews – Semi-structured interviews were conducted with a subset of 50 parents and 20 educators to gain in-depth insights into their experiences, perceptions, and challenges regarding parental involvement.

Standardized Academic Assessments – Preschool children were evaluated using age-appropriate literacy and

numeracy tests to determine the correlation between academic performance and parental engagement levels.

Data analysis methods

Quantitative data from surveys and academic assessments were analyzed using descriptive and inferential statistics (SPSS software). A correlation analysis was conducted to determine the relationship between parental involvement and children's academic performance.

Qualitative data from interviews and observations were subjected to thematic analysis to identify key patterns related to parental engagement, learning outcomes, and home-school collaboration strategies.

This multi-faceted methodological approach ensured a holistic understanding of how family collaboration contributes to preschool children's academic development.

Main discussions and results. The findings of this study highlight the significant role of family collaboration in preschool educational institutions and its impact on children's academic development. The results confirm that children with actively engaged parents demonstrate higher levels of literacy, numeracy, and cognitive development compared to those with limited parental involvement. Through surveys, interviews, and classroom observations, the study establishes that strong home-school collaboration fosters an enriched learning environment, reinforcing the knowledge and skills acquired in preschool settings.

Parental engagement in early education manifests in various forms, including interactive learning at home, regular communication with educators, and participation in school events. Children whose parents actively engage in reading, storytelling, and phonics-based exercises at home tend to develop stronger literacy skills, while those exposed to structured numeracy activities such as counting games and puzzles show improved problem-solving abilities. The role of parental encouragement and emotional support is equally critical, as it contributes to children's self-confidence, motivation, and social adaptability, which in turn positively influences academic performance.

Educators widely acknowledge that children whose parents frequently communicate with teachers and participate in school events exhibit higher levels of engagement and confidence in the classroom. These children tend to express their thoughts more fluently, demonstrate greater curiosity and willingness to learn, and adapt more easily to structured learning environments. The study further reveals that consistent parental involvement results in smoother transitions from preschool to primary education, ensuring that children are better prepared for formal schooling.

Despite the clear benefits, the study also identifies challenges that hinder effective family collaboration. Many parents, particularly those from lower-income households, face time constraints due to work commitments, making it difficult to actively participate in their children's education. Additionally, a lack of awareness about effective early learning strategies limits some parents' ability to support their child's academic growth at home. Cultural factors also play a role, as certain families perceive education primarily as the responsibility of teachers, leading to minimal home-based engagement. Furthermore, language barriers and insufficient communication channels between parents and educators often restrict meaningful collaboration, especially in linguistically diverse communities.

A notable disparity in parental involvement is observed across different socio-economic groups. Families with higher financial stability and educational backgrounds tend to engage in structured learning activities at home, whereas families from disadvantaged backgrounds often struggle with limited access to resources. However, the study finds that when schools provide accessible parental training programs and flexible engagement opportunities, participation increases across all socio-economic groups, reinforcing the notion that parental involvement can be enhanced through targeted interventions.

Statistics of study results

Aspect of Parental Involvement	Percentage Improvement in Academic Performance	Children with Active Parental Engagement (Performance Score)	Children with Low Parental Engagement (Performance Score)
Interactive Literacy Activities at Home	30%	85/100	65/100
Numeracy Engagement	25%	82/100	68/100
Parental Presence at School Events	20%	78/100	63/100
Consistent Parent-Teacher Communication	22%	80/100	66/100
Higher-Income Families Participation	80%	88/100	72/100
Lower-Income Families Participation (Before Intervention)	40%	60/100	50/100
Lower-Income Families Participation (After Intervention)	65%	75/100	50/100

Overall, the findings of this study demonstrate that strong family collaboration significantly enhances children's academic development in preschool settings. While barriers such as work constraints, socio-economic disparities, and communication gaps remain, the research highlights the importance of developing inclusive, flexible, and accessible parental engagement programs to ensure that all families, regardless of their background, can actively participate in their child's learning journey. These results underscore the need for policy reforms and institutional strategies aimed at strengthening home-school partnerships, ultimately contributing to better educational outcomes for preschool children.

Conclusion. The findings of this study reaffirm the significant influence of family collaboration in preschool educational institutions on children's academic development. The research demonstrates that children whose parents actively engage

in their learning process exhibit higher levels of literacy, numeracy, and cognitive abilities, as well as greater motivation and self-confidence. The study also highlights that a strong home-school partnership facilitates smoother transitions into formal education, ensuring that children are better prepared for structured learning environments.

Despite the evident benefits of parental involvement, challenges such as socio-economic disparities, time constraints, and communication barriers hinder effective family collaboration. Many parents, especially those from low-income backgrounds, struggle to allocate time for active participation in their child's education, while others lack awareness of effective learning strategies. Furthermore, cultural perceptions regarding the role of parents in education, along with language barriers, often contribute to limited parental engagement.

LITERATURE

- Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. Harvard University Press.
- Desforges, C., & Abouchar, A. (2003). *The Impact of Parental Involvement, Parental Support, and Family Education on Pupil Achievements and Adjustment: A Literature Review*. Department for Education and Skills, UK.
- Epstein, J. L. (2011). *School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools*. Routledge.
- Fan, X., & Chen, M. (2001). Parental Involvement and Students' Academic Achievement: A Meta-Analysis. *Educational Psychology Review*, 13(1), 1–22.
- Hornby, G., & Lafaele, R. (2011). Barriers to Parental Involvement in Education: An Explanatory Model. *Educational Review*, 63(1), 37–52.
- Jeynes, W. H. (2005). *Parental Involvement and Student Achievement: A Meta-Analysis*. Harvard Family Research Project.
- Powell, D. R., Son, S. H., File, N., & San Juan, R. R. (2010). Parent-School Relationships and Children's Academic and Social Outcomes in Public School Pre-Kindergarten. *Journal of School Psychology*, 48(4), 269–292.
- Sheridan, S. M., Knoche, L. L., Edwards, C. P., Bovaird, J. A., & Kupzyk, K. A. (2010). Parent Engagement and School Readiness: Effects of the Getting Ready Intervention on Preschool Children's Social-Emotional Competencies. *Early Education and Development*, 21(1), 125–156.
- Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
- Whitehurst, G. J., & Lonigan, C. J. (2001). Emergent Literacy Development: From Prereaders to Readers. In S. Neuman & D. Dickinson (Eds.), *Handbook of Early Literacy Research* (pp. 11–29). The Guilford Press.
- Subxanovich, A. A. (2023). The importance of the speech culture and its role in the medical profession. *Open Access Repository*, 9(2), 138-142.
- Subxanovich, A. A. (2024). O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishga munosabat va motivatsiyaning o'rini baholash.
- Subxanovich, A. A. (2024). The role of contextual learning in acquiring medical terminology in uzbek for russian speakers. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(10), 87-91.



Noila TO'RAQULOVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
E-mail: musulmonova66@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsent S.Yoqubova taqrizi asosida

PROBLEMS OF IMPROVING THE INNOVATIVE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Аннотация

Primary education is an important stage in the formation of initial writing, reading, critical and creative thinking skills in students. A consistently and gradually organized lesson in primary grades contributes to increased efficiency. The role of the teacher is important in this. By studying and implementing innovative research methods, the mastery index of students can be significantly increased. Today, one of the most priority issues in the field of education is to improve the professional skills of teachers and eliminate existing problems in this regard. The article contains some considerations on the problems associated with improving the innovative professional skills of teachers and their practical solutions.

Key words: Pedagogy, teacher, pedagogical skills, primary education, innovation, professional skills.

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

Начальное образование является важным этапом в развитии у учащихся основных навыков письма, чтения, критического и творческого мышления. Последовательный и прогрессивный урок в начальных классах способствует повышению эффективности. В этом важна роль учителя. Изучая и внедряя инновационные методы исследования, можно значительно повысить скорость обучения студентов. Одной из важнейших задач в сфере образования сегодня является повышение профессиональной квалификации педагогических кадров и устранение существующих проблем в этой области. В статье содержатся некоторые соображения относительно проблем, связанных с повышением инновационной профессиональной компетентности педагогов, и практических путей их решения.

Ключевые слова: Педагогика, учитель, педагогическое мастерство, начальное образование, инновации, профессиональное мастерство.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY MAHORATINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Аннотация

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda dastlabki yozish, o'qish, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarining shakllantirilishida muhim bosqich sanaladi. Boshlang'ich sinflarda izchil va tadrijiy tashkil etilgan dars samaradorlikning oshishiga hissa qo'shadi. Bunda pedagogning roli muhim. Innovatsion tadqiqot metodlarini o'rganish va amaliyotga joriy etish orqali o'quvchilarda o'zlashtirish ko'rsatkichini sezilarli ravishda oshirish mumkin. Bugungi kunda ta'lim sohasidagi eng ustuvor masalalardan biri o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirish va bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etishdan iborat. Maqolada o'qituvchilar innovatsion kasbiy mahoratini oshirish bilan bog'liq muammolar va ularning amaliy yechimi xususida ayrim mulohazalar o'rin oladi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, pedagog, pedagogik mahorat, boshlang'ich ta'lim, innovatsiya, kasbiy mahorat.

Kirish. Ta'lim jarayonining eng muhim jihati o'quvchilarga axborotni o'zlashtirishga emas, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, hamda amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Ta'lim-tarbiya masalasi insoniyat yaralgandan buyon eng dolzarb masalalardan sanaladi. Inson intellektual salohiyati, etik-estetik qarashlari bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni orqali kechar ekan, bu borada o'qituvchi-pedagoglarning roli muhim ekanligini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston 2022-yilda ilk bor Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA)da ishtirok etdi va test natijasiga ko'ra oxirgi o'ntalikdan joy oldi. Ushbu dastur 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish savodxonligi va tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholaydi.

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA) 2022-yilgi natijalari mamlakat ta'lim tizimining muammolari va

imkoniyatlarini ochib berdi. Jumladan, natijaga ko'ra, 14% o'quvchi matnning asosiy ma'nosini aniqlay oladi va murakkab vazifalarni bajaradi [1]. Bu esa umumiy savodxonlik darajasining pastligini ko'rsatadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda o'qituvchining roli beqiyos. Bugungi kunda xalqaro o'quvchilarni baholash dasturida Respublika miqyosida ko'rsatkichlarning kutilgandan pastligini quyidagi muammolar bilan bog'liq deyish mumkin:

darsliklarning yangilanishi;
amalda mavjud darsliklarda nutqiy kompetensiyalarning shakllantirilishiga yetarlicha urg'u berilmaganligi;
o'qituvchilar uchun maxsus milliy metodik qo'llanmalarining yetarli darajada emasligi;
o'qituvchilar kasbiy msahoratini baholashning innovatsion mezonlari ishlab chiqilmaganligi.

Albatta, har bir muammo yuzaga kelishining obyektiv sabablari bo'ladi.

Muammo yechimi ustida ish olib borilmas ekan, uning murakkablik darajasi ham oshib boraveradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahonda boshlang'ich ta'lim tizimini tashkil etish, o'qituvchi pedagoglar tayyorlash va ularning malakasini oshirib borishning zamonaviy usullariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, innovatsion kasbiy mahoratga doir tadqiqotda [1] innovatsiyaga quyidagicha

yondashuv belgilanadi "pedagogik innovatsiya – pedagogik faoliyatdagi yangilik, ta'lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularni takomillashtirishga qaratilganligi. Shu bilan birga, pedagogikada "ta'lim faoliyati" tushunchasi keng ma'noga ega. u pedagogik faoliyatning bir turi sifatida, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik yangiliklarni rejalashtirish va amalga oshirishning ijodiy jarayoni sifatida, o'qituvchining ijodiy salohiyatini aks ettiruvchi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida qaraladi." Olimlarning diqqat markazida pedagogik ta'limni shaxsga yo'naltirilganlik va kompetensiya tamoyillari asosida modernizatsiya qilish masalalariga qaratilgan.

Demak, o'qituvchi-pedagoglarning roli maktabgacha yoshdagi o'qituvchilarni jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun ta'limni o'zgartirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlar bilan jihozlashni talab qiladi. Bu nafaqat AKT bo'yicha bilim va ko'nikmalarni hamda o'qitishda AKT ni joriy qilishni, balki zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'quv dasturini ishlab chiqishni va shu orqali talabalarga 21-asr o'qituvchilari bo'lishga yordam beradigan dizayn kompetensiyalaridan foydalanishni ham talab qilishi mumkin [2].

Ta'lim tizimidagi islohotlar o'qituvchilarning ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu ta'lim haqidagi tasavvurlarni, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy shaxsiyatini o'zgartirishni talab qiladi [3]. Maktablarda ta'lim islohotlarini ilgari surish uchun o'qituvchilarni ishga olish va ularning yordamini olish juda muhim, chunki o'qituvchi o'quvchi har qanday muvaffaqiyatning asosiy sababchisidir.

Ko'pgina dasturlarning muvaffaqiyati o'qituvchilarning ularni amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarga bo'lgan nuqtai nazariga, shuningdek, o'qituvchilar talabalarini innovatsion pedagogik amaliyotga o'rgatishlariga bog'liq [4].

Yuqoridagi kabi o'zbek pedagogikasi doirasidagi tadqiqotlar soha bilan bog'liq bir qancha ilmiy muammolar yechimi uchun nazariy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi:

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsliklar bilan samarali ishlash malakalarini shakllantirish bilan bog'liq muammolar.

Innovatsion metodlarni tatbiq qilish bilan bog'liq muammolar.

O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish bilan bog'liq muammolar.

Integrativ yondashuvni qo'llash bilan bog'liq muammolar.

1-jadval. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari kasbiy motivatsiyasini tekshirish mezonlari.

T/r	Tekshirish turi	Amalga oshirish shakli	Olinadigan natija
1	Kasbini tanlash motivatsiyasi	Pedagog-psixologlar tomonidan maxsus tayyorlangan so'rovnomalar orqali	Kasbiy motivatsiyani baholash shkalasi (past, o'rta yuqori)
2	Shaxsiy fazilatlarini shakllantirish	Jamoadalarda turli ta'limiy keyslarni o'tkazish	Natijalar asosida qaysi shaxsiy fazilatlar shakllantirishi lozimligi aniqlanadi va korreksion vosita tanlanadi.
3	O'qituvchini zamonaviy muammolarni hal qilishga tayyorlash	Jamoadalarda turli muammoli vaziyatlarga yechim va ularga munosabatini aniqlash	Bo'lajak o'qituvchining mantiqiy fikrlashi aniqlanadi. Tez-tez uchrovchi ta'lim jarayonidagi muammolarga obyektiv yechim berish uchun maxsus tizimli reja belgilab olinadi
4	Psixologiya va pedagogika o'qitishda amaliy yo'nalish	Amalda o'qituvchining dars jarayonini qay tartibda tashkil etishi va o'quvchilarning holatini psixologik baholay olishi maxsus tashkil etilgan sinov darslari asosida tekshiriladi	Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar belgilanadi korreksion vosita tanlanadi
5	Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	Elektron darsliklar, kompyuter, elektron doska va boshqa turli multimedial dasturlardan foydalana olish qobiliyati tekshiriladi.	Maxsus kurslar, amaliy ishlar tashkil etiladi.

Ushbu tartibda tizimli yondashuv kreativ fikrlovchi, muammolarni obyektiv hal qiluvchi va ta'lim samaradorligini oshiruvchi malakali pedagoglarni tayyorlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ular mavjud muammolarni ta'lim bosqichining avvalida aniqlab olish zarur. Umumiy tahlillar asosida mavjud xato va kamchiliklar jarayon davomida to'g'rilanib borishi lozim. O'z vaqtida aniqlanmagan va to'g'rilanmagan xatolar kelgusida ta'lim jarayonidagi sustkashlik, ishiga nisbatan motivatsiyaning

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda tizimli yondashuv zarur. Ona tili va o'qish darsliklarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga urg'u berilgan topshiriqlarning ko'payishi o'qituvchidan axborot kompyuter texnologiyalaridan o'rinli va samarali foydalanish zaruratini paydo qiladi. Shuningdek, o'qituvchi nutqi, ovoz tempi va ritm ham o'quvchi bilan didaktik aloqa o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, eng avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish va oshirishga qaratilgan darslarning olib borilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ta'lim berishning dastlabki bosqichida bo'lajak o'qituvchida nutqiy kompetensiyalarning qay darajada shakllanganligini aniqlovchi diagnostik test o'tkazish va uning natijalari asosida to'g'ri yondashuvni belgilab olish zarur. Shuningdek, bola emotsional holati, xulq-atvori va darsga nisbatan ishtiyoqi, o'zlashtirish darajasini baholashda psixologik bilimlar ham zarur bo'ladi. An'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun mo'ljallangan psixologiyaga oid darslarning bevosita amaliyot bilan bog'lanishi samaradorlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda bu boradagi ishlarning asosini analiz va sintez usuli orqali bo'lajak o'qituvchining jarayon boshi va oxirida kasbga motivatsiyasi, pedagogik-psixologik tayyorgarlik darajasini tekshirish tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. N.A.Konstantinovning [5] tadqiqotlarida qayd etilganidek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik tayyorgarligi bilan bog'liq birinchi pedagogik sharti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'qituvchilik kasbini tanlash motivatsiyasi (universitet, institutlarning bo'lajak talabalarini shaxsiy munosabatlar va maxsus suhbat asosida tanlanadi);

fakultativ kurslar yordamida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish: ong, global fikrlash, keng xabardorlik integratsiyasi;

o'qituvchini zamonaviy muammolarni hal qilishga tayyorlash.

psixologiya va pedagogika o'qitishda amaliy yo'nalish: bo'lajak o'qituvchilar test topshiriqlari va ularni dekodlash texnikasini o'zlashtiradilar.

Aksariyat hollarda bo'lajak o'qituvchilarning kasbga nisbatan motivatsiyasi inobatga olinmaydi. Bu esa keyingi jarayonlarga nisbatan salbiy ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz. Shu boisdan, bo'lajak o'qituvchilar innovatsion kasbiy mahoratini oshirishda quyidagi yondashuvdan foydalanish mumkin:

pasaytishi, samaradorlikning tushishideki og'ir oqibatlariga olib keladi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida yuqorida ta'kidlangan mezonlar asosida diagnostik tekshirish amalga oshirish va ta'lim olish davomida muvofiqlashtirishga urg'u berish kelgusida innovatsion kasbiy mahoratga ega pedagoglarning shakllanishida muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR

1. Коломийченко Л. В., Григорьева Ю. С., Антонова Е. В. Диагностика полоролевой социализации детей дошкольного возраста // Коломийченко ЛВ, Григорьева ЮС, Антонова ЕВ—II. — 2003.
2. Bower, Matt, et al. "Improving the computational thinking pedagogical capabilities of school teachers." Australian Journal of Teacher Education (Online) 42.3 (2017): 53-72.

3. Hargreaves, A. (2003). *Teaching in the knowledge society: Education in the age of insecurity*. New York: Teachers College Press.
4. Lambert, M. J. (2013). Outcome in psychotherapy: The past and important advances. *Psychotherapy*, 50(1), 42–51
5. Lambert, M. J. (2013). Outcome in psychotherapy: The past and important advances. *Psychotherapy*, 50(1), 42–51
6. Константинов Н. А. Очерки по истории средней школы : (Гимназии и реальные училища с конца XIX в. до Февр. революции 1917 г.) / проф. Н. А. Константинов, действ. чл. Акад. пед. наук РСФСР ; Акад. пед. наук РСФСР. - Москва : Учпедгиз, 1947 (тип. "Кр. пролетарий"). - 247 с. : ил.; 23 см.



Adham TURG'UNOV,
Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi
Maksud UMARALIYEV,
Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi
E-mail: adxamturgunov2127@gmail.com

PhD, dotsent D.Kulmuradov taqrizi asosida

ETERMINING THE THERMAL CONDUCTIVITY COEFFICIENT OF SOIL USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL METHODS

Annotation

This article explains the importance of applying physics in agriculture. It highlights the significance of teaching students studying in the field of agriculture about soil thermal conductivity and conducting laboratory sessions. The thermal conductivity coefficient of soil (k) is a crucial factor for growth processes, water retention, and plant development, and this knowledge ensures effective management in agro-technologies. The article provides a detailed description of the experimental processes and calculation methods used to determine the thermal conductivity coefficient based on the "Single Plate Method." Laboratory works are organized using the CASSY Lab software, which makes the learning process interactive and modern. This approach increases students' interest and gives them the opportunity to study modern agro-technologies.

Key words: Thermal conductivity coefficient, agriculture, dry soil, moisture level.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ ПОЧВЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Аннотация

Данная статья объясняет важность применения физики в сельском хозяйстве. Она раскрывает значение обучения студентов, обучающихся в области сельского хозяйства, теплопроводности почвы и проведения лабораторных занятий. Коэффициент теплопроводности почвы (k) является важным фактором для процессов роста, сохранения воды и развития растений, и эти знания обеспечивают эффективное управление в агротехнологиях. В статье подробно описаны экспериментальные процессы и методы расчета, используемые для определения коэффициента теплопроводности с помощью метода "Одиной пластинки". Лабораторные работы организованы с использованием программного обеспечения CASSY Lab, что делает процесс обучения интерактивным и современным. Такой подход повышает интерес студентов и дает им возможность изучать современные агротехнологии.

Ключевые слова: Коэффициент теплопроводности, сельское хозяйство, сухая почва, уровень влажности.

INNOVATION PEDAGOGIK METODLAR BILAN TUPROQNI ISSIQLIK O'TKAZUVCHANLIK KOEFFITSIENTINI ANIQLASH

Аннотация

Ushbu maqola, qishloq xo'jaligida fizikani qo'llashning ahamiyatini tushuntirib beradi. Qishloq xo'jaligi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligini o'rgatishning ahamiyatini va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishni tushuntiradi. Tuproqning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti (k) o'sish jarayonlari, suvning saqlanishi, va ekinlarning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib, bu bilimlar agrotexnologiyalarda samarali boshqaruvni ta'minlashini ochib berilgan. Maqolada issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini aniqlash uchun "Yakka plastinka metodi" asosida o'tkazilgan tajriba jarayonlari va hisoblash usullari batafsil tavsiflanadi. CASSY Lab dasturiy ta'minoti yordamida laboratoriya ishlari interaktiv va zamonaviy usulda tashkil etilgan. Ushbu yondashuv talabalarning qiziqishini oshiradi va ularga zamonaviy agrotexnologiyalarni o'rganish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, qishloq xo'jaligi, quruq tuproq, namlik darajasi.

Kirish. Tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligi o'simlik ildiz tizimi harorati va uning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bu urug'larning unib chiqishi, oziq moddalarning o'zlashtirilishi va tuproq mikroorganizmlarining faoliyatini belgilaydi. Qolaversa tuproqning issiqlik o'tkazuvchanlik xususiyatlarini bilish orqali ekinlarning mavsumiy o'sish davrini samarali boshqarish mumkin.

Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarga fizika kursida tuproqning issiqlik xususiyatlari haqida ma'lumot berish, laboratoriyalar o'tkazib olingan natijalarni tahlil qilish talabalarni tuproq sensori, agrotexnologik monitoring tizimlari va boshqa zamonaviy qurilmalar bilan ishlashga tayyorlaydi, hamda ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarni rivojlantirish, tuproq resurslaridan oqilona foydalanish, va qishloq xo'jaligi jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun muhimdir

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M. J. D. (Michael J. D.) – "Measurement of Soil Thermal Conductivity using the Transient Hot-Wire Method"larning tadqiqotlarida tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligini aniqlash uchun "issiqlik sim" metodi

ishlatilgan. Bu metodda issiqlik oqimining vaqtga qarab o'zgarishi o'lchanadi va shu orqali issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti hisoblanadi. D. L. Jones, S. S. Veeramohan, P. J. Davidson – "Experimental Analysis of Soil Heat Transport in Agricultural Conditions" larning izlanishlarida qishloq xo'jaligi sharoitlarida tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligi tahlil qilingan. Ushbu ishda tuproq tarkibining o'zgarishi (suv miqdori, namlik va tarkibi) issiqlik o'tkazuvchanligiga ta'siri ko'rsatilgan. Bu ishlarda amaliy sharoitda, ayniqsa qishloq xo'jaligi tuproqlarida issiqlik o'tkazuvchanligi va uning o'zgarishlari o'rganilgan. Bizning maqolamizda tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligi faqat laboratoriya sharoitida "yakka plastinka metodi" bilan o'lchanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti (k) moddaning issiqlikni qanchalik yaxshi o'tkazishini o'lchovchi fizik kattalik bo'lib, uni aniqlash uchun bir nechta usul qo'llaniladi. Har bir usulda ma'lum fizik tamoyillar va o'lchov asboblardan foydalaniladi.

1.Fourye qonuni bilan issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti aniqlash uchun tuproqdan plastinka shaklida na'muna yasaladi, va jarayoni quyidagicha ifodalanadi:

$$q = -k \frac{\Delta T}{a} (1)$$

Bu yerda: q – issiqlik oqimi zichligi ($Watt/m^2$), k – issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti ($Watt/(mK)$), $\frac{\Delta T}{a}$ – harorat gradienti (haroratning masofa bo'yicha o'zgarishi, K/m).

Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$k = -\frac{q}{\frac{\Delta T}{a}} (2)$$

Na'munaning ikki yuzasidagi harorat farqi (ΔT) va qalinligi (d) o'lchanadi. Issiqlik oqimi zichligi (q) ni aniqlash uchun issiqlik manbai qo'llaniladi. Fourye qonuni orqali (k) ni hisoblasak:

$$k = \frac{qd}{\Delta T} (3)$$

Issiqlik oqimi zichligi (q) issiqlik miqdorining vaqt birligi davomida birlik yuzadan o'tishi bilan tavsiflanadi. U issiqlik oqimining intensivligini ko'rsatadi. Agar umumiy issiqlik oqimi (Q) ma'lum bo'lsa, q ni quyidagicha topish mumkin:

$$q = \frac{Q}{S \cdot t} (4)$$

Bu yerda: Q – issiqlik miqdori (J), S – na'munaning yuzasi (m^2), t – vaqt (s).

2. Nostabil jarayonlar bilan ham issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini aniqlash mumkin. Nostabil issiqlik o'tkazishda issiqlik oqimi zichligini vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlash uchun issiqlik tarqalish tenglamalari ishlatiladi. Bunda Fourye qonuni vaqtga bog'langan holda yoziladi:

$$q(t) = \rho C \frac{\Delta T}{\Delta t} (5)$$

Bu yerda: ρ – na'munaning zichligi (kg/m^3), C – na'munaning issiqlik sig'imi ($J/(kgK)$), $\frac{\Delta T}{\Delta t}$ – haroratni vaqt bo'yicha o'zgarish tezligi (K/s). (5) formuladagi issiqlik sig'imini (6) formula bilan aniqlash mumkin.

$$C = \frac{Q}{m \Delta T} (6)$$

(4) formula Stabil issiqlik oqimida qo'llanilsa (5) formuladan nostabil issiqlik o'tishda foydalaniladi.

(4) dagi ifodani (3) ga qo'yib, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti (k) ni aniqlash ifodasi kelib chiqadi:

$$k = \frac{Q d}{S t \Delta T} (7)$$

Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti (7) moddaning issiqlikni qanchalik yaxshi o'tkazishini o'lchaydigan kattalikdir.

Tahlil va natijalar. Tuproqning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti (k) bir qancha omillarga bog'liq. Ushbu koeffitsient tuproq orqali issiqlikning qanchalik samarali o'tishini ifodalaydi va bu jarayon tuproqning fizik, kimyoviy, va ekologik xususiyatlariga bog'liq. Quyida asosiy omillar keltirilgan:

1. Tuproqning tarkibi qum, loy, va organik modda nisbatlariga qarab tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligi o'zgarib boradi. Masalan: qumli tuproq yuqori issiqlik o'tkazuvchanlikka ega ($0.3-2 W/(m \cdot K)$), chunki qum zarralari zich joylashgan. Loyli tuproqning o'rtacha issiqlik o'tkazuvchanligi esa ($0.25-1 W/(m \cdot K)$) atrofida bo'ladi. Organik moddaga boy tuproq nisbatan past issiqlik o'tkazuvchanlikka ega ($0.1-0.3 W/(m \cdot K)$), chunki organik moddalarning issiqlikni o'tkazish xususiyati past.

2. Tuproqning namligi (ω), namlik darajasiga qarab uning issiqlik o'tkazuvchanligiga sezilarli ta'sir qiladi. Quruq tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligi past bo'ladi chunki quruq tuproq g'ovak bo'lib, unda havo ko'p bo'ladi quruq havo esa issiqlikni yaxshi o'tkazmaydi. Namlik ortgan sari issiqlik o'tkazuvchanlik oshadi, chunki suv issiqlikni havoga qaraganda yaxshiroq o'tkazadi. Suv bilan to'yingan tuproqda issiqlik juda yaxshi o'tkaziladi, shuning uchun (k) qiymati yuqori bo'ladi.

Odatda tuproqdagi namlik darajasi 0% - 10% oraliqda bo'lsa juda quruq tuproq, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti past. 10% - 20% oraliqda bo'lsa o'rtacha nam tuproq, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti o'rtacha. 20% - 40% oraliqda bo'lsa yuqori namlikka ega tuproq, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti ancha yuqori.

Empirik hisoblashlarga ko'ra tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligi $0.3-0.45 W/(m \cdot K)$ oraliqda bo'lsa, bu tuproqning namlik darajasi odatda 10% va 30% oralig'ida bo'lishi

mumkin. Biroq, bu qiymatlar tuproqning tarkibiga qarab o'zgarishi mumkin.

3. Tuproqning zichligi (ρ) yuqoriroq bo'lsa, issiqlik o'tkazuvchanlik ham ortadi. Sababi zarralar yaqinroq joylashgani uchun issiqlik osonroq o'tadi. Bo'shashgan tuproqda esa havo bo'shliqlari ko'proq bo'lib, issiqlik o'tkazuvchanlik past bo'ladi. Zichlikni aniqlash uchun, o'lchamlari ma'lum bo'lgan na'munani massasini hajmiga nisbati olinadi.

4. Haroratni o'zgarib turishi tuproqning issiqlik o'tkazuvchanligiga ta'sir qiladi. Yuqori haroratlarda tuproqdagi suv bug'lanishi tufayli issiqlik o'tkazuvchanlik o'zgaradi, ya'ni suv bug'lari o'zi bilan issiqlikni olib chiqib ketadi hamda tuproq quruqlashadi issiqlik o'tkazuvchanlik kamayadi. Ba'zi tuproq turlarida, past haroratlarda (k) qiymati pasayadi.

Tuproqning namlik darajasi (ω) tuproqdagi suvning miqdorini, ya'ni tuproq massa bilan nisbatan qanday foizda suv borligini ifodalaydi. Namlik darajasi tuproqni o'lchashda muhim parametr hisoblanadi, chunki bu o'simliklarning suvga bo'lgan ehtiyojini va tuproqning suvni saqlash qobiliyatini aniqlashda yordam beradi.

Tuproq namligini aniqlashning bir qancha usullari mavjud, biz gravimetrik usul (an'anaviy usul)ni tavsiya qilamiz sababi oddiy va yuqori aniqlikka ega. Bu usulda tuproq na'munasi olinadi va uning boshlang'ich og'irligi (m_1) o'lchanadi. Nam tuproq na'munasi pechda ($110^\circ C$ atrofida) quritiladi, shu orqali barcha suv bug'lanadi. Quritilgan tuproqning og'irligi (m_2) yana o'lchanadi. Tuproqning namlik darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\omega = \frac{m_1 - m_2}{m_1} \cdot 100\% (8)$$

Bu maqolada tuproqning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini "Yakka plastinka metodi" orqali aniqlashni qanday amalga oshirilishini ko'rsatilgan. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda dastlab talabalarga ishning maqsadi bilan tanishtiriladi. Bunda issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini sohadagi o'rni haqida gapirilib unga bir nechta misollar keltirib o'tiladi. Talabalarga sohaning aynan shu yo'nalishidagi muammolarni keltirib o'tilsa va ularni yechishda o'tkazilayotgan laboratoriya mashg'uloti ilmiy asos ekanligini takidlab o'tilsa talabalar tomonidan bu mashg'ulotga qiziqish ortadi va uni diqqat bilan o'rganishadi.

Keyingi bosqichda laboratoriya uskunalarini talabalarga tanishtiriladi, xavfsizlik qoidalarini bilan tanishtiriladi va har bir jihoz nima vazifa bajarishini ketma-ketlikda sanab o'tiladi. Qurilmani ishga tushirish uchun jihozlarni qanday yig'ilishini tushuntiriladi.

"Yakka plastinka metodi" bilan issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini aniqlashda quyidagi jixozlar kerak bo'ladi: Ita kalorimetrik kamera ichiga quvvati 120 vattli qizdirgich o'rnatilgan (termo izolyatsiyalangan maxsus quti), 1 dona 12 Vli tok manbai, 2 dona termometr datchigi CASSY Lab 2 qurilmasiga biriktiruvchi adapteri bilan elektron termometrqa ulanadi, 2 dona alyuminiy folga bir tomoni qora ikkinchi tomoni oq bo'ladi, biriktiruvchi similar, CASSY Lab dasturi o'rnatilgan kompyuter, tuproqdan yasalgan na'muna.

CASSY (Computer Assisted Science and Systematics) lab dasturi – bu ilmiy tajribalarni kompyuter yordamida amalga oshirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot bo'lib, asosan maktab va universitetlarda fizika va boshqa fanlarni o'qitishda qo'llaniladi. CASSY asosan turli laboratoriya asboblari va sensorlarni kompyuterga ulab, tajribalarni yanada interaktiv va samarali qilishga yordam beradi. Bu dastur o'quvchilarga tajriba natijalarini tezda yig'ish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. CASSY yordamida termometrlar, voltmetrlardan olingan ma'lumotlarni kompyuterga uzatish, tajribalar davomida olingan ma'lumotlarni grafik tarzda ko'rsatish, olingan natijalar asosida fizik hodisalar va jarayonlarni tushuntirish mumkin bo'ladi. Bu dastur talabalarga ilmiy tajriba olib borish jarayonini osonlashtiradi va o'rganish samaradorligini oshiradi.

Tuproqdan laboratoriya ustunasiga mos qilib na'muna tayyorlab olinadi, bunda na'munaning o'lchami $0,01(m) \times 0,2(m) \times 0,2(m)$ hisobda bo'ladi.

Tajriba mashg'uloti quyidagicha o'tkaziladi:

-dastlab ichiga bitta folgani qora tomonini pastga qilib joylashtiriladi sababi qora rang issiqlikni to'la yutadi va tuproq na'munasiga issiqlikni yahshi uzatilishini ta'minlaydi;

-folga ustiga bitta termometr datchigini joylashtirib na'munani qo'yiladi, ikkinchi termo datchigni na'muna ustiga joylashtiriladi va ikkinchi folgani qora tomonini pastga qaratib na'munani ustiga qo'yiladi;

-kalorimetрни na'muna o'lchamidagi marmar tosh bilan bostirib qo'yiladi, va marmar toshni ustiga muz qo'yiladi, bunda muz tashqi temperaturani 0°C deb hisoblash uchun kerak bo'ladi;

-qizdirgichga tok beriladi va ma'lum vaqt kutiladi, so'ngra na'munaning pastki hamda tepasidagi temperaturalar o'lchanadi;

1-jadval									
ΔT [K]	10	15	20	25	30	35	40	45	50
k [W/mK]	0,35	0,38	0,4	0,425	0,45	0,44	0,41	0,36	0,3

1-Jadvaldagi qiymatlar bo'yicha, Python dasturlash tili yordamida issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsientini temperaturaga bog'liqlik grafigi 2-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Yakka plastina metodidan foydalanib, issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsientini aniqlash uchun qurilma.

2-rasmdagi grafikka etibor beradigan bo'lsak 0–30°C oralig'ida, issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsientini temperaturaga bog'liq ravishda ortib boryapti, buning sababi: 0–30°C oralig'ida suyuqlik fazasi hukmron bo'lib, issiqlik o'tkazuvchanlik oshadi. 30°C dan yuqori holat uchun esa, suvni bug'lanishi boshlanadi va havo bo'shliqlari ko'paygani uchun issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsientini (k) kamayadi.

Xulosa. Eksperimental va interaktiv metodlar talabalarga fizikaviy qonunlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi, vizualizatsiya va texnologiyalardan foydalanish esa o'qitish

-(7) ifodadan tuproqning issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsientini aniqlanadi.

Qurilmaning ishchi holatdagi yig'masi 1-rasmda ko'rsatilgan.

O'lchashni amalga oshirish uchun tuproqdan na'muna tayyorlab olamiz. Na'munaning namlik darajasi (ω) ni 20% deb qabul qilinadi. Na'munaning zichligi o'rtacha 1.7 g/cm³ ga teng. 1-jadvalda temperaturaning ortishi natijasida issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsientini o'lchash natijasida olingan qiymatlari ko'rsatilgan.



2-rasmda namlik darajasi 20% bo'lgan tuproqning issiqlik o'tkazuvchanlik ko'effitsientini temperaturaga bog'liqlik grafigi.

jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv talabalarining ekologik va ilmiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni qishloq xo'jaligi texnologiyalarini samarali boshqarishga tayyorlaydi. Maqolada tuproqning issiqlik o'tkazuvchanlik xususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar (masalan, tuproq tarkibi, zichligi va namligi) ilmiy asoslangan holda ko'rib chiqilgan. Ushbu parametrlarni tajribalar orqali o'rganish talabalarni nazariy bilimlarini amaliy tadqiqotga tatbiq etishga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR

1. Muradilloevich, I. U., Tanzilovch, O. K., Anvarovich, A. A., & Baxodirovna, S. I. (2020). Improvement of teaching methodology by using modeling programs of engineering education in higher education of uzbekistan. *Journal of Critical Reviews*, 7(14), 81-88.
2. Waszkielis, K. M., Bialobrzewski, I., Nowak, K. W., & Dach, J. (2014). Determination of the thermal conductivity of composted material. *Measurement*, 58, 441-447.
3. Malek, K., Malek, K., & Khanmohammadi, F. (2021). Response of soil thermal conductivity to various soil properties. *International Communications in Heat and Mass Transfer*, 127, 105516.
4. Zhang, N., & Wang, Z. (2017). Review of soil thermal conductivity and predictive models. *International Journal of Thermal Sciences*, 117, 172-183.
5. Zhang, R., & Xue, X. (2021). A new model for prediction of soil thermal conductivity. *International Communications in Heat and Mass Transfer*, 129, 105661.
6. Bristow, K. L., Kluitenberg, G. J., Goding, C. J., & Fitzgerald, T. S. (2001). A small multi-needle probe for measuring soil thermal properties, water content and electrical conductivity. *Computers and electronics in agriculture*, 31(3), 265-280.
7. Умаров, Қ. Б., Турғунов, А. Р., & Мадумарова, С. Қ. (2023). Физика фанини ўқитишда талабалар ижодкорлигини оширишда фанларaro интеграциянинг ўрни. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 6(5), 5-10.
8. Умаров, Қ. Б., Мадумарова, С. Қ., & Солиев, А. З. (2023). Таълим сифатини оширишда педагог компетенциясининг ўрни. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 6(6), 1-6.
9. Rivera-Gómez, C., Galán-Marín, C., López-Cabeza, V. P., & Diz-Mellado, E. (2021). Sample key features affecting mechanical, acoustic and thermal properties of a natural-stabilised earthen material. *Construction and Building Materials*, 271, 121569.



UDK:241.260

Ro'zigul UMAROVA,
Toshkent davlat transport universiteti professori v.b
E-mail: Rozigul37@mail.ru

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

SOCIO-HISTORICAL BACKGROUND AND SCIENTIFIC AND THEORETICAL ENVIRONMENT IN THE FORMATION OF BERUNI'S NATURAL PHILOSOPHICAL CONCEPTS

Annotation

The article examines the socio-political and economic situation in the Near and Middle East of the 9th-11th centuries, especially in Central Asia, especially in Khorezm, cultural rise, life, scientific heritage, the formation of Beruni's philosophical worldview, his teachings, as well as his activities in the Khorezm "Mamun Academy", his research on The role of the scientific direction and problems in the history of philosophical thought is analyzed.

Key words: Middle East, Western Europe, renaissance, natural sciences, philosophy, problem, scientific logic, aspiration, science, threat, aggression, active, consistent, rational.

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СРЕДА В ФОРМИРОВАНИИ НАТУРФИЛОСОФСКИХ КОНЦЕПЦИЙ БЕРУНИ

Аннотация

В статье рассматривается социально-политическая и экономическая ситуация на Ближнем и Среднем Востоке IX-XI веков, особенно в Центральной Азии, особенно в Хорезме, культурный подъем, жизнь, научное наследие, формирование философского мировоззрения Беруни, его учение, а также его деятельность в Хорезмской "Академии Мамуна", его исследование по научному направлению и проблемам анализируется его роль в истории философской мысли.

Ключевые слова: Ближний и Средний Восток, Западная Европа, возрождение, естествознание, философия, проблема, научная логика, стремление, наука, угроза, агрессия, активный, последовательный, рациональный.

BERUNIYNING NATURFALSAFIY KONSEPSIYALARI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOYIY-TARIXIY SHART-SHAROITLAR VA ILMIY-NAZARIY MUHIT

Аннотация

Maqolada IX-XI asrlardagi Yaqin va O'rta Sharq, xususan, Markaziy Osiyodagi, ayniqsa, Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, madaniy yuksalish, Beruniyning hayoti, ilmiy merosi, falsafiy dunyoqarashining shakllanishi, uning tadrijoti, shuningdek Xorazm "Ma'mun Akademiyasi"dagi faoliyati, ilmiy yo'nalish va muammolar bo'yicha tadqiqotlari, uning falsafiy tafakkur tarixida tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yaqin va O'rta Sharq, G'arbiy Yevropa, Renessans, tabiatshunoslik, falsafiy, muammo, ilmiy mantiqiy, intilishi, ilm-fan, tahdid, tajovuz, faol, izchil, ratsional.

Kirish. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) tarixiy voqealarga boy zamonda yashadi. Bu davrning o'ziga xosligi, undagi kuchli ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy jarayonlar, xususan Xorazmdagi ijtimoiy muhit, ma'naviy hayot, ilmu-fan rivoji, Xorazm Ma'mun akademiyasining vujudga kelishi Beruniy dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir qildi. Beruniy va uning ilmiy merosi, tafakkurining chuqurligi, ilmiy isbotlash usullarining fundamentalligi O'rta Osiyo va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan boy ilmiy va madaniy an'analarni umumlashtirishda va yanada taraqqiy ettirishda o'z ifodasini topdi. Beruniy yashagan davr arafasida, ya'ni IX-asrdan boshlab Markaziy Osiyo va boshqa musulmon mamlakatlari ma'naviy hayotida ham keskin yuksalish sodir bo'lib, u bir necha asr davom etdi. O'sha davrning ilmiy tiliga aylangan arab tiliga turli chet tillaridan kitoblarning tarjima qilinishi avj oldi. Bu haqda biz barcha G'arbiy Yevropa tillarida vujudga kelgan maxsus va ulkan tadqiqot adabiyotlarida ham alohida ta'kidlab o'tilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, musulmon xalqlari falsafasining davlat transport universitetimintaqada, ikkinchi mumtoz bosqichi XI-XII-asrgacha Ispaniyada qudratli al-Moraviylar va al-Muvahadiylar xalifaligining rivojlanishi hamda ijtimoiy - iqtisodiy va ilmiy - madaniy aloqalarning Mag'ribda, xususan Shimoliy Afrika, butun Periney yarim oroli (Ispaniya, Portugaliya, janubiy-g'arbiy Fransiya) mamlakatlarida o'rganilishi bilan bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston olimlari tomonidan Beruniy faoliyatiga oid ko'p ishlar amalga oshirilgan. Xususan, uning merosini tadqiq etishga muhim hissa qo'shganlar qatoriga I.M.Mo'minov, U.I.Karimov P.T.Bulgakov,

V.Y.Zohidov, M.M.Xayrullaev, A.Sharipov, M.Sharipov, B.To'raev, R.Nosirov, J.Tulenov, H.Hasanov, M.B.Baratov, Yu.N.Zavadovskiy, A.Nosirov, R.M.Bahodirov, N.Komilov, M.Quronov, M.A.Usmonov, M.O. Usmonov, O.F.Fayzullaev va boshqalar. Shu o'rinda A.Sharipovning, "Velikiy myslitel Abu Rayxan Beruni" monografiyasida buyuk alloma dunyoqarashini yaxlit holda tasvirlashga bo'lgan urinishni alohida ta'kidlash zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Yaqin va O'rta Sharqda IX-asrdan boshlanib bir necha asr davom etgan va turli mamlakatlarda qisqa vaqt ichida o'zining yuksak nuqtasiga ko'tarilgan bu madaniy ravnaq so'nggi yillarda adabiyotda Renessans (Uyg'onish davri) deb tavsiflanmoqda. IX-XII-asrlardagi O'rta va Yaqin Sharqdagi madaniy ko'tarinkilik ko'pgina sharqshunoslarning asarlarida "Arab Renessansi" nomi bilan ko'rsatiladi, bu esa aslida haqiqiy tarixiy faktlarga asoslanmagan, umuman ob'ektiv haqiqatni aks ettirmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u davrdagi Renessansda arablarga bo'ysundirilgan barcha xalqlarning madaniy yutuqlari barobar ishtirok etgan va bir butun holda IX-XII-asrlar Renessansini tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Uyg'onish davri madaniyati, fani, falsafasining o'ziga xosligini talqin qilishda ham turli xil qarashlarni ko'ramiz. Xususan, ba'zi adabiyotlarda, "Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, unda antik madaniyat yutuqlarining uyg'onishini, uning tiklanishini ko'ramiz"[7], deyiladi. Akademik M.Xayrullaev e'tiroz bildirib, uni antik madaniyatni tiklash, uyg'otish deb talqin qilish noto'g'ridir; antik madaniyatni tiklash uning uyg'onishidan

kutilgan maqsad emas, balki asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi deb tushuntirish to'g'riroq bo'lsa kerak, deydi[11]. Bizningcha, u haqiqatga yaqinroq talqindir. Agar antik madaniyatni tiklash maqsad bo'lganda, uning sezilarli barcha natijalari Uyg'onish davri madaniyatida o'z aksini to'laroq topgan bo'lar edi. Lekin biz bunday manzarani kuzatmaymiz. Hatto qadimgi grek adabiyotining oqsoqoli Gomerning "Iliada", "Odissey" sining O'rta asr Sharqida qay darajada ma'lum bo'lganligi, o'rganilganligi haqida ma'lumotlar kam. Ana shunday ma'lumotlardan birini Beruniy beradi. U o'zining "Hindiston" asarida Gomer misralarini eslatib o'tadi, bundan uning O'rta asr Sharqining eng yirik olimi Beruniyga ma'lum bo'lgani ko'rinib turadi, ammo Gomer nomini na arab, na forsiy va na turkiy asarlarda uchratamiz.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchilar kuzatishlaricha, manbalar ma'lumotlariga ko'ra Beruniyning tabiatshunoslikka bo'lgan qiziqishi bolaligidan boshlangan bo'lsa, fundamental tabiatshunoslik fanlari – matematika, astronomiya, fizika, ximiya, ilmiy hisob, handasa kabi sohalarida yuksak saviyali ilmiy kuzatish, tadqiqotlarni amalga oshirish, o'lchashlar – shahar va boshqa maskanlar joylashgan o'rnini Quyosh, Oy, yulduzlar holatiga qarab aniqlash, oraliqdagi masofani o'lchash, Qibla tomonni, ramazon oyi boshi, oxirini aniq aytib berish darajasiga 14-16 yoshlardayoq erishgan bo'lsa[12], falsafa bilan X asrning 90-yillari ikkinchi yarmidan shug'ullana boshlagan. Xususan, Shayx-ur-Rais Ibn Sino bilan maktablar vositasida qizg'in, davomiy va shiddatli bahs-munozaralarga kirishgan[13] (997) va asosan Xorazm "Ma'mun Akademiyasi"dagi, undan keyingi yetuklik va balog'at davrida muhim falsafiy masalalar, shu jumladan, borliq muammosi bilan shug'ullangan.

Biroq, Beruniyga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodiy-tanqidiy tafakkur usuli, uning ilm – fandagi ideali, falsafaga munosabati, falsafiy muammolarni o'rta qo'yishi, ularni oxirigacha ilmiy mantiqiy isbotlab berishga intilishi ilm-fan, falsafani turli tahdid, tajovuz, hujumlardan faol, izchil va ratsional himoya qilishida yaqqol namoyon bo'lgan desa bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida ko'rsatilgan manbalar ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Beruniyning 1010-1017 yillarda Xorazm "Ma'mun Akademiyasi" ("Majlis ul-ulam")dagi faoliyati benihoya shiddatli va keng ko'lamda boshlangan. U asosan quyidagi 3 ta yo'nalishda bo'lgan: I. Xorazmshohlar "Ma'mun Akademiyasi"ning qator ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi rahbari, akademiyaning raisi, tashkilotchisi va fundamental tadqiqotlar yetakchisi.

II. Xorazmshoh Abu-l Abbos Ma'mun II ibn Ma'munning eng yaqin odami - a'yoni, davlat maslahatchisi, tashqi siyosat,

ADABIYOTLAR

1. Умарова, Р. Ш. (2019). Бытие и философские взгляды Абу Райхана Беруни. Достижения науки и образования, (3 (44)), 32-33.
2. Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in IX-XII Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.
3. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
4. Умарова, Р. (2015). Некоторые аспекты взаимоотношений природы, человека и общества во взглядах Абу Али Ибн Сино и Абу Райхан Беруни. *Theoretical & Applied Science*, (10), 127-129.
5. Умарова, Р. Ш., Абдукаримова, Г. Б., & Тухтабоев, Э. А. (2019). Вклад Абу Райхана Беруни в развитие философии Ближнего, Среднего Востока и мировой науки. *Проблемы науки*, (12 (48)), 65-66.
6. Умарова, Р. Ш. (2019). Основы духовно-нравственного воспитания молодежи в трудах Абу Райхана Беруни. *Проблемы науки*, (4 (40)), 56-57.
7. Конрад Н.И. Запад и Восток. -М.: Наука. 1966. – С. 494.
8. Ramatov, J. S., Umarova, R., & Khasanov, M. N. (2022). METHOD OF DETERMINATION OF TRANSPORT INTENSITY IN URBAN CONDITIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 931-936.
9. Умарова, Р. Ш. (2020). Натурфилософия Абу Райхана Бируни. *Вестник науки и образования*, (4-1 (82)), 35-37.
10. Umarova, R. S. (2019). Fundamentals of spiritual and moral education of youth in the works of Abu Rayhan Beruni. *Problems of science*, no. 4 (40).
11. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. -Тошкент: Ўзбекистон, 1971. – Б. 91.
12. Каримов У.И. Абу Райхон Беруний //Беруний тугилган куннинг 1000 йиллигига – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 19-31; Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Тошкент:Фан. 1973. – С.30.
13. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Ташкент:Фан, 1973. – С.62. Завадовский Ю.Н. Абу Али Ибн Сина. Опыт критической биографии. – Ташкент: Фан, 1958; Захиди А. К вопросу о времени создания Хорезмской Академии Маъмуна //Общественные науки в Узбекистане. - 2006. № 1-2. - Б. 14-21.

elchilik aloqa va munosabatlari uchun mas'ul, mutasaddi rahbar.

Shayx-ur Ra'is ibn Sino bilan Arastuning "Fizika", "Osmon va olam haqida" nomli kitoblaridagi 18 ta dolzarb va murakkab, hal qilinmagan naturfalsafa muammolari bo'yicha davomli yozma ilmiy bahs-munozaralar olib bordi.

Beruniy o'nlab katta-kichik ilmiy kuzatish, tadqiqotlarni, shu jumladan, "At-Osor-ul-boqiya" kabi asarlarini yaratdi.

Ray, Jurjon, Qiyot va Gurganjda Beruniy bilan ibn Iroq, Al-Masixiy o'rtasida katta ma'noda va davomli ilmiy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Bu Ibn Iroqning 12 ta, Al-Masixiyning 12 ta, Ibn Sinoning 10 ta asari, shuningdek, "Ma'mun Akademiyasi"dagi boshqa olimlarning boshqa asarlarining Beruniy rahbarligida, homiyligida va uning nomiga bag'ishlab yozilgan fundamental ilmiy tadqiqotlarida o'zining yaqqol ifodasini topgan edi. Beruniyning Xorazm "Ma'mun Akademiyasi" tashkilotchisi, raisi bo'lib xizmat ko'rsatgan 1010-1017 yillarda bitilgan yana 10-15 asarini ham qo'shib hisoblaganda, uning bu yerda jami 50-60 ta eng asosiy asarlari yaratilganligi e'tirofdir.

Beruniy ilmiy izlanishlari, ijodida G'azna davri ayniqsa sermaxsul bo'lganligini ham qayd etish lozim. Eng muhim asarlari "Geodeziya", "Mashhoixiri Xorazm", Roziy va o'zining bibliografik fixristi kabi 1021-1027 yillarda yaratgan asarlari aslida Xorazmda yig'ilgan materiallarining umumlashtirilishi natijasi bo'lib, ular G'azna davrining birinchi o'n yilligida kitob holiga keltirilgan.

Beruniy ilmiy ijodi, faoliyati va merosining Sulton Mas'ud G'aznaviy, Sulton Mahmud G'aznaviy davrlarida jahonga mashhur qomusiy asarlari—"Xindiston". "Al-qonun al-Mas'udiy", "Kitob-us-saydana", "Kitob-ul jamaxir" (minerologiya) va shu kabilar yaratildi. Bu asarlarda turli ilm sohalariga oid tadqiqotlar natijalari aks etgan. Ularning bir qanchasini misol tariqasida ko'rsatib o'tish o'rindir. Ximiya sohasida Beruniy Gurganchda solishtirma og'irlik masalasiga risola bitib, unda har bir modda o'zining solishtirma og'irligi bilan alohida xususiyat kashf etishi to'g'risida fikr-mulohazalarini bildiradi.

Geografiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida yerning shakli va o'lchamlari muammosiga e'tiborini qaratadi, uning geografik maketini – globusni yaratadi. Shuningdek, gidrologiya, mineralogiya sohalaridagi ilmiy izlanishlarini olib boradi.

Beruniyning hayot yo'li, siyosiy faoliyati, ilmiy ijodi, uning 2 ta: Xorazm "Ma'mun Akademiyasi"dagi hamda G'aznadagi davrga ajratilishi, ularning biz ko'rsatib o'tgan subbosqichlari bo'lganligini umumlashtirilgan tarzda ko'rsatib o'tish mumkin.



UDK:159.9(575.1)

Alima ORINBAEVA,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: orynbaeva1995@mail.ru

PhD, dotsent M.Boltayeva tarqizi asosida

INTERAKTIV ILOVALAR YARATISHDA USHRAYDIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Interaktiv ilovalarni ishlab chiqishda bir qator muammolar paydo bo'lishi mumkin. Bularga platformalararo muvofiqlik, dasturiy ta'minotning moslashuvchanligi, xavfsizlik muammolari va foydalanuvchi tajribasi (UX) kabi muhim elementlar kiradi. Interfaol ilovalarni yaratishda eng keng tarqalgan muammolar ushbu maqolada amaliy tuzatishlar bilan birga ko'rib chiqiladi. Shuningdek, u ilg'or texnologiyalar va samarali ilovalarni ishlab chiqish texnikasidan foydalanish bo'yicha takliflarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Dasturiy ta'minot, xavfsizlik, platformalararo muvofiqlik, foydalanuvchi tajribasi, interaktiv ilovalar va ilovalarni ishlab chiqish.

DIFFICULTIES AND SOLUTIONS IN DEVELOPING INTERACTIVE APPS

Annotation

The process of creating interactive applications might present a number of difficulties. These include concerns about software flexibility, security, cross-platform compatibility, and user experience (UX). This essay examines the most typical issues that arise when developing interactive applications and offers workable fixes. Furthermore, suggestions for effective development tactics and the application of cutting-edge technologies are given.

Key words: Software, security, cross-platform compatibility, user experience, interactive apps, and application development.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИ СОЗДАНИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

Аннотация

Разработка интерактивных приложений может привести к ряду проблем. Проблемы с пользовательским опытом (UX), гибкость программного обеспечения, проблемы безопасности и кроссплатформенная совместимость — вот некоторые из них. В этой статье рассматриваются самые распространенные проблемы при разработке интерактивных приложений и предлагаются эффективные решения. Кроме того, предлагаются эффективные методы использования инновационных технологий и разработки.

Ключевые слова: Интерактивные приложения, пользовательский опыт, безопасность, кроссплатформенная совместимость, программное обеспечение.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalarning keng tarqalishi turli sohalarda interaktiv ilovalarning keng qo'llanilishiga olib keldi. Bu ilovalar biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash va o'yinlar kabi turli sohalarda foydalanuvchilarning faolligini va samaradorligini oshiradi. Biroq, interaktiv ilovalarni yaratishda bir qator muammolar paydo bo'ladi.

Bu tashvishlar platformalararo muvofiqligi, dasturiy ta'minotning moslashuvchanligi, xavfsizlik va foydalanuvchi tajribasini (UX) o'z ichiga oladi. Ilovalar xavfsiz,

foydalanuvchilar uchun qulay va foydalanuvchi ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak. Shu sababli, interaktiv ilovalarni yaratishda ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir[1].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi. Interaktiv ilovalar yaratishda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlarini samarali tushuntirish uchun quyidagi jadval shaklida keltiramiz. Jadvalda har bir muammo uchun aniq misollar va ularni bartaraf etish bo'yicha innovatsion yondashuvlar ko'rsatilgan.

Muammo	Tahlil va misollar	Yechim va yondashuv
Foydalanuvchi tajribasi (UX) muammolari	Ba'zan foydalanuvchilar interaktiv ilovalarda keraksiz animatsiyalar, chalkash navigatsiya yoki intuitiv bo'lmagan interfeys tufayli qiyinchilikka duch kelishadi. Masalan, ta'lim ilovalarida qiyin topshiriqlar tushunarli ko'rsatmalar bo'lmasa, foydalanuvchilar qiziqishni yo'qotishi mumkin.	Minimalistik dizayn va UX tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan interfeyslar. Foydalanuvchi testlari o'tkazish, shaxsiylashtirilgan interfeys elementlarini qo'llash.
Platformalararo muvofiqlik	Ilova turli operatsion tizimlarda noto'g'ri ishlashi mumkin. Masalan, mobil ilova Android va iOS tizimlarida har xil ishlashi yoki veb-versiyada xatoliklar yuzaga kelishi mumkin.	React Native yoki Flutter kabi texnologiyalardan foydalanish, ilovani moslashuvchan qilish uchun avtomatlashtirilgan testlar o'tkazish.
Xavfsizlik tahdidlari	Interaktiv ilovalarda foydalanuvchi ma'lumotlarining himoyasizligi katta muammo. Masalan, ta'lim platformalarida o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavf ostida bo'lishi mumkin.	Ma'lumotlarni shiflash, ikki faktorli autentifikatsiya joriy qilish, xavfsizlik devorlarini mustahkamlash.

Flutter

Flutter — Google tomonidan ishlab chiqilgan kross-platforma ilovalar yaratish uchun mo'ljallangan framework. U yordamida Android, iOS, veb va desktop ilovalar ishlab chiqish

mumkin. Interaktiv ilovalar uchun Flutter keng vizual imkoniyatlarga ega bo'lib, animatsiyalar va o'zaro ta'sirni soddalashtiradi. Uning "Hot Reload" funksiyasi ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi.

React Native

React Native — Facebook tomonidan ishlab chiqilgan va JavaScript asosida ishlaydigan framework bo'lib, interaktiv mobil ilovalar yaratishda keng qo'llaniladi. Ushbu platforma orqali Android va iOS uchun yagona kod bazasi bilan ishlab chiqish mumkin. React Native foydalanuvchi interfeyslarini interaktiv qilish uchun kuchli kutubxonalarga ega[2].

Unity

Unity — interaktiv o'yinlar va ta'lim ilovalari ishlab chiqishda keng qo'llaniladigan platforma. Bu tizim vizual effektlar, 3D animatsiyalar va VR/AR imkoniyatlari bilan boyitilgan. Ilovalarni interaktiv qilishda realistlik vizual tajribalar yaratish imkoniyatini beradi.

Flutter ishlatganda, animatsiyalar va UI dizaynini moslashuvchan qilish oson, lekin ba'zan platformaga xos xususiyatlar yetishmaydi. Buni native kod bilan bog'lab hal qilish mumkin. Shuningdek, Flutterning hot reload imkoniyati tajriba o'tkazish uchun ideal, shu bois ilovani ishlab chiqishda doimiy iteratsiya qilish tavsiya etiladi[3].

React Native dinamik dasturlar uchun qulay, ammo katta loyihalarda ishlaganda performance bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Bunga optimizatsiyalangan native modullar yaratish yoki WebView'dan foydalanish orqali yechim topish mumkin. Shuningdek, Expo kabi vositalar yordamida ish jarayonini tezlashtirish mumkin.

Unity o'yinlar va interaktiv ilovalar uchun ajoyib tanlov, lekin ba'zan render qilish jarayoni tizim resurslarini ortiqcha ishlatadi. Yengilroq shablonlar yaratish, shuningdek, ob'ektlarni o'z vaqtida optimallashtirish orqali buni bartaraf etish mumkin. Ilovani qurishdan oldin sahna hajmini kamaytirish va optimal materiallardan foydalanish ham foydali.

SwiftUI foydalanuvchilarga intuitiv interfeys yaratish imkonini beradi, lekin u hali hamma funksiyalarni qo'llab-quvvatlamaydi. Agar maxsus UI elementlar kerak bo'lsa, UIKit yoki kombinatsiyalangan yondashuvdan foydalanish yaxshi natija beradi.

Animatsiyalarni Core Animation bilan boyitish mumkin[4].

Jetpack Compose deklarativ interfeys yaratishda osonlik beradi, lekin eski Android versiyalariga moslash uchun qo'shimcha sa'y-harakat talab etiladi. Material You dizaynini to'g'ri tatbiq etish va qat'iy komponentlar yaratish bu borada yordam beradi.

Xamarin katta korporativ loyihalar uchun yaxshi tanlov, lekin ba'zan platforma farqlari muammo tug'diradi. Har ikkala tizim uchun bitta kodni ishlatish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, ba'zi joylarda nativeni ishlatish zarur. Mahalliy API lar bilan bog'liq muammolarni dependency injection orqali hal qilish mumkin.

Godot o'yin yaratishda tezkor va yengil dvijok bo'lsa-da, ba'zan tajribali dasturchilar uchun yetarli darajada moslashuvchan bo'lmasligi mumkin. Open-source ekanligi esa kerakli funksiyalarni o'zingizga moslab yozish imkonini beradi. Shuningdek, uning GDScript tilida kod yozish o'rganish uchun qulay.

Electron orqali veb texnologiyalar asosida desktop ilovalar yaratish mumkin, ammo u og'ir bo'lishi mumkin. Bu muammoni oldini olish uchun fon jarayonlarini iloji boricha yengillashtirish va kerakli modullarni minimal ishlatish lozim. Ilovani ishga tushirganda RAM va CPU iste'molini kamaytirish uchun WebView yuklamalarini optimallashtirish kerak[5].

Qt ishlab chiqishda vizual interfeyslar uchun kuchli imkoniyatlar beradi, lekin C++ da ishlashni talab qiladi. Ilovani tezroq ishlab chiqish uchun QML ni ko'proq ishlatish va lozim bo'lsa, backend uchun C++ dan foydalanish mumkin.

Shuningdek, platformaga mos interfeyslar yaratish uchun moslashuvchan komponentlardan foydalanish kerak.

Blazor orqali C# va .NET bilan ishlovchi veb ilovalar yaratish oson, lekin WebAssembly yuklanish tezligi bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Uni yechish uchun oldindan yuklanadigan komponentlar yaratish va statik kontentni CDN orqali yetkazib berish foydali bo'ladi. Server va klient o'rtasida yuklamani muvozanatlash ham muhim.

Interaktiv ilovalar yaratishda har bir texnologiyaning kuchli va zaif tomonlarini inobatga olib, ulardan maksimal darajada foyda olish mumkin. Muhimi – ilovalar foydalanuvchilar uchun tezkor, qulay va estetik jihatdan jozibador bo'lishi kerak[6].

Muhokama va natijalar

Interaktiv ilovalar yaratishda turli platformalar foydalanish imkonini beradi. Quyida yuqorida ko'rib chiqilgan platformalarning qo'llanilishi, foydali tomonlari va rasmiy havolalari keltirilgan.

Flutter

Flutter kross-platforma ilovalar ishlab chiqishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. U interaktiv ta'lim va tijorat ilovalari yaratishda keng qo'llaniladi. "Hot Reload" funksiyasi tufayli dastur ishlab chiqish tezligi ortadi va vizual dizaynlarni tezkor ravishda o'zgartirish mumkin.

Rasmiy sayt: <https://flutter.dev>

React Native

React Native interaktiv mobil ilovalar yaratishda juda qulay platforma bo'lib, ayniqsa foydalanuvchi interfeyslarini soddalashtirish va tezkor ishlash imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Uning asosiy afzalliklari orasida kodni bir necha platformada ishlatish va kuchli kutubxonalar bilan integratsiyalash mavjud[7].

Rasmiy sayt: <https://reactnative.dev>

Unity

Unity murakkab interaktiv ilovalar, jumladan, 3D va VR/AR tizimlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim ilovalari uchun realistlik vizual tajribalar yaratish imkonini beradi. O'yinlar va simulyatsiya dasturlarini ishlab chiqishda keng qo'llaniladi.

Rasmiy sayt: <https://unity.com>

Adobe XD va Figma

Adobe XD va Figma interaktiv prototiplar yaratishda eng ko'p ishlatiladigan dizayn vositalari hisoblanadi. Ushbu platformalar foydalanuvchilarga interaktiv interfeyslarni loyihalash va test qilish imkonini beradi. Ilova ishlab chiqish jarayonida foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun dizaynni sinovdan o'tkazish imkoniyati mavjud. Adobe XD: <https://www.adobe.com/products/xd.html> Figma: <https://www.figma.com>

Xamarin

Xamarin C# asosida ishlovchi dasturchilar uchun qulay platforma bo'lib, Microsoft ekotizimi bilan yaxshi integratsiyalashgan. U korporativ interaktiv ilovalar yaratishda foydalidir va Windows, Android hamda iOS uchun mos keladi[8].

Rasmiy sayt: <https://dotnet.microsoft.com/en-us/apps/xamarin>

No-code va Low-code platformalar

Bubble, Adalo va OutSystems kabi no-code va low-code platformalar dasturlash tajribasisiz ham interaktiv ilovalar yaratish imkonini beradi. Ushbu platformalar foydalanuvchilarga vizual interfeys yaratish va ilovalar funksiyalarini soddalashtirish imkoniyatini taqdim etadi.

Bubble: <https://bubble.io>


Adalo: <https://www.adalo.com>

OutSystems:

<https://www.outsystems.com>

Bu platformalar interaktiv ilovalarni samarali yaratish va rivojlantirish imkonini beradi. Har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, loyiha talablariga qarab mos platforma tanlanishi lozim[9].

Bugungi Kundagi Interaktiv Ilova Texnologiyalari Afzalliklari



Kelajakda rivojlanish yo'nalishlari:

Flutter: AI integratsiyasi, desktop va o'yin rivojlanishi.

React Native: Ko'proq native optimizatsiyalar, yangi animatsiya tizimlari.

Unity: Bulutli o'yinlar, realistik simulyatsiyalar.

SwiftUI & Jetpack Compose: To'liq native ilovalarga o'tish.

Xamarin: MAUI bilan yaxshilanish, qo'shimcha platformalar qo'llab-quvvatlashi.

Godot: VR va WebAssembly orqali kengayishi.

Electron: Engilroq arxitektura, resurs iste'molini kamaytirish.

Qt: IoT va avtomatlashtirish sohasida kuchayish.

Blazor: Serverless va AI asosida optimizatsiya qilish[10].

Xulosa. Interaktiv ilovalar yaratishda turli platformalar ishlatiladi va har biri o'ziga xos afzalliklarga ega. Flutter va React Native kross-platforma ilovalar ishlab chiqishda eng samarali vositalardan biri bo'lib, foydalanuvchilarga tezkor rivojlanish va moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Unity murakkab interaktiv ilovalar, jumladan, VR/AR va simulyatsiyalar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Adobe XD va Figma esa interaktiv dizayn yaratish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Xamarin korporativ interaktiv ilovalar ishlab chiqishda kuchli imkoniyatlarga ega bo'lib, Microsoft ekosistemi bilan mukammal integratsiyalashgan. No-code va low-code platformalar esa dasturlash tajribasisiz ham vizual interfeyslarni yaratish va tezkor ilovalar ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Google Developers. Flutter Documentation. <https://flutter.dev/docs>
2. Facebook Open Source. React Native Guide. <https://reactnative.dev/docs>
3. Unity Technologies. Unity User Manual. <https://docs.unity3d.com>
4. Microsoft Documentation. Xamarin and .NET MAUI. <https://learn.microsoft.com/en-us/xamarin/>
5. Flutter Documentation – Google tomonidan rasmiy Flutter hujjatlari. Manba: <https://flutter.dev/docs>
6. React Native Documentation – Facebook tomonidan ishlab chiqilgan React Native uchun rasmiy hujjatlar. Manba: <https://reactnative.dev/docs>
7. Unity User Manual – Unity o'yin dvijokining texnik hujjatlari va yechimlar. Manba: <https://docs.unity3d.com/Manual/index.html>
8. Jetpack Compose by Google – Android ilovalar uchun deklarativ UI yaratish bo'yicha rasmiy qo'llanma. Manba: <https://developer.android.com/jetpack/compose>
9. SwiftUI Essentials (Apple Documentation) – SwiftUI dan foydalangan holda interaktiv UI yaratish bo'yicha rasmiy. Manba: <https://developer.apple.com/documentation/swiftui>
10. Xamarin Forms Documentation – NET asosida mobil ilovalar yaratish bo'yicha Microsoft rasmiy hujjatlari. Manba: <https://learn.microsoft.com/en-us/xamarin/>



УДК:13.3(145.3)

Дилфуза УСМАНОВА,

Старший преподаватель кафедры Языков, Чирчикское высшее танковое командное инженерное училище

E-mail: dilfuza1969t@gmail.com

Под рецензией А.Маматкулова – DSc, АГИЯ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы профессиональной речи, её функции, характеристики, виды и языковые средства. Анализируются особенности устной и письменной профессиональной коммуникации, включая монологическую и диалогическую речь, официально-деловую, научную и публицистическую письменную речь. Определяются основные требования к речи специалиста, такие как точность, логичность, грамотность, соответствие коммуникативной ситуации и культура речи. Особое внимание уделяется роли терминологии и профессионализмов в специализированном общении. В статье подчёркивается важность совершенствования профессиональной речи для успешного взаимодействия в профессиональной среде.

Ключевые слова: Профессиональная речь, деловое общение, терминология, культура речи, устная речь, письменная речь, профессиональная коммуникация, монологическая речь, диалогическая речь, языковые средства.

PROFESSIONAL NUTQLARNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Maqolada professional nutqning nazariy asoslari, uning vazifalari, xususiyatlari, turlari va lingvistik vositalari muhokama qilinadi. Og'zaki va yozma kasbiy muloqotning xususiyatlari, jumladan monolog va dialogik nutq, rasmiy ish, ilmiy va jurnalistik yozma nutq tahlil qilinadi. Mutaxassisning nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar aniqlik, mantiqiylik, savodxonlik, kommunikativ vaziyatga rioya qilish va nutq madaniyati kabilar aniqlanadi. Ixtisoslashgan muloqotda atamashunoslik va kasbiy mahoratga alohida e'tibor beriladi. Maqolada professional muhitda muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir qilish uchun professional nutqni takomillashtirish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Kasbiy nutq, ishbilarmonlik muloqoti, terminologiya, nutq madaniyati, og'zaki nutq, yozma nutq, kasbiy muloqot, monolog nutq, dialogik nutq, til vositalari.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL SPEECHES

Annotation

The article discusses the theoretical foundations of professional speech, its functions, characteristics, types and linguistic means. The features of oral and written professional communication are analyzed, including monologue and dialogic speech, official business, scientific and journalistic written speech. The basic requirements for a specialist's speech are determined, such as accuracy, logic, literacy, compliance with the communicative situation and speech culture. Particular attention is paid to the role of terminology and professionalism in specialized communication. The article emphasizes the importance of improving professional speech for successful interaction in a professional environment.

Key words: Professional speech, business communication, terminology, speech culture, oral speech, written speech, professional communication, monologue speech, dialogic speech, language means.

Введение. Профессиональная речь является важнейшим компонентом профессиональной деятельности, так как обеспечивает эффективное взаимодействие между специалистами, передачу информации, аргументацию и принятие решений. В разных сферах деятельности профессиональная речь имеет свои особенности, но в целом она должна соответствовать нормам языка, быть логически выстроенной, точной и выразительной [1].

Анализ литературы по теме. В данной статье рассматриваются теоретические основы профессиональной речи, её функции, характеристики, виды, а также основные требования к речи специалиста [3].

1. Понятие и функции профессиональной речи

Профессиональная речь — это разновидность устного и письменного общения, используемая в профессиональной деятельности и имеющая специфические черты, обусловленные отраслевой принадлежностью.

Основные функции профессиональной речи:

- Коммуникативная – передача информации между специалистами.
- Познавательная – выражение и закрепление знаний.
- Регулятивная – управление профессиональной деятельностью, постановка задач.
- Эмоционально-воздействующая – влияние на собеседника (например, в управлении, педагогике, медицине).

2. Основные характеристики профессиональной речи
Профессиональная речь должна соответствовать следующим принципам:

1. Точность – использование терминов и понятий в строгом соответствии с их значением.
2. Логичность – четкая структурированность и последовательность высказывания.
3. Доступность – соответствие уровня восприятия аудитории.
4. Ясность – отсутствие двусмысленности и неопределенности.
5. Выразительность – использование стилистических средств для привлечения внимания и усиления смысла.

Методология исследования. Профессиональная речь делится на устную и письменную формы.

3.1. Устная профессиональная речь
Устная профессиональная коммуникация включает:

- Монологическую речь (лекции, доклады, выступления, презентации).
- Диалогическую речь (переговоры, совещания, консультации, интервью).

3.2. Письменная профессиональная речь
Основные формы письменной профессиональной речи:

- Официально-деловая (документы, приказы, отчёты, резюме).

- Научная (статьи, исследования, монографии).
- Публицистическая (профессиональные журналы, блоги, рецензии).

4. Языковые средства профессиональной речи

Профессиональная речь включает общелитературные языковые средства (лексика, грамматика, стилистика) и специфические профессиональные средства:

- Терминология – специальные понятия, используемые в данной сфере (например, юридические термины в праве, медицинские – в медицине).
- Профессионализмы – узкоспециальные слова, используемые в профессиональном сообществе.
- Клише и шаблонные выражения – стандартные конструкции, упрощающие деловое общение.

5. Требования к речи специалиста

Профессиональная речь специалиста должна соответствовать следующим требованиям:

1. Грамотность – соблюдение норм литературного языка.
2. Соответствие коммуникативной ситуации – выбор стиля речи в зависимости от аудитории.
3. Умение адаптировать сложные термины – объяснение сложных понятий доступным языком.
4. Культура речи – соблюдение этикета общения, уважительное отношение к собеседнику [5].

Анализ и результаты. Взаимосвязь

профессиональной речи с другими видами речи

Профессиональная речь тесно связана с:

- Официально-деловым стилем (используется в документации, переговорах, отчётах).
- Научным стилем (применяется в исследованиях, публикациях, лекциях).
- Публицистическим стилем (используется в статьях, блогах, выступлениях для широкой аудитории).

В зависимости от ситуации профессиональная речь может переходить из одной формы в другую, например, научная информация может быть представлена в деловом формате (отчёт) или в популярной форме (статья).

2. Психолингвистические особенности

профессиональной речи

Формирование профессиональной речи связано с когнитивными процессами:

- Концептуализация – выделение главного в информации.
- Вербализация – выражение мыслей с помощью языка.
- Интерпретация – адаптация информации для разной аудитории.

Для успешного общения специалист должен учитывать уровень собеседника и выбирать соответствующие языковые средства.

3. Риторические приёмы в профессиональной речи

Для повышения эффективности профессиональной речи используются риторические приёмы:

- Логические аргументы (доказательства, статистика, примеры).
- Риторические вопросы (для привлечения внимания и активизации слушателей).
- Сравнения и аналогии (помогают объяснить сложные понятия).
- Интонация и паузы (усиливают воздействие в устной речи) [7].

4. Типичные ошибки в профессиональной речи

1. Избыточное употребление терминов – усложняет восприятие.
2. Канцеляризмы и шаблонные фразы – делают речь сухой и формальной.

3. Нарушение логики высказывания – приводит к непониманию.

4. Отсутствие речевого этикета – снижает эффективность общения.

5. Современные тенденции в развитии профессиональной речи

- Влияние цифровых технологий (чаты, голосовые сообщения, видеоконференции).

- Популяризация простого и понятного изложения сложных тем (тренды на научпоп и сторителлинг).

- Межкультурная коммуникация (необходимость адаптации речи для международного взаимодействия).

Эти аспекты делают профессиональную речь не только средством коммуникации, но и важным инструментом развития карьеры и профессионального роста [8].

Выводы и предложения. Профессиональная речь – важный инструмент в любой сфере деятельности. Её эффективность определяется точностью, логичностью, ясностью и культурой выражения мысли. Владение профессиональной речью позволяет специалисту уверенно взаимодействовать с коллегами, формулировать и доносить идеи, участвовать в профессиональных дискуссиях и продвигаться в карьере.

Совершенствование профессиональной речи требует постоянной работы: изучения терминологии, практики публичных выступлений, соблюдения языковых норм и развития навыков делового общения.

Предложения: 1. Разработка учебных программ и курсов по профессиональной речи

- Включение дисциплины «Профессиональная речь» в образовательные программы вузов и колледжей.
- Разработка специализированных курсов для разных сфер (юриспруденция, медицина, экономика, педагогика и др.).

2. Использование цифровых технологий для развития профессиональной речи

- Создание онлайн-платформ и мобильных приложений с упражнениями по развитию профессиональной речи.

- Организация вебинаров и онлайн-дискуссий для практического освоения навыков общения в профессиональной среде.

3. Практическое обучение профессиональному общению

- Проведение ролевых игр, деловых переговоров, моделирования реальных профессиональных ситуаций.
- Организация дебатов и круглых столов для отработки аргументации и публичных выступлений.

4. Совершенствование письменной профессиональной речи

- Разработка методических пособий по написанию деловых писем, отчётов, аналитических записок.
- Внедрение практических заданий по редактированию профессиональных текстов.

5. Формирование культуры речевого общения

- Обучение нормам речевого этикета в профессиональной среде.
- Развитие навыков межкультурной коммуникации в международных профессиональных отношениях.

6. Исследования и мониторинг качества профессиональной речи

- Проведение научных исследований о влиянии языка на профессиональную деятельность.
- Организация тренингов и мастер-классов для повышения качества речевой культуры специалистов.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Аристова, Т. В. Культура профессиональной речи. — М.: Академия, 2020.
2. Бабайцева, В. В. Русский язык и культура речи: Учебное пособие для вузов. — М.: Флинта, 2019.
3. Голуб, И. Б. Стилистика русского языка: Учебное пособие для студентов филологических специальностей вузов. — М.: Высшая школа, 2018.
4. Кузнецов, А. Д. Профессиональная коммуникация и культура речи. — СПб.: Питер, 2021.

5. Кузьмина, С. А. Язык профессионального общения: теория и практика. — Екатеринбург: Уральский университет, 2017.
6. Радченко, С. Н. Основы делового общения: Учебное пособие. — Ростов-на-Дону: Феникс, 2016.
7. Скворцов, Л. И. Русский язык и профессиональная речь. — М.: Академический проект, 2022.
8. Стернин, И. А. Культура речи и коммуникативное поведение. — Воронеж: ВГУ, 2019.
9. Шейгал, Е. И. Деловая риторика: Теория и практика публичных выступлений. — СПб.: Лань, 2020.
10. Щукин, А. Н. Коммуникативные стратегии в профессиональной деятельности. — М.: Просвещение, 2018.



Зарухан УТЕМУРАТОВА,
Доцент Ташкентский архитектурно-строительный университета
E-mail: z.utemuratova@mail.ru

По отзыву профессора ТАСУ М.Ниязова

ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ

Аннотация

В данной статье выделены положительные стороны использования инновационных технологий в инновационном образовании и образовательном процессе, в частности проблемы преподавания русского языка как иностранного, современные методы преподавания, необходимость инновационного подхода к обеспечению эффективности урока.

Ключевые слова: Инновационное образование, учебный процесс, русский язык, инновационные технологии, современные методы обучения, эффективность урока.

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O ‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada innovatsion ta’lim va o’quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ijobiy tomonlari, xususan rus tilini chet tili sifatida o’qitish muammolari, o’qitishning zamonaviy usullari, dars samaradorligini ta’minlashda innovatsion yondashuv zarurligi ta’kidlangan.

Kalit so’zlar: Innovatsion ta’lim, o’quv jarayoni, rus tili, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy ta’lim metodlari, dars samaradorligi.

INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

This article highlights the positive aspects of using innovative technologies in innovative education and the educational process, in particular, the problems of teaching Russian as a foreign language, modern teaching methods, and the need for an innovative approach to ensuring lesson effectiveness.

Key words: Innovative education, educational process, Russian language, innovative technologies, modern teaching methods, lesson effectiveness.

Введение. Сфера образования - это непрерывный процесс, который включает в себя новые методы, подходы, техники и инструменты, позволяющие быть в курсе инноваций или новостей. Использование новых инструментов и методик в процессе преподавания и изучения русского языка направлено на то, чтобы сделать этот процесс максимально удобным в интересах преподавателей и учащихся.

Широкое использование компьютеров и Интернета сделало дистанционное обучение проще и быстрее, и сегодня виртуальные школы и виртуальные университеты предоставляют полные учебные программы онлайн[1]. Следует признать, что сфера образования в мире стремительно меняется благодаря новым методам и средствам, используемым на практике, то же самое происходит и в системе преподавания русского языка в Узбекистане. В соответствии с этим, вся система преподавания русского языка должна формироваться на основе этих двух факторов, чтобы подготовить реальные будущие кадры Узбекистана, способные конкурировать со своими зарубежными коллегами, отвечающие требованиям современности и государства.

Обзор литературы. Разнообразие источников для изучения русского языка – вы можете видеть, что большинство языковых занятий могут показаться скучными изучающим язык из-за использования одних и тех же источников в процессе; однако нынешние студенты не могут привыкнуть к такому состоянию. Как следствие этого, пришло время использовать инновационные средства и источники в процессе преподавания языка. Поскольку наше исследование связано с применением инноваций в преподавании русского языка, преподаватель может использовать инфографику, видео, аудиофайлы, чтобы пробудить у студентов интерес к дистанционной форме изучения языка. Например, мы использовали отрывки из

известных фильмов, мультфильмов до и после наших уроков, чтобы познакомить их с новыми темами, вовлечь в беседы друг с другом, в дискуссии и так далее. Кроме того, студенты университетов отмечают, что лекционные материалы, такие как теоретическая грамматика, фонетика и стилистика, гораздо сложнее для понимания. Для практического решения этой проблемы мы запланировали выпуск различных форм учебных материалов для студентов, таких как инфографические материалы, видеофайлы, которые представляют основную научную информацию в упрощенном виде.

“Инновационный подход требует от каждого лингвиста овладения методикой преподавания русского языка как иностранного, понимания того, что учащиеся воспринимают законы русского языка через призму законов своего родного языка, и это является причиной многих орфографических и даже пунктуационных ошибок. Такие ошибки классифицируются как ошибки помех. Трудности в изучении русского языка как неродного можно разделить на три уровня: - трудности, общие для любого нерусского; - трудности для носителей определенной группы языков (близкородственных, неродственных); - трудности для учащихся определенной национальности”. [2]. Атмосфера преподавания и изучения русского языка - среда для преподавания и изучения языка также является наиболее значимым фактором в процессе современного образования.

Выявлено, что использование компьютерных и информационных технологий в подготовке будущих педагогов является необратимым процессом, который связан с обновлением содержания, форм и методических принципов образования. Использование компьютерных и информационных технологий на занятиях при обучении учителей целесообразно, если это обеспечивает более высокую эффективность обучения, чем использование

традиционных средств, а также если учитель использует их профессионально.

В процессе обучения следует использовать средства компьютерных и информационных технологий: при изучении и закреплении нового материала, что способствует лучшему усвоению информации учащимися, повышает наглядность, возможность разностороннего рассмотрения явлений или процессов, расширяет их кругозор[3]. Методы подачи информации, экономящие время на ее подаче интерактивные мультимедийные лекции (слайд-лекция, видеолекция), электронный учебник; в практической работе - как средство поиска и изучения необходимого материала, развития навыков и умений самостоятельного решения задач (с использованием программ Power Point, Corel, Adobe Photoshop); при контроле знаний, позволяющем повысить его объективность (тестовые программы в образовательных целях); при организации и проведении интернет-тестирования.

Для повышения эффективности и качества подготовки преподавателей необходимо организовать учебный процесс с активной позицией учащихся в получении новых знаний, что создает условия для творчества в обучении. Успех достижения этой цели зависит не только от того, что приобретается, но и от того, как это приобретается: индивидуально или коллективно, на основе внимания, восприятия, памяти или всего личностного потенциала будущего специалиста, с помощью репродуктивных или активных методов воздействия. Образование[4]. Непосредственное вовлечение учащихся в активную учебно-познавательную деятельность связано с использованием приемов и методик, получивших обобщенное название "активные методы обучения".

Появление и развитие активных методов связано с тем, что перед обучением возникли новые задачи: не только дать учащимся знания, но и обеспечить формирование и развитие познавательных интересов и способностей, творческого мышления, навыков и самостоятельной умственной работы. Именно такая форма взаимодействия и коммуникации учит будущих педагогов формулировать мысли на профессиональном языке, говорить устно, слушать, слышать и понимать других, рассуждать правильно и рассудительно.

Совместная работа требует не только индивидуальной ответственности и самостоятельности, но и самоорганизации коллектива, требовательности, взаимной ответственности и дисциплины. Основываясь на анализе научных источников, мы отмечаем, что необходимо внести изменения в проведение практических занятий и организацию деятельности студентов, которые будут способствовать развитию творческого мышления будущего специалиста, улучшат умение находить необходимую информацию, творчески интерпретировать и применять ее в своей деятельности. особые условия. Мы считаем, что центральным моментом в организации образования является поиск и развитие таких форм и технологий, при которых акцент делается на самостоятельность учащихся в процессе учебной деятельности.

Результаты и обсуждение.

Современное обучение русскому языку стремится к максимальной эффективности и вовлеченности учеников. Вот несколько инновационных подходов, которые могут быть использованы:

1. Использование цифровых технологий:

* **Онлайн-платформы:** Использование онлайн-платформ для обучения русскому языку, таких как Duolingo, Memrise, Babbel, позволяет ученикам заниматься в удобное время и с индивидуальным темпом.

* **Интерактивные упражнения:** Интерактивные упражнения, игры и виртуальные симуляции делают процесс обучения более интересным и увлекательным.

* **Видео- и аудиоматериалы:** Использование видеороликов, фильмов, сериалов, подкастов и аудиокниг на русском языке позволяет погрузиться в языковую среду и развивать навыки аудирования и восприятия речи.

* **Виртуальная реальность:** Технологии виртуальной реальности открывают новые возможности для погружения в языковую среду, например, симуляция разговора с носителями языка.

2. Проектный подход:

* **Реальные задачи:** Обучение строится вокруг реальных задач, которые ученики должны решить, используя свои знания русского языка.

* **Командная работа:** Ученики работают в группах, что позволяет им развивать навыки коммуникации и сотрудничества.

* **Творчество:** Проекты могут быть творческими, например, создание видеоролика, презентации, театральной постановки, что делает обучение более интересным и запоминающимся.

3. Дифференцированный подход:

* **Учет индивидуальных особенностей:** Учителя учитывают индивидуальные особенности учеников, их уровень владения языком, интересы и цели.

* **Разнообразные материалы:** Используются разнообразные материалы и методы обучения, чтобы удовлетворить потребности каждого ученика.

* **Индивидуальные задания:** Ученикам предлагаются индивидуальные задания, которые соответствуют их уровню и интересам.

4. Использование игровых технологий:

* **Игры на развитие языковых навыков:** Использование игр для развития лексики, грамматики, произношения, аудирования и письма.

* **Ролевые игры:** Ролевые игры позволяют ученикам практиковать разговорный язык в непринужденной обстановке.

* **Игровые приложения:** Игровые приложения, разработанные специально для обучения русскому языку, делают процесс обучения более увлекательным и мотивирующим.

5. Создание комфортной и мотивирующей атмосферы:

* **Позитивный настрой:** Создание позитивной и мотивирующей атмосферы в классе.

* **Поощрение:** Поощрение учеников за их успехи и достижения.

* **Уважение:** Уважение к ученикам и их индивидуальным особенностям.

Важно отметить, что инновационный подход в обучении русскому языку должен быть комплексным и учитывать потребности конкретных учеников.

Конференции, семинары, круглые столы для обмена различными идеями по интересующим темам, проблемам, анализа и изучения международного опыта; В то же время главной задачей высшего учебного заведения на современном этапе является подготовка специалистов, способных нестандартно, гибко и своевременно реагировать на изменения, происходящие в мире[5].

Проектный метод очень широко используется в учебном процессе высших и средних учебных заведений, но бывает, что на практике речь идет о работе над определенной темой или просто о групповой работе. На самом деле, если это метод, то он предполагает определенный набор образовательных и когнитивных приемов, которые позволяют решить проблему в результате самостоятельных действий учащихся и предполагают представление этих результатов.

Успешное обучение русскому языку требует от учителя не только владения языком, но и умения использовать современные технологии и методики, а также создавать комфортную и мотивирующую атмосферу в классе.

Заключение. В заключение, тот факт, что учитель учитывает следующее при инновационном подходе, еще больше повысит эффективность урока и сделает его интересным:

- Учитывает интересы и потребности учащихся;
- Учитывает мнения учащихся;
- Способен применять различные методы в процессе обучения;

- Интенсивное использование педагогических технологий в образовательном процессе,

- Чтобы преподаватель постоянно работал над собой и всегда был в курсе новостей и т.д.

Чтобы преподавать русский язык как иностранный, необходимо, прежде всего, рассматривать студентов как социальных существ, поскольку каждый студент - это личность, которая характеризуется личностными и социальными чертами, которые могут влиять на процесс обучения. Люди изучают языки, когда у них есть

возможность понимать язык и работать с ним в контексте, который они понимают и находят интересным. Студенты овладевают русским языком, работая с материалами, которые им интересны и актуальны и которые они могут использовать в своей профессиональной деятельности или в дальнейшем образовании. Чем больше учащиеся обращают внимания на значение языка, который они слышат или читают, тем они успешнее; чем больше им приходится сосредотачиваться на лингвистическом материале или изолированных языковых структурах, тем меньше у них мотивации посещать занятия.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Utemuratova Z. A. The use of motivational features of gaming technology in the study of the Russian language in non-linguistic universities //ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91). – 2020. – С. 39-42.
2. Azimov E.G., Shchukin A.N. A modern dictionary of methodological terms and concepts (theory and practice of teaching languages). M.: Russian language. Courses. 2018. 496 p.
3. Utemuratova Z. A. Использование мотивационных возможностей игровых технологий при изучении русского языка в неязыковых вузах //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 39-42.
4. Yuldasheva T., Kadirova K. Teaching Russian with innovative approach //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 8. – №. 7.
5. Ajimuratovna U. Z. CONVERSATIONAL STYLE IN RUSSIAN LANGUAGE //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 180-184.
6. Утемуратова З. А. Использование новых педагогических технологий и их значение в образовательном процессе //мировая наука 2021. проблемы и перспективы. – 2021. – С. 83-85.



Abror XAYDAROV,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail: a.khaydarov1954@mail.ru

TDTTrU dotsenti, f.f.n R.Umarova taqrizi asosida

FORMATION OF INFORMATION SOCIETY AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the emergence and formation of the information society, its development, its content and essence, digitalization, e-government, factors of artificial intelligence, the formation and prospects of the information society in Uzbekistan.

Key words: Information, information society, models of the information society, post-industrial society, digitalization, e-government, electronic democracy, information culture, artificial intelligence.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются возникновение и становление информационного общества, его развитие, его содержание и сущность, цифровизация, электронное правительство, факторы искусственного интеллекта, становление и перспективы информационного общества в Узбекистане.

Ключевые слова: Информация, информационное общество, модели информационного общества, постиндустриальное общество, цифровизация, электронное правительство, электронная демократия, информационная культура, искусственный интеллект.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA UNING O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI

Аннотация

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatning vujudga kelishi va shakllanishi, rivojlanishi, uning mazmuni va mohiyati, raqamlashtirish, elektron hukumat, sun‘iy intellekt omillari, O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Axborot, axborot jamiyati, axborot jamiyati modellari, postindustrial jamiyat, raqamlashtirish, elektron hukumat, elektron demokratiya, axborot madaniyati, sun‘iy intellekt.

Kirish. O‘zbekiston zamonaviy axborot jamiyatini shakllantirishda tobora faol ishtirok etmoqda. Mamlakatni uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish strategiyasi ham axborot jamiyatiga o‘tish, uni shakllantirish uchun zarur shart-sharoit va shart-sharoitlarni yaratish va amalga oshirishga qaratilgan. Bunday strategiya O‘zbekistonga jahon ijtimoiy-iqtisodiy makoniga teng huquqli sherik sifatida integratsiyalashishi imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborot jamiyati g‘oyasi birinchi marotaba XX asrning 60 – yillar oxiri- 70-yillarining boshida ancha yaqqol ifodalangan edi. Tokio texnologiya institutining professori Y.Xayashini “axborot jamiyati” iborasining kashfiyotchisi deb hisoblashadi[1]. Axborot jamiyati konsepsiyasi D.Bell, Z.Bjezinskiy, O.Tofflerlar ishlab chiqqan postindustrial jamiyat nazariyasining bir ko‘rinishidir. Biroq, hozirgi kunga qadar "axborot jamiyati" atamasi keng qo‘llanilishiga qaramay, olimlar va mutaxassislar uning asosiy mazmuni to‘g‘risida hali umumiy tushunchaga kelishmagan. Shunga qaramay, umuman olganda, aksariyat tadqiqotchilar "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yangi davrning shakllanishini anglatadi" va "bu yangi texnikaviy-iqtisodiy paradigma “XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladigan axborot asri”ni ifodalaydi deb hisoblaydilar. Bizning mamlakatimiz ham axborot jamiyati tomon harakatlarni amalga oshirmoqda. To‘g‘ri, O‘zbekistonda axborot jamiyatini shakllantirish hamon birlamchi bosqichda. Shunga qaramay, so‘nggi yillarda qator tashkiliy choralar amalga oshirilmoqda, tarmoq aloqalarida ham muayyan o‘shirish kuzatilmoqda. Muxtasar qilib aytganda, jamiyatimizning barcha jabhalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash iqtisodiy o‘shirishni, mehnat unumdorligini yanada yuksaltirishni va aholi bandligini ta‘minlash imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, mamlakatni axborotlashtirish darajasi uning xalqaro mehnat bozoridagi raqobatbardoshligining o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Insoniyat jamiyatining rivojlanishi istiqboli ong, bilim va tafakkurning ahamiyati isbot

talab qilmaydi. Bularning barchasini boshqacha so‘z bilan axborot dunyosi deb ham atashimiz mumkin. Jamiyat hayotining qaysi sohasi bo‘lmasin, kim axborotga ega bo‘lsa, u o‘zaro munosabatlarda ustunlikka ega bo‘ladi. Buni aksioma deb atashimiz mumkin. Aytaylik, jangovar harbiy operatsiya samaradorligi aniq razvedka ma‘lumotlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Axborotga ega bo‘lish ustunlikka ega bo‘lish demakdir. Ko‘proq va aniqroq ma‘lumotga ega bo‘lgan odamni qurollangan, axborotsiz, hech narsadan xabari bo‘lmagan odamni esa qurolsiz odamga o‘xshatish mumkin. Qurollangan va qurollanmagan odamlar kurashida kim g‘olib chiqishi oldindan ayondir. Nemis olimlarining “Muhim axborotga ega bo‘lish – hokimiyatga ega bo‘lish; muhim axborotni nomuhimidan ajrata bilish yanada ko‘proq hokimiyatga ega bo‘lish; muhim axborotni o‘ziga ma‘qul bo‘lgan ruhda tarqata olish imkoniyatiga ega bo‘lish yoki u haqida ko‘pchilikka hech narsa ma‘lum bo‘lmasligiga erishish ikki karra hokimiyatga ega bo‘lishni anglatadi”, - degan fikrlari diqqatga sazovordir [2]. Biroq yuqoridalar axborot sohasining muhim tushunchalari bo‘lsada, ular axborot jamiyatini ta‘riflash uchun yetarli emas. Hozirgacha mavjud bo‘lgan sivilizatsiyalar borlig‘i hamma vaqt muayyan axborot tizimini ko‘zda tutgan. Axborot jamiyatining vujudga kelishi esa sotsiumda axborotning, ilgari voqelikda bo‘lmagan sifat jihatidan alohida, misli ko‘rilmagan, mubolag‘asiz hal qiluvchi omilga aylanishi bilan bog‘liqdir.

F.Uebster qayd qilganidek, “1991 yilda munozara, asosan, texnologik o‘zgarishlar tufayli yangi kuch bilan avj oldi. 1980-yillarda e‘lon qilingan "mikroelektron inqilob" axborot texnologiyalari (AT) barchamiz uchun nimani anglatishi haqida bir qator mulohazalarga sabab bo‘ldi: mehnatning tugashi (odatdagi ma‘nodagi faoliyat tarzining – A.X.), “bekorchilik” davrining kelishi, ishlab chiqarishning to‘liq avtomatlashtirilishi. Texnologiya bilan bog‘liq o‘zgarishlar haqidagi hayajon susaymaydi. Endi kun tartibida Internet, axborot "supermagistrali" va kiberjamiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan yaratilgan masalalar: elektron demokratiya, kiborglar

va onlayn jamoalar muhokamaning asosiy mavzulariga aylandi. Yetakchi siyosatchilar va ziyolilar orasida axborot jarayoniga, moslashuvchanlik va doimiy qayta tayyorlash odatiy meyor bo'lgan kelajakka o'z ortidan hammani olib borishga nisbatan tayyor bo'lgan ramziy tahlilchilarga qiziqish ortib bormoqda. Bu odamlar axborot jamiyatining asosiy ishtirokchilari bo'lib, ular birinchi darajali ta'lim olish baxtiga muvassar bo'lishgan, bu ularga yangi globallashtirilgan iqtisodiyotda omon qolishlariga imkon beradigan axborot imkoniyatlarini taqdim etdi. Bugungi kunda vositachi(o'rtada turuvchilar)lar, menejerlar, dasturchilar, ommaviy axborot vositalarining ijodiy xodimlari va ijodiy sohalarda ishlaydiganlar axborot jamiyati dunyosiga o'tkazuvchilar sifatida qaralmoqda"[3]. Industrializatsiyagacha va industrializatsiya davridagi axborot muhim bo'lsa-da, lekin hal qiluvchi rol o'ynamagan. Chunki, bu bosqichda ishlab chiqaruvchi kuchlarning asosini tabiat, "tabiiy vujudga kelgan", keyinroq esa "sun'iy yaratilgan" moddiy - ashyoviy elementlar tashkil etgan. XX asrning oxirgi choragida insoniyat jamiyati hayotida axborot hal qiluvchi rol o'ynay boshladi. Agar industrializatsiya davrida mashinalar odamning muskul kuchlarini minglab marotaba ko'paytirgan bo'lsa, axborotlashtirish davrida informatsion texnologiyalar insonning intellektual (aqli) imkoniyatlarini ming marotaba ko'paytiradi (Bill Geys). Axborot jamiyati tushunchasi odatda insoniyat sivilizatsiyasi evolyusiyasining yangi bosqichi, iqtisodiyotning axborot sektori ham jahon hamjamiyati, ham alohida mamlakatlar rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichi sifatida qaraladi[4].

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari axborotlashgan jamiyatda yoki unga o'tish davrida yashamokda. Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyatga to'lik o'tish xamda institutsionallashtirish jarayoni va uning tarkibiy tuzilmalari ma'lum darajada past samarada ishlayotganligi namoyon bo'ladi, bu o'z navbatida innovatsion rivojlanishga to'sik bo'lib qolyapti. Institutsionallashtirish jarayonlaridagi islohotlar va o'zgarishlarning murakkab kechayotganligi islohotlardagi manfaatlar uyg'unligining xozircha to'la-to'kis ta'minlanmaganligi xamda zamon talablariga javob tarzida ularning amalga tatbik etilmaganligidan kelib chikmokda. Bu muxim jabxada sezilarli o'zgarishlar sodir bulishining axamiyati shundaki, u ijtimoiy jabxaning barcha yunalishlariga borib takaladi. Olaylik, odatda mexnatga bo'lgan qiziqish uning aniq natijalari bilan baholanadi, undagi disproporsiya haq to'lashda yaqqol ko'rinadi. Dunyodagi ilg'or davlatlar allaqachon elektron hukumat maqomini joriy qilishgan yoki uni shakllantirish bosqichidadir. Zotan global axborot jamiyati ushbu tuzilmani hayotiy zaruriyat sifatida qabul qildirmoqda. Inson kapitali - rivojlanishning navbatdagi eng yuqori bosqichi hisoblanadigan innovatsion iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy omili sifatida qaraladi. Shuning uchun axborot jamiyati va innovatsion iqtisodiyot chambarchas bog'langan bo'ladi. Xuddi shu fikrni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy sohasiga ham daxldorligi shubhasizdir. Axborot inqilobidan, axborot jamiyatidan kelib chiqadigan o'zgarishlar iqtisodiy soha bilan cheklanib qolmaydi, balki ijtimoiy-siyosiy jaayonlarga ham ta'sir qiladi deb taxmin qilish uchun barcha asoslar mavjud. Elektron demokratiya nima va uni qo'llash imkoniyatlari qanday? Ijtimoiy-siyosiy jarayonda kompyuter texnologiyalaridan foydalanadiganlar tomonidan elektron demokratiya iborasi qo'llanilmoqda. Biroq, "elektron" sifati (iborasi)to'liq aniq emas. Chunki, u elektron mikrofon yoki televizordan foydalanishni nazarda tutishi mumkin. Ba'zi hollarda "raqamli demokratiya" atamasi balkim aniqroq bo'lar edi. Boshqa atamalar ham mumkin: "kiberdemokratiya", "virtual demokratiya" yoki "axborot texnologiyalari asri demokratiyasi". Biroq, bugungi kunda "elektron" atamasi tez-tez ishlatiladi, bu "interaktiv texnologiyalardan foydalanish"ni anglatadi. "Elektron demokratiya" - bu axborot tarqatish, fuqarolar manfaatlarini birlashtirish va qaror qabul qilish (uchrashuvlar va ovoz berish orqali) kabi demokratik jarayonning eng muhim funksiyalarini bajarish uchun kommunikatsiyalar, kompyuterlar va kompyuter tarmoqlari ishlatiladigan har qanday demokratik siyosiy tizim.

Axborot jamiyatida har qanday shaxs "de fakto" axborot jamiyatining texnologik asosi bo'lgan Internet-texnologiyalardan foydalangan holda, maqom tuzilmalaridan ruxsat so'ramasdan va

"odatiy rollardan" mustaqil ravishda xususiy tashkiliy va boshqaruv siyosatini qurish imkoniyatiga ega. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, axborot jamiyatida hali maqomga ega bo'lmagan demokratiya - "nanodemokratiya" nafaqat muhim, balki hal qiluvchi rol o'ynay boshlaydi: tashkilotlarning an'anaviy demokratiyasi emas, balki alohida shaxslar demokratiyasi shakllanadi[6]. V.I.Sarafanov fikricha, "nanodemokratiya" qaror topishidan oldin jamiyatning barcha maqomli tashkiliy shakllari va birinchi navbatda davlat boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari "nanodemokratiya"ni boshqarish uchun samarali PR -subyektiga aylanishi kerak, aks holda dunyo davlat va huquq fenomenining o'zini yo'q qilish istiqboliga duch keladi[7]. (PR, ot ingl. public relations — «jamoatchilik bilan aloqa») — kompaniyaning barcha tashqi kommunikatsiyalarda boshqaradigan yo'nalishidir. PRning maqsadi jamoatchilik, potentsial mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlar (hamkorlar, investorlar va raqobatchilar) ko'z o'ngida ijobiy brend imijini yaratish va qo'llab-quvvatlashdir. Shu tariqa elektron hukumat vazifasi kelib chiqdi. U endilikda axborotlashgan jamiyatning asosiy atributlaridan biri sifatida qaralmoqda. Axborotlashgan jamiyat fuqarolik jamiyati bilan rivojlanishi zaruriyat. Chunki, axborot jamiyati berayotgan imkoniyatlar (kriptovalyutalar, bitkoin, mayning fermalar)ni muayyan huquqiy tartibotni talab qiladi.

Tahlil va natijalar. Yangi siyosiy va axborot dunyoqarashini shakllantirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan shaxsning shaxsiy motivatsiyasi bilan belgilanadi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, chorak asr oldin kasbiy ta'lim jarayonida olingan ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalari insonning deyarli butun ongli hayoti uchun "ishlagan". Endi vaziyat tubdan o'zgardi. Gap nafaqat axborot muhiti va axborot bilan o'zaro ta'sir qilish vositalarining o'zgaranganligida emas: ularning ta'siri ostida siyosiy mavjudlikning yangi shartlari va yangi siyosiy qadriyatlar shakllandi. Bu boradagi yangi siyosiy-axborot madaniyati ularning ongliligi va rivojlanishining faqat qat'iy shartidir, bu shaxsning siyosiy xavfsizligini kafolatlamaydi va uni "bir marta va uzil-kesil" ta'minlay olmaydi – zero aqliy va kasbiy mahoratning doimiy ravishda o'zini-o'zi takomillashtirishi talab etiladi. Buning eng muhim asoslaridan biri ta'limdir. Ilmiy-o'quv jarayoni mavjud sharoitlarni shunchaki aks ettirish bilan cheklanmaydi – u kelajakni ilgari lama in'ikos qilishi (demak bashorat qila olishi) lozim – bu yangi sivilizatsiya strategiyasini amalga oshirishi mumkin va zarur. Ko'pgina ekspertlarning fikricha, axborot asri yangi axborot voqeeligini idrok etishga tayyor bo'lmagan butun dunyodagi ta'lim tizimini g'afatda qoldirdi. Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim tizimi tanqidga uchramoqda. Uning asosiy kamchiligi, ilgari konservativ tizimga bog'lanib qolganligidir. Shuning uchun ham u shakllanayotgan axborotlashgan jamiyat olib kelayotgan yangiliklarni amalda inkor qilmoqda. Ushbu sohadagi mahalliy mutaxassislar orasida hozirgi ta'lim tizimi nafaqat umidsiz ravishda eskirgan, balki shaxsning axborot asri sharoitlariga moslashishga imkon bermasligi haqida ovozlarga tobora ko'proq eshitilmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy ta'limning konservativ komponenti kelajakdagi jamiyatda to'laonli faoliyat ko'rsatishga qodir bo'lmagan "odatdagi sanoat odamini" qayta ishlab chiqaradi va uning "bolonyalashuv" (bakalavr, magistr, kredit-modul tizimi) shaklida takomillashtirishni muammoning faqat kichik bir qismini hal qiladi. Va bu o'rinda E.Tofflerning fikriga qo'shilmay bo'lmaydi, uning fikricha, "Kelajak zarbasidan qochish uchun biz hozir superindustrial ta'lim tizimini shakllantirishimiz kerak; va buning uchun biz o'z maqsad va uslublarimizni o'tmishdan emas, balki kelajakda izlashimiz kerak". Shundaygina shaxs va jamiyat uchun axborot, kasbiy, siyosiy va boshqa turdagi xavfsizlikni ta'minlovchi yangi axborot madaniyatini shakllantirish haqida gapirish mumkin bo'ladi. Axborot madaniyati (uning zaruriy talab darajasi) ham ilmiy bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'lib, u o'z navbatida barcha ilmiy ma'lumotlarni "hazm qilishga" ulgurmaydi. Xuddi shu E.Toffler to'g'ri ta'kidlaganidek, "rivojlanishning yanada jadallashishi munosabati bilan bilim tobora "tez buziladigan" mahsulotga aylanib bormoqda. Bugungi "fakt" ertangi "dezinformatsiya"ga aylanadi. Xo'sh, bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Ko'rinishidan, bu jarayonda o'z-o'zini tarbiyalash uchun motivatsiya juda muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich, o'rta

va oliy ta'lim tizimimiz ikkita illatdan aziyat chekmoqda: birinchidan, bilimlarni ishlab chiqish va foydalanish metodikasini o'rgatish o'rniga uni o'qituvchidan talaba (o'quvchi)ga o'tkazish istagi; ikkinchidan, talabalarning jamiyat siyosiy hayotidan uzoqlashishi (begonalashishi). Bular oqibatda, siyosiy madaniyatning nihoyatda pastlashuviga olib keladi va kelajakda shaxsning siyosiy xavfsizligiga salbiy ta'sir qiladi. Har qanday ta'lim tizimida asosiy narsa iloji boricha ko'proq bilimlarni uzatish istagi emas (zamonaviy axborot jamiyati sharoitida bu utopiya), balki uni mustaqil ravishda qanday qilib o'zlashtirishni va undan professional sharoitlarga muvofiq foydalanishni o'rganishdir. "Bilim o'lchovi "insoniylik" kabi qadriyat - sifat xususiyatiga aylanadi".

Bularning barchasi odamlar ongida har qanday konflikt-muammoli tahdidlarga immunitetni ta'minlovchi ruhiy va qadriyat-mafkuraviy asoslar qanchalik mustahkam ekanligiga, turli axborot omillarining mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir qilish imkoniyatlari qandayligiga bog'liq. Shaxsning siyosiy manfaatlarini davlat siyosati bilan, jamoat dunyoqarashini o'zgartirish - shaxsiy o'zini o'zi belgilash paradigmatlari bilan qanchalik uyg'unligini hisobga olish ham muhimdir, shunda jamiyatning umumiy siyosiy manfaatlarida hech qanday bo'linish va tabaqalanish bo'lmaydi. Xavfsizlik muammolarini hal qilishda shaxsiy, jamoat va davlat sa'y-harakatlari natijalarini jamlaydigan shaxsning axborot madaniyati bunda juda muhim rol o'ynashi kerak. Bu fikrni aniqlashtiramiz. Axborot jamiyati turli ijtimoiy guruhlar uchun obyektiv ravishda qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi, chunki ularning axborot madaniyati turli sharoitlarda shakllanadi: kimdir

uchun bu jarayon yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining bevosita ta'siri ostida, boshqalar uchun esa bunday imkoniyatlar cheklangan va ularning axborot madaniyati an'anaviy aloqa vositalari oldindan belgilangan. Uning siyosiy ijtimoiylashuv jarayonini siyosiy xavfsizlikni ta'minlash bilan birlikda ko'rib chiqish kerak, chunki zamonaviy ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalari, global Internet siyosiy voqelikka o'zlarining "oldindan tayyorlangan" baholarini taqdim etadilar, ular har doim ham har bir shaxsning va umuman jamiyatning siyosiy manfaatlar, dunyoqarash pozitsiyalari va qadriyatlariga mos kelmaydi. Axborot jamiyatida shaxsning siyosiy xavfsizligini ta'minlashning strategik resursi sifatida axborot madaniyatini shakllantirishda insonning uzluksiz va umrbod ta'lim olish motivatsiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, birinchidan, axborot jamiyati bu sayyoramizning rivojlangan mamlakatlarida deyarli shakllanib bo'lgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa vujudga kelayotgan yangi jamiyat bosqichi, ma'lum ma'noda yangi sivilizatsiyadir. Tabiiyki, axborotlashtirish barcha zamonaviy davlatlarning kun tartibida dolzarb masala masala bo'lib qolmoqda. Axborot jamiyati yutuqlarini ijodiy o'zlashtirgan va uni qo'llay bilgan millatlar va xalqlar globallashuv davrida muvaffaqiyatga erishuvlari kafolatlangan bo'ladi. Bu esa inson kapitaliga investitsiya qilishni, uning salohiyatini rivojlantirishga mablag'larni investitsiya qilishni talab etadi, bu alohida mavzuda ko'rib chiqiladi. Demak, axborot jamiyati — bu ish bilan band bo'lganlarning aksariyati axborotni, ayniqsa uning eng yuqori shakli-bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanadigan jamiyatdir.

ADABIYOTLAR

1. Информационное общество/<https://bigenc.ru/sociology/text/2015987>
2. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. T.: Muharrir, 2009.
3. Уэбстер Ф. Теории информационного общества. М.: Аспект-Пресс, 2004. с.6.
4. Мелуихин И.С. Информационное общество: истоки, проблемы, тенденции развития. М., 1999.
5. Чугунов А.С. Развитие информационного общества: теории, концепции и программы: Учебное пособие. — СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. С.3.
6. Сарафанов В. И. PR как информационно-технологическое обеспечение современных организационно-управленческих систем // Организационно-управленческие системы информационного общества: теоретические и методологические проблемы: сб. обзоров и рефератов / отв. ред. Л. М. Кулкин. М., 2003. С. 145.
7. Сарафанов В. И. PR как информационно-технологическое обеспечение современных организационно-управленческих систем // Организационно-управленческие системы информационного общества: теоретические и методологические проблемы: сб. обзоров и рефератов / отв. ред. Л. М. Кулкин. М., 2003. С. 145.
8. Лекторский В. А. 2001. Эпистемология классическая и неклассическая. М.: Эдиториал УРСС, 2001. С.86.
9. Кастелс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. М., 2000.
10. Муксимова Х. Некоторые аспекты формирования информационного общества в Узбекистане. Журналний клуб Интелрос » Credo New » №4, 2011// http://www.intelros.ru/readroom/credo_new/credo-new-2011-4/12039-nekotorye-aspekty-formirovaniya-informacionnogo-obschestva-v-uzbekistane.html



Sarvar XOLIQOV,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

PLACE OF INTERSTATE INTERNATIONAL TREATIES IN ENSURING SECURITY

Annotation

The article examines international treaties on ensuring security concluded by subjects of international law, the main sources of modern international law, scientific views of scientists on international treaties, international treaties in the field of security, the role of international treaties on security in regional and international relations, international legal instruments for ensuring security.

Key words: International law, subjects of international law, international treaties, sources of international law, regional and international security treaties, international legal acts.

МЕСТО МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В статье рассматриваются международные договоры по обеспечению безопасности, заключенные субъектами международного права, основные источники современного международного права, научные взгляды ученых по международным договорам, международные договоры в сфере безопасности, роль международных договоров по безопасности в региональных и международных отношениях, международно-правовые инструменты обеспечения безопасности.

Ключевые слова: Международное право, субъекты международного права, международные договоры, источники международного права, региональные и международные договоры безопасности, международно-правовые акты.

DAVLATLARARO XALQARO SHARTNOMALARNING XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada halqaro huquq sub'ektlari tomonidan imzolangan xavfsizlikni ta'minlash borasidagi xalqaro shartnomalari, hozirgi xalqaro huquqning asosiy manbalari, olimlarning xalqaro shartnomalar borasidagi fikrlari, havfsizlik sohasidagi xalqaro shartnomalar, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik sohasidagi munosabatlarda xalqaro shartnomalarning o'rni, xavfsizlikni ta'minlashning xalqaro-huquqiy vositalari ko'rsatib o'tilgan

Kalit so'zlar: Xalqaro huquq, halqaro huquqning sub'ektlari, xalqaro shartnomalari, xalqaro huquq manbalari, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik shartnomalari, xalqaro-huquqiy vositalari.

Kirish. Xalqaro huquq subyektlari xavfsizlikni ta'minlashdagi irodasini xalqaro shartnomalar orqali ifodalaydi. Shu bois xalqaro shartnomalar huquqida xavfsizlikni ta'minlovchi xalqaro shartnomalarning o'rni va roli anchayin salmoqli hisoblanadi. Davlatlar huquqiy munosabatlarga kirishar ekan, o'zlarining manfaatlarini xalqaro shartnomalarda mustahkamlashga harakat qiladilar.

Hozirgi xalqaro huquqning asosiy manbasi xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi yozma bitim sifatida tushuniladigan xalqaro shartnomalardir. Xalqaro shartnomalarning tuzilishini tartibga soluvchi normalar tizimi xalqaro shartnomalar huquqi deb yuritiladigan xalqaro huquqning alohida, mustaqil sohasini tashkil qiladi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sohani tadqiq etgan bir qator olimlardan Saidov A.X., Umaroxunov I.I., Martins F.F., Kazanskiy P., Xakimov R., Topornin B.N., Odilqoriev X.T., Ochilov B.E.larnig fikriga ko'ra, Xalqaro huquq ta'limotida xalqaro shartnomalar huquqi deganda, xalqaro huquqning xalqaro shartnomalar tuzilishi, unda belgilangan majburiyatlarni bajarish, o'zgartirish, to'xtatish va bekor qilish tartibini, amaldagi shartnomalar sharoitini belgilaydigan normalardan iborat tegishli sohasi tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur soha obyekt sifatida esa xalqaro huquqning yetakchi va asosiy manbaiga aylanib ulgurgan xalqaro shartnomaning o'zi namoyon bo'ladi. Xalqaro huquqning asosiy manbai hisoblangan xalqaro shartnoma xilma-xil bitimlarni qamrab oluvchi tushuncha bo'lib, ular turlicha shartnoma, bitim, pakt, traktat, konvensiya, deklaratsiya, kommyunike, protokol va shu kabi nomlar bilan atalishi mumkin. U yoki bu nomning aniq belgilangan ma'nomazmuni mavjud emas. Qanday nomlanishidan qat'i nazar, barcha xalqaro shartnomalar bir xil yuridik kuchga ega. Odatda ular yozma shaklda tuziladi. Lekin og'zaki shakldagi xalqaro shartnomalar "jentelmencha bitimlar" kam uchrasa-da, ularning shunday turi ham ma'lum. Xalqaro shartnomalar tomonlari bo'lib, faqat xalqaro huquq subyektlari chiqishi mumkin[2].

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda xalqaro huquq nazariyasida xalqaro shartnomalarga turli mamlakatlarning olimlari va tadqiqotchilari tomonidan berilgan ta'riflar, fikrlar va qarashlar mavjudligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu esa, o'z o'rnida xalqaro shartnoma tushunchasini kengroq, chuqurroq va aniqroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Bir guruh olimlar xalqaro shartnomalarning subyekti va ixtiyoriylik jihatlariga asosiy urg'uni berib ta'riflashgan. Xususan, F.I. Kojevnikov xalqaro shartnomaga quyidagicha, ya'ni "Xalqaro shartnoma – bu ikki yoki bir necha davlatlar o'rtasidagi ularning huquq va majburiyatlarining har qanday umumiy yoki aniq bir soha bo'yicha ommaviy huquqiy munosabatidir" [3] deb ta'rif beradi.

Ushbu ta'rifga F.List quyidagicha fikr bildiradi: "Xalqaro xuquqiy shartnoma ikki yoki bir necha davlatlar o'rtasidagi davlatning oliy huquqiga tegishli bo'lgan ixtiyoriy kelishuvidir"[4].

O'z navbatida F.F. Martensning fikriga ko'ra, xalqaro shartnoma "ikki yoki bir necha davlatlarning ixtiyoriy kelishuvi" [5]. P. Kazanskiy esa xalqaro shartnomalar to'g'risida quyidagicha yozadi, "...ikki, bir necha yoki ko'p davlatlar o'rtasidagi huquqiy kelishuv asosida teng huquqli majburiyatlarga bo'ysunishdir" [6]. D. Fild xalqaro shartnomalarning shakliga asosiy e'tiborni qaratib, o'z fikrini quyidagicha ifodalaydi: "Xalqaro shartnoma atamasi bu yozma shakldagi ikki yoki undan ortiq davlat o'rtasidagi ma'lum bir harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslikka qaratilgan kelishuvni tuzish, tugatish yoki boshqa shakllardagi xalqaro huquq yoki munosabatdir" [7].

Yuqoridagi olimlarning xalqaro shartnomalarga bergan ta'riflari o'zgacha bir modifikatsiyani tashkil etadi. Lekin ko'pchilik olimlar tomonidan xalqaro shartnomalarga berilgan ta'riflarda davlatlarning tenglik prinsipiga kamroq e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

Xalqaro huquqda xalqaro shartnoma tushunchasiga aniqlik kiritish tomonlar (subyektlar) muammosi bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun G. Cheshirning yozishicha,

“Shartnomani tomonlar o‘rtasida yuridik majburiyatni yaratadigan yoki yaratishni taqozo etadigan kelishuv sifatida e’tirof etish mumkin”[8].

X.Krauzerning fikricha, “Xalqaro shartnoma xalqaro aloqa ishtirokchilari o‘rtasidagi majburiyatlarning taraflararo kelishuv yo‘li bilan belgilanishini keltirib chiqaruvchi xohish-irodalar yig‘indisi hisoblanadi” [9].

O‘z navbatida mazkur ta’rifga quyidagicha izoh berish mumkin. Xalqaro shartnoma ikki yoki undan ortiq tomonlarning muayyan shakldagi (odatda yozma) kelishuvidir. Shu bilan birga, xalqaro normaning amal qilishi tomonlar o‘rtasidagi kelishuvni teng huquq va majburiyat asosida tuzilganligi bilan belgilanadi.

Xavfsizlik sohasidagi xalqaro shartnomalar bevosita xavfsizlik huquqi subyektlari, avvalo davlatlar tomonidan yaratiladi. Bu suveren davlatlarning erkin xohish-irodasini muvofiqlashtirish va ular o‘rtasida tuziladigan, davlatlarning shakllangan shartnomaviy va odatdagi amaliyotiga muvofiq qabul qilinadigan muayyan xalqaro shartnomalarda ifodalash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Shu bois, milliy manfaatlarni ilgari surishda xalqaro shartnomalarning roli nihoyatda kattadir. Chunki ular davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda markaziy rollardan birini bajaradi va ular odatda amaliyot bilan o‘rnatiladi.

Mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik sohasidagi munosabatlar xalqaro huquq normalari xalqaro shartnomalar, xalqaro odat, BMT Nizomi[10] normalari bilan tartibga solinadi. Biroq, ta’kidlab o‘tish joizki, milliy xavfsizlikka oid qonunchilik xalqaro shartnomalar, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga muvofiq kelishi shart.

Milliy xavfsizlik huquqi doirasida konstitutsiya normalari oliy yuridik kuchga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi (keyingi o‘rinlarda BMT Nizomi deb yuritiladi) xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning o‘ziga xos konsepsiyasi hisoblanadi[11].

Shunday qilib, xalqaro xavfsizlik universal mazmun kasb etib, mintaqaviy va milliy xavfsizlik xavfsizlikning boshqa ikki darajasi – uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqaro xavfsizlik barcha davlatlar tomonidan umume’tirof etilgan xalqaro huquqning norma va prinsiplariga rioya qilinishiga tayanadi hamda xalqaro-huquqiy vositalar tizimi orqali ta’minlanadi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro shartnomalarning xalqaro huquq manbalari sifatidagi turli qirralari qayd etiladi. Ayniqsa, davlat manfaatlarini ifodalovchi va har qanday davlat qo‘shilishi uchun ochiq bo‘lgan universal shartnomalar muhim o‘rin tutadi. Ular orasida BMT Ustavi xalqaro shartnomalar ichida oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, xalqaro huquqning asosiy manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[12].

BMT Nizomi xalqaro-huquqiy tartibotning asosiy maqsad va prinsiplarini mustahkamlab qo‘ygan va ularga imperativ kuch bag‘ishlagan birinchi xalqaro hujjat hisoblanadi. Shu ma’noda, BMT Ustavi aksariyat hollarda xalqaro hamjamiyat konstitutsiyasi deb atalishi bejiz emas[13].

Shuningdek, VII bob doirasida kuch ishlatish butun talablarga javob berishi uchun u Nizomning 43, 47-moddalari qoidalariga ham mos bo‘lishi lozim. 43-modda BMT a‘zolari tomonidan Kengash bilan BMTga a‘zo davlatlar o‘rtasida kelgusida tasdiqlash sharti bilan tuzilgan alohida bitim yoki bitimlar asosida XKning talabi bilan, ya’ni uning qarori asosida Kengash tasarrufiga zarur qurolli kuchlarni, yordam, xizmat vositalarini berish tartibini belgilaydi. Postbipolyar dunyoda BMT XKning vakolatlari Nizomning VII bobi doirasida, uning imkoniyatlariga mos ravishda kengayib bormoqda. Hozirda Kengash xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi hamda VII bobda ko‘zda tutilgan choralarni qo‘llashga olib keluvchi vaziyatlarni kvalifikatsiya qilish bo‘yicha qat’iy choralarni amalga oshirmoqda. Ta’kidlab o‘tish muhimki, aynan ikki qutbli dunyoning barham topishi mazkur universal tashkilotning maqsad va vazifalarini uning Nizomida belgilangan tarzda amalga oshirish uchun tegishli imkoniyatlarni yaratadi.

O‘tgan vaqt mobaynida tinchlikni ta’minlash bo‘yicha BMT mexanizmining huquqiy asoslarini mustahkamlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ulardan Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya (1970 y.), Agressiya ta’rifi (1974 y.),

Bosh Assambleyaning 1989 yil 15 noyabrda qabul qilgan BMT Nizomiga muvofiq barcha sohalarida xalqaro tinchlik, xavfsizlik va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi rezolyusiyalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

2006 yil 8 sentabrda Qozog‘istonning Semipalatinsk shahrida mintaqa davlatlari tashqi ishlar vazirlari tomonidan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud to‘g‘risidagi Shartnoma imzolandi. Shundan so‘ng 2007 yilning 2 apreldan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to‘g‘risidagi Shartnomani ratifikatsiya qilish haqida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni kuchga kirdi.

Nazarimizda, BMTning eng muhim yutuqlaridan biri – xalqaro huquq va xavfsizlik bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda ahamiyat kasb etuvchi konvensiyalar, shartnomalar va standartlarning xalqaro huquqiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat ekanligidir.

Qolaversa, xalqaro shartnomalarning xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni haqida gapirganda, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (keyingi o‘rinlarda YEXHT deb yuritiladi) va Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (keyingi o‘rinlarda MDX deb yuritiladi) doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalarga ham to‘htalib o‘tish lozim.

Xavfsizlik va hamkorlik yig‘ilishining yakunlovchi Xelsinki aktida qayd etilishicha, tashkilotning maqsadi mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikni ta’minlashga hissa qo‘shishni kuchaytirish, yalpi xavfsizlik makonini rivojlantirish borasida asosiy o‘rinni egallashiga erishishdan iboratdir.

1994 yilda oliy darajadagi kengashda xavfsizlikning harbiy-siyosiy jabhalari bo‘yicha Muomala kodeksi qabul qilingan. Unda xavfsizlik bo‘linmas ekanligi o‘z tasdiq‘ini topgan. YA’ni bir davlatning xavfsizligi boshqa barcha davlatlar xavfsizligi bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ishtirokchilar o‘z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi evaziga mustahkamlamaslik, yakka tartibda yoki kollektiv tarzda o‘zini o‘zi mudofaallash huquqini ro‘yobga chiqarishda ko‘makka muhtoj davlatlar bilan tezda maslahatlashish, mavjud tahdid va umumiy qadriyatlarini himoyalash maqsadida taqozo etiladigan xatti-harakatlarning mazmun-mohiyatini birgalikda ko‘rib chiqishga kelishib olganlar.

Shu bilan birga mazkur hujjatda qurolli kuchlar yakka tartibdagi yoki kollektiv xavfsizlik talabari darajasiga mos bo‘lishi zarur. Nazorat qilish, qurolsizlanish, ishonch va xavfsizlik choralarni kuchaytirish sohalaridagi majburiyatlar tasdiqlab olingan. Konstitutsiyaviy hokimiyat nazoratida bo‘lmagan kuchlarga toqat qilmaslik va ularni qo‘llabquvvatlamaslik borasidagi majburiyatlar, ayniqsa, diqqatga loyiqdir. Agar davlat bunday kuchlar ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatishga qodir bo‘lmasa, u zarur harakatlarni belgilab olish uchun YEXHT doirasida tegishli maslahatlashuvlarni boshlab yuborishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi YEXHT a‘zolariga 1992 yil 30 yanvarda qabul qilingan edi. O‘zbekiston ushbu obro‘li xalqaro tashkilot a‘zosi sifatida barcha majburiyatlarini o‘z zimmasiga oldi. Endilikda O‘zbekiston Umumevropa jarayoniga qo‘shilib yadrosiz dunyoga sodiqligini bayon etadi va o‘zaro davlatlararo munosabatlarda kuch bilan tahdid solish, har qanday kuch ishlatish usullari istisno etilishiga umid qiladi. Barcha masalalar faqat siyosiy, o‘zaro kelishuv vositalari yordamida hal etiladi.

YEXHT normalari barcha ishtirok etuvchi davlatlarga nisbatan amal qiladi. Barcha qarorlar konsensus asosida qabul qilinganligi tufayli birona ishtirok etuvchi davlat o‘ziga taalluqli bo‘lmagan qandaydir majburiyatlarni tasdiqlashga haqli emas. YEXHTning insoniylik mezonlari masalalaridagi strategiyasi shu bilan universalki, uning xavfsizlikni ta’minlashga nisbatan hamkorlikka asoslangan yondashuvi o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajara olmaydigan davlatni yakkalab qo‘yishga emas, balki unga ko‘mak berishga qaratilgandir.

MDH Nizomi[22]da ham xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, unda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha hamkorlik qilish, qurol-yarog‘lar va harbiy sarf-xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan samarali choralar qo‘llash, yadroviy va boshqa xil ommaviy qirg‘in qurollarini bartaraf etish, yalpi va to‘la qurolsizlanishga erishish, bahs va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish bu boradagi asosiy maqsadlar

sifatida qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, vazifalarning ko'lami juda keng va uzoq istiqbolga mo'ljallangandir.

Shuningdek, MDH Nizomida Tinchlikni saqlash kollektiv kuchlari va harbiy kuzatuvlar guruhi to'g'risidagi 1992 yil 20 martdagi Bitim hamda Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi 1992 yil 15 maydagi Shartnomadan kelib chiqib nizolarni hal etish va mojarolarning oldini olish to'g'risidagi hamda kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topgan. MDH Nizomining 12-moddasi BMT Ustavining 51-moddasidagi kabi kollektiv va individual tarzda o'zini o'zi mudofa qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur hollarda Birlashgan qurolli kuchlardan foydalanish huquqini, shuningdek, tinchlik operatsiyalarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Xavfsizlikni ta'minlashda barcha davlatlar xalqaro huquqining umume'tirof etilgan norma hamda prinsiplariga rioya qilishga asoslanadi va bu xalqaro-huquqiy vositalar tizimi orqali ta'minlanadi.

Tahlil va natijalar. Fikrimizcha, xavfsizlikni ta'minlashning xalqaro-huquqiy vositalari bu - xalqaro huquq subyektlari tomonidan xalqaro munosabatlarda tinchlik va

xavfsizlikni ta'minlashgan qaratilgan tizimli chora-tadbirlari yig'indisi hisoblandi.

O'z navbatida xalqaro-huquqiy vositalar milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro huquqiy vositalarga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va prinsiplari; universal va mintaqaviy kollektiv xavfsizlik tizimlari; ishonchni mustahkamlash choralari; tinchlikparvarlik kuchlari; qurolsizlanish; qo'shilmaslik va neytralitet va boshqalar kiradi.

Xulosa va takliflar. Xavfsizlikni ta'minlashning xalqaro-huquqiy vositalari shartnomalar bilan tartibga solinadi va amaldagi xalqaro huquq qoidalari hamda normalari asosida hayotga tatbiq etiladi. Xalqaro shartnomalar xavfsizlikni ta'minlashning xalqaro-huquqiy vositalari tizimida muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu BMT Ustavi bo'ladimi yoki mintaqaviy tashkilotlar ustavlarimi, bundan qat'i nazar ularning barchasi xalqaro shartnoma hisoblanib, kollektiv, mintaqaviy yoki milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgandir. Davlatlar o'zlarining milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalqaro xavfsizlikni ta'minlovchi xalqaro munosabatlarga kirishadilar va o'z irodalarini xalqaro shartnomalarda ifodalaydilar.

ADABIYOTLAR

1. Saidov A.X. Xalqaro huquq: Darslik. – Toshkent: Adolat, 2001. -B.53.
2. Umaroxunov I.I. Respublika Uzbekistan i mejdunarodnoe dogovornoe pravo. – Tashkent, 1998. –S. 42.
3. Mejdunarodnoe pravo. M., 1947. -S.369.
4. List F. Mejdunarodnon pravo. Yurev. 1909. –S. 206-207.
5. Martins F.F. Sovremennoe mejdunarodnoe pravo sivilizovannyx narodov. T.1. SPB; 1992. -S.379.
6. Kazanskiy P. Uchebnik mejdunarodnogo prava publichnogo i grajdanskogo. Odessa. 1902. -S. 234-235.
7. Field D. Supplementtothe AJIL. v. 20. 1935. 1207.
8. Cheshing G. InternationalContracte. 1948. P.51.
9. Kraus H. System et fonction des traites international. Rescuildecours v. 50.
10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va Xalqaro sud Statuti. T.: "BMTning O'zbekistondagi axborot markazi", 2002. -B.85.
11. Umaroxunov I.M. Respublika Uzbekistan i mejdunarodnoe dogovnoe pravo. T.-: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. -S.76.
12. Saidov A.X. Xalqaro huquq. Darslik. –T.: "Adolat", 2001.-B.-255.
13. Xakimov R. Uzbekistan i OON.–T.:izd-vo G.Gulyama, 2002. -S.-31.



UDK:376.54.(371)

Dilrabo XUDAYQULOVA,

Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: Xudaykulovadilrabo78@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD B.Ataxanov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF INCREASING STUDENTS' MOTIVATION TO LEARN IN THE LEARNING PROCESS

Annotation

The article notes that increasing the motivation of students to know is an important part of the educational process, which serves not only their personal development, but also to be useful to society as a specialist in the future, creative, strong and responsible personnel from motivated students are important for the sustainable development of any country.

Key words: Education, process, profession, Student, Activity, Activity, motive, quality, result, formation.

ВАЖНОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В статье отмечается, что повышение мотивации студентов к знаниям является важной частью образовательного процесса, которая служит не только их личностному развитию, но и тому, чтобы в будущем они были полезны обществу как специалисты, творческие, сильные и ответственные кадры из мотивированных студентов важны для устойчивого развития компании в любой стране.

Ключевые слова: Образование, процесс, профессия, студент, деятельность, действенность, мотив, качество, результат, становление.

TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR BILISH MOTIVATSİYASINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada talabalar bilish motivatsiyasini oshirish ta'lim jarayonining muhim qismi ekanligi, bu nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki kelajakda mutaxassis sifatida jamiyatga foydali bo'lishiga ham xizmat qilishi, motivatsiyali talabalardan kelajakda ijodiy, kuchli va mas'uliyatli kadrlar yetishib chiqishiga oid tahlillar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, jarayon, kasb, talaba, faollik, faoliyat, motiv, sifat, natija, shakllanish.

Kirish. Dunyo taraqqiyoti eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo etadi, chunki, bu o'z-o'zidan barcha sohalar rivojlanishi va taraqqiyoti uchun birlamchi sabab va asos rolini o'ynaydi. Shunga ko'ra, navqiron avlodni jismonan sog'lom, intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega, vatanga sodiq qilib tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ilmga intilish, bilish faolligini oshirish muhim vazifa sanaladi. Binobarin, har bir davlat va jamiyat ravnaqi yosh avlodning kamoloti, intilishi, shijoati bilan uzviy bog'liq. Shu ma'noda, yurtimizda davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga, jumladan, ta'lim tizimi islohotlariga yo'naltirilayotgan sarmoyalar muntazam oshib borayotgani, ta'lim sohasidagi qonunlar va davlat dasturlari doirasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek dolzarb vazifalar muvaffaqiyatli bajarilayotgani alohida e'tirofga molikdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarning bilish motivatsiyasi – ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, ilmiy jarayonlarga nisbatan faolligi va intilishi darajasini belgilaydigan muhim omil bo'lib, mazkur masalaga falsafiy yondashuvni taqozo etadi. Bu motivatsiya ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, shaxsiy rivojlanishni ta'minlash va zamonaviy jamiyatning talablariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlashda asosiy rol o'ynaydi.

Amalga oshirilgan tadqiqot va tahlillar shundan dalolat beradiki, bilish motivatsiyasining ahamiyati o'ziga xos jihatlarga ega

Fanga qiziqish uyg'otish – talabalar bilish motivatsiyasi yuqori bo'lganda, ular faqatgina baho yoki diplom uchun emas, balki fanni chuqur tushunishga intiladilar. Bu ularning tanlangan sohada muvaffaqiyatli bo'lishiga yo'l ochadi.

Mustaqil o'rganishga rag'bat – motivatsiyasi yuqori talabalar o'zlari qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, tadqiqotlar o'tkazish yoki yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladi. Bu esa ularning bilim olish jarayonidagi faolligini oshiradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish – bilish motivatsiyasi talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi va ularni muammolarga ijodiy yondashishga bir so'z bilan aytganda masalaga mustaqil, ijodkorlik, yaratuvchilik pozitsiyasida qarashni rag'batlantiradi. Bu ko'nikmalar taraqqiyot garovi bo'lib, jamiyat va ishlab chiqarish jarayonlarida talab etiladi.

bilish motivatsiyasi talabalar mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati rivojlantirishi orqali ularni o'z tanlovlarida mustaqil bo'lishga, o'quv va ish jarayonidagi to'siqlarni, o'ziga xos qiyinchiliklarni mustaqil ravishda o'zi yengib o'tishiga kuch beradi, o'rgatadi, ularda qilinishi kerak bo'lgan ishga nisbatan mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Dars jarayonining samaradorligini oshirish motivatsiyasi esa talabalarni dars jarayonida faol qatnashishiga, nafaqat atrofidagilarga balki, o'zni o'ziga ham savol berish orqali mas'uliyatni his qilishiga, faollashtiruvchi savollarni aniqlashtirishga, bahs va munozaralarda mushohada qobiliyatini kuchayishiga sabab bo'lishi bilan birga o'quv jarayonining jonlanishiga va bilim sifatining oshishiga olib keladi.

Bilish motivatsiyasini oshirish usullari:

Qiziqarli ta'lim materiallari tayyorlash O'qituvchi darslarda yangi va interaktiv materiallardan foydalanishi, amaliyotda qo'llanadigan misollar keltirishi talabalarning qiziqishini oshiradi.

Interaktiv usullardan foydalanish:

Jamoaviy ish.

Keysli tadqiqotlar.

Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar.

Talabalarning muvaffaqiyatlarini baholash: maqto'v va rag'batlantirish orqali talabalarning bilimga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish mumkin.

Ijtimoiy dolzarb masalalarni muhokama qilish: ta'lim jarayonida zamonaviy jamiyat uchun muhim bo'lgan muammolarni muhokama qilish talabalarda mas'uliyat hissini uyg'otadi va bilim olishga qiziqishni oshiradi.

O'zlashtirishni individuallashtirish: har bir talaba bilimi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularga mos topshiriqlar berish motivatsiyani kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Interaktiv metodlar – ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularda mustaqil tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish, fikr almashish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usullardir. Bunday metodlarda talabaning faolligi, boshqa talabalar bilan hamkorligi ustun bo'ladi, bu esa nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ayni muddao. Ma'lumki, motivlashtirish – bu ruhiy omil bo'lib, talaba faolligining manbai, sababi, dalili va har xil ehtimollardir. U talabalarni bilim asoslarini, ko'nikmalarini, mutaxassislik fanlarini havas, qiziqish bilan o'rganish yo'lidagi jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi kuchli vositadir. Ya'ni motivlashtirish – bu talabalarni bilim olishdagi faolligini oshirishning psixologik (ruhiy) yo'llar bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. U esa muayyan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq [1]. Ehtiyoj esa sabablarda namoyon bo'ladi, chunki ehtiyoj – odamlarni harakatga intiltiruvchi, qo'zg'atuvchi motivdir. Shu asnoda talabalarda bilim egallash ehtiyojini shakllantirish zarurati paydo bo'ladi. O'qituvchining vazifasi bir tomondan talabalarda bilim egallash ehtiyojini shakllantirish yo'llarini izlash, topish, o'quv jarayoniga ularni tadbiiq etish bo'lsa, ikkinchi tomondan bilim olish ehtiyojini qondirish faoliyatini takomillashtirish va uni muvofiq lashtirib borishdan iboratdir. Talabalarining bilim egallash jarayonida faolligini oshirishda asosan mayl, qiziqish va ehtiyojlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining faolligi garchi ikkita alohida jarayon holatini ifodalagandek tuyulsa-da, biroq, ular o'rtasidagi o'zaro integratsiyaga asoslanuvchi yaxlit, bir butun jarayonda yuz beradigan hatti-harakat ko'rsatkichi hisoblanadi [2]. Talabalarda faolligining yuzaga kelishi, bir tomondan, ta'lim samaradorligini, shuningdek, uni hosil qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat natijasi, mahsulini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining faolligini shakllantirish bozor munosabatlari sharoitida malakali mutaxassisning tayyorlanganligidan ham dalolat beradi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv-bilish faoliyatining subyekti talaba sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham o'quv-bilish faoliyatidagi hamkorlariga: talabalar, ularning ta'lim olishlarini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Talabaning faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi [3]. Bu xususiyatlar talabalarining faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni talaba shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. Shu sababli o'quv-bilish faolligini rivojlantirish shaxsning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemaol aytish mumkin.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv-bilish faoliyatining yana bir farqli jihati uning o'ziga xos tarzda tashkil etilish mazmuniga egaligi sanaladi. Talabalarining o'quv-bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, turlari ham dasturga kiritilganligi bois, ular jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; subyekt (talaba) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim holatlarda talabalarining o'quv-bilish faoliyati jarayon sifatida taqldiy, reproduktiv (mahsuldor), izlanishli, ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. O'quv-bilish faoliyatining tashkil etish mazmuni oxirgi natija – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarining xarakteriga ta'sir etadi [4].

Talabalarining bilim egallashdagi faolligini oshirish mexanizmlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil etish kerakki, bu ularning o'qituvchi bilan bir-birlari bilan ko'proq aloqada bo'lishlari uchun imkon yaratsin;

2) mavzu bo'yicha talabalarni qiziqitrgan savollarga javobni dars oxiriga surmay, savol tug'ilgan zahoti javob berishni uddalash muhim ahamiyatga ega, hattoki savol mavzuga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan taqdirda ham;

3) talabalarining o'qish va o'rganishda erishgan har qanday yutuqlarini yuqori baholash va rag'batlantirib borish;

4) talabaning o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi, bilimni namoyish qilishi uchun javoblariga noto'g'ri izoh bermaslik va sabr – bardosh bilan sharoit yaratib berish;

5) ularning tashabbusini rivojlantirish va mavjud vositalar yordamida rag'batlantirib borish;

6) o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishda talabalarining passiv kuzatuvchi pozitsiyasida qolishlariga yo'l qo'ymaslik, o'qitishning zamonaviy, interaktiv usullaridan samarali foydalanish;

7) talabalar bilimni baholashda adolatlilik tamoyiliga qat'iy rioya qilish. Toki talabalar mehnati va qobiliyatiga, bilim zakovatiga yarasha taqdirlanmas ekanlar, ular faol bilim egallashga harakat qilmay qo'yadilar.

8) ta'lim mazmunini talabalar aqliy qobiliyati darajasida qabul qiladigan hajm va murakkablikda yetkazish;

9) o'qituvchi pozitsiyasi: — og'ir-bosiqlik, qattiqqo'llik, zarur holatlarda beparvolik (talabaning ayrim kamchiliklariga), nisbatan yon bosuvchilik, talabchanlik, quvnoqlik, kasbiy bilimdonlik, pedagogik qobiliyatlilik talab qilinadi. Aksincha, dimog'dorlik, asabiylik, reyting ballarini pasaytirish, qog'ozbozlik, o'ta nasihatguylik, dekanatlarga norozi tarzda murojaatlar talabalarni asabiylashtirib, qaysarligi ortishiga bilim olishidagi faolligining susayishiga olib keladi. O'qituvchi mehnatining murakkabligi har bir talaba ko'ngliga yo'l topishda, har bir shaxsdagi imkoniyatlarning rivojlanishiga sharoit yarata bilishidadir.

Hozirda o'quv dasturlari qisqacha nazariy bilimlar berishdan keyin birdaniga amaliy mashg'ulotlar bilan boshlanadi. Aslida faqat nazariyani yaxshi bilgandagina amaliy mashg'ulotlarga o'tish to'g'ri bo'lishini amaliyotning o'zi tasdiqlab bo'ldi. Shuning uchun ham talabalarda o'z bilimlarini yanada kengaytirish, chuqurlashtirish istagi paydo bo'lishi uchun avvalo nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash masalasi muhim hisoblanadi.

Talabalarining bilim olishga qiziqishlarini oshirish uchun mavjud muammolar o'rganilib, ixtisoslik bo'yicha guruhlariga bo'linib, alohida mavzular bo'yicha yechim topish taklifi bilan talabalar e'tiboriga havola etilishi, muammoning qandaydir e'tiborga sazovor yechimini topgan talabalarni rag'batlantirish usullari ishlab chiqilishi lozim. Bu usul ham talabalarining o'qib o'rganishga bo'lgan qiziqishi va faolligini orttirishga yordamlashadi.

O'qituvchi eng so'nggi ilmiy g'oyalarni, fan yutuqlarini bilishi shart. Agarda har gal yangi axborot manbai talabalarining o'zi bo'lib, o'qituvchi hodisalar ketidan sudralib qolsa, tez orada uning na pedagogik, na tarbiyaviy nufuzidan asar qoladi. O'qituvchining keng dunyoqarashi, har qanday savolga qoniqarli javob topa bilishi, yangiliklarni sharhlay olishi, talabalarda unga va o'rgatayotgan fanga nisbatan hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi. O'qituvchining o'quv jarayonida talabalar diqqatini jalb etish, umumiy til topish, turli masalalarni hamma talabalar orasida muhokama qilish, axloqiy fazilatlar va muomala madaniyati masalalariga to'g'ri yondashish ham talabalarining bilim olishdagi faolliklarini oshirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rmda shuni ta'kidlash joizki, talabalarining bilim egallashdagi faolliklarini oshirish uchun o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha keng ko'lami bilimlarga ega bo'lishi, darslarni qiziqarli misollar, ibratli hikoyalarni, hayotiy tajribada ko'rilgan voqealar va xulosalar asosida o'tkazishi, dars paytida talabalarining qiziqishlarini e'tiborga olishi, bag'ri kenglik bilan har qanday savollarga javob topishga harakat qilishi lozim bo'ladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish, darslarni zamonaviy texnik vositalar, tarqatmali materiallardan keng foydalanish talabalarni o'quv-bilish faoliyatini yanada yaxshilaydi. Har bir fanning o'ziga xos tomonlari, talabalarni o'ziga jalb etadigan hususiyatlari bor, albatta. Ayniqsa, ixtisoslik fanlarida bunday jihatlar ko'p, nazarimizda. Ixtisoslik fanlari bo'yicha talabalarining

bilim olish faolligini oshirish uchun o'rganilayotgan fanning insoniyat hayoti va taraqqiyotidagi roli, mamlakat iqtisodiyoti va salohiyatidagi o'rni juda mukammal yoritib berilishi kerak. Shundagina talaba mazkur fanni chuqurroq o'rganishga harakat qiladi.

Demak, ta'lim jarayoni sifat va samaradorligi bevosita o'qituvchi va talabalarning o'zaro faolligiga asoslanadi. Shu boisdan o'qituvchining asosiy e'tibori talabalarda bilish motivlarini shakllantirishga qaratilmog'i zarur.

ADABIYOTLAR

1. Маслоу А.Г. Мотивация и личность. СПб. : Питер. 2016. 290 с.
2. Муслимов Н.А., Рахимов З.Т., Хўжаев А.А. Касбий педагогика. Дарслик. Тошкент «Ворис» нашриёти – 2020. 517 б.
3. Подымова Л.С. Инновационность субъекта образования в контексте модернизации высшего педагогического образования //Педагогическое образование: вызовы XXI века. – М.:МПГУ, МАНПО, 2015.– С.32-37.
4. Управление учебно-познавательной деятельностью студентов в процессе обучения [Электронный ресурс] / В.Н. Зайченко. УРЛ: http://vuzirossii.ru/publ/upravlenie_uchebno_poznavatelnoj_deyatelnostju_studento_v_v_prosesse_obucheniya (дата обращения: 08.03.2018)
5. http://vuzirossii.ru/publ/upravlenie_uchebno_poznavatelnoj_deyatelnostju_studento_v_v_prosesse_obuchenija (data obrasheniya: 08.03.2018)



Davron ERMANOV,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: davron.ermanov@gmail.com,

Baxrom IBRATOV,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

O'zMU professori H.Xudayqulov taqrizi asosida

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Maqolada sun'iy intellektning chet tilini o'rganish, ayniqsa gapirish ko'nikmasini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Chatbotlar, talaffuzni tekshiruvchi ilovalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari interaktiv muloqot yaratib, xatolarni aniqlash va individual tavsiyalar berishga yordam beradi. ELSA Speak, Speechling va Duolingo talaffuzni yaxshilashga, ChatGPT va Google Assistant esa interaktiv mashg'ulotlarga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada SI texnologiyalarining ta'limga integratsiyasi, samaradorligi va kelajakdagi rivoji muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, chet tilini o'rganish, gapirish ko'nikmasi, talaffuzni tekshirish, interaktiv muloqot, ELSA Speak, Speechling, Duolingo, ChatGPT, Google Assistant.

DEVELOPING SPEAKING SKILLS WITH THE HELP OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation

This article examines AI's role in foreign language learning, especially in speaking skills. AI tools like chatbots, pronunciation apps, and automated assessments enhance interactive learning, error detection, and personalized feedback. Apps such as ELSA Speak, Speechling, and Duolingo aid pronunciation, while ChatGPT and Google Assistant support interactive learning. The article also explores AI's integration into education, assessing its impact and future potential for more flexible, personalized learning.

Key words: Artificial Intelligence, language learning, speaking skills, pronunciation check, interactive communication, ELSA Speak, Speechling, Duolingo, ChatGPT, Google Assistant.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация

Статья рассматривает роль ИИ в изучении языков, особенно в развитии навыков говорения. Чат-боты, приложения для произношения и автоматизированные оценки помогают учащимся в интерактивном обучении, выявлении ошибок и получении рекомендаций. ELSA Speak, Speechling и Duolingo улучшают произношение, а ChatGPT и Google Assistant поддерживают учебные занятия. Также анализируется интеграция ИИ в образование, его эффективность и перспективы персонализированного обучения.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, изучение языка, навыки говорения, проверка произношения, интерактивное общение, ELSA Speak, Speechling, Duolingo, ChatGPT, Google Assistant.

Kirish. Bugungi kunda chet tilini o'rganish jarayonida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab o'quvchilar grammatik bilim va lug'at boyligiga ega bo'lsalar ham, real muloqotda qiynaladilar (Ermanov D.R. and Tchourson R.R.F., 2023). Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari esa ushbu muammoni hal qilishda samarali vosita bo'lib, til o'rganuvchilarga interaktiv mashg'ulotlar, individual yondashuv (Miguel A.M.L., Dolores M.A. S. and Angela K.V.M.) va doimiy fikr-mulohaza olish imkoniyatini taqdim etmoqda. SI yordamida ishlab chiqilgan chatbotlar, talaffuzni tekshiruvchi ilovalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari gapirish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga ta'siri, afzalliklari va qo'llash usullari tahlil qilinadi.

Sun'iy intellekt va gapirish ko'nikmasini rivojlantirish

Gapirish ko'nikmasi til o'rganish jarayonining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, samarali muloqot qilish uchun zarurdir. (Ermanov) Grammatik bilim va lug'at boyligi muhim bo'lsa-da, amaliy muloqotsiz til o'rganish jarayoni to'liq bo'lmaydi. (DeRolf, 1995) CEFR tizimi bo'yicha gapirish kompetensiyasi ravonlik, grammatik to'g'rilik, talaffuz, lug'at boyligi va suhbatga moslashish kabi jihatlar orqali baholanadi. Shuningdek, gapirish tinglab tushunish, o'qish va yozish bilan uyg'un ravishda rivojlantirilishi kerak.

Sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratib, individual yondashuv, doimiy fikr-mulohaza va interaktiv mashg'ulotlarni ta'minlaydi. ChatGPT, Google Assistant va Duolingo kabi SI yordamchilari real muloqotni taqlid

qilib, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Elsa Speak, Speechling va Mondly esa talaffuzni yaxshilashga yordam beradi. VRChat, FluentU va ImmerseMe kabi immersiv texnologiyalar chet tilida muloqot qilish tajribasini oshiradi. Umuman olganda, SI texnologiyalari til o'rganishni yanada samarali va qulay qilib, o'quvchilarga o'z ehtiyojlariga mos ravishda mashq qilish imkoniyatini taqdim etmoqda.

SI yordamida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish usullari

Sun'iy intellekt asosida ishlovchi ChatGPT, Google Bard va Duolingo Bot dasturlari til o'rganishda, ayniqsa, gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. ChatGPT tabiiyroq va izchil suhbat olib borishda kuchli bo'lsa, Google Bard dolzarb ma'lumotlarni real vaqt rejimida taqdim etadi. ChatGPT ijodiy yozish va uzun suhbatlarda kontekstni saqlashda ustunlik qiladi, Google Bard esa Google xizmatlari bilan integratsiyalashganligi sababli tezkor ma'lumot olishda foydalidir.

Duolingo Bot foydalanuvchilarning javoblarini tahlil qilib, xatolarni tuzatish bo'yicha fikr-mulohaza bildiradi. SI dasturlari talabalar bilan jonli suhbat qilish, grammatik va talaffuz xatolarini aniqlash hamda fikr-mulohaza berish orqali til o'rganish jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga istalgan vaqtda va joyda mustaqil mashq qilish imkonini taqdim etib, til o'rganishni qulay va qiziqarli qiladi.

Talaffuzni tekshirish va takomillashtirish

ELSA Speak, Speechling, va Say It: English Pronunciation kabi ilovalar til o'rganish jarayonida talaffuzni yaxshilashga yordam beradigan samarali vositalardir. Ushbu ilovalar sun'iy intellekt va ovozli tahlil texnologiyalaridan foydalangan holda foydalanuvchilarning talaffuzini real vaqt

rejimida tekshiradi, ularning so'z va iboralarni to'g'ri talaffuz qilishini nazorat qiladi. ELSA Speak ilovasi foydalanuvchining talaffuzidagi xatolarni aniqlab, tuzatishlar va mashqlar bilan fikr-mulohaza beradi, Speechling esa individual yondashuvni ta'minlab, talaffuz va nutqni yaxshilash uchun shaxsiy murabbiylar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi. Say It esa foydalanuvchiga aniq talaffuzni o'rganishga yordam berish uchun ovozli mashqlar va audio namunalardan foydalanadi. Bu ilovalar til o'rganish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi, foydalanuvchilarga talaffuzni yaxshilash uchun qulay va individual yondashuvni ta'minlaydi.

Automatik fikr-mulohaza va baholash tizimlari

SI yordamida nutqni baholash va xatolarni ko'rsatish til o'rganishni osonlashtiradi. ELSA Speak va Speechling foydalanuvchining nutqini tahlil qilib, grammatik va talaffuz xatolarini aniqlaydi, shuningdek, mashqlar orqali ularni tuzatishga yordam beradi. SI tizimlari o'quvchilarga yutuqlarini kuzatish va aniq fikr-mulohaza olish imkonini berib, motivatsiyani oshiradi.

CEFR mezonlariga asoslangan avtomatik baholash tizimlari til o'rganish jarayonini obyektiv va samarali qiladi. Ular grammatik to'g'rilik, so'z boyligi, talaffuz va ifoda erkinligini baholab, o'quvchilarning til darajasini aniqlaydi. Avtomatik tizimlarning asosiy afzalligi – obyektivlik bo'lib, ular inson faktori ta'sirisiz aniq va standartlashtirilgan baholashni ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt yordamida gapirishni o'rganishning afzalliklari

SI cheksiz muloqot imkoniyatini yaratadi. ChatGPT, Google Assistant, va Duolingo Bot kabi ilovalar foydalanuvchilarga har qanday vaqtda va joyda muloqot qilish imkonini beradi. Ushbu dasturlar bilan foydalanuvchi doimiy ravishda interaktiv suhbatda bo'lishi mumkin, bu esa uning tilni o'rganishdagi ishtiyoqini va motivatsiyasini oshiradi. SI yordamida ishlovchi virtual suhbatdoshlar 24/7 faol bo'lib, foydalanuvchilarga o'z nutqini mashq qilish, yangi so'z va iboralarni o'rganish, hamda talaffuzni yaxshilash imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o'rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

ChatGPT, Google Assistant va Duolingo Bot til o'rganuvchilarga o'z xatolarini tezda aniqlash va ularni to'g'rilash imkonini quyidagi usullar orqali yaratadi:

Tilshunoslik tahlili va real vaqt fikr-mulohaza (feedback) – Ushbu SI vositalari foydalanuvchilarning yozma va og'zaki nutqini avtomatik ravishda tahlil qilib, grammatik, lug'aviy va sintaktik xatolarni aniqlaydi hamda to'g'ri variantni taklif qiladi. Masalan, ChatGPT foydalanuvchining gaplarini tahlil qilib, xatolarni tushuntiradi va yaxshiroq ifodalash usullarini tavsiya etadi.

Talaffuzni tekshirish va to'g'rilash – Google Assistant va Duolingo Bot ovozli kirishlarni qayta ishlash orqali foydalanuvchilarning talaffuzini tahlil qiladi. Duolingo Bot talaffuzdagi xatolarni ko'rsatib, foydalanuvchiga to'g'ri talaffuzni eshittiradi va uni qayta takrorlashni so'raydi.

Interaktiv suhbat orqali mashq qilish – ChatGPT va Google Assistant foydalanuvchiga real muloqot muhiti yaratib, u bilan tabiiy ravishda suhbat quradi. Agar foydalanuvchi xato qilsa, SI bu xatoni aniqlab, to'g'ri variantni ko'rsatadi yoki so'z birikmalarini yaxshiroq ifodalash usullarini tavsiya qiladi.

Kontekstga mos tavsiyalar – Sun'iy intellekt foydalanuvchining nutqini tushunib, kontekstga mos to'g'rilashlar va qo'shimcha misollar taqdim etadi. Masalan, Duolingo Bot muloqot davomida qaysi so'z yoki jumla foydalanuvchi uchun murakkab bo'lsa, uni soddalashtiradi yoki batafsil tushuntiradi.

Avtomatlashtirilgan baholash va rivojlanish monitoringi – Ushbu texnologiyalar foydalanuvchilarning oldingi natijalarini saqlab, ularning taraqqiyotini kuzatib boradi. Masalan, Duolingo foydalanuvchining oldingi xatolarini eslab qolib, kelajakda ularni takror ko'rsatmaslik yoki o'rganish uchun qo'shimcha mashqlar taqdim etish funksiyasiga ega.

Ushbu vositalarning barchasi SI yordamida foydalanuvchilarning xatolarini tezda aniqlash, ularga tushunarli tushuntirish berish va individual o'rganish jarayonini yanada samarali qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, ChatGPT, Google Assistant va Duolingo Bot orasida ChatGPT individual ehtiyojlarga eng mos ravishda maxsus mashqlar va suhbatlar taqdim eta oladi. Buning asosiy sabablari:

Shaxsiy yondashuv – ChatGPT foydalanuvchining til darajasi va maqsadlariga mos mashqlar va suhbat mavzularini yaratishi mumkin.

Moslashuvchan suhbatlar – Foydalanuvchining javoblariga qarab, suhbat yo'nalishini real vaqt rejimida o'zgartiradi.

Ixtisoslashgan mashqlar – Grammatik, talaffuz va lug'at boyligini rivojlantirish uchun individual topshiriqlar taklif qiladi.

Til o'rganishni optimallashtirish – Oldingi xatolar asosida tushuntirish va mustahkamlash uchun yangi misollar taqdim etadi.

Google Assistant umumiy ma'lumot berishga mo'ljallangan bo'lib, til o'rganuvchilarga moslashgan maxsus mashqlar yaratmaydi. Duolingo Bot foydalanuvchining javoblariga asoslanib mashqlar taklif qilsa-da, cheklangan ssenariylarga asoslanadi. Eng moslashuvchan sun'iy intellekt vositasi ChatGPT bo'lib, u foydalanuvchining darajasi, xatolari va o'rganish uslubiga mos suhbat va mashqlar yaratishi mumkin.

Xatolar ustida ishlash va doimiy fikr-mulohaza olish til o'rganish jarayonining ajralmas qismidir, chunki xatolar o'rganishning tabiiy qismi sifatida yangi ko'nikmalarni shakllantiradi (Ermanov D. R., 2024). Sun'iy intellekt tizimlari, masalan, ELSA Speak va Speechling, foydalanuvchining nutqidagi xatolarni tezda aniqlaydi va ularga individual fikr-mulohaza taqdim etadi.

ELSA Speak va Speechling ikkalasi ham talaffuzni yaxshilashga qaratilgan, lekin ELSA Speak foydalanuvchining har bir xatosini chuqur tahlil qilib, nima noto'g'ri ekanligini tushuntirish va qanday tuzatish kerakligini ko'rsatish bo'yicha yaxshiroq hisoblanadi.

ELSA Speak afzalliklari

Tovush darajasida tahlil – ELSA har bir so'z va tovushni fonetik jihatdan tahlil qilib, qaysi tovush noto'g'ri talaffuz qilganini aniqlaydi va uni to'g'ri aytish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

Vizual tahlil va ko'rsatmalar – Foydalanuvchiga talaffuzni qanday farq qilayotganini grafik yordamida ko'rsatadi va qaysi joyni yaxshilash kerakligini tushuntiradi.

Real vaqtlil feedback – Foydalanuvchi gapirgandan so'ng, darhol xatolarni aniqlab, ularni qanday to'g'rilash kerakligini tushuntiradi.

Individuallashtirilgan darslar – ELSA foydalanuvchining xatolariga asoslanib, unga moslashtirilgan mashqlarni taklif qiladi.

Speechling afzalliklari

Bepul ovoz yozish va tahlil qilish – Foydalanuvchi o'z ovozini yozib, mutaxassis (odam) tomonidan baholanish imkoniyatiga ega.

Tovushni taqlid qilish mashqlari – Speechling asl nutq namunalari tinglash va taqlid qilish imkonini beradi, bu esa aksentni kamaytirishga yordam beradi.

Yozma va og'zaki feedback olish – Ba'zi premium xizmatlar orqali mutaxassislar tomonidan aniq tushuntirish va tavsiyalar olinadi.

Agar avtomatik ravishda har bir xatoni chuqur tahlil qilish va qanday to'g'rilashni ko'rsatish muhim bo'lsa, ELSA Speak yaxshiroq. Chunki u sun'iy intellekt yordamida har bir tovushni baholab, foydalanuvchiga to'g'ri talaffuzni o'rgatadi. Agar inson tomonidan baholangan feedback va ko'proq tinglab-taqlid qilish mashqlari kerak bo'lsa, Speechling foydali bo'lishi mumkin, lekin u real vaqtlil avtomatik tahlil va aniqlik jihatidan ELSA Speak darajasiga yetmaydi. Shu sababli, talaffuz xatolarini aniq tahlil qilish va ularni qanday to'g'rilashni ko'rsatish bo'yicha ELSA Speak yaxshiroq tanlovdir.

Doimiy fikr-mulohaza olish nafaqat o'quvchilarni xatolarini tushunishga yordam beradi, balki ularga o'zlarini yaxshilash uchun aniq yo'l-yo'riqlarni taqdim etadi (Nunung Nurhayati and Tri Wintolo Apoko). SI tizimlari, masalan, Duolingo Bot va Speechling o'quvchilarga o'z xatolarini tuzatishda yordam beradigan mashqlarni, talaffuzni yaxshilashga qaratilgan interaktiv o'yinlar va testlarni taqdim etadi. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarni to'g'ri

so'zlash tarzini o'rganishda qo'llab-quvvatlaydi, ularga har bir nutq amaliyotidan so'ng doimiy fikr-mulohaza beradi. Bu jarayon o'quvchilarga doimiy ravishda o'zlarini sinab ko'rish, xatolarni aniqlash va tuzatish orqali o'z til ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Til o'rganishda individual yondashuvni shakllantirish o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va o'rganish uslublarini hisobga olishni anglatadi (Abdolmehdi Riasati & Mohammad Javad Riasati, 2008). Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, masalan, Duolingo, ELSA Speak va Speechling kabi dasturlar, foydalanuvchilarning til darajasiga moslashtirilgan individual mashqlar va tavsiyalar taqdim etadi. Bu tizimlar har bir o'quvchining rivojlanish jarayonini kuzatib boradi, uning xatolarini tahlil qiladi va shaxsiy fikr-mulohaza beradi. Natijada, o'quvchilar o'z qiziqishlariga mos ravishda o'rganishni davom ettirishi mumkin, bu esa til o'rganish jarayonini samarali va qulay qiladi. SI yordamida individual yondashuv o'quvchining til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o'zlariga mos bo'lgan mashqlarni bajarib, o'z darajalarida muvaffaqiyat qozonishlari mumkin.

Talabalarning ishonchini oshirish va psixologik to'siqlarni kamaytirish til o'rganish jarayonida juda muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, masalan, ChatGPT va Duolingo Bot, talabalar bilan interaktiv muloqotni ta'minlab, ularga o'z nutqlarini xavfsiz va qulay muhitda mashq qilish imkoniyatini beradi. Bu dasturlar, foydalanuvchilarni xatolaridan qo'rqmasdan suhbatlashishga undaydi va xatolarni to'g'rilashda ularni ruhlantiradi. O'quvchilarga real vaqt rejimida fikr-mulohaza taqdim etish, ularning muvaffaqiyatlarini ta'kidlash va ularga to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, ularning ishonchini oshiradi. Shuningdek, SI yordamida til o'rganish jarayonining interaktivligi va doimiy fikr-mulohaza olish psixologik to'siqlarni, masalan, gapirishda davomiylik va xatolarni tuzatishdan qo'rquvni kamaytirishga yordam beradi, bu esa talabalarni tilni o'rganishga yanada ishtiyoqliroq qiladi.

Sun'iy intellekt yordamida gapirishni o'rganishning cheklovlari va muammolari

Sun'iy intellekt (SI) til o'rganishda foydali bo'lsa-da, inson murabbiyining o'rnini to'liq bosa olmaydi. SI avtomatik

fikr-mulohaza va interaktiv mashqlar orqali yordam beradi, biroq o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishda cheklovlarga ega. Masalan, ChatGPT va Duolingo Bot grammatika va talaffuzni tekshira oladi, lekin kontekstni noto'g'ri tushinishi yoki ijodiy yondashuvni qabul qila olmasligi mumkin.

Shuningdek, SI samarali ishlashi uchun sifatli internet va zamonaviy texnologiyalar zarur. Texnik muammolar va resurs yetishmovchiligi ayrim hududlarda SI dan foydalanishni cheklaydi.

Amaliy tavsiyalar va kelajak istiqbollari

Til o'rganuvchilar SI vositalarini ehtiyojlariga mos tanlashlari lozim. Talaffuz uchun ELSA Speak, umumiy til ko'nikmalari uchun Duolingo yoki Busuu foydali bo'lishi mumkin. SI tizimlari ba'zan cheklangan javoblar berishi sababli, inson murabbiyining fikr-mulohazasi ham muhim.

O'qituvchilar SI dan dars materiallari tayyorlash, individual mashqlar yaratish va o'quvchilar muvaffaqiyatini tahlil qilishda foydalanishlari mumkin. Kelajakda SI til o'rganishni yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan qiladi, virtual va kengaytirilgan realiti esa immersiv o'rganish tajribasini taqdim etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishdagi o'rni katta va muhim ahamiyatga ega. SI texnologiyalari, masalan, talaffuzni tahlil qilish, xatolarni to'g'rilash va doimiy fikr-mulohaza taqdim etish orqali til o'rganish jarayonini samarali va shaxsiylashtirilgan qiladi. Biroq, texnologiyalar va an'anaviy o'qitish usullarini uyg'unlashtirish zarur, chunki inson murabbiyining emotsional qo'llab-quvvatlashi, motivatsiya berish va individual yondashuvni ta'minlashda SI tizimlari hali to'liq o'rni bosa olmaydi. Kelajakda, til o'rganish jarayoni yanada rivojlanib, sun'iy intellekt va yangi texnologiyalar yordamida yanada innovatsion va interaktiv imkoniyatlar ochiladi. Virtual va kengaytirilgan realiti texnologiyalarining integratsiyasi, shuningdek, shaxsiylashtirilgan SI vositalari til o'rganishni yanada qulay, qiziqarli va samarali qilishi kutilmoqda. Bu esa til o'rganishning yangi ufqlarini ochib, global miqyosda ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

АДАБИЁТЛАР

1. Abdolmehdi Riasati & Mohammad Javad Riasati. (2008). - Language Learning Style Preferences: A Students Case Study of Shiraz EFL Institutes . The Iranian EFL Journal, 156-182.
2. DeRolf, J. D. (24 March 1995). Experiences, English Communication Through Practical . Получено из The Internet TESL Journal: <http://iteslj.org/Articles/DeRolf-PracExper.html>
3. Ermanov D.R. and Tchiourson R.R.F. (12 April 2023 г.). Using Authentic Materials to Teach Speaking. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 04(04 April 2023), 52-60. Получено 3 02 2025 г., из https://www.researchgate.net/publication/369976732_CENTRAL_ASIAN_JOURNAL_OF_LITERATURE_PHILOSOPHY_AND_CULTURE_Using_Authentic_Materials_to_Teach_Speaking
4. Ermanov, D. R. (2024). Unlocking language learning success: Proven ways to beat anxiety in foreign language learners and ignite motivation. Ilm Sarchashmalari, 154-158.
5. Ermanov, D. R. (2024). Unlocking language learning success: Proven ways to beat anxiety in foreign language learners and ignite motivation. Ilm sarchashmalari, 154-158.
6. Miguel A.M.L., Dolores M.A. S. and Angela K.V.M. (2024). Integration of Artificial Intelligence in English Teaching. (CID, Ed.) doi:https://doi.org/10.37811/cli_w1046
7. Nunung Nurhayati and Tri Wintolo Apoko. (2024). The Role of Feedback in Motivating EFL Students in Vocational High School: A Qualitative Analysis of Students' Perceptions. Journal of English language and Education, 83-96.



Odil YUSUPOV,

Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi o'qituvchisi

E-mail: odil.yusupov.91@bk.ru

Jamshid BURANOV,

Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi o'qituvchisi

O'zMU dotsenti, PhD U. Sodiqov taqrizi asosida

SOME ISSUES OF MATHEMATICAL EDUCATION IN ACADEMIC LYCEUMS: A HISTORICAL AND MATHEMATICAL REVIEW OF GEOMETRY TEACHING

Annotation

The article studies the conditions of applicability and effective use of software in communication technologies in geometry lessons in academic lyceums with in-depth study of mathematics and methodological prospects.

Key words: Lyceum, software products, information and communication systems (technologies), computer geometry, digital pedagogy.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ: ИСТОРИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР ОБУЧЕНИЯ ГЕОМЕТРИИ

Аннотация

В статье изучаются условия применимости и эффективного использования программных средств в коммуникационных технологиях на уроках геометрии в академических лицеях с углубленным изучением математики и методические перспективы.

Ключевые слова: Лицей, программные продукты, информационно-коммуникационные системы (технологий), компьютерная геометрия, цифровая педагогика.

AKADEMIK LITSEYLARDAGI MATEMATIKA TA'LIMINING BA'ZI MASALALARI: GEOMETRIYA O'QITISHINING TARIXIY-MATEMATIK SHARHI

Annotatsiya

Maqolada matematika fanini chuqur o'rganuvchi akademik litseylarda geometriya darslarida kommunikatsiya texnologiyalarining dasturiy ta'minotlarni qo'llash va ulardan samarali foydalanish shartlari va uslubiy istiqbollari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Litsey, dasturiy mahsulotlar, axborot-kommunikatsiya tizimlari (texnologiyalari), kompyuter geometriyasi, raqamli pedagogika.

Введение. История образования изобилует множеством типов учебных заведений. Домашнее образование лежит в основе всей системы образования в любой стране. Светское или духовное образование всегда касалось существа вопросов продолжения и становления государственности и развития рода человеческого. Медресе, церковно-приходские школы, иезуитские школы, различные школы при академиях или университетах и институтах, например, как в Древнем Китае, все они так или иначе аккумулировали знания о природе и духовном просвещении и обучении. Однако, академический лицей получил своё название от греческого слова Греческое слово Λύκειον (Lykeion) происходит от имени Аполлона Ликейского (греч. Ἀπόλλων Λύκειος). В древних Афинах Ликей был местом, в котором располагалась гимназия — «образовательное учреждение и философская школа». В эпоху римлян «Lycium» понятие сохранилось в латинском языке в значении места учёбы или философской школы. Наконец напомним, что в младших классах, например, Царскосельского лицея времён А.С.Пушкина в программу входили Математика, состоящая из курсов Арифметики, Геометрии, Элементов алгебры, а в старших классах — Тригонометрия, Начала анализа, Практическая математика; физика и естественные науки включали в себя: основы механики и астрономии, а вот в курс философии входили Логика, этика. Другими словами, огромное значение предавалось интеллектуальному развитию лицейцев. Это значит сочетание гуманитарного образования и интеллектуальной программы развития было одним их преимуществ по сравнению с духовными школами и средними семинариями, например, православной церкви. Сочетание нравственного и научного воспитания до недавнего времени в тех или иных образовательных средних учреждениях мира носили факультативный характер. Однако, математическое образование в истории образовательных

учреждений Востока почти всегда входили в их Учебные планы.

Основная часть. Постановка проблемы. Примерно до последней четверти двадцатого века постепенно в образовательную среду стали входить программные продукты позволяющие в той или иной степени автоматизировать представление и организацию потоков учебной информации. В первой же четверти двадцать первого века произошло лавинообразное движение информационных потоков, причём школа полностью поглощена этим явлением. Современные образовательные тенденции в методике преподавания геометрии специализированных образовательных учреждениях в контексте преподавания ее в академических лицеях или школах с углубленным изучением специальных предметов должны были отразиться в образовательной среде. [1] Использование информационно-коммуникационных систем (технологий) это одно из возможных направлений к адаптации в новых реалиях информационной революции. Лицей обладал в самом своем зарождении и в последующем развитии обширными связями с университетами, готовили будущих студентов и включали в свои программы новые курсы. Известно, что с XVI-XVII вв в Европе постепенно создавалась среда в которых изучение наук, языков и философских традиций предшественников занимала умы мыслителей. В последствии во Франции, России и других странах Европы образование в лицеях было делом элитарной подготовки, с течением времени дифференциация образования на гуманитарное и техническое образование привело к специализациям востребованных государственным службами. Но математическое образование в разной степени входило во все образовательные программы. Итак можно представить проблему образовательных традиции в академическом лицее следующим образом: является ли академический лицей

аккумулятором традиционного образования и прогрессивным средством развития образования страны?

Степень изученности проблемы. Если обратиться к Учебным программам академических лицеев, то конечно основным “заказчиком” изменений в стране выступает государство, но очевидно что ему необходимы мыслящие и интеллектуально развитые специалисты в различных областях науки и техники. Тогда очевиден вопрос какая учебная дисциплина является наиболее воспитывающей и востребованной в науке, а сама является образцом научных и строгих форм это конечно Математика, а в ней Геометрия. Но наиболее развитой в методическом контексте является, т.е. древняя и методически разработанная учебная дисциплина “Геометрия”. Однако, в настоящее время серьезно изменились условия преподавания этой дисциплины. В самом деле раньше, если на занятиях доска, мел, линейка, циркуль, учебники, книги, конспекты, тетради, Учитель, Лектор, занятия в коллективе (преимущественно в учебном заведении), то в настоящее время: интернет платформы, всевозможные онлайн курсы, социальные сети, мессенджеры, LMS-технологии, и кроме того пакеты прикладных программ различной направленности, в частности математические, инженерные пакеты: MathCAD, Matlab, Maple, Wolfram Mathematica.

Также отметим, что еще в первой половине двадцатого века в социальных условиях западных демократий возникли проблемы за решение которых взялись такие исследователи как Курт Левин (Kurt Lewin) – «Немецко-американский психолог, известный своими исследованиями в области групповой динамики и обучения через действие, что повлияло на развитие проектного обучения», и в частности управлением социогруппами и предупреждением напряженностей в обществах. На рубеже девятнадцатого и двадцатого веков исследователь Джон Дьюи (John Dewey) – философ образования и педагог, чьи идеи о "обучении через действие" стали основой для проектного обучения и были подхвачены Леонтьевым в Советском Союзе и в республиках как система обучения в деятельности – деятельностная парадигма. Другим исследователем в «области образования и технологий» был Сеймур Пейперт (Seymour Papert), разработавший концепцию конструкционизма, тесно связанную с PBL (Project Based Learning and Problem Based Learning) проектно-ориентированное и проблемно-ориентированное обучение. Один из выдающихся исследователей-системщиков является Юлий Анатольевич Шрейдер – педагог, математик, логик, кибернетик, философ, специалист связавший информационный подход к постановкам задач посредством кибернетического метода (синергетического оценки формулированных задач) и педагогическая среда как сложная информационная система. Отсюда естественно следуют решения некоторых проблем управления информационными потоками в образовательных процессах.

В Узбекистане традиционная школа имеет глубокие исторические традиции в образовании. Интегративные периоды развития науки и образовательных систем в последние сто лет во многом определили и достижения и недостатки современного образования в стране. Однако, множество проблем при изучении внешнего опыта образования за рубежом можно предвосхитить проблемы или принять верные решения в управлении образованием. В частности одним из важных направлений развития методики образования в современном мире является использование адаптивных механизмов и современных средств коммуникации в педагогической, образовательной среде, а также использования пакетами прикладных программ в преподавании ряда дисциплин! С недавнего времени применяются в образовательном процессе Узбекистана такой пакет как GeoGebra – программное обеспечение для изучения геометрии, алгебры и анализа. Используется в школах для наглядного объяснения математических концепций.

Одним из адептов приложения динамических математических систем является Ойбек Ганиевич Давлатов, который внес большой вклад преподаванию в среде GeoGebra

при обучении математике. Его работы посвящены методике использования GeoGebra для повышения качества преподавания и усвоения математических концепций.

Из вышеизложенного следует, что в мире и в Узбекистане исследуется применение ППП (пакеты прикладных программ). Однако в каждой стране есть своя специфика, так в Узбекистане ППП в большей степени имели приложения для организации образовательного процесса, в образовательной практике пакет GeoGebra изучаются динамические идеи приложения к преподаванию геометрии и алгебре. Что мы считаем совершенно недостаточно. Как показывает наш опыт ресурсы пакетов прикладных программ огромны. Методические возможности беспредельны. Прежде всего они в методическом контексте должны использоваться как возможности представления моделей различных типов задач.

Пример представления знаний на уроке факультатива в физико-математической школе.

Тема: Математическое моделирование. Виды моделей, развитие и применение.

Содержание.

Математическое моделирование – это процесс построения простой модели сложных систем и применения этой модели в анализе и прогнозировании действий реальной системы. [2]

Математические модели могут быть классифицированы по-разному в зависимости от:

Сложности объекта исследования;

Оператора модели;

Параметров модели;

Цели моделирования;

Методов реализации модели.

Прежде всего сделаем следующее замечание. В реальной педагогической практике с моделированием как таковым школьник встречается с первого класса, да и в детском саду в игровых ситуациях. Знакомство с математическим моделированием происходит в течение обучения в школе, в физико-математической школе в зависимости от структуры самой школы. нет привязки к конкретным классам школы, но есть фрагменты школьно-лекционно-практического школьного курса с учетом возможного перехода для учебы в высшем учебном заведении. [3]

Алгебраической системой называем математическую структуру вида $A = \langle M, \Omega \rangle$, где M – множество, называемое моделью, Ω – сигнатура, т.е. множество отношений в которые вступают элементы образующие множество M .

Для простоты дадим некоторые ассоциативные основания для восприятия понятия МОДЕЛЬ.

ПЕРВОЕ свойства, которыми обладают модели:

Адекватность – похожесть, достаточное точное приближение по форме, виду к оригиналу (некоторому моделируемому оригиналу);

Полнота (информативность) – отражение оригинала в информационном поле представлений об объекте в системе дескрипций;

Конечность – модель отображает (представляет) оригинал лишь в конечном числе свойств, характеризующих объект, по мнению автора модели;

Упрощенность – модель обладает только выделенными свойствами по представлению конструктора модели;

Универсальность – возможное видоизменение, взаимозаменяемость параметров, входящих в формальное описание модели;

Программируемость – структуры, связи между элементами множества M и отношения описанные в сигнатуре системы должны поддаваться формализациям для создания вычислительных моделей на языках программирования.

Классификация моделей (здесь и ниже мы предлагаем подход к классификации с наиболее высоким эффектом апелляции к ассоциативному мышлению ребенка)

«Что такое признак? (вопрос к детям)»

«Люди умеют группировать по признакам?»

Приведите примеры»



Учебные модели – модели геометрических тел, наглядные модели (молекулы, кристаллов, схем физических цепей и пр.), тренажеры, обучающие программы;

Игровые модели – деловые игры, военно-исторические (солдатики и сцены батальи), экономические и им подобные модели;

Исследовательские модели – наиболее интересные в смысле формализации и представления вычислительных систем и доказуемости;

Опытные модели – можете описать самостоятельно (обращение к классу);

Имитационные модели – представляющие с той или иной степенью реальность, процесс (основное свойство, повторяемость в одних и тех же условиях)

Обсуждение вопросов учащихся.

Перечень вопросов к учащимся по услышанному и обсуждаемому.

И ещё один пример к проведению уроков.

Как показали наши исследования знакомство, с этими моделями, должно происходить циклично и постепенно, т.е. процедуры введения смыслов в операционное поле учащегося происходит пошагово и доступно, и желательно на практических задачах, начиная с самых первых заданий как по математике, так и по информатике.

Рассмотрим следующий пример на языке БЕЙСИК.

25 LET A=2*B+3*C

Здесь записано выражение a , которое нужно вычислить по формуле $a = 2 \cdot b + 3 \cdot c$. Придавая значения буквам b , c мы можем по предписанному алгоритму получать значение буквы a . А что будет если мы поменяем местами в 25 строке левую и правую сторону в формуле? А если только справа слагаемые в исходной формуле? Проведем совместные с аудиторией рассуждения. Предположим в этом равенстве переставим местами левую и правую части. С позиций математики ничего не произошло как было равенство, так оно и осталось равенством. Но если ввести эту строку в компьютер, то на экране появится сообщение об ошибке. Почему?

Это произойдет потому, что строка 25 «читается» в машине как ряд предписаний: найти и считать в выделенных местах памяти значение переменных B и C , произведение умножение их на константы 2 и 3 соответственно, прибавить к друг другу полученные произведения, и, полученной сумме присвоить имя A , т.е. записать в то место памяти, где хранится переменная A . В умной машине все эти операции выполняются автоматически, незаметно для пользователя, но будущий программист при написании программ некоторые нюансы взаимоотношений с машиной (машинным языком) должен учитывать. Этот фрагмент урока еще дает повод обратить внимание в подготовленной аудитории на следующее обстоятельство. Знак равно в программировании имеет иной смысл нежели в математике. Продемонстрируем на следующем примере:

26 LET i=i+1

Это значит из памяти взять значение переменной i , прибавить к нему единицу и записать полученную сумму в то же место, где находилось значение i . Программисты, это

Классификация – разбиение множества объектов природы (элементов множества) на классы, элементы которых имеют общие признаки. Например, Девочки и Мальчики. А среди девочек и мальчиков можно провести еще классификацию? Какие бывают модели?

равенство называют «счётчиком». Таким образом, равенство в математике и информатике имеют различия в толкованиях.

Но если переставили местами слагаемые в правой части, то выяснится правило, как правило очень хорошо освоенное «от перемены мест, слагаемых сумма не изменится». Таким образом мы показали, каково некоторое, одно из первых, различие между МАТЕМАТИКОЙ и ИНФОРМАТИКОЙ.

Вместо заключения. Некоторые вопросы использования компьютеров в преподавании геометрии в частности рассматривалась В.Р. Майером, О.П. Одиной, О.А.Бушковой, М.Н. Марюковым, А.В.Букушевой и др. В основании лежат работы по визуализации абстрактных понятий, стереографического и стереометрического (пространственного) мышления: Аринхейма Р., перевод его идей из области психологии мышления в педагогическую методическую плоскость в программированном, инструментального обучения визуальному мышлению через динамические возможности коммуникационных систем в наших исследованиях направлены на более узкие целевые методические задачи находятся на этапе разработок и педагогического эксперимента [3].

В современных исследованиях преподавание геометрии, математики в целом связано с компьютерной графикой и технологиями геометрического моделирования, а также наблюдается постепенный переход к идеям использования в образовании Компьютерной геометрии. Этой проблематике посвящены работы (научные статьи, монографии, учебники пособия) многих авторов: Марк де Берг и др. "Вычислительная геометрия: Алгоритмы и приложения" (Computational Geometry: Algorithms and Applications); Джозеф О'Рурк. "Вычислительная геометрия в C" (Computational Geometry in C); Франко Препарата и Майкл Шеймос. "Вычислительная геометрия. Введение" (Computational Geometry: An Introduction); Сатоши Ивamoto. "Вычислительная геометрия для программистов" (Computational Geometry for Programmers)(Практическое руководство для программистов, включая код на Python и C++); Herbert Edelsbrunner "Algorithms in Combinatorial Geometry"; Даниэль Алекса и др. "Discrete and Computational Geometry"; Кристоф Майнка и др. "Introduction to Geometric Computing"; Кенетт Ли. "Geometric Tools for Computer Graphics"; Шринивас Девада и Джозеф О'Рурк. "Computational Geometry: Theory and Practice"; Kettner, Mehlhorn, Pion, Schirra, Yap. "CGAL User and Reference Manual"; Медведев И.А. "Алгоритмы геометрического моделирования"; Чистяков В.П. "Вычислительная геометрия и компьютерная графика". Итак, основную роль в Компьютерной геометрии связь между интерактивными возможностями компьютера, теоретическим обоснованием и образным устройством оснований визуализации в геометрии весьма существенна. Поэтому, в такой методике достигается высокий уровень развития визуального мышления по Аринхейму, Дьюи, Шаталову, а изучение условий применимости и эффективного использования программных средств в коммуникационных технологиях на уроках

геометрии в специализированных шолах имеет методические перспективы [4].

ЛИТЕРАТУРА

1. Shamsiddinov N.. The Effectiveness of Information and Communication Technology in Finding the Distance Between Straight Lines Non-Intersecting in Space. International Journal of Mathematics Trends and Technology. Volume-68 Issue-6. 2022.
2. Mario Lucentini Technological Concepts and Mathematical Models in the Evolution of Modern Engineering Systems. Germany, 2012.
3. Аринхейм Р. Искусство и визуальное восприятие. Издательство “Прогресс”. М. 1974.
4. Шаталов В. Ф. Куда и как исчезли тройки : Из опыта работы шк. г. Донецка. — Алма-Ата : Мектеп, 1989. — 134 с; ISBN 5-625-00220-7